

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

R. MAVLONOVA, O. TO'RAYEVA,  
**K. XOLIQLBERDIYEV**

# PEDAGOGIKA

*Kasb-hunar kollejlari uchun darslik*

Ikkinchi nashri



„O'QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI  
TOSHKENT — 2008


Istiqlol tufayli boshqa fanlar qatori pedagogika fani ravnaqida ham buyuk burilish va o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu ish fanni milliy tarbiya asosiga qurish bilan bog'liqdir.

Mazkur darslikda ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan tarbiya an'analari va aqidalari, metod va yo'l-yo'riqlari nazariy jihatdan tahlil qilingan. Ayniqsa, unga milliy istiqlol mafkurasi g'oyalari singdirilgan.

Darslik pedagogika kollejlari o'quvchilari hamda oliy o'quv yurtlarining boshlang'ich ta'lim metodikasi fakultetlari talabalari uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar: O. MUSURMONOVA, pedagogika fanlari  
doktori, professor.  
K. HOSHIMOV, pedagogika fanlari  
nomzodi, professor.  
S. FAYZULINA, pedagogika fanlari doktori,  
professor.  
SH. QURBONOV, 1-Toshkent pedagogika kol-  
leji direktori.

HD 35453  
381



M 4303000000 — 7 Buyurtma varag'i — 2008  
353(04) — 2008

ISBN 978-9943-02-135-8

© „O'qituvchi“ NMIU, 2006  
© „O'qituvchi“ NMIU, 2008



## KIRISH

Istiqlol barcha sohalarda bo'lgani kabi xalq ta'limi sohasida ham buyuk burilishlar qildi. Endilikda milliy pedagogikamiz jadal sur'atlarda taraqqiy etayotir. Ota-bobolarimiz azal-azaldan bola tarbiyasiga alohida e'tibor qaratganlar. Al-Buxoriy, At-Termiziy, Beruniy, Az-Zamaxshariy, Navoiy, Bobur, Ogahiy, Abdulla Avloniy singari ulug' olim-u adiblar, fozil-u fuzalolar ta'lim-tarbiya borasida ko'p asarlar bitganlar. Ular ta'limdagi milliy xususiyatlarga alohida e'tibor berishgan. Mustaqillik yillariga qadar ularning pand-o'g'itlari yetarli darajada o'rganilmadi. Tarixdan ma'lumki, bir vaqtlar Sharq pedagogikasi nihoyatda gullab-yashnagan. Olmon olimi Xerler „Sharq Yevropaning muallimidir“ deganida ana shu rivojlanish davrlarini ko'zda tutgandir, ehtimol.

Bobokalonlarimiz yosh avlod tarbiyasi borasida dorilfunun yaratib qoldirganlar. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi sanalmish „Avesto“ dan tortib to hozirgi kunda yashab ijod etayotgan pedagog-olimlar asarlarida nekbin pedagogik mafkura o'z aksini topgani bejiz emas.

Bugungi kun o'zbek pedagogikasi millat ruhiyatidagi nozik jihatlarni hisobga olgan va dunyo tarbiyashunosligidagi eng so'nggi yutuqlarga tayangan holda taraqqiy etmoqda. Zamonaviy o'zbek pedagogikasida barkamol insonni shakllantirish rasmiy ravishda bosh maqsad qilib belgilangan. Bu pedagogika ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchi va tarbiyalanuvchilarning faol ishtirok etishlarini ko'zda tutadi.

Ma'lumki, pedagogika jamiyatning rivojlanish qonun-qoidalariga tayangan holda taraqqiy etadi. Bugungi kunda esa ana shu jarayon avj pallasiga kirdi. Inson ongi taraqqiy etmas ekan, ijtimoiy hayot jabhalarida hech bir o'zgarish sezilmaydi. Modomiki, zamon jadal sur'atlarda o'zgarayotibdimi, demak, pedagogika ham shu o'zgarishlarga hamohang bo'lmog'i darkor. Shularni nazarda tutgan holda biz ushbu darslikni sharq mutafakkirlari asarlaridan unumli foydalangan holda yaratdik.

„Ta'lim to'g'risida“gi qonun hamda „Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi“da yosh avlodni milliy istiqlol mafkurasi ruhida tarbiyalash,

darsliklar, o'quv-metodik qo'llanmalarni milliy ta'lim-tarbiya an'alariga asoslanib yaratish masalalari ko'tarilgan va shu muammoni hal qilish yo'l-yo'riqlari ko'rsatilgan. Shu ma'noda mazkur „Pedagogika“ darsligida tarbiyaning yangicha usullari va metodlari o'z ifodasini topgan.

Mazkur darslikning I—XXII, XXIV, XXX boblari R. Mavlonova, XXIII, XXV—XXIX boblari O. To'rayeva, XXXI—XXXII bobi esa K. Xoliqberdiyevlar tomonidan yozilgan.

---



## I BOB. PEDAGOGIKA VA UNING ILMIY-TADQIQOT METODLARI

### PEDAGOGIKA VA UNING BAHSI

Pedagogika nima? U nima bilan shug'ullanadi? Nimalarni tadqiq qiladi, degan savollar pedagogika fanini o'rganishga kirishgan odamning aqlini band etadi. Pedagogikaga oid darsliklarda, qomuslarda pedagogikaning bahs tushunchasi turlicha, ayrim hollarda bir-biridan farqlanadigan darajada talqin qilinadi. Masalan, pedagogika — tarbiya haqidagi fan; pedagogika — o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash haqidagi fan; pedagogika — umuman insonni tarbiyalash haqidagi fan va hokazo.

Bu ta'riflardan voz kechmagan holda ta'lim-tarbiya muassasalarida shunga mutasaddi shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tarbiyaviy faoliyatni pedagogikaning bahsi deb qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Pedagogika tarbiya haqidagi fan sifatida tarbiyaning mohiyatini tushunishni, uning qonuniyatlarini ochib berishni va shu orqali inson manfaatlarini uchun tarbiya jarayoniga ta'sir etishni nazarda tutadi.

### TARBIYANING IJTIMOY HODISA EKANLIGI

Tarbiya kishilik jamiyati ibtidosida paydo bo'lgan va bashariyat manfaatlarini uchun xizmat qilib kelgan. Tarbiya avlodlar o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi. Kattalar turmush jarayonida orttirgan tajribalarini o'zidan keyingi avlodga o'rgatib borganlar. Kichik avlod esa o'z faoliyati davomida duch kelgan yangi-yangi muammolarning yechimini topish barobarida bilim va ko'nikmalarni egallab, oldingi avloddan meros qolgan bilimlarni yanada boyitib, o'zidan keyingi avlodga qoldiradi. Insoniyat tarixiy taraqqiyot mobaynida turli ijtimoiy bosqichlarni bosib o'tdi. Formatsiyalarning o'zgarishi natijasida ish va ishlab chiqarish munosabatlari taraqqiy etdi. Bu hol tarbiya jarayonining takomillashib borishiga o'z ta'sirini o'tkazdi.

Jamiyat taraqqiyoti, mehnat qurollarining takomillashishi natijasida keyingi avlodga meros qoldiriladigan tajribalar hajmi ham o'sib boraveradi.

Agar ibtidoiy jamoa tuzumi boshlarida bolalar kattalarning mehnati jarayonida bevosita ishtirok etish bilan malaka, ko'nikma va bilimlarni egallab borgan bo'lsalar, keyinchalik ibtidoiy formatsiyalarning tabaqalanishi natijasida mehnat turlari ham o'zgarib bordi. Ayrim bolalarni (qabila boshliqlarining, diniy marosimlarni boshqaradigan shaxslarning bolalarini) diniy marosimlarni ado etishga o'rgatish zaruriyati tug'ildi. Shunday qilib, ibtidoiy jamoa tuzumidayoq bolalarni tabaqalashtirish an'anasi paydo bo'ldi.

Quldorlik davriga kelib, bu an'ana ko'zga yaqqol tashlandi. Masalan, qullarning bolalari og'ir ishlarni bajarishga o'rgatildi. Quldorlarning bolalari esa qullar ustidan hukmronlik qilishga tayyorlandi. Shu bois ularga saboq berish zaruriyati tug'ildi. Bu esa o'qitishga maxsus, shu sohani biladigan odamlarni jalb etishni taqozo qiladi. Bu hol maktab va o'qituvchilarga bo'lgan zaruratni keltirib chiqardi. Ijtimoiy formatsiyalarning keyingi ravnaqi maktablarni rivojlantirishga, jamiyat taraqqiyoti talabiga javob beradigan yangi-yangi o'quv yurtlarining barpo etilishiga olib keldi.

#### PEDAGOGIKA — TARBIYA HAQIDAGI FAN

Pedagogikaning fan sifatida shakllanishi yosh avlodni hayotga tayyorlash, ular tarbiyasini samarali amalga oshirish ehtiyojidan kelib chiqadi. Bu ehtiyoj borasida orttirilgan tajribalar to'planganidan keyin o'sha tajribalarni umumlashtirish, yoshlar tarbiyasi haqida qonun-qoidalarni ishlab chiqish zaruratini taqozo etadi.

Avvalo pedagogikaning nazariy kurtaklari falsafa negizida paydo bo'ladi. Ba'zi falsafiy fikrlar quldorlik jamiyatidayoq rivojlana boshlagan edi.

Qadimdan inson tarbiyasiga oid fikrlar xalq maqollarida, afsonalarda, dostonlarda o'z ifodasini topgan. Ularda rostgo'ylik, ota-onaga hurmat-ehtirom kabi fazilatlar tarannum etilgan. „Alpomish“, „To'maris“ kabi doston va ertaklarda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ulari ulug'lanadi. Ta'lim va tarbiya masalalari hamisha mutafakkir, yozuvchi, olimlar xayolini band qilib kelgan. Ular o'zlarining bola tabiati, ularni barkamol inson qilib tarbiyalash haqidagi yorqin mulohazalari bilan pedagogika fani ravnaqiga ulush qo'shganlar. Mashhur hind masali „Kalila va Dimna“, Nizomulmulkning „Siyosatnoma“, Nosir Xisravning „Saodatnoma“, „Ro'shnoyinoma“, Yusuf xos Hojibning „Qutadg'u bilik“, Mahmud Koshg'ariyning „Devon-u lug'atit turk“, Ahmad Yugnakiy, Kaykovus, Alisher Navoiyning ko'pgina asarlari odob-axloqqa bevosita daxldordir.

Bu allomalarning asarlari pedagogik fikrlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu asarlarda insonparvarlik, halol mehnat, do'stlik, chin muhabbat, sadoqat kabi yuksak axloqiy fazilatlar o'z aksini topgan. Suqrot, Aflotun, Demokrit kabi buyuk faylasuflar tomonidan murakkab falsafa tizimi yaratilgan.

Pedagogikaning fan sifatida shakllanishida chex pedagog olimi Yan Amos Komenskiyning hissasi katta bo'ldi. Uning „Buyuk didaktika“ asari haqli ravishda pedagogika sohasida yaratilgan birinchi ilmiy asar hisoblanadi. O'n sakkizinchi asrga kelib O'rta Osiyoda ham pedagogik fikrlar taraqqiy eta boshladi. XIX asr boshlarida Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Saidrasul Aziziy, Saidahmad Siddiqiy kabi ma'rifat jonkuyarlari yetishib chiqdi. Bu olimlar yangi usuldagi maktablar tuzish, darsliklar yaratish, xalq o'rtasida ma'rifatni targ'ib etishda jonkuyarlik qildilar.

Pedagogika fanining mazmunini boyitib va rivojlantirib boradigan qator manbalar mavjud. Ayniqsa, maqollar, ertaklar, dostonlar, ashulalar, udumlar va topishmoqlarda tarbiya haqidagi xalq donishmandligi qamrab olingan.

Allomalarning pedagogika nazariyasiga oid fikrlaridan fanda unumli foydalanilmoqda. Shu bilan birga, pedagogika fani yangi g'oyalar evaziga boyimoqda.

## ASOSIY PEDAGOGIK TUSHUNCHALAR

Pedagogikada „tarbiya“ so'zi turli ma'noda ishlatiladi. Chunonchi, tarbiya keng sotsial ma'noda, ijtimoiy hodisa sifatida qo'llanilganda jamiyatning barcha tarbiyaviy vositalarini: oilani, maktabgacha tarbiya muassasalarini, o'quv-tarbiya muassasalarini, mehnat jamoalari, axborot manbalarining tarbiya yo'nalishida olib boradigan harakatlarini o'z ichiga oladi. Bu tarbiya vositalari o'sib kelayotgan yosh avlodning har tomonlama kamol topishiga xizmat qiladi.

Pedagogik adabiyotlarda va amaliyotda „tarbiya“ so'zi aniq, tor yo'nalishni belgilash uchun ham ishlatiladi. Xuddi shu ma'noda tarbiyachi rahbarligida aniq maqsadga qaratilgan jarayon tushuniladi.

**O'qitish** — o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi faoliyati va bu jarayonda bolalarning ma'lumot olishi, o'quv ko'nikma va malakasini egallashi, tarbiyalanib, rivojlanib borishi nazarda tutiladi.

**Ma'lumot** — bunda nafaqat o'qitish, balki mustaqil bilim olish, ommaviy axborotlar ta'sirida bo'lish bilan birga, insonning ilmiy tizimni egallashi, ilmiy dunyoqarashini shakllantirishi ko'zda tutiladi.

**Inson kamoloti** — bu insonning keng ma'noda ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanish jarayonidir. Bu jarayonda tarbiyaning muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi.

**Insonning shakllanishi** — bu insonning hayot yo'li davomida rivojlanishining o'ziga xos shakli bo'lib, maxsus olib boriladigan tarbiyaviy ta'sir natijasi hisoblanadi.

Pedagogikada yana bir qancha tushunchalar mavjudki, ular haqida boshqa boblarni o'rganish jarayonida fikr yuritiladi.

### **PEDAGOGIKA FANINING TUZILISHI VA UNING BOSHQA FANLAR BILAN BOG'LIQLIGI**

Fan va texnikaning tez sur'atlar bilan rivojlanishi, turli yo'nalishlarda bilim hajmining o'sib borishi fanning tabaqalanib, turli tarmoqlarga bo'linishiga sabab bo'lmoqda.

Yaqin o'tmishda falsafadan ajralib chiqqan pedagogika fanida ham ko'pgina tarmoqlarga bo'linish jarayoni ko'zga yaqqol tashlanadi. Ayrim tarmoqlar esa mustaqil fan sifatida shakllanadi. Masalan, maktab pedagogikasi, maktabgacha tarbiya pedagogikasi. Ayrimlari esa fan sifatida endi shakllanib kelmoqda. Kattalar pedagogikasi, oliy maktab pedagogikasi shular jumlasidandir. Hozirgi zamon pedagogikasi ko'p tarmoqli fan bo'lib, avvalo tarbiya ijtimoiy hodisa ekanligi jihatidan pedagogika tarixi bilan bog'lanadi. Pedagogikaning ko'zi ojiz, aqli zaif, qulog'i kar — jismoniy kamchiliklarga ega bo'lgan bolalarni tarbiyalash va ularni hayotga tayyorlash bilan shug'ullanadigan yana bir tarmog'i — maxsus pedagogika (surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofrenopedagogika) defektologiya bilan chambarchas bog'liqdir.

Pedagogika fani tarmoqlariga predmetlarni o'qitishning qonuniyatlarini o'rganuvchi fan — metodika ham kiradi. Shu bilan birga, pedagogika fani boshqa fanlardan ajralgan holda rivojlana olmaydi. Pedagogikaning tarbiya sohasidagi obyekti o'sib kelayotgan yosh avlod bo'lganligi uchun pedagogika insonni o'rganuvchi fanlar bilan bog'liqdir.

Inson biologik evolutsiyaning mahsuli sifatida biologiya fanlarining o'rganadigan obyekti hisoblanadi. Shuning uchun bu fanlar pedagoglar o'rganishi lozim bo'lgan fanlar qatorida o'quv rejalariga kiritilgan.



Pedagogika fanining metodologik asosini falsafa tashkil etadi. Chunki tarbiyaning maqsadi, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish; jamoa va shaxs muammolari va shu kabilar ikki fanni birlashtiradi. Iqtisodiy va, xususan, uning bir bo'lagi bo'lgan xalq ta'limi iqtisodi pedagogika bilan bog'lanib ketadi. Chunki iqtisodchilarning olib borgan tadqiqotlari natijasiga ko'ra, ishlab chiqarishning yuksak samaradorligi umumiy ta'limning yuqori darajada rivojlanganligiga bog'liq ekan.

Pedagogika bola tarbiyasida uning yosh va individual (psixologik) xususiyatlarini hisobga olib boradi. Shu bois pedagogika uchun pedagogik psixologiyaning bola xususiyatlari, ularda o'tadigan psixik jarayonlarning qonuniyatlari haqidagi ma'lumotlar muhimdir. Shunga ko'ra, pedagogikaning psixologiya fani bilan bog'liqligi an'anaviy tus olgan.

Keyingi vaqtlarda pedagogikaning kibernetika (muhim dinamik tizimlarni boshqarishni o'rganadigan fan) bilan bog'lanishi ko'zga tashlanmoqda. Bu holni kibernetikaning umumiy g'oyalaridan ta'limda foydalanish tajribalarini dasturlashtirilgan ta'lim misolida ko'rish mumkin.

Pedagogikaning boshqa fanlar bilan bog'lanish tizimida etnografiya, xalq pedagogikasi kabilar alohida o'rin tutadi.

Pedagogika boshqa oraliq fanlar ma'lumotlaridan tayyor holda foydalanmaydi. Bu ma'lumotlar pedagogik nuqtayi nazardan tanlovdan o'tgandan keyin maqsadga muvofiqlashtirilgan holda amalda joriy etiladi.

## **PEDAGOGIKANING ILMIY-TADQIQOT METODI**

Pedagogika o'z tadqiqot obyektiga va tadqiqot metodlariga ega. Ilmiy tadqiqot barcha fanlar kabi pedagogika fanini ham takomillashib borishiga, ayrim pedagogik hodisalarni tekshirishga, ularni to'g'ri hal etish yo'llarini aniqlashga yordam beradi.

Hodisa uning taraqqiyoti davomida boshqa hodisalar bilan bog'liq holda o'rganiladi. Miqdor o'zgarishi sifat o'zgarishiga o'tish daqiqalarida kuzatiladi.

## **ADABIYOTLAR BILAN ISHLASH METODI**

Pedagogik muammolarni tadqiq etish adabiyotlarni o'rganishdan boshlanadi. O'rganiladigan hujjatlar va manbalarga xalq maorifiga aloqador hujjatlar kiradi. Shu bilan birga, pedagogika faniga oid bo'lgan tarixiy-pedagogik adabiyotlar, arxiv hujjatlari,

pedagogik matbuot materiallari, darsliklar, o'quv-metodik ishlanmalar ham kiradi. Adabiyotlarni o'rganish metodi muammolarning qay tomonlari yaxshi ochilganligini, qaysi masalalar hal etilmagani kabilarni bilish imkoniyatini beradi.

Adabiy manbalar bilan ishlash quyidagi metodlardan foydalanishni nazarda tutadi: bibliografiya tuzish, annotatsiya, konspektlashtirish. Ishning maqsadidan kelib chiqqan holda yuqoridagi usullardan biri tanlab olinadi.

Bibliografiya — bu hal etilishi lozim bo'lgan muammoni tadqiq etish jarayonida zarur bo'lgan adabiyotlar ro'yxati. Adabiy manbalar bilan ishlash aniq ma'lumotlarni bibliografiya tuzish yo'li bilan rasmiylashtirishni talab etadi. Bunda ma'lumotlar muallifning ism-sharifi, asarning nomi, nashriyot nomi (maqolalar uchun jurnal va gazetalarning nomi), manzili va nashr etilgan yili ko'rsatiladi.

### ILG'OR TAJRIBALARNI O'RGANISH METODI

Pedagogikaning ko'pgina muammolarini hal etishda ta'lim-tarbiya sohasida orttirilgan tajribalarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilg'or o'qituvchilar tajribasi bilan bir qatorda, oddiy o'qituvchilarning faoliyatlari ham o'rganib boriladi. Chunki tajribalarni o'rganish jarayonida muammo, yutuq va kamchiliklar aniqlanadi.

Pedagogik tajribalarni o'rganishda kuzatish, intervyu olish, anketalar tarqatish, o'quvchilarning yozma va ijodiy ishlari, pedagogik hujjatlarni o'rganish metodlaridan foydalaniladi.

**Kuzatish** — o'rganish lozim bo'lgan pedagogik hodisani ma'lum maqsad nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda kuzatuvchi kuzatish bayonnomasini olib boradi. Kuzatish obyektiga oid bo'lgan aniq faktik material tayyorlanadi. Kuzatish belgilangan aniq reja asosida olib boriladi.

**Suhbat** (fakt) dalillar to'plash yoki kuzatish davomida to'planagan materiallarga aniqlik kiritish maqsadida olib boriladi. Suhbat tadqiqotning mustaqil yoki yordamchi metodi sifatida qo'llaniladi.

**Anketalar tarqatish.** Bu ommaviy ravishda material to'plash maqsadida anketalar tarqatish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Tadqiqot uchun muhim bo'lmagan materiallar o'quvchilarning yozma va bir qancha fanlar bo'yicha mustaqil ishlarni bajargan daftarlarini tekshirish, o'rganib chiqish yo'li bilan turlarga ajratilishi mumkin.

**Maktab hujjatlarini o'rganish** — o'quvchilarning shaxsiy varaqalari, metodistning to'plagan ma'lumotlari, sinf jurnallari, kundaliklar, yig'ilish va majlislar bayonnomalari tadqiqoti uchun olib borilayotgan ta'lim-tarbiyaning ahvoli, darajasi haqida obyektiv axborot manbai hisoblanadi.

Pedagogik hodisalarni tadqiq qilish jarayonida eksperiment (sinov) muhim ahamiyat kasb etadi. Maxsus tashkil etilgan eksperiment qo'llanilayotgan yoki qo'llanishi mumkin bo'lgan u yoki bu metod va usullar samaradorligini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi.


**Matematik metod.** Bu metod ommaviy materiallarni tahlil qilishda (masalan, anketalar tarqatish yo'li bilan to'plangan materiallarni yoki ma'lumotlarni umumlashtirish uchun) qo'llaniladi. U eksperiment natijalarining aniq baholanishini, xulosalarning ishonchli bo'lishini ta'minlaydi.

**Tadqiqot natijalari va ularni amalda tatbiq etish.** Pedagogikada bu jarayon turli yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Chunonchi, tadqiqotchilarning seminarlarda, ilmiy konferensiyalarda tadqiqot natijalari bo'yicha ma'ruzalar bilan chiqishi, ilmiy maqolalar, kitoblar nashr etilishi, o'qituvchiga mo'ljallangan metodik tavsiyalar bo'lishi mumkin. Pedagogikada hali hal etilmagan muammolar juda ko'p. Bular ilmiy tadqiqot olib borish yo'li bilan hal etiladi.

## ? *Savol va topshiriqlar*

1. „Pedagogika“, „tarbiya“ kabi tushunchalarga ta'rif bering.
2. Xalq maqollari va ertaklarining pedagogik ahamiyati nimada deb o'ylaysiz?
3. Pedagogik hodisalarni tadqiq etishda qanday tadqiqot metodlarini bilish, ulardan foydalana olish kerak?
4. Nima uchun o'qituvchi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalana olishi kerak?
5. Siz qanday jurnal va gazetalar xarid qilib olasiz? Ularda bosilgan tarbiyaga oid maqolalarni diqqat bilan o'qing va tahlil qilib bering.





## **II BOB. HAR TOMONLAMA RIVOJLANGAN INSON TARBIYASINING MAQSAD VA VAZIFALARI**

### **YOSH AVLOD TARBIYASIDA AXLOQIY MALAKA VA KO'NIKMALARNI TARKIB TOPTIRISH**

**Tarbiyaning maqsadi.** Tarbiya ijtimoiy hodisa ekanligi xususida fikr yuritganda, uning aniq maqsadga yo'naltirilgan hodisa ekanligi ta'kidlanadi. Inson kamolotiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu omillar ichida tarbiya muhim va yetakchi o'rinda turar ekan. Haqli savol tug'iladi: tarbiyaning maqsadi nima? Uning maqsadini kim va nima belgilab beradi?

Tarbiyaviy ishning samaradorligi mana shu savollarga to'g'ri javob topishga bog'liq. Ya'ni, birinchi navbatda, tarbiya bilan shug'ullanadigan har bir tarbiyachi, avvalo, o'z faoliyatini va unda ko'zda tutilgan maqsadni aniq tasavvur eta olishi, bu maqsadning muhimligini tushunishi lozim. Demak, qanday odamni tarbiya qilish darkor, tarbiya natijasida inson qanday bo'lishi kerak, degan savollarni avvaldan tasavvur etish zarur ekan. Bu maqsad jamiyatning komil insonni tarbiyalashdek maqsadiga mos kelishi kerak.

Tarbiyaning vazifalari keng va ko'p qirralidir. Ta'limning asosiy vazifasi o'qituvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish bo'lsa, tarbiya yosh avlodda jamiyatimizda qabul qilingan odob-axloq qoidalariga mos keladigan e'tiqodni, axloqiy malaka va ko'nikmalarni, ehtiyoj va intilishlarni tarkib toptirishdan iborat. Tarbiyashunos olim Abdulla Avloniy o'zining „Turkiy gulliston yoxud axloq“ asarida inson kamolotida tarbiyaning o'rmini alohida ta'kidlab, shunday degan edi: „Janobi Haq insonlarning asl xilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomoni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradigan qilib yaratgan. Lekin bu insondagi qobiliyatni kamolga yetkazmoq tarbiya vositasida bo'ladi. Agar bola yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqdan saqlanib, go'zal xulqlarga odatlanib katta bo'lsa, baxtiyor bir inson bo'lib chiqadi. Agar tarbiyasiz, axloqi buzilib o'ssa, nasihatni qulog'iga olmaydigan, har xil buzuq ishlarni qiladigan nodon, johil, bir rasvoyi odam bo'lib chiqadi“.

Axloqimiz binosining go'zal va chiroyli bo'lishida tarbiyaning ta'siri kattadir. Yuqorida biz, tarbiyadan maqsad — barkamol insonni tarbiyalash, degan edik. Xo'sh, barkamol inson deganda kimlarni tushunmoq kerak?

Sharqona tarbiya ming yillar mobaynida islomiy axloq qoidalari asosida tarkib topib borgani tarixdan ma'lum. Qur'oni Karim oyatlari, Payg'ambar alayhissalom hadislarini, ulamo va hukamolarning kitoblari tarbiyamizning manbaya bo'lib xizmat qilgan. Islomiy tarbiya musulmonlar hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan.

Islomiy tarbiya bolani yetti jihatdan tarbiyalashni maslahat beradi. Bular: sog'liq va badan tarbiyasi, aqliy tarbiya, nafosat tarbiyasi, axloqiy tarbiya, vijdoniy-nafsoniy tarbiya, diniy-ruhiy tarbiyadir.

Rasululloh sallallohu alayhi vasallam „Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga, tarbiyasini, odobini ham yaxshilanglar!“ deganlar. Shu bilan birga, „Hech bir ota o'z farzandiga xulq-odobdan yaxshiroq meros qoldirolmaydi“ deb, tarbiyada otanonaning rolini belgilab o'tganlar.

Islomiy (sharqona) tarbiya barcha mo'min-u musulmonlarni nihoyatda xush xulqli, shirin so'zli, oliyanob bo'lishga da'vat etadi.

Bir rivoyatda yaxshi tarbiya ko'rganing o'nta nishonasi sanab o'tiladi:

1. Xalq to'g'ri deb topgan narsaga noto'g'ri deb qaramaslik.
2. O'z nafsiga insof berishni so'rash.
3. Boshqalardan ayb qidirmaslik.
4. Birovda yomonlik sodir bo'lsa, uni yaxshilikka yo'yish.
5. Agar gunohkor uzr so'rasa, uning uzrini qabul qilish.
6. Muhojirlar hojatini chiqarish.
7. El g'amini yeyish.
8. O'z aybini tan olish.
9. El bilan ochiq yuzli bo'lish.
10. Odamlar bilan shirin muomalada bo'lish.

Turli tarixiy davrlarda tarbiyaning maqsadi ham, xususiyati ham o'zgarib boradi. Buni ibtidoiy jamoa, quldorlik, feodalizm va kapitalizm formatsiyalari misolida ham ko'rish mumkin. Ibtidoiy jamoa tuzumida tarbiyaning maqsadi oddiy bo'lib, shunchaki insonning hayot kechirishini ta'minlashga xizmat qilgan.

Quldorlik tuzumida quldorlar va qullarning paydo bo'lishi tarbiyaning xususiyati va maqsadini ham o'zgartirdi. Quldorlarning bolalari hukmron bo'lishga intildilar, bosqinchilik urushlari olib borish uchun harbiy san'atni o'rganib bordilar. Qullarning bolalari oddiy qora ishni bajarish, mehnat jarayonida ishtirok etishga o'rgatildi.

Feodalizm tuzumiga kelib tarbiya keskin tabaqalana boshladi. Ishlab chiqarish kuchlarining rivoj topa borishi ta'lim mazmunini o'zgartirib yubordi, ta'lim sekin-asta ilmiy xarakter kasb eta boshladi, bu, o'z navbatida umumiy ta'lim kurtaklarining paydo bo'lishiga olib keldi. Endi feodal bolalariga ilmiy bilimlar berish, ularni maxsus maktablarda tarbiyalash zarurati tug'ildi.

Kapitalizmga kelib tarbiyaning tabaqalanish xususiyati yana kuchliroq sezila boshladi. Ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlarining rivojlanishi, ishlab chiqarish korxonalarida ishlash, dastgohlarni boshqarish, ish unumdorligini oshirish ishchilardan savodxonlikni, ilmi bo'lishni talab etdi. Bu davrga kelib ishchilarning bolalariga ham birmuncha ilm berish, o'qish davrida ularga shaxsiy mulkni muqaddas ekanligini uqtirib borish tarbiyaning asosiy maqsadi bo'lib qoldi.

**Aqliy tarbiya.** Inson hamisha odamlar qurshovida yashaydi, ijtimoiy muhit sharoitida uning aqliy rivojlanishi, fikrlash qobiliyati amalga osha boradi. Bunda insonning normal jismoniy rivojlanishi uchun sharoitlar bo'lishi kerak.

Insonning aqliy rivojlanishi sotsial muloqot va tarbiya ta'sirida intensiv rivojlanib boradi. Agar tarbiyachi o'z vaqti va o'rnida rejali ravishda uning bilish faoliyatiga ta'sir ko'rsata borsagina aqliy rivojlanish muvaffaqiyatli ko'chadi. Demak, aqliy tarbiya deganda tarbiyachining o'quvchilar aqliy kuchini va tafakkurini rivojlantirish, unda aqliy mehnat madaniyatini tarkib toptirishga qaratilgan maqsad yo'lidagi faoliyati tushuniladi.

Aqliy tarbiya ijtimoiy tarbiya tizimining bir qismi bo'lib, uning mazmuni barcha fanlar bo'yicha bilimlar sistemasini bilib olishni va shu asosda yoshlarda ilmiy dunyoqarashni tarkib toptirish, tafakkur va nutq qobiliyatini o'stirishdan iboratdir.

Aqliy tarbiya barcha fanlardan umumiy ma'lumot berish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda o'quvchilarga maktab dasturlari asosida bilim berilib, ularga xotira, diqqat, fikrlash, tasavvur qilish kabi xislatlar taraqqiy ettiriladi.

Abu Nasr Forobiy inson aql-zakovati xususida fikr yuritib, bunday deydi:

„1. Barcha masalani: muhokama va mulohazani tezda tushuna oladigan, uning ma'nosini anglaydigan, so'zlovchining maqsadi, aytilgan fikrining chinligini tezda payqay oladigan bo'lsin.

2. Xotirasi juda baquvvat bo'lsin, ko'rgan-eshitgan, sezgan narsalarining birontasini ham esidan chiqarmay, yodda saqlab qoladigan bo'lsin.

3. Zehni shu daraja tez va o'tkir bo'lsinki, biror narsaning alomatini sezishi bilan bu alomat nimani bildirishini tezda bilib olsin.

4. So'zlari aniq bo'lsin, fikrini va aytmoqchi bo'lgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin.

5. Bilim va o'qishga muhabbati bo'lsin, o'rganmoqchi bo'lgan bilimini charchashni sezmasdan osonlik bilan o'zlashtira olsin“<sup>1</sup>.

Aqliy tarbiya shaxsni har tomonlama kamol topishining asosini tashkil etadi. U mehnat unumdorligini oshiradi va mehnatga ijodiy munosabatni tarkib toptiradi.

**Axloqiy tarbiya.** Axloq — ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblanib, har bir kishining jamiyat va oiladagi yurish-turishi tartib-qoidalarining yig'indisi sifatida gavdalanadi. Xulosa qilib aytganda, insonning tevarak-atrofdagi voqea va hodisalarga bo'lgan munosabatidan uning axloqi namoyon bo'ladi. Xalqimiz axloqiy fazilatlarini qadim zamonlardan beri boyitib kelgan. Axloq-odobga oid fikrlar „Avesto“ kitobida, qadimgi bitiklarda, pandnomalarda va boshqa yozma manbalarda o'z ifodasini topgan.

O'tmishdagi ulug' allomalarning axloq haqidagi ko'plab fikr-mulohazalari bugungi kunda ham muhim tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotgan emas.

Jumladan, qomusiy olim Abu Nasr Forobiy axloqiy fazilatlar haqida gapirar ekan, uning xislatlari haqida quyidagi fikrlarni bildiradi:

„1. Bunday odamning barcha a'zolari shu darajada mukammal taraqqiy etgan bo'lishi kerakki, u bu a'zolari bilan bajarmoqchi bo'lgan barcha ishlarni osonlik bilan amalga oshira olsin...“

2. Ovqatlanishda, ichimlik iste'mol etishda ochko'z bo'lmasin, tabiati qimor o'yinlarini o'ynashdan uzoq bo'lsin va ular keltiradigan „xursandchilik“lardan jirkanadigan bo'lsin.

3. Haqiqatni va haqiqat tarafdorlarini sevadigan bo'lsin, yolg'on va yolg'onchilarga nafrat bilan qaraydigan bo'lsin.

4. G'ururi va vijdonini qadrlaydigan bo'lsin, uning ruhi o'z tabiati bilan past ishlardan yuqori va oliyjanob ishlarga ishlatiladigan bo'lsin.

5. Dirham, dinor va shu kabi turmush buyumlariga jirkanish bilan qarasin.

6. O'z tabiati bilan adolatni sevadigan va adolat uchun kurashuvchi, adolatsizlikka, jabr-zulm o'tkazuvchilarga nafrat bilan qaraydigan bo'lsin... adolatli bo'lsin...“

## 7. Adolatli bo'lsin, ammo qaysar bo'lmasin...“<sup>1</sup>

Inson shaxsining kamoloti uning butun umri davomida amalga oshib boraveradi. Bu fazilat insonning boshqalar bilan bo'lgan muomalasida, voqelikka, jamiyatga bo'lgan munosabatida va uning xatti-harakatlarida, fe'l-atvorida namoyon bo'ladi.

Axloqiy tarbiya, umuman olganda, tarbiyachilar tomonidan tarbiyalanuvchilarda axloqiy tasavvurlar tizimini shakllantirishni, axloqiy his-tuyg'ularni, voqea va hodisalarga to'g'ri munosabat bildira olish kabilarni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Insonning axloqiy qiyofasi butun umri davomida shakllanib boradi. Inson onadan mehnatsevar ham, dangasa ham, johil ham bo'lib tug'ilmaydi — bu va shunga o'xshash axloqiy sifatlar bolani o'rab olgan ijtimoiy muhitning, tarbiyaning ta'siri hisoblanadi.

„Tarbiya ikki negizga — axloq va oqillikka tayanmog'i lozim. Birinchisi yaxshi fazilatni o'stirsa, ikkinchisi o'zgalar illatidan himoya qiladi. Demak, tarbiya ham axloqqa, ham insoniy munosabatlarga, asrlar osha xalq tajribasidan sinovdan o'tib, o'zining umrboqiyiligini isbotlagan qadriyatlarga, an'ana va urf-odatlariga bog'lansagina kuzatilgan natijaga olib keladi“<sup>2</sup>.

**Jismoniy tarbiya.** Jismoniy tarbiya inson kamolotiga ta'sir etadigan eng qadimiy tarbiya vositalaridan hisoblanadi. Umumta'lim maktablarida amalga oshiriladigan jismoniy tarbiyaning asosiy vazifalari o'quvchilarning salomatligini mustahkamlash, ularni mehnatga, mustaqil mamlakatimizni himoya qilish va ijtimoiy hayotga tayyorlashdan iborat.

Maktabda o'quvchilarga jismoniy tarbiya harakatli o'yinlar, gimnastika, sinfdan va maktabdan tashqari sport mashg'ulotlari turlari vositasida beriladi.

Boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya darslaridan ko'zda tutilgan maqsad, asosan, bolalarni o'z qaddi-qomatini to'g'ri tutishga, muhim harakatlarni (yurish, sakrash, yugurish) to'g'ri bajarishga odatlantirish va buyumlar bilan mashq bajarishga o'rgatishdan iborat. Eng muhimi, bolalarga salomatligi haqida o'zi g'amxo'rlik qilishi zarur ekanligi to'g'risidagi fikrni singdirishdir. Chunki inson salomatligi, jismoniy barkamolligi nafaqat uning shaxsiy ishi, balki bu davlat ahamiyatiga molik vazifa hamdir.

<sup>1</sup> Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent. 1993- y.

<sup>2</sup> M. Temurova. Boshlang'ich ta'lim jurnali. 9—12- sonlar. 1995- y.



**Mehnat tarbiyasi.** Mehnat tarbiyasi oldida turgan asosiy vazifa o'quvchilarga mehnat ta'limiga oid ilmiy bilimlar berish, mehnat qurollari bilan muomala qilishga o'rgatib, hayotga, ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlashdir. Bu vazifalarni ikki turkumga ajratish mumkin. Birinchidan, mehnatga bo'lgan munosabat jarayonidagi zarur bilim va ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Yoshlarda xalqi, vatani manfaati yo'lida mehnat qilish xohishini tarbiyalab, mehnatga hayotiy zarur faoliyat deb qarashlarini tarkib toptirishga erishiladi. Ikkinchidan, guruh vazifalari, mehnat faoliyatini bajarish jarayonida zarur bo'ladigan bilimlar o'zlashtiriladi, fan asoslari, politexnik ta'lim o'rganiladi.

Mehnat tarbiyasi tushunchasi umumiy bo'lib, bu tushuncha bir qancha xususiy tushunchalarni o'z ichiga oladi. Bulardan birinchisi: politexnik ta'lim, bu ishlab chiqarishning barcha sohalariga taalluqli bo'lgan ilmiy asoslarni va prinsiplarni, mehnat ko'nikma va malakalari, oddiy mehnat qurollari bilan muomala qilish kabilarni o'zlashtirishni taqozo qiladi.

Ikkinchisi: bu umumiy mehnat. Umumiy mehnat o'quvchilarni mahsulot ishlab chiqariladigan faoliyatga jalb etilishini taqozo qiladi. Uchinchisi: ijtimoiy-foydali mehnat. Bu mehnat turi ko'pchilik foydasiga ishlashni nazarda tutadi (temir-tersak, makulatura yig'ish, sinf, maktabni ta'mirlashga yordam berish, maktab uchastkasida ishlash). To'rtinchisi: o'z-o'ziga xizmat qilish. U maishiy xizmat turiga kirib, sinf, maktab ozodaligini saqlash, o'zining ish joyini, kiyim-kechagi, o'quv qurollarini ozoda, tartibli saqlashni nazarda tutadi. Beshinchisi: uy mehnati, bu ham maishiy mehnat turiga kirib, uyda ozodalikka rioya qilishni, ota-onaga uy ishlarida yordam berishni taqozo qiladi.

**Estetik tarbiya.** Estetik tarbiya san'atdagi, tabiatdagi, qurshab olgan hayot voqeligidagi go'zallik vositalari asosida tarbiyalash bo'lib, jahon pedagogikasida insonni *garmonik* tarbiyalash vositalaridan biri deb hisoblab kelingan.

Estetik tarbiyaning asosiy vazifasi tabiatdagi, san'atdagi, hayotdagi go'zallikni qabul qila olish, tushunish qobiliyatini tarbiyalash, fahmlash, go'zallikka rioya qilishga odatlantirishdan iborat. Estetik tarbiya davomida bola hayotdagi go'zallikni tushunadi, go'zallikni muhofaza qilishga, o'zi ham go'zallik yaratishga intiladi.

Umar Xayyom go'zallik, uning xosiyati xususida fikr yuritib, shunday deydi: „Go'zallik barcha tillarda vasi

aqlga xush keladi. Dunyoda yaxshi narsalar ko'p, ularni ko'rib bahramand bo'lish odamlarni shod etadi va tabiatlarini pokiza qiladi, ammo hech narsa go'zal yuzning o'rnini bosolmaydi, chunki go'zal yuz shunday quvonch baxsh etadiki, boshqa hech qanday quvonch unga teng kela olmaydi. Aytadilarki, go'zal yuz dunyoda saodat sababchisidir.<sup>1</sup>

Estetik tarbiya o'quvchilarda axloqiy qiyofa, ijobiy xulq-atvor normalarini tarkib toptirishga, ularning ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirishga ta'sir qiladi.

Boshlang'ich maktabda ashula, rasm, musiqa, o'qish darslari, shu bilan birga, sinfdan va maktabdan tashqari tashkil etiladigan tadbirlar estetik tarbiya vositasi hisoblanadi.

### ? Savol va topshiriqlar

1. Tarbiyaning asosiy vazifalari nimadan iborat?
2. Komil inson deganda Siz qanday fazilatlariga ega bo'lgan insonni tushunasiz?
3. Sharqona tarbiyaning manbalarini sanab bering.
4. Sharq rivoyatlarida uchraydigan yaxshi tarbiya ko'rgan insonlarning xislatlarini aytib bering.
5. Hozirgi kunda ta'lim-tarbiyaning ahamiyati nimalarda ko'rinadi?



---

<sup>1</sup> U. Xayyom. Navro'znoma. Toshkent. 1990- y.



### **III BOB. BOLA SHAXSINING RIVOJLANISHI, TARBIYASI VA KAMOLOTI**

#### **ASOSIY TUSHUNCHALAR**

Pedagogika kursining muhim metodologik muammolaridan biri bu shaxs tarbiyasi va uning rivojlanishi muammosi hisoblanadi.

O'sib va rivojlanib boruvchi inson tarbiya obyekti hisoblanadi. Butun hayoti davomida insonning rivojlanish jarayoni davom etaveradi. Bu jarayonda u turli o'zgarishlarni, jismoniy, ruhiy, miqdor va sifat o'zgarishlarni o'z boshidan kechirib boradi. Insonda bo'ladigan jismoniy o'zgarishlarga — bo'yining o'sishi, vaznining og'irlashib borishi, suyak va mushak tizimlarining, ichki a'zolari va asab tizimining o'zgarib borishi kiradi. Ruhiy o'zgarishlar esa uning aqliy rivojiga aloqador bo'ladi va insonda ruhiy sifatlarning shakllanib borishi, unda hayot uchun zarur bo'lgan sotsial sifatlarning tarkib topishi hisoblanadi.

Odam bolasining rivojlanishi — bu muhim jarayon sanaladi. Ma'lumki, hayot davomida inson jismoniy va ruhiy tomondan o'zgarib boradi. Lekin bolalik, o'smirlilik va o'spirinlik davrida rivojlanish nihoyatda kuchli bo'ladi. Bola mana shu yillarda ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan o'sishi, o'zgarishi tufayli shaxs sifatida kamolga yetadi, bunda berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq ta'sir etishi natijasida bola jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi.

Odamning munosabatlari doirasiga kishilar bilan aloqasigina emas, balki tabiatga, hayotga bo'lgan munosabatlari ham kiradi. Mana shu xil ko'p qirrali aloqalar va munosabatlar zaminida har bir shaxs o'z qobiliyati va qiziqishini, o'z bilimi va uquvini namoyon qiladi, o'z ishiga, vazifasiga, burchiga, xalqiga, Vataniga, o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarini ifodalaydi. Tabiiyki, shaxsdagi bu fazilatlar faqat tarbiyaning mahsulidir.

Shaxsning kamol topishida va uning xulqiga ijtimoiy va biologik omillarning ta'sir kuchi hamisha bir xil bo'lavermaydi. Sababi odamning xulqiga, munosabatiga va aloqalariga yoshi, bilimi, hayotiy tajribasi, odatlari va nihoyat, vaziyat ham ta'sir etadi. Shaxsning fazilatlarini to'g'ri aniqlash va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar doirasida, turli vaziyatlarda kuzatib ko'rish lozim. Shundagina shaxsning ijtimoiy xulqi, ma'naviy qiyofasi, insoniy fazilatlarini ro'yobga chiqadi. Demak, shaxsni rivojlantirish

vazifasini to'g'ri hal qilish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillarni, bu omillarning tabiatini, shaxsning xususiyatini yaxshi bilmoq kerak.

Pedagogikada „Shaxs“ tushunchasi „Inson“ tushunchasidan farqli o'laroq, insonning ijtimoiy xususiyatlarini anglatadi. Yangi jamiyat boshqa odamlar bilan muomalada bo'lishi, munosabat o'rnatishi natijasida shakllanib boradigan sifatlarni bildiradi. Inson ruhiy xususiyatlarining rivojlanishi (aql, idrok, diqqat, harakat va h. k.), hayotda o'z o'rnini topa olishi, uning Vatan, xalqning ravnaqi yo'lida og'ishmay, e'tiqod bilan xizmat qilishi, imonli bo'lishi insonni shaxs darajasiga ko'taradi. Bunday sifatlarning ro'yobga chiqishi tarbiyaga bog'liq bo'ladi.

Bolaning kamolotiga, ruhiyatiga, fe'l-atvori shakllanishiga qanday omillar ta'sir etadi? Bola tarbiyasiga, uning shakllanishiga biologik omil, ijtimoiy omil va tarbiya ta'sir etadi. Bu muammo pedagogikada avvaldan munozaraga sabab bo'lib kelayotgan masala hisoblanadi.

Ko'p asrlik shu munozara zaminida bir-biriga qarama-qarshi ikki nuqtayi nazar vujudga keldi. Ulardan bir toifasi odam bolasi-ning shaxs sifatida rivojlanishida tabiiy — biologik omillar hal qiluvchi rol o'ynaydi deb biladilar. Ularning fikricha, bola ona qornidalik vaqtida avlod-ajdodlardan o'tgan tug'ma xususiyatlarigina rivojlanadi. Bu nuqtayi nazar tarafdorlari tarbiyaning rolini cheklab qo'yadilar. Bu nuqtayi nazar fanda *biologik yo'nalish* deb nomlanadi. Ularning vakillari Aristotel, Platonlarning fikrlaricha, taqdir, tole har kimning hayotidagi o'rnini, mavqeyini avvaldan belgilab bergan.

XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyandalarning fikricha, odam bolasi ona pushtidaligidayoq bo'lajak shaxsiga xos barcha xususiyatlarga ega bo'ladi, rivojlanish esa ana shu xususiyatlarning miqdoriy ko'payib borishidan iboratdir. Preformistlar ham naslning shaxs rivojlanishidagi roliga favqulodda yuksak baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini mutlaqo inkor etadilar. Bu nazariyaning yana bir yo'nalishi XX asrda keng tarqalgan *bixeviorizm oqimi* bo'ldi.

Bixeviorizm oqimiga amerikalik pedagog va psixolog E. Torandayk asos soldi. Uning fikricha, shaxsning barcha xususiyatlari, shu jumladan, ong va aqliy qobiliyat ham nasldan naslga o'tadi. Bu bilan E. Torandayk tarbiyaning shaxs rivojlanishiga ta'sirini inkor etadi, uni shaxsning xususiyatlariga ta'sir etishdan ojiz deb biladi.

Xuddi shunday nuqtayi nazarni yana bir amerikalik pragmatik pedagog D. Dyui va A. Komboslar yoqlab chiqadilar. Ular

tarbiyaning shaxsga bo'ladigan faol ta'sirini inkor etib, rivojlanishni faqat miqdoriy o'zgarishdan iborat deb ko'rsatadilar. Odam qanday sifatlar bilan tug'ilgan bo'lsa, tarbiya jarayonida bilim olish, ko'nikma va malaka hosil etishi natijasida xuddi ana shu sifat va xususiyatlar rivojlanib boradi, degan fikrni ilgari suradilar. Ammo psixologiya va pedagogika fanlarining keyingi yillardagi inson tarbiyasiga, kamolotiga oid ilmiy ma'lumotlari odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishiga, kamolotga yetuviga murakkab jarayon deb hisoblashga imkon beradi. Uning shaxs bo'lib kamolga yetishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit hamda maqsadga muvofiq amalga oshiriladigan tarbiya alohida rol o'ynaydi. Bu ilmiy ma'lumotlar shaxsni tabiatning bir bo'lagi deb qarashga imkon yaratadi. Shunga ko'ra, unda tabiiy kuch va imkoniyatlar bor, ular shaxsning rivojlanishi uchun ma'lum ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu insondagi layoqat kurtaklari bo'lib, uning rivojlanishi uchun tarbiya kerak, deb ta'kidlanadi.

O'rta Osiyo mutafakkirlaridan Forobiy, Abu Ali ibn Sinolar ham inson tarbiyasiga ta'sir etadigan omillar ahamiyatiga e'tibor berib kelganlar. Forobiy inson kamolotida ta'lim-tarbiyaning muhimligini ta'kidlab: „Munosib inson“ bo'lish uchun odamda ikki imkoniyat: ta'lim va tarbiya olish imkoniyati bor. Ta'lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya esa kishilar bilan muloqotda axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo'ldir...“ deydi.

Abu Ali ibn Sino etika va axloqiy tarbiya masalalarini falsafiy-pedagogik asosda yoritib berishga harakat qilgan. U, ayniqsa, oila tarbiyasida ota-onaning o'rniga alohida to'xtalib: „Bola tug'ilgach, avvalo, ota unga yaxshi nom qo'yishi, so'ngra esa uni yaxshilab tarbiya qilishi kerak... Agar oilada tarbiyaning yaxshi usullaridan foydalanilsa, oila baxtli bo'ladi“ degan fikrni ilgari suradi.

Shunday ekan, inson kamolotiga ta'sir etadigan omillarning birortasini ham inkor etmagan holda ularni alohida-alohida ko'rib chiqaylik.

## **SHAXSNI SHAKLLANTIRISH VA KAMOL TOPTIRISH TUSHUNCHASI**

Shaxsni shakllantirish — uning o'sishi, qandaydir yangi xususiyat va fazilatlariga ega bo'lish jarayonidir. „Shakllantirish“ tushunchasi „tarbiyalash“ tushunchasiga nisbatan kengroq bo'lib, u shaxs va jamoaning tarkib topishiga ta'sir ko'rsatadigan hamma narsani, shu jumladan, maqsadga muvofiq jarayonlar (o'qitish, tarbiya-

lash, ta'lim berish) ni ham, maqsadga nomuvofiq jarayonlar (shaxs va jamoaning o'z ichki tabiati, atrofdagi kishilar, narsalar, tabiat hodisalari va hokazolarning ta'siri)ni ham o'z ichiga oladi. „Shakllantirish“ va „tarbiyalash“ tushunchalari jiddiy chegaralansa, insonni tabiat hodisalari tarbiyalaydi, deb bo'lmaydi. Insonni faqat kishilar tarbiyalaydi, tabiat hodisalari shaxsni shakllantirishi mumkin, ammo uni tarbiyalay olmaydi.

Shaxs ijtimoiy munosabatlar, shu jumladan, tarbiya omili, ijtimoiy, ishlab chiqarish, madaniy, ilmiy faoliyat va shaxsiy aloqalar omilidan iborat tashqi omillarning hamda biologik va psixologik omildan iborat ichki omillarning ta'siri natijasida shakllanadi.

Shaxs shakllanishining asosi uning faoliyati bo'lib, bu faoliyat doimo o'zini bajaruvchiga nisbatan shakllantiruvchi, o'zini vujudga keltirgan yoki tashkil etgan shaxsga nisbatan shakllanuvchi bo'ladi.

Jamoaning shakllanishi ham tashqi omillar — ijtimoiy munosabatlar, tarbiya va atrofdagi jamoalarning hamda ichki omillar — jamoa ichidagi munosabatlar, aloqalar va hokazolarning ta'siri natijasida amalga oshadi. Hamkorlikdagi faoliyat va jamoaviy munosabatlar tajribasining to'planishi jamoani shakllantiradigan asosiy va bosh kuchdir.

Takomillashuv — qarama-qarshiliklarning birligi va kurashuvdir, ana shu birlik hamda kurash natijasida ro'y beradigan o'z-o'zidan harakatlanishidir.

Shaxsning va jamoaning takomillashuvi ham qarama-qarshiliklarning birligi hamda kurashi natijasida amalga oshadigan o'z-o'zidan harakatlanishdir. Shaxs va jamoani shakllantirishda ham doimo shaxsni va jamoani takomillashtirish nazarda tutiladi.

Shaxs va jamoa takomillashuvining samarasi ularning holatidagi sifat o'zgarishidir.

Shaxs takomillashuvining manbayi ziddiyatlar va ularni qondirish yo'llari o'rtasidagi ziddiyatlardir. Jamoa takomillashuvining manbayi ham ziddiyatlar hisoblanadi. Psixologlar juda ko'p ziddiyatlarni, shu jumladan, shaxslar va jamoalarning manfaatlari o'rtasidagi, rahbarlarning jamoaga qo'yadigan talablari bilan jamoaning ana shu talablarni bajarishi orasidagi ziddiyatlarni hal qilishi kerak.

## **SHAXS RIVOJLANISHIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR**

Bola shaxsining rivojlanishiga irsiyat, muhit va tarbiya kabi omillar ta'sir etadi. Bola shaxsining rivojlanishiga naslning ta'siri deganda,

ota-onalarga o'xshashlikni ifodalovchi biologik belgilarning takrorlanishini tushunmoq kerak. Har bir bola ota-onasidan meros shaklida ba'zi biologik sifatlar (tananing tuzilishi, sochini, ko'zining, terisining rangi, bo'yi-basti va boshqalar) ega bo'lgan holda dunyoga keladi. Bular jismoniy xususiyatlardir. Oliy nerv faoliyatining xususiyatlari ham tug'ma o'tadi. Bu fiziologik xususiyat hisoblanadi.

Akademik I. P. Pavlov ta'limotiga ko'ra bola bir qator tug'ma xususiyat va instinktlarga ega holda tug'iladi va bular shartsiz reflekslar guruhini tashkil etadi. Bular orasida oshqozon refleksi (so'lak ajratish), muhofaza refleksi (issiqdan qo'lni tortish, yorug'dan ko'zini qisish) kabilar alohida ahamiyat kasb etadi. Ammo bu xususiyatlar insonga ham, hayvonga ham taalluqlidir. Ayni vaqtda insonlarga xos bo'lgan xususiyatlar ham irsiyat yo'li bilan o'tadi. Masalan, tananing vertikal holdagi harakati, tafakkur va nutq rivojlanishi, mehnat qilish qobiliyati — bular tug'ma imkoniyatlar bo'lib, ularning rivojlanishi uchun inson bolasi odamlar orasida yashab, ular bilan aloqa qilishi darkor. Bu ruhiy imkoniyatlarning chindan ham rivojlanmog'i, ro'yobga chiqmog'i uchun bola faqat o'sibgina qolmay, balki shu o'sish jarayonida insonlar orasida yashamog'i, ulg'aymog'i va ijtimoiy hayotda ishtirok etmog'i kerak. Chunki inson biologik mavjudot sifatida emas, balki ijtimoiy mavjudot sifatida rivojlanadi va kamolga yetadi. Bola nutqni egallashi uchun nutq sharoitida, mehnat qilish uchun mehnat sharoitida, aqliy taraqqiy etmog'i uchun aqliy faoliyat sharoitida yashamog'i kerak. Ana o'shanda bolaning nimaga, qanday sohaga layoqati borligi namoyon bo'ladi. Fiziologiya va psixologiya fanining ko'rsatishicha, inson bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki biror xil qobiliyatning ro'yobga chiqishi va rivojlanishiga ta'sir etadigan potensial imkoniyatlar, ya'ni shaxs xususiyatini ifodalaydigan layoqat bilan tug'iladi. Tug'ma layoqat o'z holicha rivojlana olmaydi, go'yo u „mudroq“ holatda bo'lib, uning uyg'onishi — rivojlanishi uchun qulay muhit kerak.

Agar bola o'z layoqatiga mos sharoitda o'sib, zarur faoliyat bilan shug'ullansa, layoqat erta ko'rinib, rivojlanishi, aks holda yo'q bo'lib ketishi mumkin. Shuning uchun pedagogik layoqatning namoyon bo'lishi va qobiliyat sifatida rivojlanishi to'la-to'kis hayot sharoitiga va tarbiyaga bog'liq.

## **INSON KAMOLOTI VA SHAXSNING RIVOJLANISHIDA MUHITNING ROLI**

Inson kamolotiga ta'sir etadigan omillardan biri tashqi muhitdir. Muhit deganda kishiga tabiiy ta'sir etadigan tashqi voqealar majmuyi tushuniladi. Bunga tabiiy muhit, ijtimoiy muhit, oila muhiti (mikromuhit) kiradi.

Tabiiy (geografik) muhit (iqlim, tabiiy sharoit) so'zsiz insonning hayot tarziga, xarakteriga va mehnat faoliyatiga ta'sir etadi. Masalan, tropik mintaqada hayot kechirayotgan insonlarning hayot tarzi uzoq shimoldagi insonlar hayot tarzidan farqlanadi, bu ularning hayot tarziga va ularning rivojlanishiga ta'sir etadigan qator omillar bilan isbotlanadi.

Shu bilan birga, inson kamolotida mikromuhit — oila sharoiti ham katta ta'sir kuchiga ega. Chunki bola ko'z ochib ota-onasini, qarindosh-urug'ini ko'radi. Uning intensiv jismoniy va psixologik rivojlanadigan davri oila ta'sirida shakllanadi. Xalqimizda „Qush uyasida ko'rganini qiladi“ degan maqol bekorga aytilmagan. Oilaning hayot tarzi, undagi bola tarbiyasiga ijobiy ta'sir etadigan tarbiyaviy muhit uning kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bola kamolotida ijtimoiy muhit ham muhimdir. Chunki ishlab chiqarish munosabatlari va ularni tartibga solib turadigan ijtimoiy qonun-qoidalar kishiga alohida ta'sir qiladi. Ijtimoiy aloqa, ya'ni insonlararo o'zaro munosabat natijasida odam bolasi hayotga va mehnatga tayyorlanadi, kerakli tajriba va bilimlarni egallaydi.

Inson kamolotiga ijtimoiy muhitning ta'siri turli tarixiy davrda (formatsiyalarda) turlicha bo'ladi, turli sotsial guruhlarga ham turlicha ta'sir etadi. Shunday ekan, hozirgi zamon pedagogika fani muhitga, uning inson rivojlanishidagi ta'sirining roliga alohida e'tibor beradi. Muhit tushunchasiga kiradigan ijtimoiy hayot voqealarining shaxsga ta'siri g'oyat muhim ekanligini ko'rsatadi va ijtimoiy muhit abadiy emas, o'zgaruvchan deb qaraydi. Shuning uchun muhit inson taqdirini belgilab beradigan omil deb hisoblanmaydi. Ammo uning ta'siri ham rad etilmaydi.

## **INSONNING KAMOL TOPISHIDA TARBIYANING ROLI**

Tarbiya muhit kabi inson kamolotiga ta'sir etuvchi tashqi omillardan hisoblanadi. Tarbiyaning xususiyati shundaki, u aniq maqsadni ko'zlab, insonda ijobiy fazilatlarini tarkib toptirish yo'lida tarbiyachi rahbarligida muntazam amalga oshirib boriladi.



Ammo tarbiya ta'sirining kuchi va uning natijasi irsiyat va muhit kabi omillarning hamkorligi bilan belgilanadi.

Inson kamoloti irsiyat yo'li bilan orttirilgan va tabiiy layoqatlar bilan belgilanib qolmay, balki butun hayoti davrida uni qurshab olgan voqelik ta'sirida orttirgan xususiyat va sifatlar bilan ham belgilanadi.

Shubhasiz, tarbiya odamning ko'zi, sochi, terisining rangiga, uning badani tuzilishiga ta'sir eta olmaydi, lekin jismoniy taraqqiyotga ta'sir etishi mumkin. Chunki maxsus tashkil etilgan jismoniy mashqlar orqali bolaning salomatligi mustahkamlanadi va chiniqtiriladi. Insonning tabiiy qobiliyati faqat tarbiya orqali, uni ma'lum bir faoliyat turiga jalb qilish orqali rivojlanishi mumkin.

Ma'lumki, bola layoqatini rivojlantirish, uni qobiliyatga aylantirish va hayotga mos holda o'stirish uchun mehnatsevarlik va ishchanlik kerak. Mehnatsevarlik va muttasil o'tirib ishlash kabi fazilatlar faqat tarbiya natijasida orttiriladigan fazilatlardir. Garchand inson kamolotiga ta'sir etadigan omillar bir qancha bo'lsa ham, lekin maxsus tarbiya muassasalarida tarbiyachi rahbarligida amalga oshiriladigan tarbiya jarayoni yetakchi hisoblanadi. Chunki, birinchidan, tarbiya ta'sirida turli fazilatlar o'zlashtiriladi va bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikmalar, malakalar ham maxsus uyushtirilgan tarbiya orqali hosil qilinadi.

Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklarni ham o'zgartirib, shaxsni kamolga yetkazish mumkin. Masalan, ko'rlar, gunglar ham o'qitilib, sog'lom kishilar qatori hayotga tayyorlanadi. Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish yoki bartaraf qilish mumkin.

To'rtinchidan, tarbiya doimo kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi. Shu tufayli, u shaxsning kamolga yetishini tezlashtiruvchi rol o'ynaydi. Inson kamol topishida maktabning ahamiyati katta. Bolalar maktabga qadam qo'yar ekan, ular o'quv mehnati bilan band bo'ladilar. Bolalar maktabda fan asoslarini egallash bilan birga, ularda sekin-asta ilmiy dunyoqarash shakllanib boradi. O'qituvchi-tarbiyachilarning rahbarligida insonga xos bo'lgan yuksak fazilatlarni egallaydilar. Tarbiyaviy ishlarni reja asosida tashkil etish bolani tarbiyalashda oilaga har vaqt yordam ko'rsatadi. Tarbiyachi o'z tarbiyalanuvchisining oilaviy sharoitidan xabardor bo'lishi, pedagogik maslahatlarga, yordamga muhtoj bo'lgan oilalarga yordam berishi muhim. Tarbiyachi uchun bola bo'sh vaqtini kimlar

bilan o'tkazayotgani va nimalar bilan mashg'ul bo'layotgani ahamiyatsiz emas. Chunki o'z holiga tashlab qo'yilgan bola ko'chaning salbiy ta'siriga berilib ketishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, inson faqat faoliyatda rivojlanadi, undan tashqarida rivojlanish yo'q. Bola juda yoshligidan boshlaboq kattalar yordamida tashqi muhit bilan turli xil aloqada bo'ladi. Maktab yoshida bu aloqalar o'qish va shu bilan bog'liq bo'lgan boshqa faoliyat bilan bog'lanadi va bular rivojlanish uchun manba sanaladi.

Pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirilgan har qanday faoliyat shaxsning aqliy va irodaviy rivojlanishiga ta'sir etadi. Demak, bola ulg'aya borgan sari uning faoliyati ham shakli va mazmuni bilan hamohang o'zgarib boraverar ekan.

Masalan, bog'cha yoshida bolalarning asosiy faoliyat turi o'yin bo'lsa, maktab o'quvchisi uchun o'qib, mehnat qilish asosiy faoliyat bo'lib qoladi. Demak, bola hayotida faoliyat turlarining o'zaro munosabati ham o'zgaradi va buning ta'sirida bola kamoloti ham yangi, yuqoriroq bosqichga ko'tariladi.

Umuman, pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirilgan har qanday faoliyat bola shaxsining aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy va irodaviy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Rahbarlik qilinmagan faoliyat esa biryoqlama yoki salbiy ta'sir etishi mumkin.

Shunday qilib, inson taraqqiyotining ilmiy konsepsiyasi inson kamolotiga ta'sir etadigan omillarni tahlil etib, inson kamoloti va uning shaxsini shakllantirishni yagona va bir butun jarayon ekanligini ta'kidlaydi. Bu jarayonda insonning faolligiga katta o'rin beriladi. U faolligi bilan o'z shaxsini shakllantira oladi. Tarbiyachi tomonidan qo'yiladigan maqsad aniq bo'lsa va bu maqsadga erishish uchun odam astoydil harakat qilsa, kutilgan natijaga erishiladi.



### *Savol va topshiriqlar*

1. Shaxs kamolotiga qanday omillar ta'sir etar ekan?
2. Insoniy fazilatlarni aytib, ta'riflab bering.
3. Ijtimoiy muhit va uning inson kamolotiga ta'siri haqida gapirib bering.
4. Tarbiyaning inson kamolotidagi o'rni nimadan iborat?
5. Shaxs kamolotida oila tarbiyasining ahamiyati qanday?



## **IV BOB . O'QITUVCHI VA UNING JAMIYATDA TUTGAN O'RNI**

### **O'QITUVCHI VA UNING FAOLIYATI HAQIDA**

Hozirgi zamon pedagogika fani oldida turgan muhim muam-molardan biri — o'qituvchi va pedagogik mehnat sharoiti muam-mosi hisoblanadi. Chunki o'qituvchida barcha pedagogik g'oyalar mujassamlangan bo'lib, uning faoliyati orqali bu g'oyalar amalga oshiriladi va hayotga tatbiq etiladi.

O'qituvchining ko'p qirrali va murakkab faoliyati zamirida yosh avlodni odobli, axloqli qilib tarbiyalash, ularni bilimlar bilan qurollantirish kabi muhim vazifalar yotadi. Bularni amalga oshirish esa o'qituvchining xilma-xil faoliyatiga bog'liq: bolalarni o'qitish, maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil eta bilish va o'tkazish, ota-onalar o'rtasida pedagogik targ'ibot ishlarini olib borish va hokazo. Bularning hammasi o'qituvchidan chuqur bilimga ega bo'lishni, o'z sohasini, bolalarni sevishni talab etadi.

Respublikamiz mustaqilligi e'lon qilingan sana — 1991- yil 31- avgust xalqimiz hayotidagi ulug'vor voqealardan hisoblanadi. Endi xalqimiz o'zining boy tarixi, madaniyati, urf-odatlarini o'rganish, targ'ib qilish, o'zligini anglash imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu voqeadan so'ng ko'p sonli o'qituvchilar jamoalari oldiga Vatan ravnaqi uchun hormay-tolmay xizmat qila oladigan, Vatan yo'lida o'z jonini ham ayamaydigan yoshlarni tarbiyalash vazifasi ko'ndalang qo'yiladi. Bu vazifa Oliy ta'lim konsepsiyasida alohida ta'kidlanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim konsepsiyasida o'qituvchi-mutaxassis oldida turgan vazifalar quyidagicha belgilanadi: „Mutaxassis malakasi — chuqur umumiy bilim, keng dunyoqarash va kasb tayyorgarligi, kompyuter savodxonligi, o'z bilimini tezlik bilan yangilash va to'ldira olish qobiliyati singari omillardan tashkil topadi... Shular qatorida uning intizomi, mas'uliyat, ziyolilik, o'z ishiga, mamlakati mustaqilligiga, Vatan va jahon taraqqiyoti yo'lida ezgulik va adolatga sadoqat tuyg'ularini ham tarbiyalash zarur“.

Bu vazifa va talablar boshlang'ich sinf o'qituvchisida, ayniqsa, to'la mujassamlashgan bo'lishi lozim. Zero, maktabga ilk bor qadam qo'ygan bola dunyoning, hayotning qonun va qoidalarini, sir-asrorlarini o'qituvchidan o'rganadi. O'qituvchi esa bolaga o'z bilgani-ni o'rgatadi. Agar bolani chuqur bilimli, e'tiqodli, madaniyatli qilib tarbiyalamoqchi bo'lsak, shu fazilatlar o'qituvchida mujas-

samlangan bo'lmog'i zarur. Shunday ekan, o'qituvchi, umuman, boshlang'ich sinf o'qituvchisi qanday fazilatlariga ega bo'lishi kerak, degan savol tug'iladi. Bu savolga javob berishdan oldin o'qituvchining hozirgi kunda jamiyatimizda tutgan o'rni haqida fikr yuritsak.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga binoan, 1- oktabr o'qituvchilar va murabbiylar kuni deb e'lon qilindi. Bu voqea davlatimizda o'qituvchilarning jamiyatda tutgan o'rni naqadar yuksak ekanligidan dalolat beradi. Ilg'or o'qituvchilarimizga yuksak unvonlar, davlat mukofotlari berilmoqda, ularga mas'ul vazifalar ham yuklatilmoqda. Ayniqsa, respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin, o'qituvchining jamiyatdagi roli va mas'uliyati ortib bormoqda.

Keyingi yillarda pedagog xodimlarning maishiy sharoitini yaxshilash borasida qator hujjatlar qabul qilindi: imtiyozlar berildi, ularning ish haqi oshirildi, barcha turdagi maktab, hunar-texnika bilim yurtlari, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari pedagog xodimlari bilan mehnat shartnomasi tuzish tizimiga o'tildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim konsepsiyasida mutaxassis vazifalari quyidagicha belgilangan: "... mutaxassis o'z faoliyati, sohasidan qat'iy nazar, ijodiy jamoalarda ishlay olish qobiliyatiga, menejment va marketing sohalarida tayyorgarlikka ega bo'lishi, yangi texnologiyalarni joriy etishning xo'jalik, ijtimoiy va madaniy jihatlarini aniq tasavvur qila olishi kerak". Ushbu fikrlar o'qituvchilarga ham bevosita taalluqli. Chunki jamiyatimizda sodir bo'layotgan tub o'zgarishlar, bozor munosabatlariga kirib borishimiz o'qituvchidan nafaqat kasbiy bilimlarni, balki iqtisodiy, yuridik, texnikaviy bilimlardan ham xabardor bo'lishni taqozo qilmoqda. Bu o'rinda boshlang'ich sinf o'qituvchisi xususida alohida to'xtalmoq zarur.

### **O'QITUVCHI SHAXSIGA QO'YILADIGAN KASBIY TALABLAR**

Hozirgi zamon o'qituvchisining asosiy fazilatlaridan biri — o'z kasbiga sadoqatliligi, g'oyaviy e'tiqodliligi, o'z kasbini sevishi uni boshqa kasb egalaridan ajratib turadi. Chunki maktabda ta'lim-tarbiya ishining yuqori saviyada olib borilishi faqat o'qituvchiga, uning kasbiy tayyorgarligiga bog'liq.

O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablardan biri shuki, u o'zi o'qitayotgan predmetlarni chuqur bilishi, uning metodikasini o'zlashtirib olgan bo'lishi zarur. Predmetni va uning nazariyasini chuqur bilishi, uni qiziqarli qilib o'quvchilarga yetkaza olishi bolalarning shu predmetga bo'lgan qiziqishini oshiradi, o'qituv-

chining obro'yini oshiradi. O'quvchilar o'qituvchining o'z bilimlarini bolalarga yetkaza olish imkoniyatlarini qadrlabgina qolmay, balki uning fidoyiligini ham taqdirlashadi.

O'qituvchining yuksak madaniyati, uning teran bilim doirasi (ayniqsa, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng xalqimizning o'z tarixi, madaniyati, urf-odatini o'rganishga, bilishga bo'lgan qiziqishi ortib borayotgan davrda) ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyatli kechishiga yordam beradi. Hozirgi zamon o'qituvchisi va ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchisi milliy qadriyatlarimizni bilibgina qolmay, keng ota-onalar jamoatchiligi ichida, sinfda uning otashin targ'ibotchisi ham bo'lishi kerak.

O'qituvchi kasbiga xos bo'lgan muhim talablardan biri—bolalarni sevish, ularning hayoti bilan qiziqish, har bir shaxsni hurmat qilishdan iboratdir. Bolani sevgan, butun kuch va bilimini bolalarning kelajagi, ularni Vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashga safarbar qila oladigan insongina haqiqiy o'qituvchi bo'la oladi. Bolaga befarq, uning kelajagi bilan qiziqmaydigan, o'qituvchilik kasbiga loqayd inson haqiqiy o'qituvchi bo'la olmaydi.

„Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi“da boshlang'ich sinf o'qituvchisining qiyofasi quyidagicha ta'riflanadi: „...eng muhimi, bolalarda o'qish, o'rganishga chinakam havas, ishtiyoq uyg'otuvchi, e'tiqod hosil qiluvchi ustoz sifatida alohida o'rin tutadi“. Bu konsepsiyada boshlang'ich sinf o'qituvchisiga qo'yiladigan quyidagi talablar ham keltiriladi:

— O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat ekaniga ishonadigan milliy iftixor tuyg'usiga ega bo'lishi;

— bolalarni xalq pedagogikasi durdonalari hamda milliy qadriyatlarimiz asosida tarbiya qila olishi;

— nutqi ravon, xalq tili boyligi, ifoda usuli va tasvir vositalarini, adabiy til uslub va me'yorini to'la egallagan bo'lishi zarur.

O'qituvchilik kasbiga xos bo'lgan bunday fazilatlarni undagi pedagogik odob shakllantiradi. Pedagogik odob o'qituvchining yuksak kasbiy fazilatidir. U o'qituvchining sabotli bo'lish, o'z hissiyotini idora qila olishi, bolalarga pedagogik ta'sir o'tkazish vosita va me'yorlarini belgilashi va aniqlashiga yordam beradigan fazilat hisoblanadi. Yuksak pedagogik odobga ega bo'lgan o'qituvchigina sinfda mo'tadil psixologik iqlim o'rnatiladi, bolalar qalbiga tez yo'l topa oladi.

O'z xizmati xususiyatiga ko'ra o'qituvchi tashkilotchilik fazilatiga ham ega bo'lmog'i lozim. Buning uchun o'qituvchi tashabbuskorlik va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lib, har doim tetik, g'ayratli, o'z kuchi va imkoniyatiga ishongan bo'lmog'i zarur. Tashabbuskor

va g'ayratli o'qituvchi bolalarni o'z orqasidan ergashtira oladi, o'quvchilar unga ergashadi.

O'qituvchilik kasbi juda katta ruhiy va jismoniy kuch talab etadi, shuning uchun o'qituvchining salomatligiga ham ma'lum talablar qo'yiladi. O'qituvchining ovoz paychalari rivojlangan, ko'rish qobiliyati yaxshi bo'lishi, uzoq vaqt tikka tura olishi, ko'p yurishi, epchil harakat qila olishi (ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilari) kerak. Chunki kichik maktab o'quvchilari tinib-tinchimaydigan, o'ta qiziquvchan, serharakat bo'ladilar. Bu sharoitda o'qituvchi ham shu xususiyatlarga ega bo'lmog'i lozim.

O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan umumiy talablar bilan bir qatorda, boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasbining o'ziga xosligi ham ayrim muayyan talablarni keltirib chiqaradi. Chunonchi, boshlang'ich sinf o'qituvchisi anatomiya, fiziologiya, maktab gigiyenasi fanlaridan xabardor bo'lmog'i, o'quvchilar faoliyatini shu fanlar tavsiyasi asosida tashkil etishi lozim (sinflari gigiyenik talabga javob berishi, o'quvchilar kun tartibi, ularning aqliy va jismoniy rivojlanishini kuzatish va to'g'ri yo'naltirish); o'qituvchi o'z nutqini idora qilishi; adabiy nutq me'yorlariga rioya qilishi, ovozining baland-pastligiga ahamiyat berishi (ortiqcha baland ovoz bilan gapirish ham, sekin gapirish ham bolalarni charchatib qo'yadi); nutqning jonli, ifodali bo'lishiga e'tibor berishi; bolalarni charchatib qo'ymaslik maqsadida darsda ish turlarini tez-tez o'zgartira olishi, ota-onalar o'rtasida pedagogik bilimlarni targ'ib qilishi, ular bilan yaqindan aloqa o'rnatish (bu faoliyat turi boshlang'ich sinf o'quvchilarining xulq-atvorini, mayllarini, jismoniy holatini o'rganishga yordam beradi) va ularga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishga yordamlashishi kerak. Nihoyat, u o'z ustida tinmay ishlamo'g'i lozim. Ayniqsa, qadriyatlarimizni o'rganishga, o'zligimizni tanishimizga, qadimiy madaniyatimizni bilishga ehtiyoj katta bo'lmoqda, zero, bu narsalarni bilmay turib mustaqilligimizni mustahkamlab, buyuk davlat qurib bo'lmaydi. Shunday ekan, boshlang'ich sinfdan boshlab bolalar sharqona tarbiya ta'siriga olinmog'i, milliy qadriyatni bilmog'i lozim. Bu o'qituvchidan shu sohada chuqur bilimga ega bo'lishni talab etadi.

### **O'QITUVCHINING KASBIY SHAKLLANISH JARAYONI**

O'qituvchining kasbiy shakllanishi kollejda ta'lim olish jarayonidan boshlanadi. Kollejning o'quv reja va fanlar bo'yicha dasturlarida bo'lajak o'qituvchilarga shu kasbning sir-u asrorlarini o'rgatish, nazariy bilimlar berish va ko'nikmalar hosil qilish nazarda tutiladi.

Ta'lim jarayonida fanlar bo'yicha amalga oshiriladigan seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari nazariy bilimlarni mustahkamlashgagina emas, balki ularni amaliy ish jarayonida qo'llashga ham imkon beradi. Bunday mashg'ulotlar tanlangan kasb to'g'ri ekaniga ishonch hissini uyg'otadi.

Ko'pgina talabalar I kursdan boshlab pedagogika va psixologiya fani bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etiladi. Ilmiy jamiyat a'zolari bo'lishadi, shu jamiyat orqali seminar va konferensiyalarda ma'ruzalar bilan qatnashadilar, shuningdek, kasbiy yo'nalishga ega bo'lgan jamoa ishlarida ishtirok etadilar. Talabalar bilan olib boriladigan bunday tadbirlarning muhim ahamiyati shundan iboratki, bu tadbirlar topshirilgan ishga jiddiy yondashish hissini tarbiyalaydi.

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy shakllanib borishida I kursdan boshlab o'tkaziladigan uzluksiz pedagogik amaliyot alohida ahamiyatga ega. Bu amaliyot 1, 2- kurslarda amalga oshiriladi. Uning asosiy maqsadi o'qishning birinchi yilidan boshlab, talabalarni maktabga o'rgatish, o'qituvchilik kasbidan xabardor qilib borishdir, qolaversa, uzluksiz amaliyot kasb tanlashga yo'llash vazifasini ham o'taydi. Bunday amaliyotlar birinchi kursning o'zidayoq: tanlagan kasbim to'g'rimi? Shu kasbni egallashga menda imkoniyat va xohish bor edimi, degan savollarga javob qaytarish imkoniyatini beradi. Bunday amaliyot davomida talabalar maktab va sinf jihozi, sinf o'qituvchisining ish tartibi, plan-konspekti, o'quvchilar tarkibi, ularning uy sharoitlari, darslik va o'quv qurollari bilan ta'minlanganligi kabilar bilan tanishadilar. O'qituvchining darslarini kuzatadilar, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda o'qituvchiga yordam beradilar, maktabda kuni uzaytirilgan guruhleri bo'lsa, shu guruh tarbiyachilari ishi bilan tanishib boradilar. Ota-onalar majlislarini tayyorlashda va o'tkazishda o'qituvchiga yordam berishadi. Xulosa qilib aytganda, uzluksiz pedagogik amaliyot talabalarni o'quv-pedagogik amaliyotga tayyorlab boradi.

O'qituvchining kasbiy shakllanish jarayonida maktab rahbariyati va jamoatchiligi katta rol o'ynaydi. Yosh o'qituvchilarga tajribali o'qituvchilarni biriktirib qo'yish, ularning darslarini kuzatish, metod birlashma ishlariga jalb etish maktab rahbariyatining vazifasidir. Maktabda o'qituvchining o'z ustida ishlashiga, ilmiy-nazariy va metodik bilimlarini tinmay oshirib borishiga katta ahamiyat beriladi. O'qituvchi asta-sekin o'z kasbini o'zlashtirib borish bilan birga, ota-onalar o'rtasida pedagogik bilimlarni targ'ib etadi.

O'qituvchilik kasbiga kirish va pedagogik mahoratni egallash jarayoni uni maktab o'qituvchilari jamoasiga kiritib, unda o'z o'rnini topib keta olishiga bog'liq. Jamoaning yordamidan yuz o'girmaslik, qiyinchiliklarga duch kelganda ruhan tushmay, o'z xatolarini ko'ra bilish va uni yo'qotish uchun harakat qilish uning o'qituvchi bo'lib shakllanishidan darak beradi.

Shu bilan birga, o'z-o'zini tarbiyalab borishga, o'z ustida tinmay ishlashga harakat qilish kasbiy fazilatlarining ajralmas qismi hisoblanadi.

„O'zbekiston Respublikasi davlat ta'limi muassasalari pedagog kadrlarning attestatsiyasi to'g'risida“ nizom ishlab chiqildi va bu nizom 1993- yil 12- avgustda Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlandi. Attestatsiya o'qituvchilar va boshqa pedagog xodimlarga mehnatlarining pirovard natijasiga ko'ra ish haqi olish imkonini, agar pedagog ta'lim va tarbiya jarayonida yaxshi ishlasa, uning mehnati e'tibordan chetda qolmasligiga kafolat beradi.



### **Savol va topshiriqlar**

1. O'qituvchi shaxsiga qo'yilgan talablarning ortib borishi nima bilan bog'liq?
2. Kasbiy layoqatlilik deganda Siz nimani tushunasiz?
3. O'qituvchining asosiy sifatlarini sanab bering.

### **O'QITUVCHI FAOLIYATIDA PSIXOLOGIYANING TA'SIRI**

Hayot zavqi qilgan va qilayotgan ishiga hisob berib, uni qayta ko'rib chiqishida ko'rinadi. Odam o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishi, bunda inson ehtiyoji, talanti, intilishini to'liq ishga solishi talab qilinadi. Ammo ko'p hollarda kishilar o'zidagi bor imkoniyatlaridan yetarlicha foydalana olmaydilar.

Inson psixologiyasining rivojlanishiga muvofiq tarzda turlicha faoliyat ko'rsatadi va tashqi ta'sirdan himoya qilish uchun o'ziga yo'l tanlaydi. Inson o'z ichki ehtiyojiga zid bo'lmagan holda, tashqi talabni bajarish uchun o'ziga shart-sharoit yaratadi. Lekin bu yo'lda u ko'pgina qarshiliklarga duch keladi. Bunday vaziyatda insonni himoya qilish uchun zarur vositalar ishlab chiqiladi.

Tarixdan ma'lumki, yuzaga kelgan har bir yangilikdan odamlarda qo'rquv, xavotirlanish vujudga kelgan. Bunday o'zgarishlar insonda kasallikni yoki qo'rquvni rivojlantirgan.

Bundan: 1. Insonda passiv ong. 2. Insonda birovga ishonmaslik va qarshilik qilish tushunchasi paydo bo'lgan.



Adabiyotda bu tushunchalar quyidagicha talqin qilingan:

1. Jamoaga sotsial psixologik ta'sir.

2. Jamoaning o'zaro muloqoti, suhbati va undan xulosaning kelib chiqishi.

Bu masalani ishlab chiqishda quyidagilar kelib chiqadi:

1. Shu masaladan kelib chiqib, insonda yuzaga kelgan yomon xulosa.

2. Psixologiyaning rivojlanishiga ta'sir omili va boshqalar.

Ma'lum bo'ladiki, psixologiyaga sotsial ta'sir natijasida turli korxonada har bir xizmatchi har xil natijaga erishadi.

Bu ta'sirni to'g'ri izga solish uchun turli yo'llar va uslublar ishlab chiqilishi lozim. Shuningdek, uning ham salbiy, ham ijobiy tomonlari o'rganib chiqiladi.

Ijobiy javoblar tezkorlik bilan o'z ta'sirini ko'rsata olmaydi. Insonda doimo yangilikka muayyan darajada qarshilik seziladi va uni qabul qilish esa psixologiyaning o'zgarishi bilan asta o'zgaradi. Bu o'zgarishlar insonning turli usullarni qidirishiga olib keladi.

Shunga muvofiq har bir yangi ma'lumot ham o'qituvchiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Natijada o'qituvchi ongida bu holatni chuqur o'rganish zaruriyati paydo bo'ladi. O'qituvchi bu ma'lumotni oldingilari, ya'ni bosib o'tilgan yo'l tajribasi bilan taqqoslaydi. Qiyosiy tutilgan yo'l esa yangilik sari bir qadar ijobiy xulosaga olib keladi.

Inson psixologiyasidagi bu o'zgarishlar ongni, o'zini tutish, yangilikni qabul qilishni rivojlantiradi. O'quvchiga yangilikning ijobiy ta'sir ko'rsatishida ota-onalarning, murabbiylarning, fanlarning ta'siri muhim o'rin tutadi. Bu ishda, asosan, o'qituvchilar mas'uldirlar. Yangi ish boshlovchi yosh o'qituvchilar o'z ustlarida ko'proq ishlashlari, fikrlashlari, o'ylash va yangilikni qabul qilishlari zarur. Buning uchun o'qituvchi bu yangilikni tezda qabul qilishi lozim.

Tajribasi katta o'qituvchini ushbu yangilikda o'quvchining oladigan bilimi tashvishga soladi. Tajribali o'qituvchi bu yangilik orqali o'quvchi bilan muloqotni yo'lga qo'yadi va uni o'z ustida ishlashga undaydi. Har bir yangilik o'quvchi va o'qituvchining uzviy ongini o'stiradi, ustida ishlash faoliyatini ko'rib chiqishga yordam beradi.

*Ijodiy uslub.*

1. Bu uslubni deb boshqa o'qituvchilardan ajralib qolmaslik.

2. O'z fikri deb begonalashib qolmaslik.

3. Tanqiddan qo'rqib, yakkalanib qolmaslik.

4. O'ziga ishonmay, fikrini ochiq ayta olmaslik.

5. O'jarlik qilib, o'z fikrida turib olishlik.

Dastlab yangilikka qarshi chiqish, bu odatiy hol, ammo vaqt o'tib inson o'zgarib boradi.

*Sterotopiya* — eskilikka mukkasidan ketish va yangilikka qarshi chiqish. Bunda o'qituvchi jamoada o'z o'rnini topa olmaydi. Biroq u keyinchalik davr talabiga moslashadi.

Agar o'qituvchi o'zini hurmat qila olsa, bu yangilikka qo'shiladi, o'z ustida ishlaydi, tafakkur qilib, yangilikni muhokama etib hayotga tatbiq qiladi. Ijodkor o'qituvchi eskilikka suyanib qolgan o'qituvchidan ajralib turadi. Har bir qiyinchilikni sabr bilan yengadi.

Agar qiyinchilikdan qo'rqib ortga qaytsa yoki yarim yo'lda to'xtab qolsa, bu jur'atsizlik va hayotda o'z o'rnini yo'qotishdir.

Yana bir uslub — *tajriba*. Bunda o'qituvchi o'z fikrida turib, uni qattiq himoya qiladi. Bu bilan u nimaga qodir ekanligini, o'z bahosini bilib oladi.

O'qituvchi faoliyatida jamoaning o'sishi, har sohada erishgan samaradorligi o'z aksini topishi lozim. Bunday omilga qarshi quyidagi salbiy ta'sirlar uchrashi mumkin:

1. O'qituvchilarga ushbu yangilikning maqsadi ochiq-oydin tushuntirilmaydi.

2. O'qituvchilar ushbu yangilikning rejasi haqida ma'lumotga ega bo'lmaydilar.

3. Jamoaning tanlagan yo'lini tushunishni istamaydilar.

4. Mavqelarini yo'qotib qo'yishdan qo'rqadilar.

5. Bu yangilikni hayotga tatbiq qiluvchi o'qituvchini bilmaydilar, uni hurmat qilmaydilar, ishonmaydilar.

Ta'kidlash joizki, berilgan rejaga emas, balki uning muallifiga-gina e'tibor qaratish katta xatodir.

Uning muallifi emas, balki berilgan va tanlangan tajriba muhimroqdir.

Tanlagan yo'limiz yangilikni qabul qilishda salbiy urinishlarni yo'qotishga, o'quvchi va o'qituvchi muloqotini mustahkamlashga, o'zaro fikrlarini ochiq aytishga, yangilikka erishishini maqsad qilib olishga o'rgatishdir. Shuningdek, bu yo'lda xatolarni tuzatadigan, to'g'ri yo'lni tanlashga yordam bera oladigan, ya'ni:

— mustaqil fikr bildira oladigan;

— yangilikka doir ma'lumotlar, qo'shimchalarni ishlab chiqa oladigan;

— ijodiy tajribada hikmatli fikrlardan foydalana oladigan;

— yangilik sari tajribada hayotiylikdan foydalanadigan;

— jamoa, guruhda ishlay oladigan;

— yangi fikrni rivojlantira oladigan o'qituvchini tayyorlashdir. Uning ishtirokchilari tajriba yakunida o'z qilgan ishlaridan huzurlanishlari lozim.

Har bir guruh a'zosi quyidagi savollar haqida o'ylab ko'rishi mumkin: qaysi savol muhokama qilinyapti? Nima sababdan bu savolga mendan javobni kutishyapti? Menda savolga javobimda qaysi ma'lumot yetishmayapti? Didaktik materiallardan to'g'ri foydalana oldimmi? To'g'ri xulosaga kela oldimmi?

Bunday pedagogik tajriba o'quv jarayonini o'rganib rivojlantirishda katta ahamiyatga egadir.

### KASBNI RIVOJLANTIRUVCHI O'YINLAR

O'yinlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, oliy o'quv yurtigacha va oliy o'quv yurtining boshlang'ich davrida quyidagi o'yinlardan foydalanish to'g'ri bo'ladi. Bular representativ professional faoliyatga bog'liq holatlar:

— *variantiv usul* — mazkur faoliyat uchun variant tanlash, muomalalik, o'qituvchining ish faoliyatini o'rganishga mo'ljallangan hamda asosiy masalalarni yechishga qaratilgan vazifalar kiradi.

— *moslashuv usuli* — muayyan bir masalani yechish usulini qo'llashdan iborat bo'lib, bu usul ishning yakunida aniq bir pedagogik faoliyatga moslashish kerak bo'ladi;

— *evristik usul* — masalaga mustaqil va yangicha yondashish. Masalan, dars jarayonini metodik tahlil qilish; alternativ reja tuzish; ma'lumotni qabul qilish, tushunish, tashqi olamga ishonchni rivojlantirish; o'z-o'ziga hurmatni oshirish; o'ziga berilgan bahodan kelib chiqib ish sharoitini yaxshilash. Har bir yangilikning yechimini topish. Shunday holatlarda insonning o'ziga o'zi ishonishi yaxshi natija beradi va tortinchoqlik yo'qoladi.

O'qituvchi kirib kelayotgan yangilikni qabul qiluvchi va o'z hayotiga tatbiq qiluvchilardan biridir. O'qituvchi o'z faoliyatini o'zgartirishda novator bo'lishi lozim.

Psixologiya tizimining o'z mexanizmi, ya'ni identifikatsiyasi bor. *Identifikatsiya* — bu inson kechinmasining o'ziga xosligidir. Shunday ekan, har bir o'qituvchi yangilikni olib kiruvchi, rivojlantiruvchi novator bo'lib hisoblanadi. U yangilikni qabul qilib olar ekan, uning natijasini yaxshi tomonga buradi va uni hayotga tatbiq qiladi.

Psixologiyaning har bir usuli ko'rib chiqilar ekan, turli xulosalarga kelinadi.

### *Himoya usullari.*

Antipedagogik baryer — adabiyotda qadriyat, odatni hayotda tatbiq qilish, o'qituvchining o'zligini anglashidir. Uni qabul qilish usullari quyidagicha tavsiflanadi:

1. Masalan, bizda bir yangi fikr bor. Bu fikrdagi yangilik, eskisi bilan qanday o'xshashligi solishtiriladi.

2. Buni biz bajara olmaymiz. Nega? Chunki biz bunda salbiy javobga loyiq ijobiy bazaga ega emasligimizga tayanamiz.

3. Bu yangilik hech qanday o'zgarishga olib kelmaydi. Bunda guruhga bo'lib o'qitishning ta'siri o'zgarishga olib kelmaslik fikri bor.

4. Bu yangilik qo'shimcha ish yuritishni talab etadi. Ish tajribasidagi kamchiliklar ishlab chiqiladi.

5. Bu yangilikning eskisidan unchalik farqi yo'qdir.

6. Yana qo'shimcha ma'lumotlar kirita olish usullari bo'lsa, kiritiladi.

Tajribada boshqa maktablarning bu yangilikka kiritgan o'zgartirishi bilan tanishib chiqish.

Bu yangilikning ish sharoitiga tatbiq qilish metodikasi ishlab chiqiladi.

1. Yangilik haqidagi hujjatni ishlab chiqish.

2. Kerakli tomonini alohida yoritish.

3. Eksperiment sifatida qo'llash.

4. Salbiy metod muhokamasi.

5. Ikkala natijani solishtirish.

Insonning yangilik oldidagi qo'rquv fikrining salbiy ta'siri bo'ladi. Bu pedagog o'zi tanlagan uslubini tatbiq qilishda ta'sir qiladigan to'siqlar hisoblanadi.

Bunday izlanishlar shuni ko'rsatadiki, fikriy o'yin modellash-tirilishda o'quv faoliyati ijodiy o'quv faoliyatiga o'tadi. O'yin model-lashtirilishi bolaning fikrlash doirasini kengaytiradi va kelgusi faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**„Qaror qilamiz — baho bering“** o'yini.

O'yinda parallel guruhlar qatnashadi. Birinchi guruhda o'qituvchi muammoli holatni yuzaga keltiradi, o'quvchilar o'z yechim variantlarini taklif etadilar. Takliflar magnitofonga yozib olinadi. Yozish jarayonida o'qituvchi takliflarni o'rganib chiqadi. Munozara orqali masala o'z yechimini topadi.

Ikkinchi guruhda ham shunday holat vujudga keltiriladi. O'quvchilar bu masalani yechishga urinadilar. O'qituvchi ularga: „Ilgariroq birinchi guruhda ham ushbu muammoni yechishga uringandilar. Ular qanchalik to'g'ri qaror qabul qilganliklarini tahlil qilib ko'rsangiz, chunki bugun sizlar ham shu muammoni hal

qilmoqdasiz“, deydi. Ular magnit tasmasiga yozilgan fikrlarni tahlil qilib ko‘radilar. Qaror o‘z tasdig‘ini topadi. Bundan maqsad o‘quvchilarning faolligi va fikrlash doirasini bilib olish. Didaktik o‘yinlar chog‘ida o‘quv jarayoni quyidagicha tuziladi. Ya‘ni muammoli vaziyat yaratish, o‘yinning yo‘nalishini belgilash, qo‘yilgan ballarni jamlash va o‘quvchilarning o‘zini baholash.

Bo‘lg‘usi o‘qituvchilarning rivojlanishida imitatsion-modellash-tirish o‘yinlari ham katta rol o‘ynaydi. Bunday o‘yinlarda muammoli pedagogik vaziyatlar vujudga keltiriladi. O‘yinlarni teatrlashtirish, unda pedagoglar ham rol olib ishtirok etishlari mumkin. Bu o‘yinlar aniq bilimlarni o‘zlashtirishda yordam beradi.

Eksperimental ish jarayonining birinchi bosqichida mashqli o‘yinlardan foydalanilgan edi. Chunki ular diqqatni oshirishga, xotira va fantaziyani kuchaytirishga yordam beradi. Ushbu bosqichda barcha o‘yinlar jamoa bo‘lib o‘yналgan edi, chunki auditoriya oldida bo‘lganda bolada qo‘rquv paydo bo‘lishi mumkin. Sekin-sekin biz individual vazifalar bajarishga o‘tdik.

Ikkinchi bosqichda biroz murakkablashtirilgan vazifalarga o‘tiladi. Bunday vazifalar yordamida o‘ziga, o‘qituvchiga o‘z kasbiga bo‘lgan munosabati aniqlanadi. Masalan: „Kim haq?“, „Qanday yordam berish mumkin?“, „O‘qituvchilar xonasidagi suhbat“ kabi mavzulardagi etudlar yordamida bo‘lajak o‘qituvchilarning fikr va mulohazalari bilinadi. Bunday munozaralar mavjud vaziyatda „muammoni ko‘ra olish“ni o‘rgatadi. Va uning bir necha yechimlarini topadi. Teatrlashtirilgan o‘yinlar his-hayajonga boy bo‘ladi va ayni choqda ular qo‘shimcha tahlilga ham muhtojdir. Shunga ko‘ra muammoni yechish uchun bo‘lajak o‘qituvchilarga quyidagicha masalalar topshiriladi: „O‘qituvchingizni himoya qiling“. Bunda o‘qituvchilarning xarakterlari, ularning ish metodi tahlil qilinadi. „Ikki xil xarakter qiyoslanadi“, „Agar sen... bo‘lganingda ...“ va hokazo. Bu o‘yinlarda o‘zaro munosabat tushunchasiga ham alohida o‘rin beriladi. Bu bosqichda odamning „yuzidan uqish“, ya‘ni uning mimikasiga qarab his-tuyg‘ularini tushunish hisobga olinadi. Bu o‘yinning nomi „Sehrlangan bola“. Shunday tajribalarning tahlili shuni ko‘rsatdiki: o‘yin faoliyati davomida bo‘lajak o‘qituvchilarda har xil muammolarni mustaqil yechish xususiyati aniqlangan. Bu bosqichni *sensativ* deb atash mumkin. Aynan shu bosqichda o‘qituvchi to‘liq shakllanib, atrofdagilarga e‘tiborli, ochiq ko‘ngil bo‘ladi va pedagogik masalalarga professional darajada yondasha boshlaydi. Bunday bilim olish bosqichlari jarayonida u mukammal shaxs, bilim darajasi yuqori talaba bo‘lib

yetishadi. Buning uchun shaxsni shakllantirish texnologiyasini qo'llash lozim.

Quyida biz yuqori sinf o'quvchilari va birinchi kurs talabalari bilan o'tkaziladigan didaktik o'yinlar bilan tanishib chiqamiz.

**„Press-konferensiya“ o'yini.** Ushbu o'yinni o'tkazishdan oldin qatnashchilar 2 guruhga bo'linadi:

1- guruh: muxbirlar, xilma-xil gazetalar, jurnallar, radio va televizion ko'rsatuvlar bilan tanishtiruvchilar.

2- guruh: „olimlar“, „ekologlar“, „muhandislar“, „sotsiologlar“ va boshqalar.

Har bir guruh o'z vazifasini bajaradi, ya'ni xilma-xil pozitivdagi yangi mavzulardan tashkil topgan materiallar bilan tanishib chiqadi. „Muxbirlar“ guruhi intervyu o'tkazishga tayyorgarlik ko'radilar. Suhbat o'tkazish uchun umumiy reja va savollar tuzadilar. Ikkinchi guruh o'quv materialidan hamda „olimlar“, „ekologlar“ va boshqalar nomidan qatnashishga yordam beradigan qo'shimcha materiallardan foydalanadilar.

O'yin oldidan o'tkaziladigan majlisda guruhlar o'yinda qatnashadigan o'quvchilarni tanlaydilar, foydalanilishi rejalashtirilayotgan savollar yuzasidan kelishib oladilar.

Mashg'ulot davomida „Muxbir“ guruhi „olimlar“, „ekologlar“, „muhandis“, „sotsiologlar“ va boshqalardan intervyu oladilar. Ular shaxsiy fikrlarini, taxminlarini aytadilar.

Qolganlar o'yinni baholab, qo'shimcha fikrlarini bildiradilar.

**„Sayohat“ o'yini.** O'yin o'tkazilishidan oldin hay'at a'zolari aniqlanadi va bolalar bir necha guruhlariga bo'linadi.

Har bir guruhda 5—6 tadan bola bo'lib, guruhlariga sardor tayinlanadi. O'yin qatnashchilari shartli ravishda turli shaharlarga „sayohat“ qilib, har xil vazifalarni bajaradilar.

Har bir sardor bittadan konvertni tanlab oladi. Unda bitta asosiy savol va ikkita qo'shimcha savol bo'ladi. Ularga javob berib bo'lingach, keyingi bosqichga o'tiladi. Har bir guruhning maqsadi bitta, ya'ni ko'p shaharlarni „sayohat“ qilish va barcha mavzular bo'yicha muammolarni hal etish.

Javoblar belgilangan tizim bo'yicha baholanadi. Bunda muammoni yechishdagi bilimdonlik va guruhning boshqarilishi hisobga olinadi. Sayohat so'ngida hay'at a'zolari yakun yasaydilar.

**„Erudit“ o'yini.** Bir necha mavzularni yakunlagandan so'ng ushbu mavzular yuzasidan muammoli vaziyat yaratuvchi bittadan savollar tuzib, kartochkaga yozib, hay'at a'zolariga tarqatiladi.

Hay'at a'zolari 2—3 kishidan iborat bo'ladi.

Hay'at a'zolari bilan birga (10—12 ta savolnomadan) eng qiziqarli savollar aniqlab chiqiladi. O'yin boshlanishidan oldin kartochkalar stol ustiga terib chiqiladi. Har bir guruhdan bittadan qatnashchi chiqib, o'zining guruhi uchun 4 ta savol tanlab oladi. Shundan so'ng ularga tayyorlanish uchun vaqt beriladi. Muammoni yechish uchun har bir guruh hamjihatlikda ishlaydi. Agar savol murakkabroq bo'lsa, boshqa kartochka olish imkoniyati ham beriladi. Biroq yakuniy baholashda hisobga olinadi. O'yin oxirida hay'at a'zolari berilgan javoblar va mustaqil tayyorlangan savollar yuzasidan baholarni e'lon qiladilar.

**„Hamrohlik“ o'yini.** Guruhlar 3—4 ta muammoli „laboratoriya“larga bo'linadi. Muammo yuzasidan beriladigan ilmiy yangilikning bir qismi og'zaki ravishda aytiladi. Muammo yuzasidan barcha qo'shimcha ma'lumotlarni o'quvchilar o'qituvchiga savollar berib aniqlab oladilar. Javoblar „laboratoriya“ a'zolari o'rtasida muhokama qilinadi. Olingan ma'lumot muhokamasidan so'ng qatnashchilar muammoning yechimini aniqlaydilar. Keyin har bir „laboratoriya“dan bir kishi muammo yechimi yuzasidan o'zining variantini aytadi. Shundan so'ng har bir guruh o'zining yechimini isbotlab beradi. Xohlovchilar bo'lsa, bu muammo yuzasidan qo'shimcha qilib, o'z fikrlarini bildiradilar. Guruhlarning fikrlari muhokama qilinib, baholanadi.

### O'QITUVCHI FAOLIYATIDAGI PSIXOLOGIK TO'SIQLAR

Inson qachonki o'z g'oyalarini amalga oshirsa, o'z iste'dod va qobiliyatlarini ishga solsa, o'zi uchun subyektiv mazmunga ega bo'lgan ishlari va o'z qarashlari tizimiga qarshi chiqishga majburlanmasa, unda hayotdan qoniqish hissi paydo bo'ladi. Bu tizimning ortiqcha inersiyaliligi ishonchlarining psixik mustahkamligiga bog'liq. Boshqa tarafdin, qadriyatlar tizimining harakatchanligi, o'zgaruvchanligi qabul qilingan qonunlarning qadrsizlanishi, har xil xatolarga yo'l qo'yishda aks etadi.

Inson ongidagi barcha ma'lumotlar qadriyatlar va to'siqlar tizimi tomonidan kuzatiladi. Psixologik to'siq deganda odamga ma'lum bir harakatni muvaffaqiyatli bajarishga xalaqit qiluvchi ichki to'siqlar (istamaslik, qo'rquv, o'ziga ishonmaslik va h.k.) tushuniladi. Psixologik qarshiliklar yig'indisidan himoyalaniashda foydalanib, tashqi muhitning turli xil akslarini yaratamiz. Har bir odam tashqi axborotlar yig'indisidan o'z ruhiyatiga mos ma'lumotni tanlaydi. Lekin bu tasavvurlar ma'lum vaqt o'tishi bilan yangicha fikrlash ijodiy jarayoniga to'siq bo'la oladi. Shuning uchun yangi ma'lumot-

larga to'sqinlik qiluvchi soxta ma'lumotlardan himoyalaniş masalasi ko'ndalang bo'ladi.

Qadimdan yangi va noma'lum hodisalar odamlarda xavotir hamda qo'rquv tug'dirgan. Demak, salbiy hislarning paydo bo'lishi, individual va jami onglarning stereotip bo'lishi hayot tarzi, insonlarning qiziqishi va odatlariga oid innovatsiyalar ularda ko'ngilsiz taassurotlarni hosil qilishi mumkin. Bu holatlar hayotiy ehtiyojlarning xavfsizligi, himoyalaniş, hayotda o'z o'rnini topish jarayonlari bilan bog'liq. E. Yermolayeva innovatsiyada frustratsiyaga olib boruvchi sharoitlar sifatida quyidagilarni ajratadi:

- juda tez kiritiladigan innovatsiyalar;
- juda ko'p kiritiladigan innovatsiyalar (doimiy);
- ko'p hajmli (tizimli) innovatsiyalar;
- alternativsiz innovatsiyalar.

A. Xon pedagoglarda uchraydigan kognitiv va regulativ psixologik to'siqlarni quyidagicha ifodalaydi. Uning fikricha, yangi narsa haqida unga qarshi chiquvchi kognitiv psixologik to'siqlar ma'lum bir bilimga ega bo'lmaslik natijasida passiv qarshilikni keltirib chiqarishi mumkin. Regulativ, psixologik to'siqlar holatida, ya'ni yangi hodisaga yuzma-yuz duch kelinadi, ammo yangilikka ishonchsizlik bilan qaraladi va yangi kashfiyotni kiritishga faol qarshilikni bildiradi.

Psixologik to'siqlar tahliliga bag'ishlangan adabiyotlarda, masalan, V. I. Antonyuk tomonidan ishlab chiqilgan tizimda, ularni baholashning mantiqiy to'g'ri jihatlari belgilanadi. Psixologik to'siqlar tahlil qilinganda quyidagicha holatlar:

1. Yangilik kiritilishi bilan kelib chiqqan innovatsiya sharoitida ishchilarning ahvoli negativ psixik shaklda bo'lishi.

2. Ishchilarning harakat, mulohaza, tushuncha, fikrlash, kutish, ongli va ongsiz, yashirin yoki oshkora, ataylab yoki to'satdan bo'lgan emotsional kechinmalar yig'indisida, negativ psixik ahvol yuzaga kelishi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Psixologik to'siqlarning parametrlari sifatida quyidagilar:

1. To'siqlarning tarkib topishi natijasida boshqa odamlarda negativ munosabatlar uyg'otuvchi omillarning paydo bo'lishi.

2. Psixologik to'siqning darajasi negativ psixik holatga ega bo'lgan odamlar soni bilan aniqlanishi.

3. Ishchilarning negativ munosabat bildirishining xarakter va shakllari, ya'ni faol yoki nofaol shakllari paydo bo'lishi belgilab beriladi.

V. I. Antonyuk tadqiqotining natijalaridan ma'lum bo'ladi: psixologik to'siqlar tashkilotlarning ijtimoiy-psixologik jihatdan



rivojlanayotganini ko'rsatadi, fazoda va yangilanishning turli bosqichlarida, turli tashkilotlarda, turli xil toifa ishchilarida uning parametrlari o'zgaradi.

Psixologik qarshiliklarning shunday transformatsiyasi, chunki yangilik kiritishning turli bosqichlarida, ya'ni har bir aniq holatlarda, obyektiv va subyektiv to'siqlar determinantini o'rganish va uni turli usullar bilan boshqarishning yo'llarini ishlab chiqish va tadqiq etishni talab etadi.

Himoyalani barcha turlaridagi umumiy xususiyat shuki, ularni anglay olmaslik natijasida himoya qiluvchi mexanizmlar ishining faqat tashqi ko'rinishigina kuzatiladi. Odatiy xulq zaiflashib, qo'rquv, o'ziga ishonmaslik, xavotirlanish paydo bo'lishi mumkin. Noxush ma'lumotni eshitib, inson unga nisbatan turlicha munosabatda bo'lishi mumkin. Tezda uning ahamiyatini tushunib, uning bajarilishiga imkoniyat yo'qligini bilib, o'z xohishlari darajasini pasaytirishga va diqqat qilmaslikka urinadi. Psixologik himoyaning yaqindan o'rganilgan ko'rinishlari maxsus nomlarga ega, chunki, inkor etish, susayishi, ratsionalizatsiya, chiqarib qo'yishi, proyeksiya, indentifikatsiya, begona bo'lish, o'rin almashish va boshqalar.

O'qituvchi pedagogik yangiliklar yo'qola boshladi deguncha, ularning qadrini tushuna boshlaydi. Oldingi munosabat butunlay o'zgaradi va u yana bir boshdan qayta ko'riladi, qadriyatlarining yangi tizimi o'rnatiladi, yechim tizimlari ham o'zgaradi.

Pedagogik jasorat o'z xulqining o'zgarishiga oid yechimning qabul qilinishida muhim omillardan hisoblanadi. Chunki bu paytda kuch, vositalar, noma'lum munosabatdagi yutuqlar qo'rquv va yangilanish bilan qiziqishlarning chigallashmasida yaratiladi. Izlanish jasoratining ma'nosi yangilanishga qiziqishning to'g'ri yo'lini tanlashdan iboratdir. Kirituvchi jasorat yangiliklarni kiritib istalgan va zararli natijalarni solishtirish asosida kelib chiqadi.

Identifikatsiya pedagogik xulqning o'zlashtirish mexanizmlaridan birini tashkil qiladi. Identifikatsiya — o'zini boshqa odam bilan solishtirib ko'rish va o'zining yoqqan his-tuyg'u, sifatlarini unga ko'r-ko'rona o'tkazishdir. Bu o'z individualligining chegaralarini kengaytirish bilan o'zini boshqa insonga singdirib qo'yishdirki, agar inson o'zining „men“iga boshqasini kiritrsa, demak, o'ziga xos tarzda uning fikri, his-tuyg'u yoki xarakterlari yuzaga keladi. O'zini „namuna“ o'rniga qo'yib ko'rib, o'zining „men“i markazini umumiy fazoda joylashtirib, mehrini, emotsiyasini o'zidagidek sezishi va uni yaxshiroq bilib olish mumkin. Ammo

kechinmalarini tushunish umumiy his-tuyg'ular orqali individualliklarning „qo'shilishini“ anglatadi. Indentifikatsiya faqat o'zini o'zga bilan solishtirish emas, balki o'zini muayyan bir bo'limga, sinfga psixologik tur ko'rinishida kiritish hamdir. Demak, o'qituvchilar, u yoki bu pedagogik oqimining davomchilari („Zankoveslar“ „Shataloves“ va boshqalar) o'zining ichki dunyosiga ular tomonidan hurmat qilingan insonlarning qadriyatlarini kiritadilar. Pedagogik oqimga kirish, demak, o'z hurmatini qadrlash tuyg'usini shakllantirish va oshirishdir. Chunki bunda o'qituvchi endi o'zidagi mavjud voqelikdan yuqori, zo'r hodisaga qarashligini sezadi. Bu esa o'qituvchiga kuchli bo'lish va himoyasizlik yechimini topish imkonini beradi.

Turli xil psixologik himoyalarni ko'rib chiqish shuni ko'rsatadiki, indentifikatsiya hodisasi bir odamni tinchlantiradi, qadriyatlar tizimini o'zgartiradi, ayni paytda bu tizimga yangilanish olib kiradi; boshqa bir holda esa yangilanishni inkor etishga yordam beradi va o'z ichki „men“ni saqlab qoladi. Lekin pedagogik yangilanishlarni o'zlashtirish ko'proq ijtimoiy jamiyatga, pedagogik jamoaga bog'liq. Ammo ijtimoiy himoya — bu jamiyatda bor bo'lgan xalq usullari va qarama-qarshiliklarida tug'ilishini unutmaslik lozim.

Antipedagogik to'siq — jamiyatshunoslik va psixologik adabiyotda an'anaviy ishlatiladigan tushunchadir. Psixologik, ichki shaxsiy to'siq o'qituvchining individual xususiyatlari va o'zi kiradigan jamoaning ijtimoiy-psixologik belgilaridan kelib chiqadi.

Bu to'siq tashqi tomondan ayrim innovatsiyalarga mos bo'lgan jamiyatda total stereotiplarni aks ettirgan himoyalash fikrlarida — Prigojin „Ha, lekin...“ ko'rinishida vujudga kelgan bir necha pedagogik stereotiplarni keltirib chiqaradi. Ularning ko'plari pedagogik yangilashlar holatida ishlatiladi. Bulardan ba'zilarini ko'rib chiqamiz:

1. Bizda mana bu hol mavjud. Bunda chigallanish bilan o'xshash belgilari bo'lgan misol keltiriladi. Bu holatda opponent farqlarning mazmuni va o'xshashligini chalg'itishini inobatga olish lozim. Bu holatda ikki tarafning bahsiga qarab ishni tamomlash imkoniyati bor. Chunki farqlash dalillariga nisbatan kontrdalillarni qarshi qo'ysa bo'ladi.

2. „Bu narsa bizda chiqmaydi“. Bunda yangilanish uchun imkon yo'qligiga tegishli obyektiv sharoitlar, xususiyatlar sanab chiqiladi, ularning barchasi opponent uchun ma'lum emas, albatta: agar u „o'ziniki“ bo'lsa, tashqi tartibning tushuntirishlari ko'p, agar ichida bo'lsa, joyidagi xususiyatiga e'tibor beriladi (Bizda moddiy asos yo'q).

3. „Bu narsa bizning asosiy muammolarimizni yechmaydi“ — tarafdoshlar fikri. Shu vaqtda innovatsiya haqiqiy rivojlanishning uncha aktiv bo'lmagan o'tkazuvchanlik xususiyatiga ega bo'ladi.

4. „Bunisi qayta ishlanishni talab qiladi“. Yangilanishda uning haqiqiy kamchiliklari, chetga chiqishlar, ishlanmagan elementlar ko'zga tashlanadi, chunki har qaysi ish loyihasi ko'rib chiqishga muhtoj. Lekin u yangilashga „tayyor emas“, „oxirigacha o'ylab ko'rilmagan“, shunga qaramay ishlatishga juda kerakli xususiyatga ega.

5. „Boshqa fikrlar ham bor“. Bunda boshqa mualliflar, maktablar tomonidan ishlab chiqilgan yangilanishga real alternativ tushuniladi. Shunda opponent parallel innovatorlar bilan raqobat munosabatida bo'ladi. Bu holat masalaning yechimini topish muammosini ular orasidagi o'zaro munosabatlar sohasiga o'tkazadi.

Yangilashning hayotiy antipedagogik ongning va yangilanishni o'zlashtirish bosqichidagi xulqning kelib chiqishini xarakterlaydi. Pedagogik jarayon yangilanishga o'tgach, uni to'xtatishning yaxshi ishlab chiqilgan metodlar to'plami mavjud. Ular orasida eng keng tarqalganlari quyidagilardir:

- „konkretlashgan hujjatlarning usuli“ — yangilanish va uning mazmuni hajmining haddan tashqari kengayishiga yo'l qo'ymaslik;
- „bo'lakli kiritish metodi“ — birgina elementning kiritilishi;
- „doimiy tajriba metodi“ — tajribali statusda sun'iy ushlab turish;
- „hisobot kiritish metodi“ — haqiqiy kiritishni o'zgartirish;
- „parallel kiritish metodi“ — yangilashning eskisi bilan birga mavjud bo'lishi. Elementlarning ko'pchiligi yangilariga almashmaydi, ammo ular bilan bog'liq bo'lgan yangilanish harakatlari davom etaveradi.

Psixologik to'siq bilan bog'liq bo'lgan yangilanishga qarshilik degan o'ziga xos ichki sabablar mavjud. Bularga o'zi omilkor emasligini, o'zini o'zi baholashni, o'zi haqida xavotirlanib, qo'rqishini aytsa bo'ladi. Innovatsiyalarni o'zlashtirmaslikning sabablaridan biri rivojlanmagan, ammo yeta olsa bo'ladigan motivatsiyadir, shunda o'qituvchilarda omadsizliklardan qutilish ustun bo'ladi.

Ko'pincha psixologik to'siqni ifodalashda „2 sentratsiya“ tushunchasi ishlatiladi. Bu tushuncha pedagogik jarayonda qatnashuvchilar qiziqishlarining mazmuniy bosqichini ko'rsatadi. Bunga qatnashuvchining shaxsiy sentratsiyasi hamda o'qituvchi sentratsiyasidagi rahbariyat va boshqalarning qiziqishlari kiradi, ya'ni ota-onalar qiziqishlari, kasbdoshlar qiziqishlari, o'quv fanlariga doir qiziqishlar, o'quvchilar qiziqishlari hamda ularga o'qituvchining o'z

munosabati. Bu o'rinda yangi o'qituvchi diqqat-e'tiborini bir joyga to'plab hamda o'z kechinmalari va o'z xulqiga diqqat qilishi xosdir.

Yosh o'qituvchi yangilashga mardona kirishib, o'z qiziqishlari, kechinmalari va ish usullari yordamida o'tadi. Tajribali ijodkor o'qituvchida esa bu narsa o'quvchilarning qiziqishida markazlashgan bo'ladi. O'quvchining tushunishiga yordam beruvchi, u bilan muloqot o'rnatishi, uning rivojlanishiga yordam berishga qaratilgan yangilanishlar o'qituvchini doimiy ravishda qiziqtiradi. Quyidagi holatda o'qituvchining markazlanishi o'quvchilarga muayyan bir fikrni o'tkazish uchun emas, balki ijodiy izlanish va shaxsiyatini o'stirishga ham qaratilgan. Yuqorida aytib o'tilgan pedagogik to'siqlarga ushbu ijodiy to'siqlarni ham kiritish mumkin:

1. Boshqa odamlarga o'xshashga, ulardan o'z mulohazalari va xulqlari bilan ajralib qolmaslikka intilishda, ijodiy ustun bo'lishda konformizmga ishtiyok.

2. Odamlarga yomon otli bo'lib qolishdan qo'rqish. Bu yo'nalish o'qituvchining birinchi mustaqil pedagogik xulqida, birinchi ijodiy mulohazalarda, pedagoglar, ota-onalar, bolalar bilan umumiy til topa olmasligidan paydo bo'lishi mumkin.

3. Boshqa insonlarning fikrlariga tanqidiy qarashdan va o'zi yoqtirmasligi uchun agressiv (serjahl) ko'rinishdan qo'rqish. Hozirda mana bu fikr keng tarqalgan: agar biror kimsani tanqid qilsang, demak, sen hurmatsiz va madaniyatsiz bo'lib qolasan.

4. Biror kimsani vaziyat yuzasidan tanqid qilsang, uning ta'qib qilishidan qo'rqish. Shulardan qo'rqib, ijodiy tafakkur yuritishimizga va rivojlanishimizga to'siq qo'yib qo'yishimiz mumkin.

5. Shaxsiy xavotirlanish, o'ziga ishonmaslik, salbiy o'zlashtirishga („men“ konsepsiyasi), o'z shaxsiyatini baholashda pasayishga olib keladi.

Yuzaki o'ylash ko'pchilik hollarda yangiliklarni qabul qilmay, ularni chetlab o'tishga olib keladi. O'qituvchi to'satdan yuzaga kelgan yangiliklarni o'zlashtirmay ijodiy o'zlashtirishga urinmaydi. Tafakkurning yangi fikrlarga, o'z xulqining modelida doimiy o'zlashtirishda ixchamlik bo'lmasa, o'zgaruvchan muhitga mos kelolmaydi. Dunyo o'zgaradi, shu bilan birga har bir odam ham o'zgaradi, aniq, to'g'ri deb bilingan tasavvurlar ham zamonga mos ravishda o'zgaradi, psixika buni shu tarzda tushunishi kerak. Eskirgan tasavvurlar o'qituvchining kasbiy bilimida kamchilikka aylanadi, endi u yangi taxminlar bilan to'ldirilishi kerak. Ammo buni amalga oshirish oson emas, chunki eskilik o'z o'rnini yangilikka osonlikcha bo'shatib bermaydi.

Shunda paydo bo'lgan qarashlar tasavvurni susaytiradi. Yangi fikrlar va kashfiyotlar yo'lida o'tmish yondashuvlarining qotib qolgan stereotipi ko'ndalang bo'lib turadi. Pedagogik jamoada qizg'inlik tug'dirgan bu yangi usullar o'qituvchi kechinmalarida o'z-o'zi bilan kelishmovchiliklarni yuzaga keltiradi. Shunday paytda o'qituvchi rejali ish olib borsa, o'zining ruhiy osoyishtaligini asray oladi hamda yomon ichki kelishmovchiliklarni bartaraf etadi.

Pedagogik xulq — bu o'z individualligining maksimal rivojlanishi va o'zini anglash ekan. O'qituvchi shuni bilishi kerakki, agar inson o'zining axloqiy, intellektual bir butunligini buzsa, o'z qadriyat, g'oyalarning bo'lagidan voz kechsa, demak, u o'zligi va ozodligini yo'qotadi. Ozodlik esa boshqalarning hurmati hamda shaxsini izzat qilishga olib boradi. Agar o'qituvchi o'zining ichki bir butunligiga to'la erishgan bo'lsa, boshqalarga qaraganda, hatto omadi ketsa ham, lekin o'ziga ishonchi va boshqalarning hamma fikriga qo'shilavermasligi tufayli uni ma'nan yengib bo'lmaydi. Bu hodisa uning ijodiy ishlab chiqarishida, ya'ni o'z faoliyatining o'zgarishlarini ijobiy qabul qilishida ko'zga yaqqol tashlanadi. Chunki u qiyinchiliklar bilan mustaqil kurashishga tayyor bo'ladi.

Odatda, o'qituvchining afzallik va kamchiliklarni qo'shib yozishi statusga binoan amalga oshadi. Bu narsa ko'proq o'zini oqlash va o'z mavqeyini himoya qilishga bo'lgan chuqur ehtiyojini bildiradi. Agar o'qituvchi pedagogik jamoaning kutib turishiga munosib bo'lmasa, unda uyat hissi paydo bo'ladi. Shu hisni o'qituvchi „men“ konsepsiyasiga binoan boshqaradi. Bu konsepsiya shaxsiy tajriba emas, balki madaniyat natijasidir.

Yana muhim operatsiyalardan biri — personifikatsiya ijtimoiy harakatlarni aniqlashdan iborat. Personifikatsiya, proyeksiya va indentifikatsiya mexanizmlari muayyan salbiy jihatlari bo'lgan o'qituvchiga yo'naltiriladi. Bunday holatda innovator — o'qituvchining salbiy xususiyatlarini: urishqoq, mahmadona, kasbiy bilim va ko'nikmalari yetarli emas, deb o'zidan qo'shib yozadi.

O'qituvchi pedagogik faoliyatini yaxshi olib borishi uchun xalal beradigan psixologik to'siqlarni, „komplekslar“ni yaxlit o'zlashtirib, boshidan kechirib ko'rib, ulardan kechishi zarurdir. Pedagogning xulqi va ichki dunyosini standartlashtirishda yo'l-yo'riq qoidalari juda katta ahamiyatga ega ekanligi kuzatiladi. Biroq pedagogik faoliyatda jamiyatning rivojlanishi o'qituvchidan pedagogik xulqni, ya'ni akti va tizimli ijodni talab qiladi. Endi o'qituvchining pedagogik faoliyatini umumlashtirib, yangilik kiritishga o'qituvchilarning ko'proq qarshilik bildirishini keltirib chiqaradigan sabablarni ko'rib o'tamiz:

1. O'zgarishlarning maqsadi o'qituvchilarga tushuntirilmagan, yashirilgan, bu esa o'z navbatida, xavotir va noma'lumlikni keltirib chiqargan. Noma'lumdan qo'rquv o'qituvchilarni har qanday be-ma'ni usulga yo'llashi mumkin.

2. O'qituvchilar yangilik kiritishni rejalashtirishni ishlab chiqishda qatnashmaganlar.

3. Jamoa an'alarini e'tiborga olmaslik.

4. Yangi usullarga subyektiv munosabat va qo'rquv, status yo'qotish hislari.

5. Rahbar o'qituvchilar faoliyatida o'zgarishlar, ish hajmi-ning ko'payishi rejalashtirilmasa, shunday qo'rquvni paydo qiladi.

6. Yangilik kirituvchi initsiator (tashabbuskor) hurmat va ishonchga ega bo'lmasa, ko'pincha o'qituvchilar loyihaga emas, uning muallifiga qaraydilar. Agar ijodiy faollik asossiz bo'lsa, qadriyatlarga e'tibor qaratilmasa, bu faollik juda xavfli. Demak, yosh o'qituvchining bilim berish va kasbiy faoliyatida ijodiy rivojlanishi uchun ko'p variantli yechimlarga yetaklovchi mashqlar topilmagan va tavsiya etilmagan.

M. V. Klori „Chet el pedagogik izlanishlarda ta'limotning pedagogik modellari“ monografiyasida katta sinf o'quvchilar bilan darslarni tashkillashtirish asosiga kiritilgan quyidagi maslahatlarni bayon etamiz.

Ijodiy izlanishlarda ichki to'siqlar yo'qotiladi. O'quvchilar ijodiy izlanishga tayyor bo'lsa, ularga o'quvchilar va o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatlarda ishonchni uyg'otishga yordam berish lozim. Ularning fikrlari qabul qilinadimi yoki yo'qmi ular masxara qilinishi va xavotirlanishlariga yo'l qo'ymasligi kerak. Shunda ular xato qilishdan qo'rqmaydilar.

**Ishda onglilikka e'tibor berish.** Muammo diqqatning markazida bo'lmasa-da, ammo ong faoliyat ko'rsataveradi. Agar miyada biror g'oya tug'ilib qolsa, ularni eslab qolish, tushunib yetish va ulardan foydalanish kerak.

**Baholashda chetga chiqish.** Bu ham o'quvchilarning g'oyalar oqimini kengaytirishga, muammoning ustidan erkin fikrlashiga imkon beradi.

O'quvchilarga ijodiy izlanish va yangi tasavvur bog'lanish-larining topilishi uchun metafora va o'xshatishlarni ishlatish hisobiga kengayadi.

O'rta va oliy maktablarda istioralar bilan ishlashda obrazli tafakkur yuritishga, obrazlar yaratilishiga va ularni anglashga yo'naltirishda spontanlik birlashuvi kiritilib foydalaniladi.

**Aqliy mashqlarga imkoniyat berish.** O'quvchilarga yechimini topish uchun mashqlar beriladi. Shunda ular o'zlarini boshqacharoq his etadilar. Bunday hollarda ular o'zlarini yo'qotishga yo'l qo'ymasliklari kerak.

Tasavvur faolligini qo'llab-quvvatlash bu ijodiy o'ylashning asosidir. Buning uchun tasavvurni, xayolni bir joyga qo'yish, ularni nazorat qilish lozim. Shundan so'ng hammasi mulohaza qilib ko'riladi.

O'zlashtirishni rivojlantirish uchun sezgini, o'zlashtirishni kengaytirish va to'ldirish vositalari kuchaytiriladi.

O'quvchilarga ularning ijodiy faoliyatida yangi o'zlashtiriladigan narsaning ma'nosi va umumiy yo'nalishini anglashga, o'z imkoniyatlarini bilishga yordam beriladi. Shunday qilinmasa, ijodiy faoliyatini kuchaytiradigan mashqlarga o'yin deb qaraladi.

Yuqorida bayon qilingan maslahatlar erkin muloqotda, fikr almashuvda, ijodiy bahslashuvda, eksperimental ish jarayonida amalga oshirilishi mumkin.

Shunday tadqiqiy orientatsiya o'quv jarayoniga pedagogik yondashuvni yosh o'qituvchilarda yangi tajriba, kasbiy tadqiqiy faoliyat bilan qurollanishini, rolli va o'xshatish modellashtirishni o'zlashtirish imkonini yaratadi.

Bolalar tomonidan ma'lumotlarni mazmunan o'zlashtirilishi bilan bog'liq bo'lgan ish shakllarini ko'rib chiqamiz. Ta'lim modellari orasida biz muammolarning yechimini topish uchun ijodiy izlanishni tashkillashtirishni, bahslashuv va didaktik o'yinlarni tanladik. Ko'rsatib o'tilgan modellar orasida biz didaktik va rolli o'quv o'yinlariga alohida e'tibor qaratdik.



### *Topshiriqlar*

1. O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan kasbiy talablar haqida gapirib bering.
2. Psixologiyada mavjud bo'lgan psixologik to'siq tushunchasi (xohlamaslik, qo'rquv, ishonchsizlik) mazmunini ochib bering va misollar keltiring.
3. Psixologik to'siqlarning parametrlarini tavsiflab bering.
4. Ijodiy to'siqlarni izohlab bering.
5. Ijtimoiy to'siqlarni shakllantiruvchi operatsiyalarni yoritib bering.
6. O'qituvchilarning yangiliklarga bo'lgan intilishlariga to'siqinlik qiluvchi sabablarni ayting.
7. Pedagogik praktikada o'qituvchilarni yengillashtirilgan ta'lim-tarbiya bo'yicha sinash.



## V BOB. O'ZBEKISTONDA XALQ TA'LIMI TIZIMI

### XALQ TA'LIMI TIZIMI HAQIDA TUSHUNCHA VA UNI TASHKIL ETISH TAMOYILLARI

Xalq ta'limi tizimi deganda, aniq maqsadni ko'zlab mamlakat yoshlariga ta'lim-tarbiya beradigan muassasalar tushuniladi.

Har bir mamlakat xalq ta'limi tizimining taraqqiyoti shu mamlakatda ishlab chiqarish kuchlari, ishlab chiqarish munosabatlarning rivojiga va jamiyat taraqqiyotiga ta'sir etadigan ijtimoiy, iqtisodiy masalalarga va milliy xususiyatga bog'liq bo'ladi.

Mamlakatimiz istiqbolga erishganidan keyin xalq maorifini rivojlantirish masalalariga, yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda. Bunga hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qator qonunlarni misol tariqasida keltirish mumkin.

O'zbekiston Konstitutsiyasi va hukumat qarorlariga asoslangan holda hozirgi vaqtda xalq ta'limining quyidagi tamoyillari qaror topdi: O'zbekiston fuqarolarining millatidan, dinidan, jinsidan, ijtimoiy ahvolidan qat'i nazar, ta'lim olishga teng huquqliligi tamoyili. Bu tamoyil xalq maorifining demoktarik ruhidan darak beradi.

### O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

#### TA'LIM TO'G'RSIDA

#### UMUMIY QOIDALAR

**Ushbu qonunning maqsadi.** Ushbu qonun fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashga qaratilgan.

**Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlari.** Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu qonundan hamda boshqa qonun hujjatlaridan iborat.

Qoraqalpog'iston Respublikasida ta'lim sohasidagi munosabatlar Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasidagi qonun hujjatlaridagidan o'zgacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

**Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari.** Ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e'lon qilinadi.



Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

**Bilim olish huquqlari.** Jinsi, Tili, irqiy, milliy mansubligi, e'tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqeyi, turar joyi, O'zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat'i nazar, har kimga bilim olishda teng huquqlar kafolatlanadi.

Bilim olish huquqi:

- davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirish;
- ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda ta'lim olishni tashkil etish;
- ta'lim va kadrlar tayyorlash davlat dasturlari asosida bepul o'qitish, shuningdek, ta'lim muassasalarida shartnoma asosida to'lov evaziga kasb-hunar o'rgatish;
- barcha turdagi ta'lim muassasalarining bitiruvchilari keyingi bosqichdagi o'quv yurtlariga kirishda teng huquqlarga ega bo'lishi;
- oilada yoki o'zi mustaqil ravishda bilim olgan fuqarolarga akkreditatsiyadan o'tgan ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqini berish orqali ta'minlanadi.

Boshqa davlatlarning fuqarolari O'zbekiston Respublikasida xalqaro shartnomalarga muvofiq bilim olish huquqiga ega.

Respublikada istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilim olishda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega.

**Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi.** Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega.

Pedagogik xodimlarni oliy o'quv yurtlariga ishga qabul qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan Nizomga muvofiq tanlov asosida amalga oshiriladi.

Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish sud hukmiga asosan, man etilgan shaxslarning ta'lim muassasalarida bu faoliyat bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yilmaydi.

**Ta'lim muassasasining huquqiy maqomi.** Ta'lim muassasasini akkreditatsiyalash vakolatli davlat organi tomonidan attestatsiyaga asosan amalga oshiriladi.

Ta'lim muassasasi yuridik shaxs bo'lib, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda barpo etiladi. Nodavlat ta'lim muassasasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda davlat akkreditatsiyasidan o'tgan paytdan boshlab yuridik shaxs huquqlari va ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

Ta'lim muassasasi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan ustav asosida faoliyat ko'rsatadi.

Ta'lim muassasasi attestatsiya natijalariga binoan, davlat akkreditatsiyasidan mahrum etilishi mumkin.

Ta'lim muassasalari o'quv-tarbiya majmualariga hamda o'quv ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari va uyushmalariga birlashishga haqli.

Ta'lim muassasalari ustavda belgilangan vazifalariga muvofiq pullik ta'lim xizmatlari ko'rsatish, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatining boshqa turlari bilan shug'ullanishga haqli.

**Davlat ta'lim standartlari.** Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

Davlat ta'lim standartlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

**Ta'lim berish tili.** Ta'lim muassasalarida ta'lim berish tilidan foydalanish tartibi „Davlat tili haqida“gi O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan tartibga solinadi.

**Oiladagi ta'lim va mustaqil ravishda ta'lim olish.** Davlat oilada ta'lim olishga va mustaqil ravishda ta'lim olishga ko'maklashadi. Bolalarni oilada o'qitish va mustaqil ravishda ta'lim olish tegishli ta'lim muassasalarining dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi. Ta'lim oluvchilarga vakolatli davlat muassasalari tomonidan uslubiy maslahat va boshqa yo'sinda yordam ko'rsatiladi.

**Ta'lim to'g'risidagi hujjatlar.** Akkreditatsiya qilingan ta'lim muassasalarining bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjat (shahodatnoma, diplom, sertifikat, guvohnoma) beriladi. Davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjat oilada ta'lim olgan yoki mustaqil ravishda bilim olgan va akkreditatsiya qilingan ta'lim

muassasalarining tegishli ta'lim dasturlari bo'yicha ekstren tartibda imtihonlar topshirgan shaxslarga ham beriladi, davlat ta'lim muassasalarida o'qitilishi shart bo'lgan va ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab qo'yiladigan mutaxassisliklar bundan mustasno.

Oliy ma'lumot to'g'risidagi diplomga o'zlashtirilgan fanlar ro'y-xati, ularning hajmlari va fanlarga qo'yilgan baholar yozilgan varaqa ilova qilinadi.

Dissertatsiya himoya qilgan shaxslarga belgilangan tartibda fan nomzodi yoki fan doktori ilmiy darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplom topshiriladi.

Davlat ta'lim standartlariga mos kelgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi bilan xorijiy davlatlarning hukumatlari o'rtasidagi ikki tomonlama bitimlar asosida har ikki tomonning ma'lumot to'g'risidagi hujjatlari belgilangan tartibda o'zaro tan olinishi mumkin.

Tegishli bosqichdagi ta'limni tugallamagan shaxslarga belgilangan namunadagi ma'lumotnoma beriladi.

Davlat tasdiqlagan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjat navbatdagi bosqich ta'lim muassasalarida ta'lim olishni davom ettirish yoki tegishli ixtisos bo'yicha ishlash huquqini beradi.

#### TA'LIM JARAYONI QATNASHCHILARINI IJTIMOIY HIMOYA QILISH

**Ta'lim oluvchilarni ijtimoiy himoya qilish.** Ta'lim muassasasida ta'lim oluvchilar qonun hujjatlariga va normativ hujjatlarga muvofiq imtiyozlar, stipendiya va yotoqxonada joy bilan ta'minlanadi.

**Ta'lim muassasalari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish.** Ta'lim muassasalari xodimlariga ish vaqtining qisqartirilgan muddati belgilanadi, haqi to'lanadigan yillik uzaytirilgan ta'tillar va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar beriladi.

Ta'lim muassasalari ish haqiga mo'ljallangan mavjud mablag'lar doirasida mustaqil ravishda stavkalar, mansab okladlariga tabaqalashtirilgan ustama belgilashga hamda mehnatga haq to'lash va rag'batlantirishning turli shakllarini qo'llashga haqli.

**Yetim bolalarni va ota-onalarning yoki boshqa qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalarni o'qitish.** Yetim bolalarni va ota-onalarning yoki qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalarni o'qitish va ularni boqish davlatning to'la ta'minoti asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

**Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar va o'smirlarni o'qitish.** Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni

bo'lgan, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalar va o'smirlarni o'qitish, ularni tarbiyalash hamda davolash uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tashkil etiladi. Bolalar va o'smirlarni ushbu ta'lim muassasalariga yuborish va ulardan chiqarish ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining roziligi bilan psixologik-tibbiy pedagogik komissiyasining xulosasiga binoan amalga oshiriladi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining o'quvchilari qisman yoki to'la davlat ta'minotida bo'ladi.

**Ijtimoiy yordamga va tiklanishga muhtoj bo'lgan shaxslar uchun o'quv-tarbiya muassasalari.** Alohida sharoitlarda tarbiyalanish va o'qishga muhtoj bolalar va o'spirinlar uchun ularning bilim olishi, kasb tayyorgarligi va ijtimoiy tiklanishini ta'minlaydigan ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari tashkil etiladi.

Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan shaxslarning ta'lim olishi va mustaqil bilim olish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sharoitlar yaratildi.

#### TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISH

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlari.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- ta'lim sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish;
- ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qilish;
- ta'limni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- ta'lim muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini belgilash;
- ta'lim muassasalarini akkreditatsiyadan, pedagog, ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tartibini belgilash;
- boshqa davlatlarning ta'lim muassasalariga O'zbekiston Respublikasining hududida ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi ruxsatnomalar berish;
- qonun hujjatlariga muvofiq xorijiy davlatlarning ta'lim to'g'risidagi hujjatlarini tan olish va bu hujjatlarini tan olish va hujjatlarining ekvivalent ekanligini qayd etish tartibini tasdiqlash;
- davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjatlarni tasdiqlash va ularni tasdiqlash va ularni berish tartibini belgilash;
- davlat grantlari miqdorini va ta'lim muassasalariga qabul qilish tartibini belgilash;
- davlat oliy ta'lim muassasasining rektorlarini tayinlash;

- ta'lim oluvchilarni akkreditatsiya qilingan bir ta'lim muassasasidan boshqasiga o'tkazish tartibini belgilash;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

**Ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlarining huquq doirasi.** Ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlarining huquq doirasiga quyidagilar kiradi:

- ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ro'yobga chiqarish;

- ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va uslub masalalarida ularga rahbarlik qilish;

- davlat ta'lim standartlari mutaxassilarning bilim saviyasi va kasb tayyorgarligiga bo'lgan talablar bajarilishini ta'minlash;

- o'qitishning ilg'or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni, ta'limning texnik va axborot vositalarini o'quv jarayoniga joriy etish;

- o'quv va o'quv-uslubiyat adabiyotlarini yaratish va nashr etishni tashkil qilish;

- ta'lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va davlat ta'lim muassasalarida eksternat to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash;

- davlat oliy ta'lim muassasasining rektorini tayinlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish;

- pedagog xodimlarni tayyorlashni, ularning malakasini oshirishni va qayta tayyorlashni tashkil etish;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

**Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ta'lim sohasidagi vakolatlari.** Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

- ta'lim muassasalari faoliyatining mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ehtiyojlariga muvofiqligini ta'minlaydilar;

- ta'lim muassasalarini tashkil etadilar, qayta tashkil etadilar va tugatadilar (respublika tasarrufida bo'lgan muassasalar bundan mustasno), ularning ustavlarini ro'yxatga oladilar;

- o'z hududlaridagi ta'lim muassasalarini vakolat doirasida moliyalash miqdorlarini va imtiyozlarini belgilaydilar;

- ta'lim sifati darajasiga, shuningdek, xodimlarning kasb faoliyatiga bo'lgan davlat talablariga rioya etilishini ta'minlaydilar;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradilar.

**Ta'lim muassasasini boshqarish.** Ta'lim muassasasini uning rahbari boshqaradi.

Ta'lim muassasalarida qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat ko'rsatadigan jamoat boshqaruvi organlari tashkil etilishi mumkin.

**Ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari bilan nodavlat ta'lim muassasalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar.** Ta'lim

sohasidagi davlat boshqaruvi organlari nodavlat muassasalarida ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qiladi.

Nodavlat ta'lim muassasalari ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzgan taqdirda, akkreditatsiya qilgan organlar ularning faoliyatini qonun hujjatlariga muvofiq to'xtatib qo'yishga haqli.

Nodavlat ta'lim muassasalariga qabul davlat o'quv yurtlari uchun belgilangan tartibda va muddatlarda amalga oshiriladi.

### YAKUNLOVCHI QOIDALAR

**Ota-onalar yoki qonuniy vakillarning vazifalari.** Voyaga yetmagan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari bolaning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasi, maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishlari uchun javobgardirlar.

**Ta'limni moliyalash.** Davlat ta'lim muassasalarini moliyalash respublika va mahalliy budjetlar mablag'lari, shuningdek, budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

**Ta'limni rivojlantirish fondlari.** Ta'limni rivojlantirish fondlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan, chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari hisobidan tashkil etilishi mumkin.

**Xalqaro hamkorlik.** Ta'lim muassasalari ta'lim muammolari yuzasidan xalqaro hamkorlikda ishtirok etadilar, chet davlatlarning tegishli o'quv yurtlari bilan bevosita aloqalar o'rnatish, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ular bilan qo'shma o'quv yurtlari tashkil etish huquqiga ega.


**Ta'lim to'g'risidagi qonun.** Hujjatlarni buzganlik uchun javobgarlik.

Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.



### *Savol va topshiriqlar*

1. Xalq ta'limi tizimi deganda nimalarni tushunasiz?
2. Xalq ta'limi tizimiga kirgan muassasalarni sanab bering va ta'riflang.
3. Xalq ta'limi tizimida boshlang'ich ta'limning tutgan o'rni haqida so'zlab bering.
4. Yakuniy qoidalarda qanday vazifalar ko'zda tutiladi, so'zlab bering?



## **VI BOB. O'ZBEKISTONDA UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMI**

### **XALQ TA'LIMI TIZIMI RESPUBLIKAMIZ IJTIMOYIY-IQTISODIY VA MADANIY RIVOJLANTIRISHDA USTUVOR SOHA**

Xalq ta'limi tizimi deb muayyan mamlakatlar ichki va tashqi taraqqiyotiga tavsif beruvchi hamda ma'lum bir qoidalar asosida tashkil etilgan barcha ta'lim-tarbiya muassasalarining tuzilishiga aytiladi.

O'zbekistonda Xalq ta'limi tizimi respublikamizni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlantirishning ustuvor sohasi hisoblanadi. Xalq ta'limi tizimi respublikamizning ilm borasidagi kuch-quvvatini, jamiyat, oila va davlat oldidagi o'z mas'uliyatini anglaydigan erkin shaxsni shakllantirish maqsadini ko'zlaydi.

Xalq ta'limi tizimi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi qonunga muvofiq tashkil etiladi va nazorat qilinadi. Respublikamiz Konstitutsiyasining 18 va 41- moddalarida ko'rsatilganidek, barcha fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, bilim olish huquqiga egadirlar. Shuningdek, fuqarolarning bepul umumiy ta'lim olishi davlat tomonidan kafolatlangandir. Bu huquq ilm olishning tekinligi, yoshlarga umumiy majburiy o'rta ta'lim berishni amalga oshirishni, o'qitishni hayot, unumli mehnat bilan bog'lash asosida rivojlantirish negizida izohlanadi.

Fan-texnika taraqqiy etayotgan hozirgi davrda xalq ta'limi tizimini barcha tarmoqlarini muttasil takomillashtirish, uni oqilona uyushtirish va boshqarish masalalariga katta ahamiyat berilmoqda.

Taniqli venetsiyalik sayyoh Marko Polo uzoq vaqt hozirgi Markaziy Osiyo mintaqasi hududida yashagan xalqlarning an'analari, urf-odatlarini o'rgandi. U o'z esdaliklarida yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llanilgan usul va vositalarga tayangan holda „Nur sharqdan tarqaladi“ degan edi. Qadimgi Yevropada keng tarqalgan mazkur hikmatda Sharq xalqlarining insoniyat madaniyat poydevorini yaratishdagi ulkan hissasi tan olingani ifodalangandir. Lekin ma'naviyatni tiklashga bo'lgan harakat faqat Yevropada yoki faqat Sharqda boshlangan deyish, G'arb-u Sharqni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish ham noto'g'ri. Ota-bobolarimizning, „O'tmishni unutganning kelajagi bo'lmaydi“, degan hikmatli gap bor. Biz o'z tariximizni qancha chuqur

o'rgansak, bu yosh avlodga shuncha to'g'ri ta'lim berishimizda asqotadi. Markaziy Osiyoda falsafiy, axloqiy-ma'rifiy tafakkurning ilk kurtaklari xalq og'zaki ijodida o'z aksini topgan. Ularda yozuv paydo bo'lgunga qadar va undan keyin ham xalq ruhi va ma'naviy faolligi ifoda etilgan.

Sharqda, jumladan, O'zbekiston hududida azal-azaldan ta'lim-tarbiya sohasiga juda katta e'tibor berilgan edi. Bolalarni kichik yoshdan ilmga qiziqtirish, axloqi pok, vijdonli, mehr-shafqatli qilib voyaga yetkazish masalalariga ota-bobolarimiz jiddiy qaraganlar.

Sharq pedagoglari bolalarni o'qishga qiziqtirish uchun kitobdagi voqealarni qush va hayvonlar tilidan hikoya qilar edilar. Masalan, „Qobusnoma“, „Axloqi Muhsiniy“, „Kalila va Dimna“ kabi asarlardagi naql-rivoyatlarga odob-axloq qoidalarini singdirib yuborilgan.

Markaziy Osiyo arablar tomonidan fath qilingan paytlarda ham rivojlangan o'lkalardan biri bo'lganligi tarixiy qo'lyozmalaridan ma'lumdir.

VII—VIII asrlarda Markaziy Osiyoni arablar fath etgach, Islom dini asosidagi sifat jihatdan yangi tizimga ega bo'lgan ta'lim-tarbiya muassasalari vujudga keldi. Arab tilini o'rganish joriy qilindi.

Maktablarda bolalarga yozish va hisoblash o'rgatilgan, bundan tashqari, o'smirlarga savdo san'ati, arab tili, mantiq, notiqlik, husnixat va arifmetikadan saboq berilgan. Har bir maktab talabasi soni 30 — 40 dan oshmagan. Bulardan tashqari, masjid qoshidagi maktablarda ham 15 — 20 nafar talaba tahsil ko'rgan. Maktab, madrasalar bilan bir qatorda, korxonalar ham mavjud bo'lib, ularda yozuv o'rgatilmagan, talabalar Qur'oni Karimni yod olishgan, xolos. „Madrasa“ so'zi arabcha „dars o'tiladigan joy“ ma'nosini bildiradi. Ma'lumki, o'sha joylardagi dars keng ma'noda qo'llanilib, uning tarkibiga ta'lim-tarbiya, pand-nasihatlar, ustoz-shogird munosabatlari, donishmandlarning davra suhbatlari, juda katta hayotiy tajribalar sabog'i kirgan. „Mudarris“ so'zining lug'aviy ma'nosi „dars beruvchi, o'qituvchi“ demakdir.

1991- yilning 31- avgustida respublikamiz hayotida tarixiy voqea yuz berdi: Istiqlol e'lon qilindi. Shu munosabat bilan jahon tajribalaridan kelib chiqib, eng birinchi navbatda, mustaqil respublikamizning xalq ta'limi sohasida islohot o'tkazish masalasi ko'tarildi. Nihoyat, O'zbekiston Respublikasining „Ta'lim to'g'risida“gi qonuni ta'lim tizimining yangilanishiga sabab bo'ldi. Oldingi qabul qilingan qonunlardan farqli o'laroq, xalq ta'limi tizimi tuzilishida bir qancha yangi qoidalar joriy etildi va bajarilishi majburiy, deb qayd qilindi. Bu qoidalar tubandagichadir.



### *1. Ta'lim va tarbiyaning insonparvarligi hamda demokratikligi.*

Buning mohiyati shundaki, bizdagi barcha xalq ta'limi tizimiga kiruvchi muassasalarda berilayotgan ta'lim va tarbiya insonlarni, ularning moddiy va ma'naviy kamolotini, aql-zakovatining o'sishini, insoniy faoliyatining barq urib rivojlanishini va nihoyat, o'zligini bilish va haq-huquqlari uchun kurashadigan vatanparvar bo'lib yetishishlarini maqsad qilib qo'yadi.

### *2. Ta'lim tizimining uzluksizligi va izchilligi.*

Mustaqil O'zbekistonimizning Xalq ta'limi muassasalarida berilayotgan ta'lim va tarbiya uzluksiz o'zaro bog'liqdir. Har bir boshlang'ich ta'lim o'quv reja va dasturlari asosida, keyingi bosqichlar oldingilarining davomi sifatida amalda bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, bir maktabdan ikkinchisiga, bir oliy o'quv yurtidan ikkinchi oliy o'quv yurtiga ko'chib o'tish imkoniyatini beradi. Ta'lim jarayoni o'quv rejasi va dasturi asosida tizimli, izchil olib boriladi.

### *3. Davlat ta'limi tizimining ilmiyligi va dunyoviyligi.*

Respublikamizdagi barcha ta'lim muassasalarida dunyoviy bilimlar beriladi. U ilmiy asoslarga ega bo'lib, fan, texnika taraqqiyotining eng yangi muvaffaqiyatlari va inson aql-zakovati tufayli takomillashib boradi. Ular o'quvchilarning obyektiv dunyoni bevosita bilish, tegishli xulosalar chiqarish, o'zining jamiyatda tutgan o'rni va vazifalarini aniqlab olishga, biror-bir kasbni ongli egallashlariga yo'naltirilgandir.

### *4. Ta'limda umuminsoniy va milliy-ma'naviy qadriyatlarining ustuvorligi.*

Ta'lim tizimiga kiruvchi barcha ta'lim-tarbiya maskanlarida berilayotgan bilim ajdodlarimizning ming yillar mobaynida shakllangan an'analarga tayanadi.

### *5. Davlat ta'lim standartlari qoidasida hammaning ta'lim olishi uchun imkoniyat yaratilganligi.*

Yangi qonunning 4- moddasida ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy kelib chiqishi, jinsi, tili, yoshi, irqi, millati, turar joyi, respublika hududida qachondan beri yashayotganligidan qat'i nazar, barchaning ta'lim olishi uchun teng huquqlar kafolatlanadi.

### *6. Tayanch ta'limining majburiyligi.*

Mamlakatimizda 1930- yilda boshlang'ich, 1949- yilda yetti yillik, 1958- yilda sakkiz yillik, 1970- yilda o'rta umumiy majburiy ta'limga asos solindi. 1984-yildan boshlab 11 yillik majburiy ta'limga

o'tildi. Tayanch ta'limi majburiy bo'lib, ta'lim oluvchilarga o'qishni o'rta ta'lim muassasalarida, turli xil hunar va o'rta maxsus o'quv yurtlarida davom ettirish huquqini beradi.

7. *Ta'lim ma'naviy va jismoniy tarbiya dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan o'quv reja va dasturlarini tasdiqlaydi.* Ularning bajarilishi nazorat qilinadi. Olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlar yosh avlodni ma'naviy boy, ruhan tetik, jismonan baquvvat, axloqan pok va mehnatsevar bo'lib voyaga yetishi uchun barcha moddiy va ma'naviy sharoitlarni hozirlaydi.

8. *Bilimdonlik va iste'dodni rag'batlantirish.*

Ta'lim-tarbiya muassasalarida ta'lim olayotgan bilimdon va iste'dodli o'quvchilarni rag'batlantirish stipendiya, turli ko'rinishdagi maqtov yorliqlari shaklida tashkil etiladi. Oliy o'quv yurtlari qoshida matematika, fizika, biologiya va boshqa fanlar yuzasidan iste'dodli bolalar uchun sirtqi maktablar faoliyati yo'lga qo'yiladi.

9. *Ta'lim muassasalarida chet tillarni o'rganish, din tarixi va jahon madaniyati sohasida bilim olish uchun sharoitlar yaratish.*

Xalq ta'limi tizimi va ta'lim to'g'risidagi yangi qonun asosida o'quvchilarning bilim va iste'dodlarini, vatanparvarlik sifatlarini shakllantirish uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Din va madaniyat tarixi bo'yicha maktab rejalariga yangi fanlar kiritildi.

10. *Ta'lim muassasalarining siyosiy partiyalar va ijtimoiy-siyosiy harakatlarning ta'siridan xoli bo'lishi.*

Yosh avlodga dunyoviy bilimlar berish, tom ma'noda hayotga va turmushga tayyorlash, yoshlarni chalg'itmaslik, guruhbozlikka yo'l qo'ymaslik maqsadida ta'lim-tarbiya muassasalari siyosiy partiyalar va ijtimoiy-siyosiy harakatlardan xoli bo'lishi zarur, deb topiladi.

11. *Tarbiyalanuvchilar va ta'lim oluvchilarni hurmatlash.*

Ta'lim tizimida barcha pedagoglarga davlat talablari darajasida o'qitish, majburiy hisoblangan fanlarni reja va o'quv dasturlari asosida olib borish, tarbiyalanuvchi va ta'lim oluvchilarning insoniy qadr-qimmatlarini hurmat qilish mas'uliyati yuklatildi.

12. *Pedagog shaxsini, uning ijtimoiy mavqeyini hurmatlash.*

Oldingi qabul qilingan qoidalardan farqli o'laroq, yangi qonunda pedagog shaxsini, uning ijtimoiy mavqeyini hurmatlash lozimligi belgilab qo'yildi.

O'qituvchi-tarbiyachilar sha'nini himoya qilish, ta'lim shakli, usuli va vositalarini tanlash, tashabbuslariga keng yo'l ochish, pedagogik faoliyatda tanilgan o'qituvchi, tarbiyachilarni davlat mukofotlari bilan taqdirlash, ularni qishloq va shahar, tuman, viloyat va respublika oliy o'rganlariga deputatlikka saylash umumxalq

vazifasi deb topildi. Shu bilan birga, ular zimmasiga axloq-odob qoidalariga rioya qilish, o'quvchi va talaba shaxsini hurmatlash mas'uliyati yuklatilgan.

13. *Amaldagi qonunlar doirasida mulkchilikning teng huquqliligi*, ularning mustaqilligi ta'minlanib, ta'lim muassasasi mustaqil yuridik shaxs sifatida, qonunlarda belgilangan tartibda barpo etiladi. Davlat tasarrufida bo'lmagan ta'lim muassasasi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan vaqtdan boshlab yuridik shaxs huquqini qo'lga kiritadi. Ta'lim muassasalariga muayyan maqom (gimnaziya, litsey, dorilfunun, akademiya va shu kabilar) berilishi ta'limni boshqaruvchi tegishli idoralar tomonidan attestatsiya asosida amalga oshiriladi.

Ta'lim muassasalari o'zaro bitim tuzishga, o'quv-tarbiya komplekslari va o'quv-ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari va uyushmalari tarkibiga kirishga haqlidirlar.

Bunday kompleks va birlashmalar tarkibiga kiruvchi muassasalarining vazifalari, huquqlari va majburiyatlari o'z nizomlarida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasida ta'limning yagona tizimiga amal qilinadi. Yagona tizim quyidagilarni o'z ichiga oladi:

### **Uzluksiz ta'lim**

Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir.

Uzluksiz ta'lim *ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs* shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

### **Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari**

Uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish prinsiplari quyidagilardan iborat:

- ta'limning ustuvorligi — uning rivojlanishining birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta'lim va yuksak intellektning nufuzi;

- ta'limning demokratlashuvi — ta'lim va tarbiya uslublarini tanlashda o'quv yurtlari mustaqilligining kengayishi, ta'limni boshqarishning davlat-jamiyat tizimiga o'tilishi;

- ta'limning insonparvarlashuvi — inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta'limiga nisbatan bo'lgan turli-tuman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining

ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhit o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvi;

- ta'limning ijtimoiylashuvi — ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish;

- ta'limning milliy yo'naltirilganligi — ta'limning milliy tarix, xalq an'analari va urf-odatlar bilan uzviy uyg'unligi, O'zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotning o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlash;

- ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi;

- iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

### **Uzluksiz ta'limni isloh qilish yo'nalishlari**

Uzluksiz ta'lim sohasidagi islohotlar quyidagilarni nazarda tutadi:

- ta'lim tizimining kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash, tarbiyachi, o'qituvchi, muallim va ilmiy xodimning kasbiy nufuzini oshirish;

- davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining har xil turlarini rivojlantirish;

- ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta'lim, fan, texnika va texnologiyaning, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta'lim va kasb-hunar ta'limi dasturlarini tubdan o'zgartirish;

- majburiy umumiy o'rta ta'limdan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga o'tilishini ta'minlash;

- maxsus kasb-hunar ta'limining markazlari sifatida fan va ishlab chiqarish integratsiyalashgan yangi tipdagi o'quv muassasalarini vujudga keltirish;

- ilg'or texnologiyalarni keng o'zlashtirish, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, chet el investitsiyalari ko'lamlarining kengayishi, tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesni rivojlantirish bilan bog'liq yangi kasb-hunar va mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar, shu jumladan, boshqaruv tizimi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

- milliy mustaqillik prinsiplari va xalqning boy intellektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlarning ustuvorligi asosida ta'limning barcha darajalari va bo'g'inlarida ta'lim oluvchilarning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish;

- ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, jamoat boshqaruvi shakllarini rivojlantirish, ta'lim muassasalarini mintaqalashtirish;
- ta'lim olishda, shuningdek, bolalar va yoshlarni ma'naviy-axloqiy, intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda oila, ot-onalar, jamoat tashkilotlari, mahallalar, xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish;
- ta'lim jarayoni va kadrlar tayyorlash sifatiga xolis baho berish tizimini yaratish va joriy etish;
- ta'lim tizimini moliyaviy, moddiy-texnika va boshqa tarzdagi resurslar bilan ta'minlash mexanizmlarini shakllantirish;
- uzluksiz ta'limni fan ishlab chiqarish bilan integratsiyalashtirishning puxta mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish;
- ta'lim va ilm-fan bilan bog'liq chet el hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish va rivojlantirish;
- tub yerli millatga mansub bo'lmagan shaxslar zich yashaydigan joylarda ular o'z ona tillarida ta'lim olishlari uchun tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlar yaratish;
- ta'limning barcha darajalarida ta'lim oluvchilarning huquqiy, iqtisodiy, ekologik va sanitariya-gigiyena ta'limi hamda tarbiyasini takomillashtirish.

## UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMI VA TURLARI<sup>1</sup>

Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlari asosida, turli darajadagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi va quyidagi ta'lim turlarini o'z ichiga oladi:

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining o'ziga xos xususiyati mustaqil ravishdagi to'qqiz yillik umumiy o'rta hamda uch yillik o'rta maxsus kasb-hunar ta'limini joriy etishdan iboratdir. Bu esa

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. „Sharq“ nashriyot-matbaa kompaniyasi. Toshkent, 1997- yil, 45—51- betlar.

umumiy ta'lim dasturlaridan o'rtta maxsus kasb-hunar ta'limi dasturlariga izchil o'tilishini ta'minlaydi.

Umumiy ta'lim dasturlari: maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim (I—IV sinflar), umumiy o'rtta ta'lim (I—IX sinflar), o'rtta maxsus kasb-hunar ta'limini qamrab oladi.

Kasb-hunar ta'limi dasturlari o'rtta maxsus kasb-hunar ta'limi, oliy (bakalavriyat, magistratura) ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni qamrab oladi.

## MAKTABGACHA TA'LIM

Maktabgacha ta'lim bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta'lim bola olti-yetti yoshga yetgunicha davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarida hamda oilalarda amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim maqsadi va vazifalarini ro'yobga chiqarishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

Maktabgacha tarbiyani rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

— malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;

— maktabgacha ta'limning samarali psixologik-pedagogik uslublarni izlash va joriy etish;

— bolalarni oilada tarbiyalashni tashkiliy, psixologik, pedagogik va uslubiy jihatdan ta'minlash;

— zamonaviy o'quv-uslubiy qo'llanmalar, texnik vositalar, o'yinchoqlar va o'yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarish;

— maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish;

— maktabgacha tarbiya muassasalarining har xil turlari uchun turli variantlardagi dasturlarni tanlab olish, maktabgacha tarbiyaning barcha masalalari bo'yicha malakali konsultatsiya xizmati ko'rsatish imkoniyatini yaratish;

— maktabgacha tarbiya va sog'lomlashtirish muassasalari tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish.

## UMUMIY O'RTA TA'LIM

To'qqiz yillik (I—IX sinflar) o'qishdan iborat umumiy o'rta ta'lim majburiydir. Ta'limning bu turi boshlang'ich ta'limni (I—IV sinflar) qamrab oladi hamda o'quvchilarning fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlari, ularda bilimlarni o'zlashtirish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, mehnat ko'nikmalarini, ijtimoiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishni va kasb tanlashni shakllantiradi. Umumiy o'rta ta'lim tugallanganidan keyin o'quv fanlari va ular bo'yicha olingan baholar ko'rsatilgan holda davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi attestat beriladi.

Umumiy o'rta ta'limning yangicha tizimi va mazmunini shakllantirish uchun quyidagilar zarur:

— maktabning I—IX sinflari doirasida sifatli umumiy o'rta ta'lim olishni ta'minlovchi davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish, bunda akademik litseylar va kasb-hunar kollejlaridan keyin olinadigan ta'lim dasturlari bilan mantiqiy bog'liqlik hisobga olinishi lozim;

— yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash;

— hududlarning geografik va demografik xususiyatlariga, shaxs, jamiyat va davlatning ehtiyojlariga muvofiq ravishda ta'lim muassasalari tarmoqlarini rivojlantirish;

— o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish;

— ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarni yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash;

— o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llaydigan va psixologik-pedagogik jihatdan maslahatlar beradigan markazlar tarmoqlarini tashkil etish.

### O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI

Umumiy o'rta ta'lim negizida o'qish muddati uch yil bo'lgan majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uzluksiz ta'lim tizimidagi mustaqil turdir. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishi — akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji o'quvchilari tomonidan ixtiyoriy tanlanadi.

*Akademik litsey* davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beradi. O'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi, chuqur, sohashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Akademik litseylarda o'quvchilar o'zlarini tanlagan ta'lim yo'nalishi bo'yicha (ijtimoiy, texnika, agrar va boshqa sohalar) bilim saviyalarini oshirish hamda fanni chuqur o'rganishga qaratilgan maxsus kasb-hunar ko'nikmalarini o'zlarida shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu ko'nikmalarni o'qishni muayyan oliy ta'lim muassasalarida davom ettirish yoki mehnat faoliyati jarayonida ro'yobga chiqarishlari mumkin.

*Kasb-hunar kolleji* tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beradi: o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlagan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini beradi.

Kasb-hunar kollejlari jihozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibning tanlanganligi, o'quv jarayonining tashkil etilishi jihatidan yangi tipdagi ta'lim muassasalari hisoblanadi. Ular bir yoki bir necha zamonaviy kasb-hunarni egallash hamda tegishli o'quv fanlaridan chuqur nazariy bilim olish imkonini beradi.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari ta'lim olish o'quvchilarga o'z bilimlarini chuqurlashtirish va tanlagan ixtisosliklariga ega bo'lishni ta'minlaydi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar beriladi. Bu diplomlar ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallangan ixtisos va kasb-hunar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilar zarur:

— akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari faoliyat ko'rsatishining normativ bazalarini ishlab chiqish va joriy etish;

— soha uchun oliy ta'lim muassasalarining, ishlab chiqarish, fan va madaniyat sohasining mutaxassislarini jalb etgan holda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlashi, shu jumladan, chet ellarda tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etish;

— o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat standartlarini ishlab chiqish va joriy etish;



— oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi oʻquv muassasalari uchun taʼlim va kasb-hunar dasturlari, oʻquv-uslubiy majmualar ishlab chiqish;

— akademik litseylarning oʻquvchilari mehnat faoliyati koʻnikmalarini egallashlari uchun ixtisoslashtirilgan dasturlar ishlab chiqish va joriy etish;

— kasb-hunar kollejlarida tayyorlanadigan mutaxassislarga nisbatan ixtisos va kasb-hunar, malaka talablarining roʻyxatini ishlab chiqish;

— hududlarning geografik va demografik shart-sharoitlarini va tegishli sohadagi mutaxassislarga boʻlgan mahalliy ehtiyojlarini hisobga olgan holda oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi tizimi taʼlim muassasalarining tashkil etilishini va ular oqilona joylashtirilishini taʼminlash, ularga oʻquvchilarni imkon qadar oilasidan ajratmagan holda qamrab olish;

— akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining moddiy-texnika va axborot bazalarini mustahkamlash.

## OLIV TAʼLIM

Oliy taʼlim oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi negiziga asoslanadi hamda ikki (bakalavriyat va magistratura) bosqichga ega.

Oliy taʼlim muassasalariga talabalar qabul qilish davlat grantlari va pullik-shartnomaviy asosda amalga oshiriladi.

*Bakalavriyat* — mutaxassisliklar yoʻnalishi boʻyicha fundamental va amaliy bilim beradigan, taʼlim muddati kamida toʻrt yil davom etadigan tayanch oliy taʼlimdir.

Bakalavrlik dasturi tugallanganidan soʻng bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlariga binoan, kasb boʻyicha „bakalavr“ darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasb-hunar faoliyati bilan shugʻullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

*Magistratura* — aniq mutaxassislik boʻyicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriyat negizida taʼlim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy taʼlimdir.

„Magistr“ darajasini beradigan davlat malaka attestatsiyasi magistrlik dasturining intihosidir. Magistrlarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasb-hunar faoliyati bilan shugʻullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

Ikki bosqichli oliy taʼlim tizimini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

— bakalavriat va magistratura uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish;

— oliy ta'lim muassasalari uchun professor-o'qituvchi kadrlar tayyorlash, shu jumladan, chet ellardagi yetakchi o'quv va ilmiy markazlarda tayyorlash;

— oliy ta'lim muassasalarida tarkibiy o'zgartishlar o'tkazish;

— oliy ta'lim muassasalari boshqaruvini takomillashtirish, bu muassasalarning mustaqilligini kuchaytirish, muassislar, vasiylar kengashlari, jamoat nazorat kengashlari shaklidagi jamoat boshqaruvini joriy etish;

— ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasi ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

— o'qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish hamda distansion ta'lim tizimi texnologiyasi, vositalarini ishlab chiqish va o'zlashtirish;

— yangi pedagogik va axborot texnologiyalari, tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda talabalarni o'qitishni jadallashtirish;

— xalqning boy ma'naviy va intellektual merosi va umumba-shariy qadriyatlar asosida ta'limning insonparvarlik yo'nalishini ta'minlash.

## **OLIJ O'QUV YURTIDAN KEYINGI TA'LIM**

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga, shaxsning ijodiy ta'lim — kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilgan.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni oliy o'quv yurtlarida va ilmiy-tadqiqot muassasalarida (aspirantura, adyunktura, doktorantura, mustaqil tadqiqotchilik) olish mumkin. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim bosqichlari (aspirantura, doktorantura) dissertatsiya himoyasi bilan yakunlanadi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi natijalariga ko'ra tegishli ravishda fan nomzodi va fan doktori ilmiy darajasi berilib, davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar topshiriladi.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish tadbirlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

— „Ta'lim to'g'risida“gi qonunga hamda mamlakatni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari muvofiq oliy malakali ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimini takomillashtirish;

— kasb ta'limi tizimi uchun oliy malakali ilmiy pedagog kadrlarni hamda ilg'or pedagogik texnologiyalar sohasida ilmiy kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;

— rivojlangan mamlakatlarning ilg'or ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlanishi uchun sharoitlar yaratib berish;

— fan, texnologiya va ta'lim sohasida rivojlangan mamlakatlar bilan xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish.

## **KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI QAYTA TAYYORLASH**

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash mutaxassislarining kasb bilimlari va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirishga qaratilgan. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim muassasalaridagi o'qish natijalariga ko'ra davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi guvohnoma yoki sertifikat topshiriladi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilar zarur:

— kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimi faoliyatida yangicha tarkib, mazmun hamda bu tizimni boshqarishni shakllantirish;

— yuqori malakali o'qituvchi-mutaxassis kadrlar tayyorlash va sohani ular bilan to'ldirib borishni ta'minlash;

— kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimida raqobatga asoslangan muhitni shakllantirishni va samarali faoliyat olib borishni ta'minlovchi normativ bazasini yaratish;

— kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim muassasalarini davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

— iqtisodiyotning davlat va nodavlat sektorlari, mulkchilikning turli shaklidagi tashkilot va muassasalarning talab-ehtiyojlariga muvofiq kadrlar va mutaxassislarni ildam qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni ta'minlovchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish va rivojlantirishga ko'maklashish;

— professional treningning ilg'or texnologiya va uskunalarini, shuningdek, murakkab fan yutuqlarini talab qiluvchi texnologiya jarayonlari imitatorlarini ishlab chiqish, yaratish va amaliy o'zlashtirib olish.

## MAKTABDAN TASHQARI TA'LIM

Bolalar va o'smirlarning ta'limga bo'lgan yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqtini va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat tashkilotlari, shuningdek, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashqari davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etadilar.

Maktabdan tashqari ta'limni rivojlantirish, ularning tuzilmasi va mazmun-mundarijasini takomillashtirish vazifalarini hal etish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:

— ta'lim berish va kamol toptirishga yo'naltirilgan xizmatlar ko'rsatuvchi muassasalar tarmog'ini kengaytirish va bunday xizmatlar turlarini ko'paytirish;

— milliy-pedagogik kadrlarga asoslangan va jahondagi ilg'or tajribani inobatga oluvchi dasturlar va uslubiy materiallar ishlab chiqish;

— o'quvchilarning bo'sh vaqtini tashkil etishning, shu jumladan, ommaviy sport va jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish tadbirlarining, bolalar turizmining, xalq hunarmandchiligining mavjud turlari va shakllarini takomillashtirish, milliy turlari va shakllarini tiklash hamda amaliyotga joriy etish.



### *Savol va topshiriqlar*

1. Uzluksiz ta'lim tizimini Siz qanday tushunasiz? Izohlab bering.
2. O'zbekiston Respublikasining „Ta'lim to'g'risi“dagi qonuni ta'lim tizimida qanday yangilanishlarga olib keldi? Ta'lim qonunidagi qoidalarni ochib bering.
3. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini Siz qanday tushunasiz? Aytib bering.





## VII BOB. PEDAGOGIK YANGILIKLAR KIRITISH MAZMUNI<sup>1</sup> VA YO'NALISHLARI

### PEDAGOGIK TIZIM BOSHQARUVINING MAQSAD VA TUZILISHLARI

„Pedagogik tizim“ va „Pedagogik tizimga yangiliklar kiritish“ mazmuni nimadan iborat?

Pedagogik tizim — bu tashkil etuvchilarni birlashtirish bo‘lib, ular o‘zgarishlar davomida barqarorligicha qolaveradi. Agar o‘zgarishlar (yangilik kiritish) qandaydir chegaradan oshib va siljib ketsa, tizim buziladi, uning o‘rniga yangi boshqa xususiyatga ega bo‘lgan tizim yuzaga keladi. „Pedagogik tizim“ (PT) — pedagogik elementlarning juda mustahkam birlashuvidir.

Har qanday pedagogik tizimning tuzilishi hozirgi davrda quyidagi elementlar muqobillari yig‘indisining o‘zaro bog‘liqligi ko‘rinishidan iborat bo‘ladi:

1. O‘quvchi.
2. Tarbiyaning maqsadi.
3. Tarbiya mazmuni.
4. Tarbiya jarayoni.
5. O‘qituvchilar (yoki TSO — ta‘limning texnik vositalari).
6. Tarbiyaviy ishlarning tashkiliy shakllari.

Bu tizimning tarkibiy qismlaridan har biri har qanday holat va vaziyatda elementlarga detallashtirib, yoyilib ko‘rsatilishi mumkin.

Bu tizimning tarkibiy tuzilishi to‘la emas, deb hisoblashga asoslarimiz bor. Ko‘rsatib o‘tilganlarga qo‘shila olmaydigan pedagogik tizimning muhim tarkibiy qismlariga, shuningdek, „natijalar“, „o‘quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarish“, „texnologiyalar“ dan iborat, deb qaraydilar.


Ular quyidagi 1-jadvaldagi pedagogik tizim modelida ko‘zga tashlanadi. Maqsadlar natijalar bilan mos kelib, uzluksiz turkumni tashkil etadi. Maqsadlarning natija bilan to‘la mos kelishi pedagogik jarayonning ishonchli o‘lchov ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi.

Pedagogik tizim boshqaruvining, birlashtiruvchi hamma tarkibiy qismlari nisbatan mustaqil qism hisoblanadi, chunki ular o‘z maqsad va tuzilishlariga egadirlar.

<sup>1</sup> M. P. Podlastniy. Yangiliklar kiritish mazmuni va yo‘nalishlari (ishlamasi).

Pedagogik tizimning tashkil etuvchi tarkibiy qismini ko'pincha alohida protsessual omillar birligi sifatida o'quv-tarbiya jarayonining texnologiyasi tashkil etadi. Bunday yondashish pedagogik tizimda ko'zlangan maqsadga erishishni ta'minlaydigan mustahkam tashkiliy-texnologik majmua yaratadi. Shuni ta'kidlash kerakki, pedagogik tizim har doim texnologik xususiyatga ega. Pedagogik tizimni ana shu belgi bo'yicha tarkibiy qismlar ixtiyoriy „to'plamidan“ ajratib olish oson. Texnologiya — bu qat'iy tashkiliy mantiqqa bo'ysunuvchi imkoniyatlarni belgilovchi tizimning ichki sifatidir. Shu bilan birga, topshiriqni baholash darajasining o'zidayoq texnolog ma'lum jarayonlar hamda hodisalar mexanizmi va aniq tafsilotlariga tayanadi. Ma'lum jarayonlardan muvaffaqiyat ifodasining dalili sifatida foydalaniladi, turfa hodisalar natijalari esa yangi sabab va formula manbalari sifatida amalga oshiriladi.

1- jadval.



O'quv texnologiyalarini loyihalashtirish metodik tajribalarni umumlashtirishdan farqli — „mumkin emas“ degan xulosani bermaydi. Texnolog uchun bu faqatgina vaqt va harakatlar masalasidir. Texnolog faqatgina puxta tekshirib ko'rilgan, asoslangan, shubha qilinmaydigan dalillarga asoslanadi. Texnolog tajribalar o'tkazmay, aniq ko'zlangan natijalar bilan ish olib boradi. Texnologiyaning asosiy vazifasi aniq kafolatlangan natija olishdir.

Asosiy omilni tushunish qolgan hamma o'zaro aloqador elementlar tizimi tartibining mazmunini ochib beradi. Texnologiyada hech bir qismni olib tashlab bo'lmaydi, u yerda ortiqchasi bo'lmaydi, bo'lishi ham mumkin emas.

Har doim, ayniqsa, aniq fanlar yo'nalishi vakillari orasida pedagoglarni „amorf“ xarakterlari uchun koyib turuvchilar topiladi

va ular har galgidek PT modellarini reviziya qilish va modernizatsiyalashtirishdan boshlaydilar. PT ning har bir aniq modifikatsiyasi ko'zlangan natijaga erishish uchun aniq xususiyatga va imkoniyatlarga ega.

Bu imkoniyatlar tizimning aniq xususiyatlari bilan mustahkam belgilab qo'yilgan. Biz ta'lim-tarbiyadan ko'zlangan daraja va sifatga erishmoqchi bo'lsak, unda shunga mos PT haqida o'ylab qo'yishimiz kerak, uning ishlashi pedagogik jarayonning kerakli yo'nalishi va intensivligini ta'minlaydi. Buning natijasida, o'quv-tarbiyaviy jarayonning yanada yuqoriroq samaradorligi har doim pedagogik tizimni takomillashtirish oqibatlaridir. Bu juda murakkab muammo bo'lib, uni ishlab chiqishga dunyo fani endi kirishmoqda. Hozirgi umumiy ko'rinishga juda ko'p ko'rinishli ko'rsatkich „xarajat“ va natijalarni to'plash mumkin bo'lmoqda va bunda muammoli foydalilikni aniqlash maqsadida iqtisodiy nuqtayi nazarga o'tkazish kerak bo'ladi. Initsiativ va subyektiv baholarni noto'g'ri deyish oson, lekin bu yerda vaziyatdan chiqish faqatgina fikrlarni to'plashdan iborat bo'lmoqda.

Har qanday PT ning maksimal umumiy samarasi tarbiyachilar uchun mumkin bo'lib tuyulgan, ilgari erishilgan darajadan pastroq bo'lmasa, ko'zlangan maqsadga 100% to'la erishilgan hisoblanadi.

Yana bir bor PT tuzilishiga nazar tashlaylik: u „yomon“ va „yaxshi“ bo'lsa-da, PT uchun birdir. Uni o'qituvchi va o'quvchilar munosabatigacha soddalashtiramiz. Bu munosabatlar o'rganilganda umumiy xulosa ma'lum — deyarli 50% o'qituvchiga, 50% esa o'quvchiga bog'liq. Bundan kelib chiqadiki, masalan, eng yomon PTning samaradorligi, aytaylik, o'qituvchi hech qanday harakatlarni amalga oshirmagan holda, ammo tizim ishlasa, 50% dan kam bo'lmaydi. An'anaviy pedagogik tizimning foydali harakatlar ko'rsatkich 60% dan oshmaydi, deb hisoblanadi. Bu ko'rsatkich maktab tarbiyalanuvchilarining faqatgina yarmidan kami, ko'prog'i esa dasturni to'la egallashga erisha oladi degan fikrni bildiradi.

Yana bir muhim fikr: tizimning umumiy nazariyasidan ma'lumki, tizimni birdaniga bir necha parametrlar bo'yicha yaxshilash mumkin emas. To'g'ri yo'l — yangilikni asta-sekin uning foydaliligiga ishonch hosil qilib, har tomonlama tekshirib ko'rib, keyingi ishlarni o'ylab kiritishdan iborat. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, har bir yaratilgan yangilik oldiniga, albatta, ilgarigisidan ham yomon ishlaydi. Chunki o'rganish va moslashish, sustkashlikni yengishi kerak.

Pedagogik tizimni takomillashtirishning asosiy yo'llari ikkita: intensiv va ekstensiv. Intensiv rivojlanish PT ni ichki imkoniyatlar hisobiga, ekstensiv yo'l esa yangi vositalar, asbob-uskuna texnologiyalari hisobiga takomillashtirishni ko'zda tutadi. PT ning intensiv rivojlanish imkoniyatlari tugagan deb hisoblanadi: maktabning mavjudligi ming yilliklar davomida hamma yo'llarni sinab ko'rib bo'lgan, hozirgi pedagoglar takrorlash tarbiya mazmuni va vazifasi, mantiqiy chuqur esga olish, uning birlamchi asoslarini chuqur tushunib borishdan iborat, deb hisoblaydilar.

G'arb maktablari oddiy va sodda yo'l bilan pedagogik mahsulotni yangi axborot texnologiyalari orqali vaqtni turli o'quv faoliyatlariga taqsimlash, sinfdagi ishlarni differentsiyalash va individuallashtirish hisobiga rivojlanib bormoqda. Shu bilan pedagogik mahsulot sifati yaxshilanmoqda, lekin ko'pchilik mustaqil ekspertlar bunga ishonchsizlik bildirmoqdalar. Bu holatdan chiqish yo'li „интегрированные инновации“ (yangiliklarni jamlash) deb angolanuvchi, intensiv va ekstensiv yo'llarni birlashtirishga imkon beruvchi PT rivojlanishi hisoblanadi.

Bu PT ning foydalanilmagan imkoniyatlarini chuqur o'rganishni talab qiladi, ular turli ko'rinishdagi, turli xarakterdagi, turli darajadagi pedagogik tizim va ularni tashkil etuvchilardir.

Bo'sh joylarini yangi texnologiyalar bilan mustahkamlab, PT ning umumiy samarasini yaxshilashga urinsa bo'ladi. Bunday yondashishda innovatsiya o'ylab topilgan „tashqi“ chora-tadbir bo'lib ko'rinmaydi, balki chuqur mazmundagi talab va tizimni bilish hisoblanadi.

Agar innovatsion talablarga shunday nuqtayi nazar bilan qaralsa, ularda deyarli yangi jihatlar yo'qdek tuyuladi. Jumladan, eski muammolarni hal etish uchun yangi „retsept“lar ham yo'q. Umuman olganda, innovatsion g'oyalarga insoniyat taraqqiyoti jarayoni haqidagi yangi bilimlarga asoslangan pedagogik muammolarni hal qilishda ilgari qo'llanilmagan nazariy yondashuvlar, aniq amaliy texnologiyalardan olingan yuqori natijalarni kiritishga majburmiz.

Pedagogika fanida berilgan g'oyalarning ishlanganlik darajasini muvofiqlik jihatlari bo'yicha umumiy va qisman innovatsion loyihalar miqdoriga, shuningdek, pedagogik amaliyotda ulardan foydalanishning tahliliy, umumiy pedagogik innovatsiyalariga kiritish imkonini berdi:

1. Pedagogik fan tizimi va pedagogik amaliyotning yangi bo'lmagan, biroq doimiy dolzarb va o'zida o'quv-tarbiya jarayonini



optimallashtirishning umumiy g'oyalari va amaliy texnologiyalarini o'zida mujassam qilgan.

2. Insonparvarlik pedagogikasiga barcha nazariy qoidalar va amaliy texnologiyalarning yig'indisi jamlangan.

3. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yangi g'oyaviy yondashuvga asoslangan.

4. Axborotlashtirish ommaviy kommunikatsiyalashning yangi g'oyalari va vositalarini qo'llashga asoslangan texnologiyalar innovatsion texnologiyalar hisoblanadi.

Pedagogik tizimdagi innovatsion tuzilmalarning bosh yo'nalishlari quyidagilar:

- yaxlit pedagogik tizim;
- o'quv yurti;
- pedagogika nazariyasi;
- o'qituvchi;
- o'quvchilar;
- pedagogik texnologiyalar;
- mazmun;
- shakl, metod va vositalar;
- boshqaruv;
- maqsad va natijalardan iborat.

Tizimosti tuzilmalarining teranligi bo'yicha innovatsion yangi kiritmalarning mohiyati, sifati va maqsadga muvofiqligi haqida muayyan pedagogik xulosa qilish mumkin.

## PEDAGOGIKA TIZIMINI OPTIMALLASHTIRISH

Umumiy pedagogika tizimiga mansub bo'lgan doimiy umumiy innovatsiya o'quv-tarbiya jarayonini muvofiqlashtirishdir.

**Optimallashtirish** — ko'p sonli imkoniyatlardan eng qulayini tanlab olish jarayonidir. Shunday murakkab, dinamik ko'p qirrali **perarxik** pedagogik tizimda minglab variantlar, oqim va o'quv-ta'lim faoliyatini tashkil etish, maqsadga erishish yo'llari mavjud. Lekin ulardan bittasigina mavjud aniq vaziyat uchun mos kelishi mumkin. Uni qidirib topish optimallashtirishning asosiy vazifalaridir. U mumkin bo'lgan variantlarni taqqoslash va boshqa mavjud imkoniyatlarni baholash yo'li bilan hal etiladi.

Optimallashtirish deganda, pedagogika tizimi qaysi maqsadlar uchun tashkil etilgan bo'lsa, o'sha maqsadlarga munosibli darajasini tushunish mumkin. Bir sharoit uchun erishilgan muvofiqlik deyarli hech qachon boshqa sharoitlarga mos kelmaydi, shuning uchun

optimallashtirish tushunchasi aniqlikni talab qiladi. Optimallashtirish umumiy bo'lishi mumkin emas, u faqatgina belgilab olingan masalaga nisbatan yuzaga kelishi mumkin. Shu bilan birga, pedagogika tizimining qay maqsadi optimallashtirilishi, qay bir ko'rsatkichlari qo'yilgan maqsad bilan muvofiqligiga erishilishi kerakligini aniq tasavvur etish zarur. Optimallashtirishning nazariy va amaliy yo'nalishlarini farqlay bilish zarur. Optimallashtirish tushunchasining sinonimi — nazariy asosdagi muqobillar, hisoblash, chamalab ko'rish, taqqoslash, solishtirishdir. Optimallashtirish amaliy yo'nalishda yangilik kiritish-qayta tashkil etish, qayta qurish, uni qo'yilgan masalalarni yechish uchun eng qulay holga keltirishdir.

Optimallashtirish masalalarini yechish asosiy o'lchov mezonlarini tanlashdan boshlanadi.

Optimallashtirish mezon — bu rivojlanish jarayoni muqobilariga baho berish va ulardan eng yaxshisini tanlab olishni amalga oshirish uchun asos bo'lgan belgidir. Mantiqning mezon — o'lchovi bir ko'rsatkichdan iborat bo'lishi kerakligini talab etishiga qaramay, u pedagogikada har doim kompleks bo'lib chiqadi. Chunki pedagogika tizimida o'tib boruvchi jarayonlar, sabab va oqibatlarini ajratishning iloji bo'lmaydi.

Oldin ko'rsatib o'tilganidek, kerakli natijalarga o'qituvchi va o'quvchilarni yetarlicha ish bilan band qilish yo'llari orqali erishish mumkin. Lekin ortiqcha vazifalar inson ish qobiliyatining pasayishiga, sog'lig'ining yomonlashishiga olib keladi. Optimallashtirish uchun o'lchov — mezonlar kerakligi aniq, faqatgina o'z imkoniyatlari chegarasida ish olib boruvchi o'qituvchi va o'quvchilarga ortiqcha vazifa yuklanmay, kechayotgan o'quv-ta'lim jarayonini optimal, deb hisoblash mumkin. Ilgarigi qoidalarni hali hech kim bekor qilgani yo'q. 1- sinfda bola uy vazifalarini bajarish uchun 1 soat, 2- sinfda 1,5 soat, 3—4- sinflarda 2 soat, 5—6- sinflarda 2,5 soat, 7- sinfda 3 soat, 8—9- sinflarda 4 soat sarflashi kerak.

Shunday qilib, o'quv jarayonini optimallashtirishning asosiy mezonini sifatida quyidagi ikki ko'rsatkich bir-biri bilan bog'liq holda qo'llaniladi:

1. Ta'lim-tarbiya jarayonida iloji boricha yuqori natijalarga erishish.

2. Turli yoshdagi o'quvchilarning sinf va uy ishlarini bajarishlari, o'qituvchilarning darsga tayyorgarlik ko'rishlari uchun sarflaydigan vaqtlarini normativlar asosida belgilash.


Optimallashtirishning metodik asosi pedagogik jarayonning barcha komponentlari qonuniy o'zaro aloqalarini murakkab dinamik tizimlarni boshqarish nazariyasiga tayanib o'rganishni talab qiluvchi sistemali yondashish hisoblanadi. Falsafiy kategoriyalar bo'yicha optimallashtirish „chegara“, „o'lchov“ga asoslanadi. U pedagogik tizimning u yoki bu tashkil etuvchilarini giperbolizatsiyalashtirish, faoliyat sur'atini, o'qitish murakkabligini oshirib yoki pasaytirib yuborishga qarshi chiqadi, aynan ularni qo'llashga muvofiq chegara tanlashni talab etadi.

Pedagogika tizimini optimallashtirishning asosiy metodologik talablari quyidagilardan iborat:

1. Optimallashtirish tartibi butun tizimni birday qamrab olishi.
2. Optimal muqobillarni tanlashda o'quv-tarbiya jarayoni qonuniyatlarining hamma tizimiga tayanish.
3. Tizim tashkil etuvchilarining barchasini optimallashtirish imkoniyatlarini muntazam qayd etib borish.
4. Optimallashtirish ayniqsa dolzarb masalalardan bo'lganligi uchun ularni yechishda unga yanada takomillashgan texnologiyani qo'llab boruvchi, doimiy harakatlanuvchi innovatsion jarayon sifatida qaraladi.

Shunga e'tibor berish kerakki, optimallashtirish bir tomondan pedagogik jarayonning mavjud sharoitga moslashuvini nazarda tutsa, boshqa tomondan o'zi yangi sharoit yaratib, unga pedagogik jarayonning moslashuvini talab qiladi. Bu yerda hech qanday qarama-qarshilik yo'q, chunki bu ikki jarayon bir-biri bilan bog'liq holda yonma-yon boradi. Agar biz bugun sharoitga moslashsak, bu bizga bog'liq bo'lmagan vaziyat bilan aloqadordir. Lekin pedagog har doim ham ularni muvaffaqiyatli borishi uchun optimallashtirishga intiladi. Amalda optimallashtirish o'quvchilar erishgan bilimlari, tarbiyasi, rivojlanganlik darajasini belgilangan ko'rsatkichlar bilan baholashdan boshlanadi. Odatda, uning aniq, to'g'ri baholash darajasi pastroq bo'ladi. Bundan so'ng biroz vaqtdan keyin natijalar o'sishi mumkinligi darajasi loyihalashtiriladi. So'ngra ko'zlangan o'zgarishni ta'minlashga qaratilgan o'quv-tarbiya choralari tizimi qo'llaniladi. Bu ishlar yakunida erishilgan natijalar va jarayonlar optimal mavjud bo'lganlari bilan solishtiriladi, o'quvchi va o'qituvchi uy vazifasi, sinfdan tashqari ishlar olib borishga ketkazgan kuchlari, vaqti normativdagisi bilan solishtiriladi, optimallashtirish darajasi haqida xulosa chiqariladi.

Optimallashtirish o'quv-tarbiya qonuniyatlari va asoslaridan kelib chiquvchi uslublar tizimi orqali amalga oshiriladi va aniq choralar ko'rinishida namoyon bo'ladi:



Maktab, pedagog va o'quvchilar faoliyatining quyidagi darajalari ma'lum:

— yetarli emas, jiddiy (og'ir, mushkul, yomon ahvol), tushunarli va optimal.

Oxirgisini ta'minlash uchun o'quv jarayonini optimallashtirishning quyidagi asosiy uslublari qo'llaniladi:

1. Kompleks yondashishli loyihalashtirish, rejalashtirish, amaliy faoliyat choralarini tanlash, natijalarni baholashda bir taraflamalikning oldini olish — umumiy talab sifatida.

2. Pedagogika tizimi xususiyatlarini hisobga olgan holda masalalarni aniqlab olish.

3. Predmetlararo va yo'nalishlararo bir-biriga optimallashtirishda o'quv-ta'lim jarayonining mazmuni optimal variantini tanlash, ratsional mazmunan tuzilishini ko'rish.

4. Qo'yilgan masalalarni o'z vaqtida muvaffaqiyatli bajarish imkonini beruvchi o'quv-tarbiya jarayonining uslub va shakllarini tanlash.

5. Yaxshi tayyorlangan, bo'sh o'zlashtirgan hamda boshqa hamma ta'lim oluvchilarga nisbatan differensial va individual yondashuvni amalga oshirish.

6. O'quv-tarbiya faoliyatida boshqarish va o'zini o'zi boshqarishni oqilona birga olib borilishi, uning borishini operativ to'g'rilash va

tuzatish. Asta-sekinlik bilan ta'lim berish — mustaqil ilm olishga, tarbiya esa o'zini o'zi tarbiyalashga aylanib borishi kerak.

7. O'quv-tarbiya jarayoni natijalari va ularga o'rnatilgan optimal ko'rsatkichlar bo'yicha erishish uchun ketgan vaqt va mahsulot uchun sarflangan harakatlar nisbati tahlil qilinadi.

Agar o'quv-tarbiya jarayonini optimallashtirish bo'yicha asosiy pedagogik harakatlarni qisqacha yakun qilib olsak, unda quyidagilarga ega bo'lamiz:

- masalalarni aniqlash va umumlashtirish;
- generalizatsiya;
- predmetlararo, yo'nalishlararo muvofiqlik;
- variantlarni solishtirib baholash asosida tanlab olish;
- o'quv-ta'lim jarayonini differensiatsiyalash va individuallashtirish;
- gumanizatsiya (insonparvarlashtirish);
- muhim sharoitlar yaratish;
- boshqarish va o'zini o'zi boshqarishning birgalikda olib borilishi;
- jarayonni o'z vaqtida tuzatib, tartibga solib turish;
- uning natijalarini belgilangan ko'rsatkichlar bo'yicha baholash;
- yanada murakkab muammolarga o'tish;
- innovatsion jarayonning muntazamligi va bosqichliligi.

Qadimiylik alomatiga ega bo'lgan yangilik, aniqrog'i, eskilik va yangilik qatlamidan iborat yangiliklar birlashib ilgari bilimni to'ldiradi va ravshanlashtiradi.

Har qanday vositaning yangiligi vaqt tushunchasida nisbiy bo'ladi, biror o'qituvchi uchun yangi bo'lgan narsa ikkinchi o'qituvchi uchun yangilik bo'lmaydi. Yangilik har doim aniq tarixiy ifodaga ega bo'ladi. Aniq vaqtda yaratilib, aniq tarixiy bosqich masalalarini yechib, yangilik qisqa vaqt ichida ko'pchilikning odatiy umumiy tajribasi bo'lib qolishi yoki eskirib keyingi vaqt yangiligi rivojlanishiga to'siq bo'lib qolishi mumkin. Masalan, Y. A. Komen-skiyning sinf bo'lib dars o'tish ta'lim tizimi, Ibn Sino, Avloniy, Munavvar qorilarning tarbiya nazariyasi va boshqa yangiliklar o'z davrining buyuk g'oyalari bo'lib qoladi, ularni o'sha vaqtni hisobga olmay o'rganish va hatto baholash mumkin emas.

Xususiy yangilik, nisbatan, yangilikning zamonaviy turlaridan biridir. Xususiy yangilik mahsulot elementlaridan biri — kundalik

zamonaviylashtirish tartibida yangilanishini anglatadi. Xususiylashtirish to'planib borishi va uning to'la o'zgarishiga absolut yangilik va radikal yangiliksiz olib kelishi mumkin.

Shartli yangilik ilgari ma'lum bo'lgan elementlarning g'ayrioddiy birlashuvi natijasida hosil bo'ladi. Bu o'z-o'zidan yangilik emas, lekin bunday birlashish natijasida murakkab va qayta ilg'or tuzilishga ega bo'ladi. Bundan tashqari, subyektiv yangilik ko'rsatiladi, bunda ushbu subyekt uchun obyekt yangi bo'ladi. Predmet va hodisalar bir jamiyat uchun umuman yangi bo'lishi va boshqa jamiyat uchun yangi bo'lmasligi mumkin.

Yangilikning muhim tomoni, u ushbu obyektning ilgariyidan nimasi bilandir farq qilishini taqozo etadi. Masalan, taklif etilayotgan o'qitish metodikasi quyidagi qismlarga ajratiladi:

1. Ma'lum bo'lganini boshqa ko'rinishga keltirish. Ya'ni amalda yangilik emas — rasman yangilik.

2. Ilgari ma'lum bo'lganini sezilmas o'zgarishlar bilan qaytarish.

3. Ilgari ma'lum bo'lganiga aniqlik kiritish, konkretlashtirish.

4. Ilgari ma'lum bo'lganini muhim elementlar bilan to'ldirish.

5. Sifatli yangi obyekt yaratish.

Yangilik bu aynan vosita, innovatsiya esa jarayon, u ma'lum bosqichlar bo'yicha rivojlanadi. Innovatikada bu „yangiliklar kiritishning hayot sikli“ tushunchasida o'z aksini topadi.

Birinchi blok — pedagogikada yangilik yaratish bloki, bu yerda — pedagogikada pedagogika yangiliklarini tasniflash, yangilik yaratish shartlari, yangilik mezonlari, yangilikni o'zlashtirish va foydalanishga tayyorlik o'lchovi, odatlar va novatorlik, pedagogikada yangilik yaratish bosqichlari, yangilik ijodkorlari kabi kategoriyalar ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, pedagogikada yangilik kategoriyasi chegarasi nazariyasini ishlab chiqish katta ahamiyatga ega. Bu tushunchalarni pedagogik neologiya o'rganadi.

Ikkinchi blok — yangilikni baholash, o'zlashtirish va tushunish bloki: yangilikni o'zlashtirish jarayoni turlari va baholash, pedagogik hamkorlik, pedagogikada konservator va novatorlar, innovatsion muhit, pedagogik birlashmaning yangilikni baholash va qabul qilishga tayyorligi. Bu tushunchalarni pedagogik aksiologiya o'rganadi.

Uchinchi blok — yangilikdan foydalanish va qo'llash bloki. Ushbu blokda tatbiq etish, yangilikni qo'llash va foydalanish turlari

va qonuniyatlari o'rganiladi. Bu tushunchalar bloki pedagogik praktsiologiya deb nomlanuvchi tatbiq etishni o'rganish bilan bog'liq.

Pedagogik innovatsiyalar qayta takrorlanish turkumi qonuni mazmunining yangi sharoitda yangilikni qayta tiklanishidan iboratdir. Pedagogika va ta'lim tizimi uchun bu o'ziga xos xususiyatdir. Shu sababli yangilik nazariyasi va amaliyoti ko'pgina qarama-qarshiliklar keltirib chiqaradi, chunki pedagoglar birlashmasi bunga xuddi ilgari bo'lgani kabi yondashib, bu — yangilikning takrorlanishi eski emas yoki eskisini yangidan qayta tiklanishi ekanini sezmaydilar. Ta'lim sohasida pedagogik adabiyotlarda innovatsion jarayonlarning ikki turi ko'rsatiladi:

1. Innovatsiya ko'p jihatdan tabiiy o'z-o'zidan sodir bo'ladi, yuzaga keltiruvchi talablarga aniq bog'lanmay yoki innovatsion jarayonni amalga oshirish yo'l va vositalari butun sharoitlar tizimini to'la tushunmagan holda sodir bo'ladi. Bu turdagi innovatsiya har doim ham ilmiy asoslash to'laligi bilan bog'liq bo'lmay, vaziyat talablari ta'siri bilan empirik asosda sodir bo'ladi. Bu turdagi innovatsion jarayonga o'qituvchi-novator, tarbiyachi, ota-onalar faoliyatini kiritish mumkn.

2. Ta'lim tizimida ongli ravishda biror maqsadni ko'zlab, fanlararo faoliyatda ilmiy tarqala oladigan mahsulot bo'lgan innovatsiya.

Innovatsion jarayonlarning pedagogikada jadallashishi faqat ijtimoiy buyurtma va nazariy tekshirishlar, novatorona tajribada ularni amalga oshira oladigan vositalar mavjudligi bilan bog'liq bo'lmay, u pedagogik uyushma ongi doirasidagi muhim o'zgarishlarga ham bog'liqdir.

Tizimli yangilikni kiritishda pedagoglarning psixologik tayyorligi juda muhim shartdir. Ayniqsa, buni hozir bizning maktablarimiz innovatsion jarayonning boshlang'ich radikal bosqichi davridan o'tayotgan, butun jamiyat hayotidagi isloh qilish bilan yuzaga kelgan pedagogikamiz merosini qayta tushunish, uni insonparvarlik asoslariga qaytarish davrida tushunish muhimdir.

Aniq yangiliklar kiritishni o'rganish bilan bog'liq muammolarni ishlab chiqish zarurligini tushunib, ilmiy qiziqishlar innovatsion jarayonlar yo'nalishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilishga qaratildi.

Shu tariqa innovatsiya pedagogik jarayon komponentlari, pedagogik uyushma faoliyati va uning umumiy tuzilishiga ta'sir etuvchi katta tizimli samaraga egadir.

Har qanday oddiy yangiliklardan farqli o'laroq, pedagogik innovatsiya bolalar shaxsiy va ijodiy jarayonini taklif etadi, ular butun ta'lim sohasida turli vazifalarni bajaruvchi mutaxassislar — ekspert, konsultant, loyihalashtiruvchi, yangilik kiritish bo'yicha maktab pedagogik ishlarini bajaruvchi o'qituvchilarni tayyorlashni o'z ichiga qamrab oladi.



### ***Topshiriqlar***

1. Pedagogik tizim haqida gapirib bering.
2. Pedagogika amaliyotidan o'qituvchilarning yangi o'qitish metodlarini so'zlab bering.







### VIII BOB. DIDAKTIKA

#### DIDAKTIKANING PREDMETI VA UNING VAZIFALARI

Didaktikaning predmeti ta'lim-tarbiya muassasasi sharoitida muallimning rahbarligi ostida amalga oshadigan o'quv jarayonidir. Didaktikada ana shu jarayonning qonuniyatlari tadqiq qilinadi, har xil tipdagi ta'lim-tarbiya muassasalarida u yoki bu darajada beriladigan ta'lim mazmunini belgilashning ilmiy asoslari, o'qitish vositalari va metodlarining samaradorligini oshirish yo'llari hamda ta'limning tashkiliy shakllari ishlab chiqiladi.

Didaktika pedagogikaning ta'lim va o'qitish nazariyasini ishlab chiqadigan tarmog'idir.

Didaktika yunoncha „didaktikos“ so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'qitish, o'rganish ma'nosini bildiradi. Yaqin va O'rta Sharqda Xorazmiy, Kindiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom kabi mutafakkirlar ilmiy didaktikaga asos solgan bo'lsalar, Amos Komenskiy, shveysariyalik pedagog I. G. Pestalossi, nemis pedagogi A. Disterveglar Yevropada didaktikaning rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar.

Xorazmiy, Kindiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom, Tusiy va ularning izdoshlari qarashlarining muhim xususiyati shundan iborat ediki, mazkur olimlar doimo predmetning qiyofasi inson ongida mavhumlashuvi jarayoniga, mana shu predmetning mohiyati va o'ziga xosligini tushunish sodir bo'lishi hamda shakllanishiga e'tibor berganlar. Ular bilishning predmeti va manbalariga, bilish jarayoni qanday bosqichlardan tarkib topishiga, bilish faoliyati bilan amaliy faoliyat o'rtasidagi munosabatlarga qiziqqanlar.

Xorazmiy shaxsning uzluksiz kamol topishi nazariyasini rivojlantirish borasida muhim xizmat qildi, induktiv va deduktiv tafakkurdagi alohidalik hamda umumiylikning birligi prinsipini muayyanlashtirdi.

Kindiy substansiyani barcha ilmiy bilimlarning bosh predmeti sifatida ko'rib chiqishda, eng avvalo, miqdor va sifatni hissiy idrok etish zarurligini tasdiqladi. Kimki miqdor va sifatni bilmasa, u substansiyani bilishdan ham mahrumligini uqtirdi. Olim o'zining

didaktik g'oyalarda hissiy va ratsional bilishni ifodaladi. Hissiy bilish — yakka narsalarni bilishdan iborat bo'lsa, oqilona bilish — umumiy narsalarni bilish ekanini ta'kidladi. Uning fikricha, hissiy bilish faqat aql uchun material beradi.

Sabablar haqiqatni bilishda va o'zining ana shu haqiqatga muvofiq xatti-harakatlarini anglashda insonning aqliga ko'maklashadi, „Haqiqat, — deb yozgan edi Kindiy, — har qanday narsani va uning barqarorligini bilishning sababidir, binobarin, hayotdagi mavjud hamma narsa haqiqiyliги bilan mavjuddir. Haqiqatni bilish zarur va shunga ko'ra mavjud narsalarni bilish mumkin“<sup>1</sup>.

Forobiy o'qitish metodlarining tasnifini ishlab chiqqan. Ularni amaliy va nazariy metodlarga ajratgan, shu tariqa o'qitishning amaliy yo'nalishi va kishilarning hayoti hamda kundalik faoliyati bilan bog'liqligi g'oyalarni olg'a surgan. Olim o'qitishning tajriba ko'rsatmali, induktiv va deduktiv, amaliy metodlariga alohida e'tibor bergan. Barcha metodlarni o'quvchining hayotiy tajribasiga, mantiqiy tafakkuriga tayangan holda birlashtirgan. O'quv jarayonini tashkil etishga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqishda deduktiv metodni ustun qo'yib, o'quvchilarga materialni tushuntirishda nimalarga alohida e'tibor berish haqida, eng muhim narsalarni fanga ishonchli bilimlar beradigan va shubhalantirmaydigan dalillar bilan yoritish va hokazolar bo'yicha o'qituvchilar uchun qimmatli tavsiyalarini bayon qilgan<sup>2</sup>.

Forobiy matematika fani misollari asosida o'qitishning ilmiylik, ko'rsatmalilik, tushunarlilik va izchillik prinsiplarini ishlab chiqqan. Bilish jarayoni va fandagi bilim shakllarining mohiyatini yoritgan. Uning fikricha, ana shu jarayonlar qonunlar sifatida shakllanadi va ularga rioya qilish fikrlashni takomillashtiradi hamda murakkab bilish jarayonida qo'pol xatolarning oldini oladi. Bilish jarayoni fikrlash mantiqi orqali amalga oshadi. Mantiq, obyekt anglashga qaratilgan va aql yetadigan mohiyatlar tahlil etiladigan fikrlash jarayonining to'g'riligini belgilashga xizmat qiladi. Mantiq quroldir va u narsalarni aniq bilishga yordam beradi.

Forobiy bilish faoliyatini tashkil etish masalalari bo'yicha ham anchagina mufassal tavsiyalarni ishlab chiqqan. Uning yozishicha, yaxshi nazariyotchi bo'lish uchun nazariya qaysi fanga taalluqli

<sup>1</sup> Избранные произведения мыслителей Ближнего и Среднего Востока IX—XIV веков. — М., 1961.

<sup>2</sup> Ал-Форобий. Математические трактаты, — Алматы: „Наука“. 1972, 327- bet.

bo'lsa-da, quyidagi uchta shartga rioya qilishi shart: 1. Mazkur fan asosidagi hamma prinsiplarni to'liq bilish. 2. Mana shu prinsiplardan va mazkur fanga doir ma'lumotlardan tegishli xulosalar chiqara bilish. 3. Noto'g'ri nazariyani rad eta bilish va haqiqatni yolg'ondan farqlash, xatolarni to'g'rilash uchun boshqa mualliflarning fikrlarini tahlil qila bilish.

Borliqning aks etishi sifatidagi hissiy bilish muammosi va eng asosiy masala — bilishning manbalari masalasi doimo Beruniy nazariy bilish faoliyatining diqqat markazida turdi. Olim bilishning nazariy asosini cheksiz va uzluksiz jarayon sifatida tahlil va talqin qildi. U o'zidan oldingi olimlar ishlab chiqqan bilishning ilmiy metodlarini rivojlantirib, didaktik yo'sinda muhim xulosalar chiqardi — „O'qish va takrorlash orqali,—deb yozgan edi Beruniy, — dunyoning tuzilishini, osmonning va Yerning shakllarini bilish astronomiya fani uchun g'oyatda foydalidir. Binobarin, ana shu tariqa ta'lim oluvchi malaka hosil qiladi va mazkur san'at ahli ishlatadigan so'zlarni o'rganadi, bu so'zlarning ma'nosini anglaydi. Keyinchalik astronomiya fanidagi turli sabablar va isbotlarni o'rganishda ana shunday so'zlar uchrasa, ularni bemalol tushunib boraveradi va u yoki bu narsalarni o'zlashtirishda charchamaydi“<sup>1</sup>.

Beruniy ta'kidlaganidek, o'qitish izchil, ko'rsatmali, maqsadga muvofiq bo'lishi va ma'lum tizimda olib borilishi lozim. Binobarin, ko'rsatmalilik ta'limning tushunarliroq, muayyanroq va qiziqarliroq bo'lishini ta'minlaydi, tafakkurni rivojlantiradi.

Ibn Sinoning bilim orqali erishiladigan natijalari haqidagi ta'limoti o'qitish nazariyasida alohida o'rin egalladi. Uning fikricha, buyumlarni chinakam bilishga tashqi ko'rinishini tahlil qilish, sabablarini aniqlash asosida aql bilan erishiladi. Ibn Sino aqlning rivojlanish bosqichlarini ishlab chiqqan. Mushohada bilan idrok qilishning birinchi bosqichi aqliy kategoriyalarni tushuntirishdir. Ikkinchi bosqich ikki xil fikrni idrok etishdir. Aqliy rivojlanishning uchinchi bosqichiga o'zlashtirilgan fikrlarni idrok etish bilan erishiladi. Shunda uni haqiqiy aql deyiladi.

Olim aqliy faoliyatni bosqichlarga bo'lar ekan, birinchi bosqichda yodlay oladigan, lekin hali harflarni ham, siyoh va qalamni ham bilmaydigan bolaning aqlini nazarda tutgan; ikkinchi bosqichda tayoqchalarni chiza boshlagan, qalamdan foydalanishni o'rganayotgan bolaning aqli tasavvur qilinadi; uchinchi bosqichda

---

<sup>1</sup> **Abu Rayhon Beruniy.** Избранные произведения. Т. X, Часть III. — Toshkent: „Fan“, 1973 — 1976- yillar.

inson aqliy shakllarni va ularga muvofiq hissiy obrazlarni egallagan bo'ladi. Ibn Sino aql deganda insonning tug'ma iste'dodini, shuningdek, tajriba asosida va bilish jarayonida shakllanadigan fikrlash qobiliyatini tushunadi. Aqlni insonning birlamchi tug'ma sog'lom fikrlashi, yaxshi va yomon ishlarni vujudga keltiradigan, ularni farqlantiradigan kuch, deb ta'riflaydi. Aql insonning xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi. Inson aql yordamida narsalar va hodisalarni tahlil qiladi, umumlashtiradi hamda ularning eng yaxshilarini tanlaydi, deb uqtiradi. Shuningdek, aqlni ikki kategoriyaga ajratadi. Ularning biri — nazariy aql bo'lib, borliqdagi umumiy narsalarning mohiyatini idrok etishdir, ikkinchisi esa amaliy aql bo'lib, buyumlarni tanlashda turtki sifatida ko'rinadigan qobiliyatdir.

Abdulla Avloniy (1878 — 1934) o'zining barcha tadqiqotlarida ilm muammosini birinchi o'ringa qo'ygan. „Alhosil, — deb yozgan edi u, — butun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilm bilan bog'liqdur... Shuning uchun o'qimak, bilmak zamonlarini qo'ldan bermay, vujudimizning dushmani bo'lgan jaholatdan qutulmakka jonimiz boricha sa'y qilmagimiz lozimdur“<sup>1</sup>.

A. Avloniy, ilm — tarbiya jarayonida o'zlashtiriladi va u yaxshini yomondan, ezgulikni yovuzlikdan, joizni nojoizdan farqlash imkonini beradi, deb hisoblaydi. U tarbiya bilan ta'limning birligi muammosini ishlab chiqdi. Garchi Avloniy ta'lim bilan tarbiya o'rtasida ozgina farq borligini aytgan bo'lsa ham, ular tana va jon singari bir-biriga chambarchas bog'liqdir, deydi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889 — 1929) I sinf uchun „Yengil adabiyot“, II sinf uchun „O'qish kitobi“ va „Qiroat kitobi“ kabi darsliklar yozgan. Ammo mazkur darsliklar qo'lyozmaligicha qolib ketdi. O'sha paytlarda nashr etish imkoni bo'lmagan.

Hamza o'z tadqiqotlarida tovushli savod o'rgatish metodini ishlab chiqqan. Uning tadqiqotidagi asosiy g'oya o'qitish va tarbiyalashga kompleks yondashish, yoshlarning aqliy, axloqiy va estetik tarbiyasini o'zaro bog'liq holda amalga oshirishdan iborat edi.

Yuqoridagi asarlarning nomlaridan va pedagogik fikrlardan ayon bo'ladiki, mazkur mualliflar didaktikaga o'qitish san'ati sifatida, shuningdek, o'ziga xos amaliy ko'nikma sifatida qaraganlar. Didaktika

---

<sup>1</sup> **Abdulla Avloniy.** Turkiy guliston yoxud axloq. T., „O'qituvchi“, 1992- y, 23- bet.

tushunchasini Yan Amos Komenskiy (1592—1670) ham ana shu yo'sinda sharhlagan. Uning bu boradagi fikr-mulohazalari 1657- yilda nashr etilgan „Hammaga hamma narsani o'qitishning universal san'ati ifodalangan buyuk didaktika“ nomli asarida bayon qilingan. Komenskiy didaktika faqat o'qitish san'atidagina emas, balki tarbiyalash san'atidan ham iboratligini qayd qilgan va tarbiya har tomonlama axloqiylik yo'nalishidagi fe'l-atvorni shakllantirishning zarur sharti ekanini ham uqtirgan.

Didaktikani yuqoridagicha tushunish XIX asr boshigacha, ya'ni taniqli nemis pedagogi va faylasufi Iogan Genrix Gerbart (1776—1841) didaktikaning asosiy nazariyasini ishlab chiqqunicha davom etgan. Binobarin, u didaktikani pedagogikaga bo'ysunadigan tarbiyalovchi ta'limning yaxlit va ziddiyatsiz nazariyasi sifatida talqin qiladi.

Gerbart va xususan, uning izdoshlari ana shu nazariyaning rolini hisobga olib, didaktikaning asosiy vazifasini — darsda bayon qilinadigan material ekanini rad etdilar. Gerbart konsepsiyasiga muvofiq, o'qituvchi, asosan, o'quvchilarni yangi o'quv materiali bilan tanishtirishga doir harakatlarini tahlil qilishi lozim edi.

XVIII asrda shveysariyalik pedagog I. G. Pestalossi kamol toptiruvchi ta'limning prinsiplari tizimini asosladi. XIX asrda esa nemis pedagogi A. Disterveg o'zining „Nemis o'qituvchilari uchun“ qo'llanmasida o'quv jarayonini faollashtiradigan talablarning butun bir kompleksini taklif qildi. Fan va texnika shunday tezlikda taraqqiy topmoqdaki, maktab ta'limi bilan ularning ketidan quvib yetish mumkin emas. Lekin maktabni bitirgan yoshlar, albatta, o'zlari bilmaydigan ilmiy kashfiyotlarga, jamiyatni rivojlantirishning bozor iqtisodiyotiga asoslangan yangi tizimiga duch keladilar. Lozim darajadagi aqlga, irodaga va hissiyotga ega bo'lgan kishilargina notanish ma'lumotlarni tezroq o'zlashtirib olishi mumkin.

Bilim va malakalarni tarkib toptirish naqadar zarur bo'lsa-da, hozirgi didaktika ana shu soha bilangina chegaralanib qola olmaydi.

Endilikda o'quvchilarni kamol toptirishda optimal natijalar beradigan o'qitish jarayonining ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqish zarurati tug'ildi. O'quvchilarning kamol topishi ta'lim jarayonida amalga oshishi sababli bilim va malakalarni o'zlashtirishga qaratilgan didaktik prinsiplar ma'lum natijalarni beradi. Lekin vazifa qandaydir natijalarga erishishdan emas, balki o'quvchilarni kamol toptirish uchun o'qitishning eng yuqori samaradorligini ta'minlashdan iboratdir. Buning uchun esa o'quv jarayonining qurilishini

ishlab chiqish kerak. Didaktikada tarbiyalovchi dunyoqarashni shakllantirish masalalari ko'riladi, ta'lim jarayonida o'quvchilarda mustaqillikni, tashabbuskorlikni va shaxsning boshqa ayrim sifatlarini tarbiyalash vazifalari tahlil qilinadi. Mana shunday muhim masalalarning ko'rib chiqilishi maktabdagi ta'lim-tarbiyaning birligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'z-o'zidan ayonki, mazkur vazifani amalga oshirish uchun zarur ilmiy-pedagogik asoslarni yaratish didaktika sohasidan ko'ra ko'proq tarbiya nazariyasiga taalluqlidir. O'qitish negizi yuksak axloqli qilib kamol toptirishdan iborat. Ana shunday harakatlarda o'qishga da'vat qilish, o'qituvchi bilan o'quvchilarning o'zaro munosabatlari va ta'limning metodlari masalalari boshqacha tus oladi.

### DIDAKTIKANING ASOSIY KATEGORIYALARI

O'qitish nazariyasi bilimlar, ma'lumotlar va dalillarning katta zaxirasiga ega, ularning bir qismi tizimlashtirilgan, tartibga solingan.

O'qitish jarayonining strukturaviy komponentlari — maqsadli rag'batlantirish — motivlashtirish mazmuni, harakati, o'qitishning shakl va metodlarining ajratilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Mana shu komponentlarning ajratilgani o'qituvchi bilan o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati qonuniyatlarining tabiatini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Pedagogik yechimlarni tanlash nazariyasini ishlab chiqishning metodologik asosi — o'qitish jarayonining mavjud barcha qonuniyatlarini hisobga olish fikri bilan muntazam aloqada bo'ladi. Boshqacha aytganda, o'qitish jarayonining mavjud hamma qonuniyatlarini, albatta, kompleks holda hisobga olish bilangina ta'lim masalalarini to'g'ri hal qilish mumkin.

Pedagogik va psixologik shart-sharoitlarni aniqlash asosida o'qitishning optimalligi mezonlarining asoslari tarkib toptirilgan va ularning eng ahamiyatlilari quyidagilardan iboratdir:

— o'qitish optimal bo'lishi uchun har bir o'quvchi o'zining haqiqiy o'qish imkoniyatlariga muvofiq darajada o'zlashtirishi, tarbiyalanishi va kamol topishi shart;

— o'qitish optimal bo'lishi uchun o'quvchilar va o'qituvchilar darsdagi va uydagi ishlar vaqtining o'zlari uchun gigiyenik jihatdan belgilangan normasiga ega bo'lishi kerak.

Rejalashtirishni optimallashtirishning asosiy yo'llari o'qitishning vazifalarini ta'lim berish, tarbiyalash va kamol toptirish bilan

birgalikda loyihalashga kompleks yondashish hamda o'qitish vazifalarini u amalga oshadigan tizimning xususiyatlarini hisobga olgan holda muayyanlashtirishdir.

Ishni rejalashtirishni quyidagi usullaridan foydalaniladi:

— o'qitish mazmunining qo'yilgan vazifalarini eng muvaffaqiyatli hal qilishni ta'minlaydigan optimal variantini tanlash;

— o'qitish jarayonida qo'yilgan vazifalarni belgilangan vaqt ichida muvaffaqiyatli hal qilishni ta'minlaydigan metod va vositalarni tanlash;

— masalalarni muvaffaqiyatli hal qilishni, shu jumladan, o'quvchilarga tabaqali yondashishni ta'minlaydigan tashkiliy shakllarini tanlash.

Hozirgi paytda ta'limning muhim jihatlari, masalan, ta'limning mazmunini ishlab chiqish va tanlash, muammoli — kamol toptiruvchi o'qitish, o'quvchilarning o'qishini faollashtirish, o'qitish metodlari va ularning tarkibiy qismlari; o'quvchilar o'quv-bilim faoliyatining metodlari; o'quv materialini tashkil qilish, strukturalashtirish va hokazolar jadal o'rganilmoqda.

Ta'lim mazmunining ishlab chiqilgan nazariyasida quyidagi muhim qoidalar talqin qilingan:

— ta'lim mazmunida jamiyatning ma'naviy va moddiy elementlari, shu jumladan, tabiat, jamiyat va inson haqidagi bilimlar, ijodiy faoliyat tajribasi, insonning munosabatlari, boshqarish faoliyati, xulqi va hayoti ifodalanishi lozim;

— ta'limning mazmuni umumiy, politexnik va kasb-korlik komponentlarining birligini aks ettirishi kerak;

— ta'limning mazmuni o'quvchilarning yoshidan va jamiyatning rivojlanish darajasidan kelib chiqadi;

— ta'limning mazmunidagi ajratilgan to'rt komponent hajmi va mazmuni bo'yicha o'zaro aynan muvofiq bo'lishi kerak.

Maktab rivojlanishining hozirgi bosqichida ta'limni kompyuterlashtirish masalasi g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'quvchilarni zamonaviy hisoblash texnikasidan foydalanishga doir bilim va malakalar bilan qurollantirish, o'quv jarayonida kompyuterlarning keng qo'llanishini ta'minlash jamiyatda bozor iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim vazifalaridan biridir. Mana shu vazifani amalga oshirish yuzasidan pedagogika fanida o'rta maktabga elektron hisoblash mikroprotsektor texnikasini tatbiq etishning ikkita asosiy yo'nalishi ishlab chiqilmoqda. Bularning birinchisi — maktabdagi ta'limning mazmuniga o'quvchilar umumta'lim tayyorgarligining

komponenti sifatida dasturlashtirish asoslarini va hisoblash texnikasini joriy etish; ikkinchisi — maktabda elektron hisoblash mashinalaridan ta'minlash ta'limining vositasi sifatida foydalanishdir.

Pedagogika fani maktablarning EXMLardan foydalanishdagi tajribalarini o'rganishi va umumlashtirishi: yalpi kompyuter savodxonligiga javob beradigan yagona dasturlashtirish umumta'limiy kursini yaratish; dasturlashni o'rgatish boshlanadigan muddatni va kursning hajmini belgilashi, maktabda o'rganiladigan algoritm tilini tanlash, ta'limni mashina bazasidan foydalanish asoslarini ishlab chiqishi va boshqa vazifalarni ado etishi kerak.

Ta'lim nazariyasiga muammoli — kamol toptiruvchi o'qitishni joriy etish, shuningdek, o'quv jarayonini tabaqalashtirish va individuallashtirish yo'llarini izlash bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda.

Muammoli — kamol toptiruvchi o'qitishning nazariyada ishlab chiqilgan asosiy g'oyalarini quyidagicha ta'riflash mumkin:

— ta'limiy bilishni ilmiy bilishga muvofiq modellashtirish g'oyasi, ya'ni muammoli vaziyatni vujudga keltirish — farazni olg'a surish — farazni asoslash — farazni hal qilish — uni tasdiqlash yoki rad etishdek zarur bo'g'inlarni o'z ichiga olgan muammoli o'qitish;

— o'quvchilarning ijodiy imkoniyatlari va qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda tadqiqotchilik yo'sinidagi ko'nikma va malakalarni o'stirish g'oyasi.

Muammoli o'qitish nazariyasida qator qonuniyatlar ifodalandi va eksperiment yo'li bilan asoslandiki, ulardan muammoli dars o'tish bilan muammoli o'rgatishning birligi va bir-birini taqozo etishi, o'quvchilarning tayyorligi darajasi bilan muammoli o'rgatish darajasining muvofiqligi kabi qonuniyatlarni ajratish mumkin.

Didaktikada ishlab chiqilgan o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish nazariyasi muammoli — kamol toptiruvchi o'qitish nazariyasiga juda yaqindir.

Faollik nazariyasining asosiy g'oyasi ham maxsus tashkil etilgan ta'lim muhitida (o'qitishning mazmuni, shakllari va metodlari bilan) o'quvchilarning faolligini tobora oshirib borishdan iboratdir.

Ishlab chiqilgan faollik nazariyasi o'quv jarayonida bilimlarni o'zlashtirish, ularni qayta ishlash va qo'llashning (muammoli va reprodaktiv) usullarini o'rganish bo'yicha tashkil etiladigan o'zini o'zi boshqaradigan faollikdan iboratdir.

Mazkur qonuniyatlar asosida amaliy jihatdan muhim ahamiyatga molik nazariy qoidalarni *ifodalash mumkin*.



Faollashtirish vositalari tizimi, ta'limning mazmuni, o'qitishning shakl va metodlari o'qitishning asoslangan, maqsadga muvofiq o'z-o'zini boshqaradigan jarayon sifatida tashkil qilishni ta'minlashi uchun ular quyidagi talablarga *javob berishi kerak*:

— ta'limning hamma bosqichlarida o'quvchilarda o'qitishning ichki motivlarini qo'zg'atish va rivojlantirish;

— o'quvchilarda o'z oldilariga muayyan maqsadlarni qo'yish va kelgusidagi faoliyatlarini rejalashtirishga rag'batlantirish mexanizmini takomillashtirish;

— o'quvchilarda axborotlarni qayta ishlashga doir ta'limiy va aqliy ko'nikmalarning shakllanishini ta'minlash;

— o'quvchilarning o'quv-bilish maqsadlariga erishish uchun jismoniy va axloqiy, irodaviy kuchlarini oshirish;

— ta'lim jarayonida nazorat va o'z-o'zini boshqarish orqali o'quvchilarning o'z o'quv-bilish faoliyatini baholashini ta'minlash. Shu qoidalarga rioya qilinsa, ta'lim samaradorligi yanada ortadi.

Ta'lim jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy darajasi va madaniyati, uning siyosiy va mafkuraviy strukturasi mazmunini belgilaydigan masalalarni hal qiladi. Shuning uchun oiladagi yoki jamoadagi, maktabdagi, ishlab chiqarishdagi maqsadga muvofiq yoki tasodifiy tarbiya o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy bo'ladi, chunki har qanday tarbiya ijtimoiy munosabatlarning subyekti hisoblanadi.

Inson tug'ilgan paytidan boshlab u yoki bu ijtimoiy guruhga mansub bo'lib, mehnat aloqalarining ma'lum tizimida tegishli yuridik huquqlardan foydalanadi. Jamiyatdagi o'zaro munosabatlar majmuyining mazmuni va xarakteri shaxs kamol topishining umumiy yo'nalishini hal qiluvchi yo'sinda belgilaydi. Ota-onalar va pedagoglar tarbiya metodlarida o'ziga xos o'rin tutsalar ham, ularning maqsadlarini, istaklarini va intilishlarini pirovard natijada jamiyat belgilaydi, uning u yoki bu ijtimoiy guruhlari, hayotning umumiy sharoitlari, uning manfaatlari va ideallari belgilaydi.

„Ijtimoiy tarbiya“ iborasidan ancha tor ma'noda shaxsga ta'sir ko'rsatishning maxsus tuzilgan ijtimoiy institutlarda amalga oshiriladigan, oiladagi va yaqin atrof-muhitdagi tarbiyadan farqli jarayonni ifodalash uchun foydalaniladi.

Ta'lim va tarbiya tushunchasining qaysi biri kengroq ma'noga ega ekanligi xususidagi bahs samarasizdir, chunki hamma gap ularning qaysi maqsadda qo'llanishidadir. Adabiyotlarda ko'p uchraydigan „ta'lim“ va „tarbiya“ so'zlarini pedagogik jarayonning qarama-qarshi tomonlarini ifodalash uchun qo'llanishi unchalik

to'g'ri emas. Binobarin, ta'lim bilim berishning maqsadga muvofiq jarayoni sifatida doimo muayyan shaxslarni tarbiyalashni o'z ichiga oladi. Tarbiyaning yo'nalishi esa, hatto, ta'limning mazmuni va saviyasi bilan rasman bir xil bo'lsa ham prinsip jihatdan turlicha — insonparvar -demokratik yoki totalitar bo'lishi mumkin. Ta'lim-tarbiya muassasalarida amalga oshiriladigan chuqur pedagogik jarayon sifatidagi tarbiya haqida gapirish uning faqat bir tomonini — kasbiy jihatini ko'rsatishni bildiradi.

Tarbiya hamma vaqt xalq orasidagi hodisa, ijtimoiy hayotning doimiy kategoriyasi hisoblangan. Tarbiyaning ijtimoiy tabiatini anglash davlat va xalq tarbiyasi, jamiyat va shaxs tarbiyasi o'rtasidagi maqsadga muvofiq va tasodifiy tarbiya o'rtasidagi tafovutni, tarbiyaviy ta'sir obyektining g'oyat murakkab tugunini bilish imkonini beradi.

Tarbiya shaxsni maqsadga muvofiq yo'sinda shakllantirish, unda fazilatlarni tarkib toptirish jarayonidir. Tarbiya tarbiyani amalga oshiruvchilar kutadigan natija mavjudligini talab qiladi. U ikki turdagi faoliyatni, ya'ni shakllanuvchi va shakllantiruvchi faoliyatni bajaruvchilar tarbiyaning tashkilotchilari, shakllanuvchi faoliyatni bajaruvchilar esa tarbiyaning yolg'iz yoki jamoaviy obyektlari hisoblanadi.

Tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari uning ikki tomoni — obyektiv va subyektiv jihatlari mavjudligidir. Uning shakllantiruvchi faoliyatlarini bajaruvchilar o'zlari xohlasa-xohlamasa tarbiyaning obyekti ekanligida ko'rinadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, obyektiv shakllanuvchi va shakllantiruvchi faoliyatlar hamda ularning elementlari o'rtasida, shuningdek, har bir faoliyatning elementlari o'rtasida ichki obyektiv bog'lanish va munosabatlar mavjudligida namoyon bo'ladi.

Shakllantiruvchi va shakllanuvchi faoliyatning subyektiv tomoni u yoki bu faoliyatni bajaruvchilar —subyektlar hisoblanadi va tarbiyaning natijalari ularning ichki holatiga, egallagan shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari hamda qobiliyatlariga bog'liq bo'ladi.

Tarbiya ba'zan to'plangan bilimlarni, faoliyat tajribalarini yosh avlodga berishning yo'li sifatida, ba'zan erishilgan ma'naviy madaniyatni qayta tiklash va rivojlantirishning omili sifatida va ba'zan ijtimoiy munosabatlarning alohida shakli sifatida ta'riflanadi.

Tarbiyaning maqsadi uning ko'zlangan natijasidir. U jamiyat rivojlanishining ehtiyojlarini o'zida aks ettiradi va jamoatchilik hamda

davlat hujjatlarida ifodalanadi, pedagogik ta'limotlar va nazariyalarda muayyanlashtiriladi hamda batafsil yoritiladi. Sinfy jamiyatda tarbiyaning maqsadi hukmron sinflar tomonidan belgilanadi va bayon qilinadi. Masalan, quldorlik davrida — tarbiyaning maqsadi qullarni bo'ysundirish va bostirib turishga layoqatli jangchilar hamda lashkarboshilarni; feodalizm davrida feodal ritsarlar; burjuaziya davrida ishbilarmonlar va biznesmenlarni tayyorlashdan iborat bo'lgan.

Tarbiyaning maqsadi — shaxsni har tomonlama va uyg'un kamol toptirish, uning ma'naviy, axloqiy-estetik qadriyatlarini shakllantirish, yuksak darajada uyushgan va shakllangan jamoalarni vujudga keltirishdir. Tarbiyaning maqsadlarini oxirgi va oraliq, umumiy va muayyan, asosiy va yo'l-yo'lakay maqsadlarga tasniflash mumkin. Maqsad bilan bir qatorda, hal qilinishi maqsadga erishishni ta'minlaydigan vazifalar ham turadi. Masalan, tarbiyaning umumiy maqsadini ro'yobga chiqarish, ya'ni shaxsni har tomonlama kamol toptirish uchun *aqliy, axloqiy, g'oyaviy-siyosiy, estetik*, mehnat va jismoniy tarbiya vazifalarini amalga oshirish zarur.

Yuqorida aytilganidek, didaktika „o'qitish“ va „o'qish“ kabi boshqa tushunchalar bilan o'zaro bog'liq ta'lim nazariyasidir. Bu ikki tushuncha asosiy tushunchalar jumlasiga kiradi.

„O'qish“ so'zini didaktlar va psixologlar ilgari ham, hozir ham turlicha sharhlaganlar. Buni shu so'zning eski ta'riflari ham, eng yangi ta'riflari ham turlicha ekanligi yaqqol tasdiqlaydi.

O'qish maqsad, mazmun va harakatlar bilan bog'liq bo'lib, ular yordamida o'quvchilar ma'lum bilimlar, ko'nikma va malakalarni o'zlashtiradilar, o'qish o'quvchining faolligi natijasida rivojlanadi, xarakter kasb etadi, u turli shakllarda (mehnat, jamoatchilik faoliyati, kitobxonlik, o'yin va hokazolar tarzida) amalga oshishi mumkin, u bilishga (bevosita va bilvosita) tayanadi hamda individual tajribada shaxsning xulqida o'zgarishni vujudga keltiradi.

Ana shu tushuntirishlardan keyin o'qish ta'rifini keltirish mumkin. Biz o'qish deganda, o'quvchilar voqelikni bevosita va bilvosita bilish davomida ma'lum bilimlar, ko'nikmalar va malakalar egallashining — rejali o'zlashtirishning maqsadga muvofiq jarayonini tushunamiz. Bunda o'qish jarayoni ma'lum darajada kuchli motivlashtirishdan vujudga keladi va uning natijasi shaxsning qarashlari, e'tiqodi, xatti-harakatlari, umumiy kamolotiga, qisqasi, uning xulqiga ta'sir ko'rsatadigan mavjud bilim va ko'nikmalar zaxirasining ortishida namoyon bo'ladi, deb bilamiz.

O'qitish iborasi tasodifiy jarayon ma'nosida ham, o'qish jarayoniga muntazam, rejali va bevosita rahbarlik qilish ma'nosida ham qo'llaniladi. Ana shu ikkinchi ma'nodagi o'qish jarayoni nisbatan uzoq vaqt, ba'zan ko'p yillar mobaynida o'qitish jarayoni bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Shuni hisobga olib, mazkur ikkala jarayonni ko'pincha umumiy nom bilan ta'riflaymiz va o'qitish-o'qish jarayonlarini ta'lim jarayoni deymiz. Bu jarayonda faqat o'qish bilan, ya'ni o'quvchilarning ma'lum hajmdagi bilimlar, ko'nikma va malakalami o'zlashtirishiga yordam beradigan sharoitlarni yaratish bilan bog'liq harakatlar emas, balki ana shu sharoitlardan to'g'ri foydalanishni nazorat qilish elementlari ham namoyon bo'lib, ular bir butunni hosil qiladi.

O'qituvchi o'quvchilar ishining borishini kuzatish va ular erishgan natijalarni baholash asosida o'zining ko'rsatmalari, yo'naltiruvchi savollari, tegishli tushuntirish va hokazolar bilan bolalarning o'quv faoliyati jarayoniga tuzatishlar kiritadi. Shunga ko'ra, ta'lim birinchidan o'qishni, ikkinchidan o'qitishni, ya'ni o'qishni va shu bilan birga, uni nazorat qilish hamda tuzatish jarayonlarini o'z ichiga oladi, deyish mumkin.

O'qitish g'oyatda murakkab ish. Buning dalili sifatida shuni aytish joizki, o'qituvchining ta'lim jarayonidagi rahbarlik rolini ta'minlashga urinishi bilan o'quvchining to'la mustaqil fikrlashi va harakatlarini saqlashga intilishi o'rtasidagi ta'limga xos didaktik ziddiyat aslida didaktik yuksalishning manbayidir. Shuningdek, o'qitishda deyarli hamma vaqt uning tarbiyaviy jihatlarini yaqqol bilinib turadi.

Ta'lim maqsad, mazmun, o'qituvchining shaxsi, o'quvchilardagi dastlabki bilimlarning xarakteri, o'qitishning moddiy-texnik bazasi va boshqa anchagina omillar bilan belgilanadi.

Forobiy o'zining „Ideal shahar aholisining maslagi“ nomli risolasida ta'kidlaganidek, fan o'qitish orqali o'zlashtirilsa, ezgu fazilatlar tarbiya yordamida egallanadi. O'qitish faqat aqlning chiniqishi uchun emas, balki umumiy ma'naviy, shu jumladan, axloqiy kamol topish uchun ham asosdir. O'qitish va tarbiyalash o'zaro bog'liq bo'lib, shaxsni ma'naviy kamol toptirishning turli yo'llaridir.

Xalq pedagogikasida inson aqlan barkamol bo'lishining eng muhim sharti — uni bolaligida o'qitish va tarbiyalashda, deb hisoblanadi.

O'qitish ma'lum qonuniyatlarga bo'ysunadi va umumfalsafiy metodologiyaga muvofiq bu qonuniyatlar ta'lim jarayoni bilan

ancha kengroq ijtimoiy jarayonlar o'rtasidagi umumiy, muhim, zarur, barqaror aloqalardan, shuningdek, ta'limning alohida komponentlari, ya'ni uning maqsadi, mazmuni, shakllari, metodlari va vositalari o'rtasidagi ichki bog'lanishlardan iboratdir. Aniqlangan didaktik qonuniyatlardan qator asosiy talablar kelib chiqadiki, ularga rioya qilish o'qitishning yaxshi sifatli va samarali amalga oshuvini ta'minlaydi.

Ta'lim jarayonining natijasi ba'zan faqat o'quvchilarning ma'lum bilim va ko'nikmalar tizimini o'zlashtirishidan iborat bo'ladi; lekin bu jarayon o'quvchilarni har tomonlama kamol toptirishga jiddiy ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ta'lim jarayoni — murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Rasmiylashtirilgan tizim sifatidagi ta'lim nazariyasi, umuman, ana shu jarayonni, uning tarkibiy qismlarini va ularning komponentlarini yoritadi, tushunchalar, mazmun yordamida ana shu yaxlit jarayonning mavjudligi sababini yoki usullarini bayon qiladi.

„O'quv jarayoni“ tushunchasi ta'limning barcha komponentlarini; o'qitish va unda foydalaniladigan vositalarni ham, muayyan vazifalarni hal qilish uchun ta'limning metodlarini ham, uyda mustaqil ishlaydigan o'quvchini ham, o'quv jarayonini ko'rsatmali va texnik vositalar bilan jihozlashni ham o'z ichiga oladi.

Shuning natijasida ta'limning quyidagi qonuniyatlari yoritiladi:

— ta'lim jarayoni qonuniy ravishda ijtimoiy jarayonlardan va jamiyatning ehtiyojlaridan kelib chiqqan;

— ta'lim jarayoni yaxlit pedagogik jarayonga kiradigan o'qitish, tarbiyalash va kamol toptirish jarayonlari bilan qonuniy ravishda bog'liqdir;

— ta'lim qonuniy ravishda ta'lim oluvchilarning haqiqiy o'quv imkoniyatlariga bog'liqdir;

— ta'lim qonuniy ravishda o'zi amalga oshiriladigan tashqi sharoitlarga bog'liqdir;

— o'qitish va o'qish jarayonlari yaxlit ta'lim jarayonida qonuniy ravishda o'zaro bog'liqdir;

— ta'lim mazmuni qonuniy ravishda uning jamiyat ehtiyojlarini; fan rivojlanishining darajasi va mantiqini, haqiqiy o'quv imkoniyatlari va ta'lim uchun tashqi sharoitlarni aks ettiradigan vazifalarga bog'liqdir;

— o'quv faoliyatini kuchaytirish, tashkil etish va nazorat qilish, qonuniy ravishda ta'limning vazifalari va mazmuniga bog'liqdir;

— ta'limning tashkiliy shakllari qonuniy ravishda uning vazifa-

lariga, mazmuni va metodlariga bog'liqdir;

— tegishli sharoitlarda o'quv jarayonining barcha komponentlari qonuniy ravishda o'zaro bog'lanishi ta'limning puxta anglangan va amaliy natijalarini ta'minlaydi.

Ta'limning qonuniyatlarini pedagogikaning umumiy asoslarida ifodalangan qonuniyatlar bilan taqqoslansa, ular o'rtasidagi bog'lanish yaqqol ko'rinadi. Ta'limning qator qonuniyatlari mantiqan pedagogik jarayonning umumiy qonuniyatlaridan kelib chiqadi. Ta'limning prinsiplari bilan qonuniyatlari ham o'zaro bog'liqdir.

### **TA'LIM BERISH VA O'QITISH INTEGRATSIYASI — BIRLASHTIRUVCHI, O'ZIDA MUJASSAM ETUVCHI KO'RINISHGA EGA BO'LGAN KATEGORIYALAR SIFATIDA**

Ayrim pedagogik tadqiqotlar va munozaralarda tarbiya tushunchasini ikkinchi o'ringa surib, uni yo'qqa chiqaruvchi muhim subyektiv-obyektiv ko'rinishdagi kategoriya borki, bu — ta'limdir. Ta'limning o'ziga xoslik tomoni shundaki, u tarbiyani ijtimoiy hodisa sifatida, pedagogik faoliyat shaxsning shakllanishini o'ziga birlashtirib, ana shu uchta asoslarda real to'la pedagogik jarayonni tuzadi. Bu jarayon turli ta'lim-tarbiya konsepsiyalari, nazariyalar yordamida loyihalashtiriladi va ta'lim tizimi muassasalarida bo'lib o'tadi.

Ta'lim tushunchasi, bu — umumiy, yaxlit, polifunksional va mazmunli kategoriyadir.

Ba'zilar bir vaqtlar L. N. Tolstoydek, ta'lim-tarbiyani zo'ra-vonlikdan farqli o'laroq, bahsga tazyiq o'tkazishdan xalos bo'lgan, faqatgina bilib olish va intellektual rivojlanish jarayonidir, deb hisoblaydilar. Boshqalar, aksincha, ta'limning o'rganish va rivojlantirish tomonlariga katta ahamiyat berib, buni xuddi ana shu tarbiyaning o'zi va hech qanday qo'shimcha ijtimoiy-tarbiyaviy kuzatishlar talab etilmaydi, deb hisoblaydilar. Va nihoyat, uchinchi toifadagilar esa, ayniqsa, cherkov vakillari, semantik va diniy asoslar keltirib, „obraz“ so'zining o'zi diniy mazmunni bildiradi deb, obraz xudoning yuzini ikonalariga tushirish va „образование“ — bu insonning yaqinlashuvi va o'sishi, deb ta'kidlaydilar. Ammo ta'lim tushunchasini talqin qilishga turlicha yondashishgan, unda qandaydir umumiylik, yagona mohiyat bor.

*Mohiyat.* Eng avvalo, ta'limning asl ma'nosi, bu — jamiyatning ilmiy va yetuk insonlarga ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-

huquqiy va madaniy talabni ko'rsatuvchi g'oya bo'lib, ular maxsus tashkil etilgan davlat — jamiyatning umumta'lim tizimi va maxsus o'quv muassasalari yordamida amalga oshiriladi. Bu umumiy tizim bo'lib, uning tarkibida ichki tizimlar mavjud, bu aniq maqsad, tayyorlangan pedagoglar, ishlab chiqilgan mazmun, shakl va o'zaro munosabatda bo'lish kabi o'qitish metodlari mavjud.

Bularning hammasi ta'limli tizim sifatida mazmunning mohiyatini tashkil etadi. Albatta, faqatgina pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan va tuzilgan ta'lim emas, balki hayotiy, o'z ichiga maqsadga muvofiq ta'lim, mustaqil ta'lim olish yoki hayotiy tajriba bilimlarini olishi ham mumkin. Umuman olganda, ta'lim faqatgina o'zining mavjud obyektlaridagina ma'lum darajada mustahkam bo'ladi, o'quv maskanlari, o'quv qo'llanmalari, ish qurollari, laboratoriya va boshqa uskunalar bilan olib boriladi, qolgani esa ma'naviy, ko'z ilg'amas va sezib bo'lmaydigan hodisadir.

Uning mohiyati harakat, faoliyat, muloqot, o'zaro munosabat, qarama-qarshi harakatlar, munozara, taqqoslash, fikr, tushuncha, bilim, mahorat, ko'nikma, xulq-atvor va faoliyatning o'rnashishi va kurashidan iborat.

*Maqsad.* Davlat va jamiyat tizimi ta'lim va ruhiy harakatlanish maqsadining ichki va tashqi yo'nalishlaridan iboratdir. Davlat ta'lim institutining ta'limdagi maqsadi aniq tarixiy sharoitlarda jamiyatning hayotiy ehtiyojlarini qondirish, uning ishlab chiqish kuchlari, madaniyati va taraqqiyotini ta'minlash, fuqarolik statusini mustahkamlash va jamiyat a'zolarining ma'naviy-huquqiy negizlarini mustahkamlashdir.

Shu bilan birga, hozirgi keskin rivojlanish: o'zgaruvchan dunyo, har narsaning global qamrab olinishi, informatsion ma'lumotlar davrida bilim, mahorat va ko'nikmalar barqarorligi bo'layotgan hodisalardan orqada qolib, o'zining haqiqiy munosibligini tez yo'qotib boruvchi hodisa bo'lib boryapti.

Texnologiyalar o'zgarib boradi: aloqa mukammallashadi, elektronika hayotning har sohasiga kirib boradi. Shu sababli zamonaviy o'quvchi biror bilim egasi bo'libgina qolmay, balki ulardan faol ijodiy foydalanishi zarur. U nafaqat uslublarni o'zlashtirib olishi va doimiy ravishda bilimlarini yangilab turishi, o'zini mukammallashtirishi, shu bilan birga, o'z ongida qotib qolgan va odatiy fikrlash stereotiplarini, harakatlarini va har qanday vaqtda ortda qolgan insonga xalaqit beruvchi narsalarni bartaraf etishga o'rganishi zarur. Xuddi ana shu masalani yechish uchun bola ongida doimiy

aqliy faoliyatni vujudga keltirib, aqlini harakatlantirishi, xulqida esa hamma kuchlarini harakatlantirish, hayotda odamlar bilan o'zaro munosabatda bo'lishi zarur.

Albatta, gap faqatgina aqliy rivojlanish haqida bormay, balki umumiy texnik jarayonlar majmuasi nazarda tutiladi. Shuni aytish kerakki, ta'limda qandaydir aqidaparastlik bo'lmasdan, har doim bolada u yoki bu psixik jarayonlarni va kuchlarni rivojlantiradi. Ammo bugungi hayotning keskin o'zgarishi davrida shaxsga nisbatan qo'yiladigan hozirgi zamonaviy talablardan asosiysi, bu — ta'limni umumiy rivojlantirish natijasidir. Shunday qilib, ta'limning ichki maqsad yo'nalishi faqatgina mustahkam bilim olish, ko'nikmalar va mahoratni oshirishda jarayonlar bilan birgalikda ularni samarali qo'llashdan iborat bo'lmay, balki hamma psixik jarayonlarni va shaxs aqliy kuchlarini rivojlantirishdan iboratdir.

Shu bilan bir vaqtning o'zida, bilimlarni o'zlashtirish ma'lum darajada bola ruhiy holatining shakllanishi, uning axloqiy-huquqiy ishonchlari va harakatlari shakllanishiga ta'sir ko'rsatish holati nazarda tutiladi. Hayotiy tajriba, bilim egallash shaxsning axloqiy-huquqiy doirasidagi holatga har doim ham hal etuvchi ta'sir ko'rsatayotganini ishonarli isbotlaydi. Bundan tashqari, axloqsizlik yoki jinoyatchilik harakatlariga qarshi ixtisosli yordam ko'rsatish mumkin. Ammo bu kam uchraydigan hollarni aralashtirib va ulardan birini boshqasi bilan almashtirib yuborish ta'lim samarasini, ayniqsa, tarbiya samarasini pasaytiradi.

*Mazmun.* O'zbekiston maktablarini isloh qilishning hozirgi bosqichida tekshirishlarning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimi, uning mazmun va ta'minotini rivojlantirish, deb ko'rsatadi.

Ta'lim madaniyatining turli shakllari o'zaro bog'liqligini o'rganish, madaniyatshunoslikdagi pedagogik imkoniyatlarni aniqlash, ayniqsa, muhimdir, o'quv-tarbiya jarayonining pedagogik yaxlitligi kategoriyasi ta'lim muassasalari faoliyatidagi dasturlashtirish sifatida qaralishi kerak.

Ta'lim mazmuni bo'lmish umumiy o'rta ta'lim standartlarini takomillashtirish, hamma darajadagi kasb-hunar ta'limida qo'llaniladigan standartlar tizimini ishlab chiqish; ta'limning uslub va vositalarini yangilash kabi muammolarga e'tibor berish kerakdir. Ta'lim mazmunini informatizatsiyalash, ta'limning o'zini esa insonparvarlashtirish muammolarini o'rganish muhimdir.

Ta'limning istiqbolli modellarini ishlab chiqish; bozor iqtisodiyoti sharoitlarida kasb-hunar ta'limi tizimini uzluksiz takomil-



lashtirish zarur. Ta'lim mazmuni faqatgina respublika darajasida emas, balki hududiy va milliy ta'lim muammolari bilan birgalikda ko'rib chiqilishi kerak.

### *Ta'lim mexanizmining ko'rinishi va shakllari.*

Pedagogikada ta'lim kategoriyasi, odatda, har doim ta'limdan farqli, mustaqil, o'ziga xos, deb qaralgan. Shu bilan birga, hozirga qadar „ilm olish“ tushunchasining mazmun va ahamiyatiga, uning chuqur tub mohiyatiga e'tibor berilmagan edi. Davlatning ijtimoiy ta'lim faoliyati maorif, deb nomlanib, „ta'lim“ tushunchasi esa ta'lim (maorif) tizimini ko'rsatish maqsadida foydalanilar edi. Bilim berish esa pedagogik kategoriya sifatida ikki xil mazmunni bildirar edi: bir tomondan, u bolalarga elementar, asosiy bilim, mahorat, ko'nikmalar berish, ularning fikrlashi, xotira, idrok etishi, tasavvuri, hissiyoti va nutqini rivojlantirish vazifasini bajarsa, ikkinchi tomondan, u o'qituvchiga tarbiyalovchi, degan harakat mexanizmini berar edi.

Ta'lim shaxsning ta'lim-tarbiyaviy kamol topishining asosiy va eng samarali mexanizmi bo'lib boryapti. Ta'limning chuqur mohiyati, mazmuni, eng avvalo, bu fenomenda uch kategoriya muhim pedagogik hodisalar sifatida mos ravishda birlashadi. Shaxsiy pedagogik faoliyat (ta'lim berish), mustaqil shaxsni tarbiyalash: mustaqil bilim olish, mustaqil tarbiya yaxlit pedagogik jarayon bo'lib, buning asosida ta'lim-tarbiya sirlari yotadi. Pedagog va bola ta'lim jarayonida o'zaro munosabatda bo'lib, o'qituvchi o'z ijodiy faoliyatini rivojlantirib (intellektual va pedagogik), o'z holatini mustahkamlab, faqatgina bilimdon bo'lib qolmay, balki texnik rivojlanganligi yangi bozor sharoitlarida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy faoliyat ko'rsata oladigan inson bo'lib yetishadilar.

1. Sinflarda ta'lim o'qimishlilik, umumiy va kasb-hunar bilimini ijtimoiylashuvi, uning boshlang'ich mazmuniga mosligi, aniq amaliy va metodik samaraliligi sifatida ifodalanishi mumkin.

Ilmiy-metodik asoslangan ta'lim samarali ta'sir etish va o'zaro ta'sir etish mexanizmlari qatoriga ega avvalo, jamoa o'quv shaklini kiritish mumkin.

Ular orasida, ya'ni jamoa guruhlari bilan dars, seminar va ma'ruzalar, seminar va guruhli ishlar, laboratoriya va amaliy ishlar, ijodiy to'garak va ustaxonalarda ishlash, ekskursiya va diagnostik so'rovlar, do'stona suhbat va hamkorlik, tajribalar o'tkazish mumkin.

2. Ta'limning aniq mohiyati uning hayotiyliigi, davlat va

jamiyatning to'g'ridan to'g'ri va bevosita ta'lim shakllaridan foydalanib, umumiy ta'lim va kasb-hunar muassasalarini tashkil etishdan iborat. Ular jamiyatning ta'lim-tarbiya masalalarini o'qitish yo'li bilan amalga oshiruvchi, turli bozor munosabatlari talabini qoniqtiruvchi o'quv muassasalaridir. Bunda turli soha yo'nalishidagi maxsus maktablar, til yoki matematik yo'nalishdagi maktablar, tarixiy-filologik, yuridik yoki iqtisodiy soha litseylari, kollejlari va boshqa turli sohalar bo'yicha yo'naltirilgan kollejlar mavjud.

Agar o'quv-ta'lim tizimi subyektiv va obyektiv hol sifatida yaratilsa, ijtimoiy insonparvarlik, demokratik vazifalarni bajarish uchun uning o'zi gumanizm va demokratiyaga moslashuvi shart bo'ladi.

Tizim har bir tashkiliy bo'limlarni tizim birligi va muvofiqligi talabiga javob berishi zarur.

Shu bilan birga, bu muvofiqlik mazmundor dastur standartlarida bo'lgani kabi tashkiliy-metodik ko'rinishlarda ham saqlanishi kerak.


O'quv-tarbiya muassasalari tizimida bolalarning ijtimoiy tabaqalarga ajratilishiga yo'l qo'ymaslik kerak.



### *Savol va topshiriqlar*

1. Didaktikani siz qanday tushunasiz?
2. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yan Amos Komenskiy kabi mutafakkirlar didaktika haqida qanday fikrlar bildirganlar? Gapirib bering.
3. Didaktika kategoriyalari to'g'risida o'z fikringizni bildiring.
4. Hozirgi zamon shaxsini shakllantirishni siz qanday tushunasiz?
5. Ta'lim berish va o'qitish hamda o'qitish integratsiyasi tushunchalari haqida gapirib bering.
6. Laboratoriya mashg'ulotida ta'lim-tarbiya, o'qitish integratsiyasini kuzating.





## IX BOB. O'QITISH JARAYONI

### O'QITISH JARAYONINING MOHIYATI

Har qanday jarayon harakatdir, moddiy dunyodagi narsalar yoki hodisalarning asta-sekin o'zgarishidir. O'qitish jarayoni ham yosh avlodda aqliy kuchlarni rivojlantirishga va axloqiy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan harakatdir. Biz o'qitish jarayonini qanday tushunamiz? O'qitish jarayoni — o'qituvchining va u rahbarlik qiladigan o'quvchilarning — ularda aqliy qobiliyatlarni o'stirish, dialektik dunyoqarash asoslarini tarkib toptirish va hayotga tayyorgarlikni amalga oshirish maqsadida bilim, ko'nikma va malakalar tizimini ongli hamda puxta o'zlashtirishga qaratilgan ilmiy asosdagi ishlarning majmuyidir.

Maktabdagi o'qitish jarayoni qandaydir tasodifiy va, ayniqsa, pedagogning xususiy fikridan kelib chiqadigan narsa emas. O'qitish jarayoni *bilish nazariyasi* asosida tarkib topadi va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlaridan kelib chiqadigan talablarni aks ettiradi. Hozirgi ilg'or pedagogika inson shaxsini maqsadga muvofiq shakllantirishga tarbiya, o'zini o'zi tarbiyalash va ijtimoiy tajribadan iborat tizim sifatida qaraydi. Tarbiya va o'zini o'zi tarbiyalash kichik tizimlar o'rtasidagi bog'lanish asosida tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy tajribani o'zlashtirishi tashkil topadi va shu bilan insonning shaxsi shakllanadi.

O'quv jarayoni pedagogik jarayonning mag'zi sifatida tarbiya, o'zini o'zi tarbiyalash va ijtimoiy tajribaning birligini o'zida mujassamlashtiradi.

O'quv jarayonidagi tarbiya, asosan, o'qitish shaklida, o'zini o'zi tarbiyalash va ijtimoiy tajribaning birligi shaklida namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra o'quv jarayoniga ta'lim (pedagogning faoliyati), o'qish (o'quvchining mustaqil o'rganish ishi) va ma'lumotning mazmunini kichik tizimlardan iborat ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida qaraladi. O'qitish o'quv jarayonining professional tomonini tashkil qiladi. Inson shaxs sifatida shakllanishining ikki tomonlama tabiati (tarbiya va o'zini o'zi tarbiyalash), shuningdek, o'quv jarayonining ichki strukturasi yo'l-yo'riq ko'rsatish va o'quvchilar o'quv-bilish topshiriqlarini mustaqil holda bajarishidan iborat harakatdir. Buning yo'l-yo'riq ko'rsatish jihati muallim o'quvchiga o'quv materiali bo'yicha o'rgatadigan narsalar va ular ustida ishlash

metodlari bilan izohlanadi. O'quvchilar ana shu asosda o'zlarining ma'lumot mazmunini o'zlashtirishga doir faoliyatlarini tashkil qiladilar. Shunday qilib, o'quv jarayonining mohiyati o'quvchi bilish faoliyatining mantiqi bo'lib, u birinchidan, bilish bizdagi bilimlarning yagona manbayi bo'lmish amaliyotni o'rganishdan boshlanishi va mavhum fikrlar asosida nazariy umumlashtirish kerakligidan; ikkinchidan, bilish olingan bilimlarni, nazariy umumlashtirishlarni insondagi bilimlar haqiqiyiligini yagona obyektiv mezonlari sifatida ham xizmat qiladigan amaliyotga taqqoslash zarurligidan kelib chiqadi. O'quv jarayoni bilish jarayonini inson faoliyati sifatida psixologik-pedagogik jihatdan loyihalashga asoslanishini va olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashni, albatta, o'z ichiga olishi zarur. O'quv jarayoni asosida umuman butun jarayonga taalluqli va barcha o'quv fanlariga taqaladigan ma'lum talablar hamda didaktik prinsiplar mavjud bo'ladi. Bizning didaktika ana shulardan eng muhimlari: tarbiyalovchi ta'lim prinsipi, ilmiylik prinsipi, nazariya bilan amaliyotning bog'lanishi prinsipidan iboratdir. Ta'limning metodlari va tashkiliy shakllari asosida o'quvchilarning ongli faolligi, ko'rsatmalilik, bilimlarni asosli o'zlashtirish, o'ziga xos farqlarni tushunarlilik va hisobga olinishi prinsiplari yotadi.

O'qituvchi faoliyatining muvaffaqiyati, avvalo, u ta'limning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllaridan iborat umumiy didaktik prinsiplarni qanchalik to'g'ri amalga oshirishiga bog'liq. Didaktik prinsiplar ta'limning bevosita bilish nazariyasidan, shuningdek, maktabdagi ta'limning maqsadlari va ilmiy mazmunidan, o'quvchilar jamoasining yoshi va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqadigan qonuniyatlarni aks ettiradi.

O'qitish prinsiplari qandaydir doimiy va o'zgarmaydigan narsa emas. Ularning ayrimlari boshqacha sharoitga bog'liq holda o'zining nomini saqlab, yangi mazmun kasb etadi va ba'zilar, masalan, A. Y. Komenskiy olg'a surgan „tabiatga muvofiqlik prinsipi“ singari o'zining ahamiyatini yo'qotadi; yana boshqalari esa yangi sharoitda jamiyatning o'qitish jarayoniga qo'yadigan ma'lum talablarini to'laroq aks ettirishi sababli yetakchi prinsipga aylanadi. Chunonchi, hozirgi paytda o'qitishning tarbiyalovchi va kamol toptiruvchi prinsiplari alohida ahamiyat kasb etadi. Tabiiyki, mana shu prinsiplar o'qitish jarayoniga o'zining qandaydir yangiligini qo'shadi, uni nimalar bilandir to'ldiradi. Lekin tarbiyalovchi va kamol toptiruvchi ta'limga intilish yangilik emas. Uni mamlakatimiz peda-

gogikasi tarixida ilk bor Forobiy, Beruniylar asoslab berishgandi. Masalan, Beruniyning fikricha, tarbiyalovchi ta'lim ayni paytda kamol toptiruvchi ta'lim ham hisoblanadi: u kuzatuvchanlik, fikrlash, nutq, xotira va xayolning rivojlanishini ta'minlaydi, shu tariqa insonni hayotdagi mehnatga tayyorlaydi.

Mazkur prinsiplar yangi bo'lmasa ham, maktab rivojining turli bosqichlarida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda har xil yo'sinda va to'liq bo'lmagan hajmda amalga oshgan. Buning hammasi jamiyat tomonidan maktab oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarga bog'liq bo'lgan.

Hozirgi dasturlar ma'lumotning nazariy saviyasiga talablarni oshirishga, maktabda o'qishning dastlabki kunlaridan boshlab bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga, ularga fanlarning nazariy asoslariga doir tushunchalarni hosil qilishga, umumlashtirish va mantiqiy mulohaza yuritish malakalarini shakllantirishga qaratilgan. Ularda ham ilgarigi dasturlardagi kabi nazariy bilimlarni o'quvchilarda amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilish bilan bog'lashga jiddiy e'tibor berilgan. Shuningdek, ta'limning tarbiyalovchilik rolini yanada kuchaytirish nazarda tutilgan. Bu esa ongli ravishda o'zlashtirilgan qoidalar, dalillar va nazariyalar o'quvchilarning e'tiqodiga hamda dunyoqarashiga aylanishi kerakligini bildiradi. O'quvchilarga faol va muntazam mehnat qilish odatini yanada ko'proq singdirish, ularda bilimlarga ishtiyoq uyg'otish va bu bilimlarni umumiy foyda uchun qo'llashga intilishni tarbiyalash zarur. Tarbiyalovchi ta'lim o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy me'yorlarni egallashlarini ham ta'minlashi kerak.

Bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarning aqliy kamol topishi va to'g'ri tarbiyalanishi o'z-o'zidan amalga oshmaydi. Buning uchun pedagoglarning ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishi ham nihoyatda zarur. Ma'lumki, o'qitish jarayoni o'qituvchining va u rahbarlik qiladigan o'quvchilarning izchil faoliyati majmuyidan tashkil topadi. Bunda o'quvchilar faoliyatining muvaffaqiyati o'qituvchining oqilona rahbarligiga va yo'naltiruvchi ishlarga bevosita bog'liq bo'ladi. Ana shu ishlar, xalq ta'limi to'g'risidagi qonunda maktab oldiga qo'yilgan vazifalar mohiyati nimalardan iborat bo'lishi kerak? Aslida, hozirgi paytda yetakchilik qilayotgan tarbiyalovchi va kamol toptiruvchi ta'lim prinsiplari o'quv jarayoniga, shu jumladan, ta'limning asosiy shakli bo'lmish darsga o'z ta'sirini ko'rsatishi lozim. O'qitish jarayoniga qo'yiladigan talablar jamiyat rivojlantirishining turli bosqichlarida ham doim bir xil bo'lmagan. Bu hol

jamiyat rivojlanishining qonuniyatlaridan va uning eng muhim vazifasi — yosh avlodni tarbiyalash va o'qitishdan kelib chiqqan. Hozirgi kunning talabi — o'quv jarayonini o'quvchilarda faqat takrorlashga doir fikrlashni emas, balki ijodiy tafakkurni ham shakllantiradigan yo'sinda tashkil qilishdir. Psixologlarning ta'kidlashicha, tafakkur doimo muammo yoki masaladan, ajablanish yoki tushuna olmaslikdan, ziddiyatdan boshlanadi.

Ana shular tufayli ta'limiy muammolar asosida o'qitishda muammoli yondashish tushunchasi pedagogika nazariyasi va amaliyotiga faol kirib keladi. Bu muammoning mohiyati — o'quvchilarga ma'lum bilimlar, ko'nikma va malakalar bilan tushunish hamda tushuntirish uchun ilgari bilimlar kifoya qilmaydigan yangi dalillar, hodisalar o'rtasida didaktik ziddiyatdir. Bu ziddiyat ijodiy o'zlashtirishga turtki va shu bilan birga, harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi.

Biz o'qitishdagi muammolilikni o'quvchilarning o'quv muammosini anglashi va hal qilishiga qaratilgan bilish faoliyatini tashkil etish, deb tushunamiz. O'qitishdagi muammolilikning muhim belgisi masalani qo'yishdan ko'ra muammoli vaziyatni yaratish ko'proq zarurligidir. Bunda mazkur vaziyatni hayotiy dalillar va hodisalar asosida yaratishni nazarda tutish muhimdir. Chunki, muammoli vaziyat qancha tabiiy shaklga ega bo'lsa, o'quvchilarni faollashtirish va muammoni hal qilishda qatnashishga jalb etish imkoniyati shuncha keng bo'ladi. O'qitishdagi muammolilik an'anaviy didaktikaning asosiy prinsiplari va qoidalarini inkor qilmaydi, balki ularga tayanadi. O'qitishga muammoli yondashishni qo'llashdan maqsad hozirgi o'qitish jarayonini o'quvchilarda ijodiy fikrlashni faol rivojlantirishga yordam beradigan metodlar va usullar bilan to'ldirishdir.

Umuman aytganda, o'quv jarayonini takomillashtirishdan ko'zlanadigan asosiy maqsad uning sifatini yangi pog'onaga ko'tarishdir. Shunga ko'ra o'qituvchining faoliyatida qanday yangilik vujudga kelishi kerak? Avvalo, u materialni shunchaki bayon etmasligi va o'quvchilarga tayyor xulosalar hamda umumlashmalarni aytib bermasligi, balki ularning fikrini o'rganiladigan obyektga jalb qilishi, undan muammo topishi yoki imkoni bo'lsa, o'quvchilarning o'zlarini mazkur obyektidagi muammoni mustaqil holda o'ylashga rag'batlantirishi, muammoli vaziyatni yaratib ularning diqqatini safarbar qilishi, tafakkurni faollashtirishi, ta'limdagi loqaydlikni bartaraf etishi, o'quvchilarga o'zlaricha mulohaza yuri-

tib, zarur xulosalar va umumlashmalar chiqarishda yordam berishi, ularni kuzatishga, tasavvur qilishga, eslab qolishga, ijodkorlikka o'rgatishi, ya'ni u o'z tarbiyalanuvchilarini olgan bilimlari bilan kuzatilgan hayotiy dalillar va hodisalarga taqqoslash, shu asosda to'g'ri xulosalar va umumlashmalar chiqarishga odatlantirishi kerak. Mana shularning hammasi ta'lim jarayoniga zamonaviy mazmun baxsh etadi.

## HOZIRGI O'QITISH JARAYONIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Hozirgi kunning vazifalarini amalga oshirishda o'qitishning chuqur ijtimoiy e'tiqodlilik bilan uyg'un ilmiylikiga qo'yilayotgan talablar g'oyatda muhimdir.

Didaktikada o'qitishning ilmiyligi nima ekani asosli ravishda bayon qilinadi. Ma'lumki, maktab ta'limi mazmuniga kirgan barcha bilimlar voqelik qanday bo'lsa, uni shundayligicha, hech bir qo'shimchalarsiz aks ettiradi. Pedagogning vazifasi o'quvchilarga ilmiy, haqqoniy bilimlarni asli holicha tushuntirishdan, ularni bilimlarni mustaqil o'rganishlarida o'zlashtirilgan haqiqatlar borliqdagi — inson ongidan tashqari obyektiv mavjud narsalarga muvofiqligini kafolatlaydigan yo'lga solishdan iboratdir. Hatto bolalar ta'limning birinchi pog'onasida olgan juz'iy bilimlar ham haqiqatni buzmasligi kerak.

Ilmiy asosdagi to'g'ri o'qitish natijasida o'quvchilar ongida obyektiv olamning haqqoniy manzarasi hosil bo'ladi.

Pedagogika amaliyotida ba'zan g'alati voqealar ham uchraydi. O'quvchilar qiziquvchanligi sababli o'qituvchiga savol beradilar va xuddi ana shu paytda o'qituvchi asosli javob bera olmaydi, xijolat chekadi. Noto'g'ri javob bersam, keyinchalik obro'yim ketadi, deb o'ylaydi. Masalan, birinchi sinf o'quvchilari o'qituvchidan „Kosmos nima?“ — deb so'raydilar va u sarosimaga tushib qoladi. Darhaqiqat, buni birinchi sinf o'quvchilariga qanday tushuntirish kerak? O'qituvchi puxta o'ylab olib, keyin, chunonchi,ertasiga javob berish o'rniga, shu zahoti „Kosmos bizdan juda uzoq narsa“, — deb javob qildi. Shunday javobdan keyin o'quvchilarda kosmos haqida qandaydir tasavvur hosil bo'ladimi?

Chinakam ilmiylik doimo ijtimoiy rivojlanish va moddiy olam qonuniyatlarining obyektivligini o'z ichiga oladi. Bizning fan dialektik falsafa poydevoriga quriladi. U voqelikning sovuqqonlik, loqaydlik bilan yozilgan tavsifi emas, balki moddiy olam haqidagi

qarama-qarshi tushunchalarning o'zaro kurashish maydoni va qurolidir. Fanlar — e'tiqodlarni shakllantirishning kuchli omili. Shuning uchun, yoshlarimiz olgan bilimlar ularning e'tiqodiga aylanishi juda muhimdir.

Mana shu vazifalarni amalga oshirishda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muhim talabdir. Biz faqat ana shunga asoslanib, bolalarni mustaqil o'ylashga o'rgatishimiz, ularda o'zlarining qarashlari va nuqtayi nazari tizimini tarkib toptirishimiz mumkin.

Agar bilimlarni bayon etish, ishning usullarini ko'rsatish mumkin bo'lsa, ijodiy faoliyatni o'rgatish uchun o'quvchilarni xuddi ana shu faoliyat jarayoniga bevosita jalb etish shart. Mana shu muammo bo'yicha ayrim mulohazalarni ifodalashga harakat qilamiz.

Avvalo, har qanday ijodkorlik, xususan, o'quvchilarning ijodkorligi maxsus tayyorlangan sharoitlarda amalga oshishi mumkin. Bunda bilimlar, ko'nikmalar va malakalar tizimi hal qiluvchi omil bo'ladi. Ijodni, ijodkorlikni qanday tushunish kerak? Odatdagi tushunchaga ko'ra, ijod ozchilik kishilarning, buyuk san'at asarlarini, yangi mashinalar, dastgohlar va hokazolarni yaratadigan iste'dodli odamlarning qismatidir. Lekin ijod buyuk asarlar yaratishdangina iborat emas, balki kishining fikr yuritishi, biror tadbirni o'ylab topishi, ozgina bo'lsa-da, qandaydir yangilik yaratishi ham ijoddir. Ijod jarayoniga tasodif sifatida emas, balki qoida sifatida qarash lozim.

O'quvchining ijodini qanday tushunish kerak? Bolalar hech qanday yangilik yaratmaydi-ku? O'quvchining ijodkorligi, eng avval, uning har qanday faoliyat jarayonidagi: o'ziga xos usul bilan masala yechishi, insho yozishi, tajriba ishlari, mehnat darslari va hokazolardagi mustaqil fikrlashida namoyon bo'lishi lozim.

O'quvchining ijodi — uning olgan bilimlarini hayotda ko'rgan faktlar va hodisalarga bog'lay olishi, ularni to'g'ri baholab, dastlabki ma'lumotlarni tahlil va sintez qila bilishidir.

Har qanday ijod borliqni rad etish emas, balki borliqqa to'laroq kirib borishdir.

O'qitishdagi individual yondashish ham ta'lim jarayonining muhim talabidir. Biz ana shu talabni qanday tushunamiz? O'qitishdagi individual yondashish faqat mashq ishlarida emas, balki o'quv jarayonining hamma bosqichlarida: yangi materialni o'tishda, mustahkamlashda va takrorlashlarda ham, uy vazifasini tuzishda va darsdan tashqari qo'shimcha mashg'ulotlarda ham amalga oshirilishi zarur. Uni, masalan, yangi material o'rganilayotganda qanday amalga oshiriladi? O'qituvchi materialni tushuntirar ekan,



darslikning paragrafi bilan cheklanishi mumkin emas. U ayrim ma'lumotlarni ancha kuchli o'quvchilarni nazarda tutib bayon qilishi lozim. Bunda bo'sh o'quvchilar nima qilishi kerak? O'qituvchilarni hisobga olmagan-ku? Ko'pchilik tajribali o'qituvchilar qiyin mavzularni o'tishdan oldin ana shunday o'quvchilar bilan qo'shimcha mashg'ulot uyushtirib, yangi materialni idrok etish uchun ilgari o'rganilgan bilimlarni takrorlaydi va yangi materialning qiyin joylarini tushuntiradi. Ana shunday qo'shimcha ish doimiy ravishda bo'lmasa-da, o'qituvchining faoliyatida zarurdir. Chunki o'qituvchining kasbiy burchi, eng avvalo, ehtiyojmandlarga yordam berishdir. Darsda buning uchun har doim imkoniyat bo'lavermaydi. Mashqlar vaqtida dastlab butun sinfga qiyinligi bir xil materiallarni berish, keyingi bosqichlardagina tayyorgarlik mashqlarini tabaqalashtirish tavsiya etiladi. Bo'sh o'quvchilar bilan ishlash darslarda ham, qo'shimcha mashg'ulotlarda ham amalga oshirilishi kerak. Bu ishlarda faqat o'qituvchilar emas, balki mazkur sinfdagi kuchli o'quvchilar yoki bo'sh o'quvchilarga birlashtirilgan yuqori sinf o'quvchilari ham qatnashishi lozim.

Ta'limning demokratik va insonparvarlik tizimiga o'tish davrida o'qitishdagi individual yondashish alohida ahamiyat kasb etadi, bino-barin, hozirgi kunning talabi o'quvchi o'rta maktab dasturini o'zlashtirishi uchun ta'limning har bir bosqichida tegishli bilimlar olishiga erishishdan iboratdir. Shaxs doimo shakllanishda bo'ladi. Shaxsning shakllanishi sust kechishi ham mumkin.

Shaxsni har tomonlama kamol toptirish muammosini faqat maktab emas, balki jamiyatning rivojlanishi ham hal qiladi, albatta. Jamiyat tobora rivojlanishi bilan shaxs har tomonlama kamol topishi uchun qulay sharoitlar vujudga keladi.

O'qitishni tabaqalashtirish va individuallashtirish muammosi ta'lim nazariyasi va amaliyotida yangi muammo emas. Ammo u hozirgi paytda ta'lim-tarbiya nazariyasida alohida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Uning chet el pedagogikasi uchun mohiyati, bir tomondan, fan-texnika inqilobi sharoitida malakali kadrlar tayyorlashdan iborat bo'lsa, ikkinchi tomondan, fan, ishlab chiqarishni boshqarish, mafkura, adabiyot va san'at muammolarining yaratilishidan iboratdir.

Ta'limni tabaqalashtirish muammosi ilmiy-pedagogik asosda hal qilinsa, o'qitishni ma'lum darajada individuallashtirishga imkoniyat paydo bo'ladi. O'qitishni individuallashtirish juda murakkab muammo bo'lib, ma'lum metodologik va pedagogik yondashishga bog'liq holda bevosita hal qilinadi.

Pedagoglar va psixologlar o'qitishni individuallashtirish muammosiga shaxsni har tomonlama kamol toptirish, shaxs bilan muayyan (o'quvchilar yoki ishlab chiqaruvchilardan iborat) jamoa o'rtasidagi munosabatlarni, maktabning insonni tarbiyalashdagi rolini muayyan tushunish nuqtayi nazaridan yondashadilar. Bunda iste'dod va qobiliyatlarning baravar emasligi, ularning xilma-xilligi va individualligi haqidagi ta'limotga tayanadilar.

O'qitishning individuallashuvi tarbiyaning ham individuallashganini bildiradi. O'qitish va tarbiyalash jarayonida shaxsning qobiliyatlarigina rivojlanib qolmaydi, balki uning fazilatlarini ham shakllanadi. Inson esa faqat o'zining atrofidagi olamga munosabati orqali shaxsiga aylanadi. Jamiyatdan va ijtimoiy munosabatlardan tashqari *individuallik bo'lmaydi, sinfiy ekspluatatorlik jamiyatida bunday munosabat sinfiyligi sababli o'qitish va tarbiyalashning har qanday individuallashuvi hukmron mafkuraning tarbiyalanuvchilarga ta'sirini kuchaytiradi va bu ta'sir yanada noziklashadi, o'zgaruvchan va maqsadga muvofiqroq bo'ladi.*

O'qitishning individuallashuvi ta'limning tashkiliy shakllari va metodlari, sinflarning to'laligi, o'zgarishiga, hatto maktab binolarining rejalashtirilishi, potok sinflar, guruhlarining nisbati va har bir o'quvchi bilan olib boriladigan ayrim ishlar ham jiddiy o'zgarishiga sabab bo'ladi.

*O'quvchilar o'zicha hayot kechiradi, ularning tashqi olamga munosabatini ifodalovchi ma'naviy dunyosi boy va takrorlanmas bo'ladi. Ana shu dunyoni, ichki hayotni individual yondashish bilan tushunish mumkin. Individual xususiyatlar, qiziqish va iste'dodlar hisobga olinmasa, sinf-dars tizimi orqali muntazam o'rganiladigan kurslar quruq yodlashga aylanib qolishi ehtimoldan xoli emas. Har bir kishining iste'dodi ko'p qirrali bo'lib, faqat tashqi sabablar bilan emas, balki uning o'z tabiatiga bog'liq holda ham tarkib topadi. Inson tashqi ta'sirni o'z-o'zidan qabul qilmaydi, balki unda bolaga ta'lim orqali beriladigan ijtimoiy tajribani o'zlashtirish imkonini yaratadigan biologik qobiliyat mavjuddir. Masalan, musiqachilarga xos nozik eshitish analizatori zarur. Shunday analizatorga ega bo'lgan holda musiqachi bo'lmaslik mumkin, ammo mazkur analizatorsiz musiqachilikni o'rganishning iloji yo'q.*

O'qitishni individuallashtirish „biologik“ va „ijtimoiy“ xususiyatlarni, ya'ni insonda iste'dod bo'lishi mumkinligini, lekin u faol ishlar bilan shug'ullanmasa, iste'dod tashqi ta'sirlar, tashqi sharoitlar natijasida o'z-o'zidan qobiliyatga aylanmasligini yaqqol

tushunishni talab qiladi. Ta'lim o'zining mazmuni va metodikasiga ko'ra tashqi ta'sirdir. Lekin u o'quvchi iste'dodi hisobga olinsagina kutilgan natijani berishi mumkin.

O'qitishning individuallasuvi jamoa bilan yanada chuqur bog'lanishiga olib boradi, jamoadagi o'zining „men“ini namoyish qilishning, shaxsga aylanishning yorqin istiqbollari vujudga keltiradi. Shaxsni ta'sir ko'rsatishning jamoaviy vositasida tarbiyalash — unda jamiyatga to'g'ri munosabatni tegishli faoliyat bilan qo'shishning axloqiy-estetik normalar haqidagi, ularga ongli yondashish to'g'risidagi tushunchalarni tarkib toptirishini bildiradi: mustaqillik va faollikni, o'ziga xoslikni rivojlantirish esa ijtimoiy konstruktiv — ijodiy ishlarda o'zini yaqqol namoyon etishdir.

„Individuallik“ tushunchasi insonning ijtimoiy mohiyatini ifodalovchi shaxs, avvalo, ijtimoiy mavjudot sifatidagi insonni tavsiflaydigan umumiy xususiyatlarni o'z ichiga olishini ko'rsatadi.

Umumiy ijobiy xususiyatlar qanchalik ko'p bo'lsa, shaxs shunchalik ahamiyatli bo'ladi, chunki u ijtimoiy munosabatlarni eng chuqur aks ettiradi.

„Individuallik“ tushunchasi shaxsning boshqa kishilardan farqlanadigan alohida va yagona xususiyatini o'z ichiga oladiki, bu xususiyat shaxsga jamiyatda o'ziga xoslik va takrorlanmaslik baxsh etadi, unda ijtimoiy munosabatlar sharoitida, ya'ni kishi kishini ekspluatatsiya qilmaydigan tuzumda jamiyat va shaxs o'zaro qarama-qarshi bo'lmaydi. Har qanday individuallikning betakrorligi jamiyatdan ajralib qolmaydi, balki jamiyatning uzviy bog'liqligi uning manfaatlarini va harakat qonuniyatlarini tushunishdadir. Jamiyatsiz shaxs bo'lmaydi, individuallik bo'lmaydi, chunki kamolotning manbai jamiyatdadir.

Shaxsning kamol topishida o'zining kuch-g'ayrati, bevosita faoliyati juda katta rol o'ynaydi.

Bizning tarbiya va ta'lim tizimimiz har bir bolada iste'dod, faollik, onglilik va ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan.

Avval xususiyatlarni hisobga olib, umumiylikni, keyin umumiyini hisobga olib, alohidalikni rivojlantirish kerak.

## **O'QITISH JARAYONIGA NOAN'ANAVIY YONDASHISH**

Respublikamizda ta'lim jarayonini takomillashtirish bo'yicha izlanishda o'qitishning yangi shakllari asta-sekin mustahkam o'rin olmoqda. Bular gimnaziya, ixtisoslashtirilgan sinflardir. Lekin ta'limning yangi shakllari, asosan, maktabning o'rta va yuqori

bo'g'inlariga daxldordir. Xo'sh, boshlang'ich maktabda nimalar bo'layotir? Boshlang'ich maktab har qanday holda ham o'quvchilardagi bilimlarni shakllantirishda va ularning qobiliyatlarini aniqlashda asosiy rol o'ynaydi, keyin ham shunday bo'lib qoladi. Ammo boshlang'ich maktabdagi barcha o'quvchilar, bolalarning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish uchun tegishli ishlarni amalga oshirayotirmi? Masalan, nima uchun yuqori sinflarda a'lo bahoga o'zlashtiradigan bolalar soni kamayib bormoqda? Maktabni bitta yoki ikkita o'quvchi oltin medal bilan bitirishini qanday tushunish kerak? Iste'dodli, qobiliyatli bolalar yo'qmi yoki o'qitish jarayoni shunchalik samarasiz bo'lib qolganmi? Bularning sababi nima? Sababi ko'p. Birinchidan, boshlang'ich sinflar o'qituvchisining bolalar bilan individual ish olib borish imkoniyati cheklangan. Sinflarda bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilarga e'tibor berish zarur. Ikkinchidan, mazkur o'qituvchilarning metodik saviyasi yetarli emas. Sinfdagi umumiy ishlar jarayonida qobiliyatli bolalarning ijodiy imkoniyatlari cheklanib qolmoqda. Ular o'z qobiliyatlarini ko'rsata olmayotir. O'quvchining butun kuchi va e'tibori sinfga qaratilib, qobiliyatli bolalar ko'zga tashlanmayotir. Umuman aytganda, xususan, bolalarni saralash va o'qitishga boshqacha yondashishi bilan ularning ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish kerak.

Boshlang'ich maktab (I bosqich maktab) bola shaxsining ilk shakllanishini ta'minlashi, uning qobiliyatlarini aniqlash, o'quvchilarda bilim olish ko'nikmasi va istagini tarkib toptirishi kerak. Bunday maktabda o'quv faoliyatining zarur ko'nikma va malakalarini egallaydilar, o'qish, yozish, hisoblashni o'rganadilar, ijodiy fikrlash elementlarini, madaniy nutq va xulqni, shaxsiy gigiyena hamda sog'lom turmush asoslarini o'rganadilar.

Mana shu umumiy vazifalarni amalga oshirish uchun maqsadlarning ustunligini jiddiy, tubdan o'zgartirish, avvalo, predmetlarga doir bilimlar, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning an'anaviy maqsadi o'rniga bola shaxsini, o'quv faoliyatini shakllantirish asosida tarbiyalash maqsadi egallaydi, lekin bunda an'anaviy predmetlarga doir ko'nikma va malakalarning shakllanish darajasiga e'tibor sustlashmasligi lozim.

Boshlang'ich ta'limning muayyan maqsadlarini ishlab chiqishning haqiqiy ahvoli shundaki, yangi ustunliklar nazariy va amaliy ustunliklar jihatidan eng kam ishlab chiqilgan. Hozirgi kunda predmet ta'limining o'quv dasturlarida belgilangan muayyan

maqsadlari hozircha kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining yosh xususiyatlari va imkoniyatlaridan ajralib qolgan, ta'limning rejalashtirilgan natijalari va ularni baholash mexanizmlari nuqtayi nazardan ifodalanmagan. Bu hol o'quv faoliyatini shakllantirishga doir ishlar bilan predmetlar bo'yicha ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish o'rtasida uzilish mavjudligidan dalolat beradi.

Boshlang'ich ta'limdagi maqsadlar ustunligining almashinuvi faqat predmetlar o'rtasidagi nisbat (asosiy va ikkinchi darajalilik)ning o'zgarishiga olib bormaydi, balki shaxsni kamol toptirish vazifalarini kengroq va to'laroq amalga oshiradigan yangi, uyg'unlashgan kurslarni ishlab chiqishning asosini ham vujudga keltiradi. Bunday kurslarni va ularning dasturlarini ishlab chiqish nihoyatda zarurdir.

Shu bilan birga, kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining yosh imkoniyatlarini hisobga oladigan va ularda o'quv faoliyatini shakllantirishga qaratilgan yangi tipdagi ta'lim vositalariga o'tish juda muhimdir.

Muayyan yo'nalishdagi (matematika, til, estetik va jismoniy tarbiya hamda boshqalarga doir) maktablarga bolalarni yoshidan qat'iy nazar qabul qilinadi, ya'ni olti va yetti yoshli bolalar farqlanmaydi. Bunda asosiy mezon ko'rish va eshitish xotiralari, mantiqiy fikrlash hamda nutqdan iborat bo'ladi. Mana shu mezonlarga ko'ra boshlang'ich maktabning asosiy vazifasi: bolalarga kuzatish, o'ylash, o'qish va yozishni, o'qilgan yoki aytilgan materialning asosiy ma'nosini ajratish va tahlil qilishni, muammoli vaziyatlarni turli variantlarda hal etishni o'rgatishdir. Sinfning ahvoriga muvofiq o'quvchining eng muhim vazifalari: o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishga tayyorligini aniqlash va rivojlantirish; keyin o'qitishning individual shakli metodikasini ishlab chiqish, bolalarnig qobiliyatlari va ijodiy qiziqishlarini takomillashtirish; ularning tafakkuri hamda o'qitish dasturini maksimal darajada o'zlashtirish iqtidorini o'stirish; bolalarning o'ziga xos va shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish; ularni chuqurlashtirish; bilimlar asosida maktabning o'rta zve-nosidagi o'qishga tayyorlashdir.

O'zbekiston maktablarining tajribali o'qituvchilari bolalarni neyropsixologlarning ekspress-dagnostik tekshirish asosida tanlash metodidan foydalanadilar. Bu metod psixologiya fanlari doktorlari, professorlar B. Qodirov va E. G. Simernitskaya, dotsent S. Oxunjonovlar tomonidan ishlab chiqildi. Ular o'quv rejasiga ijodiy tafakkurni rivojlantirish dasturlarini, ta'limning ikkinchi tili — matematika, shaxmat o'yini darslarini kiritadilar.

Ijodiy tafakkurni rivojlantirish dasturining (haftada 2 marta) vazifasi quyidagilardan iborat edi:

1. Kontursiya, piktogramma tili bo'yicha mashqlar orqali obrazli tafakkurni rivojlantirish, tabiiy obyektlarning o'xshashligi bo'yicha ishlash.

2. Sistemali va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish (bunga o'zaro uzoq o'xshashlikning bog'lanishi, „Ha-yo'q“ o'yini, EHM bilan muloqot, konturli topshiriqlarni topish, „Siferblat — umumiy tizim qismning sistemasi — sistemalar“ o'yini kiritilgan.

3. „Yaxshi-yomon“ o'yini, ertaklardagi ziddiyatlarni izlash orqali dialektik tafakkurni rivojlantirish.

4. Tabiatdagi hodisalarni bevosita kuzatish asosida bolalarning diqqatini tabiat go'zalliklariga jalb qilish.

5. Ertaklarning sujetlari bilan ishlash, turli ertaklarni tahlil qilish, tabiatdagi o'xshashliklarini bog'lash asosida kichik sujetlar tuzish, bir ertak obyektini ikkinchi ertakka ko'chirish yo'li bilan sehrli sujetlar va effektlar yaratish, ertakli masalalarni hal qilishda tasviriy san'at usullarini qo'llash.

Matematika ta'limi jarayoniga shaxmat o'yini va informatika darslari joriy qilingan edi. Shaxmat sinfdagi hamma o'quvchilar uchun majburiy qilib belgilangandi. Chunki shaxmat orqali o'quvchilarda xotirani, xatti-harakatning ma'lum mantiqini, o'yinda raqibining maqsadini hisobga olish, ko'zlangan natijalarga erishish uchun o'zining ishlarini rejalashtirish ko'nikmalarini, mehnatsevarlik va batartiblikni rivojlantirish mumkin.

O'quvchilar I—IV sinflarda EHM bilan shug'ullanib, mashqlarni mashinada ishlash malakalarini hosil qiladilar, matematika, tabiatshunoslik, mehnat darslari bo'yicha o'yin dasturlarini o'zlashtiradilar, shuningdek, test asosida psixologik yo'nalishdagi har xil mashqlarni bajaradilar.

O'yin shaklida olib borilgan til bilan bog'liq darslarda ta'limning ikkinchi tilini o'rganishda, asosan so'zlarni, iboralarni eslab qolishga, o'qish va yozish malakalarini shakllantirishga ahamiyat berildi.

O'qitishning gumanitar yo'nalishlarini „Atrofimizdagi olam“, „Tasviriy san'at“, „Musiq va raqs“ darslari tashkil etdi. Bunday darslarning vazifasi axloqiy va estetik tarbiyaning asosi bo'lib, chinakam insoniylik sifatlarini va rahmdillikni, inson va tabiatning go'zalligini ko'ra olishni rivojlantirishdan iborat edi.

Ta'limdagi noan'anaviy o'quv jarayonining ana shu xildagi boyligi tibbiyotchilar va psixologlar tomonidan doimiy ravishda nazorat olib borilishini talab qiladi.

Sinf psixologlarining asosiy vazifasi bolalarning o'quv jarayoniga, psixologik barqarorlikka ko'nikishini aniqlashdan iborat edi. Psixologlar darslarga kirishi, o'quvchilar va ota-onalar bilan suhbatlar o'tkazishlari lozim. Ular to'plagan ma'lumotlar o'quv jarayonini oldindan belgilash imkonini beradigan maxsus daftarlarga muntazam ravishda yozib borilishi shart. Sinf psixologining yana bir vazifasi xotirani rivojlantirishga doir mashg'ulotlarni o'tkazishdan iborat bo'lib, bu ish ta'limning boshlang'ich zvenosida juda zarurdir.

### TENGLASHTIRISH SINFLARI TO'G'RISIDA

Bolalarga tabaqali yondashishni amalga oshirish, ularni metodik maqsadga muvofiq yo'sinda o'qitish psixik sog'lom hamma bolalarga bitta sinfda ta'lim berish imkonini yaratadi.

Xususan, ana shu muammo hal qilinmagani sababli keyingi paytlarda „Seleksiya ishining tuzatish sinflari“ deb ataladigan alohida shakli ancha keng tarqaldi. Bunday sinflarda o'qishda turli qiyinchiliklar bois yaxshi o'zlashtirmaydigan, ba'zan kasaliga noto'g'ri tashxis qo'yilgan bolalar ham maxsus jamlanadi.

Maxsus maktab jamoalarini tashkil etish masalalari psixologlar, tibbiyot xodimlari va pedagoglar tomonidan qunt bilan chuqur tadqiq qilinishi kerak. Bu tadbir o'qitish, tarbiyalash va kamol topirish natijalarini baholab, o'quvchilarni navbatdagi sinfga o'tkazish muammosini hal qilishda muhim ahamiyatga ega.

Maktablarda o'quv jarayonini tashkil etishga tabaqali yondashish uchun tenglashtirish sinflarini yaratishning psixologik jihatdan ham, pedagogik jihatdan ham o'ziga xos qiyinchiliklari bor. Psixologik yo'sindagi qiyinchilik shundan iboratki, o'qituvchi uchun qo'li ostidagi bolalarning kimligini, ichki dunyosini va ular bilan qanday ishlash kerakligi, nima uchun shundayligini darrov bilib olish ancha mushkuldir. O'zlashtirmaydigan bolalarda xotiraning hamma turi past bo'ladi va ularga tahlil qilishni, taqqoslashni ham umumlashtirishni alohida e'tibor bilan o'rgatish zarur.

Individual yondashish, xususan, tenglashtirish sinflaridagi ta'lim va tarbiyaning yetakchi prinsipidir. Ta'limda olg'a siljish uchun o'qituvchi juda ko'p mehnat qilishi, xilma-xil mashg'ulotlarni individual yo'sinda amalga oshirishi lozim bo'ladi.

Bolalarni umumiy ta'lim maktabidagi o'quv jarayoniga qo'shish uchun ularning bilimlari, ko'nikma va malakalarini teng-

lashtirish vazifasini o'qituvchi, tarbiyachi va ota-onalar hamkorlikda uddalashlari mumkin. Mazkur sinflardagi o'quvchilar bilan ishlaydigan tarbiyachi o'qituvchining ishini davom ettirishi, har bir o'quvchiga alohida-alohida yordam berish uchun maxsus tayyorgarlikdan o'tishi kerak.

O'qituvchi bolalarning charchab qolmasligini e'tibor bilan kuzatib borishi zarur. Shuningdek, ta'limning usul va metodlarini puxta o'ylab, har bir bolaga individual yondashishni hisobga olishi darkor. O'qitishning amaliy va nazariy bo'limlarini uyg'unlashtirishi, aqliy zo'riqish va hordiq chiqarish paytlarini navbatlashtirib borishi lozim.



### *Savol va topshiriqlar*

1. Didaktika nimani o'rgatadi va u ayrim predmetlarni o'qitish amaliyoti bilan qanday bog'langan?
2. Hozirgi o'qitish jarayoniga qo'yiladigan talablar qanday? Aytib bering.
3. O'qitish jarayoniga noan'anaviy yondashishni qaysi o'quvchilarda kuzatdingiz? So'zlab bering.







## **X BOB. MAKTABDAGI O'QITISHNING TA'LIM-TARBIYAVIY VA KAMOL TOPTIRISH VAZIFALARI**

### **YOSH AVLODNI KAMOL TOPTIRISH ASOSLARI**

Umumiy ta'lim va hunar maktabini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari amalga oshirilayotgan hozirgi sharoitda boshlang'ich ta'lim bolalarni har tomonlama kamol toptirishning asosini vujudga keltiradi, ularda tez tushunib, ifodali o'qish, hisoblash, yozish, ravon so'zlash va madaniy xulq malakalarining mustahkam shakllanishini ta'minlaydi. Boshlang'ich maktab o'qishga va ijtimoiy-foydali mehnatga halol munosabatni, Vatanga muhabbatni tarbiyalaydi. Boshlang'ich sinflarda ana shu vazifalarni bajarishning yo'llaridan biri o'qitishning ta'limiy, tarbiyaviy va kamol toptirish vazifalarini amalga oshirishdan iboratdir.

Boshlang'ich maktabning o'quv dasturlarida o'qituvchi ishining ana shu yo'nalishlari haqida gap boradi. Davlat dasturini bajarish — har bir o'quv predmetining, ta'limiy, tarbiyaviy va kamol toptirish imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishdir. Ona tili dasturida savodxonlik, o'qish, fonetika, grammatika va chiroyli yozishni o'rgatish orqali bolalarning nutqini o'stirish, inson, tabiat va jamiyat to'g'risidagi tasavvurini boyitish, ularda g'oyaviy-siyosiy, axloqiy-estetik tushunchalarni shakllantirish, mantiqiy va muayyan obrazli fikrlashni rivojlantirish, o'quv mashg'ulotlari va kitobga qiziqish uyg'otish vazifalari qo'yiladi.

Matematikaning ta'limiy imkoniyatlari o'quvchilarni tarbiyalash bilan uzviy bog'liqdir. Matematika bilan shug'ullanish bolalarda ilmiy dunyoqarashning asoslarini tarkib toptiradi, bilish qobiliyatlarini rivojlantiradi, o'qishga va mehnatga halol munosabatni, Vatanga muhabbat tuyg'ularini tarbiyalaydi.

Tabiatshunoslik kursining mazmuni kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda jonsiz va jonli tabiat, mehnat ahli to'g'risida, tabiatda yil fasllaridagi o'zgarishlar, undagi narsalar va hodisalarning o'zaro bog'liqligi to'g'risida juz'iy bilimlarni hosil qiladi, ularni jonsiz va jonli tabiatni muntazam ravishda kuzatishga o'rgatadi. Shaxsiy va ijtimoiy-gigiyenik malakalar bilan tanishtiradi. Tabiatshunoslik bolalarda tabiatga muhabbat uyg'otadi va uni muhofaza qilishga intilishni vujudga keltiradi, mantiqiy fikrlash va nutqni rivojlantiradi, ko'nikma va malakalarni, mehnat qilish istagini,

intizomlilikni, qat'iyatlilikni va o'zaro yordam kabi fazilatlarni shakllantiradi, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga yordam beradi.

Boshlang'ich sinflardagi „Mehnat ta'limi“ o'quv predmeti o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish, ularni kamol toptirish tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. Mehnat ta'limi dasturi texnik, maishiy, xo'jalik mehnatini va turli materiallarga badiiy ishlov berish asoslarini o'z ichiga oladi. Mana shu o'quv predmeti mehnat madaniyati asoslarini, ijtimoiy-foydali mehnat bo'yicha dastlabki ko'nikma va malakalarni shakllantiradi, mehnatsevarlikni, mehnatga to'g'ri munosabatni, tejamkorlikni, tabiatga va ijtimoiy mulkka ehtiyotkorona yondashish tuyg'ularini tarbiyalaydi, g'oyaviy-siyosiy, estetik, jismoniy tarbiyani amalga oshirishda yordam beradi, ijrochilik faoliyatiga tayyorgarlik bilan birga, ijodkorlik qobiliyatini takomillashtiradi.

Jismoniy tarbiya darslarida o'qitish, tarbiyalash va kamol toptirishning o'zaro bog'liq masalalari quyidagilardan iborat:

— o'sayotgan organizmning uyg'un rivojlanishiga, sog'ligini mustahkamlashga, chiniqishiga yordam berish;

— axloqiy va irodaviy fazilatlarni, xulq madaniyatini tarbiyalash;

— o'quvchilarni jismoniy madaniyatga doir zarur bilimlar bilan qurollantirish, ularda eng muhim harakat ko'nikmalari va malakalarini hamda jismoniy tarbiya kompleksi normalarini topshirishga tayyorgarlikni tarkib toptirish;

— o'quvchilarda asosiy jismoniy sifatlarni rivojlantirish, kundalik o'yinlarga, jismoniy mashqlarga, sportga barqaror qiziqish hosil qilish, o'zini jismoniy barkamol etishga ehtiyojni tarbiyalash.

O'qitish jarayonida ta'lim-tarbiyaviy va kamol toptirish vazifalarini ajratish, bilimlarni o'zlashtirish hamda zarur shaxsiy sifatlarni shakllantirish uchun yaxshi sharoitlarni vujudga keltiradi. Darsda bilimlarni o'zlashtirish jarayonida qarashlar va ma'naviy sifatlar ham shakllanadi, ya'ni mazkur funksiyalarning birligi va o'zaro bog'liqligi kuzatiladi. Masalan, agar bola dastur materialini o'zlashtirsa, mustaqil fikrlashi yetarli darajada rivojlanmaganidan qat'iy nazar, unga yuqori baho qo'yamiz. Va aksincha, mustaqil holda va ishonch bilan mushohada yurita oladigan o'quvchi dastur materialini yetarlicha o'zlashtirmagan bo'lsa, ijobiy baho ololmaydi. O'qituvchining o'qitish funksiyalari o'zaro bog'liqligini chuqur tushunish unga darsning ta'limiy, tarbiyaviy va kamol toptirish vazifalarini ijodiy yo'sinda qo'yish va hal qilish imkonini beradi.

Boshlang'ich maktabdagi o'qitishning ta'limiy funksiyasi, mazmuni, predmetlari bo'yicha o'quv dasturida qayd qilingan bilimlar ko'nikmalari va malakalarining majmuyidan iborat bo'ladi. Ana shu bilimlarni o'zlashtirish I, II, III sinfni, boshlang'ich maktab va hokazolarni bitirgach, muayyan darajadagi ma'lumotlilikni ta'minlaydi.

O'qitishning ta'limiy funksiyasini amalga oshirish jarayoni bilimlarning va ular asosida shakllanadigan ko'nikma hamda malakalarning xarakteriga bog'liqdir.

Bolalarning o'zlariga mos qonuniyatlar, tushunchalar, qoida va ta'riflarni o'zlashtirishi bilan bog'liq nazariy bilimlar o'zlarining bilish faoliyatini tashkil etishning ma'lum shakllarini talab qiladi. Bunda fikrlashning mavhum shakllari ustun bo'ladi. O'quvchi muhim belgilarni va asosiy qoidalarni ajrata bilishi kerak. Unga bilimlardagi tizimni topishni o'rgatish lozim, ana shundagina yodlangan qoida va ta'riflar yuzaki bo'lib qolmaydi. O'quvchi nazariyani tushunarli dalillar, shaxsiy tajriba, amaliy ishlar asosida o'zlashtiradi. Lekin bilish faoliyatining samaradorligi qanday dalil va misollarni eslab qolgani bilan emas, balki ana shu dalillar asosida tushunchaning muhim belgilarini qanchalik ajrata olgani, ta'rif va qoidalarni anglagani bilan belgilanadi. Masalan, III sinfdagi ona tili darsida o'qituvchi bolalarni so'z turkumlaridan „Ot“ bilan tanishtiradi. O'quvchi ikkita belgi: so'z predmetni bildirishi va so'z (*kim? nima?* degan) savollarga javob bo'lishi asosida ana shu so'z turkumini ajratadi. Bunda asosiy vazifa mazkur muhim belgilar bilan ish ko'ra olishdir. Shu tariqa bolaning ongida nazariya vujudga keladi.

O'quvchi uchun faqat, aytaylik, „daraxt“, „uy“, „traktor“ kabi xususan, otga taalluqli so'zlardan misollar keltirish muhim emas, balki eng muhimi, o'rganilgan ikkita belgi asosida mana shu so'zlar nima uchun otga taalluqli ekanini tushuntira olishdir.

Ba'zan o'quvchi darsda faollik ko'rsatadi. Predmetni bildiradigan so'zlarga har xil misollar keltiradi. U ana shu so'z turkumini yaxshi o'zlashtirgandek tuyuladi. Lekin uning javoblari nazariy jihatdan dastlabki bilimlar va ilgari ajratilgan ikkita belgi asosida so'zlarni tahlil qilishning natijasi emas, balki o'rtoqlariga taqlid qilishdan iborat bo'lishi mumkin.

O'qitishdagi ta'limiy funksiyaning ana shu tomonini amalga oshirish jarayonida bola o'quv materialining nazariy dasturini o'zlashtiradi.

O'qitishning ta'limiy funksiyasi mazmunining boshqa bir jihati dalilli o'quv materialini o'zlashtirishdir. Bunda kichik maktab yoshidagi o'quvchining bilish faoliyati boshqacha xarakter kasb etadi va, eng muhimi, turli dalillarni, hodisalarni hamda ularni sistemalashtirishni bilishdir. Masalan, II sinfdagi tabiatshunoslik darsida bolalar kuzatishlar orqali kuzning belgilari: sovuq tushishi, yog'ingarchilik, daraxt barglarining to'kilishi, o't-o'lanlarning qurib sarg'ayishi, qushlarning uchib ketishi, hovuzlardagi suvlarining muzlashi va hokazolar bilan tanishadilar. Bunda dastlabki belgilarni eslab qolish, keyin ular haqida sinfga va o'qituvchiga so'zlab berishning o'zi yetarli emas. Eng muhimi, bolaning kuzatishlarini, uning shaxsiy tajribasiga, tabiatdagi kuzgi o'zgarishlarni kuzatishga doir bilimlarini sistemalashtirishdir. Kuzning belgilarini puxta bilish bolaga muayyan ma'lumotlarni, taassurotlarni sistemalashtirishda yordam beradi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchi o'zlashtirgan bilimlar ma'lum nazariyaga bog'liq bo'lmasligi ham mumkin. Bunday bilimlar, odatda, yozuvchilar, shoirlar, musiqachilar, olimlar, ishchilar va boshqalarning hayotiga oid ma'lumotlardan iborat bo'ladi. O'qitishning ta'limiy funksiyasiga doir ana shu tomonni amalga oshirish jarayonida asosiy ish bolaning ilgari bilmagan dalil va hodisalarni eslab qolishidir.

Shunday qilib, o'qitishning ta'limiy vazifasini amalga oshirish o'quvchilarga beriladigan bilimlarning xarakteriga bog'liq. Boshlang'ich maktabda ta'limiy funksiyaning mazmuni o'quv predmetlari bo'yicha, darslar o'rganiladigan mavzular bo'yicha taqsimlanadi. Masalan, I sinfdagi matematika o'quv dasturida (I—IV sinflar) 1 dan 10 gacha sonlarni o'rganishga 34 ta dars, 1 dan 20 gacha sonlarni o'rganishga 12 ta dars, qo'shish va ayirishga 62 ta dars ajratilgan.

O'quv materialini ana shu yo'sinda taqsimlash darsning ta'limiy vazifalarini qo'yish va amalga oshirishda yordam beradi. Avvalo darsda mazkur vazifalarning qo'yilishini osonlashtiradi, o'quv materialining muayyanligini, aniqligini ta'minlaydi. O'qituvchi darsni boshlashdan oldin o'quv materialining ana shu darsda tushuntirishi lozim bo'lgan qismi bilan, darslikning shu material yoritilgan qismining mazmuni bilan tanishadi.

Mana shularga tayanib, darsning ta'limiy vazifasini ifodalash qiyin emas, masalan: o'quvchilarga o'ngacha to'g'ri va teskari sanashni o'rgatish; ot tushunchasini berish; kuzning belgilarini

tushuntirish va hokazo. Ta'limiy vazifa qanchalik aniq belgilansa va u darsda olingan o'quv materialiga qanchalik muvofiq bo'lsa, darsda o'qitish metodini tanlash shunchalik oson bo'ladi.

Har bir muayyan darsda ta'limiy vazifa qo'yiladi va amalga oshiriladi. Lekin bir darsda bitta yuqoridagi kabi vazifa qo'yilsa, ikkinchi darsda boshqa vazifa qo'yiladi va hokazo. Ta'limiy vazifalar majmuyi o'qituvchining o'qitish funksiyasini tashkil qiladi.

O'qitishning ta'limiy vazifasi majmuyi ham berilgan bilimlar asosida shakllanadigan ko'nikmadan iborat bo'lib, bilimlarning xarakteri tegishli ko'nikmalar bilan belgilanadi. Quyidagi yetakchi ko'nikmalarni alohida ifodalash mumkin: muayyan o'quv predmetining nazariy materiali asosida shakllanadigan va uning o'ziga xosligiga muvofiq ko'nikmalar (masalan, so'z turkumlarining belgilarini topish ko'nikmasi); natural qator sonlarni (I dan 10 gacha va teskarisiga) aytish, qo'shish, bo'lish komponentlarini ta'riflash ko'nikmasi; yil fasllarining belgilarini farqlash ko'nikmasi shular jumlasiga kiradi.

Boshqa ko'nikmalar dalilli materiallarni o'zlashtirish bilan bog'liqdir. Bunda bolaga mavjud dalillar va ma'lumotlarni mustaqil holda tizimlashtirishni, har xil misollar keltirishni, qoida va ta'riflarni tushuntirishni, masalan, I sinfda o'qilgan matn bo'yicha savollarga javob qaytarish va rasmlarga qarab uning mazmunini gapirib berishni, rasmlar asosida hikoyalar tuzishni, o'qilgan asarning sarlavhasini izohlashni o'rganish g'oyat muhimdir.

Boshlang'ich maktabdagi ta'limiy vazifaning mazmuniga, xotiraning faoliyatiga bog'liq ko'nikmalar: o'qituvchining talabi va o'z xohishi bo'yicha yodlash, keyin o'rganilgan she'rni eslash, o'quvchilar bastakorlar va ularning asarlari haqida gapirib berish ham kiradi.

Boshlang'ich sinflardagi ta'limiy vazifalarning amalga oshishi o'qituvchi o'rganiladigan bilimlarning va shakllanadigan ko'nikmalarning xususiyatlarini qanchalik ko'ra olishiga bog'liqdir.

O'qitishning tarbiyaviy vazifasi o'quvchilarda ijobiy qarash va e'tiqodlarni, axloqiylik, irodalilik va hissiyotlarni shakllantirishdan iboratdir. O'qituvchi har bir darsdagi o'quv materialini o'rgatish jarayonida tarbiyaviy vazifaning ma'lum bir tomonini amalga oshiradi. Masalan, II sinfda bolalar o'z tengdoshlarining ishlari, ularning do'stligi, o'zaro yordami, odamlarga diqqat-e'tibori va mehribonliklari to'g'risidagi hikoya va she'rlarni o'qiydilar. Mana shunday darslarda ularda axloqiylik xususiyatlari shakllanadi.

Dunyoqarash, shaxsning axloqiy fazilatlari, hissiyotlar, irodalilik va hokozolarning tarkib topishi uzluksiz jarayon bo'lib, uni aniq cheklangan qismlarga ajratish mumkin emas. Masalan, bitta darsda halollikni tarkib toptirish yoki dunyoqarashni shakllantirish vazifasini to'la amalga oshirib bo'lmaydi.

Tarbiyaviy funksiyani amalga oshirishni qanday qilib boshqariladigan jarayon qilish mumkin? Bunda tarbiyaviy vazifalar yordam beradi. Odatda, ular bitta dars doirasi bilan cheklanmaydigan darslar tizimiga mo'ljallangan bo'ladi. Tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirish bola shaxsining rivojlanishini, unda ijobiy sifatlar va xususiyatlar shakllanishini kuchaytiradi.

Shular sababli tarbiyaviy vazifalarni qo'yish ancha murakkab ishdir. Tarbiyaviy vazifa o'quvchida shaxsning muayyan sifatlarini takomillashtirishga qaratilishi lozim. Masalan, II sinfdagi tabiatshunoslik darsida tabiatning bahordagi o'zgarishlari o'rganilar ekan, o'qituvchi kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda dunyo haqida tasavvur hosil qilish bilan bog'liq tarbiyaviy vazifani qo'yadi. Bu vazifa quyidagicha ifodalanadi: kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda atrof-olamdagi narsa va hodisalarning o'zaro bog'liqligi haqida tasavvur hosil qilinadi. Bunday vazifalar o'quvchiga o'zi o'rganadigan hodisalar, voqea va narsalar orqali dunyoning manzarasini tasavvur etish imkonini beradigan metodni tanlash uchun asos bo'ladi.

Bunda bolaning bahor paytlarida tabiatda ro'y beradigan o'zgarishlar haqidagi ma'lumotlar asosida atrof-dagi olamni tasavvur etishga harakat qilishi, bahorda nimalar bo'lishini aytish bilan cheklanmay, haqiqiy voqelikni, narsalar, hodisalar va voqealarning o'zaro bog'liqligini ko'z oldiga keltirishi ham juda muhimdir. Ma'lumki, o'quvchida bilish faoliyatining xarakteri shundayki, darsda ta'limiy vazifani amalga oshirishga qaraganda, tarbiyaviy vazifani amalga oshirish ancha murakkab, ziddiyatli bo'ladi. O'quv dasturida tarbiyalash jarayonini har bir alohida dars uchun qismlarga bo'lish nazarda tutilmaydi. Shuning uchun, odatda, ma'lum mavzuni o'rganishda, albatta, tarbiyaviy vazifa qo'yiladi.

Tarbiyaviy vazifaning natijalari ta'limiy vazifaning natijalari kabi muayyan, aniq qilinadigan bo'lmaydi. Tarbiyaviy vazifa har bir o'quvchida turli darajada amalga oshadi.

Masalan, kuzatish kundaligini yuritish ona tabiatga muhabbat uyg'otadi. Boshlang'ich maktabda ana shu xildagi ishlarni bajarishda bu tarbiyaviy vazifa beriladi. Lekin bir o'quvchi faoliyatning bu turini tabiat hodisalarini kuzatish kundaligini muntazam ravishda

to'ldirib borish va o'qituvchining maqtovini eshitish hamda yaxshi baho olishdan iborat deb biladi; ikkinchi o'quvchida tabiatdagi hodisalarning o'zaro bog'liqligi va ular bir-biriga bog'liq holda kelib chiqishi haqida tushuncha hosil bo'ladi; uchinchi o'quvchida kuzatish natijalariga bog'liq holda qishlab qoladigan qushlarni boqish, o'simliklarni parvarishlash, chug'urchiqlar uchun inlar qurish istagi paydo bo'ladi. Ammo u o'zining ana shu istaklarini ahyon-ahyonda amalga oshiradi yoki ular yaxshi niyatligicha qolib ketadi. Yana ba'zi o'quvchilar uchun bunday istaklar mustaqil holda amaliy faoliyatga asos bo'ladi va shu tariqa o'qituvchi qo'yan tarbiyaviy vazifalar o'zining to'laroq ifodasini topadi.

Darsning tarbiyaviy vazifalari o'quvchi shaxsida muayyan axloqiy, estetik, emotsional va irodaviy sifatlarni hamda xususiyatlarni shakllantirish uchun obyektiv sharoitlarni vujudga keltiradi.

Boshlang'ich ta'limdagi kamol toptirish vazifasining mazmuni bilish jarayonini faollashtirish, fikrlash mantiqini, tafakkur usullarini, mushohada yuritish va xulosalar chiqarishni o'zlashtirishdan, o'qishga va atrofda olamni bilishga qiziqishni shakllantirishdan, o'qishning ijobiy motivlarini vujudga keltirishdan iboratdir.

Ko'pincha darsda o'qituvchi o'qitishdagi kamol toptirish vazifasining qandaydir bir tomoniga e'tibor beradi. Masalan, bilish jarayonini faollashtirish maqsadida ziyoratlik va idrokni oshiradigan vazifalarni qo'llaydi yoki matematika masalalarini yechish orqali analiz va sintez usullarini shakllantiradi yoki o'quv mashg'ulotini qiziqarli shaklda o'tkazish vositasida o'qishning ijobiy motivlarini vujudga keltiradi.

Har qanday o'quv materialini o'rganish o'quvchining kamol topishiga, undagi fikrlash mantiqining, bilish kuchlari va o'qish motivining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ammo darsning kamol toptirish vazifasi qancha kam ifodalansa, o'qituvchi uni shuncha kam anglaydi va o'quvchining kamol topishi ham shuncha tasodifan va kutilmagan holda amalga oshadi. Va, aksincha, o'qituvchi kamol toptirish vazifasini qancha yaqqol ko'rsa va anglasa, darsda o'quvchining kamol topishini shuncha to'g'ri boshqarish mumkin bo'ladi.

Darsdagi kamol toptirish vazifalarining majmuyi o'qitishning kamol toptirish vazifasini oldindan ko'zlangan va boshqariladigan jarayonga aylantiradi.

O'qitishning kamol toptirish vazifasini amalga oshirish o'z tuzilishi bo'yicha tarbiyaviy vazifani amalga oshirish bilan o'xshashdir. Tarbiyaviy vazifani amalga oshirishdagi singari, kamol toptirish

vazifasini amalga oshirishda ham eng muhimi o'quvchining kamol topishiga muayyan intilishlarni shakllantirishdir. Bitta darsda analiz va sintezning mantiqiy usullarini, mavhum fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, faol va mustaqil fikrlarni shakllantirish vazifasini qo'yish va amalga oshirish mumkin emas. Lekin mana shunday vazifalarni darslar tizimidagi ma'lum mavzuni o'rganishda ham, har bir darsda ham qo'yish zarur. Darsning kamol toptirish vazifalarini amalga oshirish doimiy ravishda ma'lum g'oyalarni rejalashtirish va fikrlash mantig'ini, faollik va bilishga qiziqishni rivojlantirishdan iboratdir.

Kamol toptirish vazifasini amalga oshirish natijalarini bashorat qilish qiyin, lekin ularni mo'ljallash, har holda kamol toptirish yo'lini oldindan ko'rish va o'quvchi ana shu yo'ldan o'qituvchining niyatiga, pedagogik nazoratiga va o'quv materialining mantig'iga muvofiq yo'sinda borishini ko'zlash kerak. Masalan, o'qituvchi bolalarga insho yozish jarayonida mustaqil fikrlashni o'rgatish vazifasini qo'ydi. Bu vazifani qanday qilib amalga oshirish kerak? Odatda, bolalar rasmga qarab matnni batafsil yozadilar. Uning mazmunini tahlil qiladilar, grammatik va uslubiy xatolarga yo'l qo'ymaslik uchun ma'lum so'zlarga va gaplarning turli variantlariga murojaat etadilar. Bunday sharoitda bola mustaqil fikr-mulohaza yuritmaydi, u asosan o'qituvchining xarakteriga taqlid qiladi. Shunga ko'ra, o'quvchi uchun u tavsiya etgan modellar va namunalarga kamroq bog'liq bo'ladigan sharoitlarni yaratish kerak.

Bunday sharoitlarda chinakam tabiiy va ijtimoiy hodisalarni kuzatish asosida insholar yozish maqsadga muvofiqdir. Misol tariqasida Toshkent shahridagi maktablardan birining II—III sinflarida „Paxta dalasi“ mavzusida yozilgan inshoni ko'rib o'taylik. Bolalarga inshoni quyidagi reja asosida yozish tavsiya etiladi: 1. Paxta dalasining umumiy ko'rinishi. 2. Daladagi ayrim hodisalar. 3. Mening paxta dalasida olgan taassurotlarim.

Bolalar avval dalaga chiqadilar. U yerda tabiatdagi o'zgarishlarni kuzatadilar. So'ngra maktabga qaytib, taassurotlarini va ishlatilishi mumkin bo'lgan gaplarni tahlil qilmay, inshoni yozishga kirishadilar. Bu metod mustaqil fikrlash va mushohada yuritishni vujudga keltiradi, buning dalilini insho matnlarida yaqqol ko'rish mumkin. Har bir bola o'zi kuzatgan, tasavvur etgan va eslab qolgan narsalarni tavsiflashga tirishadi. Lekin izlanishda hissiy obrazlarning boyligi va xilma-xilligi namuna yoki model bo'yicha duch kelgan ibora bilan ifodalanavermaydi.



Bolalarda mustaqillikka va ijodkorlikka ishtiyoqni shakllantirish nihoyatda muhimdir. Har qaysi bolada ana shu ishtiyoq turlicha (ko'proq yoki kamroq) darajada vujudga keladi, ammo ularning hammasida namoyon bo'lavermaydi. Shunga ko'ra o'qitishning kamol toptirish vazifasi oldindan puxta o'ylab, mo'ljal bilan amalga oshiriladi.

Shunday qilib, har bir darsda o'qitishning uchta: ta'limiy, tarbiyaviy va kamol toptirish vazifalari u yoki bu darajada amalga oshiriladi.

Ularning o'zaro bog'liqligi va birligi ziddiyatlidir. Agar o'qituvchining faoliyati darsning ta'limiy vazifasini amalga oshirishga qaratilsa, u o'qituvchining bilish faoliyatida asosiy o'rinni egallaydi. Bunday holda o'qitishning boshqa vazifalari, ya'ni tarbiyaviy va kamol toptirish vazifalari hamda ularga muvofiq topshiriqlar mazkur darsdagi o'quv jarayonining yordamchi, qo'shimcha komponentlari hisoblanadi. Masalan, o'qituvchi darsda o'qish texnikasini o'rgatsa, kitobga muhabbat uyg'otish va o'qilgan narsalarga qiziqish hosil qilish yordamchi, qo'shimcha vazifa bo'ladi.

Bordi-yu, darsda o'qituvchining faoliyati tarbiyaviy vazifani bajarishga qaratilsa, ta'limiy va kamol toptirish vazifalari hamda ularga muvofiq topshiriqlar o'qitish-tarbiyalash jarayonining yordamchi komponentlariga aylanadi. Masalan, darsda o'qituvchi o'qilgan materialning mazmuni ustida ishlasa, asarning mazmuniga estetik, hissiy munosabatni shakllantirsa, o'qish texnikasini o'rgatish yordamchi vazifa bo'ladi.

Nihoyat, o'qituvchi darsda asosiy diqqat-e'tiborini o'qitishning kamol toptirish vazifasini amalga oshirishga jalb etsa, ta'limiy va tarbiyaviy vazifalar unga nisbatan yordamchi mavqega ega bo'ladi. Masalan, matematika darsida o'qituvchi bolalarga ziyraklik va topqirlikni rivojlantiradigan topshiriqlar, muammoli savollar bersa, didaktik o'yinlarni tavsiya qilsa, kamol toptirish vazifasi yetakchi bo'ladi. Hisoblash malakalarini, matematik operatsiyalarni o'rgatish esa yordamchi vazifaga aylanadi.

O'qituvchining majburiyati ana shu didaktik bog'lanishni ko'ra olishdir. Har gal vazifalarning yetakchilik holati va ularga taalluqli topshiriqlar o'zgartirilsa, o'quvchi bilish faoliyatining xarakteri ham o'zgaradi.

Masalan, darsning nazariy materialini o'zlashtirish bilan bog'liq ta'limiy vazifasi o'quvchining mavhum fikrlashi asosida amalga oshiriladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchida dunyo haqidagi

tasavvurlarni shakllantiradigan tarbiyaviy vazifa hissiy obrazlar asosida hal qilinadi. Darsning kamol toptirish vazifasi mantiqiy operatsiyalarni shakllantirishga qaratiladi va u o'quvchidan muayyan namuna bo'yicha fikrlar va mulohazalar tuzishni talab qiladi. Ana shu nuqtayi nazardan o'qituvchi o'rganiladigan mavzu bo'yicha har bir darsni o'tkazish tizimini o'ylab oladi.

Darsning ta'limiy, tarbiyaviy va kamol toptirish vazifalarining turlarini, shuningdek, ularni amalga oshirish usullarini izlash boshlang'ich ta'lim metodikasi va amaliyotining takomillashuviga yordam beradi. O'qituvchining o'qitish jarayonida ta'limiy, tarbiyaviy va kamol toptirish vazifalarini amalga oshirish yo'llarini bilishi ularning ijodkorlik va pedagogik mahorat bilan ishlashini ta'minlaydi.

### **DIDAKTIK TADQIQOT METODLARI**

Umumiy didaktika bitta metoddan emas, balki turli metodlarning butun bir tizimidan foydalanib, ta'limning o'z tadqiqoti mavzusi bilan, ya'ni uning didaktik tizimlarining maqsadlari, mazmuni, jarayonlari, prinsiplari, metodlari, tashkiliy shakllari va vositalarini o'rganish bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq g'oyat muhim jihatlarini yoritadi. O'qitish jarayonining turli jihatlarini tizimlashtirish, taqqoslash va tahlil qilish ular orasidagi miqdoriy hamda sifatiy bog'lanishlarni aniqlashtirish imkonini beradi. Ana shu bog'lanishlar tufayli didaktikada amaliy o'quv jarayonida kuzatiladigan belgilar va hodisalar (narsalarning holati, jarayonlar) o'rtasidagi obyektiv mavjud barqaror aloqalar va munosabatlar aniqlanadi va ta'riflanadi. Bunday aloqalar va bog'liqliklar sabab-natija strukturaviy yoki funksional xarakterga ega.

Sabab-natija aloqalari, masalan, o'qituvchi bajaradigan didaktik ishlarning ma'lum majmuyi (sabab) bilan o'quvchilarda ro'y bergan o'zgarishni aks ettiradigan yangiliklar (natija) o'rtasida vujudga keladi. Ikkita (yoki undan ortiq) hodisa birgalikda ko'rinib, nisbatan barqaror struktura hosil qilishini strukturaviy aloqalar deyiladi. Mana shu qonuniyatning dalili sifatida o'rta maktablardagi ikki yillik ko'rsatkichlari ortib borayotgan sinflarda o'quvchilarning ko'payib borayotganini aytish mumkin. Va nihoyat, funksional bog'liqlik tadqiq qilinayotgan hodisaning ayrim xarakteristikalarini bilan boshqa xarakteristikalarining o'zgarishi o'zaro muvofiq vaziyatlarda vujudga keladi. Mana shu xildagi bog'liqlikning misoli sifatida oliy o'quv yurtlaridagi ishchi yoshlar salmog'ining

kamayishi yoki ko'payishi xuddi ana shunday yoshlarning umumiy ta'lim maktablaridagi salmog'i kamayishi yoki ko'payishiga proporsionalligini ko'rsatish mumkin.

Didaktik tadqiqotlarda ta'lim jarayoniga bog'liq ishlar va ana shu jarayonda amalga oshadigan sharoitlar ko'pincha erkli o'zgaruvchan ishlar sifatida, shu bilan birga, ular orqali erishiladigan natijalarni, odatda, bog'liq o'zgaruvchan natija deb ifodalanadi.

Ma'lum qonuniyatlarni oydinlashtiradigan va ularni barqarorlashtirish hamda pedagogik ish normalarini belgilashda yordam beradigan didaktik hodisalarni o'rganishda kuzatish, pedagogik eksperiment, intervyu olish, anketalashtirish, pedagogik hujjatlarni tahlil qilish, statistik tahlil metodlaridan foydalaniladi. Bunday hollarda didaktik tadqiqot ishini kuzatish, psixologik va didaktik testlar, savolnoma-intervyu, savolnoma-anketa, nisbatlar shkalasi kabi vositalarni keng qo'llaydilar.

Kuzatishning mohiyati didaktik hodisa va jarayonlarni maqsadga muvofiq ravishda, reja asosida va muntazam o'rganishdan, ularning o'zgarishini hamda o'zaro aloqalarini aniqlashdan iboratdir. Kuzatishlarni bevosita va bilvosita amalga oshirish mumkin. Birinchi holda mazkur didaktik jarayonning tabiiy rivojlanishi kuzatilib, rejaga muvofiq ma'lumotlar to'planadi. Ana shu jarayonda kuzatuvchining o'zi ham qatnashsa, masalan, dars o'tsa, ishtirokli kuzatish deyiladi. Ikkinchi hol, ya'ni bilvosita kuzatish hodisalarni yoki barqaror jarayonlarni texnik vositalar, stenogrammalar, bayonnomalar va hokazolar yordamida maqsadga muvofiq ravishda, muntazam tadqiq qilishga tayanadi.

Kuzatish metodi samaradorligining va uni qo'llash to'g'riligining eng muhim sharti kuzatishlarning maqsadini aniq belgilash va ular uchun aynan mos, ya'ni kuzatuvchiga ma'lumotlarni reja asosida va muntazam ravishda to'plash imkonini beradigan joylarni tanlashdir. Shuningdek, kuzatishlarning natijalarini kinoga olish, magnitofon lentasiga ko'chirish, stenogramma yozish va boshqa yo'llar bilan mustahkamlash ham didaktik tadqiqotlar uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki bu tadbir mazkur jarayonni yoki hodisani ko'p marta takrorlash va turli nuqtayi nazardan tahlil qilish imkonini yaratadi.

Kuzatish yordamida olib boriladigan tadqiqotlarda kuzatuvchi erkli o'zgaruvchini almashtira olmaydi, chunki bunday o'zgaruvchi unga bog'liq bo'lmaydi. Shu bilan birga, erkli o'zgaruvchi ham, erksiz o'zgaruvchi ham tegishli tadbirlar yordamida belgilanishi mumkin.

Eksperiment kuzatishdan farqlanadi. Kuzatish tadqiqotchining maqsadlariga daxlsiz holda va uning qandaydir yo'sinda aralashuvizisiz ro'y beradigan va amalga oshadigan hodisalar hamda jarayonlarni o'rganishdan iboratdir. Eksperiment esa tadqiqotchi ongli ravishda vujudga keltiradigan va o'zi nazorat qiladigan hamda o'zgartiradigan sharoitda kechadigan hodisalar hamda jarayonlarni o'rganishga harakat qiladi. Boshqacha aytganda, eksperiment bilan kuzatish o'rtasidagi tafovut ko'rilayotgan hodisalar va jarayonlarning vujudga kelishida, ularning tadqiqot uchun atayin keltirib chiqariladigan yoki loaqal ular kechadigan sharoit o'zgartirilganida (eksperiment) va yoki ular tadqiqotchining mo'ljaliga daxlsiz holda paydo bo'lishida (kuzatish)dir. Agar, masalan, kimdir o'quvchilarning ular uchun yangi vaziyatlardagi o'zi kuzata olgan xatti-harakatlarini ta'riflasa, buni kuzatish metodidan foydalanish deyiladi. Bordi-yu, ana shu vaziyatlarni tadqiqotchining o'zi o'quvchilardagi taassurotni o'rganish uchun atayin vujudga keltirgan bo'lsa, buni tadqiqotchining eksperiment o'tkazishi deyiladi.

Shunday qilib, eksperiment hodisalar yoki jarayonlarning vujudga kelishi yoki ularning borishidagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, bunday o'zgarishlar mazkur hodisa yoki jarayonlarga qandaydir yangi omilni va kuzatishni kiritish hisobiga sodir bo'ladi. Ana shu yangi omil tadqiqotdagi erkli o'zgaruvchi bo'ladi va undan kelib chiqadigan o'zgarish esa erksiz o'zgaruvchilar hisoblanadi. Umuman, eksperimentning mohiyati erkli o'zgaruvchini (erkli o'zgaruvchilarni) manipulatsiya qilish imkoniyatidan, ana shu manipulatsiya natijasida ro'y bergan o'zgarishlarni nazorat qilish imkoniyatidan, tadqiqotlarga jalb etilgan shaxslar va guruhlarini tanlashdan iborat deyish mumkin.

Pedagogik eksperimentni laboratoriya eksperimenti shaklida olib borilsa, mazkur jarayon o'zi uchun maxsus yaratilgan sharoitda vujudga keladi yoki o'zgaradi; agar tabiiy eksperiment shaklida olib borilsa, uning uchun tipik sharoitda tadqiqot o'tkaziladi. Olimlar tadqiqotlarga kirishishda ifodalaydigan ish gipotezalari laboratoriya eksperimentiga ham qamralgan hodisalar yoki jarayonlarni taxminan tushuntirishdan iborat bo'ladi. Ana shu xildagi gipotezalarni kuzatishlarda ham qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik eksperiment — umumiy didaktika o'z tadqiqotlarida foydalanadigan metodlar jumlasiga kiradi. Shu bilan birga, u birmuncha cheklangandir. Bunday eksperiment voqelikning

barqaror elementlarini bilishni ta'minlansa ham, umuman, voqelikning rivojlanishini, unga xos uzluksiz va takrorlanmas o'zgarishlarni ana shu yo'sinda muvaffaqiyatli tadqiq qilish imkoniyatini bermaydi. Vaholanki, ta'lim-tarbiya jarayonida, xususan, bunday voqelikka juda ko'p duch kelinadi.

Kuzatishlar va eksperiment orqali olib boriladigan tadqiqotlarda o'zgaruvchilarning qiymatini o'lchashga yordam beradigan asosiy vositalarning biri testlardir.

Didaktik testlar har xil yo'sinda tekshirishlarga, yozma ishlarga va o'qitish natijalarini nazorat qilishning og'zaki shakllariga o'xshaydi va eksperimental tadqiqotlarning natijalarini baholash uchun xizmat qiladi. Testda tadqiqotlar o'qitish natijalarini nazorat qilish va baholashning boshqa usullaridan o'zining aniqligi va obyektivligi, shuningdek, o'lchash uchun qulayligi bilan farqlanadi.

Didaktik mashg'ulotlarda, avvalo, o'qish, yozish, oddiy arifmetik operatsiyalar kabi juz'iy ko'nikmalarning testlari hamda yuqori sinflardagi o'quvchilarni va talabalarni tekshirishda yordam beradigan bilim va ko'nikmalarning turli testlari qo'llaniladi.

Ba'zan didaktik testlarni kasbiy (standartlashtirilgan) va o'qituvchilik testlariga ajratiladi. Kasbiy testlar tegishli mutaxassislarning tayyorgarligini, diagnostika nazariyasidan kelib chiqadigan juda ko'p shartlarining bajarilishini, shuningdek, standartlashtirish maqsadlari uchun zarur uzoq muddatli tekshirish tadqiqotlarini talab qiladi. O'qituvchilik testlari ham garchi to'g'ri diagnostika va statistika shartlariga javob berishi lozim bo'lsa-da, o'zlari o'tkazgan mashg'ulotlarda erishilgan ta'limiy natijalarni tadqiq qiluvchilar tomonidan tuzilishi mumkin emas. Lekin bunday testlar standartlashtirilgan testlarning xarakteriga ega bo'lmaydi.

Psixologik testlar, avvalo, qobiliyat va shaxs testlari o'quvchilarning umumiy aqliy iqtidoriga, xarakter xislatlariga, hissiy kechinmalariga, xulq motivlariga doir axborotlar olishni ta'minlaydi. Ko'pincha, bunday axborotlar o'qish natijalarining va xususan, o'quvchilar duch keladigan qiyinchiliklarning psixologik bog'liqligini tushuntirish uchun g'oyat foydali bo'ladi.

Didaktik tadqiqotlarda muayyan shaxslar egallagan bilim to'g'risida, shuningdek, ularning ma'lum hodisa va jarayonni baholashi to'g'risida axborot olish zarurati tug'ilsa, intervyu va anketadan foydalaniladi. Intervyu olish har xil shaklda o'tkaziladigan suhbatlarning o'zida axborotlar to'plash imkonini beradi.

Masalan, erkin suhbatning mazmuni tadqiqotning maqsadiga ko'ra belgilanadi. Tadqiqotchining oldindan hisobga olgan muammo bo'yicha o'tkaziladigan suhbatida savollarning shakllari bo'lmaydi. Nihoyat, boshqariladigan suhbat davomida tadqiqotchi aniq ifodalangan qator savollarga o'qituvchilarning og'zaki javoblarini kutadi. Boshqariladigan suhbat shaklida intervyu olishdan ilgari tadqiqotchi savolnoma tuzadi va u birinchi holda o'qituvchining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq savollar ro'yxatidan iborat bo'ladi, ikkinchi holda esa barcha tekshirilayotganlar uchun bir xilligicha qoladi. Boshqariladigan suhbat va ma'lum muammo bo'yicha suhbat shaklidagi intervyu olish erkin suhbat shaklidagi intervyu olishdagiga nisbatan to'laroq va obyektivroq ma'lumotlar to'plash imkonini yaratadi. Anketalar tuzilgan savollar ro'yxati (anketa savolnomasi) yordamida shaxslarning tanlangan doirasidan kerakli axborotlarni olish imkoniyatini yaratadi. Intervyu va anketa metodlaridan vaqt-vaqtida tasodifiy va noto'g'ri javoblarni bartaraf etish uchun bir yo'la foydalaniladi.

Pedagogik hujjatlarni tahlil qilish didaktik tadqiqotlarning quyidagi metodiga bog'liqdir. Bu metod o'quv dasturlari, maktab dasrliklari va jurnali, pedagogik kengash bayonnomalari va o'qituvchilarning yozuvlarida, shuningdek, tibbiy yoki psixologik tekshirish natijalariga doir hujjatlarda ifodalangan axborotlardan foydalanishga xizmat qiladi. Bunday axborotlar ta'limning mazmuniga, o'quvchilar atrofidagi muhit (oila, maktabdan tashqari tengdoshlari guruhi)ning xususiyatlariga, ularning xulqi, sog'ligi, psixik holati, tarbiyalanishining qiyinligi va hokazolarga doir ma'lumotlardan iborat bo'ladi. O'quvchilar faoliyatining turli natijalari: yozma ishlar, she'rlar, kundaliklar, rasmlar, badiiy va musiqiy asarlar (magnitofon lentalariga yozilgan holda) ham axborotlarning boy manbayi bo'la oladi. Ana shu hujjatlarni tahlil qilish orqali olingan axborotlar o'quvchi haqidagi ma'lumotlarni boyitishda va eksperiment hamda kuzatishlarda erishilgan natijalarni talqin qilishda katta yordam beradi.

Hujjatlarni tahlil qilish metodidan o'tgan davrlarni tadqiq etishda, chet ellardagi didaktik tizimlar xarakteristikasini o'rganishda foydalaniladi. Birinchi holda u tarixiy metodlarning xususiyatlariga ega bo'ladi, ikkinchi holda esa qiyosiy pedagogikada foydalaniladigan metodlarga o'xshaydi.

Didaktik tadqiqotning natijalari, asosan uning yakunlovchi bosqichida amalga oshiriladigan miqdoriy ishlab chiqish statistik

tahlilning har xil metodlari qo'llanishini talab qiladi. Shuning uchun olingan natijalarni taqqoslanadigan sonli kattaliklarda ifodalash mumkin bo'ladi.

Statistik tahlil, bir tomondan, olingan natijalarni statistik tavsiflashni va, ikkinchi tomondan, gipotezalarni statistik tekshirishni talab qiladi.

Bunday tavsiflash ustunlik qiladigan belgilar uchun xarakterli kattaliklarni, standart va og'ishni baholash, dispersiya o'lchashlarini, shuningdek, natijalar taqsimlanishining xususiyatlarini aniqlashni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, statistik tavsiflash absolut sonlarda yoki ko'rsatkichlarning foizlari tarzida, korrelyatsion jadval shaklida ifodalangan natijalarni taqqoslashdan iborat bo'lishi mumkin.

Olg'a surilgan gipoteza (taxmin)larni tekshirish statistik xulosa yordamida amalga oshiriladi, bunday xulosa, ayrim guruhlarini tadqiq etish davomida olingan natijalarning farqi statistik jihatdan qanchalik muhim savolga javob berish imkoniyatini yaratadi. Bundan tashqari, statistik xulosa chiqarishda kuzatiladigan farqlar tasodifiymi yoki o'zgaruvchi harakatining natijasi ekanini ma'lum darajadagi ehtimollik bilan aniqlash mumkin.

Statistik tahlil ehtimollik nazariyasiga tayanadi va shunga ko'ra, mazkur asosda ifodalangan umumlashma ehtimollik mushohadalari xarakteriga ega bo'ladi. Umuman aytganda, boshqa ilmiy tadqiqotlar singari, didaktik tadqiqotlar ham tahlil qilinadigan voqelikni tavsiflashi (deskriptiv ifodalash funksiyasi), aniqlangan aloqalar va bog'lanishlarni tushuntirish (tushuntirish funksiyasi), shuningdek, ta'lim bilan bog'liq hodisalar va jarayonlar rivojlanishining borishini oldindan aytish imkonini yaratishi lozim (prognoz (bashorat)lash yoki predikativ funksiya). Shunga ko'ra, eng yaxshi omil tadqiqotni quyidagi bosqichlar bo'yicha olib borishdir:

— erksiz o'zgaruvchini va uning o'zi uchun muhim erkli o'zgaruvchilar bilan aloqalarini ta'riflash. Bu bosqichda: „Erksiz o'zgaruvchi nima?“ „U nimaga va qanday bog'liq?“ degan savollarga javoblar asosiy ahamiyatga molik bo'ladi.

— Eng muhim savollar va gipotezalarni aniqlashtirish. Tadqiqotning ushbu bosqichini yoritadigan asosiy savolni quyidagicha ifodalash mumkin: „Qanday o'zgaruvchilar mazkur erksiz o'zgaruvchi uchun muhim?“

— Mazkur erksiz o'zgaruvchining o'zi uchun muhim erkli o'zgaruvchilar bilan aloqalari haqidagi gipotezalarni ifodalash.

— Tadqiqotga erkli o‘zgaruvchilarning kirish imkoniyati cheklanmaydigan aloqalari haqidagi gipotezalarni tekshirish.

— Tadqiqotlarning natijalarini umumlashtirish. Tadqiqotning ana shu bosqichi quyidagi asosiy savoldan iboratdir: „Tadqiqot natijasida olingan xulosalarga qaysi sohada amal qilinadi?“

Mazkur shakllarda tadqiqotlar olib borilsa, samarali natija beradi.



### *Savol va topshiriqlar*

1. Maktabdagi o‘qitishning ta’lim-tarbiyaviy va kamol toptirish vazifasini siz qanday tushunasiz? Izohlab bering.
2. Ta’lim jarayoning harakatlantiruvchi kuchi nima?
3. Bilim, ko‘nikma va malakalar deganda nimalar tushuniladi?
4. Didaktik tadqiqot metodlarini ochib bering.







## **XI BOB. TA'LIM MAZMUNI VA TEXNOLOGIYASI**

### **TA'LIM TEXNOLOGIYASI**

1. Texnologiyaning nazariy tavsifi.
2. Pedagogikada „texnologiya“ tavsifini qo'llash.
3. O'quv-tarbiya jarayonida rivojlantiruv usuli texnologiyasi.
4. Darsdagi rivojlantiruv ta'limi texnologiyasi.
5. Boshlang'ich ta'lim mazmuni texnologiyasi.

Texnologiya — bu berilgan parametrlarga mos keladigan mahsulot olishga yo'naltirilgan dastlabki materiallarni o'zgartirish jarayoni va uslublarining yig'indisi.

Pedagogik texnologiya — bu faqat kompyuter va texnologik vositalarni qo'llash emas, bu ta'lim samaradorligini oshiradigan faktorlarni tahlil qilish yo'li bilan umumta'lim jarayonini optimallashtirish usullarini ishlab chiqish va prinsiplarini aniqlash.

Texnologiya — bu sifat jihatdan yangi masalalarni yechish uchun ta'lim evolutsiyasi bosqichini tayyorlagan obyektiv jarayon.

„Texnologiya“ tushunchasi texnik taraqqiyot natijasida paydo bo'ladi va uning lug'aviy ma'nosi (kasb, fan, tushuncha, ta'lim, san'at) materiallarning ishlash usul va uslublaridan iboratdir.

Fan va texnika taraqqiyoti inson imkoniyatlarining kengayishiga olib keldi. Yangi texnologiyalar katta ta'lim imkoniyatlarini ochdi.

Ro'y berayotgan sifat o'zgarishlar shuni ko'rsatadiki, odat bo'lgan tushuntirishda „o'rgatish“ jarayonlari o'qituvchilarning shaxsiy imkoniyatlari chegarasidan tashqari chiqib keta boshladi.

Vujudga kelgan yangi texnik, axborot, bosma, eshitish va ko'rgazma vositalari o'ziga xos tarzda yangi metodikalar bilan ta'lim jarayoniga ko'pgina yangiliklar kiritib, uning ajratilmas qismi bo'lib qolmoqda.

Biroq, pedagogik — texnologik jarayonning o'ziga xosligi, uning an'anaviy shakllaridan ustuvorligi va hozirgi zamon ta'limi muammolari real yechish usullari hali to'la o'rganilmagan.

Bu haqda chet ellik va o'zbek avtorlari ko'p yozmoqdalar. Lekin barchalari pedagogik texnologiyalar kelajakda ustuvor o'ringa ega bo'lishiga ishonadilar.

1950- yillarda, o'quv jarayoniga texnik vositalarni joriy etish boshlanganda, „ta'lim texnologiyasi“ termini vujudga keldi, so'ngra u TTV qo'llanish metodikasi bo'yicha keyingi yillarda „pedagogik texnologiyalar“ga aylandi.

1960- yillar o'rtasida bu tushuncha mazmuni halqaro anjumanlar va chet el pedagogik bosma nashrlarida keng muhokama qilindi.

1967- yillar PFA qoshidagi ochilgan institutni „Maktab jihozlari va texnik vositalari ITI“ deb atashdi. Shunday bo'lsa-da institut olimlari ta'lim texnologiyasi muammolari bilan shug'ullanishar edi.

1970- yillar boshida rivojlangan kapitalistik davlatlar: AQSH, Angliya, Yaponiyada pedagogik texnologiyaga oid jurnallar nashr qilindi, keyinchalik bu muammo bilan maxsus muassasalar shug'ullana boshladi. Masalan, AQSH, Buyuk Britaniyada bo'lib o'tgan pedagogik texnologiya bo'yicha milliy kengashlar bunga misoldir.

Budapeshtda 1977- yilda YUNESKO tomonidan tashkil qilingan xalqaro seminarda ta'limdagi texnologik jarayonning asosiy xususiyatlari ko'rsatib o'tildi;

1. Texnikani mukammal bilish va ishlatish.
2. Audiovizual materiallar fondi bilan tanishish.
3. Ularning samarali ishlatish metodikasini egallash va ijodiy yondoshish.

Hozirgi zamon chet el va vatanimiz tajribasini tahlil qilish asosida, bugun ta'lim jarayonini shakllantiruvchilar doirasi kengaytirilmog'i lozim.

„Ta'lim texnologiyasi“ tushunchasiga ta'lim maqsadlarini tahlil qilish va rejalashtirish, o'quv-tarbiya jarayonini ilmiy tashkil qilish, ta'lim samaradorligini ta'minlaydigan vosita, material va metodlar tanlanadi.

Hozirda ta'lim texnologiyasi yordamchi vosita bo'lib qolmay balki, o'quv jarayonining rivojlanishida katta rol o'ynab, uning tashkiliy shakllari, metodlari, mazmunini o'zgartiradigan yangi sistema deb tushunilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, o'qituvchi va o'quvchining pedagogik tafakkuriga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Texnologiyani bunday tavsif qilish ta'lim jarayonidagi barcha tuzuvchilar orasidagi uzviy bog'lanishning muhimligini, pedagog va o'quvchining o'zaro hamkorligini ko'rsatadi.

O'quvchi passiv ta'lim obyektidan faol shaxs—ta'lim va tarbiya subyektiga aylanadi va aktiv subyekt sifatida o'qituvchi bilan bu jarayonda qatnashadi, mustaqil bilim olishga intiladi.

Fikrimizcha, yangi pedagogik texnologiyaning boshlang'ich maktabdagi roli va vazifalarini ko'rsatish zarur.

Metodika asosiga qurilgan ta'limga qaraganda „ta'lim texnologiyasi“ ko'p qirralidir.

Birinchidan, texnologiya asosida tub mahsulotlarni aniq tavsifi

turadi. Texnologiyada maqsad markaziy komponent hisoblanib, bu holat unga erishish darajasini aniq topishga olib keladi.

Ikkinchidan, tub va oraliq maqsadlari aniqlangani uchun texnologiya maqsadga erishish va nazorat obyektiv usullarini ishlab chiqishga yo'l ochadi.

Uchinchidan, texnologiya o'qituvchining pedagogik eksperiment qilishga majbur qiladigan holatlarini kamaytiradi.

To'rtinchidan, texnologiya o'qituvchi va uni faoliyat turlariga yo'naltirilgan dars ishlanmalari o'rniga, o'quvchilarning o'quv-o'rganish faoliyati mazmuni va tizilishini aniqlaydigan o'quv jarayonining loyahasini beradi.

Metodik dars ishlanmasi har bir o'qituvchi tomonidan turlicha o'zlashtiriladi, dars va o'quvchilar faoliyati ham turlicha tashkil qilinadi. O'quvchilarning o'quv faoliyatini loyihalashtirish esa, programmashtirilgan ta'lim tajribasi ko'rsatganidek o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini ko'taradi.

Inson — bu murakkab sistema va unga kuchi va yo'nalishi har xil yoki qarama-qarshi bo'lgan ko'p sonli tashqi kuchlar ta'sir etadi, shuning uchun u yoki bu ta'sirning samarasini oldindan aytib berish qiyin.

Ijtimoiy texnologiya bu borada katta samaraga ega, chunki u qayta aloqaga kirisha oladi.

Masalan, o'qituvchi doimiy nazoratni tashkil qilib, o'quv materialini o'zlashtirishda qiyinchilikka duch kelgan o'quvchilarni aniqlaydi va ular bilan qo'shimcha ish olib boradi. Bunday paytda o'qituvchi yangi materialni tushuntirish va mustahkamlash texnologiyasini qo'llaydi. Ya'ni, bu narsa materialni yetarli darajada o'zlashtira olmaganlar uchun o'tkaziladi.

Endi texnologiyaning yana bir turi haqida to'xtalib o'tamiz. Bu tushuntirish metodi bilan tushuntirish va mustahkamlashdir.

Masalan, dars boshida o'qituvchi 4—5 daqiqa savol-javob qilib, o'tgan darsdagi qaysi savollarni qaysi o'quvchi qay darajada o'zlashtirganini aniqlaydi. So'ngra, o'qituvchi mavzuni boshqatdan tushuntirib o'tirmay, so'rash davomida sinf diqqatini aynan shu savollarga qaratadi. Savolga to'liq javob qaytargan o'quvchilar tinglanadi va sinfdagi barcha o'quvchilar o'zlashtirmaganlarini bilib oladilar.

Bu usul o'qituvchilarga mashg'ulotidagi muammolarni aniqlab, tezda ularni yechish, ya'ni o'quvchilarga yordam berishga imkon yaratadi. Bunday texnologiya jarayoni vaqtni tejab, o'tilgan materialni so'rash metodi orqali mustahkamlashga ko'maklashadi.

Ijtimoiy texnologiya muayyan barcha sharoitlarga tezda moslashishi bilan ko'zga yaqqol tashlanadi.

### **PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING MAQSADI NIMA?**

Ta'lim mazmuni haqidagi dasturiy hujjatlarda pedagogik texnologiyaning maqsadi quyidagicha tavsiflanadi: „Shaxsning har taraflama shakllanishi va rivojlanishi; „o'quvchilarni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan bilimlar bilan qurollantirish, ularni xalq xo'jaligida ishlashga va ta'limni davom ettirishga tayyorlash, kundalik hayotda va mehnat faoliyatida zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'quvchilar tomonidan egallashni ta'minlash va hokazo. Nega ilgari „har tomonlama rivojlanish“ haqida gap yuritilsa, hozir faqat „shaxsning uyg'un rivojlanishi“ to'g'risida gapirilyapti.

Shaxsga barcha holatlarda o'z yo'nalishini aniqlashga imkon beradigan tarbiya berish kerak.

1. Ta'lim tizimi oldida turgan birdan bir maqsad, o'sib ketayotgan avlodni hayotga, jamiyat faoliyatiga tayyorlash;
2. Oldin ko'rsatilgandan kelib chiqib, ta'lim texnologik yo'nalishining maqsadi deb o'quv jarayonini berilgan ko'rsatmalar asosida tuzish deb qo'yilgan;
3. O'quv materiallarini tayyorlash va ta'limni tashkil etishni o'quv maqsadga muvofiq lashtirish;
4. Joriy natijalarni baholash va ta'limni shu asosida maqsadga yo'naltirish;
5. Yakunlovchi natijalarni baholash;
6. Maqsadga erishish uchun quyidagilar zarur;
  - a) kutilayotgan yakuniy maqsad haqida to'la tushuncha berish;
  - b) maqsadni tashxis qilish va „maqsadga erishildimi?“ degan savolga aniq javob berish.
7. Bunday maqsad „tashxis maqsad“ deb ataladi.

### **Ta'lim jarayonini texnologiyalash quyidagilarni talab qiladi:**

1. Umumiy maqsadni diagnostik maqsadga o'tkazishni.
2. Yangi diagnostik maqsadni o'qitish bosqichlariga bo'lib, har bosqichning maqsadini aniqlashni.

#### *Dars tartibi.*

Tushuntirish darsi. Ta'limning asoslaridan biri tushuntirish

prinsipi. Shuning uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda boshlang'ich bosqich — bu nazariy savollarga o'rganish. Bu ishda materialni o'qituvchi tomonidan tushuntirish muhim rol o'ynaydi.

Tushuntirish darsi tuzilishi, ya'ni uning qismlarining joylashishini quyidagicha ko'rsatish mumkin;

1. Oldingi o'rganilgan material asosida bilimlarni qayta tiklash.
2. Materialni tushuntirish.
3. Materialni o'zlashtirilganini tekshirish.
4. Nazariyotni qo'llash namunasini ko'rsatish.
5. Bilimlarni mustahkamlash.
6. Uy ishi.
7. Dars yakunini jamlamoq.

Ko'rib chiqilayotgan turdagi darsning eng muhim qismi — materialni tushuntirish. Bu qism va bundan keyingi mavzular ustida olib boriladigan ishni nazariy asoslari qo'yiladi. Shuning uchun yangi material berilibgina qolmay, tushuntirilishi ham kerak. O'qituvchi ko'rilyotgan mavzuning negizini ko'rsatib, o'rganilyotgan nazariyani amaliy o'quv masalalarini yechishda qoidalarni ishlatishni o'rganish kerak. Bu darsning asosiy maqsadidir.

Maqsad quyidagi shartlarni bajarishda „tashxis maqsad“ deb sanaladi:

1. Sifat, bilim, xosila, tajribaning aniq tavsifi.
2. Berilgan, sifat, bilim, xosila, tajribani aniqlash.
3. Uning shakllanish yoki rivojlanish pog'onasini o'lchash.
4. Bu pog'onani baholash va taqqoslash.
5. Ta'lim maqsadini tanlashda hozirgi kun talablariga yo'naltirilishi kerak. Maktab insonning bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatda mehnat qilishga tayyorlaydi.

Shuning uchun ta'limning tashxis maqsadiga kasb-hunar ta'limiga tayyorlash olinishi kerak. Ta'lim texnologiyasida o'qitish jarayonining yakunlanishi darajasi o'qituvchi tarafidan aniqlanadi va shunga qarab muloqot va o'zaro ta'sir jarayoni texnologik relslarga o'tkaziladi.

6. Tashxis maqsadni qo'yish (talab qilinadigan o'zlashtirish pog'onasini ko'rsatib).

7. Jarayon texnologiyasini nazorat qilish va qo'yilgan maqsadga erishish darajasini aniqlash.

8. 70 % dan kam bo'lmagan aniqlik bilan yakuniy natijaga erishish.

Asosiy talab bitta — ta'lim jarayoni doimo tugallangan bo'lishi kerak. Har qaysi texnologiya — bu axborot texnologiyasi.

Yangi axborot texnologiyalari ta'limga kompyuterni keng tadbiq etish bilan bog'langan. Axborot texnologiyalari o'ziga dasturlangan ta'lim, intellektual ta'lim, gipertekst ekspert tizimlari, immitation ta'limni qamrab oladi:

a) kompyuter ta'lim tizimlari turlari (o'rgatuvchi mashinalar, ta'lim va trenirovka, dasturlashga ta'lim, intellektual repetitorlik);

b) ta'lim turlari (logo);

d) asbob tizimlari (dasturlar, matn prosessorlari, ko'rgazma asboblari, muallif tizimlari, guruhlab o'qitish asboblari).

Yangi ta'lim axborot texnologiyalari quyidagi shartlarga javob berishi kerak:

a) pedagogik texnologiyaning asosiy prinsiplariga javob beradi;

b) didaktikada nazariy yoki amaliy yechimini topmagan masalalarni yechadi;

d) ta'lim oluvchiga axborot tayyorlash va uzatish vositasi kompyuterdir.

### ***„Texnologiya“ tushunchasining pedagogikada qo'llanishi***

Ta'lim-tarbiya jarayonlarining uyg'unligi maorifdir. Ta'limning tashxis markazini aniqlash mumkin. Bu keyingi faoliyatda kerak bo'ladigan o'quv materialni hajmini o'zlashtirish bo'lishi mumkin. Aniq o'quv materialining o'zlashtirish sifatini yakuniy nazorat qilish mumkin. Ta'limda texnologiyani tuzish va qo'llash mumkin.

Tarbiyaga kelganda, tashxis maqsadni aniqlash qiyin. Inson — ko'p faktorli tizilma. U psixologik, shaxs sifatlarga ega pedagogika hozirgi rivojlanish bosqichida bu sifatlarni kerakli darajada shakllantiradigan pedagogik jarayonni tuzish yoki tavsiflashga ham, jarayonlarning natijalarini joiz buzilishlarini oldini olishga ham qodir emas. Chunki bugun qo'limizda psixologik va ayniqsa shaxs sifatlarining shakllanishini aniqlaydigan tashxis usullari yo'q. Shuning uchun „Tarbiya texnologiyasi“ haqida gapirganda faqat qo'llanilayotgan metodika va subyektiv nazorat uslublariga tayanish mumkin. „Tarbiya texnologiyasi“ so'z birikmasini biz birorta „tarbiya metod“ va jarayonlari yig'indisiga qaratib qo'llay olamiz.

„Maorif texnologiyalari“ atamasini ishlatishni ham noo'rin deb sanaymiz, „texnologiya“ bugungi kunda tarbiya jarayoniga qaratib qo'llanila olmaydi, shuning uchun „maorif texnologiyalari“ atamasining ishlatilishi mumkin emas. „Ta'lim texnologiyasi“ bor. Ta'lim qanday bo'lishi kerak?

Pedagogik ta'limga kibernetik yondoshish boshlandi; o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini mayda qism qadamlarga bo'lish, teskari aloqa, bu aloqaning ko'rsatkichlarini ta'lim strategiyasini o'zgartirish uchun foydalanish, ta'limni har bir o'quvchi o'zlashtirish tezligiga moslashtirish.

Ta'lim jarayonida kibernetika g'oya va prinsiplarini tadbiiq etishga yo'l beradigan ta'lim tashkil qilish shakli dasturlangan ta'lim nomi oldi. Bu yangi shaklni kiritish uchun faqat yangi texnologiya emas, balki har bir o'quvchi bilan davomli ikki tomonlama axborot almashinuvini ta'minlaydigan yangi ta'lim vositalari kerak.

Texnik avtomatizatsiya vositalari va dasturlangan qo'llanmalar tufayli o'qitish sharoitida teskari aloqa va ta'limni individuallashtirish prinsiplarini, faollik prinsipini tatbiiq etish. Mustaqil ish yangi shakllarini topish uchun imkoniyat yaratiladi. Bu o'qituvchi ishtirokisiz o'quvchilarni bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirishga qarab ta'lim jarayonini o'zgartirishga yo'l beradi.

Yangi pedagogik texnologiya tufayli ta'lim nazariyasi va amaliyotida paydo bo'lgan yangilik aynan shudir.

Bu masalaning yechimi o'quv jarayonining o'ziga xos qonuniyatlarini o'rganadigan psixologiya, pedagogika fanlari va kibernetika tutashuvida joylashgan.

Yangi texnologiya atamalarida bilimlarni chuqurlashtirish didaktik vosita sifatida imkon boricha kam vaqtni sarflab, berilgan mashq turidan ko'p axborot chiqarish uslublariga o'rgatish ko'rsatiladi. Pedagogikada bu dasturlangan ta'lim g'oyasi paydo bo'lganda va beriladigan material tizimlashtirish masalasi ko'tarilganda ishlatila boshladi.

Dasturlangan ta'lim jarayonida o'quv materiali tayyorlashga, bayon qilishga va so'rashga qo'yilayotgan talablar zarurdir, chunki o'quv jarayoni boshqariladigan jarayon bo'lishi kerak va o'qituvchi tomonidan texnik vositalarga, dasturlangan darsliklarga o'qituv mashinasi va boshqa zamonaviy elektron akustik va proyeksiyon apparatlarga kiritilgan dasturlar orqali olib borilishi kerak.

O'quv jarayonida o'qituv vositalari bilan birga-bir qoladigan o'quvchi faoliyatining barcha ijobiy va salbiy taraflarini ko'zda tutish uchun o'quv materiali qanchalik aniq tizimlangan bo'lishi kerakligini tasavvur qilish mumkin.

Ta'lim tizimi rivojlanishida o'quvchilar soni ko'payishi obyektiv qonun bo'lgani uchun uning natijasi ham qonuniydir.

Individual ta'limning sodda o'quv holatida boshqarishning asosiy talablarini bajarishga imkoniyat bor, chunonchi:

1. Boshqaruv maqsadi va tizim ishining ko'rsatkichlarini aniqlash va boshqariladigan tizimga ta'sir vositalariga ega bo'lish.

2. Boshqaruvni bosqichma-bosqich tuzilishi.

3. Boshqaruvning perspektivasi, ya'ni nafaqat hozirgi paytda olinadigan yutuq va ayrilishlarni hisobga olish, balki tizimni mukammallashtirishga kelajakda ko'rsatadigan ta'sirni ko'zda tutish.

4. Boshqaruv tizimining moslashish qobiliyati, uning yig'ilgan tajriba o'zgarayotgan sharoit va boshqaruv maqsadlariga moslashib, tizim tuzilishini o'zgartirish imkoniyati.

Ta'limning asosiy muammosi ta'lim va tarbiya jarayonini boshqariladigan jarayonga almashtirish. Ta'limdagi bu progressiv yo'nalish faqat bilim, ko'nikmalar olishga qaratilib qolmay, balki individual uslubni shakllantirishga yo'naltirilganda muvofiq bo'ladi.

Faoliyat muvaffaqiyatiga zarur bo'lgan individual uslubni o'quvchining harakat usullari faoliyatining obyektiv talablariga javob bergandagina shakllantirish mumkin. Ta'limda individual uslubini yaratish sharti — faollik va ijobiy sabablar. Asosiy sabablardan biri — o'qishga qiziqish. Mustaqil va tashabbus ko'rsatish imkoniyati qiziqishning asosiy shartlari. Lekin qiziqishdan tashqari ham bir qator sabablar bor — burchini sezish, mas'uliyat, g'urur.

Salbiy baho kuchsiz asab tizimiga ega o'quvchining diqqatini pasaytiradi, kuchli asab egalarini ko'paytiradi. Qiziqish, pedagogik baho, musobaqa. Turli asabli o'quvchilarga turlicha ta'sir qiladi.

Individual uslubni shakllantirishda faqat o'quv topshiriqlar va ishni tashkil qilishni individuallashtirish bilan chegaralanmagan faoliyat sabablarini ham individuallashtirish kerak. Bu prinsip juda muhimdir. U past o'zlashtiruvchi o'quvchiga o'z kuchiga ishonch saqlab qolishga, kuchli o'quvchiga esa aqliy erinchoqlikka yo'l qo'ymaslikka yordam beradi.

Individual ta'limda har bir o'quvchi unga qiyinchilik tug'diradigan tomonlarga ko'proq vaqt ajratishga majbur. Auditoriyada guruh tashkil qilib o'qitish sharoitida o'zlashtirishdagi individual xato va hodisalarni hisobga olish imkoniyati katta ahamiyatga ega, chunki u past o'zlashtiruvchi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini ko'taradigan choralar ko'rishga imkoniyat beradi.

Tez o'zlashtiruvchi o'quvchilarga bilimlarni mustahkamlash uchun qo'shimcha material berishga yo'l ochadi.



## Mehnatni tashkil qilish texnologiyasi

Bu barcha tashkiliy ishlarga ilmiy prinsiplarni qo'llash. Agar mehnatni tashkil qilish texnologiyasini fan va ilg'or tajriba asosida mehnat jarayonini uzluksiz takomillashtirish deb tushunsak, ta'lim samaradorligini ko'tarishda quyidagi yo'nalishlarni ko'rsatish mumkin.

a) o'quv ishini tashkil qilishni samarali shakllarini qo'llash (darsga tayyorlanish bosqichi ham kiradi);

b) o'qitilayotgan (nazariy va amaliy) materialning rivojlantiruvchi ta'sirini kuchaytirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash va amaliy faoliyatni kuchaytirish maqsadida ta'lim metodlarini o'zgartirish;

d) yangi, zamonaviy ta'lim texnologik vositalarini kiritish, shu borada sinf-dars tizimi sharoitida har bir o'quvchining individual ishini boshqarish texnik vositalarini tadbqiq etish;

O'quvchilarning ish malakasini oshirish, o'z fani bo'yicha bilimni doimiy chuqurlashtirish, ta'lim va tarbiyaning umum-psixologo-pedagogik qonuniyatlarini o'rganish va qo'llash, katta jamoa bilan suhbat o'tkazish san'atini egallash lozim va hokazo.

O'rgatuvchi mashinalarning vazifalarini qo'llanish o'z doiralari bor. Ular dasturlangan ta'lim sharoitida o'quvchilarning mustaqil ishlarini boshqarish ishonchligini oshiradi, ular o'z vaqtida o'quvchilarga o'quv materialini o'zlashtirish haqida axborot yetkazadi.

O'qituv mashinalari bir qancha holatlarda (bilim nazorati trenajori) o'qituvchi va dasturlangan darsliklarning imkoniyatidan ko'proq didaktik kuchga ega bo'ladi.

Ular dasturlangan ta'limning qo'llanish doirasini kengaytiradilar. Mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirish mashina vositasida o'qitilganda ham mustaqil izlanishlarni talab qiladi. Bu haqda fikrlashning qandaydir umumiy usullari va aqliy faoliyatning umumiy algoritmlari to'g'risida gapirish mumkin. Lekin bu o'quvchilarning faol izlanishlarini, evrestik usullarini istisno qilmaydi.

Dasturlangan mashina vositasida o'qitish paytida mantiqiy va obrazlikni birinchi prinsipini qo'llash bir oz qiyinchilik tug'diradi, sababi dasturning kadrlari asosan yozma matndan iborat bo'lib, ularga ko'rgazmali materiallar kiritishning imkoni yo'q.

Mantiqiy va obrazlikni birlashtirish shakllari (amaliy va laboratoriya ishlari, musiqa, rasm, teatr va hokazo) dasturlangan ta'limda

ham o'z o'miga ega bo'lishi kerak, aks holda u mustahkam bilim va didaktikaning prinsipi — nazariyot va amaliyotning aloqasini ta'minlay olmaydi.

O'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatish uchun unga muam-moli holatlar tug'dirish kerak. Chunonchi, mustaqil yechishga mo'ljallangan mashinaga kiritilgan savol va topshiriqlar xuddi shun-day bo'lishi kerak. Jamoa bilan ishlash — bu hamma uchun bir vaqtda materialning bir qismini o'rganish imkonini beradigan o'qish jarayonini tashkil etish shartlaridan biri.

### **Ta'lim mazmuni qanday bo'lishi zarur?**

Ko'p mamlakatlarda bolalarning majburiy ta'limi mavjud bo'lsa-da, biroq bu sohada ko'plab muammolar hanuz hal etil-may kelinayotir. Jumladan:

— Bolalar ta'limi qaysi yoshdan boshlanishi kerak?

— O'quv sinflari qanday tuzilishi kerak?

— Ta'lim mazmuni qanday bo'lishi zarur? U nimaga yo'naltiriladi? (Bola xotirasida bilimlarning to'planishiga, ular to-monidan dastlabki bilim va ko'nikmalarning egallanishi, tafakkuri va hislarini rivojlantirish va boshqalarga qaratiladi.)

— Oila va maktab tarbiyasini qanday uyg'unlashtirish kerak?

— Oilaviy tarbiya ustun bo'lishi kerakmi yoki maktab tarbi-yasimi?

— Ta'lim jarayonida bolalarni tarbiyalash tizimi qanday bo'lishi lozim?

Ushbu tamoyillar bir qator psixolog-pedagoglarning ilmiy g'oyalar va ishlanmalari asosida amalga oshirib kelindi. Ularning tadqiqotlari ikki yo'nalishda bo'lgan:

1. O'quchilarning tabiiy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda o'zlashtirish darajasi bo'yicha tanlash.

Bu yo'nalish asosida deyarli har bir maktabda alohida „teng-lashtirish“, „korreksiyalash“ sinflari tashkil etilgan. Ma'lumki, bunday sinflarga, birinchi navbatda, u yoki bu xususiyati bilan o'qituvchiga yoqmagan bolalar kelib tushgan, ular esa yanada ortda qolgan.

2. Yanada jiddiy yo'nalish. Bu — Zankov, Elkonin, Davidov-lar usuli bo'yicha rivojlangan ta'lim sinf va maktablarini tuzish, ularning rahbarligi ostida sobiq tuzum, jumladan, O'zbekistonda keng miqyosdagi eksperimental tadqiqotlar olib borilgan edi. Ko'pgina

psixologlar va pedagoglar o'z tadqiqotlarida isbot qildilarki, qachon bola kattalar hamkorligida biron narsani uddalasa, har qanday ruhiy funksiyani, shu jumladan, bola idrokini rivojlantirish eng dastlabki rivojlanish doirasi orqali o'tadi. U bu harakatni o'zi mustaqil ravishda bajara oladigan bo'lgandan keyin muhim rivojlanish pog'onasiga o'tadi.

L. S. Vigotskiyning ta'kidlashicha, bola maktabda o'zi mustaqil ish bajara olishi uchun emas, balki o'qituvchi hamkorligida, uning rahbarligida ish bajarish uchun o'qishi zarur. Bunda ta'limning yetakchi shakli keng ma'noda ergashish hisoblanadi.

L. V. Zankov o'z tadqiqotlari natijasida shunday xulosaga keldiki, bolani rivojlantirish qonunlari ko'pincha maktabda ta'lim-tarbiyaning qanday qurilganiga bog'liq bo'lib, o'quvchilarga talay murakkab va keng materiallar berish mumkin va boshlang'ich ta'limning butun dasturini 4 yil o'miga 3 o'quv yilida o'zlashtirish mumkin ekan.

O'qitish va rivojlantirish muammosini tadqiq etish N. A. Minchinskaya rahbarligida boshqacha tarzda olib borildi. Bunda o'qituvchilarning aqliy kamolotiga asosiy e'tibor qaratilib, ta'lim uslubini takomillashtirish asosiy vosita sifatida foydalanildi.

D. B. Elkonin rahbarligidagi psixologlar guruhi aqliy kamolotga ta'lim vositasi sifatida qaradi. U o'tkazgan tajriba-tadqiqotlar maqsadidan biri murakkab nazariy materialni o'zlashtirishda bolalarning imkoniyatlarini hisobga olish edi.

V. V. Davidov fikricha, ta'lim o'quvchilarda mushohadaning ilmiy-nazariy usulini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak, shuningdek, buning uchun ta'lim asosiga umumlashtirish prinsipi qo'yiladi, deb hisoblaydi. U yana ta'limning butun tizimini bolalarda mulohazali empirik mushohadani shakllantirish bilan birga, ularda zamonaviy ilmiy-ijodiy mushohadani rivojlantirishga moslashtirishni tavsiya etdi.

A. Y. Galperin rahbarligidagi psixologlar guruhi integratsiya (tashqaridan ichkariga o'tish) jarayonini o'rganishdi va aqliy hamda amaliy harakatlarni bosqichli shakllantirish nazariyasini ishlab chiqishdi. Psixolog-pedagoglarning shu guruhi tadqiqotlarini bolani rivojlantirishning psixologik qonuniyatlarini aniqlash ko'pincha bolalarda o'rganilayotgan sifatlar: bilim, ko'nikma, malaka, sa'y-harakatlarni shakllantirish jarayonida olib borish maqsadga muvofiq, degan fikr bilan bog'liq holda olib bordilar.

Biroq o'zbekistonlik olimlarning ta'kidlashlaricha, yuqoridagi tadqiqotlar asosidagi tajribalar ta'lim mazmunida o'quvchilarning

fikrlash faoliyatini oshirgan bo'lsa-da, bolani estetik-axloqiy, badiiy-estetik jihatdan o'stirish, chetda qolgan o'quvchilarning jismoniy-fiziologik rivojlanishi e'tiborga olinmagan. O'quv materiallari emotsional bo'yog'ining xiralashuvi, nazariy materiallarning ko'payishi bola uchun zerikarli bo'ldi.

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti qoshidagi laboratoriya asosiy e'tiborni ta'limning nazariy- metodik asoslari mohiyatini, sinflarda o'quv predmetlarini yengillashtirish maqsadida o'quv-tarbiya jarayonini integratsiyalash, o'quvchi tarbiyasida O'zbekiston xalqlari tarixiy qadriyatlariga, xalq an'analariga va urf-odatlariga katta e'tibor qilgan holda ta'limning umummadaniy yo'nalishini kuchaytirishga qaratdi.

„Ta'lim to'g'risida“gi Qonunga va „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“ga asoslangan ta'limning o'quv-tarbiya jarayoni mazmunini oldindan anglagan holda, avvalo, psixologik-pedagogik asosga qurilgan ta'limning zamonaviy insoniy-ahloqiy va tabiatan yaratilgan namunaviy texnologiyasi ishlab chiqildi.

Ta'lim texnologiyasini tahlil qilish natijasida ushbu texnologiya asosida turgan quyidagi psixologik-pedagogik qoidalarni vujudga keltirish imkoni bo'ldi:

1. Ta'lim jarayoni (o'qitish va tarbiya) „holani o'qishga o'rgatish“ prinsipi asosiga qurilishi kerak.

2. Ta'lim jarayonida (o'qitish va tarbiyalash) har bir bolaning shaxsiy xususiyatlari namoyon bo'lib, tabiiy erkin faol ishtirok etadigan bo'lsin.

3. Ta'lim jarayoni shunday quriladiki, bu o'qitishdan va boshqa faoliyatlardan anglashilgan maqsad bolalarning tabiiy va o'sib borayotgan ehtiyojlariga muvofiq bo'lgan muhim va ularga tushunarli bo'lishini ta'minlashdir. Shu bilan birga, ta'lim jarayoni o'quvchilar faoliyatining ichki imkoniyatlari ustuvorligiga qurildi. Bahodan esa qulayliklarning tashqi sabablaridan yordamchi vosita sifatida foydalaniladi, xolos.

4. Bolalar tomonidan o'rganilayotgan fanning asosiy bilim-malakalarni egallash ular uchun qiziqarli va tushunarli jarayonda amalga oshiriladi. Zero, bu malakani egallash, asosan, tasavvur orqali amalga oshib, ular bir bolada kuchli xotirlash paydo qiladi. Bolaning asosiy o'quv malakasini tez va soz egallashi uning umumiy psixologik va aqliy rivojlanishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida, sust tayyorlangan va yetarli rivojlanmagan bolalarda nuqsonlarning bartaraf bo'lishiga olib keladi, tabiatan qobiliyatli bo'lgan

bolalarni esa rivojlantirib, yanada yuqori qobiliyatlarini yuzaga chiqaradi.

5. Malaka va ko'nikmalarni egallash, ularni takomillashtirish bolalar ijodiyoti jarayonida badiiy o'qish, xalq iqtisodiyotini, badiiy mehnatni o'rganish orqali amalga oshadi.

6. Boshqa ta'lim tizimlariga qaraganda mutlaqo o'zgacha ta'lim — psixo-fiziologik model ishlatiladi. Bu analitik-sintetik jarayonlarni avtomatlashtirish emas, albatta.

7. O'quv sinflari turli xillik prinsipi: bolalarni maktab ta'limiga oldindan tayyorgarligi darajasi bo'yicha hamda umumiy psixik va aqliy taraqqiyoti bo'yicha jalb qilinadi.

8. Bola materialni faqatgina eshitish yoki his qilish a'zolari orqali o'zlashtirmaydi, balki o'zida bilishga nisbatan paydo bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun o'zlashtiradi.

9. Ta'limning muvaffaqiyatli bo'lish sharti: o'quv materialini muammolashtirish (bilim-bolalar, hayratlanish va qiziquvchanlik): bolaning faolligi (bilimlar qiziqish bilan o'zlashtirilishi lozim); ta'limning bola hayoti bilan, o'yin, mehnat bilan aloqasi.

10. Muammoli vaziyat paydo bo'lganda o'qituvchidan o'quv materialini muammolashtirish, differensial va individual yondashish talab etiladi.

**Dars jarayonida didaktik, tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish va bolani rivojlantirish.**

**1. Butun dars davomida har bir o'quvchining ongli aqliy faoliyatiga erishish:** bu — o'quvchilar butun mashg'ulot davomida ishlaydi deganidir. O'quvchi uy vazifasini tekshirishga kirishadi, yangi materiallarning bayonini tinglaydi, ularni mustahkamlashda faol qatnashadi, mustaqil ishlarni bajaradi. Bunda o'quvchilarni bilish faoliyatiga mexanik tarzda jalb etiladi, deb o'ylash noto'g'ri. Bu yerda gap tabiiy mexanizmlarning o'quvchini faol bo'lishga go'yo majbur qilayotganday ta'sir etishi haqida ketyapti. Zero, o'quv mashg'ulotida o'sha mezonni amalga oshirish uchun rivojlanib boruvchi usulni qo'llash zarur va bunda har bir o'quvchi faoliyatini darsning barcha bosqichida rejali nazorat qilish lozim bo'ladi.

**2. O'quvchining o'z faoliyatiga va o'z g'alar faoliyatiga hissiy aloqadorligini ta'minlash.** Bunda biz aqliy jarayonning rivojlanishi kechinmalarsiz (his qilish) amalga oshmasligidan kelib chiqamiz. Ayni kechinmalar o'zgarishlarni va intellektdan keyingi rivojlantirishni kuchaytiradi. Amalda bolalarning hissiyotlari ularning ishlarini harakatlantiruvchi kuchga ega bo'lishi ma'lum. Agar darsda

o'quvchi o'z muvaffaqiyati yoki omadsizligi haqida tashvishlansa, bu holat motivlashtirish va fe'l-atvorlarini boshqarish markazini qo'zg'atishga yordam beradi (L.S.Vigotskiy). Agarda o'qituvchi o'quvchining o'z faoliyatiga hissiy aloqadorligini ta'minlansa, shart-sharoit yaratsa, unda hissiy aloqadorlik bola intellektual rivojlanishining ichki harakatlantiruvchi kuchi bo'lib qoladi.

**3. Darsda o'quvchi bilish faoliyatini motivlashtirish.** Rivojlanayotgan usul tuzilishiga „o'zaro ijtimoiy ta'sir“ degan tarkibiy qism kiradi. Ya'ni har bir o'quvchiga o'z bilimini namoyish qilish, amaliy faoliyatga qodir bo'lish va buning uchun bilim olish imkoniyatini berishdir. Boshqalar bilan o'zaro ijtimoiy ta'sirni amalga oshirish darsda juft va guruh bo'lib ishlashdir, eng murakkabi — o'qituvchi hikoyasidir.

Yangi materialni tushuntirayotgan o'qituvchining nutqi fikrni jamlashni, diqqat qilishni talab etadi, negaki darsda faol aqliy jarayonlar ichki tuyg'u orqali o'tishi lozim. O'quvchi uchun bu ancha qiyin masala. Shuning uchun darsda o'qituvchi turlicha o'zaro ta'sir shakllarini o'quvchilar bilan yoki o'quvchilarning bir-biri bilan munosabatlarini uyg'unlashtirishi zarur.

**4. Butun dars davomida o'quvchilarning refleksiya va o'z-o'zini nazorat qilishini ta'minlash.**

Darsning har bir bosqichida o'quvchi o'z faoliyati natijalarini jamlab, baholaydi. Masalan, yangi materialni o'rganishda har bir o'quvchi o'z diqqatini, xotirlab qolishini, xotirlashning mukammalligini, tushunishini o'zicha baholaydi. Darsni mustahkamlash va mustaqil ishlash paytida o'quvchilar o'zlarini o'qituvchi qo'ygan mezonlar bo'yicha baholaydilar. Agar o'quvchi bilimi talab darajasidan past bo'lsa, dars davomida unga boshqa bolalarning yordami yoki uning o'zi mustaqil ishlagan holda natijalarni yaxshilash imkoniyatini beradi.

O'quvchilarning faoliyati jarayonida refleksiya va o'z-o'zini nazoratni ta'minlash ulardagi yomon bahodan qo'rqish hissini pasaytiradi. Sinflarda, ayniqsa, 1—2- sinflarda „ikki“, „uch“ baholar qo'yilmaydi.

**5. Darsda mustaqil ish yoki ijodiy topshiriqning bo'lishi.** Vaziyatlarning o'zgarishida ijodiy topshiriqlar berish metodini qo'llash talab qilinadi. Mustaqil ish har qanday dars turining majburiy elementi hisoblanadi. Zero, bizning „o'zaro ta'sirning ijtimoiy texnologiyasi“, „dars mobaynidagi faoliyat jarayonida o'quvchilarning refleksiya va o'z-o'zini nazorat“, „darsda o'quvchilarning

bilish faoliyatini motivlashtirish“ tavsiyalarimiz ish natijalarini baholash uchun muhimdir. O‘quvchilar ishni bajarib, tabiiy holda darhol uning natijalarini muhokama qilishda qanday xatolar qilgani va ularning sababi haqida o‘ylaydilar. Shuningdek, natijalarga hissiy munosabat hech kimni loqayd qoldirmaydi.

Kechiktirilgan umiddar natijalarning ta’sir darajasini pasaytiradi, ya’ni o‘quvchilarning bilim yoki o‘zlashtirish darajasini aniqlash uchun hissiy sohada o‘zaro ta’sir shunchalar kuchsiz bo‘lib, aqliy jarayonga o‘qituvchi istagandek ta’sir qilmay qo‘yadi.

**6. Dars maqsadiga erishish.** Tajribadan ma’lumki, rivojlantirish usul asosiga qurilgan darslar bolaning ijobiy fe’l-atvorini qaror toptiradi, insoniy munosabatlar madaniyatini shakllantiradi.

**Darsning asosiy maqsadi** — bola intellektini, tafakkurini teranlashtirishni rivojlanib boruvchi usul yordamida amalga oshirishdir.


**Didaktik maqsad** — bu darsda o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha bilimlarni o‘lashtirish va malakali ta’sir usullarini shakllantirishdir.

**Tarbiyaviy maqsad** — o‘zaro ta’sir jarayonida tafakkurni umumlashtirish hisobiga amalga oshiriladi.

Didaktik maqsadlarga erishish olingan bahoga muvofiq keladigan bilimni o‘zlashtirish darajasi bilan xarakterlanadi. Tarbiyaviy maqsad muayyan maqsadlarga erishishga qaratilgan hamkorlikdagi faoliyat jarayonida egallangan xulq-atvor me’yoridir. Rivojlanib boruvchi usul asosiga qurilgan darslar bolaning ijobiy xulq-atvorini mustahkamlaydi, insoniy munosabatlar madaniyatini shakllantiradi. Darsning ushbu texnologiyasini tashkil etish o‘qituvchining darsda o‘quvchining bilish faoliyatini boshqarish sifatlariga bog‘liqdir. Taklif etilayotgan texnologiya uning mumtoz xilidan shu bilan farqlanadiki, bunda bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni o‘zicha idrok qilish, anglash, yodda saqlash, umumlashtirish va sistemalashtirish jihatlarini qamrab oladi. Ta’lim texnologiyasi — o‘quv mashg‘ulotlarida ko‘rsatilgan barcha bilish jarayonlarini amalga oshirib, pirovard natijada barcha faoliyat turlarini to‘liq o‘zlashtirishga yordam beradi.


Bunday darslarda dars qismlarining ichki aloqasi: maqsad, mazmun va ish usuli bilan amalga oshiriladigan ta’lim, mumtoz tizimning bosqichlari saqlanib qoladi. Ya’ni, uy vazifalarini tekshirish, uning asosida yangi bilimlar, malaka va aqliy faoliyat turlarini egalash bosqichlari, shuningdek, mustahkamlash va mustaqil ishlash, darsni umumlashtirish va uy vazifasini tushuntirish singarilar yotadi.

## Pedagogik texnologiyalar Qo'llash darajasi bo'yicha







### Tuzilishi va tarkibi bo'yicha




### Tashkiliy shakllar bo'yicha:




### O'rganish faoliyatini boshqarish turi bo'yicha:




## Bolalar nazari bo'yicha



## Tashkiliy shakllar bo'yicha:



## An'anaviy tizimni zamonaviylashtirish yo'nalishlari bo'yicha:




## An'anaviy tizimni zamonaviylashtirish yo'nalishlari bo'yicha:



## Pedagogik texnologiyalar Qo'llash darajasi bo'yicha




### Muammoni pog'onasi bo'yicha:



### Axborotning moslanmagan turi bo'yicha:



### Metodik xossalari bo'yicha:



## **O'quvchilarni pedagogik jihatdan baholash texnologiyasi**

Bilimlarni o'zlashtirish darajasini baholay turib, biz boshlang'ich sinflarda „ikki“, „bir“ baholarni, ayniqsa, 1—2- sinflarda jurnalga ham, daftarga ham qo'ymaslikni ta'kidlagan edik. O'qituvchi o'z faoliyati davomida, ya'ni ayrim hollarda baho ballarini so'z shakli bilan „a'lo“, „yaxshi“ deb ifodalaydi. Pedagogik baholash, umuman, bolaning shaxsini emas, balki ko'rsatgan sifatlarini baholashni nazarda tutadi.

Pedagogik baholashga bunday yondashishga asoslangan va undan o'z ishida oqilona foydalangan holda pedagog o'z o'quvchilarining qiymatli munosabatlarini shakllantiradi va to'g'rilaydi. Pedagogik baholash vositasida o'qituvchi o'z tarbiyalanuvchilarida axloqiy va ma'naviy-etik qarashlarni tarkib toptiradi.

Pedagogik baho: obrazlarni qiymatli munosabatlar darajasida muhitga olib chiqish; bu munosabatlarni o'zlashtirishda bola faoliyatini rag'batlantirish; xato qilish ehtimoli sezilsa, uni oldindan to'g'rilashdan iborat. Har bir shaxs takrorlanmasdir va har bir shaxsga uning o'sishi uchun pedagogik baholashning ahamiyatini hisobga olgan holda ehtiyotkorona munosabat darkordir. Shu munosabat bilan o'qituvchi darsda va tarbiyaviy tadbirlarda foydalanishi mumkin bo'lgan bir nechta texnologik qoidalarni havola qilamiz:

1. O'quvchilarning ijtimoiy qimmatli yutuqlarini taqdirlash. Ushbu usulni qo'llaganda, o'qituvchi bolaga yorqin his-tuyg'ularni boshdan kechirishga yordam beradi, bu o'qituvchining faolligini o'stirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bolaning o'qituvchi bilan o'zaro munosabatlarini chuqurlashtirishga yordam beradi, bu o'quvchiga ta'sir etishda qo'shimcha imkoniyatlarni ochadi. Har bir bolaning shaxsiy va umuminsoniy yutuqlari ro'yobga chiqishi zarur.

2. Xulq-atvor belgilari ko'rinmaganda baholash muddatini cho'zish. Baholash muddatini cho'zish o'quvchining o'quv-tarbiyaviy jaryoniga yoki boshqa ishlarga salbiy ta'sir ko'rsatgan, uning qalbida uzoq vaqt qolishi mumkin bo'lgan umidsizlikning oldini olishga yordam beradi. Bu muddat pedagog tomonidan belgilanadi va vujudga kelgan muammoga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, birinchi sinf o'quvchisi harf va bo'g'inlarni xunuk va tartibsiz yozadi. O'qituvchi bahoni qo'ymay turib, o'quvchiga shunday deydi: „Yaxshi baho olish uchun vazifani namunaga qarab to'g'ri, toza, tartib bilan bajarish kerak“. Masalani hal etish uchun ketadigan vaqt, albatta, o'quvchiga ma'lum qilinadi, chunki u, birinchidan, psixologik

tomondan ruhiy zo'riqish holatida bo'lishga o'rganmagan bo'ladi, ikkinchidan esa bunday masalani yechishni paysalga solish bajarayotgan ishni mustaqil anglab yetish samaradorligini pasaytiradi.

## **O'quv-tarbiya jarayonida rivojlantirish usulining texnologiyasi**

Ma'lumki, bolalar maktabga borgunga qadar ham jismoniy, ham ruhiy tomondan intensiv rivojlanib boradi. Biroq, odatda, bu jarayon maktabga chiqish bilan susayadi. Bolada o'qishga ishtiyoq tezda pasayadi. Rivojlanishdagi bunday holatning sabablari-dan biri o'quvchilarning turli darajadagi rivojlanishini hisobga olmaydigan usullarning qo'llanishidir. Sinflar qanday to'ldirilmasin, u yoki bu fanni idrok qilish va o'zlashtirishga nisbatan bolalar rivojlanishini hamisha uchta darajaga: yuqori, o'rta va quyi darajaga ajratish mumkin. Bu tabiiy hol hisoblanib, bu erda biz aqliy rivojlanish tushunchasini intellekt rivojlanish bilan bog'laymiz. Bu holda miyaning yetilishi, binobarin, yanada kattaroq talablarni idrok qilishda va adaptatsiya qilish tezligiga bog'liq bo'ladi. Barcha adaptatsiya tizimi ayni shu vazifaga xizmat qiladi.

Demak, muayyan sharoitlarda miya rivojiga ta'sir etish mumkin ekan. Quyidagi rivojlantirish usuli tizimi asosida yotgan ba'zi dastlabki nazariy qoidalarni ko'rib chiqaylik:

1. Rivojlantirish usuli asosida umumiy va sotsial psixologiya-ning tashqi va ichki prinsipi yotadi, unga ko'ra, ichki rivojlanish tashqi muhit bilan bog'liq bo'ladi. Bu tashqi muhit, masalan, maktabning ta'lim muhiti bo'lishi mumkin.

Bola intellektual rivojlanishi madaniy yoki ta'limiy muhit ta'sirida tezlashishi yoki sustlashishi mumkin. Ta'lim muhitining ta'siri faoliyat uchun qo'llanilayotgan usulga ko'p jihatdan bog'liqdir. Bu usul mushohada jarayonining ichki rivojlanish mexanizmlarini avtomatik tarzda ishlatib, bola intellekti rivojiga yordam berishi mumkin.

2. Rivojlantiruvchi usulning maqsadi bolaning kamolotiga uyg'unlik baxsh etish, go'zallikka bo'lgan tabiiy intilishini qo'llab-quvvatlash, unda ijobiy his-tuyg'ular uyg'otishdir? Agar faoliyat natijalari kutilgan maqsadga muvofiq kelsa, ular bilan moslashsa, bolaning kutilgan natijada bilish ehtiyojlari qondirilsa, shundagina ijobiy-hissiy tuyg'ular vujudga keladi.

3. Bola, odatda, kamolotga va go'zallikka intiladi. Bu intilish tabiiy ehtiyoj hisoblanib, bunday ehtiyojni qondirish u yoki bu faoliyatni talab etadi. Bu ko'p narsalarda ko'rinadi: o'yin davomida, ovqatla-

nishda, intellektda, ishda va hokazo. Odatda, o'qituvchi bola bilan yaxshi ishlashni, o'quvchi esa yaxshi o'qishni istaydi. Biroq har doim ham o'ylagandek bo'lavermaydi, agar bolaga yordam berib, qo'llab-quvvatlansa, biz eng yaxshi natijaga erishishimiz mumkin.

Demak, o'quvchilar oldida masalani yechishning bir necha varianti tursa, ular ko'rsatilgan yordam va o'zining tabiiy intilish kuchidan foydalanadi, deyish mumkin.

### **1. Inson muvozanati holatining qonuni, ya'ni kishining o'z fikrlari, his-tuyg'ulari va axloqini muvofiqlashtirishga tabiiy intilishi.**

Bu qoidani biz L.Festingning sog'nitiv (bilish) dissonansi nazariyasi bilan tasdiqlashimiz mumkin. Uning mohiyati shundaki, insondagi ijobiy his-tuyg'ular uning kutganlari tasdiqlangan taqdirda vujudga keladi, kognitiv (bilish) tasavvurlari, ya'ni qachonki faoliyatning aniq natijalari belgilangan natijaga muvofiq kelsagina, mos tushgandagina amalga oshadi. Salbiy his-tuyg'ular faoliyatning kutilgan va haqiqiy natijalari orasida tafovut yoki dissonans yuz bersa, salbiy his-tuyg'ular yuzaga keladi va kuchayadi.

Kognitiv dissonans holati, odatda, subyektiv tarzda inson tomonidan diskomfort (noqulay) kabi o'tkaziladi va u iloji boricha tez o'tib ketishi mumkin; kognitiv natijalar va rejalarni ularni aniq olingan natijalarga muvofiq keladigan qilib o'zgartirish kerak yoki avvalgi kutilgan natijaga muvofiq keladigan yangi natijani olishga harakat qilish lozim. Birinchi holatda rivojlanish ro'y beradi, ikkinchi holatda esa rivojlanish bo'lmaydi. Shuning uchun rivojlantirish usulining tuzilishida o'quvchini muvozanat holatidan „chiqarishga“ yordam beradigan komponent bo'lishi zarur.

### **2. Insonning fikr-maqsadi — uning ongli ishlari va axloqining harakatlantiruvchi kuchidir.** „Fikrlar dunyoni boshqaradi“, — degan edi Platon. Rivojlantirish usulining mohiyati bolaning o'z xulq-atvoriga nisbatan uning fikr-maqsadi ijobiy rivojini ta'minlashdan iboratdir.

Birinchi bosqich fikr-maqсадning dastlabki, birlamchi shakllanishidir. U uchta palladan iborat bo'ladi:

1. O'qituvchining nutqi ta'siri ostida o'quvchi his-hayajonlarining paydo bo'lishi (tashqi qo'zg'atgich istalgan belgi tizimidan kelishi mumkin).

2. His-hayajonlar ichki nutqning noaniq mazmunga ega bo'lgan birlamchi fikrlar: bilish yoki xulq-atvor predmeti to'g'risida umumiy tasavvurlargina paydo bo'lishiga yordam beradi.

3. Tashqi nutqda, ya'ni boshqalar uchun bo'lgan nutqda so'zlar yordamida yoki biron-bir belgi sistemasi: mimika, qo'l harakati,

musiqa, raqs yordamida birlamchi nutq mustahkamlanadi. Dars uchun bu o'quvchining tashqi nutqidir. Bu paytda ichki fikr tashqi nutq ta'sirida takomillashadi. Tabiiyki, ushbu tashqi nutq o'qituvchining nutqiga nisbatan tuzilishi jihatidan ham, mazmun jihatidan ham mukammal bo'lmaydi. Mavjud qiyinchilik shundaki, o'quv yoki tarbiyaviy mashg'ulotda har bir o'quvchida fikrni ichidan tashqariga chiqarishga erishishdir. Bu qiyinchilikni oddiy maktabda tavsiya etilayotgan texnologiyadan foydalanib, bartaraf etish mumkin.

**Ikkinchi bosqich** — kognitiv dissonans vaziyatini paydo qilishdir. Buning uchun o'quvchilarning tuzilishi va mazmuni jihatidan har xil tashqi nutq musobaqasini tashkil etish lozim bo'ladi. Bu esa rivojlanishi nisbatan past darajada bo'lgan o'quvchilarning ichki nutqini qayta qurishga turtki bo'ladi. Boshqacha aytganda, vujudga kelgan diskomfort ta'siri ostida beixtiyor ichki nutq qayta qurilishi yanada yuqori darajaga ko'tariladi.

**Uchinchi bosqich** — fikrning yanada teranlashuviga va o'quvchining eng yaxshi muvaffaqiyatdan qoniqishiga erishish (muvozanat mushohadaning (fikrlashning) eng yuqori darajasida vujudga keladi).

Bu quyidagilar orqali amalga oshadi:

1. Ichki fikrni tashqi nutqqa ko'chirish (dialog shaklida suhbatlashish) yoki monolog shaklidagi yozma nutq.

2. Murakkab fikrni tashqi nutqdan ichki nutqqa o'tkazish. Rivojlantiruvchi usul texnologiyasi har bir o'quvchida o'quv-tarbiya jarayonining barcha shakllarida (darsmi yoki tarbiya soatida bo'lsin) aqliy jarayonlar kechishini ta'minlaydi. Shu ma'noda adaptiv maktab ma'quldir.

Rivojlantiruvchi usul tuzilishini ko'rib chiqamiz. Usul maqsadi bolani har bir mashg'ulotda aqliy jihatdan rivojlantirishdan iboratdir. Usulning barcha komponentlari mazkur maqsadni amalga oshirishga qaratiladi.

**Birinchi komponent** — ijtimoiy ta'sirni qo'llash, ya'ni jara-yonning ishtirokchilari (o'qituvchi va o'quvchilar) o'rtasida turli belgilar tizimi yordamida kommunikativ aloqalar o'rnatish bilan xarakterlanadi. Ijtimoiy ta'sir hamisha munosabatlarning dialog shaklida ro'y beradi. U aqliy faoliyatda yuqorida qayd etilgan o'zgarishlarga nisbatan tashqi qo'zg'atuvchi vazifasini o'taydi.

**Ikkinchi komponent** — ijtimoiy ta'sirga konflikt (ziddiyat) kiritish. Konflikt — bilish yoki xulq-atvor predmetiga turli qarashlarning to'qnashuvi bo'lib, diskomfort (noqulaylik) hissining paydo

bo'lishi, bilim, hodisalar, voqealar, xulq-atvorga nisbatan boshqa nuqtayi nazarga duch kelganda paydo bo'ladigan o'z-o'zidan qoniqmaslikdir. Konfliktning asosiy belgisi o'quvchi fikrlarining muvozanat holatidan chiqishidir. Konflikt vujudga keladigan qoniqmaslik tashvishlarini keltirib chiqaradi va bu holatda o'quvchida ichki ixtiyorsiz aqliy jarayon yuz beradi. Biroq amaliyotdan ma'lumki, o'quvchilarning 30 foizga yaqini dars jarayonida aqliy faoliyatga kirishmaydi. Shu sababli motivlashtirish vositasida buni qo'zg'atish lozim bo'ladi.


Uchinchi komponent ta'lim jarayonida o'quvchi faoliyatini motivlashtirishdir. Amalda motivlashtirishga turli usul va vositalar orqali erishiladi.

O'qituvchi o'z o'quvchisini faol hayotga va o'z shaxsini namoyon qilish jarayoniga kiritib, ularning har birini beixtiyor faol aqliy jarayonga tayyorlaydi va shu yo'l bilan o'quv mashg'uloti qo'ygan maqsadning amalga oshishiga erishadi.

To'rtinchi komponent — o'zaro ta'sir ishtirokchilarini joylashtirish bilan izohlanadi. Bu xususdagi tajriba tadqiqotlari quyidagi xulosalarni chiqarishga yordam beradi:

— agar ijtimoiy ta'sir guruhiga rivojlanish darajasi turlicha bo'lgan bolalar kirs va ayni choqda tafovut bir-biridan faqat bir bosqichga farq qilsa, bu holat rivojlanishi past darajadagi bolalarning o'sishiga yordam beradi. Bunda yuqori darajada o'zlashtiradigan bolalar iftixor hisobiga, past saviyada o'zlashtiradiganlar esa o'zini bilimga safarbar qilish orqali muvaffaqiyatga erishadilar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mashg'ulotlarda o'qituvchi yoki pedagogning o'quvchilar bilan aloqasini quyidagicha aks ettirish mumkin ekan:





Ushbu chizmadan ko'rinib turibdiki, o'quv mashg'ulotlarida yuqori darajada rivojlangan o'quvchilarning kamolotida oldinga siljish o'qituvchi yordamida amalga oshadi, so'ng esa jarayon qatnashchilari turli darajadagi ta'sirni tashkil etish orqali amalga oshirib, unda o'qituvchi rolini ilgari siljigan o'quvchilarning o'zlari bajarishadi.

— Mashg'ulot paytida o'quvchilarni joy-joyiga qo'yish ular faoliyatiga bog'liqdir. Mustaqil va juft bo'lib ishlash uchun bolalarni an'anaviy stol atrofida to'plash maqsadga muvofiqdir. Guruhlarda ishlash uchun aqliy shturm usuli bilan yoki o'zaro nazorat qilish muammosini hal etish paytida bolalarni bir-biriga qarama-qarshi qilib tashkil qilgan ma'qul. Va nihoyat, sifatli frontal ishlarni tashkil qilganda o'quvchilarni yarim aylana stol atrofida o'tqaziladi.

Olimlar va amaliyotchi-pedagoglar o'zaro ta'sir ishtirokchilari soniga nisbatan bir to'xtamga kelmaganlar. Bizning tavsiyamizga ko'ra, boshlang'ich maktabda o'quvchilar soni 2 tadan 4 tagacha bo'lishi mumkin. Biroq umumiy tavsiyalarni hisobga oladigan o'qituvchilar boshqa variantlarni ham tanlash huquqiga egadirlar.

Beshinchi komponent — darsning har bir bosqichi refleksiyanishga daxldor. Bu o'quvchilarning o'z-o'zini tahlil qilish asosidagi aqliy faoliyatini va uning natijalarini baholashdir. Buning uchun darsda o'quvchilar fikrining qurilishi va mazmunidagi o'zgarishlarni ilg'ab olish maqsadida o'qituvchi savoliga ularning javobi shaklidagi og'zaki usullari ishlatiladi. Bu usulni universal deb hisoblash mumkin. Chunki u bir tomondan, butun ta'lim jarayonini — tarbiya, o'qitish va rivojlantirishni qamrab oladi va rivojlantirishni organik bir butun holga olib keladi, boshqa tomondan esa ijtimoiy kognitiv metodika va texnologiyani vujudga keltiradi.

Bolaning 6—7 yoshidan keyingi kognitiv rivojlanishi ijtimoiy jarayonlardan ajralmaydi. Kognitiv (bilish) va ijtimoiy (xulq-atvoriy) rivojlanishlar aloqasi oddiy mexanik aloqaga nisbatan murakkabroqdir.

Bolaning ijtimoiy doira (ta'lim muhiti) ta'sir etadigan individual axloqidagi o'zgarishlarni kuzata borib, unga aniq ma'no berish va uni boshqarish individual refleksli tarbiya texnologiyasi va metodikasini yaratishga olib keldi. Mazkur ishlanmalar asosida ijtimoiy ta'sir g'oyalari yotadi.

Ijtimoiy ta'sir fikr qurilishi va mazmunini o'zgartirib, tushunish va anglashga ta'sir etib, bolaning aqliy rivojlanishi asosini tashkil qiladi. Biz didaktikada qabul qilingan universal usul bo'lmaydi, degan nuqtayi nazarga zid bormayapmizmi?

Barcha turkumlash usullari nazariyalarda umumiy bo'lmagan, maxsus tomonlarni ifodalaydi, chunki har bir usul o'z xususiyatlariga ega bo'ladi. Shu bilan birga, barcha ishlarda umumiylikni — bolani aqliy faoliyatga qo'zg'atuvchi u yoki bu belgining mavjudligini ko'rish mumkin.

Shuningdek, boshqa kishi tomonidan kiritiladigan belgi birinchi individ xulq-atvorini tashkil etishda yangilik bo'ladi. Ayni shunda har qanday belgi operatsiyasining mohiyatida xulq-atvorni tashkil etishga kiritiladigan fuksiyadagi belgining ahamiyati yotadi. Ular turlicha bo'lishi mumkin (hal qiluvchi, nazorat qiluvchi, yordam beruvchi, kim haqidadir eslatuvchi). Belgi sovg'aga o'xshash narsa bo'ladi. Zero, sovg'a — uni bergan kishi haqidagi taassurot. Ayni shu tufayli belgi ijtimoiydir, shu sababli u xulq-atvorni tashkil etadi. Madaniyat tarixida (odamlar, afsona, hatto din) belgi ana shunday ma'no va ahamiyat kasb etadi. Belgining asosiy xususiyati — ijtimoiylik, ya'ni o'z xulq-atvorini o'zga kishi orqali amalga oshirishdir.

Insonning fikrga beixtiyor harakat yo'lini shartli ravishda quyidagi sxema bilan ifodalash mumkin: belgi-reseptor-miya (ong) — his-tuyg'u-aqliy jarayon. Shunday qilib, tashqi signal (axborot sifatidagi belgi) ong bilan aks etadi, u o'ziga xotira, diqqat, tasavvur, idrok kabi psixik funksiyalarni mujassamlashtiradi, bular miyada ilgari yetiladi, u ixtiyorsiz tarzda aqliy jarayonni, shundan so'ng esa insonning ongli faoliyatini vujudga keltiradi. Insonning ana shu tabiati tufayli uning shaxsi rivojlanib boradi.

O'quvchi uchun belgi nima? Asosiy belgi — vosita, bu so'z, yangi bilim, inson faoliyat tajribasi va uning usullaridan tarkib topgan o'qituvchi nutqidir. So'z, nutq — o'zaro ta'sir, kommunikatsiya, ruhiy-axloqiy va ijtimoiy-madaniy tajribani berish asosidir. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytsek, biz rivojlantiruvchi usul asosida yuqorida bayon etilgan usullarning har biri orqali amalga oshirilgan g'oyalar sifatida ijtimoiy ta'sir (kommunikatsiya o'rnatish) g'oyasi qo'yiladi.



### *Savol va topshiriqlar*

1. Ta'lim mazmuni texnologiyasini tushuntirib bering.
2. Ta'lim texnologiyasining psixologik-pedagogik qoidalarini ochib bering.
3. O'quv-tarbiya jarayonida rivojlantirish usulining texnologiyasi nimalardan iborat.
4. O'quv usuli va yo'llari qanday, ularning mazmuni nimadan iborat?
5. O'quv usullarini aniq tasniflashga misollar keltiring, uning o'ziga xos xususiyatlarini aytib bering.



## **XII BOB. DARS TA'LIMIDA RIVOJLAN- TIRISH TEXNOLOGIYASI**

### **RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM NIMA?**

Kichik yoshdagi o'quvchilar ta'limi — alohida bilimlar tizimi emas, balki dunyo to'g'risidagi, jamiyat va insonning undagi o'rni to'g'risidagi umumlashtirilgan, yaxlit tasavvurdir. O'qitish natijasida bolada o'ziga xos dunyoqarash, qurilma sxemasi tarkib topishi kerak. Bu sxemada aniq fan bo'limlari muayyan o'ringa ega bo'ladi.

Olimlar va uslubchilarning ko'p yillik tadqiqot ishlari kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining xarakteri hamda fikrlash va bilish imkoniyatlari xususidagi eskirgan qarashlarni bartaraf etishga yordam berdi.

Kichik yoshdagi o'quvchilarning tartibli fikrlash qobiliyatlari ilgari o'ylanganidan ancha yuqori ekan. Bu boshlang'ich ta'lim mazmunini ko'zda tutishga, kichik yoshdagi o'quvchilarni o'qitish jarayonida nazariy bilimlar rolini oshirishga, o'qitish vazifalarini tushunishga yordam beradi. Faqat bilim va malakani puxta o'zlashtirishni ko'zda tutish kishilarni qoniqtirmay qo'ydi. Endi o'quvchilarning ruhiy va jismoniy quvvatlarini oshirish, ularni umumiy kamolotini ta'minlash zaruriyati paydo bo'ldi.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilari nazariy bilimlarining kuchayishi, ularning aqliy faoliyati, mantiqiy fikrlashining rivojlanishi o'qitishning rivojlantirish prinsipiga asoslangan.

Rivojlantiruvchi ta'lim nima o'zi, u qanday bo'lishi kerak?

Pedagogika o'zining butun taraqqiyoti davrida o'qitishning yanada mukammalroq va yanada samaraliroq usullari yoki tizimini izlash bilan rivojlanib bordi. Maktabda o'qitishning sifatsiz ekanligi va ta'limning barcha bo'g'inlarida mutaxassislarning past darajada kasb tayyorgarligi muammosini hal eta oladigan usullarni izlab topishni asosiy vazifa qilib qo'ydi. Programmalashgan va muammoli (problemali) ta'limni birinchi o'ringa chiqarish, aqliy harakatlar yoki ish o'yinlarini bosqichli shakllantirish nazariyasi asosida muayyan tizim hosil qilish pedagogik missiyaning eng mashhur bo'lgan rivojlanish bosqichlaridir.

Asosiy talab shuki, ta'lim jarayoni hamisha tugallangan bo'lishi zarur.

O'qitishning boshlanq'ich davrida (1—4 sinfda) ta'lim mazmuni o'quvchilar tomonidan umumiy qonuniyatlarga binoan o'zlashtiriladi:

**idrok — tushunish (anglash) — qabul qilish (reproduktiv faoliyatda — yodda tutish) — yangi sharoitlarda foydalanish.**

Rivojlantiruvchi ta'lim sharoitida idrok etishning o'ziga xos tomoni o'quvchining o'zlashtirilmagan sohani (muammoni) — tenglashtirish, taqqoslash, qonuniyatlarni aniqlash, qo'yilgan muammolarni hal etishning turli yo'llarini izlash, tanlangan o'quvchi uchun optimal bo'lgan usulni amaliy tarzda o'zlashtirishdagi faol faoliyat paytidagi o'quvchining subyektiv holati hisoblanadi, va nihoyat, faoliyat natijasi sifatida o'quvchi axborotni o'zlashtiribgina qolmay, ijtimoy izlanishga va natijalardan qoniqishga aloqadorlik hissini sezadi, anglaydi.

Axborotni tushunishni uch bosqichga bo'lish mumkin, ular bolaga kelajakdagi bilimida yaxlit mazmuniy tayanch bo'lib hisoblanadi:

1. *Butunlik va qismlarning nisbatan degan falsafiy tushunchaning asosiy g'oyasi.* Matematikada qo'shish qoidasining aniq ma'nosi birinchi sinf bolalariga noaniq, intuitiv tushunish asosida beriladi: qo'shish — bu hammasini birga yig'ish, qismlarni yaxlit qilib yig'ish.

Birinchi sinfda bunday nisbatni tushunish asosida sonlar tarkibini, shuningdek, umumlashgan modelga qo'shuv harakati qonunlarini, qo'shishning va ayiruvning noma'lum komponentlarini topish qoidalarini (shu jumladan, tenglamalarni yechishda ham) vazifa — sxema modeliga asoslanib, qo'shuv va ayiruvga oid oddiy masalalarni yechishni ham ko'rib chiqish mumkin.

B+MkK

K — aylana (butun) — aylantirib chiz.

M+BkK

B — katta (qism) — tagiga chiz.

K—MkB

M — kichik (qism) — tagiga chiz.

O'qituvchi o'z-o'zidan ravshan ko'rinib turuvchi, joylashtirilgan qonun ma'nosini tushuntirishi shartmi? Qo'shilayotgan, ayrilayotgan narsani topish qoidasini tushuntirish kerakmi? Agar tushunarli bo'lsa, qismni izlash nima uchun kerak? Kichrayayotganni topish qoidasini yodda saqlash kerakmi, ravshan bo'lsa, butunni izlab nima qiladi? Metodik tavsiyanomalarda bular ilgari ifodalangan. Unga, asosan, birinchi sinf o'quvchilari osonlik bilan tenglamalarni (butun va qismni topish asosida) yecha oladilar, muntazam ravishda komponentlar nomini va ularni topishni o'zlashtiradilar.

Qo'shish va ayirishga oid oddiy masalalarni yechishda yuqorida eslatilgan usulni tanlash modeli paydo bo'lgandan keyin „Sxe-maga qara. Nimani izlash lozim, butunnimi yoki qismni?“ degan savolga javob izlanadi.

Boshqa holda, sonlar bilan ishlashda yo birdaniga butun son bilan yoki qismlar bo'yicha (sonni qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish) bajarish mumkin. Zero, ko'pgina amallarda harakat prinsipi umumiydir.

|         |         |        |        |                    |
|---------|---------|--------|--------|--------------------|
| 60 · 2  | 60 : 2  | 16 · 6 | 60 : 5 | 1205               |
| 90 · 3  | 90 : 3  | 23 · 3 | 54 : 3 | 12 butun, 5 birlik |
| 200 · 4 | 200 : 4 | 18 · 4 | 92 : 4 | 1 ming, 8 birlikni |

darhol ko'paytiramiz, son summasi bilan almashtiramiz, bo'lamiz → (ko'paytiramiz, bo'lamiz) → qismlar bo'yicha.

Kengroq olib qaralsa, ushbu „butun“ va „qism“ kategoriya-laridan o'qituvchilar boshlang'ich ta'limning barcha fanlarida foy-dalanishlarini ko'ramiz. Masalan, nutq (butun) gaplardan (qism-lardan) tashkil topadi; gap (butun) so'zlardan (qism) tarkib topadi va hokazo. Har qanday matnni qismlarga bo'lish mumkin. Biz atrof-olamdagi hodisalar bilan tanishganda ham butun va qism turdosh nisbatini o'rganamiz.

Butun va uning tarkibiy qismlari degan umumiy mohiyatni aniqlash atrofimizda ko'rilgan bir qator hodisalarda atrof-olam-dagi bir qator kuzatilgan hodisalarda butun va uning tarkibiy qism-lari degan umumiy mohiyatni aniqlash bolaga olam muayyan bir umumiy qonun asosida qurilgan, degan tushunchani beradi.

2. *Falsafaning qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuniya-ting paydo bo'lishi tufayli*, boshlang'ich maktabda ham har qan-day hodisaning aks (teskari) tomoni bor, degan narsani his qi-lishga, tushunishga, ko'rishga imkon beryapti. Amaliy holatlarda (tortmoq—itarmoq, chizmoq—o'chirmoq, qo'ymoq—olmoq...), matematik amallar va nisbatlarda (qo'shish — ayirish, ko'paytirish — unga teskari bo'lish, ko'p — oz, keng — tor), misollarda, nisbatlarda, ona tili darklarida til hodisalarida (antonimlar), adabiy qahramonlarni tavsiflashda, jonli va jonsiz tabiat munosabatlarida bola tili bilan aytiladigan „Birisiz ikkinchisi bo'lmaydi“ mazmu-nidagi ushbu qonunning mujassamligini ko'ramiz.

Adabiyotda bir xil adabiy qahramonlarning oliyanobligi va boshqalarning zaifligi ko'rinishi uchun, ularning o'ziga xos to-monlarini ko'rsata olishi uchun shart-sharoitlar zarur bo'ladi. Ayni bir qahramon ba'zan uning ijobiy tomoni ham, ba'zan salbiy tomoni ham aks ettiriladi, shu sababli ularga bir xil tavsifni

taqash to'g'ri bo'lmaydi. Hayotdagi har bir hodisa (eng betarafi ham) hamisha kim uchundir yaxshilik bo'lib ko'rinishi, kim uchundir yomonlik bo'lib ko'rinishi mumkin.

Farzandlarimiz qachonlardir bunday narsalar to'g'risida o'ylab ko'risharmikan? 89-, 110- maktabdagi birinchi sinf o'quvchilari allaqachon „yaxshi-yomon“ o'yinini o'ynashgan. Bu tajribadan ko'rinadiki, bolalar o'yin usulini o'z hayotiga tezda kiritadilar va bu ularning axloqiy xatoliklardan saqlanishga, o'z so'zi va xatti-harakatlarida shoshma-shosharlik qilmaslikka yordam beradi.

Yuqorida ko'rsatilgan ta'lim texnologiyasidan foydalanib, matematika darslarida misollar zanjirini yechib, teskari operatsiyalar tizimini tuzish, tekshirib chiqish va ayni chog'da, bir tenglamani yechib, unga teskarisini tuzish va yechish mumkin. Bu o'z-o'zini tekshirish usulining bir shaklidir.

3. *Qayta o'zgartirish g'oyasi.* Dunyoda hech narsa izsiz ketmaydi. Bironta hodisadagi qaysidir o'zgarish o'z ortidan oqibatini olib keladi. Matematikada bu tadqiqotlar turli-tuman materiallar yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Komponentlar o'zgarishiga qarab natijalar o'zgarishini kuzatilganda, yechilgan masala bilan qo'shimcha ishlashda undan keng foydalaniladi (agar masalada ...o'rniga murakkablashgan tenglamalar yechishga o'tishda, yechim va javob qanday o'zgarishi mumkin?)

$$(x - 8 = 12 \rightarrow x - 8 = 36 : 3 \rightarrow x - 4 \cdot 2 = 36 : 3).$$

Qayta o'zgartirish g'oyasi o'quvchilarning o'zlariga ma'lum bilimlardan qochib, o'zlari uchun yangi bo'lgan masalani kuzatishga, yechib ko'rishga imkon beradi.

|     |     |     |      |
|-----|-----|-----|------|
| 23  | 23  | 23  | 123  |
| +16 | +17 | +18 | +418 |

Dars mavzusi: „Bosqichlarga o'tish orqali yozma qo'shish usullari“.

$$48 : 2 \rightarrow (40 + 8) : 2$$

$$648 : 2 \rightarrow 648 : 2$$

$$748 : 2 \rightarrow 748 : 2$$

O'quvchilar bunga o'xshash tadqiqot faoliyatini mantiqiy urg'uni aniqlash va gapda so'z tarkibini aniqlash vazifalarida, deformatsiyalangan matnni (testni) tiklashda amalga oshiradilar.

Tabiatshunoslikda sabab-oqibat aloqalarining aniqlanishi, bu — hayotning boshqa sohasida ayni shu falsafiy mohiyatni namoyon etishdir.

Albatta, taklif etilayotgan dalillar ko'pgina o'quvchilar uchun kutilmagan narsa bo'lishi mumkin va ularni boshlang'ich sinflar ish tajribasida maqbul deb hisoblagan kishilar esa fanlararo aloqalar va umumlashtirishlarni qayta ko'rib chiqishlari kerak bo'ladi.

### O'QUVCHI BILIMINI TEKSHIRISH VA BAHOLASH TEKNOLOGIYASI

Ta'lim usullarini klassifikatsiyalash (tasniflash) o'quvchilar bilimini va ular faoliyatining xususiyatini tekshirish faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yishni ko'zda tutadi. O'quvchilar bilimini tekshirish va baholashdan maqsad o'quvchilar bilimining sifatini, rivojlantirish darajasini ta'minlash va ularni rag'batlantirishdan iborat bo'lib, bilim olishga qiziqishini takomillashtirishdir.

Bilimlarni tekshirish va baholashdagi asosiy kamchiliklar:

- uning vazifalarini (funksiyalarini) noto'g'ri tushunish;
- ta'lim jarayonida uning rolini asossiz ko'tarib yuborish;
- tekshirish va baholashning darsda asosiy maqsadga aylanib qolishi;

- bilimlarni tekshirish va baholashda bir xil texnologiyadan foydalanish;

- baholarni qo'yishda subyektivizmga yo'l qo'yish va aniq, asoslangan mezonlarning yo'qligi;

- o'quvchilar bilimini tekshirish va baholashda bu jarayonni nazorat qiluvchi, ta'lim-tarbiya beruvchi muhim funksiyani bajarishni unutmaslik kerak.

Bu nazorat qiluvchi uchun asosiy funksiya bo'lib, ta'lim beruvchi va tarbiyachi yordamchi funksiyadir. Biroq tekshirish maqsadi va ko'rinishi turlicha bo'lganda, bu uch funksiya turlicha namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, tekshirishning yakuniy imtihon shaklini oladigan bo'lsak (uni o'tkazish usullari turlicha bo'lishi mumkin), bunda nazorat qilish funksiyasi ustunlik qiladi (ta'limga vaqt qolmaydi).

O'rganilayotgan materialni o'zlashtirish bo'yicha joriy tekshirish olib borilsa, bu holatda ta'lim beruvchi funksiyasi ustun bo'lishi kerak. Tarbiya berish funksiyasi ham ustun bo'lishi mumkin, masalan, o'qituvchi ba'zi o'quvchilarni sistemali ishlashga o'rgatishga intiladi, baho bilan rag'batlantirib, ularning ruhiy xususiyatlariga (irodasini rivojlantirish, xotirani mustahkamlash va h.k.) ta'sir etishga harakat qiladi, me'yoridan ortiqcha o'ziga bino qo'yish holatlarida bahoga qat'iy yondoshib ish ko'riladi.

Umuman olganda, baho xolis (obyektiv) bo'lishi zarur esa-da, biroq o'z tabiatiga ko'ra hamisha noxolis (subyektiv)dir.

Ushbu funksiyalarga muvofiq o'quvchilar bilimni tekshirish va baholashning aniq usullari tanlanadi.

Tekshirishning ko'p qo'llaniladigan ikki xili mavjud: ular joriy va yakuniydir. Joriy tekshirishning hammaga ma'lum turlari quyidagilar: og'zaki so'rashning har xil shakllari, yozma uy vazifalarini tekshirish, yozma nazorat (mustaqil) topshiriqlari. Biroq, bunday an'anaviy shakllar bilan bir qatorda, turli perfokartalar yordamida tekshirish, kompyuter yordamida topshiriq bajarilishini tekshirish ham qo'llanilyapti.

Tekshirishning o'ziga xos shakli o'quvchilarni o'qituvchi tomonidan kundalik, muntazam kuzatib turishdir. Tekshirishning turli-tuman shakllari o'ziga xos dars bosqichi kabi faqat an'anaviy „so'rash“ jarayonidagina emas, balki butun dars mobaynida qo'llaniladi.

O'qituvchi darsga tayyorlanishda tekshirishning zarur shakllarini izlash va uni qo'llash eng muhim vazifa ekanligini unutmasligi kerak. Kimdan, qachon, qancha o'quvchini tekshirish, qanday savollar bilan, qanday vositalar orqali so'rash va baholash — bularning barchasiga o'qituvchi darsga tayyorlanishda alohida e'tibor bermog'i lozim.

Shu bilan bir qatorda, o'quvchilar o'z o'rtog'ining bilimi so'ralayotganda ular nima bilan shug'ullanishi zarurligi haqida ham o'ylashi kerak bo'ladi. Har bir o'qituvchining o'z nazorat tizimi bo'lishi lozim. Bu tizim ishning turli-tuman vositalari va usullarini qamrab olishi, o'quvchilar o'qituvchining o'z muvaffaqiyatlari, bilimlarni o'zlashtirish darajasi va sifatini hamisha tekshirib turishini tushunsinlar.

Tekshirish shakllari maktablarimiz ta'lim jarayoniga xos bo'lgan, o'quvchilarni bilimlarni faqat o'zidan qabul qilishi, reproduktiv faoliyatini tashkil etish bilangina tugamasligi lozim. Nazorat (tekshirish) shakllarini tanlashda o'quvchilarning individual xususiyatlarini e'tiborga olish muhimdir.

Yakuniy yozma ishlarga alohida talab bilan qarash zarurdir. Ularni o'qituvchi o'quv materialini ko'pchilik o'quvchilar o'zlashtirib olganiga ishonch hosil qilgandan so'ng o'tkazish mumkin. Bunday ishlar o'quvchilar uchun asosli bo'lib, ularda o'z kuchlariga ishonch xususiyatini shakllantirishga yordam beradi, aks holda esa o'qitish jarayoniga qiziqishi pasayadi.



Bilimlarni tekshirishning yozma va og‘zaki shakllari to‘g‘risida gapirilganda, ularning har biri o‘ziga xos xususiyatga ega ekanligini va o‘z vazifasi borligini aytib o‘tish darkor. Og‘zaki shakli — savolni tez idrok etish (reaksiya) ko‘nikmasini hosil qilish, o‘quvchilar xotirasini rivojlantirishga yordam beradi. Yozma tekshirish esa mantiqiy mushohada (fikrlash)ni samarali kengaytiradi, javoblarda aniqlik ko‘proq bo‘lishiga o‘rgatadi. So‘nggi yillarda o‘quvchilar bilimini va rivojlanish darajasini aniqlash maqsadida turli test shakllaridan keng foydalanilmoqda.

Bilimlarni baholashga qo‘yiladigan talablar. O‘quvchilar bilimini baholashga qancha xolis munosabatda bo‘linsa, u o‘quvchilarni shuncha rag‘batlantiradi. Qoidaga ko‘ra baho o‘quvchining darsdagi xulq-atvoriga mukofot yoki jazo sifatida emas, balki bilimi darajasi va xususiyatiga qo‘yilishi kerak. Bahoga qo‘yilgan talablar optimal (oshirib yuborilmagan ham, pasaytirib yuborilmagan ham) bo‘lishi lozim. Baholarni „oshirish“ o‘quvchilar rivojlanish darajasini, bilimini pasaytiradi. Shu bilan birga, juda katta talab qo‘yish ham zararli bo‘lib, o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan qiziqishini so‘ndiradi. O‘qituvchining o‘quvchilarga baho qo‘yishda salbiy munosabatiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Zero, o‘quv predmetiga muvofiq keladigan dastur baholashning eng xolis mezoni bo‘lishi zarur.

Maktablarimizda bilimlarni baholash o‘zgarishsiz qolmadi. 1935 yilgacha uch ballik baho qo‘yilgan bo‘lib, u „juda qoniqarli“, „qoniqarli“ va „qoniqarsiz“ baholar edi.

O‘sha paytdan bugungi kungacha mavjud bo‘lgan besh ballik tizim joriy etildi. Bu tizimga ko‘ra „a‘lo“ (besh) — dastur talablariga to‘liq hajmdagi bilimlarni egallagan o‘quvchiga qo‘yiladi;

„yaxshi“ (to‘rt) — dastur talablarini to‘la hajmda arziyas kamchiliklar bilan (masalan, materialni bayon etish mantiqi buzilgani va boshqalar) o‘zlashtirgan o‘quvchiga qo‘yiladi.

„qoniqarli“ (uch) — o‘quvchining bilim darajasi juda past bo‘lib, unga keyingi materialni o‘rganishida ilgarilashiga yordam beradigan bilim hajmiga qo‘yiladi;

„qoniqarsiz“ (ikki) — o‘quvchi o‘zidagi juda past bilimi bilan ilgarilashiga qodir bo‘lmasa qo‘yiladi;

„yomon“ (bir) baho o‘quvchi hech narsani bilmaganda qo‘yiladi. Bu so‘nggi baho juda kam qo‘llanib, uning mazmuni deyarli „ikki“ bahoga tengdir.

Bilimlarni baholashda xolislikni (obyektivlikni) saqlagan holda, ba‘zi holatlarni ham nazarda tutish lozim: masalan, joriy yoki yakuniy bilimlar baholanadi (yozma ish, chorak bahosi va b.),

o'quvchining intilishi, uning o'quv ishlaridagi barqarorligi va h.k. O'quv fanining xususiyatlarini, ba'zi bo'limlar, ularning aloqadorligini o'zlashtirish holatini nazardan qochirmaslik zarur.

O'quvchilar bilimini tekshirish va baholashning an'anaviy tizimi jiddiy nuqsonlarga ega, negaki u ta'limiy, tarbiyaviy, diagnostik va rag'batlantirish funksiyalarini zarur darajada amalga oshirmaydi. Modomiki, shunday ekan, undan voz kechish yoki uni yanada takomillashgan shakliga almashtirish maqsadga muvofiq emasmi?

Ehtimol, bahoning jazolash vazifasidan xalos bo'lgan o'quvchilar yaxshiroq o'qish va ta'limiy burchlariga ancha vijdonan munosabatda bo'lar edilar. Bugungi kunda o'quvchilarning o'zlari bahoga qanday munosabatda bo'lyaptilar? Boshlang'ich sinflardagi o'quvchilarning 98 foizi baho saqlanishi zarurligini aytadi. Bahoni bekor qilish o'qitishga bo'lgan qiziqishni oshirishga, o'qitishni ichki shakllantirishga yordam beradi, degan fikr ham o'zini oqlamadi.

O'rta va yuqori sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatini baholash zarurligini qayd etganlar soni boshlang'ich maktabdagidek bo'lishiga ishonamiz, albatta.

Baholarni bekor qilish maqsadga muvofiq emasligi bir qiziq psixologik tadqiqotdan ham ma'lum. Amerikalik psixologlar o'quvchilar o'quv faoliyati natijalariga baho ta'sirini aniqlashga qaror qildilar. Eksperiment maqsadiga ko'ra, bir sinfda o'quvchilar muayyan vaqt davomida javoblarining aniqligi va to'liqligiga e'tibor qilmay, faqat maqtaldi. Boshqa sinfda faqat tanqid qilindi, uchinchisida esa biron-bir baho berilmadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bilish faoliyati maqtalgan sinflarda eng yuqori yutuqlarga erishilgan, eng yomon natija o'quv faoliyati tanqid qilingan sinfda emas balki bilish faoliyati sira baholanmagan sinfda vujudga keldi. O'qituvchining o'qitishga bo'lgan havasi qanchalik ko'p bo'lmasin, bilish faoliyatining ichki motivlari qay darajada shakllangan bo'lmasin, u hamisha tashqi motivlashtirishga, tashqaridan maqtash va qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'ladi. Bola ko'z o'ngida o'qituvchi qanchalik ahamiyatli, obro'li bo'lsa, uning maktabda, asosan, baholash va baholarda aks etuvchi maqtovlari shunchalik qadrli va ahamiyatli bo'ladi.

Pedagogik baholash bilimni dastur talablari va ta'lim andazalariga qiyoslab aniqlabgina qolmay, balki o'quvchilar bilim faoliyatini motivlashtiradi va rag'batlantiradi.

Yuqoridagilardan xulosa shuki, bahoni bekor qilish pedagogik jihatdan ham, psixologik jihatdan ham o'zini oqlamaydi. Bunday qator kamchiliklari bo'lsa-da, besh ballik baho tizimiga muqobil xili topilganicha yo'q. Shuning uchun gap uni takomillashtirish, o'quvchilar bilimini baholashda xatoga yo'l qo'ymaslik haqida borishi kerak.

### O'QITUVCHINING XATOLARI

O'qituvchilar bilimini baholashda eng jiddiy xatolardan yana biri turli guruhlariga subyektiv yondashishdir. Bu o'qituvchi tomondan ayni bir javob uchun, ayni bir ish uchun turli o'quvchilarni baholashdagi tafovutlarda aks etadi. Tafovutlar ba'zan ikki ballgacha tushadi. Yillar o'tishi bilan o'qituvchidan o'quvchilarning turli guruhlariga nisbatan muayyan tasavvur va unga muvofiq holda munosabat shakllanib boradi. Bu narsa o'zlashtirgan va o'zlashtirmagan o'quvchilarga munosabatda yorqin namoyon bo'ladi. O'qituvchilar bir xil o'quvchi (o'zlashtirayotgan)larni doim maqtaydilar, boshqa (o'zlashtirmayotgan)larni hamisha koyiydilar. Buning ustiga o'zlashtirmayotganlarga, odatda, o'zlashtirgan sinfdoshlariga nisbatan tez-tez va qattiq tanbeh beradilar. Yanglish munosabat yana shunda namoyon bo'ladiki, o'qituvchilar yaxshi o'zlashtiruvchilarga nisbatan yomon o'zlashtiruvchi o'quvchilarni javob berishga kam taklif etadilar. Javobni o'ylash uchun ularga juda oz vaqt beradilar.

Mana bunday vaziyatga e'tibor qiling. Doska yonida past o'zlashtiradigan o'quvchi javob bermoqda. Ishonchsiz, o'ransiz gapirmoqda. Bunday holatda o'qituvchining munosabati qanday bo'ladi? U o'quvchi gapini shartta bo'lib, unga „ikki“ qo'yadi va joyiga o'tqizadi: „Sen yana dars tayyorlamabsan“, „Sen hech odam bo'lmasan“, „Senga o'rgatsa ham, o'rgatmasa ham befoyda ekan“, deb uni izza qiladi.

Endi boshqa vaziyatni ko'raylik. Doska oldida yaxshi o'zlashtiruvchi o'quvchi bugungi darsga tayyorlanmay kelib, ishonchsiz holda javob beryapti. O'qituvchi bunday vaziyatda o'zini qanday tutadi?

U o'quvchiga yordam berib, kamchiligini to'ldiradi yoki unga javobni o'ylashi uchun imkon beradi. Ko'rinib turibdiki, bu ikki vaziyatda o'qituvchi qarshisida yaxshi va yomon o'zlashtiruvchi bola turganiga qarab, o'zini turlicha tutyapti. Har xil bolaga bunday munosabat oldindan vujudga kelgan tasavvurning namoyon bo'lishi hisoblanadi. Keltirilgan misolda subyektiv munosabat

namoyon bo'ladi. O'qituvchining bunday munosabati esa maktab bahosining ta'limiy, tarbiyaviy va rag'batlantiruvchi funksiyasini pasaytiradi.

Amerikalik pedagog Blunning fikricha, hatto o'quvchilar nutqi sur'ati ham o'qituvchi bahosiga ta'sir etar ekan. Bu narsani maxsus o'tkazilgan quyidagi tadqiqotdan ham bilish mumkin. Tabiatshunoslik fanidan o'quvchi qiz bir xil materialni ikki marta gapirib bergan. Avval 16 daqiqada, keyin esa 24 daqiqa davomida. Javoblar video tasmasiga yozib olindi. So'ngra 81 nafar o'qituvchi sekin aytilgan va tez aytilgan materialni baholashdi. Tez aytib berilgan materialning o'rtacha bahosi 3,38 ball bilan, sekin so'zlab berilgan materialning o'rtacha bahosi 2,5 ball bilan baholandi.

Tadqiqot mualliflarining xulosasi shuki, ko'pgina o'qituvchilar uchun nutqning tez sur'ati chuqur bilim va katta qobiliyatdan darak berar ekan.

O'qituvchi o'quvchining tez yoki sekin nutq sur'ati materialni bilishi yoki bilmasligi belgisi emasligini fahmlaydi. Vazminlik, bir ish turidan ikkinchisiga sekin o'tish sovuqqon mijozdagi o'quvchiga savolni tushunib olishi va unga javob tayyorlashi uchun ko'proq vaqt talab etiladi. Bunday o'quvchiga javob uchun qiziqqon mijozga nisbatan ko'proq vaqt kerak bo'ladi. O'qituvchi esa sovuqqon o'quvchining vazminligini mutlaqo boshqacha tushunadi. Turli mijozga (temperamentga) mansub bo'lgan o'quvchilarga nisbatan xato qilish umumiy baholash tizimining kamchiligi emas, balki o'qituvchining shaxsiy (subyektiv) xatosi, aniqrog'i, o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini bilmasligi natijasidir.

Maktab amaliyotida ko'pgina o'quvchilarni bir-biriga qiyoslashadi, birining yutug'ini ikkinchisiga o'rnak qilishadi. O'qituvchi yaxshi o'qiy olmagan o'quvchiga qarab: „Qaragin, Tohir qanday yaxshi o'qiydi!“, degan kinoyali so'zlar bilan uni izza qiladi. Bu o'quvchiga ruhiy jihatdan yomon ta'sir qiladi, oqibat u o'qishdan bezadi.

Bolalarni bir-biri bilan shunday va umuman taqqoslash maqsadga muvofiqmi? Bunday taqqoslash past o'zlashtiruvchi o'quvchilarning o'qishga qiziqishini kuchaytirishga yordam beradimi? Xuddi shu sohada psixologik tajriba o'tkazildi. O'quv yili davomida sinfda har bir o'quvchini o'zi bilan qiyoslab, o'qituvchi o'quvchining o'zlashtirish darajasi haqida uning o'zigagina aytdi. Boshqa sinfda esa bir o'quvchining yutuqlari, imkoniyatlari bir xil, lekin shaxsiy sifatлари bilan boshqa natijalarga erishgan, boshqa o'quvchining yutug'i yoki muvaffaqiyatsizligi bilan qiyoslandi.

Uchinchi sinfda bolalar umuman taqqoslanmadi. O'quv yili oxirida o'quvchilari bir xil qobiliyatli, lekin o'qishga turlicha munosabati tufayli o'quv faoliyatida turli natijalarga erishgan bolalar sinfi eng yaxshi hisoblanadi. Bu yerdagi taqqoslash bolaning o'sishini pasaytirmagan, aksincha, yaxshi natijalarga erishishi mumkinligini ko'rsatgan.

O'quvchi o'zini o'zi bilan qiyoslagan sinfda ijobiy natijalar qo'lga kiritildi. O'zlashtirayotgan va o'zlashtirmayotgan o'quvchilar taqqoslangan sinfda mutlaqo boshqacha manzarani ko'rish mumkin edi.

O'tkazilgan tadqiqot quyidagi xulosaga kelishga yordam berdi. Bolalar bilimini shunday taqqoslash kerakki, unda bironi yuqori ko'tarib, boshqalarini yerga urmay, bolalarning eng yaxshi natijalarga erishuvini va o'z shaxsini takomillashtirishini qo'llab-quvvatlasin.

Umuman olganda, bolalarni bir-biri bilan taqqoslash, birini ikkinchisiga ibrat qilib ko'rsatish — pedagogik tomondan ham, axloq-odob tomondan ham mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Darhaqiqat, tarbiyaning insoniy yo'nalishi bolani qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilishni va ularning o'zini rivojlantirish kamolotga yetkazish uchun shart-sharoit yaratishni ko'zda tutadi.

O'qituvchi tomonidan o'quvchilar bilimini baholashda yo'l qo'yilgan xatolar faqat baho komponentlarining o'zgarishiga emas, balki butun o'quv-bilish faoliyatining o'zgarishiga olib keladi, ular bu tizimga xos bo'lgan kamchiliklarni kuchaytirib, uni kamsuqum va yoqimsiz qilib qo'yadi.

**O'quvchi o'z-o'zini baholaydi.** O'quvchilar bilimini tekshirish va baholash masalasi to'g'risidagi munozaralar, ularni takomillashtirishning yangi shakllarini izlash, aksariyat hollarda noto'g'ri yo'nalishda olib borilyapti. Albatta, 10 ballik baho tizimini joriy etish yoki bahodan umuman voz kechib, tekshirishning turli shakllaridan, chunonchi, sinov, imtihon, testlarni qo'llash mumkin. Lekin o'quvchi va uning bilish qobiliyati o'qituvchi bahosining obyektini bo'lib qolaveradi.

Maktab bahosini takomillashtirishning eng samarali yo'li o'quvchi bilimini baholash komponentining faol subyektiga aylantirishda. Zero, pedagogning bahosi o'quvchining o'zini o'zi baholashga o'rgatish lozim, yana yaxshisi, baholashning bu ikki ko'rinishini uyg'unlashtirish muhimdir.

O'z-o'zini baholashni ta'minlovchi yo'llar qaysi? O'quvchilarning o'z-o'zini baholash ko'nikmasini paydo qilish uchun birinchi navbatda ularni o'z bilish faoliyatini baholashga jalb etish lozim. O'z-o'zini baholash quyidagi usullar bilan vujudga keladi:

1. Boshqalar bajargan ishni o'quvchi tomonidan, ya'ni o'quvchilarning o'zaro baholashi. Sinfdoshining ishi to'g'risida axborotning mavjudligi o'zini o'zi baholash faoliyatiga ijobiy ta'sir qiladi.

2. Ishni bajargan o'quvchi o'ziga o'zi baho qo'yadi. So'ng uning ishi o'qituvchi tomonidan baholanadi, ikkala baho qiyoslanib, birinchi bahoning obyektivlik darajasi aniqlanadi.

Yana boshqa usulni ham taklif etish mumkin. Og'zaki javobdan so'ng o'qituvchi javob berayotgan o'quvchidan o'ziga qanday baho qo'yish mumkinligini so'raydi. Keyin sinfga murojaat qilib, o'rtoqlarining javobini ballar bo'yicha baholashni iltimos qiladi. Biroq, o'zini o'zi baholashni shakllantirish uchun o'quvchilarni baholash faoliyatiga jalb etish kifoya qilmaydi. Ya'ni, o'quvchilarni shunday mezonlar bilan qurollantirish kerakki, o'quvchilar ular bilan baholash va o'zini o'zi baholashni amalga oshirsinlar.

O'quvchi o'zining (o'rtog'ining) bilimlarini baholash uchun berilgan namuna mezon nisbatini (o'lchashni) bilishi zarur. O'z harakati yoki ish natijalarini mezon bo'yicha taqqoslab, u o'z faoliyatini baholashga o'rganadi.

O'qituvchi bahosidan so'ng o'zini o'zi baholashga o'tish o'quvchini o'qitishning faol subyekti qilishda juda muhimdir. O'qitishda o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri, bu — o'quvchilar bilish faoliyatini boshqarish hisoblanadi. Undan kelib chiqib, u o'quv-bilish faoliyatini rejalashtiradi, maqsad qo'yadi, uni motivlashtiradi, nazoratni boshqarish va baholashni amalga oshiradi. O'quvchi muayyan mezonlar asosida o'zining bilish faoliyatini baholashi zarur va o'quvchi qanchalik tez-tez o'zini baholash bilan shug'ullansa, u shunchalik ishonch bilan o'qitish subyekti bo'lib boradi.



### *Savol va topshiriqlar*

1. Dars ta'limida rivojlantirish texnologiyasi nimalardan iborat?
2. O'quvchilarning bilimini baholash texnologiyasi deganda nimani tushunasiz?
3. O'quvchi bilimini tekshirish va baholash texnologiyasi prinsiplarini ayting.
4. O'z-o'zini baholash haqida ma'lumot bering.
5. O'quv usul va yo'llari nima, ularning mazmuni nimadan iborat?
6. O'quv usullarini aniq klassifikatsiyalash (tasniflash)ga misollar keltiring, uning o'ziga xos xususiyatlarini ayting.

## SHAXSGA TA'SIR KO'RSATISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI MUAMMOLARI

Ilmiy bilish sistemasi sifatida ta'sir ko'rsatishning pedagogik texnologiyasi tarbiyaviy jarayonni optimallashtirishga va uning subyektivligini ta'minlashga da'vat etilgan bo'lib, keng va tor ma'noda qarab chiqilishi mumkin.

Keng ma'nodagi tarbiya — obyektiv jarayon. U jamiyatda pedagogning xohishi va irodasiga bog'liq bo'lmagan holda amalga oshiriladi, ya'ni o'z tabiatiga ko'ra bu jarayon ijtimoiydir. Tor ma'nodagi tarbiya — kattalar yoki maxsus ijtimoiy institutlar tomonidan bolaga ongli va planlashtirilgan holda ta'sir ko'rsatishdir.

O'qituvchi muammosi hozirgi zamon pedagogikasining eng muhim muammolaridandir. Chunki aynan o'qituvchi barcha pedagogik g'oyalarning tashuvchisi hisoblanadi. Zero, pedagogika sohasida erishilgan muvaffaqiyatlar va pedagogik tavsiyalarni o'quvchilar bilan olib boriladigan aniq o'quv-tarbiyaviy ishlar amaliyotiga tatbiq etilishi ham aynan o'qituvchi va uning faoliyati orqali amalga oshiriladi.

Bola o'zining birinchi o'qituvchisiga katta ishonch bilan munosabatda bo'ladi, obro'li ta'siriga beriladi. U o'z o'qituvchisiga muhabbat bilan qaraydi va undan ko'p narsani kutadi. Binobarin, tarbiyada hamma narsa o'qituvchining shaxsiga asoslanishi kerak. Lekin, afsuski, hanuzgacha o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabat muammosi mavjud.

Mazkur bo'limda biz aynan shu muammoni qarab chiqishni tavsiya etamiz. Zero, ensiklopedist-olimlar ham o'qituvchilarning o'zlari va ularning o'quvchilari qanday bo'lishi kerakligi haqida juda ko'p o'ylaganlar. Ular (ya'ni o'qituvchilar) qanday maqsadlarga erishish uchun harakat qilishlari kerak? O'rta asr Sharq mutafakkirlarining asarlarida ana shu va boshqa masalalar o'z aksini topgan.

O'qituvchining faoliyati. Forobiyning fikricha, yoshlarda axloq normalarini va san'atni egallab olish uchun amaliy ko'nikmalar hosil qilishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bu faoliyatning maqsadi o'quvchilarni baxtga erishish yo'llarini qidirishga tayyorlashdan iborat. Shunga ko'ra, Forobiy o'z vazifalariga vijdonsizlarcha munosabatda bo'lgan o'qituvchilar hurmatga loyiq emaslar, deb hisoblagan.

O'qituvchining vazifasi, „Sharq Aristoteli“, ya'ni Forobiyning fikriga ko'ra, davlatning dono rahbari vazifalariga o'xshashdir. Rah-

bar kabi o'qituvchi ko'rgan va eshitgan narsalarining hammasini xotirasida yaxshi saqlay bilishi, o'tkir va ziyrak, aqlli bo'lish bilan birga, ifodali nutq sohibi bo'lishi va o'quvchilarga ma'lum qilmoqchi bo'lgan hamma narsalarini to'liq hamda aniq bayon qila bilishi kerak. Bundan tashqari, u fan bilan shug'ullanishni yaxshi ko'rishi, o'z o'quvchilariga yaxshi bilim berishi va bu bilan bog'liq bo'lgan mehnatdan charchash nimaligini bilmasligi lozim; o'qituvchi nomaqbul ichimliklar iste'mol qilishdan o'zini tiyishi zarur; haqiqatni va uning uchun kurashuvchilarni sevishi: yolg'onni va yolg'on ishlatganlarni yomon ko'rishi; yuksak qalbli bo'lishi va or-nomusni qadrlashi; o'quvchilariga nisbatan haqqoniy bo'lishi; belgilangan maqsadga erishishda qat'iyatlik ko'rsatishi kerak.

Ibn Sino o'qituvchini mard, sofdil va mehribon, bolani tarbiyalash metodlarini, shuningdek, axloq qoidalarini yaxshi biladigan kishi deb tasavvur qilar edi. O'qituvchi o'quvchining fe'l-atvorini o'rganishi, uning qalbiga kirib borishi kerak. O'quvchiga aytilgan har bir so'z, Ibn Sinoning fikricha, mimika va imo-ishoralar bilan qo'shib olib borilishi zarur. Ibn Sinoning bolalarga bilim berish jarayonida o'qituvchi xilma-xil metod va usullarni qo'llashi kerakligi haqidagi fikrlari o'sha davr uchun juda muhim va o'ziga xos edi. Faqat shunday qilgandagina u har bir o'quvchining qiziqishlari va iste'dodini aniqlashi hamda bo'lajak kasbini tanlashda unga yordam berishi mumkin.

Tusiy ham o'zining „Ta'lim yo'lida o'quvchiga nasihatlar“ asarida, o'tmishdoshlari kabi, o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabat haqidagi masalaga to'xtalib o'tgan. O'quvchi o'qituvchiga ishonishi kerak, chunki o'qituvchi bilimlarni o'zlashtirishda katta tajribaga ega. Bu tajriba unga kimga qanaqa bilimlar kerakligini bilib olishiga yordam beradi. Tusiyning fikriga ko'ra ta'lim va tarbiyada o'quvchi, o'qituvchi va otaning birgalikdagi sa'y-harakatlari zarur. O'quvchi o'qituvchi ma'lum qilgan barcha narsalarni o'zlashtirib olishi va ularni takrorlab borib, xotirada mustahkamlashi lozim. U o'rganilayotgan materialni aniq tushunishi darkor. Agar, avval boshdanoq, o'quvchi bunga o'rgatilmasa, unda yomon bilimlar va yomon odatlar butun umrga unga hamroh bo'ladi. „O'quvchi, — degan edi Tusiy, — tirishqoq, yoqimtoy va qat'iyatli, barcha topshiriqlarni bajarishda g'ayratli, sabr-matonatli bo'lishi, hamma narsani biladigan va tarbiyali inson bo'lish uchun yoshlik yillaridan oqilona foydalanishi kerak“.

O'qituvchi bolalarning aql-idrokiga ta'sir ko'rsatish uchun mas'uliyatni o'ziga olishi kerak. Asosiy vazifa — o'quvchilar mehrini



qozonish, ishonchiga kirish. Bu o'rinda o'qituvchi bamisoli tabib bo'lishi kerak, degan edi Tusiy, chunki bemorning tuzalishi ko'p jihatdan uning o'zini davolayotgan tabibga qanchalik ishonishiga bog'liq.

Tusiy o'qituvchilarga munozara olib borish, fikrlarni rad etib bo'lmaydigan dalillar bilan to'ldirish, o'zi gapirayotgan narsaning to'g'riligiga chuqur ishonish, nutqining sofligi, bayon qilayotgan fikrlarning mantiqiyliigi kabi talablar qo'yadi. O'qituvchi samimiy bo'lishi, shoshilmasdan, ishonarli qilib, sharoitga ko'ra tovushini goh balandlatib, goh pasaytirib gapirishi zarur. „O'qituvchining nutqi achchiq, zaharxandali yoki qahrli bo'lishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi“, — deb yozgan edi Tusiy. Dars vaqtida o'zini tuta bilmaslik ishga zarar yetkazishi mumkin.

O'rta asrlardagi Yaqin va O'rta Sharq olimlarining pedagogik qarashlari ularning fanga, kishilik jamiyatiga, axloqqa bo'lgan qarashlaridan, falsafiy izlanishlaridan kelib chiqadi.

Quyida biz ko'rib chiqayotgan muammoga taalluqli bo'lgan boshqa misollarni ko'rib o'tamiz. Masalaga chuqurroq nazar tashlaymiz.

Bizning pedagogikamizda uzoq davr mobaynida shunday holat saqlangan ediki, bunga ko'ra tarbiyaning ijtimoiy tabiati faqat dabdaba bilan aytilardi-yu, aslini olganda, hisobga olinmas edi. Buning uchun XX asrning 70-yillarida nashr qilingan pedagogika darsliklariga nazar tashlash yetarli: ularda tarbiyaga pedagogning bolalar qobiliyatini rivojlantirish, ularni bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish yuzasidan olib boradigan amaliy faoliyati sifatida bir tomonlama qarash ko'rinib turadi.

Olimlar e'tiboridan yana bir muhim jihat — shaxsning o'zini muhitga, uni qayta qurish va o'zgartirishga ta'siri; bu ta'sir jarayonida shaxsning faollik ko'rsatib, yangi xususiyatlar egallab borishi chetda qolib ketar edi.

K. D. Ushinskiy tarbiyani „keng“ va „tor“ ma'nodagi tarbiyaga bo'lganida u go'yo bir butun bo'lib birlashar va pedagogning faoliyati bilan tenglashtirilalar, bolani o'rab turgan hamma narsa (tabiat, madaniyat, odamlar va tevarak-atrofdagi olam obyektlari) go'yoki mavjudligini va tarbiyaviy ta'sirini yo'qotar edi.

I.F.Kozlov bu kamchilikni bartaraf etdi. U yosh avlodni tarbiyalashni obyektiv va qonuniy, hayotiy hodisa sifatida farqlashni tavsiya etadi. Bu hodisa jarayonida ishlab chiqarish va insoniyatning hayotiy tajribasi o'zlashtiriladi (boshqacha aytganda, „keng“

ma'nodagi tarbiya) va shu o'zlashtirishga yordam bergan pedagogning amaliy faoliyati ro'y beradi („tor“ ma'nodagi tarbiya).

Shaxsning rivojlanishi bir daqiqa ham to'xtamaydi, ammo bu rivojlanish vektori o'zgarishi mumkin. Pedagogning vazifasi tarbiya jarayonini bolaning insoniyat madaniyati tomon „ko'tarilishiga“ yo'naltirishdan iborat. Lekin u bularni zo'rlamay, majburan qabul qildirmasligi, balki insoniyat tomonidan ming yillar davomida hosil qilingan tajriba va madaniyatni mustaqil ravishda o'zlashtirib olishiga yordam berishi kerak.

Mazkur vazifaning hal etilishi bir necha savollarga berilgan javobga bog'liq. Avvalo, bola faollik ko'rsatib, tevarak-atrofdagi olam bilan o'zaro ta'sirga kirishganda u bilan nimalar ro'y berishini, ya'ni uning rivojlanishi qanday qonunlarga binoan amalga oshishini aniqlash lozim. Bundan tashqari, tarbiyaning maqsadi nimalardan iboratligini, nimaga intilish, qanday natijaga erishishni aniq tasavvur etish kerak. Ana shu ikki masala bo'yicha bir to'xtamga kelgach, pedagog nimani, qanday bajarish kerakligini hal etishi mumkin.

Bu masalalarning har biri juda katta pedagogik muammodan iborat bo'lib, maxsus va ko'pqirrali o'rganishni taqozo etadi. Olingan bilimlar bolaning olamda to'g'ri mo'ljal olishi uchun asos hisoblanadi, bularsiz u hayotda yashay olmaydi; ehtimol shuning uchun bugungi maktab didaktik vazifaga alohida urg'u beradi va bunda tarbiyani ta'limga yaqinlashtiradi.

Nima uchun bizni bolaning munosabati qiziqtiradi-yu, uning xulq-atvori tashvishlantirmaydi? Subyektning munosabati uning tevarak-atrofidagi olam bilan o'zaro ta'sirida uning xulq-atvori xarakterini belgilaydi? Agar pedagog o'z diqqat-e'tiborini bolaning xulq-atvoriga qaratsa, demak, u bolaning tarbiyalanganlik darajasi haqida xayoliy tasavvurlar asoratida bo'ladi: yaxshi tasavvur qoldirish, tuzalish istagi kabi yashirin motivlar: o'ziga diqqat-e'tiborni qarataish, biror-bir kishining xayrixohligini uyg'otish va shu kabilar shaxsiy manfaat olish uchun o'zaro hamkorlikning muayyan uslubini qabul qildirishi mumkin. Lekin tashqi namoyon bo'ladigan shakldan jiddiy farq qilishi ham mumkin. Maktab o'qituvchilari, ota-onalar ham bunga taalluqli ko'plab misollarni biladilar. Bularni shunda ko'rish mumkinki, kechagina ko'ngildagidek tarbiyali bo'lgan bola birdaniga kattalarning tunlarni bedor o'tkazish va huzur-halovatini yo'qotishiga sabab bo'ladi.

Pedagogning bolaning munosabatiga ko'rsatadigan ta'siri bola shaxsiga nozik, alohida yondashuv asosiga quriladi; hozirgi zamon

ilmiy tushunchalarida bu pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'sirdir. Pedagogning vazifasi — bola uchun har jihatdan qulay psixologik muhit yaratadigan, uning o'zigagina xos bo'lgan „men“ini rivojlantirishga yordam beradigan va ijtimoiy qadriyatlar asosidagi munosabatlarni shakllantiradigan ta'sir ko'rsatish usulini tanlashdan iborat.

## **Ta'sir ko'rsatishning pedagogik texnologiyasi elementlari**

a) Pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy elementlari mazmuni.

Ta'sir ko'rsatishning pedagogik texnologiyasi tarkibiy qismlarini aniqlash uchun sof pedagogik misolni amalda ko'rib chiqamiz hamda uni funksional-operatsion yondashuv nuqtayi nazardan tahlil qilamiz.

O'qituvchi o'quvchidan: „Sobirjon, Naimaga yordam ber!“ — deb so'raydi. Lekin bola biror narsa qilishga urinib ham ko'rmaydi. Ikkinchi variant: „Sobirjon, agar senga qiyinlik qilmasa, iltimos, Naimaga yordam bergin“.

Bunday oddiy murojaat, ta'sir ko'rsatish momenti sifatida bir qator zarur va yetarli elementlardan iborat, chunki mana shu qisqagina iborada va u bilan birgalikda ko'rsatiladigan imo-ishora ifodasida pedagogik ta'sirning ikki vazifasi ro'yobga chiqadi: subyektning faolligi paydo bo'ladi, mustaqil tanlash amalga oshiriladi.

Ta'sir ko'rsatish momentining tahlili batafsil qarab chiqilganda shu narsa ma'lum bo'ladiki, pedagog o'quvchi bilan subyekt-subyekt munosabatini o'rnatadi, uni ijtimoiy qimmatli pozitsiyaga olib chiqadi. Bunda o'qituvchi unga otini aytib murojaat qiladi. Bu esa bolaning o'qishda ochilishiga yordam beradi. Taklifning biror faoliyatga undaydigan shakli subyektni faollashtiradi, muomalaning muloyimligi birga qatnashish elementini kiritadi, beriladigan axborot xatti-harakat usulini ma'lum qiladi. Iboraning umumiy ohang bir subyektning boshqasiga yordam ko'rsatish istagini shubha ostiga olishini istisno qiladi, bu yetarlicha yuqori madaniyat darajasida amalga oshirilayotgan xatti-harakatni ich-ichidan baholashga yordam beradi.

„Muomalada o'quvchini ochish (kashf etish)“ yo'nalishiga ega bo'lgan, o'quvchini shaxs sifatida ochilishi uchun psixologik jihatdan qulay sharoitlar yaratish orqali amalga oshiriladigan, darsda ham, darsdan tashqarida ham o'quvchiga „tashkil etiladigan aloqada qatnashish“ istagini uyg'otadigan pedagogik munosabat — ta'sirni ta'minlaydigan narsani — „o'quvchi sha'niga ijobiy fikr

bildirmasdan turib“ (bunda o‘quvchining qandaydir afzalliklari hammaning oldida aytiladi) ro‘yobga chiqarish mumkin emas.

Ijtimoiy norma darajasida „obrazni kiritish“, „faoliyatni rag‘batlantirish“ va „chetga chiqish, buzilishlarni to‘g‘rilash“ vazifalarini ta‘minlaydigan pedagogik baho o‘quvchi tomonidan baho sifatida idrok qilinmay, yashirin tartibda amalga oshiriladigan bahoni operatsion gavalantirish ta‘sirida berilishi mumkin. Buning uchun „Men — xabar“, „Sen — xabar“ kabi xilma-xil usullardan foydalanishi mumkin.

O‘qituvchining munosabati, muomalasida ishtirok etadigan yana bir texnologik element bolani faoliyatga „jalb qilish“, uni xilma-xil faoliyat turlariga „tortish“ va o‘zini hozirgi zamon madaniyati darajasida namoyon qilish vazifasini bajaruvchi pedagogik talabdir.

O‘z timsolini ana shu qisqagina muomala momentida topgan yana bir texnologiya elementi — konfliktidir. Bolani faollashtirar ekan, pedagog har qanday o‘ng‘aysizlikni („Men qizga yordam beryapman, bu vaqtda esa hamma bolalar menga qarab turishibdi va ular meni u qizning ko‘nglini olishga intilyapti deb o‘ylashlari mumkin, lekin men sir tutiladigan narsalarni hammaning bilishini istamas edim“) va psixik zo‘riqishni bartaraf etishga harakat qiladi. Psixik siqilish holatida faollik ko‘rsatish qiyin odamda tashqi qo‘zg‘atuvchilarga himoya yoki javob choralari ko‘riladi, xolos.

Subyektlarning bir-birlariga ikki tomonlama yon bosish xarakteridagi kompromis (murosa) pedagogik konfliktning yetakchi operatsiyasi sifatida namoyon bo‘ladi. Aniq bir holatda oladigan bo‘lsak, o‘quvchilar yozma kontrol ishi yozishdan bosh tortadilar, kompromisga moyil o‘qituvchi, nima bo‘lsa ham uni o‘tkazishni qat‘iy talab qilmaydi, balki o‘zi biror variantni taklif etadi yoki o‘quvchilar bilan birga boshqa bir variant izlaydi. Natijada ikki tomonlama yon bosish yuzaga kelgan vaziyatdan chiqishning eng ma‘qul yo‘li bo‘ldi. Ana shu yon bosishning o‘lchovi shu bilan belgilanadiki, o‘quvchilar qiyinchiliklar oldida bo‘sh kelmaydilar yoki har qanday ishga uni yaxshi bajarishga tayyor bo‘lgandagina kirishish kerak, tasodif va omadga ishonish yaramaydi, deb hisoblaydilar.

Insoniyatning ijtimoiy tajribalari og‘zaki axborot va namoyish qilish (ko‘rsatish) orqali ta‘sir etish yo‘li bilan beriladi. Bu ta‘sir „tushunarli va obrazli-tasavvurli bilimlarni kiritish“, „munosabatlarni namoyish etish“, „faoliyatga jalb etish“ vazifalari orqali amalga oshiriladi. Bu vazifalarning har biri verbal va noverbal rasmiylashtirilishi mumkin. Bu o‘rinda birinchi navbatda mantiqiy jihatdan uchta ha: tezis, argument, misol (namuna) mujassamla-

nadi. Uning amalga oshirilishi har bir bolaga o'qituvchi tavsiya etayotgan iboraning mazmunini qisqa va aniq fikr yuritish darajasida yoki mazkur tezis sabablarini oshkor qilish jarayonida, yoki obrazli rasmni topshirish jarayonida tushunishga yordam beradi. Masalan, o'qituvchi ta'til vaqtida bajarish uchun topshiriq berar ekan, shunday deydi: „Oldinda sizni qiziqarli, faol va mustaqil hayot kutmoqda. Siz sayohatga borishingiz, sport bilan shug'ullanishingiz, ko'plab kitob o'qishingiz mumkin. Sizning faollingiz o'zingizning istak va qiziqishlaringiz bilan belgilanadi. Kuzda uchrashganimizda esa o'z taassurotlarimiz bilan o'rtoqlashamiz, o'shanda xuddi o'tgan yildagidek biz quvnoq kayfiyatda bo'lamiz“.

Ta'sir ko'rsatishning pedagogik texnologiyasi tarkibiy qismlarining belgilangan sistemasida pedagogik texnika deb ataladigan element o'rin olgan. Bu elementning amalga oshirilishi ta'sir ko'rsatish asbobining tayyorgarligini ta'minlaydi. Bunday asbob pedagog organizmidir. Tayyorlanmagan, sozi buzuq musiqachining sahnaga chiqishini tasavvur qilish qiyin. Bu asbobning sozlanishi psixofizik apparatni tayyorlashdan iboratdir: nafas olish mashq qilinadi, ashulachiga o'z ovozidan foydalanib ashula aytish o'rgatiladi, plastik va mimik ifodalilik mashq qilinadi, maxsus mashqlar bilan sur'at ritmini tushunishga erishiladi.

Sistemaning har bir elementi ma'lum bir shaklda pedagogik ta'sir ko'rsatishning uch funksiyasini o'zida mujassamlashtiradi: subyektning faolligini, uni faoliyat usullari bilan qurollantirish hamda individual tanlovini rag'batlantirish. Agar amalda o'qituvchi qandaydir bir elementdan foydalansa, kasbiy jihatdan bunday cheklanganlik o'quvchini subyektlilikka olib kelmaydi, balki uni obyekt pozitsiyasida qoldiradi. O'qituvchi ana shu obyektga ta'sir o'tkazadi, buyruqlarning bajarilishini kuzatib boradi va olingan natijalarni baholaydi.

Pedagogik texnologiyani o'zlashtirib olish sistemasida barcha elementlarning qisqacha ta'sir ko'rsatish aktida mujassamlashuvidan va ularni bilishdan iboratdir. Bunda shuni ham aytish kerakki, bilish malaka darajasiga yetgan bo'lishi kerak. Zero, pedagog aynan shu momentda nima qilish kerakligini o'ylab o'tirmasin (chunki o'ylash uchun vaqt ham bo'lmasligi mumkin), balki texnologik jihatdan savodli ta'sir ko'rsatsin.

Endi pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismlari o'rtasidagi aloqalarni tasavvur qilish uchun sxemada aytilgan barcha narsalarni yaqqol ifodalashga urinib ko'ramiz.

Ana shu muomala bloki orqali, pirovardida, texnologik ta'sir sistemasini hosil qiluvchi funksional blok ko'rinib qoladi. U esa quyidagilarni o'z ichiga oladi: pedagogik munosabat, pedagogik baho, pedagogik talab, pedagogik konflikt, informativ ta'sir. Bu elementlarning namoyon bo'lish darajasi ta'sir ko'rsatish asbobi sifatida pedagog organizmining psixofizik tayyorlanganligi (element — pedagogik texnika)ga to'g'ridan to'g'ri bog'liqdir.

Pirovardida mukammal texnologik qaror pedagogik ta'sirning umumiy vazifalari amalga oshirilishi — faollikni oshirish, faoliyat usullari bilan qurollantirish, rivojlanish, kamolotni rag'batlantirish va bola shaxsining individual pozitsiyasi namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Aniqlangan elementlar, belgilangan vazifalar va muayyan asosiy operatsiyalar bilan birga, pedagogik texnologiya elementlari mohiyatini tashkil etadi, pedagog uchun zarur bo'lgan va uning tarbiyalanuvchiga ta'sir etishiga doir (bola ana shu ta'sir jarayonida va natijasida subyekt sifatida namoyon bo'ladi) professional malakalari sistemasini ta'minlaydi. Biroq pedagogik texnologiyaning mazmuni bular bilan tugallanmaydi: psixologik muhit, guruhli faoliyat, biror-bir xatti-harakat, ishga pedagogik ta'sir kabi qo'shimcha (butlovchi) elementlar ham bo'ladi. Muhitni tashkil etish va boshqalar umumlashtiruvchi yoki xususiy xarakter kasb etadi. Bular ta'sir ko'rsatish shakllarini xilma-xil qilishga va har bir o'qituvchining o'ziga xosligini saqlab qolishga imkon beradigan operatsion, variativ qatorga ham taalluqlidir.

b) Ta'sir ko'rsatish pedagogik texnologiyasining muhim operatsiyalari.

Muhim operatsiyalar — bu pedagogik texnologiyaning boshlanishi. Ularni egallamasdan turib, oldinga harakat qilish, ilmiy texnologik bilim xazinalarining ancha murakkab elementlarini bilish mumkin emas.

Pedagog muhim malakalar sistemasini egallab olar ekan, operatsiyalarning o'zinigina o'zlashtirib olmaydi, balki ularning o'zaro aloqalari va o'zaro bog'liqliklarining nozik tomonlarini, bolaga har bir ta'sir ko'rsatishida ularning amalga oshirilishi bir daqiqaliligini ilg'ab oladi, uning oldida bir xildagi operatsiya (ish)ning ijodiy rang-barangligi namoyon bo'ladi.

*Pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari:*

1. Yangi ijobiy sifatlarni yaratuvchi, ularning rivojlanishiga yordam beruvchi usullar.

2. Salbiy sifatlarni yengib o'tishga to'sqinlik qiluvchi, yordam beruvchi usullar.

3. Portlash usullari: ular ham yaratuvchi, ham to'sqinlik qiluvchi usul sifatida namoyon bo'ladi.

*Pedagogik ta'sir ko'rsatish prinsiplari:*

- 1) pedagogik optimizm;
- 2) tarbiyalanuvchiga hurmat;
- 3) o'quvchining ruhiy holatini tushunish;
- 4) qilingan xatti-harakat, ishlarining motivi va tashqi jihatlari yechib berish;
- 5) bolaning taqdiri bilan qiziqish.

Bunday tasnifning kamchiligi unga bolani qo'zg'atishi, yo'naltirishi, unga imkon berishi, uni bo'shashtirishi, faollashtirishi, ilhomlantirishi mumkin bo'lgan ta'sirlarning kiritilmaganligidir.

Ta'sir ko'rsatishning maqsadi bolaning subyektivligidir; ta'sir ko'rsatishning mumkin bo'lgan maksimal natijasiga erishish mavjud holatga va aynan pedagogning o'ziga bog'liq.

Birinchi elementar darajada pedagogning prinsipial pozitsiyasi uchta muhim operatsiyalarda amaliy ifodasini topadi.

Birinchi muhim operatsiya — „Men — xabardir“. Uning amalga oshirilishi subyektning o'z holatini ma'lum qilish hamda boshqa subyektning qilgan ishlari va xatti-harakatiga munosabati bilan bog'liq. Buning uchun o'qituvchi, birinchi navbatda, oddiy voqeadan hayotiy voqea-hodisani ko'ra bilishi hamda uni o'zi uchun va boshqalar uchun belgilab olishni o'rganishi lozim.

„Men — xabar“ paradigmatlari quyidagi tarzda ko'rinadi: „Men har doim...“, „Menga doimo...“, „Men hamisha...“. Ana shu nutqiy ifodadan foydalanish tarbiyachining mazkur usulni amalda yo'lga qo'yishini yengillashtiradi.

„Men — xabar“ verbal variantdan tashqari plastikomik ifodaga ham ega bo'lishi mumkin. Bunday holatda pedagog o'zining materialni bayon qilishini gavdaning turishi (vaziyati), yuzining ifodasi, o'zining ishtiroki yoki shiddat bilan chiqib ketishi kabilar bilan namoyish qiladi. Bunday holatlarda „Men — xabar“ning individual variantlari juda ham ko'p bo'lishi mumkin. Bu esa o'qituvchining u yoki bu ish (xatti-harakat)da qanday hodisani ko'rishi bilan bog'langan. „Jazolash“ yoki „ma'qullash“ning qanday varianti amalga oshirilishi ham ana shunga bog'liq. Chunki faqat bolalar bilan ishlaydigan pedagoggina ularning tarbiyaviy harakati di-

namikasi va tendensiyasini biladi. Shuning uchun o'quvchilari shaxsining rivojlanishi nuqtayi nazaridan hozirgi paytda qanday mazmunni bayon qilish kerakligini faqat uning o'zi hal qiladi.

Ikkinchi muhim operatsiya — „ijobiy quvvatlash“ — munosabatga kirishgan subyektlarni „barrikada (to'siq)lar“ning turli tomonlariga bo'lib yubormaydi, balki, aksincha, ularning o'zaro munosabatlarining rivojlanishiga yordam beradi.

„Ijobiy quvvatlash“ sherigining o'ylab chiqilmagan, balki haqiqatda mavjud bo'lgan afzalliklarini hammaning oldida oshkora e'lon qilishdan iboratdir. Afzalliklar mehnatsevarlik, diqqat-e'tibor, sabr-toqatlilik, tirishqoqlik, to'g'rilik va murosasizlik, mas'uliyat va hokazolardir. Ba'zan pedagoglar ayrim o'quvchilarda munosib sifatlarni topishi qiyin, ba'zan esa mumkin ham emas, bordiyu, „ijobiy quvvatlash“ usulini qo'llasak, ularning ikkiyuzlamalik yoki mug'ambirlik qilishiga to'g'ri keladi deb noliydilar. Shunga o'xshash, qiyinchilik paytlarida bolaning tashqi jismoniy xususiyatlariga: baland yoki past bo'y, to'g'ri (silliq) yoki jingalak sochlar, qorachadan kelgan yoki oppoq, ba'zan, gavda tuzilishining nozik yoki alpqomatiligi, harakatlarning chaqqon yoki salmoqliligi, tekisligi va hokazolarga urg'u beriladi. Mazkur operatsiyaning paradigmasi sifatida: „Sen bundaysan...“, „Siz undaysiz...“, „Sizlar... shundaysiz...“ kabi iboralardan foydalanish mumkin.

Ikki operatsiya — „Men — xabar“ va „ijobiy quvvatlash“ operatsiyalarining birga qo'shilishi natijasidagi ta'sir pedagogning ilgari lab boradigan harakati mantig'ini aniqlab beradi: u o'zining ahvolini umuminsoniy normalarning buzilishi yoki ular timsoli bilan bog'liq holda ma'lum qiladi; bola bilan bo'ladigan munosabat jarayonida azaliy qadriyatlarni mustahkamlash uchun o'zaro munosabatlarni rivojlantiradi va chuqurlashtirib boradi. Bu qadriyatlar esa bolaga tushunarli va uni maftun qiladigan shaklda namoyon bo'lishi kerak. Zero, o'quvchi o'qituvchi bilan bo'ladigan muloqotdan ham, ana shu qadriyatlar bilan tanishganidan ham qanoatlanish hosil qilsin. Faqat shundagina pedagog tarbiyalanuvchi bilan ochiq munosabat o'rnatish mumkin.

Pedagog ta'sir ko'rsatish mavzusini tugallar ekanmiz, uni uchinchi muhim operatsiya — „normaning qat'iyligi“ operatsiyasi orqali tushunishga harakat qilamiz.

O'qituvchi amalda bolalarni kuzatar ekan, ularning qadriyat (norma)ga bo'lgan munosabati ifodasining tashqi ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladigan xulq-atvorini aynan shu qadriyat (nor-



ma)larga va umuminsoniy madaniyatda mustahkamlangan oliy namunalarga bo'lgan o'z munosabati darajasi bilan taqqoslaydi. Asrlar davomida tanlab olingan, qat'iy, madaniy ideal sifatidagi normalarning bajarilishiga bo'lgan talabni translatsiya qilish bunda taqqoslash natijasiga aylanadi.

Protessual jihatdan bu moment texnologik nuqtayi nazardan o'ziga xos xususiyatga ega. Pedagogik ta'sir ko'rsatish obyektrolida bo'lganida bola o'qituvchi talablariga muayyan bir davrgacha (o'z kuchiga ishonch hosil qilgunga qadar) bo'ysunadi yoki moslashadi. Biroq bu qoidalar uning hayoti normalariga aylanmaydi, chunki unga tashqaridan majburan qabul qildiriladi. Pedagogning normaga norma uchun deb ish tutishi uni o'z o'quvchilarini ko'r-ko'rona qo'pol va qattiq intizomga rioya qilishga majbur etadi.

„Normaning qat'iyligi“ — bu ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatli dalillarni o'quvchilarga ochib berish, boshqacha qilib aytganda, bu talablarga rioya qilish kishilarga, mamlakatga, shahriga, maktabiga, sinfiga va ayrim kishiga, inson sifatida o'quvchiga nimalar berishini ochib berishdir. Bu o'rinda paradigmatlar shunday bo'lishi mumkin: „bu narsa sening uchun ham kerak, chunki...“, „bu bizlarga ham kerak, chunki...“, „lekin bu senga ham kerak, chunki...“.

O'qituvchining o'quvchilar bilan olib boradigan ish tajribasida bu uch operatsiya bir butun bo'lib qo'shiladi va pedagog texnologiyasining pedagogik munosabat („ijobiy quvvatlash“), pedagogik baho („Men — axborot“), pedagogik talab („normaning qat'iyligi“) kabi tarkibiy qismlarining bir butun, yaxlit ta'sirini hosil qiladi.

Bir marta pedagogik ta'sir ko'rsatishda yuqorida aytib o'tilgan komponentlarning ishtirok etishi bolani subyekt pozitsiyasiga o'tkazilishini ta'minlaydi: uning xatti-harakatlar ortida yashiringan munosabat oshkor bo'ladi, u pedagog bilan ancha chuqur o'zaro munosabatlarga jalb qilinadi va mustaqil tanlash zarurati oldiga qo'yiladi.

#### **TA'SIR KO'RSATISH PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASINING DARSDA QO'LLANILISHI**

O'qituvchi bilan o'quvchining birgalikdagi faoliyatida o'zaro munosabat, o'zaro bir-birini qabul qilish, qo'llab-quvvatlash, ishonch va boshqalar ta'sir ko'rsatishning asosiy parametrlari hisoblanadi.

Birgalikdagi faoliyat mazmunini chuqurlashtirishga, ta'limning sifati va samaradorligiga olib boriladigan tadbirlarni jadallashtirish bilan emas, balki, avvalo, munosabatlarning ijodiy xarakterini rivojlantirish, uning madaniyatini oshirish bilan erishiladi.

Masalan, pedagogik jarayondagi ijodiy o'zaro munosabatlarining rivojlanishi o'quvchilarning pedagogning rag'batlantiruvchi rolini ixtiyoriy ravishda qabul qilishi bilan bog'liqligi aniqlangan. O'qituvchining rag'batlantiruvchi roli bolalarning undan o'rganishga, u bilan muomalada bo'lishga, unga taqlid qilishga intilishida namoyon bo'ladi. Ammo bunday o'zaro munosabatlar pedagogning o'zidan ayrim shaxsiy parametrlarni talab etadi. Bular qatoriga o'qituvchining ma'naviy, axloqiy qiyofasi, kasbiy jihatdan chuqur bilimga egaligi, hozirgi maktabni va ilg'or pedagogik tajribalarni bilishi, pedagoglik madaniyati, ishga ijodiy munosabati, kasbdoshlari bilan hamkorlik qila olishi kabi xususiyatlarini kiritish mumkin. Aynan shunday holatda shaxs shaxs tomonidan tarbiyalanadi.

Shunday qilib, insonparvarlik yo'lini tutgan pedagog o'quvchining maktabga kelgan dastlabki kunlaridanoq u bilan shaxsning rivojlanuvchi dialog rejimida o'zaro hamkorlik qiladi, unga buning ko'pgina niyatlari, istagi, fikrlarini aytib rag'batlantiradi. Bunda pedagog o'quvchiga go'yo u haqiqatda ham ana shu his-tuyg'u va fikrlarning egasi bo'lganidek ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchi kamol topib borishiga qarab uning o'qituvchi bilan bo'ladigan o'zaro hamkorlik strukturasi o'zgaradi — pedagogik ta'sirning passiv obyektidan o'quvchi asta-sekin ijodiy shaxsga aylanadi.

Pedagog o'quvchilarga faqat o'quv ishlarida emas, balki shaxsiy vazifalarni hal etishda ham yordam beradi. (Bu vazifalar ichida o'quvchi statusining qaror topishi eng muhim vazifalardan biridir.) Biroq ta'lim-tarbiya ishida o'quvchining o'zlashtirishi butun o'qish davri mobaynida uning muvaffaqiyatsizligi yoki erishgan yutuqlarining asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Yuqori o'zlashtirish, odatda, ota-onalar va o'qituvchilarning o'quvchining umumiy behbudligi bilan qo'shib ketadi, past o'zlashtirish esa ma'lum bir qiyinchiliklar, o'quvchi ishining yaxshi emasligidek qabul qilinadi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, pedagog har qanday yoshdagi o'quvchilar uchun obro'li shaxs bo'lishi mumkin, ammo uning obro'yining asosi xilma-xil. Kichik yoshdagi o'quvchilar

uchun o'qituvchi o'zining roli pozitsiyasi nufuzga egaligi tufayli obro'lidir. Shaxsning obro'yiga qaraganda rolning obro'yi haqida ham shu yoshga tatbiqan gapirish mumkin. Shuni ham aytish mumkinki, ayni o'quvchilar uchun ahamiyatli vaziyatda ham, butun sinf uchun ham, o'quv va boshqa faoliyat turlarida ham mas'uliyatli qaror qabul qilish huquqi o'qituvchiga beriladi.

Pedagogning o'quvchilar bilan bo'ladigan munosabati qo'llaniladigan psixologik usullari va ta'sir ko'rsatish mexanizmlari nuqtayi nazaridan yaxshi o'ylangan bo'lsagina samarali bo'lishi mumkin. Masalan, o'qituvchining obro'yi orqali ta'sir ko'rsatish va muomalaning „sirliligi“ni saqlash samaralidir. Bundan tashqari, o'qituvchining o'zini o'zi ko'rsatish malakasi ham katta ahamiyatga ega. Bu o'quvchilarga o'qituvchining obrazini yaratishga, aynan bir xildagi o'zaro ta'sirni modellashtirishga yordam beradi.

Dars — o'qituvchining o'quvchilar bilan munosabatining ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning eng muhim shakli. Darsda o'quvchi o'qituvchining unga tavsiya etayotgan o'quv materialini o'zlashtiradi va u taklif qilgan ish shakllariga jalb qilinadi. U go'yoki bolaga muomala, munosabatni majburan qabul qildiradiki, bu uni vaqt-vaqti bilan qiyin ahvolga solib qo'yadi, chunki u bolaga xos bo'lmagan, uning tabiatida yo'q jihatlardir. Pedagog, shular bilan bir qatorda, bolaning insoniyat madaniyatiga erishish yo'lida uchraydigan qiyinchiliklarni yengib o'tishida unga yordam beradi.

O'qituvchining darsda turish holati o'quvchilar uchun qulaylik yaratadi yo noqulayliklar keltirib chiqaradi va bu bilan ularning munosabati uchun „ochilishlari“ga yordam beradi.

O'qituvchining darsdagi eng munosib plastik obrazi taxminan shunday ko'rinishda bo'ladi:

- ochiq chehra;
- qo'llar gavda bo'ylab pastga tushirilgan yoki tirsakdan bir-oz bukilgan;
- kaftlar vaqt-vaqti bilan auditoriyaga tomon buriladi;
- gavdaning harakatlari nafis, go'zal;
- psixologik imo-ishoralarning tasviriy harakatlardan ustunligi;
- tinglovchilarning diqqatini jalb qilish uchun stoldan auditoriya tomon bir necha qadam tashlanadi va aksincha, diqqat-e'tiborni pasaytirish uchun bir necha qadam orqaga yuriladi.

Darsda o'qituvchi bolalar bilan aloqani „Biz“ pozitsiyasida turib olib boradi: „Biz yangi mavzuni o'rganishga kirishamiz...“, „Biz

yana bir bor... masalaga qaytishimiz zarur“, „...kuchimizni tekshirish vaqti keldi“ va hokazo. Bunday operatsiyadan foydalanish bolalarning aloqa uchun „ochilishi“ga yordam beradi.

O‘zimizni bir daqiqa jahli chiqqan, baqirib-chaqirayotgan o‘qituvchiga qarab turgan o‘quvchilar holatida tasavvur qilaylik. Axir ularning qirq besh daqiqa o‘qituvchining qahr-g‘azabi ostida bo‘lishlariga to‘g‘ri keladi. Bu vaqt ichida ularda „bo‘shashib olish“, psixik zo‘riqishni „olib tashlash“ imkoniyati bo‘lmaydi. Bunday imkoniyatni ular faqat tanaffusda oladilar. Shunda ham ularni navbatchi o‘qituvchining o‘tkir nigohi kuzatib turmagan bo‘lsa. Maktabda tanaffus paytida bo‘ladigan shovqin-suron o‘ziga xos ravishda darslarning sifatiga „tashxis qo‘yuvchi“ vosita bo‘lishi mumkin. Lekin tanaffus ham tugaydi va keyingi dars ham boshlanadi. Agar avvalgi holat yana takrorlansa-chi?... Bunda bola maktabdan butunlay kasal bo‘lib qaytadi va ertasi kuni u bilan pedagog emas, balki psixoterapevtning ishlashiga to‘g‘ri keladi. Moyillikning namoyon etilishi esa bunday holatni istisno qiladi hamda bolalarning ham, o‘qituvchining ham psixologik sog‘ligini mustahkamlab, ularning ijodiy faolligini oshirishga yordam beradi.

O‘qituvchi darsning maqsadi, mazmunini aniq belgilab, ta‘lim vositalari va metodlarini ishlab chiqqan taqdiridagina o‘quvchilarga darsda ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Tuzilishiga barcha asosiy elementlar kiradigan darsni qarab chiqamiz:

Darsning birinchi elementi — tashkiliy qism. O‘quvchilar bilan bo‘ladigan munosabat aynan shu qismdan boshlanadi. Bunga o‘quvchilar bilan salomlashish, o‘quvchilarning darsga tayyorligini, jihozlarni tekshirish, darsga kelmaganlarni aniqlash, ish planini ma‘lum qilish kiradi. Tashkiliy qismning maqsadi — darsda ishchanlik vaziyatini yaratishdir.

Darsning keyingi elementi — yozma uy ishini tekshirish. U qo‘yilgan maqsadga qarab turli metodlar bilan o‘tkaziladi.

Uchinchi element — o‘quvchilarning bilimini og‘zaki tekshirish (yoki so‘rash). Odatda bu ham turli metodlar bilan olib boriladi (individual, umumiy yoki birga qo‘shilgan metodda so‘rash).

Individual so‘rash — bu o‘qituvchining bir bola bilan munosabati, umumiy esa butun sinf bilan bo‘ladigan aloqadir. Bu o‘rinda o‘qituvchining o‘quvchilarga pedagogik talabni qo‘llash yordamidagi murojaati, shuningdek, bolani kelgusi ishlarga „jalb qilish“ funksiyasini bajaruvchi murojaati mavjud.

Darsning to'rtinchi elementi — yangi materialni kiritish. Bu o'qituvchining mavzuni e'lon qilishi asosida yoki uni o'quvchilar tomonidan mustaqil ravishda tahlil qilishi yo'li bilan amalga oshiriladi.

Darsning beshinchi elementi — uyga vazifa berish. Darsning bu qismi topshiriqning mohiyatini va, agar kerak bo'lsa, uni bajarish metodikasini tushuntirish, o'qituvchining uni doskaga, o'quvchilarning esa daftar yoki kundalikka yozib qo'yishini o'z ichiga oladi.

Oltinchi element — yangi materialni mustahkamlash, buni ba'zan dastlabki yoki aynan bir vaqtdagi mustahkamlash ham deb aytiladi, chunki u yangi material bayon qilingan darsning o'zida o'tkaziladi.

Darsning yettinchi elementi — uning tugallanishi yoki darsni yakunlash bo'lib, u tashkiliy tugatilishi kerak, chunki dars faqat o'qituvchining ko'rsatmasiga binoan tugatiladi.

Ijodiy ishlovchi o'qituvchi turlicha izchillikda birikib va almashib keladigan, xilma-xil tip va turdagi darslarni qo'llaydi.

Amaliyot misolida biz rivojlanib boruvchi metodning darsdagi ta'sirini tavsifiya etamiz.

### **Mavzu: So'z turkumlari.**

*Maqsad:* so'z turkumlari haqida umumiy tushuncha berish, buyumlarni, shaxsni, xatti-harakatni, belgini, miqdorni ifodalovchi so'zlar bilan tanishtirish, turli so'z turkumlaridan iborat so'zlarni farqlay bilishga o'rgatish.

#### **1. Uy vazifasini tekshirish.**

*O'qituvchi:* Biz „alifbo“ mavzusini o'rgangan edik. Tekshirib ko'raylik-chi, uni qanday o'zlashtirib olgan ekansiz. Stollaringizda nuqtalar qo'yilgan kartochkalar yetibdi. Nuqtaning yonida harf turibdi. Agar siz nuqtalarni alifbo tartibida birlashtirsangiz, nimaning rasmi chizilganligini bilib olasiz.

• A

|     |     |     |     |
|-----|-----|-----|-----|
| • B | • D | • O | • P |
| • E | • F | • M | • N |
| • G | • H | • K | • L |

• I

• J

Nima hosil bo'ldi?

1-o'quvchi. Menda ... hosil bo'ldi.

2-o'quvchi. Menda hech narsa chiqmadi.

3-o'quvchi. Nima uchun ... hosil bo'lmaganligini bilaman, men hali alifboni yaxshi bilmayman.

*O'qituvchi:* Endi birgalikda ishlaymiz va hech narsa chiqmagan bolalarga yordam beramiz. Bitta ham xato qilmagan bolalar o'ziga „besh“ baho qo'ysin. Kimdagi, bitta yoki ikkita xato qilgan bo'lsa „to'rt“ qo'ysin. Agar xato ko'p bo'lsa, baho qo'yilmaydi. Butun alifboni xor bo'lib o'qiyamiz.

O'quvchilar daftarlarining hoshiyasiga quyidagi baholar qo'yi-shgan: „besh“ — 13 o'quvchi, „to'rt“ — 3 o'quvchi. U shunday izoh berdi: „Menda uchta xato bor edi, lekin birgalikda tekshirish paytida men ularni tuzatdim“.

## **2. Lug'at ishi.**

*O'qituvchi:* doskada lug'atdagi so'zlar...

Kerakli harfni qo'ying va so'zlarni alifbo tartibida yozing.

Mustaqil ishlang.

O'quvchilar ishini bajaradilar.

*Tekshirish.* Komila qo'yilgan harflarni ajratib, so'zlarni ovoz chiqarib o'qiydi.

*O'qituvchi:* Kimda xuddi shunday yozilgan? Kim boshqacha bo'lishi kerak, deb hisoblaydi? Komila nima deb o'ylaydi?

*O'quvchilarning javoblari:* Men Komilaga qo'shilmayman, chunki... so'zi birinchi bo'lishi kerak, unda ikkinchi harf „a“, alifboda u „o“ harfidan oldin turadi.

*Komila:* Ha, men xato qildim, ikkinchi harfga qaramabman.

*O'qituvchi:* Qanday qilib to'g'ri yozish kerakligiga yana bir marta qarang va o'zingizga baho qo'ying. Agar xatolar bo'lmasa, baho „besh“, agar bitta xato bo'lsa „to'rt“, agar undan ham ko'p bo'lsa, chiziq tortib qo'ysin. Kim o'ziga „besh“ baho qo'ydi? (10 o'quvchi) Nima uchun?

*Yo'ldosh:* Men hammasini to'g'ri, xatosiz va batartib yozdim. Besh o'quvchi „to'rt“ baho qo'yibdi.

O'quvchilarning izohlari: Men xatosiz yozdim, ammo xatim xunuk; menda ... so'zida bitta xato bor.

Ikkita o'quvchi baho qo'yishmagan.

So'ngra o'qituvchi juft so'zlarni yana bir bor o'qishni va bu so'zlarni nima birlashtirishini o'ylab ko'rishni tavsiya etadi.

*O'quvchilarning javoblari:* Bu so'zlar qish mavzusida — hozir dekabr oyi qishdan esa hamon darak yo'q; bu so'zlar predmetlar-ni bildiradi; hamma so'zlar ikki bo'g'indan tashkil topgan.

*O'qituvchi:* Sizlardan kim qishni kutyapti va nima uchun qishni yaxshi ko'radi?

*O'quvchilar:* Men qishni yaxshi ko'raman, chunki maza qilib chana uchish, qorbo'ron o'ynash mumkin; biz qordan qo'rg'on

quramiz. Menga qish unchalik yoqmaydi, chunki havo sovuq bo'ladi va ko'chaga ham chiqqim kelmaydi.

*O'qituvchi:* Men qishni yaxshi ko'raman va sizlar uchun gaplar tuzib qo'ydim. Gaplarni yarim ovoz bilan o'qing, ular doskaga yozib qo'yilgan.

Bolalar konki va chanalarni oladilar. Oppoq momiqday qor yog'adi. Yaqinda qish keladi. Qalin qor uyumlari paydo bo'ladi.

O'ylab ko'ring, bu gaplarni hikoya deb atash mumkinmi?

*O'quvchilarning javobi:* Bizningcha, bu hikoya emas, chunki gaplar tartibi bilan kelmaydi.

*O'qituvchi:* Bo'lmasa, menga hikoya tuzishda yordam bering. Stollaringizda gaplar yozilgan poloskalar yotibdi. Ularni shunday tartibda joylashtiringki, hikoya hosil bo'lsin. Latif, o'z hikoyangni o'qi, qolgan o'quvchilar hikoyani tinglaydilar va o'z hikoyalarini Latifning hikoyasi bilan solishtiradilar. (Latif hikoyani o'qiydi.) Nima deysizlar?

*O'quvchi:* Men bunga qo'shilmayman. Avval qor yog'adi, keyin esa qor uyumlari paydo bo'ladi.

*O'qituvchi:* Boshqa variantni o'qing. Endi o'z hikoyangizni baholang. Agar gaplar tartibi bilan turgan, xatosiz va chiroyli yozilgan bo'lsa, „besh“ baho qo'ying, agar bitta xato bo'lsa — „to'rt“, xatolar ko'proq bo'lsa — chiziqcha qo'ying.

*Natijalar:* „besh“ — 12 ta, „to'rt“ — 5 ta.

### **3. Yangi mavzu.**

*O'qituvchi:* Biz darsda siz bilan ko'p mulohaza yuritdik, yozdik, bularning hammasini bir so'z bilan nima deb atash mumkin?

*O'quvchilar:* Ish; bu nutq; og'zaki va yozma nutq, gaplar; so'zlar.

*O'qituvchi:* Bizning nutqimiz so'zlardan tashkil topadi, har bir so'z esa nutqning qandaydir bir bo'lagi. Darsimizning mavzusi „So'z turkumlari“. Men hikoyadan quyidagi so'zlarni yozib oldim: qish, momiqday, keladi, bolalar, yog'adi, katta. Ularni uchta guruhga shunday bo'lingki, har bir guruhda bir so'z turkumidagi so'zlar bo'lsin. Tekshiramiz. Noila, o'qi.

*Javob:* Qish keladi; momiqday qor yog'adi.

*O'qituvchi:* Kim bunga qo'shilmaydi?

*G'ofir:* Men (boshqa guruhlarni aytadi): qish; bolalar; katta, momiqday; yog'adi, keladi.

*O'qituvchi:* Kimning fikriga qo'shilasiz? (O'quvchilarning bir qismi Nilufarga, bir qismi Jasurga qo'shiladilar.) To'g'ri, so'zlarni

juftlarga turlicha bo'lish mumkin, lekin bugun ishimiz uchun bizga Jasur tuzgan guruh kerak. Har bir juftlikdagi so'zlarga qanday savollar berish mumkinligini o'ylab ko'ring.

Shundan so'ng o'quvchilar har bir juftlikka savollar qo'yadilar hamda buyumlarni, shaxsni, harakatni ifodalaydigan so'zlarni belgilaydilar.

#### **4. Mustahkamlash.**

*O'qituvchi:* Darslikni oching,... mashq. Topshiriqni o'qing. Nima qilish kerakligini kim tushuntirib beradi?

Shundan so'ng mashqning birinchi qatoriga izoh bergan holda, ikkinchi va uchinchilari esa mustaqil ravishda bajariladi.

*Tekshirish.* Sobir javob beradi. Natija taqqoslanadi va har bir o'quvchi tomonidan baholanadi.

#### **5. Mustaqil ish.**

Doskaga surat (rasm) ilib qo'yiladi. Uning mazmuniga muvofiq buyumlarni va shaxslarni ifodalagan so'zlarni yozish kerak.

*Tekshirish.* Damin o'z so'zlarini o'qiydi, qolgan bolalar tekshiradilar, ya'ni: ayiq, quyon, Salima, pishloq, tulki, olmaxon, daraxt, to'nka, quyosh va hokazolar buyum yoki shaxsni ifodalash-ifodalamasligini aniqlaydilar.

#### **6. Darsni yakunlash.**

*O'qituvchi:* Qanday so'zlarni o'rgandingiz?

*O'quvchilar:* Buyumlarni va shaxsni, belgini, harakatni, miqdorni bildirgan so'zlarni o'rgandik.

*O'qituvchi:* Darsda nimalar yoqdi?

*O'quvchilar:* So'zlarni guruhlarga bo'lganimiz, qanday qilib archani chizganimiz va surat bo'yicha ishlaganimiz, qanday qilib hikoya tuzganimiz, ammo qiyin bo'ldi, lekin qiziqarli.

*O'qituvchi:* Darsda nimalar yoqmadi?

*O'quvchilar:* Xatolar qilish yoqmaydi va „besh“dan kam baho olish ham.

Darsda quyidagi baholar qo'yildi: „besh“ — 12 ta, „to'rt“ — 5 ta. Boshqa baholar yo'q. Misol tariqasida keltirilgan dars konseptini tahlil qilar ekanmiz, shunday xulosaga keldik: o'qituvchi aloqa, muomala jarayonida majburlashga qaraganda ko'proq ishon-tirish bilan ish ko'rar ekan.

Bu yerda o'qituvchi ishni yaxshi tashkil etishni, sinfda qulay psixologik muhit yaratishni biladi. Uy ishini tekshirishda o'qituvchi bolalarga mehribonlik bilan munosabat ko'rsatadi. Ayrim o'quvchilarning aniq mazmundagi materialni o'zlashtirib olishda



qiynalsalar uning psixologik sababini aniqlashga, shuningdek, o'quv vazifalarini hal etishda mavjud qiyinchiliklar, xatolarni bartaraf etish uchun tuzatishning psixologik jihatdan asoslangan turini tanlashga qodir.

Konspektda esa o'quvchilarni faol tafakkur faoliyatiga undovchi, ularni mustaqil izlanish yo'liga jalb qiluvchi topshiriqlar mavjud. O'qituvchi o'z faoliyati jarayonida o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatadi, ya'ni o'quvchini tegishli faoliyat turiga (kartochkalar bilan ishlash, rasmlar yuzasidan olib boriladigan ishlar — qiziquvchanlik elementlari, o'z-o'zini nazorat qilish malakalarini shakllantirish va hokazo) undaydi, rag'batlantiradi, kirishishiga yordam beradi.

Tarbiyani bolaning tevarak-atrofidagi olam bilan uyushgan holdagi o'zaro ta'siri deb qarar ekanmiz, biz uning birinchi bosqichi — ta'sir ko'rsatishga e'tibor berdik. U moddiy olamdagi turli obyektlardan kelib chiqishi va subyektiv xarakterda bo'lishi mumkin. Pedagogik faoliyatda subyekt-subyektli ta'sir o'quvchida uning atrofidagi voqelikka munosabatini tarkib toptirish uchun muhimdir. Bolaning hayotiy pozitsiyasi sifatida munosabatning saylanma xarakteri pedagogdan shaxsga nozik, san'atkorona yondashuvni talab etadi. Boshqacha aytganda, bolalarga qaratilgan pedagogik ta'sir ijtimoiy-madaniy normalarni ular tushuna oladigan shaklda emas, balki ular uchun jozibali tarzda namoyon bo'lishi kerak. Faqat shunday taqdirdagina pedagog tarbiyalanuvchilarning muomala (munosabat) sohalariga pozitiv ta'sir ko'rsatishga umid qilish mumkin. Bunda bolalarga erkin tanlash huquqi beriladiki, bu shaxsiy hayotda ularning subyektligini ta'minlaydi. Bunda shuni ham yodda tutish kerakki, bolada u yoki bu munosabatning shakllanganligi uning odamlar va predmetlar, umuman, olam bilan bo'ladigan kelgusidagi o'zaro munosabatlarining xarakteriga ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi jamiyatda shaxsning psixologik zo'riqishi shunchali kuchliki, tarbiyaning unga daxldorligi (ta'sir ko'rsatishi) juda nozik, san'atkorona bo'lishi kerak. Boshqacha aytganda, ta'sirni shunday tashkil etish malakasi talab etiladiki, shaxsiy o'zaro munosabatlar uning pirovard natijasi bo'lsin. Uzoq vaqtgacha jamoatchilikning ko'z o'ngida „ta'sir ko'rsatish“ shaxsni manipulatsiya qilish mumkinligi bilan g'ayriqonuniy ravishda tenglashtirildi. Bunday holat bu atamaning pedagogikadan o'rin olishi va undan foydalanilishiga yordam bermadi. Biroq shaxsga daxldorlik muammosi (yoki bugungi kun tili bilan aytganda, pedagogik ta'sirning

tashkil etilishi) uzoq o'tmishda ham o'ziga e'tiborni jalb qilib kelgan.

Birinchiidan, pedagogik ta'sir — bu subyekt ko'rsatadigan har qanday ta'sir emas, jonsiz buyumlar ham ta'sir ko'rsatishi mumkin (masalan, yerga ohista tushayotgan kuzgi barg), biroq o'z mohiyatiga ko'ra u iroda va munosabatlarni tushunish sohibi, binobarin, o'zining „Men“ini boshqa „Men“ bilan, umuman, olam bilan aloqalarini anglovchi subyekt ko'rsatadigan ta'sirdan doimo farq qiladi.

Ikkinchiidan — bu subyekt tomonidan anglanadigan va uning natija haqidagi ideal tasavvur sifatidagi maqsad bilan aniqlanadigan xatti-harakatdir.

Uchinchiidan — bolaning bo'lajak kamolotini oldindan sezish. U pedagogda bolaning tabiatini va tarbiyaning mohiyatini, bolaning individual rivojlanish qonuniyatlarini, pedagogik ta'sirlarning maqsadga muvofiqligini bilish asosida shakllanadi.

To'rtinchiidan — pedagogik ta'sir ko'rsatish ijtimoiy mazmun bilan to'lib-toshgan xatti-harakatdir.

Beshinchiidan — bu obyektni va unga bo'lgan munosabatni anglash asosida amalga oshiriladigan xatti-harakatdir.

Oltinchiidan, pedagogik ta'sir — bu har qanday xatti-harakat emas, balki maqsadga (bolaning subyektivligini rivojlantirishga) erishishga qaratilgan pedagog faoliyatidir.

Pedagogik ta'sir — pedagog faoliyatining alohida turi bo'lib, u bolaning potensial imkoniyatlarini ochishga yo'naltirilgan harakatdir.

Modomiki, pedagogik ta'sir faoliyat turlaridan biri ekan, binobarin u faoliyatning barcha xususiyatlarini, barcha strukturali elementlarini o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi. Bu elementlar qatoriga quyidagilar kiradi:

- natija haqidagi ideal tasavvurni ifodalovchi maqsad;
- faoliyatga kirishayotgan yoki uni amalga oshirayotgan subyektning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatli sabablarini ochib beruvchi motivlar;
- faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan asbob-anjom sifatidagi vositalar;
- faoliyatni baholash va unga tegishli tuzatishlar kiritish.

Shunday qilib, pedagogik ta'sir ko'rsatishning vazifasi bolani faollashtirishdan, uni faoliyatni amalga oshirish usullari bilan qurollantirish va unda individual tanlashni rag'batlantirishdan iboratdir.

Har bir aniq vaziyatda pedagog texnologik qonuniyatlarni, pedagogik ta'sirning umumiy funksiyalarini bilgan va professional jihatdan ahamiyatli bo'lgan malakalar majmuyini egallagan holda ta'lim-tarbiyaviy sharoitlarni hamda ularning mantiqiy, ijtimoiy, psixik va pedagogik nuqtayi nazardan o'zgarish tendensiyalarini professional (ishning ko'zini bilib) tahlil qiladi.



### *Savol va topshiriqlar*

1. Shaxsga ta'sir ko'rsatish texnologiyasining rivojlanishini siz qanday tushunasiz?
2. Shaxsga pedagogik ta'sir ko'rsatish masalalarini o'rganuvchi mualliflardan kimlarni bilasiz?
3. Sharq mutafakkirlarining shaxsga pedagogik ta'sir ko'rsatish g'oyalarini ochib bering.
4. Shaxsga ta'sir ko'rsatish integratsiyasi nima?
5. Pedagogik ta'sir ko'rsatish prinsiplarini ayting.
6. Shaxsga ta'sir ko'rsatish texnologiyasidan foydalanilgan darsni ishlab chiqing.





## XIII BOB. TA'LIM QONUNIYATLARI VA QOIDALARI

### PRINSIP TUSHUNCHASI

„Prinsip“ soʻzining maʼnosi xulqning, xatti-harakatning asosiy qoidasi, yetakchi gʻoya demakdir. Taʼlim qonuniyatlari (prinsiplari) bu — oʻqitish jarayoniga qoʻyiladigan talablar yigʻindisidir.

Biz, hatto, turmushda ham „bu odam prinsipli“ deymiz va bunda oʻsha odamning oʻziga xos qoidalariga, oʻzining prinsiplariga muvofiq ish koʻrishini nazarda tutamiz. Agar kishining xatti-harakatlarida qatʼiy qoidalar boʻlmasa, uni „prinsipi yoʻq“ deb hisoblaymiz.

XV — XVI asrlardagi mashhur olimlar bilishning asosiy qonuniyatlariga faqat oʻqitishning emas, balki axloqiy tarbiyalashning ham yetakchi asosi sifatida qaraganlar.

Forobiy „Namunali taʼlim“ haqidagi risolasida oʻquvchilar oʻzlashtirishi lozim boʻlgan materialni eng yaxshi yoʻsinda bayon qilish masalasiga alohida toʻxtalib, bu ishning ikkita turini tavsiya etgan: ularning biri bevosita sezishga yaqin narsalarni oldingi oʻringa qoʻyishdan va ikkinchisi aqlga yaqin narsalarni olgʻa surishdan iboratdir. U oʻzining fikrini tushuntirib shunday yozgan: „Aql oʻz harakatini avval seziladigan narsalarga, keyin esa aqlga muvofiq yoʻsinda, yaʼni xossalarni sintez qilishga yoʻnaltirishi maʼqul“.

Ibn Sino asarlarida ham didaktikaning prinsiplariga, xususan, koʻrsatmali oʻqitishga qiziqish bilan qaralgan. Ibn Sino inson dastlabki oʻquv mashgʻulotlarida buyumning tashqi xossasini oʻrgansa, oʻsha buyumni va uning tasvirini koʻrib chiqsa, oʻzi mustaqil holda bilimlarni oʻzlashtira oladi, deb hisoblagan. Olim inson haqiqatan mavjud narsalarni yoki ularning tasvirini idrok etishi tufayli unda obyektiv voqelikni toʻgʻri aks ettiradigan tasavvur shakllanishini uqtirgan.

Sharqshunos olim Kindiyning fikricha, insonda ijobiy sifatlarni tarkib toptirishning eng zarur omili uning aql kuchini rivojlantirishdir. Aql kuchi rivojlanmasa, inson umr boʻyi Arastuning kitoblarini oʻqisa ham, ularda ifodalangan fanlarning birontasini oʻzlashtira olmaydi. Bunday odam har qancha urinsa-da, faqat boshqalarning gaplarini takrorlab bera oladigan boʻladi. U hech narsaning mohiyatini tushunmaydi va oʻzlashtira olmaydi. Kindiy

ana shu fikrlarini bayon qilar ekan, o'qitishning ilmiyligi va ong-liligi qoidasini nazarda tutgan.

Pedagog olimlarning yuqoridagi fikr-mulohazalarini umum-lashtirib, xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, o'qitish prinsiplari yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish maqsadlariga muvofiq o'qitishning xarakterini belgilaydigan asosiy yetakchi qoidalardir.

Mana shu prinsiplar qayerdan kelib chiqqan? Ularni kim, qachon va qanday vaziyatlarda ifodalagan?

Prinsiplarni ifodalashga olib kelgan asosiy manba, o'qitish amaliyoti, o'qituvchilarning keyinchalik anglangan, umumlash-tirilgan va tarqalgan tajribasi hamda topilmalaridir.

Biz ijtimoiy rivojlanishga ko'ra o'qitish prinsiplarining o'zga-rishini e'tirof etgan holda an'anaviy ta'riflarni saqlash, ularga faqat zamonaviy maktabning ahvolini aks ettirish zarurligi uchun bosh-qacha mazmun baxsh etish, xususan, yangi maktabga xos ayrim qoidalarni kiritish tarafdorimiz. Masalan, „Umumiy ta'lim maktabi konsepsiyasi“ hamda „Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiyasi“ga muvofiq, butun o'qitish va tarbiyalash tad-birlari ta'limni insonparvarlashtirish hamda demokratlashtirish talablariga bo'ysunishi sababli demokratik qonunlarga, shaxsga in-soniy munosabatlarga asoslangan tarbiyalovchi va kamol toptiruv-chi ta'limning birligi yetakchi qoida bo'lib qoldi.

O'qitishning prinsiplaridan uning qoidalari kelib chiqadi va ular u yoki bu prinsiplarning xususiy qoidalarini aks ettiradi. Masalan, o'qitishning ko'rsatmalilik prinsipi ta'limning ko'rsatmali qo'llanmani hozirlash, o'quvchilarni uni idrok etishga tayyorlash, qo'llanmani ko'rsatish va tahlil qilish kabi qoidalarini taqozo etadi.

O'qitishning tizimlilik prinsipi quyidagi qoidalardan iborat: yangi o'zlashtirilgan bilimlarni ilgari olingan bilimlarga bog'lash, materialni qismlari bo'yicha bayon qilish, o'rganilgan bilimlarni mustahkamlash va hokazo. O'qitish prinsipi butun ta'lim jarayo-niga tarqaldi, ta'limning qoidasi faqat ana shu jarayonning ayrim tomonlari va zvenolaridir.

Y. A. Komenskiy o'zining „Buyuk didaktika“ asarida didak-tikaning prinsiplarini ishlab chiqqanidan boshlab, ularni deyarli barcha pedagog olimlar ko'rib chiqdilar, lekin o'qitish prinsipla-rining soni va mazmunini belgilash xususida hozirgi kungacha bir fikrga kelingani yo'q. Xatto Ilina, Ogorodnikov, Boldirov, Shchukina va boshqalar yaratgan darsliklarda ham mazkur prinsiplarning soni har xildir.

## PRINSIPLARNI TANLASHGA UMUMIY YONDASHISH

Prinsiplarning soni 6 tadan 11 tagachadir. Didaktika tadqiqotchilaridan ayrimlarining asarlarida turli prinsiplar tavsiya etilgan. Masalan, M. I. Skatkin uzluksiz ta'lim tamoyilini hisobga olib, o'qitishning mustaqil bilim olishga o'tish prinsipi joriy etilishini taklif qiladi, shuningdek, o'qishga ijobiy munosabatni shakllantirishga katta e'tibor berib, ta'lim ijobiy asosda olib borilishi prinsipini maqsadga muvofiq deb biladi. Y. K. Babanskiy didaktikaning yangi yo'nalishlaridan biri — optimallashtirish nazariyasini ishlab chiqib, mana shu nazariyaning amaliy yo'nalishini aks ettiradigan uchta yangi prinsipini tavsiya qiladi. Bular esa: 1) ta'limning og'zaki, ko'rsatmali va amaliy, reproduktiv va izlanishli, shuningdek, boshqa metodlar hamda usullarini to'g'ri birlashtirish; 2) ta'limning dars, darsdan tashqari, shuningdek, umum-sinf, guruh va yakka tartibdagi shakllarini to'g'ri birlashtirish; 3) o'quvchilarning o'qishga ijobiy munosabatini kuchaytirish, ularda bilishga qiziqishni, bilimlarga ehtiyojni tarkib toptirishdan iboratdir<sup>1</sup>. Bu prinsiplar hali barqaror prinsiplar tizimiga kirgani yo'q, lekin tajribali pedagoglar pedagogikaning tegishli mavzulari va bo'limlarini o'tishda ulardan foydalanmoqdalar.

### O'QITISHNING YETAKCHI QOIDALARI

O'qitishning har xil prinsiplari tavsiya etilgan va etilayotgan bo'lsa ham, lekin barcha tadqiqotchi-didaktiklar uchun bir qator umumiy prinsiplar mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

1. O'qitishning tarbiyalovchi va kamol toptiruvchi prinsipi.
2. Ilmiylik, tizimlilik va izchillik.
3. Ta'limning amaliy hayot bilan bog'lanishi.
4. Onglilik va faollik.
5. Ko'rsatmalilik.
6. Tushunarlilik.
7. Puxtalik.

Barcha predmet o'qituvchilari hamma sinflarda ana shu prinsiplarga rioya qilishlari kerak. Ammo predmetlarning mazmuniga, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga, ko'rsatmali qo'llanmalar mavjudligiga bog'liq holda prinsiplarning nisbati hamda mazmuni

---

<sup>1</sup> Ю. К. Бабанский. Принцип обучения в современной образовательной школе. — Народное образование. 1979. №2.

o'zgaradi. Masalan, ko'rsatmalilik prinsipi tabiatshunoslikni o'qitish jarayonida tajribalarni namoyish etish bo'lsa, tilni o'qitishda grammatika jadvallarini ko'rsatish, doskaga yozish, sxemalarni chizish va hokazolardan iborat bo'ladi.

Lekin har qanday predmetni o'qitishda jonli mushohada, ya'ni narsa va hodisalarni muayyan idrok etish, fikrlash prinsiplariga amal qilish, boshqacha aytganda, nazariy xulosalarni tushunish va bilish, ularni hayotda qo'llay olish zarur.

### **ILMIYLIK, TIZIMLILIK VA IZCHILLIK PRINSIPI**

Maktab ta'limiga qo'yiladigan ilmiylik talabi xalq ta'limi to'g'risidagi barcha qonunlar, „Umumiy ta'lim maktabi konsepsiyasi“ hamda „Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiyasi“da ifodalangan yetakchi talabdir. Hozirgi kunda, ya'ni fan va texnika rivojlangan, ilmiy bilimlar, mustaqil davlatni qurish va uni rivojlantirishning har xil amaliy masalalarini hal qilishning zarur shartiga aylanayotgan davrda mazkur prinsipni amalga oshirish nihoyatda muhimdir.

Ilmiylik prinsipi maktab ta'limi mazmuniga fanda aniq rasmiylashgan o'quv materiallarini kiritishni (bu talab maktab dasturlari va darsliklarini taqqoslashda, o'qituvchi har bir dars uchun material tanlashda hisobga olinadi), o'quvchilarni o'z yoshlariga mos ilmiy tushunchalar bilan qurollantirishni talab qiladi. Dastur va darsliklarda esa ana shunday tushunchalarni o'zlashtirishning tartibi ifodalanadi. Bu tartibga jiddiy rioya etish hamda o'quv jarayoniga faqat fanlarda qabul qilingan ta'riflarni kiritish maqsadga muvofiqdir.

Ilmiylik prinsipi o'qituvchidan o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqiga alohida e'tibor berishni, u yoki bu masalalarni ilmiy asosda tushunishdan hech qanday chekinishga yo'l qo'ymaslikni, ilmiy tushunchalarni va so'zlarni to'g'ri qo'llashni talab qiladi.

Tabiat hodisalarini (momaqaldiroq, chaqmoq, shamol, qor, yong'ir va hokazolarni), shuningdek, jamiyat hayotida eng muhim o'zgarishlarni ilmiy jihatdan aniq bayon qilish katta ahamiyatga molikdir.

Bolalar ta'limning dastlabki yillaridanoq ishning ratsional usullarni: reja bo'yicha hikoya qilishni, o'qilgan narsalardagi asosiy fikrni topa olishni, isbotlay bilishni, o'quv materialini anglagan holda yodlashni o'zlashtirishlari kerak.

Mazkur prinsip fanning tarmoqlari barq urib rivojlanayotgan hozirgi kunda alohida ahamiyatga molikdir. Shuning uchun o'qituvchi har bir darsga tayyorlanishda darslik va o'quv qo'llanmalaridan tashqari, fanlarning so'nggi yutuqlari yoritilgan vaqtlil matbuot vositalaridan ham foydalanishi lozim. Bunda boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni zamonaviy fanlarning yutuqlari bilan tanishtirish kerakmas, degan fikrni ma'qul deb bo'lmaydi. Bino-barin, bolalarga berilgan barcha nazariy ma'lumotlar va ular o'rgangan qoidalar ilmiy bilishning hozirgi rivojlanish darajasiga zid kelmasligi lozim. Ta'limning ana shunday yo'lga qo'yilishi o'quvchilar maktabning yuqori sinflariga o'tish bilan ularni qayta yo'naltirish va qayta o'qitish zaruriyatini bartaraf etadi.

O'qituvchi bolalarga fanning so'nggi yutuqlari haqida so'zlab berishi, bilimlar tizimi asosidagina fanni o'rganish mumkinligini tushuntirishi lozim. Y. A. Komenskiy va I. G. Pestalossi o'z davrlaridayoq bilimlarni o'rganish uchun ularning navbatdagi har bir zvenosi o'zidan oldingi zvenolarga asoslanishi, yangi bilim ilgari o'zlashtirilgan bilimlarga jiddiy mantiqiy tartibda bog'lanishi zarurligini ishonarli tarzda isbotlaganlar.

Bilimlarni tizimli bayon qilish nimani anglatadi? Bilimlarni tizimli bayon qilish — ularning yangisini ilgari o'tilgani bilan bog'lash, shu orqali o'quvchilarning tushuncha va tasavvurlari doirasini kengaytirish hamda chuqurlashtirish, materialni qismlari bo'yicha o'rganish, ularning asosiy jihatlarini, umumiy g'oyasini alohida ifodalash bilan o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini yo'nalishga solish va rivojlantirish, ularga mustaqil holda tahlil qilishni, o'zlashtirilgan ma'lumotlarni tizimga solish va umumlashtirishni o'rgatishdir.

O'qituvchining bilimlarni tizimli bayon qilishi o'quvchilarga o'quv predmetining tuzilishi va mantiqini chuqurroq tushunish, fanning bosh g'oyasi va asosiy qoidalarini ajratish, tabiat va jamiyat hodisalari o'rtasidagi ichki bog'lanishni aniqlash imkonini beradi.

O'qitishning jiddiy tizimliliigi muvaffaqiyatli olg'a borishning garovi bo'lib, fikrlarni tartibga soladi, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishni osonlashtiradi hamda yaxshilaydi, voqelikni to'g'ri bilishni ta'minlaydi, aql, iroda va xarakterni rivojlantiradi.

O'qituvchi o'quvchilarga talablar qo'yishda ham, ularning bilimlari, ko'nikmalari, malakalari va xatti-harakatlarini baholashda ham, fikr-mulohaza yuritishda ham izchillik ko'rsatishi kerak.



O'qitishning izchilligi faqat o'quv materiallarini joylashtirishda qat'iy tizimni emas, faqat yangi bilimlar berishda, o'tilgan materiallarni mustahkamlash va tekshirishda tafakkurni jiddiy va batartib rivojlantirishning emas, balki ilgari o'rganilgan bilimlarni doimiy ravishda takrorlashni, ulardan keyingi mashg'ulotlarda yangi ma'lumotlar va hodisalarni tushuntirish, ularni taqqoslash uchun, turli masalalarni hal qilish uchun foydalanishni ham talab qiladi.

Yuz yil muqaddam ta'limda yaqindan uzoqqa, oddiydan murakkabga, osondan qiyinga, ma'lumdan noma'lumga qoidasi vujudga kelgan. Bu qoida ham tizimlilik prinsipining mohiyatidan iboratdir.

### TA'LIMNING AMALIY HAYOT BILAN BOG'LANISH PRINSIPI

Biz o'quvchilarimizni hayotga, jamiyat qurilishida qatnashishga tayyorlaymiz. Shuning uchun ta'lim amaliy hayot bilan bog'lanishi kerak. Hozirgi paytda nazariyani amaliy hayot bilan bog'lash prinsipi alohida ahamiyatga ega. Shunga ko'ra, uni ta'lim-tarbiya ishining hamma yo'nalishlarida amalga oshirish zarur.

Forobiy har qanday fanni ikki qismga, amaliy va nazariy qismlarga ajratgan. Mana shu qismlarni qisqacha sharhlashda ulardan hayotda foydalanish imkoniyatlarini hisobga olgan. Uning amaliy va nazariy qismlarga bergan ta'riflaridan ta'limni amaliy yo'nalishda olib borish va hayotga, kishilarning kundalik faoliyatiga bog'lash fikri tug'iladi.

Nazariyani amaliy hayot bilan bog'lash prinsipini ro'yobga chiqarish uchun quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi kerak:

a) o'rganiladigan materialni o'quvchilarning shaxsiy tajribasi va kuzatishlari bilan, quyi sinflarda esa ularning o'yinlari bilan bog'lash darkor, chunki kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni o'qitish albatta o'yin faoliyatini talab qiladi;

b) ta'limni atrof'dagi hayot bilan, yangi jamiyatni qurish amaliyoti bilan bog'lash;

d) nazariyani amaliyot bilan fanning rivojlanishi jamiyatning ehtiyojlariga bog'liqligini yoritadigan qadamjolarga sayohatlar shaklida bog'lash;

e) nazariy va amaliy yo'sindagi turli masalalarni hal qilish va topshiriqlarni bajarish, laboratoriya ishlari bilan shug'ullanish va ishlab chiqarishga doir mavjud bilimlar asosida amaliyotlar o'tkazish hamda ularning natijalarini albatta tekshirish;

f) o'quvchilarning unumli mehnati, ya'ni ijtimoiy-foydali ishlarni o'zlariga mos shakllarda yo'lga qo'yish.

Mazkur prinsip, xususan, mehnat tarbiyasi va ta'limi jarayonida yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Ta'limda o'quvchilarning ongliligi va faolligi prinsipi talabiga ko'ra o'qitish o'quvchilar ilmiy bilimlarni va ularni amalda qo'llash usullarini ongli hamda faol o'zlashtiradigan, o'quv faoliyati ularning ijodiy tashabbuskorligi va mustaqilligini, tafakkuri, nutqi hamda dunyoqarashini shakllantiradigan yo'sinda tashkil etilishi kerak.

Ta'limdagi onglilik o'quvchilar o'z faoliyatlarining aniq maqsadlarini tushunishini, dalillar, hodisalar, jarayonlar va ularning o'zaro bog'liqligini anglashni va o'zlashtirgan bilimlaridan amalda foydalana olishini bildiradi. Shuningdek, ta'limning ongliligi o'quvchilarning o'qishga mas'uliyatli munosabatda bo'lishini, o'qituvchi bergan topshiriqni o'z vaqtida va aniq bajarishga intilishini ham anglatadi.

O'quvchilarning faolligi ular sinfda, laboratoriyada ijodiy materiallarni o'rganayotganlarida, topshiriqlarni, ijodiy ishlarni bajarayotganlarida namoyon bo'ladi. Mana shu xildagi ishlar va har xil topshiriqlar o'quv faoliyatida o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Bunda o'quvchilarning faqat adabiyotlar bilan ishlashi yoki turli ta'limiy topshiriqlarni bajarish emas, balki ularning mustaqil fikrlashni o'rganishi, doimiy ijodiy izlanishga intilishi, o'zini uzluksiz nazorat qilishi, bitirgan ishlarning natijalarini mustaqil holda to'g'ri baholashi ham nazarda tutiladi.

Onglilik va faollik prinsipini amalga oshirish o'quvchilarga o'rganiladigan predmet yoki bo'limning maqsadi va vazifalarini tushuntirishdan hamda amaliy ahamiyatini yoritib berishdan boshlanadi.

O'quvchilarning bilish faoliyati ularning darsdagi hissiy idroki va amaliy ishlari, o'qituvchining gaplari orqali amalga oshadi. O'quvchilarning bilish faoliyatida o'qituvchining og'zaki axboroti va o'quv adabiyotlarini mustaqil o'qish juda muhim rol o'ynaydi. Ta'limning onglilik prinsipi o'quvchilar yangi materialni idrok etishda faqat ta'riflarni aytib berishni emas, balki ularning muayyan hodisalarga, jarayonlarga bog'liq mazmunini tushunishni ham o'rganishlarini talab qiladi. Aks holda bilimlarda rasmiyatchilik vujudga keladi va o'quvchilar materialni quruq yodlaydigan va qayta so'zlab beradigan bo'ladilar, lekin uning mohiyatini tushunmaydilar va o'zlashtirgan ozmi-ko'pmi bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llay olmaydilar. Rasmiyatchilikning sabablaridan biri, o'qituvchining

materialni bir qolipda bayon qilishidir. Bunday holda o'quvchilar uning gaplarini ishonch bilan tinglaydilar va eslab qoladilar, lekin uni fikran tahlil qilmaydilar. Turli masalalarni qo'yish, ko'rsatmali qurollardan keng foydalanish va o'quvchilarni amaliy ishlarga jalb etish orqali ularni bilish faoliyatini kuchaytirish bilimlaridagi rasmiyatchilikning oldini olishning muhim vositasidir. O'quvchilarning yangi material bo'yicha bilimlarni tekshirib, uni qanchalik anglaganini va ilgari o'tilgan materialga qanday bog'laganini, uni amalda (har xil masalalarni hal qilishda, turli mashqlarni, mehnat topshiriqlarini bajarishda) qo'llay olishini aniqlash katta rol o'ynaydi.

Bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish o'quvchilarda ana shu bilimlarga ma'lum munosabatni, hissiy kechinmalarni tarkib top-tirishni ham o'z ichiga oladi. O'quvchilarning bilimlarni egallashga faol munosabati — ularning bilish faoliyatini yanada kuchaytiradi.

### TA'LIMDA ONGLILIK VA FAOLLIK QOIDASI

1. O'quvchilarning o'quv faoliyatida o'z oldilaridagi maqsad va vazifalarning mohiyati hamda ahamiyatini, ya'ni o'zlari nima uchun o'qishlari kerakligini tushunishlari.

2. Bilimlarni o'zlashtirishga qat'iy intilish, ya'ni o'qishga ishtiyok.

3. Fanni egallashga olib boradigan yo'llarni, ya'ni hozirgi zamon kishisi uchun zarur bilimlarni qaysi usullar bilan o'zlashtirish mumkinligini bilish.

4. Fanning faktlari hamda qonuniyatlarini ravshan va chuqur tushunish, o'quv materiallarining bola ongida qayta ishlanishi va uning o'z boyligiga aylanishi, olingan bilimlarni hayotda qo'llay bilish.

Onglilik prinsipining amalga oshishi, avvalo fan materialining ongda qayta ishlanishidan iborat bo'lib, bu jarayon shaxsda o'z nuqtayi nazari va ishonchi shakllanishining, ya'ni dunyoqarash va onglilik tarkib topishining zarur shartidir.

„Bilim“ va „ishonch“ har xil tushunchalardir. Biz, masalan, bir kishi haqida „e'tiqodli, o'zining nuqtayi nazariga ega, mustaqil fikrlaydi“, desak, boshqa kishi to'g'risida „nimani eshitsu, nimani o'qisa, ishonaveradi, o'zicha fikr yuritmaydi“, deymiz. Demak, ular bir xil kishilar emas.

Donolardan biri ta'kidlaganidek, ishonchni saxiy odamlardan olib yoki kitob do'konidan xarid qilib bo'lmaydi, uni xuddi ovqat oshqozonda hazm bo'lganidek, har kim o'zining kallasida mustaqil holda vujudga keltirishi kerak.

Bilimlar ishonchga aylanishining yagona yo'li o'quv materia-  
lining o'quvchilar ongida qayta ishlanishidir.

O'qituvchining vazifasi o'zlashtirilgan bilimlar ishonchga ay-  
lanishini ta'minlashdir va bunda o'quvchilarning ta'lim jarayo-  
nidagi faolligi juda muhimdir. Shunga ko'ra pedagogikaning zarur  
muammolaridan biri darsda o'quvchilarning bilishga doir ishlarini  
faollashtirishdir.

Dars jarayonida mazkur prinsip qanday qilib amalga oshirili-  
shini ifodalash uchun ikkinchi sinf ona tili darsi misolida „pred-  
metning belgisi“ mavzusini o'rganish bo'yicha ikkita misol kelti-  
ramiz.

1. O'qituvchi ana shu mavzuni o'tishda doskaga bir necha gap-  
ni ketma-ket yozadi, o'quvchilar bilan ularga ma'lum gapning  
bosh bo'laklarini — ega va kesimini tahlil qiladi, so'ngra o'quvchilar-  
ning e'tiborini gapning ikkinchi darajali bo'laklariga — aniqlovchiga  
qaratadi. Ko'rib chiqilgan misollar asosida xulosa chiqarib: „Gap-  
ning shunday ikkinchi darajali bo'laklari borki, ular predmetning  
belgisini bildiradi va qanday? qanaqa? qaysi? so'roqlariga javob  
bo'ladi“, — deydi.

2. O'qituvchi xuddi shularni boshqacha bayon qiladi.

Dars kirishdan boshlanadi: „Biz bugun grammatika bo'yicha  
yangi mavzuni o'rganamiz. Men mavzuni aytmayman, uni keyin-  
roq o'zlaringiz aytasizlar. Hozir men sizlarga bir matnni beraman,  
uni o'qing va o'ylab ko'ring. Matnda aytilgan odam to'g'risida yaqqol  
tasavvur hosil qiling“. O'qituvchi ana shu so'zlarni aytib, doskaga  
bolalar biladigan qahramonning obrazi yozilgan plakatni osib qo'ydi.  
Matnda ham aniqlovchilar tushirib qoldirilgandi. Mana o'sha matn:  
„Men uning ... chehrasiga qaradim va u haqiqatan ham hech nar-  
sadan qo'rqmaydi, deb o'yladim. Shunday ... irodali va shunday ...  
so'zlaydigan bola qorong'ulikdan ham, bezorilardan va ... narsalar-  
dan ham qo'rqmasligiga ishonch hosil qildim“.

O'qituvchi o'quvchilarga o'ylab olish uchun biroz vaqt berdi  
va ulardan shu matnni o'qib, o'sha bola to'g'risida qanday tasav-  
vur hosil qilishganini aytib berishlarini so'radi.

O'quvchilar qiynaldilar, ular juda qisqa yozilgan matndagi  
odamning qiyofasini tasvirlab bera olmadilar.

Shunda o'qituvchi o'quvchilarning diqqatini hikoyaning to'liq  
matni yozilgan plakatga jalb qildi. O'quvchilar ana shu ta'rifdan  
qahramonning qiyofasini yaqqol ko'z oldilariga keltirdilar. Shun-  
dan so'ng o'qituvchi ikkala matnni taqqoslashni va ularning farqi-

ni aytishni taklif qildi. O'quvchilar birinchi plakatda predmetning belgisini bildiradigan so'zlar yo'qligini aniqladilar.

Shunday qilib, o'quvchilarning o'zlari aniqlovchi nima ekanligi haqida xulosa chiqardilar. Bu esa ularni fikrlashga, faollik ko'rsatishga majbur qildi, bilimlarni ongli o'zlashtirishlarini ta'minladi.

### KO'RSATMALILIK PRINSIPI

Bilishning birinchi pog'onasi — jonli mushohada, ya'ni tevarak-atrofdagi narsalar va hodisalarni idrok etishdir. Ko'rsatmalilik prinsipi idrok etishni osonlashtirishi va nazariy bilimlarni hayot, amaliyot bilan bog'lash imkonini beradi. Bu prinsip o'rganilayotgan hodisalarga qiziqishni oshiradi, bilimlarni puxtaroq egallashga yordam beradi.

Ibn Sinoning qayd qilishicha, inson o'zining o'quv mashg'ulotlari boshlanishida, narsaning tashqi xossalarni o'rganishda, uning aslini va tasvirini ko'rib, o'zicha bevosita bilimlarni hosil qilishi mumkin. Har qanday fanda avvalo, narsalarning ta'rifi zarur. Ularning mavjudligini esa pirovard natijada isbotlash vositasida bilinadi, chunki ular mazkur fan aniqlaydigan hodisalardan iborat bo'ladi'. Ibn Sinoning ana shu xulosasi o'qitishdagi ko'rsatmalilikning faqat bir jihatini yoritadi, xolos. Xulosada avvalo inson mavjud narsalarni yoki ularning tasvirlarini idrok etishi tufayli unda obyektiv voqelik to'g'risida tasavvur hosil bo'lishi va inson ularni to'g'ri aks ettirishi ta'kidlanadi.

Olimning ta'limotida ko'rsatmalilik tushunchasi idrok etishning har xil turlari — ko'rish, eshitish, sezish va hokazolar bilan bog'langan. Idrok etish tashqi sezgi orqali amalga oshadi va ushlab ko'rish bilan ham ro'y beradi. Ushlab ko'rish sezilgan narsaning issiqligi, sovuqligi, namligi, quruqligi, qattiqligi, yumshoqligi, og'irligi, yengilligi, shakli va hokazolarini bilish imkonini beradi. Teri va mushaklar sezgining qurolidir. Nervlar ana shu kuchni mushaklar va teriga yetkazadi.

Yan Amos Komenskiy „Buyuk didaktika“ nomli asarida „oltin qoida“ni ifodalagan. „O'quvchilar — deb yozadi u, — sezib idrok etishi mumkin bo'lgan narsalarni, albatta, sezgilar vositasi bilan, xususan: ko'rish mumkin bo'lgan narsalarni ko'z bilan

---

<sup>1</sup> Абу Али ибн Сино. Избранные произведения, Т—, I. Душанбе, Ирфон, 1980, 97—98- бетлар.

ko'rib, hidi bor narsalarni hidlab ko'rib, ta'mini sezish mumkin bo'lgan narsalarni — tatib ko'rib, ushlab sezish mumkin bo'lgan narsalarni ushlab bilib olishlari kerak... Birdaniga ko'p sezgilar yordamida idrok etish mumkin bo'lgan narsalarni, iloji boricha, bir necha sezgilar yordamida idrok etish lozim“.

Y. A. Komenskiy bu qoidaning uchta asosini ifodalagan:

*Birinchi*dan, avval sezmagani narsasi haqida kishida bilim ham bo'lmaydi. Shuning uchun ham o'qitish narsalar haqida quruq mulohaza yuritishdan emas, balki narsalarni bevosita kuzatishdan boshlanishi kerak.

*Ikkinchi*dan, bilimning to'g'ri va aniqligi ham faqat sezgilarining guvohligiga bog'liq. Demak, bilim sezgilarga qanchalik ko'proq tayansa, u shunchalik ishonchliroq bo'ladi. Bolalarga haqiqiy va mustahkam ilm berish uchun, umuman, hamma narsani bevosita kuzatish va sezgilar asosida o'qitilishi kerak.

*Uchinchi*dan, sezgilar — xotiraning eng ishonchli vositasi. Agar kishi tuyani bir ko'rgan bo'lsa, bir marta qand yegan bo'lsa, Rimga bir marta borib, uni diqqat bilan tomosha qilgan bo'lsa, bulbul xonishini bir marta eshitgan bo'lsa, bularning hammasi xotirada mustahkam qoladi va esdan chiqib ketmaydi.

Komenskiy o'z mulohazasini mustahkamlash uchun *Plavtning* quyidagi fikrini keltiradi: „Eshitganini aytib beradigan o'nta kishidan o'z ko'zi bilan ko'rgan bitta guvoh afzal“<sup>1</sup>.

Y. A. Komenskiy xulosasi — o'quvchini boshqalarning narsalar haqidagi kuzatishlari va guvohliklarini emas, balki o'sha narsalarning o'zini bilishga va tadqiq etishga o'rgatish zarur.

Maktab amaliyotida ham tasdiqlanganidek, darsda o'rganiladigan hodisaning eng muhim tomonlarini aniq ifodalaydigan, ana shu belgilarni avval ajratishda, keyin guruhlashda, umumlashtirishda o'quvchilarga halaqit beradigan ortiqcha elementlardan xoli ko'rsatmali qo'llanmalardan, shuningdek, obrazli tasvirlar sxematik tasvirlarga uyg'unlashgan holda, ya'ni o'quvchilarning fikrlashini muayyandan mavhumga oson yo'naltiradigan qilib ishlangan ko'rsatmali qo'llanmalardan foydalanish g'oyat samarali tadbirdir. Boshlang'ich sinflarda obyektlarning o'zini namoyish etish yoki ular bilan bevosita tabiatda tanishish, darslarda narsalarning o'zidan iborat tarqatma materiallarni qo'llash maqsadga

---

<sup>1</sup> Y. A. Komenskiy. „Buyuk didaktika“, „O'qituvchi“ nashriyoti. T., 1975, 174—175- betlar.

muvofigdir. Rasmi ko'rsatmali qo'llanmalar: manzara tasvirlari, diapozitiv va diafilmlarning samarasi kamroq bo'lsa-da, lekin ular orqali ham u yoki bu narsalar to'g'risida yaxlit tasavvurlar hosil qilish mumkin.

Aralash ko'rsatmali vositalar to'plami o'quv jihozlarining muhim elementi bo'lishi kerak. Ular dars vaqtlarida turli ko'rsatmali vaziyatlarni yaratish, tez o'zgartirish va birlashtirishda yordam beradi. Buning uchun rasmi materiallardan foydalaniladi yoki doskaga bo'r bilan rasmlar, chizmalar chiziladi va har xil yozuvlar bajariladi. Mazkur vositalar jumlasiga magnitlik taxta va flanelegraflar ham kiradi. Ularning didaktik imkoniyatlari bir xildir.

Shuni ta'kidlash lozimki, ko'rsatmali qurollarni, shu jumladan, ta'limning texnik vositalarini universallashtirish yaramaydi. Ular boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda beqiyos katta ahamiyatga molikdir, ammo o'quv jarayonida audiovizual qo'llanmalar, ahyon-ahyonda boshqa ko'rsatmali vositalardan foydalaniladi. Buning esa quyidagilardan iborat turli variantlari bor:

1. Dasturdagi ashyolarni qayta ishlash mavzusi bo'yicha kirish darsida o'quv filmini namoyish etish va keyingi darslarda kinokolsovkalar, kinofragmentlar, diapozitivlar, diafilmlar va jadvallarni qo'llash.

2. Mavzuning xususiy masalalarini diapozitivlar, diafilmlar, jadvallar, namoyish qilinadigan tajribalar, kinofragmentlar va kinokolsovkalardan foydalanib, ishlab chiqish.

Mazkur mavzu bo'yicha umumlashtirish darsida o'quv filmini ko'rsatish.

3. Darsda o'qituvchining tushuntirishi bilan birgalikda diafilmlar, diapozitivlar, kinofragmentlarni va darsning oxirida o'quv filmini namoyish etish.

4. O'quvchilarning tasavvurini kengaytirish, shakllanadigan tushunchalar mazmuni to'liqligini ta'minlash uchun ekran qo'llanmalarining bitta seriyasidan foydalanib, o'quv materialini ishlab chiqish va ularning boshqa to'plamini qo'llab, bilimlarni mustahkamlash.

Ko'rsatmali vositalarning turli didaktik vazifalari va imkoniyatlarini nazarda tutib, darsda ularni kompleks holda qo'llash talab qilinadi. Ana shu taqdirdagina darsning har bir bilish vazifasini hal qilishda eng yuqori samaraga erishish mumkin. Shular bilan birga, o'rganilayotgan hodisaning turli jihatlarini yoritish lozim bo'lgandagina har xil ko'rsatmalardan foydalanish o'zini oqlaydi.

Chunki mazkur jihatlarining har birini ko'rsatmalilikning ma'lum turi yordamida ishonarli tarzda va to'la yoritilishi mumkin. Ko'rsatmali vositalarni tanlashda ularning imkoniyatlarini har bir o'quvchi predmetining o'ziga xos xususiyati va har qaysi darsning mazmuni bilan taqqoslash zarur.

Ko'rsatmali qo'llanmalarda ko'rsatmalilikning quyidagi har xil turlaridan foydalaniladi:

1. Tabiiy ko'rsatmalilik o'quvchilarni mavjud obyektlar: o'simliklar, hayvonlar, minerallar va hokazolar bilan tanishtirishni taqozo etadi. Tabiiy ko'rsatmalilikni sinfda ham, ekskursiyalar paytida ham namoyish etish mumkin.

2. Hajmli ko'rsatmalilik — mavjud olamning hajmli aks etishidir. Bu esa fotosurat, rasm, diafilm va diapozitivlardan iboratdir.

3. Ovozli ko'rsatmalilik — tovush obrazlarini ifodalash uchun ovozli vositalardan foydalanish. Gramplastinkalar va magnitofon yozuvlarini eshitish, ovozli kino.

4. Ramziy va grafik ko'rsatmalilik — xaritalar, rejalar, sxemalar, chizma va diagrammalar. Ular mavjud voqelikni shartli umumlashgan ramziy ko'rinishda aks ettirish sababli fikrlashni rivojlantiradi.

Maktabda birinchi sinfdan o'ninchi sinfgacha ko'rsatmalilikning ana shu barcha turlaridan foydalaniladi, lekin tabiiyki, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning yoshini hisobga olib, ularga bevosita kuzatishlarni topshirish, yuqori sinf o'quvchilari fikrlashining rivojlanishida ramziy va grafik kuzatishlarni ko'proq qo'llash kerak.

Ko'rsatmalilik, ayniqsa, o'quvchilar o'rganiladigan u yoki bu narsalar to'g'risida muayyan tasavvurga ega bo'lmagan paytda juda zarurdir. Ammo shuni ham unutmaslik lozimki, ko'rsatmali qo'llanmalarni namoyish etishga tayyorlanmaslik yoki ularni noto'g'ri tanlash faqat zarar keltiradi.

### TUSHUNARLILIK PRINSIPI

O'quvchilar materialni ongli ravishda o'zlashtirishi uchun doimo ularning bilimlari va aqliy qobiliyatlarini hisobga olib ish tutish, ya'ni ularga mos materiallarni berish kerak. O'quvchilarning har xil sinflarda aqliy qobiliyatlari ham turlicha bo'ladi. O'z-o'zidan ayonki, o'qituvchi birinchi sinfga kirsay, biror asarning badiiy xususiyatlari to'g'risida gapira boshlasa, bolalar hech narsani tushunmaydi, albatta.



„Ta’lim tushunarli bo’lishi uchun, — deb uqtirgan edi Abu Rayhon Beruniy, — o’qituvchi, albatta, yaqindan uzoqroqqa, ma’lumdan noma’lumga qarab borishi lozim: ta’lim doimiy ravishda bilimlarning to’planishiga, aniqlashuviga va iloji boricha takomillashuviga yetaklashi, shu orqali haqiqatni izlovchilar va bilimlarni sevadiganlarning hammasiga yordam berishi kerak“.

Tushunarlilik prinsipi — o’quv materialini bolalarning yosh xususiyatlariga, muayyan bilimlarni o’zlashtirish imkoniyatlariga muvofiq yo’sinda bayon qilishdir.

Maktabda ko’pincha duch kelinadigan ikki xil noto’g’ri tushuncha bor. Ularning birinchisi shuki, ayrim o’qituvchilar o’quvchilarni mutlaqo qiynamaslik uchun ularga juda oddiy, tushunarli, o’zlariga aynan mos materiallarni berish kerak, deb biladilar. Obrazli qilib aytganda, materiallarni manniy bo’tqasidek, hatto chaynamasdan yutadigan qilib, bir qultum suv bilan berish lozim, deb hisoblaydilar. Bunday o’qituvchilardan ta’lim oladigan o’quvchilar o’qishga oddiy va oson, hech qanday kuch talab qilmaydigan ish deb qaray boshlaydilar, hamma narsani o’qituvchi tushuntirishiga, bir necha marta tushuntirishiga odatlanadilar. Natijada fikr yuritishni, o’ylab ko’rishni o’rganmaydilar, qiyinchilikka duch kelsalar, uni bartaraf qilishga urinmaydilar.

Mazkur noto’g’ri fikrlarning ikkinchisi. O’qituvchi o’quv predmetini yuksak saviyada, hatto, Fanlar akademiyasi darajasida o’qitish kerak, deb hisoblaydi va bolalarga dabdabali, jimjimador ifodalarni aytadi, bolalar esa ularning ma’nosini anglamagan holda yodlayveradilar.

Mana shu noto’g’ri fikrlarning ikkalasi ham zararlidir.

Xo’sh, tushunarlilik prinsipining o’zi nima?

Bu prinsipga muvofiq, o’quv materialini bolalarga shunday qiyinlik darajasida berish kerakki, ular ana shu materialni o’zlashtirish uchun faol fikrlashlari, o’zlarining barcha aqliy va jismoniy qobiliyatlarini ishga solishlari lozim.

Boshlang’ich ta’limning nazariy saviyasini oshirish, boshlang’ich sinflardagi o’quvchilar o’zlashtirishi lozim bo’lgan axborotlar hajmini oshirish maktab yoshidagi bolalarga beriladigan ta’limning tushunarliliigi muammosini keskinlashtirdi. Mana shu muammoni bir xil yo’sinda hal qilish bolalarning bilish imkoniyatlarini ortiqcha yoki yetarlicha baholamaslik kabi xavflidir.

Bolalar psixologiyasi va yosh psixologiyasi sohalaridagi so’nggi tadqiqotlardan ma’lum bo’lishicha, ta’limning mazmuni va me-

todlarini o'zlashtirish bilan bolalardagi ayrim psixik jarayonlar va funksiyalarni rivojlantirishda ajoyib siljishlarga erishish mumkin; buning natijasida psixik jarayonlarning doimo kattaroq yoshli bolalarga xos deb hisoblangan xususiyatlari kichik bolalarda ham tarkib topishi (masalan, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda fikrlashning nazariy shakllari vujudga kelishi) mumkin. Lekin bunda har qalay bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Yuqorida ko'rsatilgan dalillar go'yoki yosh kamolotida umuman qandaydir chegaralar borligiga va unda qandaydir bosqichlar mavjudligiga shubha tug'diradi. Lekin bu dalil bizga yosh tushunchasini yanada kamroq o'zgartiradigandek tuyuladi, chunki ayrim xususiyatlarning shunchaki yig'indisi ekanligi bilan emas, balki bola shaxsining yaxlit tuzilishidagi o'ziga xoslik bilan xarakterlanadi. Boshqacha aytganda, bola yoshining psixik tavsifi uning o'ziga xos ayrim psixologik xususiyatlari bilan emas, balki har bir yosh bosqichida uning shaxsi har xil tuzilishi — ehtiyojlari sohasi, ongining tuzilishi va voqelikka munosabatining o'zgarishi bilan belgilanadi.

Boshlang'ich ta'limning tushunarlilik muammosi faqat tegishli saviyadagi dastur va darsliklar yaratish bilan hal qilinmaydi, uning hal qilinishi butun o'quv jarayonining qo'yilishini takomillashtirish va o'quv materiallarini tanlash ishlari bilan bog'liqdir.

O'quv materialining tushunarlilik belgilari sifatida quyidagilarni tavsiya qilish mumkin:

— material tanlashning yo'nalishi, avvalo tarbiyalovchi ta'lim vazifalaridan kelib chiqadi: fanning asosiy mazmunidan tabiat va jamiyatning eng umumiy qonunlari haqidagi ta'limotning to'g'riligini ko'rsatadigan qoida va dalillar tanlanadi, tafakkur, vatanparvarlik hissi, fuqarolik burchi va g'oyaviy e'tiqodlilikni tarbiyalashda yordam beradi;

— o'quv materialining ko'rimlilik, uning miqdori o'qitish uchun tanlangan ilmiy bilimlar majmuasini tizimlashtirishga va yaxlit qamrashga to'sqinlik qilmaydigan bo'lishi bilan xarakterlanadi;

— o'quv materialining soddaligi ilmiy nazariyaning eng ahamiyatlilik, muhim komponentlarni va ilmiy bilimlarni ifodalashning psixologik jihatdan asoslangan shakllarini ajratish (ta'riflarning soddalashtirilishi, tushunchalarning tasavvurlar bilan almashtirilishi, murakkab asoslashlarning tushirib qoldirilishi va hokazolar) bilan xarakterlanadi;

— o'quv materialining normalashtirilishi unda umumiy majburiy normalarni hamda yaqqol ifodalangan, eslab qolish va qo'llash uchun qulay qoidalarni ajratish bilan xarakterlanadi;

— o'quv materialining taqsimlanganligi aslida uni o'quv jarayonining vazifalariga va o'quvchilarning yosh imkoniyatlariga muvofiq yo'sinda ta'lim yo'llari bo'yicha joylashtirishdir.

Ta'limning tushunarligi belgilarining mana shu tizimini yagona va qat'iy deb hisoblab bo'lmaydi. Lekin bu belgilarning ko'pi maktab amaliyotida tarkib topgan ishlarning haqiqiy ahvolini aniq va ishonarli aks ettiradi.

Boshlang'ich ta'limning nazariy saviyasini yuksaltirish munosabati bilan olimlar, metodistlar va o'qituvchilarning kamol toptiruvchi ta'lim prinsipini amalga oshirish masalalariga diqqat-e'tibori kuchaydi.

Keyingi paytda o'rganiladigan materialning mazmuni, hajmi, murakkabligi bilan o'quvchilarning aqliy kamol topishi sur'atining o'zaro bog'liqligi yoritilgan maxsus psixologik-pedagogik tadqiqotlarning (L. V. Zankov, D. B. Elkonin, V. V. Davidov) ma'lumotlari ta'sirida ta'limni o'quvchilardagi aqliy qobiliyat va bilish imkoniyatlarining rivojlanishida erishgan darajaga aynan muvofiq holda emas, balki shu darajadan oldinroq yo'sinda, ya'ni ularning kelgusidagi rivojlanishini mo'ljallab yo'lga qo'yish tavsiya etildi. Ta'lim kamol toptiradigan bo'lishi uchun „eng yaqin kamolot zonasidagi“ bilish imkoniyatlariga mo'ljallanishi kerak. Kamol toptiruvchi ta'lim masalasini amaliy hal qilishdagi ko'p xatolar kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning mavhum fikrlash qobiliyatlarini yetarli darajada baholamaslikdan kelib chiqadi. Shuning natijasida ayrim maktablarda malakalarni shakllantirish hozirga qadar „mana bunday qil“ degan prinsipda, ya'ni o'zlashtirgan umumiy qonuniyatlarni va umumlashmalarni ongli ravishda qo'llash asosida emas, o'qituvchi bergan namunalarga bevosita ergashish asosida amalga oshirilmoqda.

Ana shu sababli ba'zi o'quvchilar yangi materialni o'rganishda, ta'limiy va amaliy topshiriqlarni bajarishda ilgari o'zlashtirgan bilim va malakalardan foydalana olmaydilar.

Umar Xayyom ta'lim olishda o'quvchilarning mustaqil faoliyat ko'rsatishini yuqori baholagan va ularning har xil mushohada yuritishlari, turli narsalarni isbotlashlari zarurligini ta'kidlagan edi. Shuningdek, u o'quvchilarning fikrlash faoliyatlarini ularga „o'ylab ko'r“, „ozgina o'ylasang, tushunasan“ va hokazolar deya muro-

jaat qilish orqali quvvatlab va yo'naltirib borish maqsadga muvofiqligini uqtirgan<sup>1</sup>.

Ko'pincha o'quvchilarning kamol topishi haqida ularning turli narsalardan xabardorligiga qarab, har xil manbalardan olib, asosan filmlar va televideniye dasturlarini ko'rib, radioni va kattalarning hikoyalarini eshitib to'plagan qisqa ma'lumotlari va faktlarning ko'pligiga qarab xulosa chiqariladi. Ba'zan kichik maktab yoshidagi o'quvchilar nutqida ilmiy iboralar ko'p uchrashiga qarab, ularni yuqori darajada kamol topgan deb hisoblanadi. Lekin aslida murakkab ilmiy iboralarni ustalik bilan ishlatadigan o'quvchilar ma'lum sabablarga ko'ra ularning ma'nosini tushunmaydilar va grammatik tahlilda, yozishda xatolarga yo'l qo'yadilar.

Kamol topishni yuqoridagicha noto'g'ri tushunish, amalda o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishga yuzaki qarashlarini vujudga keltiradi.

Aqliy kamolot o'zaro bog'liq hamda bir-birini taqozo etadigan bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimini o'zlashtirishni talab qiladi. Bunda esa, o'z navbatida faktlarni bilish, ularning ma'nosi va ahamiyatini tushunish, ilgaridan tanish bilimlarga tayanib tushuntira olish zarurati tug'iladi.

O'quvchilar yaxshi kamol topganligining muhim ko'rsatkichi ularning o'quv ishlaridagi faolligi va mustaqilligidir. Mutlaqo ayonki, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar eng muhim mantiqiy operatsiyalarni o'zlashtirmay turib, mazkur o'quv ishlarini bajara olmaydilar.

Shu tariqa kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning aqliy kamol topishini o'quv jarayonining tegishli mazmuni va to'g'ri yo'lga qo'yilishi ta'minlaydi.

### MUSTAHKAMLIK PRINSIPI

Odam har daqiqada qayta tiklay oladigan va amalda qo'llay biladigan bilimlar mustahkam bilimlar deyiladi.

Ta'limning mustahkamligi o'rganilgan bilimlarning, shakllangan ko'nikma va malakalarning xotirada uzoq vaqt saqlanishini bildiradi.

Umumiy ta'lim maktabining eng muhim maqsadi o'quvchilarga ularning xotirasida uzoq vaqt saqlanadigan bilimlar berishdir.

---

<sup>1</sup> Омар Хайям. Трактаты. М., В. Л. 1961. 116- бет.

O'quvchi vaqt o'tishi bilan maktabda olgan bilimlarining bir qismini unutadi. Lekin ular izsiz yo'qolmaydi. Olingan bilimlar, garchi o'quvchilar unutmagan ham, aqliy kamolotda ma'lum darajada iz qoldiradi.

Ko'pincha bolalar o'zlarining amaliy faoliyatlariga bog'lanmagan maktab materialini eslaridan chiqaradilar.

Ba'zan o'rganish jarayonida mashq va mustaqil ishlar kam bajarilishi sababli, materiallar xotirada mustahkam saqlanmaydi.

Bulardan tashqari, oldingi mashg'ulotlarda o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar yanada murakkabroq materialni o'rganish uchun bir pog'ona, tayanch bo'ladi. Ana shu tayanchsiz o'quvchilarning o'sishi va o'lg'a siljishi mumkin emas. Ilmiy bilimlarni egallash o'quvchilarning xotirasini, mantiqiy tafakkurini, ijodiy faolligi va turli ishlarni bajarishdagi mustaqilligini rivojlantiradi. Lekin olingan bilimlar, hosil qilingan ko'nikma va malakalar keyinchalik, ilmiy bilimlar tizimini o'rganishda tayanch sifatida xizmat qilishi uchun ular puxta o'zlashtirilishi, asosli mustahkamlanishi va o'quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanishi kerak. Bu mustahkamlik prinsipining talabi bo'lib, unga rioya qilinmasa, o'quvchilarning o'zlashtira olmasligi va o'qishdagi qo'lg'ini kelib chiqadi.

Bilimlar, ko'nikma va malakalarning mustahkamligiga butun o'quv jarayoni mobaynida erishiladi. Mustahkamlik prinsipining amalga oshirishi, eng avvalo, o'quvchilarning o'quv materialini idrok etishiga bog'liqdir.

O'quvchilarga ko'rsatmali, yaqqol, jiddiy mantiqiy izchillikda berilgan bilimlar ularning xotirasida yaxshiroq mustahkamlanadi. Shu tariqa o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni puxta o'zlashtirishi, birinchi galda, ta'limning boshqa hamma prinsiplarini — tushunarlilik, izchillik va tizimlilik, nazariyani amaliyot bilan bog'lash, ko'rsatmalilik, o'quvchilarning ongilligini amalga oshirish orqali ta'minlanadi.

Shular bilan birga, o'qitish jarayonida mustahkamlik prinsipining amalga oshirishini ta'minlaydigan maxsus didaktik vositalar ham qo'llanadi. Ularga mazkur darsda bayon qilinganlarni mustahkamlash kiradi. Bu ish o'quvchilar bilan suhbatlar, mashqlarni tashkil etish, ta'limiy masalalarni hal qilish va har xil amaliy topshiriqlarni bajarish orqali o'tkaziladi.

O'quvchilar materialni esdan chiqarishining oldini olish, ular unutgan bilimlarni qayta tiklash, o'zlashtirgan bilimlarini tizim-

lashtirish va chuqurlashtirish uchun takrorlashning har xil turlari amalga oshiriladi. Har bir mashg'ulotda oldingi dars materialini joriy takrorlash o'tkazilib, u yangi material bilan bog'lanadi. O'quv yili mobaynida mavzu yoki bo'lim bo'yicha o'rganilgan materialni takrorlash uchun maxsus darslar ajratiladi va uni tizimlashtirib, chuqurlashtirib hamda mustahkamlab boriladi. Ana shu maqsadda o'quv yili oxirida eng muhim masalalarga doir materiallar umumiy yo'sinda takrorlanadi. Agar mazkur predmetni o'rganish keyingi sinfda ham davom etsa, yangi o'quv yilida unga doir mashg'ulotlar oldingi materiallarni takrorlashdan boshlanadi.

Takrorlash passiv amalga oshirilmasligi kerak. Takrorlashda qo'shimcha fakt va misollarni keltirish, o'rganilgan narsa va hodisalarning yangi tomonlarini ko'rib chiqish, ularni chuqurroq tahlil qilish, bilimlarni murakkab ta'limiy va amaliy masalalarni hal qilishda qo'llash kerak. Mana shularning hammasi o'quvchilarning materialga qiziqishini oshiradi, mantiqiy tafakkurini, ishdagi faolligi va mustaqilligini rivojlantiradi.

O'quvchilarning bilimlarini puxta o'zlashtirishiga ko'nikma va malakalarni mustahkamlash hamda chuqurlashtirishda yordam beradigan mashqlarni bajarish orqali erishiladi. Shu bilan birga, ularning fikri takomillashadi, bilimlari kengayadi va chuqurlashadi.

O'quv mashg'ulotlari davomida o'qituvchi bolalarning xotirasini rivojlantirish ishlarini ham amalga oshirishi kerak. Ana shu maqsadda ularga so'zlarni, ta'riflarni, har xil qoidalarni yodlash topshiriqlarini berishi lozim. Yodlash quruq va ma'nosini anglab yodlashdan iborat bo'ladi. Ma'nosini anglab yodlash yangi materialni ilgari ma'lum materialga, nomlarga mantiqiy bog'lash asosida amalga oshadi. U quruq yodlashga nisbatan o'quvchilar xotirasida materialni kamroq vaqt sarflagan holda ko'proq mustahkamlashni ta'minlaydi.

Shuning uchun o'quvchilarda, avvalo, mantiqiy ma'nosini anglab xotirlashni rivojlantirish zarur.

Birinchi sinf o'quvchisi ta'limning dastlabki oylaridagi o'qish darslarida o'qilgan hamma narsani to'la yodlashga, matnlarni yoddan gapirib berishga harakat qiladi. Chunki u asosiy fikrni ajrata olmaydi.

O'qituvchining vazifasi o'quvchilar o'zlashtiradigan materialning mustahkamligini ta'minlashdan, darsni tushuntirish tizimidagi asosiy fikr ajraladigan yo'sinda tashkil qilishdan iboratdir.

Yuqoridagilardan xulosa sifatida aytish mumkinki, o'quvchilar o'zlashtiradigan bilimlar mustahkam bo'lishi uchun:

1. O'qituvchi o'quv materialidagi asosiy fikrni ajratishi shart.

2. O'quv materialidagi asosiy fikr o'quvchi o'rganilgan masala bo'yicha biladigan g'oyaga bog'langan bo'lishi kerak.

3. Bilimlar o'quvchilarning qarashlari va e'tiqodlari tizimini o'z ichiga olishi lozim, shundagina ular bolaning boyligiga, yutug'iga aylanadi va u bilimlarni esidan chiqarmaydi.

4. O'quv materialini o'quvchining amaliy ishlari va mashqlariga bog'lab, undagi bilimlarning mustahkamligini ancha oshirish zarur.

Ta'limning hozirgi sharoitida bolalarning individual xususiyatlarini o'rganish va ularga yakka tartibda yondashishni amalga oshirish tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunda yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish vazifalarini bajarish uchun otanonalar va bolalarga maktabdan tashqari qo'shimcha vositalarni tanlash bo'yicha keng imkoniyatlar tug'ilmoqda. Har bir bola to'garaklarda va seksiyalarda shug'ullanishi mumkin. Bolalarni kamol toptirish imkoniyati hamma bolalar uchun bir xilda ro'yobga chiqmaydi. Bir bola aviamodel to'garagida, ikkinchi bola yosh tabiatshunoslar seksiyasida va uchinchi bola musiqa bilan shug'ullanadi. Tabiiyki, ana shunday mashg'ulotlar bolalarning individual xususiyatlari va mayllariga har xil ta'sir ko'rsatadi.

Bir oiladagi bola kichikligidan mustaqillikka, intizomlilikka, mehnat qilishga odatlanadi. Boshqa oiladagi bola erkatoy bo'lib, kattalarning maslahati, buyrug'i yoki yordamisiz o'zicha biror ish qilishni xohlamaydi. Uchinchi oiladagi bola esa o'z holiga tashlab qo'yilib, uning tarbiyalanishida ko'p narsa o'zi do'stlashgan bolalar guruhiga bog'liq bo'ladi.

Oilalar tarbiyasining turli sharoiti, albatta, juda katta individual tafovutlarga olib boradi.

Bilimlarning puxtaligiga quyidagi yo'llar bilan erishish mumkin:

1. Eslab qolishga o'rgatish bilan. O'quvchilar ko'p narsalarni eslab qolishni o'rganishlari kerak. Buning uchun o'qituvchi ularni doimo eslab qolishga yo'naltirishi, maktabda, ko'chada, uy-ularida kuzatishga va eslab qolganlarini gapirib berishga majbur etishi lozim. Bunda o'qituvchining nazorati juda muhimdir. Agar u materialni chorshanba kunigacha yodlashni aytsa-yu, uni juma kuni so'rasa, materialning yarmidan ko'pi unutilgan bo'lishi mumkin. O'qituvchining tushunarli shakl va metodlari uzoq vaqt-gacha, hatto umr bo'yi eslab qolishga ham o'rgatishi zarur.

2. Kuchli taassurot qoldirgan narsalar xotirada saqlanadi. Yaxshi yoki yomon ta'sir ko'rsatmaydigan, saviyasiz, bir yo'sindagi materiallar esda qolmaydi.

3. Badiiy abadiyotning yaxshi namunalaridan keltirilgan parchalar, maqollar, topishmoqlar, hikmatli so'zlar xotirada mustahkam saqlanadi.

Ta'limning muvaffaqiyatlilikligi o'qitish jarayonida didaktik prinsiplar qanchalik amalga oshirilishiga, ularning o'zaro ta'siri, ulardan qanday foydalanishiga bog'liqdir. Binobarin, o'z-o'zidan ayonki, ilmiylik, tizimlilik, ko'rsatmalilik prinsiplariga, umuman pedagogika tavsiya etgan prinsiplar majmuyiga rioya qilmay bilimlarning puxtaligiga erishish mumkin emas.

### **TA'LIMNI TURMUSH BILAN BOG'LASH PRINSIPI**

Ilmiy bilimlar kishilarning ishlab chiqarish faoliyatiga bo'lgan ehtiyojlari asosida vujudga kelishi, ana shu faoliyatga xizmat qilishi va turmush bilan bog'liqligi sababli bunday bilimlarni o'zlashtirish uchun faqat ularning mazmunini emas, balki amalda qo'llanishini ham o'rganish kerak. Ana shu prinsipni (ta'lim nazariyasi va amaliyotini o'zaro bog'lashni) amalga oshirishning muhim vositasi o'qitishni o'quvchilarning amaliy faoliyati va mehnati bilan qo'shib olib borishdir. Respublikamizning xalq ta'limi to'g'risidagi Qonunida o'qitishni hayot bilan chambarchas bog'lash talabi qo'yilgani bejiz emas.

Ta'limda o'qitishni amaliyotga bog'lash prinsipini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi ikkita pedagogik talabga rioya qilish zarurdir:

1. Nazariy materiallarni o'rganishda ularning tizimi va mantiqini saqlash kerak.

2. Amaliy ko'nikma va malakalarni bilimlarga tayanmay o'zlashtirish o'qituvchining ishidagi kamchilikdir. Puxta egallangan va anglangan bilimlarga o'quvchilarga amaliy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish imkonini beradi.

### **O'QITISHDA INDIVIDUAL YONDASHISH PRINSIPI**

Individuallik nima? Pedagogikada individuallik hozirgi paytgacha sof tashqi xarakterga ega bo'lib, u (o'quvchilarning butun jamoasi bilan o'tkaziladigan dars, leksiya kabi umumiy mashg'u-



lotlar, o'quvchilarning jamoasi emas, ularning ayrimlari bilan o'tkaziladigan, masalan, seminar singari guruh mashg'ulotlar qatorida) har bir o'quvchi bilan alohida shug'ullanishni bildirib keldi. Pedagogika uning mohiyatiga chuqur kirib bormadi. Individuallikning shakllanishi esa, avvalo, uning mohiyatini va qanday komponentlardan tarkib topishini bilishni taqozo etadi. Har bir o'quvchi bilan alohida ishlab, uning individual sifatlarini rivojlantira olmaslik ham mumkin, lekin o'quvchilarning butun jamoasi bilan ishlab, ularning har birida individuallik shakllanishi uchun sharoit yaratish ham mumkin. Bunga qanday qilib erishilishini bilish uchun „individuallik“ tushunchasiga kiradigan strukturaviy elementlarni, individuallikni rivojlantirish va shakllantirish ishida qaysi prinsiplar hamda metodlardan foydalanish kerakligini aniqlash zarur.

Individuallikning mohiyatini individ sifatidagi, shaxs sifatidagi, subyekt sifatidagi insonning o'zaro ichki bog'lanishdagi va bir butun xossalari tashkil qiladi. „Individ“, „shaxs“, „subyekt“ umuman insonni emas, balki uning bir jihatinigina ifodalaydi. Shuning uchun ham bizning ko'z oldimizda inson o'zining faqat u yoki bu jihati bilan namoyon bo'lmaydi, u bir paytda butun mavjudot bo'lib, maxsus tushuncha bilan qayd etilishi lozim. Individ, shaxs va subyektning xususiyatlari o'zaro ta'sirlashuvi asosida vujudga keladigan individuallik tushunchasi ana shundan iboratdir.

„Individ“ tushunchasi insonni tabiiy mavjudot sifatida aks ettiradi va individuallikning tabiiy asosini ifodalaydi; u inson individualligining asosiy jihati bo'lib, insonning organik, yosh, jinsiy, konstitutsion, neyrodinamik xususiyatlariga kompleks holda qaraydi va bular o'zaro ta'sirlanib insonda turli individual xususiyatlarning — temperament, iste'dod, organik ehtiyojlarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi va bu xususiyatlar ham individuallikning tabiiy asosini tashkil qiladi.

Insonning ijtimoiy sifatini „shaxs“ tushunchasi ifodalaydi. Ijtimoiy tajribaga ega bo'lmagan inson individ shaxsiga aylanmasligi ham mumkin. Inson shaxsining xususiyatlari individuallik strukturasiining ajralmas qismi bo'lib, individuallikning o'zi inson shaxs sifatida kamol topishining ijtimoiy sohasidagina namoyon bo'ladi. „Shaxs“ tushunchasi alohida insonda ijtimoiy munosabatlarning ko'rinishini, undagi ijtimoiy xususiyatlarning birligini mujassamlashtiradi. Shaxsning individualligi uning ijtimoiy muhitdan nisbiy erkinligidir, u ichki alohidaligida ko'rinadi.

Individuallik — insonning individi va shaxsiga xos xususiyatlar bilan birga subyekt xususiyatlarini ham o'z ichiga oladi. Inson subyekt sifatida tushuniladi. Subyekt amaliy faoliyat va ong sohibidir. Insonning har qanday faoliyati individuallikning ko'rinishi bo'lavermaydi. Alohida, ichki vositali faoliyatning mustaqil harakat qiladigan va bir qarorga keladigan subyektigina individuallik hisoblanadi.

Individuallikka strukturali — tizimli yondashish uning yaxlit voqea sifatidagi o'ziga xos xususiyatlarini yoritishi bilan juda muhim ahamiyatga molikdir. Lekin uning umumiy mexanizmlarini aniqlash uchun organizm faoliyatining ichki qonunlari va shakllariga, uning individual hayot tajribasi shakllanishining qonuniyatlariga murojaat qilish kerak.

### INDIVIDUAL PEDAGOGIKA PRINSIPI

Individuallikka strukturali — tizimli yondashish bilan birga uning vujudga kelishiga *bola organizmining yetilishi jarayonlari* asosida psixofizik o'sishi bilan bog'liq holda qaraladi, uning asosiy belgilari ta'riflanadi, individuallashuvning omillari aniqlanadi. Mana shularning hammasi individuallik shakllanish va rivojlanish jarayonlarini, uning amalga oshuvini ta'riflashning muhim va zarur jihatlaridir. Lekin, bizningcha, ular „Nima qilish kerak?“ degan savolga taalluqli bo'lib, „Qanday qilish kerak?“ degan savolga javob topishda bizga refleksologiya yordam beradi. (Refleksologiya pedagogikaning 20- yillar boshida Rossiyada vujudga kelgan yo'nalishidir. Bu yo'nalishning asoschisi V. M. Bexterov bo'lib, uning bosh maqsadi insonni o'rganish va tarbiyalashdan iboratdir. Refleksologiya shaxsni o'rganish va tarbiyalashda yangi imkoniyatlar ochadigan fan bo'lib, u psixikani keltirib chiqaradigan asab-mushak faoliyatining asoslari, qonuniyatlari va mexanizmlarini har tomonlama sinchiklab o'rganishdan boshlanadigan fanni taqozo etdi.)

Refleksolog olimlar o'tkazgan tajribalar, ularning nazariy isbotlari asosida XX asr boshlarida keng tarqalgan va amalda qo'llangan erkin tarbiya nazariyasi asosida; hozirgi olimlar, pedagog va psixologlarning qarashlariga, Toshkent shahar maktablaridagi o'qituvchilarning ilg'or individual tajribalari va shaxsiy tajribamizga tayanib individual pedagogikaning quyidagilardan iborat prinsiplarini belgiladik:

1. Pedagogika fanida insonning tabiati prinsipi — pedagogika nazariyasi va amaliyotining poydevori sifatida bolani o'rganish natijasida to'plangan bilimlarni o'z ichiga oladi.

2. Bolaning atrofidagi muhitni tashkil qilish. Pedagogikaning eng birinchi vazifasi insondagi biologik va ijtimoiy xususiyatlarining o'zaro dialektik ichki bog'lanishiga tayanib bolaning o'sishiga sharoitlar yaratishdir.

3. Pedagogik jarayonni amalga oshirishning faol metodi bilan birgalikda bolaning shaxsiy tajribasi asosidagi erkin faoliyati va ijodini rivojlantirish. (Asosiy ishtirokchi shaxs — bola.)

4. Shaxsning hayoti bilan jamiyat hayotini uyg'unlashtirish va birlashtirish — tarbiyalanuvchilarni kamol toptirishdagi asosiy maqsad.

Individual pedagogika prinsiplarini hisobga olib ta'lim-tarbiya ishlari tashkil qilinadi. Ta'limning tarbiya jarayoni haqida gap borganida ko'z oldimizda avvalo ikkita qiyofa — o'qituvchi va o'quvchi gavdalarnadi. Biz ularni subyekt — obyekt munosabatlarida anglashga odatlanganmiz. O'qituvchi — ta'sirning subyekt va o'quvchi — ta'sirning obyektidir. Pedagogik jarayonga ham birovning ikkinchi birovga ta'sir ko'rsatishi deb qaralgan. Toshkent shahar maktablari amaliyoti ustida olib borilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, ana shu sxema hozirgi kungacha davom etmoqda. Sinfda o'qituvchining o'quvchilar bilan ishlashining avtoritar uslubi saqlanmoqda. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi bosh ijrochi shaxs hisoblanadi. U hikoya qiladi, ko'rsatadi, buyuradi; o'quvchi esa passiv kuzatuvchi va o'qituvchining xohishini ijro etuvchi rolini o'ynaydi. Pedagogik jarayonni insonparvarlashtirish o'qituvchi bilan o'quvchining o'zaro munosabatlarda tarkib topgan odatlarni mutlaqo o'zgartirishdan ham iboratdir. U o'qituvchi va o'quvchiga subyekt — subyekt munosabatlarida qarashni, biri ikkinchisiga ta'sir ko'rsatuvchilar sifatida emas, balki o'zaro hamkorlik qiluvchilar sifatida qarashni taqozo etadi. Ana shu asosdagina pedagogik jarayonni individuallashtirish mumkin. Bu masalada o'qituvchi o'zining ta'lim-tarbiya jarayonidagi rolini, maqsadga erishish uchun nima qilishi, bolalar bilan ishlashda nimalarga asoslanishi zarurligini yaqqol tasavvur qilishi kerak.

O'qituvchining faoliyatida uning talablari emas, balki bolaning ehtiyoji asosiy o'rinda turishi lozim. Binobarin, bolalar o'qituvchiga emas, balki o'qituvchi ularga xizmat qiladi. Ana shularga ko'ra va individual pedagogikaning prinsiplariga tayanib, bolalar bilan ishlashni tashkil etishimiz kerak.

Bola tabiatan harakatchan bo'lib, faqat idrok etish uning uchun mashaqqatdir. U hamma ishni o'zi qilishga, izlash va topishga, kashfiyot etishga tirishadi. Ijod — uning sevgan ishi, ta'lim va tarbiyaning ana shu metodi bilan bolaning ishchanlik holatini doimiy

ravishda qo'llab-quvvatlash, unga tayyor bilimlarni bermay, ularni o'zi egallashi uchun sharoit yaratish kerak. Gap bolaning xotirasini to'ldiradigan ilmiy faktlarning sonida emas, balki mazkur fanning metodlarini o'zlashtirishdadir. Bizlar o'qituvchi ajoyib hikoyalar bilan bolani qiziqtirishiga, ular oldida artist bo'lishiga odatlanib ketganmiz. Lekin o'qituvchi xuddi shu bilan bolani mustaqil intilishdan va o'zida tabiiy ravishda tug'ilgan qiziqishlarni qondirishdan uzoqlashtiradi. Fan bolalar oldida ularning o'zlari yoki o'qituvchi qo'yadigan qator muammolar sifatida yoritilishi va o'qituvchi ana shu muammolarni hal qilish uchun kerakli materiallarni bilishi lozim. Shuningdek, u darsga tayyorlanishda bolalarga qaysi hikoyalarni aytib berish to'g'risida emas, balki u yoki bu muammoni hal qilishlari uchun qanday materialni keltirish haqida o'ylashi kerak. Materialni tahlil qilishda xulosalar chiqarishni o'quvchilarning o'zlariga tavsiya etishi maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi uchun o'zining fani emas, bolalar, ularning aqliy kuchlari va qobiliyatlarini rivojlantirish vazifasi birinchi o'rinda turishi zarur. Odatda o'qituvchi bilan o'quvchining aloqasini amalga oshiradigan narsa mazkur o'qituvchi o'qitadigan predmetdir. U o'qituvchi shaxs sifatida ta'sir ko'rsatishi lozim bo'lgan paytda, birinchi o'rinda o'quv predmetlari emas, balki jonli odamlar — o'quvchi, ularning ma'naviy muloqoti turishi kerak bo'lgan paytda uzatish instansiyasi sifatida xizmat qiladi. Haqiqiy o'qituvchi o'quvchilar ustidan hukmronlik qilmasligi va ularga o'zining tengdoshlari sifatida muomalada bo'lishi, o'zi ham doimiy ravishda o'qishi, shu jumladan, o'quvchilaridan o'rganish zarurligini unutmasligi kerak.



### *Savol va topshiriqlar*

1. Prinsip deganda nimani tushunasiz? Sizda o'z xatti-harakatingizning, kishilarga munosabatingizning ma'lum prinsiplari bormi? Muayyan vaziyatda ko'rsatgan prinsipiallingizga misollar keltiring.
2. Ta'limning asosiy prinsiplari o'zaro bog'liqligini ko'rsating.
3. Ayrim prinsiplar (tanlab) tadqiq qilingan ishlar bilan tanishing va ularni qisqa bayon eting.
4. „Boshlang'ich ta'lim“ jurnalida tavsiya etilgan ayrim darslarni o'rganing, ulardagi o'qituvchi foydalangan ta'limning prinsiplarini ajrating.





## **XIV BOB. O'ZBEKISTON MAKTABLARIDAGI TA'LIMNING MAZMUNI**

### **TA'LIM MAZMUNINI BELGILASHNING UMUMIY ASOSLARI**

#### **Ta'lim mazmuni tushunchasi**

Ta'lim asosida jamiyat rivojlanishining obyektiv ehtiyojlari turadi. Ta'lim insonning mehnat olamiga samaraliroq kirishini, jamiyat hayotiga qo'shilishini ta'minlaydi. Mustaqillikka erishib, erkin bozor munosabatlari asosida demokratik huquqiy davlat sifatida shakllanish yo'liga o'tgan O'zbekistonda hozirgi bosqichda Xalq ta'limi tizimiga, pedagogika faniga, yosh avlodda mustaqillik va faollikni, ishbilarmonlik va tadbirkorlikni shakllantirishga jiddiy e'tibor berilmoqda.

XX asr pedagoglari va psixologlarining diqqat markazida o'quvchilarning aqliy qobiliyatlarini shakllantirish, ularni o'qitish, tarbiyalash va kamol toptirish jarayonlarini uyg'unlashtirish, faoliyat va ongning o'zaro bog'liqligi nazariyasini ishlab chiqish, mustaqil o'quv-bilish ishlari, o'qishni faollashtirish, ta'lim jarayonlarini optimallashtirish, faol ta'limning shakl va metodlaridan foydalanish kabi muammolar asosiy o'rin oladi. Ularni ishlab chiqish mamlakat pedagogika va psixologiya fanlarida jahonda haqli ravishda e'tirof etilgan turli yo'nalish va maktablar vujudga kelishini oldindan bilish imkonini yaratdi.

Ta'lim — jarayon bo'lib, u natija va tizimdir. Ta'lim jarayon sifatida bilimlar, ko'nikma va malakalarning ma'lum yig'indisini, faoliyat va munosabatlarning tegishli tajribasini o'zlashtirishga qaratilgan maxsus ishlarning tashkil qilinishidir. Ta'lim natija sifatida bilimlarni, faoliyat va munosabatlar tajribasini o'zlashtirishda erishilgan darajadir. Ta'lim tizim sifatida davlat muassasalari va boshqarish organlarining majmuasi bo'lib, ular doirasida insonni tarbiyalash jarayoni amalga oshiriladi. Shu tariqa, ta'lim doimo bir yo'la tarbiyalash jarayonini ham, o'qitish jarayonini ham ifodalaydi.

Yosh avlod haqida gap borar ekan, shaxsning kamol topishi, o'z mavqeyini anglash va o'zini ko'rsatish masalalari birinchi o'rinda turadi. Bu masalalar butun jamiyat va maxsus yaratilgan ijtimoiy institutlar va insonning o'zi tomonidan tasodifiy ra-

vishda ham, maqsadga muvofiq yo'sinda ham hal qilinishi mumkin. Ta'lim tizimida shaxsning ijtimoiylashuvi, kasbni egallashi va moslashuvi jarayonlarini maqsadga muvofiq tarzda boshqarishga ham da'vat etilgan.

Ta'lim deganda: shaxsning jismoniy va ma'naviy kamol topish jarayonini, uning ongli ravishda ayrim ibratli qiyofalarga yo'nalishi va tarix maydoniga kelib, ijtimoiy ongda ma'lum darajada yorqin iz qoldirgan ijtimoiy namuna (masalan, Sparta jangchisi, xushaxloq ruhoniy yoki serg'ayrat ishbilarmondek) bo'lishi, har tomonlama barkamollikka intilish jarayonini tushunish mumkin. Ana shu tushunchaga ko'ra, ta'lim butun jamiyat va shaxslar hayotining ajralmas jihati sifatida namoyon bo'ladi va so'zning keng ma'nodagi „tarbiya“ tushunchasiga o'xshaydi. Lekin ko'p ma'noliligi ko'rsatilmasa „ta'lim“ so'zini to'liq anglab bo'lmaydi. Masalan, ta'lim deganda ma'lum hajmdagi bilimlar, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish tushuniladi. Ta'limga shaxsni o'qitish va kamol toptirish jarayonini tegishli yo'sinda tashkil etish sifatida qarash ham mutlaqo to'g'ridir. Bulardan tashqari, shubhasiz, ta'lim bilimlar, ko'nikma hamda malakalarni berish va o'zlashtirish bilan bog'liq faoliyat tizimi, shuningdek, ma'lum ijtimoiy institut (o'ziga xos vazifalarni bajarish uchun tuzilgan muassasalar tizimi)dir.

Ko'ramizki, ta'lim turli shakllarda namoyon bo'ladigan ko'p-qirrali hodisa (daraja, jarayon, faoliyat)dir. O'quv-tarbiya jarayoni tizimining tuzilishi, ana shu jarayonning mazmuni, pedagoglar va o'quvchilarning faoliyati, shuningdek, amalga oshirilgan ishlarning natijasi mazkur tizim jamiyatning qanday tarixiy tipiga mansubligiga bog'liqdir. Mana shularning hammasini hisobga olib, quyidagilarni aytish o'rinlidir: ta'lim — nisbatan mustaqil tizim bo'lib, uning vazifalari jamiyat a'zolarini muntazam ravishda o'qitish va tarbiyalash orqali ularni ma'lum boylıklar, ko'nikma va malakalar hamda axloq normalari bilan qurollantirishdir. Ana shunday o'qitish va tarbiyalashning mazmunini pirovard natijada mazkur jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tizimi hamda moddiy-texnik taraqqiyotining darajasi belgilaydi.

Endilikda har bir xalqning faqat o'z milliy madaniyati asosida o'qishi va tarbiyalanishi yetarli emasligi, u jahon madaniyati boylıklarini ham anglashi zarurligi to'g'risidagi fikrlar tasdiqlanmoqda. Bilimdon kishilarni tarbiyalashdek an'anaviy vazifa o'rniga atroflicha fikr yuritadigan ijodkor kishilarni kamolga yetkazish vazifasi olg'a surilmoqda. Ilgari ma'lumotlilik darajasi o'rganilgan qoidalar,

tahlil qilingan asarlar, yodlangan she'rlarning soni va bir xil masalalarni yechish ko'nikmasi bilan belgilangan bo'lsa, hozirgi kunda bu daraja miqyosi kengaydi. Eng muhim masalalarni qo'ya bilish har qanday ishga ijodiy yondashish kabi xislatlar ma'lumotlilik darajasini ko'rsatadi. Avvalgi vaqtlarda o'quvchilarni axborotlardan xabardor qilingan bo'lsa, endi ularda hayotni o'zgartirish, uni yaxshi tomonga burish ko'nikmalari va qobiliyatlarini shakllantirishga jiddiy ahamiyat berish zarur. Eng muhimi, butun tarbiyaviy jarayonni insonga qaratishdir. Ta'lim insonni bilimlar bilan qurollantiribgina qolmasligi, balki uni shaxs sifatida kamol toptirishi va takomillashtirishi ham kerak. Boshqacha aytganda, jamiyatda ta'limni insonparvarlashtirish g'oyalari tobora keng yoyilmoqda. Shubhasizki, jamiyat va maktabni insonparvarlashtirish muammosi ta'limning og'zaki axborot usulini unumli, yaratuvchilik usuliga aylantirish bilangina hal bo'lmaydi. Mazkur jarayonning eng muhim yo'nalishi ta'lim mazmunini insonparvar qilishdir. Bu tadbir, birinchidan, shaxsda madaniyatni shakllantirishda fanlarning rolini oshirishdan, xalq milliy madaniyatining barqaror boyliklarini tushunishdan, ikkinchidan, tabiiy-ilmiy va texnika fanlarini ekologik hamda ijtimoiy ahamiyatli jihatlar bilan boyitishdan iboratdir.

Ta'limni insonparvarlashtirishning eng zarur tomonlaridan biri — maktab o'quvchilarga faqat ma'lum hajmdagi bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishda yordam berib qolmay, balki ularni madaniyati, uning boyliklari va xilma-xilligiga jalb etishi kerak. Hozir o'zbek maktabining milliy xarakteri muammosi g'oyat jiddiydir.

### **MAKTAB TA'LIMI MAZMUNINI QAYTA KO'RIB CHIQISHINING ASOSIY YO'NALISHLARI**

Maktab har bir bola uchun baravar imkoniyat va sharoitlarni ta'minlashi tufayli insonni o'qitish va tarbiyalashning umumiy tizimida muhim rol o'ynaydi. Ana shu davrda bolaga singdiriladigan bilim inson shaxsini, dunyoqarashini shakllantirish, uni kamol toptirish darajasini belgilaydi. Maktabda o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malaka, faqat yoshlarning maktabda yoki boshqa o'quv yurtida, keyinchalik o'qitish va tarbiyalashning asosini emas, balki yetuk insonning amaliy, ijtimoiy faoliyati sifatini ham ko'rsatadi.

Hozirgi bosqichda maktab uzluksiz ta'limning umumiy tizimida muhim qism, birinchi bo'g'in hisoblanadi. Shuning uchun unga quyidagi vazifalar qo'yiladi: o'quvchilarda tabiat va jamiyat

to'g'risidagi bilimlarni tarkib toptirish; o'quvchilarning ongini boyitish, bilimga qiziqishlarini oshirish; o'quvchilarni o'rta maktabning navbatdagi bosqichida muvaffaqiyatli o'qishga tayyorlash. Maktabdagi to'rt yillik boshlang'ich ta'lim dasturida o'quvchilarga muayyan bilim, ko'nikma va malakalar tizimini berishdan tashqari, ularni tabiat va jamiyat haqidagi dastlabki bilimlar asosida dunyoning umumiy manzarasi bilan tanishtirish, ularda dunyoni yanada chuqurroq bilish uchun zarur ko'nikma va malakalarni shakllantirish, tevarak olamga to'g'ri qarash va munosabatni tarbiyalash ham nazarda tutiladi.

Nutqning ma'lum darajada o'sishi, o'qish, yozish va hisoblash malakalarini o'zlashtirishni hamda ta'limning keyingi bosqichlarida dasturni muvaffaqiyatli o'rganish imkonini beradigan umumiy kamolotni ta'minlashi kerak. Ta'limning dastlabki bosqichida bolalarning axloqiy, estetik va jismoniy tarbiyasiga hamda ularning sog'ligini saqlash masalalariga katta ahamiyat beriladi.

Asta-sekin bolaga faqat bilim berishgagina emas, balki uni tarbiyalashga ham qaratilgan o'qitishning yo'nalishini belgilaydigan qoidalar amalga oshiriladi.

O'zbekistonda Xalq maorifining tashkil topishi va rivojlanishining har bir bosqichida boshlang'ich ta'lim bo'yicha ma'lum yutuqlarga erishildi. 1934- yildayoq respublikada boshlang'ich maktab (to'rt yillik bosqich maktabi) hajmidagi umumiy ta'lim masalasi ham hal qilindi. Shundan keyin respublikamizda rivojlanishning ikkinchi bosqichi boshlanib, boshlang'ich maktabni bitirgan hamma bolalar uchun yetti yillik umumiy majburiy ta'limni joriy etish vazifasi qo'yildi va hal etildi.

Maktab rivojlanishining xususiyatlarini baholash uchun shuni qayd etish kerakki, o'sha paytda o'qish 8 yoshdan boshlanadigan to'rt yillik boshlang'ich maktab tizimi to'la tarkib topdi. Keyinchalik, u zamonaviy boshlang'ich ta'limni qurish asosida tobora takomillashdi. Bu esa keyingi o'qish va amaliy faoliyat imkoniyatini ta'minlaydigan bilimlar, ko'nikma va malakalarning mukammal doirasidan iborat birinchi bosqich bo'ldi. Unda ona tili, arifmetika, geografiya, tabiatshunoslik yetarli darajada o'rganildi.

O'sha paytlarda tashabbuskor o'qituvchilar Abdulla Avloniy, Oqilxon Sharofutdinov, Siddiq Rajabov va boshqa mashhur pedagoglarning ilg'or g'oyalarini keng miqyosda amalga oshirdilar. Ijodiy kuchlarning o'sishi va faollashuvi boshlang'ich ta'lim-tarbiyaning yanada rivojlanishida g'oyat muhim ahamiyat kasb etdi.



Ilg'or o'qituvchi va metodistlar, Xalq maorifining tashkilotchilari pedagogika fani oldiga ta'limni qayta qurish vazifasini qo'ydilar.

Zamonaviy maktabni to'g'ri baholash uchun uni qayta qurishning xarakterini, yo'nalishini belgilaydigan eng muhim umumiy talablar ishlab chiqildi. Ana shular asosida o'quvchilarning had-dan tashqari qiynalishi bartaraf etildi, maktab dasturidan ortiqcha tafsilotlar, ikkinchi darajali va bir-birini aynan takrorlaydigan o'quv materiallari olib tashlandi.

Ilg'or tajribalarni sinchiklab tahlil qilish, metodistlar, pedagoglar va psixologlarning tadqiqotlari natijalarini hisobga olish bilan asosiy pedagogik mezonlar ishlab chiqildi. Bu mezonlar konsepsiya, dasturlar, darsliklar hamda metodikalarda ham amalga oshirilib, ta'limda qo'llandi. Mazkur mezonlar quyidagilardan iborat edi:

— o'zlashtirishga tavsiya etiladigan yangi bilimlar o'quvchilarning ongli amaliy ehtiyojlaridan kelib chiqishi, ularda qiziqish uyg'otishi kerak;

— bolalarning o'zlashtirishi ularning maqsadga muvofiq faoliyati sharoitida amalga oshishi darkor, bu faoliyatning usullarini esa muntazam ravishda o'rgatish lozim;

— o'quv faoliyati muvaffaqiyati o'quvchilarning yuksak darajada faolligi va mustaqilligiga bog'liq. O'qituvchi esa ularga mana shu sifatlarni shakllantirish maqsadida yordam berishi zarur. Buning muhim omili o'quv faoliyatining ta'lim yo'nalishlarini tarkib top-tirish, bolalarda bilimga qiziqish uyg'otishdir. Shunga ko'ra, o'qitishning yangi metodlari va usullarini ishlab chiqish, ularni faollashtirish, o'quv faoliyatini metodik jihatdan ta'minlash kerak;

— o'qitish jarayonida barvaqtroq umumlashtirishlar qilish va ularga o'quvchilarni jalb etish lozim;

— har bir darsda bilimlarni faqat kengaytirishga emas, balki boshqacha sharoitlarda qo'llashga ham yordam beradigan yangi element bo'lishi kerak;

— takrorlash har bir mashg'ulotda muntazam ravishda amalga oshirilishi, ularda faqat eslash emas, balki boshqa aqliy-ijodiy ishlar ham qo'llanishi zarur; takrorlash uchun maxsus darslar shaklida vaqt ajratilmaydi;

— darslarning materiallaridan o'quvchilarni tarbiyalash maqsadlarida ko'p foydalaniladi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarning dunyo-qarashini shakllantiradi, ularga, asosan, muayyan tushunchalar shaklida ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, etik va mehnatga doir bilimlar

beradi, bolalarda voqcalarga, dalillar va hodisalarga to'g'ri munosabatni vujudga keltiradi, ularni o'z xatti-harakatlaridan, ana shu bilimlardan foydalanishga o'rgatadi.

Ana shu mezonlarga amal qilinsa, ta'lim-tarbiya samaradorligi yanada oshadi.

### O'QUV REJASI, DASTURLARI VA DARSLIKLAR

Barcha maktab predmetlarida beriladigan ta'limning mazmuni davlat hujjatlarida, o'quv rejasida, o'quv dasturlari va darsliklarida aks etgan. Ana shu hujjatlar respublikadagi barcha maktablar uchun majburiydir.

**O'quv rejas**i. Maktabning o'quv rejas i maktabda o'rgatish uchun tanlangan o'quv predmetlarini, ularning ta'lim olish yo'llari bo'yicha taqsimlanishini, har bir predmetga ajratilgan soatlar miqdorini va shu soatlarning haftalarga bo'linishini belgilaydi.

O'quv rejalar i Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi hamda respublikadagi barcha maktablar uchun majburiy hisoblanadi. O'quv rejalarini tuzishga predmetli o'qitish prinsipi asos bo'ladi.

O'quv rejas i ta'limning mazmunini belgilaydigan eng muhim hujjat bo'lib, unda mazkur o'quv yurtida o'rganiladigan o'quv predmetlarining tarkibi, ularning o'quv yillari va haftalari bo'yicha taqsimlanishi hamda har bir o'quv predmeti uchun ajratilgan vaqtlar miqdori ana shularga muvofiq ifodalanadi. O'quv rejas i aslida ta'lim mazmunining qabul qilingan u yoki bu nazariy konsepsiyasini normativ yo'sinda va yaxlit holda aks ettiradigan asosiy hujjatdir.

Ta'limning mazmunini ifodalovchi hujjat sifatidagi o'quv rejas i ijtimoiy buyurtmaning pedagogik talqini natijasida tarkib topgan ta'lim mazmunining ifodasiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Jahon pedagogikasida o'quv rejasini ayrim o'quv predmetlaridan tuzish kerakmi yoki turli fanlarga doir bilimlar qandaydir amaliy ish yoki tadqiqot doirasi guruhlanadigan komplekslar va loyihalardan tuzish kerakmi, degan masala xususidagi munozara bormoqda. „Amerika Qo'shma Shtatlarida kompleks o'qitish uzoq muddatli elementar maktabdagina emas, balki o'rta maktabda ham davom etadi. Komplekslik g'oyasining o'zi nihoyatda keng tus olgan. Amerika pedagogikasida o'quv dasturlarini predmetlar bo'yicha tuzishga qarshi kurash boshlanganiga yarim asrdan oshdi.“<sup>1</sup>

<sup>1</sup> З. А. Малькова. Современная школа США. М., 1970, 143- бет

Ish tajribalari va anchagina pedagogik tadqiqotlardan ko'rinishicha, maktabda o'rgatish uchun tanlangan o'quv predmetlarini bir yo'la o'rganish mumkin emas. Chunki, birinchidan, bunga jiddiy chegaralangan o'quv vaqti imkon bermaydi; ikkinchidan, ayrim o'quv predmetlarini o'zlashtirish uchun oldin boshqa o'quv predmetini o'rganish shart. O'tmishda ana shunday fikr yuritish ma'lum predmetlarni o'rganishda jiddiy izchillik prinsipini mustahkamlashga urinish imkonini berdi.

O'quv rejalari o'quvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiq tuziladi. O'quv rejasiga mazkur yoshdagi o'quvchilarga mos predmetlar tegishli hajmda kiritiladi va ular o'quvchilarning har tomonlama muvaffaqiyatli kamol topishiga yordam berishi ko'zlanadi. Har bir predmet uchun o'quv soatlarining miqdorini belgilashda, birinchidan, predmetning ta'lim tizimidagi roli va ahamiyati, ikkinchidan, mazkur predmet bo'yicha o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv materialining hajmi, uchinchidan, u yoki bu predmetni o'rganishning didaktik xususiyatlari e'tiborga olinadi.

O'quv rejasining tushuntirish xatida ikkita qoida yoritiladi: o'quv rejasining tuzilishi prinsiplari ta'lim mazmunining tarkibi va strukturasi ta'sir etadigan, uni to'g'ri aylantiradigan omillardan biri sifatida ifodalanadi; ta'lim mazmunining, ta'lim konsepsiyasini aks ettiradigan hujjat sifatidagi o'quv rejasining vazifalarini kengaytirmay turib, rejada va o'quv dasturlarida ta'lim mazmunining tarkibi va tuzilishini to'liq yoritib bo'lmaydi.

O'quv rejasida o'quv predmetlarining yaxlit kontegratsiyalangan tizimi ikki marta: maktabdagi ta'limning dastlabki va oxirgi pog'onalarida, o'qitishning boshlang'ich va yakunlovchi bosqichlarida ifodalanadi. Maktabning o'rta zvenosida predmetlarni tabaqali o'rganish asosiy o'rin oladi. Ta'limning boshlang'ich bosqichida integratsiyalangan kurslar kiritilishining sababi bolalarda yaqqol tabaqalangan kurslarga qiziqish bo'lmasligi, ya'ni ana shu davrda ular dunyoni yaxlit bilishi va idrok etishidir. Kichik maktab yoshidagi o'quvchini bilimlarni o'zlashtirish jarayonining o'zi qiziqtiradi. Predmetni bilishga qiziqish aqliy faoliyatning murakkab shakllari rivojlanishiga va keyinchalik predmetlarning tavsiflanishiga bog'liq holda vujudga keladi.

Amaliyotdan ko'rinadiki, yangi tipdagi maktablarni yaratish, ta'lim mazmunidan ortiqcha mafkuraviylashtirish va cheklashlarni chiqarib tashlash orqali ta'limdagi qoliplarning barham topishi ancha tezlashmoqda. Lekin ta'lim jarayonining o'zini qayta qu-

rish, o'qituvchi bilan o'quvchilar munosabatining uslublarini o'zgartirish natijalari yaxshi sezilmayotir.

Maktablarda ta'limning mazmunini yangilash borasidagi tadbirlar va yechimlar orasidagi o'rta maktab o'quv materiallarini quyi sinflarga oddiygina ko'chirish bilan o'quvchilarning qobiliyatini tezroq rivojlantirishga, ta'limning sifatini oshirishga intilishlar ham uchramoqda. Bunday materiallar esa bolalar o'zlashtirishining psixologik xususiyatlariga ham, quyi sinfdagi o'qitish metodlariga ham to'g'ri kelmaydi. Shunga ko'ra, mazkur tadbir ortiqcha so'zlarni kiritish, axborotlarni ko'paytirish bilan ta'limning mazmunini murakkablashtiradi va hajmini oshiradi, bolaning xotirasi cheksiz bo'lsa-da, uning uchun o'quv mashg'ulotini qiyinlashtiradi, xolos.

Insonparvar munosabatni barpo etish qadriyatlarining o'zgari-shini talab qiladi. Endilikda boshlang'ich ta'limda bilimlarning tayyor shakllarini o'zlashtirish va, asosan, faoliyatning qayta tiklash turlaridan foydalanish emas, balki bola faoliyatining bilim olish jarayoniga bog'liq izlanish turlarini faollashtirish kerak.

Psixologlarning tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, ta'lim ana shu yo'sinda qayta qurilsa, bola to'liq kamol topish subyektiga aylanadi. Shunda u faqat qayta tiklash va to'ldirish lozim bo'lgan bilimlar bilan ta'minlanadigan pedagogik ta'sir ko'rsatish obyekti hisoblanmaydi.

Bola faoliyatining jamoaga taqsimlangan shakllarida yoki o'qituvchi bilan birga ishlashda mustaqil bilim olish jarayoniga faol kirishadi va o'zining ijodiy qobiliyatlarini namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Xususan, mustaqil bilim olish jarayonidagi faol izlanish ishlarida, hatto qiyinchiliklarga duch kelinsa ham, bolaning sog'ligiga ijobiy ta'sir etadi. Shifokorlar va psixologlarning tasdiqlashicha, bolalar faolligining ro'yobga chiqmasligi ularga yomon ta'sir ko'rsatishi, intizomsizlikni, huquq buzish hollarini vujudga keltirishi, bolalarni „yuqoriga“ emas, balki „pastga“ yetaklashi mumkin.

Ta'lim mazmunini qayta qurishning butun murakkabligi shundaki, bolalarni kamol toptirish talabi ularning ijodiy ishlashini kuchaytiradigan metodlarni faol qo'llashga olib boradi, ko'nikma va malakalarni shakllantirish zarurligi esa tafakkurning reproduktiv komponentlaridan voz kechishga yo'l qo'ymaydi. Bunda ularni oqilona birlashtirish, tafakkurning samarali va reproduktiv komponentlari shakllanishining dialektik birligiga erishish, ayrim tadqiqotchilar taklif qilayotganidek, reproduktiv komponentlarni inkor qilmaslik kerak.

Jamiyat uchun nihoyatda zarur alternativ maktablarga bolalarning yaxshi oʻsgan va tayyorlangan sara qismi yigʻilayotgan, qolgan barcha bolalarni oʻqitish odatdagi maktablarga yuklanayotgani sababli insonparvar pedagogika gʻoyalari amalga oshirish yoʻliga kirgan ommaviy maktabning vazifasi juda murakkablashmoqda. Taʼbiyki, bunday maktablarda ham bolalarga maʼlum bilimlar doirasida axborotlar berish va juzʼiy koʻnikmalarni singdirish bilan cheklanish mumkin emas: ularni imkoni boricha yuqori darajada kamol toptirish kerak.

**Dastur.** Dastur va mukammal darslik oʻqituvchi hamda oʻquvchilar uchun, oʻquv-metodik qoʻllanmalarni tuzuvchilar uchun asosiy normativ materiallardir. Lekin oʻqituvchilar dastur va darsliklar bilan ishlashda ularning normativ va ijodiy jihatlarini farqlay olishlari kerak.

Oʻquv predmeti darsida taʼlimning mazmuni, asosan, dasturda masalalar roʻyxati bilan ifodalanadi.

Dasturning asosiy vazifasi — oʻquv predmetining mazmunini ifodalashdir. Unda kursning sinflarga, qismlarga, mavzularga boʻlinishi, ularni oʻrganish tartibi, soatlar turi koʻrsatiladi. Hatto, dasturdagi masalalar roʻyxati ham undagi boshqa boʻlimlarning mazmunidan tashqari, proessual yoʻnalishi ham mavjudligidan dalolat beradi. Shunday qilib, dastur ikkita vazifani bajaradi: taʼlimning mazmunini oʻquv predmeti doirasida aks ettiradi va predmet uchun muayyan normativ sifatida xizmat qiladi. Bundan tashqari, u darslikka oʻtishni tayyorlaydi va uning mualliflari faoliyati uchun yoʻllanma hisoblanadi.

Masalalar roʻyxati — dasturning markaziy boʻlimidir, ammo unda boshqa boʻlimlar ham boʻlib, ular darslikning tuzuvchilari fikrini va oʻqituvchilarning faoliyatini maʼlum yoʻnalishga solishi kerak. Har bir oʻquv predmeti boʻyicha haqiqiy dastur umuman toʻrt qismdan: tushuntirish xati (har xil dasturda mazmuni turlicha); roʻyxat koʻrinishidagi mazmunning oʻzi (mavzular, masalalar, laboratoriyalar va amaliy ishlar, namoyishlar, ekskursiyalar); predmetlararo aloqalar koʻrsatilgan boʻlim hamda oʻquvchilarning bilim va koʻnikmalariga qoʻyiladigan talablar ifodalangan boʻlimlardan iborat boʻladi.

Kursning maqsadlari va vazifalarini ifodalash — dasturning eng muhim elementidir. Xususan, ana shu maqsad va vazifalar darslik muallifining dasturni amalga oshirishdagi maʼlum nuqtayi nazarini va oʻqituvchining darslikni toʻgʻrilashi hamda oʻqitish

jarayonini tashkil etishi uchun tegishli yo'nalishni belgilaydi. O'qituvchi, ayniqsa, yosh o'qituvchilar o'z izlanishlarining yo'nalishini belgilab olish uchun kursning maqsadini chuqur anglashlari kerak. Dasturlarda shunday vazifalar ham beriladiki, o'qituvchi ularni hal qilish uchun institutda tayyorlanmagan bo'ladi. Buning misoli sifatida ta'lim mazmuniga metodologik bilimlarning kiritilishini aytish mumkin. Kursga mana shunday talablar qo'yilishining o'zi o'qituvchilarni chuqur o'ylashga majbur etadi. Tajribali pedagog o'tgan yillardagi dasturlarda bunday vazifalar bo'lmaganini sezadi. Bu hol uning mustaqil bilim olishi, ijodiy izlanishi, shuningdek, metodik birlashmada ishlashi uchun turtki bo'ladi.

**Darslik.** Dasturda ta'limning mazmuni *masalalar ro'yxati* orqali ifodalanadi. O'quv materiali o'quvchilarga mo'ljallangan darsliklar, o'quv qo'llanmalari, kitoblar va didaktik materiallarda, o'qituvchiga mo'ljallangan metodik tavsiyalarda yoritiladi. Darslik asosiy normativ hujjat hisoblanadi.

Darslik — o'quvchilarning kitobi va uning eng muhim qurolidir. U faqat darsda tahlil qilinadigan o'quv materialini o'zlashtirishda o'quvchiga yordam beribgina qolmay, unda mazkur predmetga qiziqish uyg'otishi, shu soha bo'yicha mustaqil bilim olish ishtiyoqini ham vujudga keltirish kerak.

Darslik o'qituvchi uchun ham metodik qo'llanma sifatida xizmat qiladi: tushunchalarni kiritish tartibini, ularni yoritish chuqurligini, kiritilgan o'quv materiallariga vaqtning taqsimlanishini belgilaydi.

Obrazli qilib aytganda, darslik o'qitish jarayonining „ssenariysi“dir. Unda o'qituvchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlar, faoliyat usullari qayd qilinadi, bilim va ko'nikmalarni ijodiy qo'llash yo'llari belgilanadi, emotsional — qimmatli qadriyatlarni tarbiyalashning ayrim vositalari ko'rsatiladi. Darslikda ta'limning ana shu barcha mazmuni muayyan tartibda o'quvchilarning ta'lim muvaffaqiyatini ta'minlaydigan bosqichlar bo'yicha joylashtiriladi. Lekin boshlang'ich maktab darsliklari bag'oyat o'ziga xosdir. Ularning hammasida metodik apparat kichkina bo'lib, u sinflar sayin asta-sekin vujudga keladi. O'rta maktabda ba'zan o'quvchi darslikdan tamomila mustaqil holda foydalana olish-olmasligi muhokama qilinsa, boshlang'ich maktabda bu ishga o'qituvchining rahbarligi majburiydir.

Ijodiy ishlaydigan o'qituvchilarning tajribasini tahlil qilib, juda muhim kuzatishni amalga oshirish mumkin. Ular darslik va o'zlarining metodik qo'llanmalaridan aqida sifatida emas, balki

normativ model sifatida foydalanadilar. Aslida o'qituvchilar sinfining ehtiyojini, shaxsiy imkoniyatlarini nazarda tutib, o'z darsliklarini yozadilar. Ular darslikka zid ishlamaydilar, balki uni to'ldirib, kengaytirib va chuqurlashtirib, uning mualliflari bilan hamkorlikka kirishib ish olib boradilar. Binobarin, muallif bolalarning tayyorgarlik darajasini hisobga olish, ularga tabaqali yondashish imkoniyatiga ega bo'lmaydi.

O'qituvchi doimo o'quv yili boshlanishidan oldin va keyinchalik har kuni darslikka murojaat qiladi. Uning bundan maqsadi har gal har xil bo'ladi. Darslik o'qituvchining qo'lida juda ko'p vazifalarni bajaradi. U, avvalo, predmetni o'qitish vositasi sifatida xizmat qiladi. Har bir o'qituvchi ana shu vazifani biladi va uni muvaffaqiyatli amalga oshira oladi.

### DARSLIK VA O'QUV FAOLIYATINI TASHKIL QILISH

Darslik bilan o'quv jarayoni o'zaro bog'liq bo'lib, unda savollar, topshiriqlar, jadvallardan, statistik, xronologik ma'lumotlar va hokazolardan o'z o'rnida foydalanish lozim.

Darsliklardagi savollar va topshiriqlar ta'lim konsepsiyasi asosida tuzilgan va metodik nuqtayi nazardan to'g'ri joylashtirilgan (kamol toptirish maqsadida yoki rasmlar orqali ifodalangan) bo'lishi lozim. Ular, asosan, quyidagi uch guruhga bo'linadi.

Birinci guruhga bilimlarni mustahkamlash, o'zlashtirilgan narsalarni esga tushirish va malakalarni shakllantirishga doir savol va topshiriqlar kiradi.

Ikkinchi guruh tafakkurni o'stiradigan (mustaqil ishlashni, taqqoslash, umumlashtirish, baholash, xulosa chiqarish, bilimlar tizimini mustahkamlash, aniqlash va tajribaga solishni talab qiladigan) savol va topshiriqlardan iboratdir.

Uchinchi guruh o'zlashtirilgan bilimlarni amalda qo'llashga (mustaqil ishlarni bajarish va malakalarni egallashga) doir savol va topshiriqlarni o'z ichiga oladi.

Darslikda dasturning barcha talablari aks etishi va asosiy g'oyalar, xulosalar yaqqol ifodalanishi lozim.

Darslikni bolalarga moslashtirishda quyidagilarni alohida e'tiborga olishni bilish kerak:

- materiallarni darsliklarga to'g'ri taqsimlash;
- o'quvchilarga beriladigan vazifalarni asta-sekin qiyinlashtirib borish (tizimga solish);

- o'quvchilarga tabaqali yondashishni nazarda tutish (topshiriqlarni qiyin yoki osonligiga qarab tanlash);
- darsda, uy vazifalarini bajarishda, takrorlashda asosiy va qo'shimcha materiallarni ajratish;
- darslikdagi savol va topshiriqlarning mo'ljallangan vaqtga mosligi va o'quvchilarni qiynab qo'ymasligi;
- darslikning mazmuni (o'quvchilarni qiziqtirishi, matnlarning g'oyaviy va estetik jihatlari) uni o'rgatishning metodik tizimiga muvofiq bo'lishi;
- darslik tilining osonligi va ravonligi, o'quvchilar nutqini o'stirish uchun namuna bo'la olishi.

Darslikning asosiy komponenti uning matnidir. Matnlar asosiy va qo'shimcha materiallardan (murojaat, hujjat, xrestomatiya va hokazolardan) hamda tushuntirishlardan iborat bo'ladi).

Darslikni tahlil qilishda uning tuzilishi, mavzularning o'ri, illyustratsiyalarga boyligi va eng muhimi o'quvchilarga ta'siri hisobga olinishi kerak.

Mana shu talablar amalga oshirilishi uchun har bir yangi darslikni yaratishning o'ziga xos muammolarini to'g'ri hal qilish, darslik o'quv-metodik ishlarining asosi bo'lishi kerakligini nazarda tutish shart.

## CHET EL MAMLAKATLARIDAGI TA'LIMNING MAZMUNI

Biz jahonning 73 mamlakatida o'qitish boshlanadigan yosh to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lsak, shularning 54 tasida bolalar olti va undan kichikroq yoshidan, 43 mamlakatda olti yoshdan, 3 mamlakatda besh yoshdan maktabda o'qiy boshlaydi, 8 mamlakatda maktabga bolalarni besh yoshida ham, olti yoshida ham qabul qilish yuklangan.

**O'quv rejasi.** Turli mamlakatlarda o'quv rejasining haftalik hajmi (hafta), sinflardagi mashg'ulotlar soni har xildir. Shuningdek, turli mamlakatlarda darslarning davom etishi ham bir xil emas. Masalan, Yaponiyada 45 va AQSHda 40 daqiqali darslar joriy qilingan. Angliyada darslar tanaffussiz ketma-ket o'tilaveradi.

Buyuk Britaniyada o'quv yili sentabrda boshlanib, iyul oyining oxirida tugaydi. O'quv haftasi besh kunlik. Bu mamlakatda hozirgacha yagona maktab dasturlari va darsliklari mavjud emas. O'quv dasturlari ishlab chiqish huquqi maktab direktorlari va katta o'qituvchilar zimmasiga yuklangan. Lekin o'qituvchilar



maktab to'g'risida 1986- yili qabul qilingan 2- qonunga muvofiq o'quv dasturlari xususida mahalliy maorif organlari bilan kelishishlari shart. Hukumat mufassal va balanslangan, o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari va hozirgi hayot talablariga muvofiq tarzda tabaqlangan o'quv dasturini joriy etish yo'li bilan ta'limiy imkoniyatlarni kengaytirishdan manfaatdordir. Angliya va Uelsdagi boshlang'ich hamda birlashgan o'rta maktabga umumiy-ilmiiy o'quv dasturini joriy etish mo'ljallanmoqda. Bu dasturga ko'ra o'quv vaqtining 70 foizi asosiy predmetlarni Maorif va fan departamenti tavsiya etgan hajmda o'rganishga ajratilgan. Qolgan vaqtdan istalgan predmetlarni o'rganish uchun foydalanish mumkin.

Bulardan tashqari, yana quyidagi tadbirlarni amalga oshirish ko'zlanmoqda: 7, 11, 14 va 16 yoshli bolalar uchun asosiy predmetlar bo'yicha imtihonlar joriy etish; maktablardagi o'quvchilar sonini Maorif va fan departamenti tayinlagan normalarga asosan belgilash; maktablar zimmasiga tayyorgarligi va qobiliyatlaridan qat'iy nazar, barcha bolalarni, lekin belgilangan normalar chegarasida qabul qilish majburiyatini yuklash; o'quvchilarning soni 200 nafardan ortiq maktablarga o'zining moliyaviy kadrlari masalalarini mustaqil hal qilish, shuningdek, mahalliy maorif organlarining nazorati ostida chiqish va bevosita Maorif va fan departamentiga bo'ysunish huquqini berish. Ana shunday jarayonlar Shotlandiya va Shimoliy Irlandiyadagi maktab ta'limida ham ro'y berayotir.

Angliyada besh yoshga to'lgan bolalar butun o'quv yili mobaynida maktabga qabul qilinaveradi. Bitta sinfda 5-6 va 7 yoshli bolalar o'qiyaveradi.

Bolalar bir necha oy maktabga qatnaganlaridan so'ng ular yaxshiroq o'sgan va sustroq o'sgan bolalar guruhlariga bo'linadi.

Bolalar sinf xonalarida o'ynaydilar, shug'ullanadilar va ovqatlanadilar. Xonalarda rasm chizish, yelimplash va o'yinchoqlar yasash uchun turli ashyolar, hisoblash, tortish uchun har xil uskunalar, asboblar va boshqa didaktik vositalar mavjud bo'ladi. Har bir sinfda kichkina kutubxona tashkil etiladi. Hamma mashg'ulotlarni bitta o'qituvchi olib boradi. Bolalarning ko'p vaqti ochiq havoda o'tadi.

Yaponiyada ko'p mamlakatlardan farqli ravishda o'quv yili 1 aprelda boshlanib, keyingi yilning 31 martida tugaydi. Boshlang'ich va kichik o'rta maktabda o'quv yili uchta semestr (aprel, iyul, sentabr, dekabr, yanvar, mart) ga bo'linadi. Katta va o'rta maktabda o'quv yili ikki-uchta semestr ga bo'linadi. Yozgi, qishki (yangi yil-

dan oldin va keyin) hamda bahorgi (yillik imtihonlardan keyin) ta'tillar belgilanadi. Yozgi ta'tillarning boshlanishi hududlar va o'quv yurtlarining tiplari bo'yicha har xildir. Ular ko'p boshlang'ich va kichik o'rta maktablarda iyulning oxirida boshlanib, avgustning oxirida tugaydi. Ayrim qishloq xo'jaligi hududlarida bahorda va kuzda yozgi ta'tilni qisqartirish hisobiga mavsumiy fermerlik ta'tillari ham bo'ladi.

Yaponiya maktablaridagi o'quv yili AQSH maktablaridagiga nisbatan 60 kun uzunroq, ya'ni 240 kun davom etadi. Mashg'ulotlar ish kunlari va shanba kunlari ertalab 8.30 dan 15.15 gacha, ya'ni 7 soatdan o'tkaziladi. Shuningdek, o'quvchilar mashg'ulotlardan keyin haftada 2—3 soat sinfdan tashqari klub ishlari bilan shug'ullanadilar hamda haftada 7 soatgacha vaqtlarini maxsus repititorlik maktablarida o'tkazadilar. Yaponiyalik o'quvchilar AQSHdagi o'rta maktab o'quvchilariga nisbatan ko'proq vaqtlarini sinfdan tashqari mashg'ulotlarga sarflaydilar. Ta'lim milliy instituti o'tkazgan savol-javob ma'lumotlariga ko'ra katta o'rta maktab o'quvchilarining 36 foizi haftada 10 soatgacha va undan ko'proq vaqt mustaqil ishlash bilan shug'ullanadi. Bu esa amerikalik o'quvchilar mustaqil ishlaydigan vaqtdan 6 marta ko'pdir.

Boshlang'ich va kichik o'rta maktabda o'rganilishi lozim bo'lgan fanlar, shuningdek, yil davomida ularni o'rganish uchun ajratiladigan soatlar miqdori Ta'lim vazirligining farmoyishi bilan belgilanadi. Mazkur vazirlik ta'limning har bir bosqichidagi o'quv fanlarining maqsadi va mazmunini ham belgilaydi.

Bularga qo'shimcha ravishda ijtimoiy maktablarda haftasiga bir marta majburiy axloq tarbiyasi mashg'ulotlari o'tkaziladi, xususi maktablarda esa bu mashg'ulotlar diniy ta'lim bilan almashtirilishi mumkin.

Yaponiyadagi o'quv rejasi doimo 3 ta bo'lim (o'qish, axloq tarbiyasi va maxsus faoliyat)dan iborat bo'ladi.

Ta'lim vazirligining farmoyishiga muvofiq, katta o'rta maktabni bitirish uchun eng kami 80 ta sinov birligini olish zarur. Maktablar majburiy predmetlarga qo'shimcha ravishda xohishga qarab ingliz tilini va boshqa chet el tillarini, shuningdek, maxsus texnik fanlarni o'qitishni taklif qilishlari mumkin.

Boshlang'ich va kichik o'rta maktabda bilimlarning asoslari tarkib toptiriladi: ularning o'quv rejalarida keng qamrovli va bolalardagi o'sishning darajasiga ko'ra murakkablashib boradigan o'quv kursini o'rganish nazarda tutiladi. Boshlang'ich va kichik o'rta maktabda til

bo'yicha tayyorlanish yetakchi o'rinda turadi, bunday mashg'ulotlarga, ayniqsa, II—IV sinflarda o'quv soatlarining eng ko'p qismi ajratiladi. Tilni o'rganishda eslab qolish bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlarga alohida e'tibor beriladi. O'rganishga ajratilgan soatlar miqdori bo'yicha arifmetika va matematika ikkinchi o'rinni *ishg'ol* etadi, ulardan keyin jamiyatshunoslik turadi.

Yapon maktablari uchun chiqariladigan deyarli barcha darsliklar xususiy nashriyotlarda chop etiladi. Darsliklarning mazmuni va bahosini Ta'lim vazirligi ma'qullaydi. Davlat maktablarida foydalaniladigan darsliklarni 3 yilda 1 marta ta'lim bo'yicha mahalliy kengashlar qabul qiladi. Davlatga qarashli va xususiy boshlang'ich hamda kichik o'rta maktablarning barcha o'quvchilari darsliklarini milliy hukumat hisobiga bepul oladilar. Katta o'rta maktablarning o'quvchilari esa darsliklarni sotib olishadi. Darsliklar arzon narxda sotiladi.

6—15 yoshli bolalarning hammasi olti yillik boshlang'ich maktabga qatnashi majburiydir. Majburiy to'qqiz yillik ta'lim ham barcha bolalar uchun bepul. Ehtiyojmand oilalarning bolalariga maktabdagi tushliklar, ekskursiyalarga to'lovlar, tibbiy xizmat uchun milliy hamda mahalliy boshqaruv organlari tomonidan yordam puli beriladi.

Boshlang'ich maktabni bitirgan bola kichik o'rta maktabda o'qishni davom ettirishga majbur. Ijtimoiy kichik o'rta maktablar o'z tumanida yashaydigan jismoniy yoki ruhiy noqis bolani qabul qiladi. Mazkur maktablarda bolalarni tanlashning qandaydir qoidalari yoki qabul qilishning hech qanday shartlari yo'q. Lekin ota-onalari o'z bolalarini boshlang'ich maktabdan oliy o'quv yurtigacha ta'limning barcha bosqichlaridagi xususiy pullik bilim maskanlariga berish huquqiga ega. Xususiy o'quv yurtlarida o'quvchilarni tanlash qoidasi joriy etilgan va unga amal qilinadi.

Yaponiyada uch xil: kunduzgi, kechki va sirtqi katta maktablar mavjud. O'qish muddati kunduzgi maktabda uch yil. Kechki va sirtqi maktablarni bitirganlar katta o'rta maktabni bitirganlik to'g'risidagi diplomga teng diplom oladilar. Katta o'rta maktablardagi o'quvchilarning taxminiy 95 foizi kunduzgi smenada o'qiydi. Katta o'rta maktablar o'quv rejalarining xarakteri bo'yicha: umumiy (akademik) maktablarga, texnika, tijorat, mahalliy san'at maktablari va hokazolarga bo'linadi. Katta o'rta maktablarning 30 foiziga yaqini ta'limning ham umumiy, ham kasb-korlik kurslarini, 47 foizdan ko'prog'i faqat umumiy kurslarni va qolganlari

kasb-korlik kurslarini tashkil qiladi. Katta o'rtta maktablardagi o'quvchilarning taxminan 70 foizi umumiy o'quv rejalari bo'yicha ta'lim oladi. Katta o'rtta maktablarga o'quvchilarni kichik o'rtta maktabni bitirgani to'g'risidagi hujjatlar va kirish imtihonlarining natijalari asosida qabul qilinadi. Ijtimoiy va xususiy sektorlarda tegishli yosh guruhidagi o'g'il va qizlarning 98 foizi ixtiyoriy o'rtta ta'limga jalb etilgan, ya'ni u umumiy ta'lim hisoblanadi.

Lotin Amerikasi mamlakatlari 1961- yilda AQSH taklif etgan iqtisodiy yordam dasturini, ya'ni „Taraqqiyot yo'lidagi ittifoq“ dasturini qabul qilishga majbur bo'ldi. Unda xalq ta'limini rivojlantirishning o'n yillik rejasi ham ifodalangan, umuman, mazkur dasturda maktablar tarmog'ini kengaytirish, o'quv maskanlarini bartaraf etishning, butun jamiyatni zamonaviylashtirishning asosiy omili ekani qayd etilgan, ammo dasturda asosan xorijiy mustamlakachilar va mahalliy zodagonlarning maqsad hamda manfaatlari nazarda tutilgan bo'lib, ularning niyati, avvalo, xodimlarni yetishtirish va taraqqiyparvar jamoatchilikning diqqat-e'tiborini dolzarb siyosiy muammolardan chalg'itish edi.

60—70- yillarda Lotin Amerikasidagi barcha mamlakatlarda maorif organlarining faoliyati keskin kuchaydi. Hukumat maktab va universitetlar ishiga, ularni moliyaviy ta'minlashga jiddiy e'tibor berdi. Amerika davlatlararo organlari va BMT tashkilotlarining, avvalo, YUNESKOning harakatlari tufayli o'qituvchilar tayyorlash, shuningdek, maktab xodimlariga yangicha o'qitish usullarini o'rgatish keng tus oldi. 60- yillar oxiridan ko'pgina Lotin Amerikasi mamlakatlarida maktab va universitet ta'limi tizimi isloh qilina boshlandi. Islohotning asosiy g'oyasi o'quv maskanlarini ma'rifiy mazmundagi yoki mahalliy maqsadlar ko'zlangan vazifalarni bajarishga, fan-texnikani takomillashtirish negizida iqtisodiyotni jadal rivojlantirish vazifalarini amalga oshirishga yo'naltirishdan iborat edi.

Ta'lim siyosatini ana shu tariqa o'zlashtirishlarini Shimoliy Amerika o'quv markazlari asosida ta'limni zamonaviylashtirish, deb baholash mumkin edi. Mazkur o'zlashtirishlar pedagogik jihatdan muayyan amaliy maqsadlarni ko'zlashga da'vat etdi. Yosh avlodni o'qitish sohasidagi mazkur o'zgarishlar ko'pchilikning ishonchini oqlamadi va umidini puchga chiqardi. Tub ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirmay, ta'lim sohasida ham muvaffaqiyatlarga erishib bo'lmasligi to'g'risidagi fikrlarni isbotladi.

60—70- yillarda ta'lim sohasini rejalashtirish asta-sekin yo'lga qo'yildi, o'quv yurtlarini mablag' bilan ta'minlash tartibga solin-

di. Maktab ishlarini markazlashtirish kuchaydi va bu hol o'quv dasturlarini tuzish, kadrlardan foydalanish, maktab binolarini qurish kabi ishlarni muvofiqlashtirish imkonini berdi.

Mintaqadagi (Barbadosdan boshqa) hamma mamlakatlarda bolalarni majburiy ravishda 14 yoshgacha (Peruda 16 yoshgacha) o'qitish joriy etildi. Boshlang'ich maktabdagi ayrim mamlakatlarda, hatto o'rta maktabdagi o'qish ham bepul qilindi. Lekin bu qoida faqat davlat sektoriga qarashli maktablarga taalluqli edi.

Lotin Amerikasi mamlakatlarining ba'zilarida maktablarning azaliy tuzilishini o'zgartirish bo'yicha ham islohotlar o'tkazildi. Boshlang'ich maktablarni va o'rta maktablarning dastlabki bosqichlarini birlashtirgan maktab ta'limi bazaviy turkumi tuzildi. Chunki boshlang'ich maktabga asoslanib kelgan kasb-korlik maktablarining umumta'limiy saviyasini oshirish zarur edi. Dastlab, 1965- yilda Chilida 8 yilga mo'ljallangan bazaviy turkum tashkil topgan bo'lib, 70- yillarda Boliviya va Braziliyada ham 8 yillik, Peru, Salvador va Venesuelada 9 yillik, Argentinada 6 yillik, Yamayka va Kolumbiyada 5 yillik ana shunday turkumlar joriy etildi. Peru, Panama va boshqa qator mamlakatlarda majburiy ta'lim faqat boshlang'ich maktablarga emas, balki butun bazaviy turkumga ham tatbiq qilindi.

Lotin Amerikasi mamlakatlarining ayrimlaridagi o'quv dasturlarining tor ixtisoslashuvi va muayyan amaliy yo'nalishga ega bo'lishi yoshlarning umumta'limiy tayyorgarligi uchun zararli bo'lib, ana shu tayyorgarlik darajasi pasayishiga olib boradi. Braziliya, Kolumbiya, Venesueladagi maktablar ixtisoslashtirilganining oqibati ana shu fikrni yaqqol isbotlaydi. Mazkur islohot aholini ish bilan ta'minlashning, davlat korxonalarini uchun kadrlar tayyorlashning ba'zi muhim milliy muammosini va boshqa ba'zi masalalarni hal etish imkonini bergan bo'lsa-da, qator salbiy natijalarga olib borishi ham muqarrardir. Chunki ushbu ixtisoslashtirish bir tomonlama xarakterga ega bo'lib, maktab tizimining amerikalashuviga, uning insonparvarligi buzilishiga sabab bo'ladi. Mintaqadagi mazkur o'zgartirishlardan ko'zlangan asosiy maqsad ajnabiy monopoliyalar va mahalliy katta kompaniyalar korxonalarini yerlik mehnat resurslari hisobidan malakali kadrlar bilan ta'minlash edi. Shunga ko'ra, ta'limni isloh qilish dasturining bir tomonlama xarakteri tez orada yaqqol ayon bo'ldi.

Shunga qaramay, mintaqada ta'limni isloh qilish, shu jumladan, o'rta maktablarni ixtisoslashtirish milliy iqtisodiyotni kadr-

lar bilan ta'minlashda ma'lum darajada yordam berdi. Shuning uchun ham davlat boshlang'ich maktablar bilan bir qatorda, o'rta va oliy o'quv yurtlarini ham mablag' bilan ta'minlashni kuchaytirib bordi. Mintaqada xususiy o'quv yurtlari tarmog'i ham kengaydi. Ta'limning hamma bosqichlaridagi o'quvchilar kontingenti ancha ortdi. Lotin Amerikasi mintaqasi 1975- yilda bolalarni boshlang'ich ta'limga jalb etish bo'yicha dunyoda birinchi o'ringa chiqdi va qolgan hamma ko'rsatkichlar bo'yicha rivojlanayotgan hamma mamlakatlardan ancha ilgari ketdi.

Lotin Amerikasi mamlakatlarining taraqqiyparvar jamoatchiligi keng xalq ommasiga xizmat qiladigan Xalq maorifi masallarini mustaqillik, demokratik va ijtimoiy taraqqiyot uchun kurashish orqaligina hal etish mumkinligiga ishonch hosil qildi va xuddi ana shu yo'nalishdan borishga intilmoqda.



### *Savol va topshiriqlar*

1. „Umumiy ta'lim“ tushunchasiga nimalar kiradi?
2. Ta'lim mazmunini qayta ko'rib chiqish zarurligining sababi nimalardan iborat?
3. Maktabning o'quv rejasi nima?
4. O'quv dasturi nima va uning xalq ta'limini qayta qurish davridagi xususiyati nimalardan iborat? Boshlang'ich ta'limning istalgan predmetiga doir o'quv dasturini tahlil qiling.
5. Darsliklarga asosan qanday pedagogik talablar qo'yiladi? Boshlang'ich ta'lim darsliklaridan birini tahlil qiling.
6. Ta'lim mazmunini yanada takomillashtirish sohasidagi tadqiqot ishining ayrim yo'nalishlarini aytib bering.





## **XV BOB. O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHNING SHAKLLARI**

### **O'QUV ISHINI TASHKIL ETISH SHAKLLARI HAQIDA TUSHUNCHA**

Ta'lim ijtimoiy hodisa bo'lib, uning tarixi juda uzoqdir. Ta'lim kishilik jamiyati rivojining dastlabki davrlaridayoq katta rol o'ynagan. U to'plangan tajribalarni, dunyo haqidagi axborotlarni berish jarayonini ta'minlagan, insoniyatning faqat ijtimoiy rivojlanishiga emas, balki qiyin sharoitlarda yashay olishiga ham yordam bergan. Uzlüksiz rivojlangan jamiyatda ta'limning mukammal jamoa shakli, ya'ni dars ming yillar mobaynida vujudga kelgan. Y. A. Komenskiy „Buyuk didaktika“ asarida tarbiyaning oldingi barcha tajribalarini umumlashtirdi, sinfning dars tizimida ta'limning asosiy didaktik prinsiplarini izchil ifodaladi. O'sha zamondan buyon 350 yil o'tdi. Shuncha vaqt mobaynida darsning tashkiliy shakllari ham, ta'limning metodlari ham uzluksiz takomillashib bordi.

Xalq maktablari tashkil topganidan boshlab o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi hamda o'zaro munosabati muammolari ham vujudga kelgandir. Ma'lumki, o'qituvchining bilimi uning darsdagi va uydagi faoliyatining xarakteriga bevosita bog'liqdir, faoliyatsiz bilimlar ham bo'lmaydi. O'qituvchi ajoyib yo'sinda dars o'tishi, lekin bu darsning natijasi muayyan o'quvchi uchun hech narsaga arzimligi mumkin.

Shularga ko'ra, o'qituvchi o'zini ana shunday o'quvchining o'rniga qo'ya bilishi, uning darsdagi faoliyatini va unga maktabda butun o'qish davridagi munosabatini tasavvur qilishi g'oyat muhimdir. Zotan tarbiya va ta'lim asta-sekin amalga oshadi hamda o'quvchiga barcha darslar majmuyi qanday ta'sir etishiga, o'quvchi o'qituvchi rahbarligida ongli va faol bajaradigan ishlarning hajmi hamda muntazamligiga bog'liqdir.

O'qituvchining vazifasi — darsda tafakkur va faoliyatning ana shu turlarini eng to'g'ri uyg'unlashtirishdir. Binobarin, bunday uyg'unlik dars samaradorligini oshirishning muhim omilidir.

O'qituvchi dars muammolariga to'g'ri yondashishi uchun ta'lim jarayonining asosiy komponentlarini bilishi, ularning o'zaro bog'liqligi va bir-biriga ta'sirini tushunishi lozim. Obyektiv mavjudlikning mohiyatini bilishi ta'limning maqsadlaridan biridir.

Ta'limda bilimlarni o'zlashtirish jarayoniga quyidagi komponentlar kiradi:

1. Hodisalarni, narsalarni kuzatish, axborotlarni idrok etish.
2. Olingan axborotlarni tahlil qilish (bilimlarning xarakterli belgilarini aniqlash, taqqoslash, ko'chirish, birinchi jarayonda olingan axborotlarni o'zgartirish va unda olingan axborotlar doirasidan chiqish).
3. Eslab qolish.
4. Ishlar, umumlashtirishlarning to'g'riligini tekshirish hamda baholash.

Umuman aytganda, ta'limni boshqarish o'qituvchi o'qish jarayonining asosiy strukturasi, elementlari, xususan, o'quv materialining mazmuni, ta'lim metodlari, faoliyat usullari, shakllari va vositalari to'g'ri amalga oshuvi hamda o'zaro ta'sirini ta'minlashdan iboratdir.

#### **TA'LIMDA SINIF-DARS TIZIMINING VUJUDGA KELISHI**

Ta'limni boshqarishning asosiy tashkiliy shakli quyidagi ma'lum belgilarga ega bo'lgan mashg'ulotlar guruh yo'sinida o'tkaziladi:

- mashg'ulotlarning har yili va har bir o'qish kuni bir paytda boshlanishi;
- mashg'ulotlar va ular orasidagi tanaffuslarning ma'lum vaqt davom etishi;
- guruhlardagi bolalarning yoshi va soni jihatdan baravarligi;
- material o'rganish sur'atining bir xilligi;
- o'quv mashg'ulotlarining ma'lum tashkiliy shaklda o'tkazilishi.

Guruhli mashg'ulotlarning sinf-dars tizimi deb atalgan bunday shakli keng tarqaldi, mustahkamlandi va hozir ham ancha takomil-lashgan holda mavjuddir.

Maktab rivojlanishi tarixida 20- yillarda ta'limning yakka tartibdagi shakli notanqidiy yo'sinda qabul qilindi va amaliyotga ta'limning brigada — laboratoriya metodi bilan kiritildi. Unda bir guruh (5—6 nafar) o'quvchilar o'qituvchi tavsiya etgan materialni mustaqil holda o'rgananlar. O'qituvchi maxsus tushuntirishlar bermay, faqat yo'l-yo'riqlar ko'rsatgan. Hamma narsa uchun brigadir javob bergan. Bunday ta'lim bolalarning o'quv faoliyati uchun mas'uliyatini pasaytirgan.



Maktab barham topishining noto'g'ri pedagogik konsepsiyalari davrida ta'limning „loyihalar metodi“ deb atalgan shakli vujudga kelgan. Unda o'quvchilar o'qituvchining topshirig'i bo'yicha qandaydir obyektning loyahasini tayyorlaganlar. Mazkur g'oyalar mualliflarining aytishicha, o'quvchilar loyihani tuzishda o'quv rejasi bo'yicha o'tiladigan predmetlarga doir kompleks bilimlarni o'zlashtirgan.

So'nggi yigirma yil mobaynida pedagogika nazariyasi kombina-tsiyalashgan darsni o'rganishdan darsni elementlari bo'yicha bos-qichma-bosqich o'zlashtirishga, undan sintetik va nihoyat, muammoli o'rganishga o'tdi. Tadqiqotlarning uzviyligi va uzviy yondashishi to'g'risida juda ko'p ilmiy adabiyotlar mavjud. Masalan, M. I. Maxmutov, T. D. Kirilova, F. F. Korolyov va E. G. Yudin-larning hozirgi zamon darsi, uni tashkil etish, kamol toptiruvchi ta'lim sharoitidagi dars nazariyasi va amaliyoti, muammoli dars va hokazolarga doir kitoblarida darsga sistema sifatida qaralsagina, uni chuqur tushunish mumkinligi qayd qilingan. Lekin pedagoglar 70- yillardagina darsni o'rganish va tushuntirishga sistemali yondashish zarurligini to'la angladilar. Fanlar rivojlanishining hozirgi bosqichida darsni qanday tushunish kerak?

Dars nazariyasida hozirgacha bu tushunchaning yangi ta'riflari yo'q. Ko'p ta'riflarda xuddi ilgarigidek, dars ma'lum vaqt mobaynida tarkibi o'zgarmaydigan o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyatini tashkil etishning shakli bo'lib, u bolalarni o'qitish, tarbiyalash va kamol toptirish vazifalarini amalga oshirish uchun muntazam qo'llanishi ifodalangan. Darsda o'quv-tarbiya ishlarining barcha komponentlari: maqsad, mazmun, vositalar, metodlar, tashkil etish va boshqarish faoliyati hamda uning hamma didaktik elementlari mujassamlangan, deb hisoblash qabul qilingan.

Tabiiyki, dars yaxlit ta'lim jarayonini o'quv-tarbiya ishining boshqa tashkiliy shakllari — uy vazifalarini bajarish, predmet to'garaklarining mashg'ulotlari, sayrlar va hokazolar bilan uzviy birlikda aks ettiradi. „Darsni ikki jihatdan: umuman, ta'lim jarayoni va ta'limni tashkil etish shakli sifatida ta'riflab uni foydali deb hisoblash taklifi bor (M. I. Maxmutov). Ta'limga umumiy jarayoni dars o'qitish harakatining ta'lim mazmuni, prinsiplari va metodlari bilan belgilanadigan, ma'lum makon-zamon chegaralarida o'qituvchi rejalashtiradigan hamda boshqaradigan birgalikdagi obyekt o'qituvchi va o'quvchilar amalga oshiradigan asosiy shaklidir.

Mazkur tushuncha ikkinchi nuqtayi nazardan quyidagicha ta'riflanadi: dars ma'lum tarkibdagi o'qituvchilar (muallimlar) bilan o'quvchilarning maqsadga muvofiq o'zaro ta'siri (faoliyatlari va aloqalari) jarayonini tashkil etishning, ta'lim mazmuni, shakllari, metodlari, vositalarini o'z ichiga oladi, ta'lim jarayonida o'qitish, kamol toptirish va tarbiyalash vazifalarini amalga oshirish uchun (bir xil vaqt ichida) muntazam qo'llanadigan boy va o'zgaruvchan shaklidir". (Qarang: M. I. Maxmutov. „Современный урок“.)

## **DARS — MAKTABDA O'QUV ISHLARINI TASHKIL QILISHNING ASOSIY SHAKLI**

Hozirgi paytda o'quv ishlarini tashkil etishning quyidagi shakllari qo'llanadi: dars, ekskursiya, o'quv ustaxonalaridagi mashg'ulotlar, mehnat va ishlab chiqarish ta'limi shakllari, uy ishlari, sinfdan tashqari o'quv ishlarining shakllari (predmet to'garaklari, studiyalar, olimpiadalar, tanlovlar).

Pedagogik adabiyotlarda va maktab amaliyotida darsdagi ishlarni tashkil etishning asosan uchta: yakka tartibdagi, umumiy va guruhli shakllari qabul qilingan.

Biz darslardagi va uydagi yakka tartibdagi ishlar deganda o'quvchilarning o'zlari uchun maxsus tanlangan va har birining imkoniyatlariga mos topshiriqni bajarishlarini tushunamiz. Shunga ko'ra o'qituvchi o'quvchining o'ziga xos imkoniyatlarini aniqlab, unga faqat tayyor namuna bo'yicha emas, balki mustaqil holda ishlashni ham talab qiladigan topshiriqlar sistemasini tanlaydi. Bunday ish tasodifiy emas, balki muntazam, puxta o'ylangan bo'lishi va bunda o'quvchining xususiyatlari hamda imkoniyatlari hisobga olinishi lozim. O'quvchi imkoniyatlarining ikki tomoni nazarda tutilishi zarur.

O'quv imkoniyatlarining ichki tomoniga fikrlash va eslab qolishdan iborat o'qish qobiliyati; o'quvchi ilgarigi ta'limda olgan maxsus bilimlar, shuningdek, o'quv mehnatiga doir ko'nikma va malakalarning, ma'lum darajada ish qobiliyati va mas'uliyatning, o'qish sabablari majmuyining mavjudligi kiradi.

O'quvchi imkoniyatlarining tashqi tomoni unga maktabda xilma-xil ta'sir ko'rsatishdan va uning oila muhitida oladigan taassurotlaridan iboratdir.

Yakka tartibdagi ta'lim har bir o'quvchiga yetarli darajada chuqur va puxta bilimlar berish uchun, har bir o'quvchi maqsadga muvofiq kamol topishini va zaruratga qarab o'zining bilimlarini

mustaqil holda to'ldirib borish ko'nikmalariga ega bo'lishini ta'minlash uchun kerak.

Yakka tartibdagi ishlarni darsning hamma bosqichlarida tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Bunday ishlardan bilimlarni mustahkamlash, takrorlash va turli mashqlarni uyushtirishda foydalanish juda osondir. Ular yangi materialni o'rganishda ham g'oyat samaralidir.

O'quvchilar bilan olib boriladigan yakka tartibdagi ishlar rejasini quyidagi yo'sinda tuzish mumkin:

— dastlab mustaqil ishlarni o'tkazish hamda o'quvchi yashaydigan va o'qiydigan sharoitlarni tahlil qilish orqali uning imkoniyatlarini o'rganish;

— o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlashning didaktik vositalarini yaratish;

— har bir o'quvchi uchun eng maqbul topshiriqlarni hamda bilim olishi va kamol topishini nazorat qilish sistemasini belgilash, o'quvchini o'z vaqtida murakkabroq masalalarni hal qilishga o'rgatish, amalga oshirilgan ishlarni taqlli qilish va umumlashtirish, tuzatish va xulosalar chiqarish.

### **O'QUV ISHLARINI TASHKIL ETISHNING UMUMIY SHAKLI**

Darsning umumiy shakli, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining shunday turidirki, unda o'quvchilar hamma uchun umumiy bitta ishni baravar bajaradilar. Olingan natijalar sinf bo'yicha muhokama qilindi, taqqoslanadi va umumlashtiriladi. Ommaviy ta'lim sharoitida o'quv ishlarini tashkil etishning umumiy shakli g'oyat muhimdir. U bolalarda jamoatchilik hissini tarbiyalash, ularni mulohaza yuritishga, o'quvchilarning mulohazalaridagi xatolarni topishga o'rgatish imkonini beradi. To'g'ri rahbarlik qilinsa, bolalarning o'quv imkoniyatlari aniqlansa, sinfda turli muammolarni muhokama etish juda samarali tadbir hisoblanadi. Bu tadbir o'qituvchidan hamma o'quvchilarning fikrlashiga mos ishni topish mahoratini, ularning istaklarini tinglay olishni talab qiladi. Darsning umumiy shaklida ko'zlangan maqsadlar bo'yicha va, ayniqsa, o'quvchilarda dalillar bilan muhokama yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishda ajoyib natijalarga erishish mumkin. Agar bolaning o'quv imkoniyatlari to'g'ri baholansa, darsni tashkil qilishning umumiy shakli o'quvchilarga yakka tartibda yondashishdan keng

foydalanish imkonini ham beradi. O'qituvchi ulardan o'z imkoniyatlariga bog'liq holda turli darajadagi umumlashmalarni so'raydi. Shu tariqa o'quvchilarning tinglashlari ham, o'z bilimlari va fikrlarini o'rtoqlari bilan taqqoslashi, tezda to'ldirishi, undagi xatolarni topish ko'nikmalarini shakllantirishi juda muhimdir.

Umuman olganda, sinfga ham reproduktiv, ham ijodiy topshiriqlar berish mumkin. Darsda ishning yakka tartibdagi va umumiy shakllari birlashtirilsa, har ikkalasining afzalliklaridan kengroq foydalanish imkoniyati tug'iladi.

Yangi materialni o'rganish va uni mustahkamlashda darsni tashkil qilishning umumiy shakli eng samaralidir, olingan bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo'llashni esa yakka tartibdagi ishlardan kengroq foydalanib tashkil etish yaxshidir. Laboratoriya ishlari umumiy yo'sinda tashkil qilinadi. Lekin bunda ham har bir o'quvchini maqsadga muvofiq kamol toptirish imkoniyatlarini izlash kerak.

### TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING GURUHIY SHAKLI

So'nggi yillarda darsni tashkil etishning umumiy va yakka tartibdagi shakllari bilan bir qatorda, ta'limni tashkil etishning guruhliy shakli ham keng tarqalmoqda.

Guruhliy shaklning asosiy belgilari:

— mazkur darsda muayyan o'quv vazifalarini hal qilish uchun sinf bir necha guruhlariga bo'linadi;

— har bir guruh muayyan topshiriq oladi va uni birgalashib, o'z boshlig'i yoki o'qituvchining bevosita rahbarligida bajaradi;

— topshiriq guruhning har bir a'zosi qo'shgan hissani hisobga olish va baholash imkonini beradigan yo'sinda bajariladi;

— guruhning tarkibi doimiy bo'lmaydi, uni tanlashda guruhdagi har bir a'zoning o'quv imkoniyatlari jamoa uchun naqadar foydali amalga oshadigan bo'lishi nazarda tutiladi.

Maxsus tanlangan guruhlarda o'quv va ishlab chiqarish topshiriqlari ma'lum yo'riqnoma — reja bo'yicha bajariladi. Turli predmetlarda va hatto, bitta predmet bo'yicha darslarda guruhlarning rahbarlari va tarkibi har xil bo'lishi mumkin. Darsning guruhliy shakli guruhdagi ishning tashkil etilishiga bog'liq.

Birinchi galda, guruhning tarkibini to'g'ri tanlash zarur. U, albatta, kichik jamoa bo'lishi lozim, shundagina barcha a'zolar bir-birlarining yutuqlarini boyitadilar va kamchiliklarini to'ldiradilar. Guruhda o'zaro salbiy munosabatdagi bolalar bo'lmasligi kerak.

Ba'zan ma'lum topshiriqni guruhning moyilligi va qobiliyatlariga qarab qismlarga ajratiladi. A'zolarining har biri ishning o'ziga tekkan qismini yakka tartibda bajaradi. Keyin har bir o'quvchi bajargan ishning natijalari muhokama qilinadi va jamlanadi.

Darsning guruhiiy shakli, ayniqsa, qandaydir amaliy masalalarni hal qilishda yoki kursning qandaydir xususiy masalasini chuqur o'rganishda samarali bo'ladi.

Darsning umumiy yoki yakka tartibdagi shaklida o'qituvchi bitta darsda hamma o'quvchilarga yordam berishga qiynaladi. U bir-ikki o'quvchi bilan ishlayotganida o'zlarida savollar tug'ilgan o'quvchilar navbat kutib turadilar. Guruhda esa o'quvchilarga juda tez yordam berish mumkin. Tajribadan ko'rinadiki, bunda guruhdagi kuchli va bo'sh o'quvchiga yordam beradigan o'quvchi bo'sh o'quvchiga nisbatan kam manfaatdor bo'lmaydi, binobarin, u o'z o'rtog'iga tushuntirishda uning bilimlari yuksak darajada faollashadi va mustahkamlanadi. Guruhlar har qanday muammolarni hal qilishda ham g'oyat samaralidir. Bir tomondan, ijodiy ish haqiqatni izlash jarayonini individuallashtiradi, chunki har bir o'quvchi yechimni mustaqil holda topishga intiladi. Ikkinchi tomondan, fikr almashish, taxminlarni birgalikda tekshirish tabiiy, jamoaviy xususiyat kasb etadi.

Sinfni guruhlariga bo'lishda qiyinchiliklar tug'ilishi tabiiy. Ayrımlar sinfni o'quvchilarning qobiliyatlariga hamda aqliy kamolot darajasiga qarab guruhlariga ajratishni tavsiya etadilar. Bunday qilish xatodir, binobarin, qobiliyatli va qobiliyatsiz o'quvchilarni bir-biridan uzoqlashtirish mumkin emas, aksincha, guruhlarda kuchsiz o'quvchilarga kuchli o'quvchilarning tashkiliy ravishda yordam berishini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

O'quv dasturida ko'zda tutilgan ekskursiyalarni o'tkazish majburiy bo'lib, bu ish u yoki bu predmetni o'rganishga ajratilgan vaqt hisobiga amalga oshiriladi. Ta'limni boshqa tashkiliy shakllari kabi o'quv ekskursiyalari ham didaktik prinsiplarni (ilmiylik, o'qishni hayot bilan bog'lanishini, ko'rsatmalilik va hokazolarni) amalga oshiradi, borliqni hodisalar va jarayonlarni, o'zaro bog'liqlik hamda o'zaro aloqalarni o'rganishda, ilmiy dunyoqarashni, bilish va jamoatchilik qiziqishlarini, shaxsning sifatlarini shakllantirishda, o'quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlash va kasblarga yo'naltirishda yordam beradi.

## DARS TIZIMI STRUKTURASI ELEMENTLARI VA TIPLARI

1. Ta'limning strukturasi va tizimi haqida tushuncha. Avvalo, strukturaning nimaligini ko'rib o'tamiz. Har bir fandagi „struktura“ tushunchasi o'ziga xos mazmunga ega. Chunki har qanday obyekt, jarayon, hodisaning ichki tuzilishi bo'lib, unda turli aloqa va munosabatlar mavjud. O'quv jarayoni ham o'zining tuzilishiga ega va u zvenolar, deb ataladigan o'zaro bog'liq ma'lum qismlardan tashkil topadi. Butun ichidagi ana shu zvenolarning o'zaro bog'lanishi mazkur jarayonning strukturasi vujudga keltiradi. Lekin, ma'lumki, strukturasi tizim bo'lmaganidek, tizimsiz struktura ham bo'lmaydi. Shunga ko'ra, strukturani tizimdagi o'zaro bog'liq elementlarning tartiblari, deb ta'riflash mumkin. Biz tizim tushunchasiga nimalarni kiritamiz?

Tizim — o'zining xossalari va bog'lanishlari bo'yicha u yoki bu tartibdagi o'zaro bog'liq ko'p elementlardir.

O'quv jarayonining strukturasi va tizimini yaqqol tasavvur etish uchun bu jarayon qanday zvenolardan tashkil topganini, ular orasidagi o'zaro bog'lanish qandayligini va har bir zveno qanday elementlardan iboratligini aniq bilish zarur. Avval o'quv jarayoni qanday zvenolardan tashkil topishini va ular orasidagi bog'lanishlarni ko'rib chiqamiz.

O'quv jarayoni quyidagi zvenolarga ega bo'ladi:

1. O'qituvchining o'quvchilar diqqati va tafakkurini jalb qilishi, shu orqali ularni o'quv materialini faol idrok etishga olib borish maqsadida bilish vazifasini o'rta qo'yishi.

2. O'qituvchi tomonidan bilimlarning berilish jarayoni va o'quvchilarning yangi materialni o'zlashtirishi.

3. Ilmiy tushunchalarning shakllantirilishi va umumlashtirilish jarayoni, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash va takomillashtirish.

4. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tegishli vaziyatlarda qo'llash.

5. O'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirayotganini tekshirish.

Har kuni o'quv jarayonining tarkibiy qismi umumiy vazifalarni ham, o'ziga xos funksiyalarni ham bajaradi. O'quvchilar ularning birida bilish vazifasini angelaydilar, ikkinchisida o'rganilayotgan materialni idrok etadilar va tushunadilar, uchinchisida ko'nikma va malakalarini takomillashtiradilar. Har bir zvenoda yangilikning

qandaydir qismi idrok etiladi, mehnat madaniyatining qandaydir elementlari o'zlashtiriladi. Ularning har birida ta'limning umumiy va o'ziga xos funksiyalari ma'lum yo'sinda birlashadi. O'quv jarayonining mazkur barcha zvenolari o'zaro chambarchas bog'langan. Masalan, o'quvchilar bilish jarayoniga loqayd munosabatda bo'lsa, o'quv materialini chuqur va ongli o'zlashtirishi mumkin emas. Bunday holda zveno ikkinchi vazifaga faol tayyorgarlik rolini bajaradi. Agar o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida o'z mushohadalari kuchi bilan ilmiy tushunchalarni, qonunlarni umumlashtirmasa, yangi materialni idrok etish jarayoni yuzaki bo'lib qoladi. Shu maqsadda o'qituvchi yangi materialni o'tishda: a) induktiv; b) analitik-sintetik, ya'ni tushunchalarni muayyan hodisalarni analiz va sintez qilish asosida asta-sekin shakllantirish; d) deduktiv yo'llardan foydalanadi.

Yangi materialni o'zlashtirishning har bir yo'lida muayyan va mavhumlikning, tasavvur va tushunchalarning o'zaro bog'lanishi juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tasavvur predmetning, asosan, tashqi ko'rinishini, ya'ni insonning sezgi organlari bevosita idrok etishi uchun qulay belgilarini aks ettiradi.

Tushuncha esa narsalarning mohiyatini anglash imkonini beradi va mazkur sinfga mansub barcha predmetlar uchun umumiy muhim xususiyatlar, belgilar va bog'lanishlarni aks ettiradi. Har bir fan o'zaro bog'liq tushunchalar tizimini tashkil qiladi. Demak, qandaydir fanning asoslarini o'zlashtirish, avvalo, mana shu fandagi tushunchalar tizimini o'rganishga chambarchas bog'liqdir.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini dastlabki, vaziyatlarda, ya'ni namuna bo'yicha, shuningdek, hayotiy sharoitlarga yaqin yangi vaziyatlarda qo'llash ta'lim jarayonining muhim zvenosi hisoblanadi. Chunki insonning amaliy faoliyati bilimlar haqiqatligining mezoni sifatida xizmat qiladi. Ana shunday faoliyatsiz ta'limni hayot bilan, amaliyot bilan bog'lashdan iborat muhim vazifani hal qila olmaymiz.

Shu tariqa barcha zvenolar o'zaro chambarchas bog'lanishda o'quv jarayonini tashkil etadi. O'z-o'zidan ayonki, ta'lim jarayonida mana shu hamma zvenolar belgilangan tartibda yoki to'laligicha amalga oshuvining ahamiyati yo'q. Bunda o'quv jarayonining ma'lum qismida bir zvenoning ikkinchi zvenoga qo'shilishi, o'zaro singishi qandaydir zvenoning yetakchilik rolini bajarishi kuzatiladi. O'quv jarayoni amalda ancha o'zgaruvchidir. Aytaylik, o'quv jarayonining ma'lum

bir qismida o'quvchilar bilimini tekshirish va baholash asosiy vazifa hisoblanadi. Lekin bundan boshqa zvenolar jarayonida daxlsiz bo'ladi, degan ma'no kelib chiqmaydi. Bunda barcha zvenolarning umumiy vazifalari namoyon bo'laveradi. Negaki, bilimlarni tekshirish va baholash to'g'ri yo'lga qo'yilsa, hamma o'quvchilar faollashadi, ularning har biri tegishli bilimlarni ongli ravishda eslaydi, o'rtoqlarining javoblarini tanqidiy eshitadi, masalalarning yechilishini diqqat-e'tibor bilan kuzatadi, tajribalarning bajarilishiga qiziqadi va o'zi ham har onda ishga qo'shilish uchun tayyor bo'ladi.

Ammo, har bir zveno ta'limning umumiy vazifasi bilan bir qatorda, o'ziga xos masalalar doirasini ham qamraydiki, ular birgalikda zvenolardan har birining mazmunini tashkil etadi. Bu masalalar strukturadagi har qaysi zvenoning tarkibiy qismi sanaladi. Shuning uchun o'quv jarayonini biz faqat strukturaviy zvenolarini emas, balki shu zvenolardan har birining tarkibiy qismlarini ham bilishimiz zarur jarayon, deb tushunish kerak. Misol uchun, o'quvchilar oldiga bilish vazifasi qo'yiladigan birinchi strukturaviy zvenoni ko'rib chiqamiz.

Bilish vazifasini qo'yish bir necha yo'llar bilan amalga oshiriladi:

1. Muammoli vaziyatni yaratish yoki muammoli savollar berish orqali.

2. O'rganilayotgan mavzuning amaliy ahamiyatini yoritish va ko'rsatish orqali.

3. Hayajonli muhitni vujudga keltirish orqali.

4. Mavzuni e'lon qilish va undagi asosiy ilmiy g'oyalarni ifodalash orqali.

Ana shu yo'llarning har biri ayni paytda mazkur strukturaviy zvenolarning tarkibiy qismi ham hisoblanadi va o'zining muayyan mazmuniga ega bo'ladi. Buning dalillarini keltiramiz. Yangi materialni bayon etishning safarbarlik bilan boshlanishi qanday bo'lishi mumkin? Mana shulardan biri. O'qituvchi sinfga kiradi, dars mavzusini e'lon qiladi va uni doskaga yozib qo'yadi. Shundan keyin materialning o'zini bayon qiladi. Darsning bu xilda boshlanishini pedagogika amaliyotida, xususan yuqori sinflarda ko'p uchratish mumkin. U keng tarqalgan va ma'qul topilgan, lekin uni samarali boshlanish, deb bo'lmaydi.

Bu misolda o'quvchilarning diqqat-e'tibori muammoning o'ziga yo'naltirish uchun muammoli vaziyat o'qituvchi tomonidan atayin vujudga keltiriladi. Bunday hollarda, ko'pincha, muammoni o'qituvchining o'zi shakllantiradi va ko'rib chiqadi. O'quvchilar uning mulohaza yuritishiga ergashib, muammoli fikrlash mantiqini



o'rganadilar. Bu esa muammoli bayon etishning dastlabki bosqichi uchun xosdir. Lekin darsning turli bosqichlarida muammolilikning darajasi turlicha bo'lishi mumkin. Yangi materialni bayon etishda o'qituvchi muammoli vaziyatni vujudga keltirishi va o'quvchilarni mustaqil holda yoki birgalikda muammoni hal qilish yo'llarini topishga jalb etishi mumkin.

Masalan, tabiatshunoslik darslarini olaylik. O'qituvchi qor yog'ayotgan paytda o'quvchilar bilan birgalikda maktab hovlisiga chiqadi va bolalarga qor uchqunlarini kaftlari bilan tutishni aytadi. Keyin ulardan kaftlariga nima ilinganini so'raydi. Har bir o'quvchining kaftida suv tomchisi ko'ringan va bir lahzadan keyin yo'qolgan — bug'langan edi. Suv tomchisi o'rni muzdek bo'lib qoldi. Bolalar bu g'ayrioddiy hodisaga qiziqdilar, albatta.

O'qituvchi o'quvchilardan: „Nima uchun kaftning qor uchquni tushgan joyi muzdek bo'lib qoldi?“ — deb so'ramoqchi edi. Bu esa „suvning aylanishi“ mavzusining nazorat savollaridan biridir. Yangi materialni o'rganishning odatdagidan boshqacha boshlanishi darsda muammoli vaziyatni yaratishda va o'quvchilarni muammoning yechimini birgalashib izlashga jalb etishda yordam beradi.

Darsning strukturasi qo'yilgan maqsadlarga, o'rganilayotgan materialning mazmuniga, ta'limning darsda qo'llanadigan metodlari va usullariga, o'quvchilarning tayyorgarlik va kamolot darajasiga, darsning o'quv jarayonidagi o'rniga bog'liqdir.

### DARSLARNING TIPLARI

Dars strukturasi o'quvchilar bilish faoliyatining xarakteri bo'yicha tasniflanadigan darslarning tipiga bog'liq bo'ladi. Ularni o'tkazish usullari, ta'lim metodlari esa o'quvchilar mustaqil ishining darajasi bo'yicha tasniflanadi.

Darsning quyidagi tiplari mavjud: o'quvchilar yangi bilimlarni o'zlashtiradigan, faktli materiallar to'planadigan, kuzatishlar o'tkaziladigan, jarayon va hodisalar o'rganiladigan, ularni anglanadigan, tushunchalari shakllantiriladigan, ko'nikma va malakalar tarkib toptiriladigan darslar, bilimlar umumlashtiriladigan va tizimlashtiriladigan darslar, bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni takrorlash, mustahkamlash, boshqacha aytganda, kompleks qo'llash darslari, bilim, ko'nikma va malakalar og'zaki hamda yozma ravishda sinaladigan nazorat-tekshirish darslari, bir necha didaktik masalalar baravar hal qilinadigan kombinatsiyalashgan darslar.

Darsning muayyan miqdordagi tiplarini belgilashning turlari, yo'llari bilan uning ancha jiddiy strukturasi ishlab chiqilgan. Masalan, kombinatsiyalashgan darslar quyidagi sxema bo'yicha tashkil qilingan: tashkiliy jihat, o'quvchilar uy vazifasini qanday bajarganini tekshirish, o'quvchilardan o'tilgan mavzu bo'yicha so'rash, o'qituvchining yangi materialni bayon etishi, o'rganilayotgan materialni mustahkamlash, uyga vazifa berish.

O'qituvchilarning ilg'or tajribasini tahlil qilish, didaktlar (I. T. Ogorodnikov, M. I. Maxmutov, V. A. Onishchuk, R. A. Mavlonova va boshqalar)ning tanqidi, darsning strukturasi tushuntirish, ta'limning hozirgi talablariga javob bermaydi, degan xulosaga olib keladi.

Darsning strukturasi faqat o'qituvchi va o'quvchilarning darsdagi hamkorlik faoliyati tashkil topishining tashqi ko'rinishini aks ettirib qolmasligi, balki o'quvchilar bilish faoliyati bilan bog'liq ichki jarayonning mohiyatini ham ifodalashi lozim.

Kamol toptiruvchi ta'lim sharoitida „darsning strukturasi“ tushunchasini aniqlashda uni uchta: didaktik, mantiqiy-psixologik va metodik shartlar asosida ko'rib chiqish tavsiya etiladi.

Bunda doimiy komponentlar: oldin o'zlashtirilgan bilim va harakatlar usullarini faollashtirish hamda qo'llashdan, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat didaktik struktura asos bo'ladi (M. I. Maxmutov).

Hozirgi zamon darsining eng muhim xususiyatlari yangi o'quv materialini va uni amalda qo'llashni o'zlashtirish bilan birga, ilgari o'rganilgan narsalarni o'zlashtirish, sintez qilish, takrorlash va mustahkamlash, nazorat qilish kabi elementlarining o'zaro bog'lanishidir.

T. A. Ilina darsning o'z strukturasi barcha asosiy elementlarini olgan tipini, ya'ni umumiy yoki aralash darsni tavsiya etadi.

**Darsning birinchi bosqichi** — tashkiliy qism. Odatda, bu qismga salomlashish, o'quvchilarning, sinf xonasidagi jihozlarning darsga tayyorligini tekshirish, darsda yo'q o'quvchilarni aniqlash, ishning rejasini e'lon qilish kiradi. Tashkiliy qismning maqsadi — darsda ish vaziyatini vujudga keltirishdir.

**Darsning ikkinchi bosqichi** — yozma uy vazifasini qo'yilgan maqsaddan qat'iy nazar, turli metodlar bilan tekshirish.

**Darsning uchinchi bosqichi** — o'quvchilarning bilimlarini og'zaki tekshirish (yoki ulardan so'rash).

**Darsning to'rtinchi bosqichi** — o'qituvchining bayon etishi asosida yoki o'quvchilarning mustaqil tahlil qilishi orqali yangi materialni tushuntirish.

**Darsning beshinchi bosqichi** — uyga topshiriq berish. Darsning bu qismiga mazkur topshiriqning mohiyatini, lozim bo'lsa, uni bajarish metodikasini ham tushuntirish, uni o'qituvchining o'zi doskaga yozishi, o'quvchilarning daftarga yoki kundalikka ko'chirishi kiradi.

**Darsning oltinchi bosqichi** — yangi materialni mustahkamlash, ya'ni dastlabki yoki yo'lakay — mazkur material bayon qilinayotganda amalga oshiriladigan mustahkamlashdir.

**Darsning yettinchi bosqichi** — uni tugallashdan iborat bo'lib, bu ish tashkiliy ravishda amalga oshirilishi kerak. Chunki dars faqat o'qituvchining ko'rsatmasi bo'yicha mustahkamlanadi. Muallif darsning ana shu yettita elementini nazarda tutib, uning strukturasi quyidagicha ifodalaydi:

**I. Bilimlarni mustahkamlash darsi.**

1. Tashkiliy qism.
2. Yozma topshiriqni (bor bo'lsa) tekshirish.
3. So'rash — mustahkamlash.
4. Uyga vazifa berish.
5. Darsni tugallash.

**II. Yangi murakkab materialni tahlil qilishda uy vazifasi tekshirilmaydi.**

1. Tashkiliy qism.
2. Yangi materialni tushuntirish.
3. Yo'l-yo'lakay mustahkamlash.
4. Uyga vazifa berish: darsni tugallash.

**III. Muammoli darslar.**

1. O'quvchilarni uyushtirish.

2. Muammoni ifodalash, taxminiy bayon qilish (natija qanday bo'lishi mumkinligini aytish) va yechimning variantlarini bildirish: muammoni amaliy hal qilishni izlash.

3. Natijalarni muhokama qilish.
4. O'qituvchining sharhi va umumlashtirishi.
5. Uyga vazifa berish.
6. Darsni tugallash.

Umuman aytganda, hozirgi zamon darsi o'zining an'anaviy maqsadlari, mazmuni, tashkiliy-metodik jihatlari, o'quvchilar ishlarini faollashtirish darajasi, strukturasi, sur'ati, ta'limning texnik vositalariga boyligi bilan farqlanadi. O'tgan davr tajribalariga tayanib va

o'quvchilarning mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirish g'oyalarini nazarda tutib, hozirgi zamon darslarini muammolik prinsipi asosida: a) muammoli va b) muammosiz darslarga bo'lish mumkin. Bunday darslar bir-biridan nimalari bilan farqlanadi? Ulardagi ta'limning metodlari va vositalaridagi tafovutlarni ko'rish mumkinmi? Lekin asosiy farq ularning strukturasiadir. Bunda muammoli darsning mantiqiy-psixologik (ichki) va didaktik (tashqi) strukturasi haqida gapirish mumkin.

Ichki struktura nuqtayi nazaridan o'qituvchi atayin muammoli vaziyatlarni vujudga keltiradigan va o'qituvchilarning o'quv muammolarining mustaqil holda qo'yish hamda ularni hal qilishga doir faoliyatini tashkil etadigan yoki muammoni o'zi qo'yib, ularning o'zi hal qiladigan, o'quvchilarga izlanish vaziyatidagi fikrlash mantiqini ko'rsatadigan darslarni muammoli darslar deyiladi.

Muammosiz dars o'qituvchi o'quvchilarga o'quv materialini bayon qilish va tushuntirishda muammoli vaziyatlarni (garchi ular tasodifan paydo bo'lsa ham) vujudga keltirilmasligi bilan muammoli darsdan farq qiladi.

Muammosiz dars didaktik jihatdan muammoli darsdan shu bilan farqlanadiki, unda o'quv jarayoni bosqichlarga aniq bo'linadi, darsning asosiy elementlari bo'lmaydi, o'qituvchi o'quv materialini bayon qilishi, bilimlarni mustahkamlashga, takrorlashga doir mashqlarni bajarishi darsning mustaqil bosqichlarini tashkil qiladi. Xususan, o'qituvchining axborot tarzidagi bayoni yoki o'quvchilarning mustaqil ishlari reproduktiv xarakter kasb etmaydi.

Muammoli darslar o'rganiladigan mavzuning va boshqa omillarning mazmuniga bog'liq holda muammosiz darslar bilan almashinishi mumkin. Ularning birlashuvi ta'limning faollashuvi darajasini belgilaydi. Agar darslar tizimida muammoli darslar ko'p o'rin olsa, bunday ta'limni muammoli, kamol toptiruvchi ta'lim, deb hisoblanadi. U o'quvchilarning aqli va hissiyoti yuqori darajada rivojlanishini ta'minlaydi. Lekin, hozir maktablarda o'tilayotgan muammoli darslar o'tilish amaliyotiga xos bo'lgan va oltmishinchi yillar didaktikada ifodalangan mazkur darslardan boshqachadir.

Darslarning muammoli va muammosiz darslarga bo'linishi M. I. Maxmutov o'z asarlarida ta'kidlaganidek, ta'lim jarayonini faollashtirish nuqtayi nazaridan katta amaliy ahamiyatga ega. Biroq, muammoli va muammosiz darslarning o'xshashligi hamda farqi ma'lum jihatdan nazorat darslariga ham daxldor bo'lib, ularda ham muammolilik darajasi o'quvchilar mustaqil ishining xarakteriga bog'liq.

## Darslarning turlari

Darslarning faqat tiplari bo'yicha emas, balki turlari bo'yicha ham tasniflanishi ularni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun muayyan darajada ahamiyatga molikdir. Pedagogik adabiyotlarda darslarning turlari har xil asoslar bo'yicha ifodalanadi. Darslarni o'quvchi va o'qituvchilar faoliyatining xarakteri bo'yicha turlarga ajratish amaliy maqsadga muvofiq emas, bunday ajratishni ta'lim metodlarini amalga oshirish usullari bo'yicha bajarish lozim.

Mazkur holda darslarning tiplari va turlari bo'yicha tizimlashtirish mukammal shaklga ega bo'ladi: pedagogik maqsad va o'quv materialini darsning tipi, turini, didaktik maqsadlarini tanlash zaruratini keltirib chiqaradi va bular, o'z navbatida, ta'limning metodlarini, vazifalarning qo'yilishini hamda maqsadga erishishning omillari sifatidagi ta'limning vositalari, masalalarini yechish usullarini oldindan belgilaydi.

Darslarning turlari quyidagicha:

I a) dars — leksiya; b) dars — suhbat; v) kino darsi; g) nazariy yoki amaliy mustaqil (tadqiqot tipidagi) ishlar darsi; d) aralash dars (bitta darsda darsning har xil turlari birikmasi).

II. a) mustaqil (og'zaki yoki yozma mashqlardan iborat reproduktiv tipidagi) ishlar darsi; b) dars — laboratoriya ishi; v) amaliy ishlar darsi; g) dars — ekskursiya.

III. a) og'zaki (umumiy, yakka tartibda, guruhiy) so'rash; b) yozma (yakka tartibda) so'rash; d) sinov; e) sinov amaliy (laboratoriya) ishi; f) kontrol ish; g) aralash dars. Oldingi uchta turning birikmasi.

## Darslarning prinsiplari

**Tushuntirish darsi.** Ma'lumki, maktabdagi ta'limning asoslaridan biri onglilik prinsipidir. Shunga ko'ra, ko'nikma va malakalarni shakllantirishning dastlabki bosqichi nazariy masalalarni o'rganishdan iborat bo'lishi kerak. Bunda o'qituvchining materialni tushuntirishi eng muhim zveno hisoblanadi.

Tushuntirish darsining strukturasi, ya'ni undagi qismlarning o'zaro joylashuvi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Ilgari o'rganilgan materiallarga doir bilimlarni eslash (o'quvchilardan so'rash).

2. Materialni tushuntirish.

3. Materialning o'zlashtirilganini tekshirish.

4. Nazariyani qo'llash namunasini ko'rsatish.

5. Uyga vazifa berish.
6. Darsni yakunlash.

Ana shu tipdagi darsning strukturasi elementlariga dars mavzusini e'lon qilish, uning maqsadini ifodalash va vazifalarning qo'yilishini ham kiritish mumkin.

### **Bilimlar, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash darslari.**

Bu tipdagi darsning strukturasi quyidagi darsning asosiy elementlarini o'z ichiga oladi:

1. Nazariya bo'yicha bilimlarni eslash.
2. Mavzu bo'yicha ko'nikma va malakalarni rivojlantirish (mashqlar).
3. Darsni yakunlash.
4. Uyga vazifa berish.

Bu struktura, bir qarashda, juda oddiy tuyuladi. Lekin aslida shunday emas. Darsdagi mustahkamlash ishi samarali bo'lishi uchun unga o'quvchilarni tayyorlash kerak. Birinchidan, ularni navbatdagi mustahkamlash darsi haqida o'z vaqtida xabardor qilish lozim. Shuningdek, o'qituvchi yana darsda nimalar bilan shug'ullanishlarini aytib berishi darkor. Ikkinchidan, mustahkamlash darsi arafasida o'qituvchilarga navbatdagi dars mavzusi bo'yicha muayyan topshiriqni tavsiya etish zarur. Qoida bo'yicha bu topshiriqqa quyidagilar kirishi lozim: dars mavzusi bo'yicha nazariy bayon qilingan paragraflar, o'zini o'zi tekshirish uchun paragraflarga savollar, mavzu bo'yicha kichikroq mashqlar.

O'quvchilarni o'tilganlarni mustahkamlash darsiga yaxshi tayyorlash uchun mazkur darsdan oldinroq ularga darslikdagi misollarni o'zlarining misollari bilan almashtirish, kichik-kichik mashqlarni bajarish, masalalar yechish kabi topshiriqlar berish foydalidir.

**Takrorlash darsi.** Mustahkamlash va takrorlash darslari o'rtasida anchagina umumiylik mavjud. Bu umumiylik, eng avvalo, mazkur darslarning vazifalari va strukturalariga taalluqlidir. Shu bilan birga, mustahkamlash va takrorlash darslari orasida tafovut ham bor. Shuningdek, takrorlash darsida material to'liq emas, balki tanlab ko'rib chiqilgan, oldingi darslarda yetarlicha o'zlashtirilmagan masalalar takrorlanadi.

Takrorlash darsi ish metodlari bilan ham mustahkamlash darsidan farqlanadi. Bu metodlar dars mazmunining o'zidan kelib chiqadi. Takrorlash darsi uchun yuqorida aytilganidek, mustahkamlash darsiga nisbatan ancha keng material tanlanadi. Lekin bu material qismlari bir-biriga bog'lanmaydi, balki o'quvchilar ularni taqqoslay oladigan yo'sinda jamlanadi.

## Darsga tayyorlanish

„Dars samaradorligi“ degan ifodada ikkita tarkibiy qismni ko'rish mumkin, bular: darsga puxta tayyorgarlik ko'rish va darsni o'tish mahoratidan iborat. Yomon rejalashtirilgan, yetarlicha o'ylanmagan, shoshilinch loyihalangan va o'quvchilar imkoniyatlari bilan uyg'unlashmagan dars yaxshi *sifatli* bo'lishi mumkin emas.

*Darsga tayyorlanish* — bu butun bir tadbirlar majmuasini ishlab chiqish, ayni paytda pirovard natijani ta'minlaydigan o'quv-tarbiya jarayonini tanlashdir.

O'qituvchining darsga tayyorlanishi uch bosqichdan iborat: *aniqlash, oldindan aytib berish, loyihalash* (rejalashtirish). Bu o'rinda o'qituvchining materialni yaxshi bilishi, o'z fani doirasida erkin fikrlay olishi ko'zda tutiladi. U o'z shaxsiy mavzuga oid papkasini yoki ish kitobini yuritib, unga o'zi dars o'tadigan fan sohasidagi eng yangi ma'lumotlarni to'playdi, muammoli masala va topshiriqlarni, test materiallarini jamlaydi. Takror aytamiz, muvaffaqiyatli dars o'tish uchun o'qituvchi amaliy va o'quv materialini ishonch bilan puxta egallagan bo'lishi zarur.

Darsga puxta tayyorgarlik ko'rish ishlari o'quv axborotlarini sinf imkoniyatlariga, yuqori samara beradigan bilish mehnati va jamoa hamkorligini tashkil etishda qulay shart-sharoit (sxema) ni baholash va tanlashga „moslashishga“ olib keladi. Dars berishning oqilona shaklini tanlash uchun o'quv mashg'ulotini qat'iy ravishda rejalashtirish zarur.

Uning asosida darsni tayyorlash algoritmi (qoidalar majmuyi), barcha muhim omillar va holatlarni hisobga olishni kafolatlaydigan izchil tadbirlar bo'lishi zarur.

Demak, algoritm (qoidalar majmuyi)ni amalga oshirish muayyan shart-sharoitlarni aniqlash bilan boshlanadi. Diagnostika (aniqlash) bu — tarbiyaviy ishlarni loyihalash munosabati bilan dars o'tishdagi barcha vaziyatlarni „ochib“ berish bilan — o'quvchilarning imkoniyati, ularning faoliyati va xulq-atvori motivlari, o'qitish darajasi talab qiladigan ehtiyojlar va ishtiyoqlari, qiziqish va qobiliyatlari, o'quv materialining xususiyati, uning amaliy ahamiyati, darsning tuzilishi, shuningdek, o'quv jarayonida butun vaqtni qanday sarflanishini — tayanch bilimlarni takrorlash (aktualizatsiya)ga, yangi axborotlarni o'zlashtirishga, mustahkamlash va sistemalashtirishga, bilim, malakani tekshirish va

xatolarni to'g'rilashga ketgan vaqtni chuqur tahlil etish bilan ifodalanadi. Ushbu bosqich mashg'ulotlar samaradorligini belgilovchi omillarning ta'sirini yorqin tasavvur etiladigan darsning diagnostik kartasini vujudga keltirish bilan yakunlanadi.

Oldindan aytish bo'lajak darsni o'tishdagi turli variantlarni baholash va ular orasidan eng maqbulini tanlashga qaratilgan. Oldindan aytishning zamonaviy texnologiyasi dars samaradorligi miqdoriy ko'rsatkichlarini quyidagi yo'llar bilan chiqarishga yordam beradi. Darsning asl maqsadi bo'lgan bilim (malakalar) hajmini shakllantirish 100% deb qabul qilinadi. Unga to'sqinlik qiluvchi omillar, tabiiy ravishda bu ko'rsatkichni pasaytiradi, yo'qotishlar kattaligi (u maxsus metodika orqali aniqlanadi) va u ideal natijada chegirib tashlanadi, shunday qilib, pedagog o'ylagan sxema bo'yicha dars samaradorligining erishishi mumkin bo'lgan aniq ko'rsatkichi aniqlanadi. Agarda bu ko'rsatkich o'qituvchini qoniqtiradigan bo'lsa, u darsga tayyorlanishning yakunlovchi bosqichi, rejalashtirishga o'tadi. Qoniqtirmasa — o'zgartirish mumkin bo'lgan omillar vositasida darsni tashkil etishning yanada mukammal sxemasini izlashga majbur bo'ladi.

*Loyihalash* (rejalashtirish) — tayyorlanishning yakunlovchi bosqichi bo'lib, u o'quvchilar bilish faoliyatini boshqarish dasturini tuzish bilan tugaydi. Boshqarish dasturi bu — qisqa va aniq, erkin tuzilgan hujjat bo'lib, unda o'qituvchi jarayonni boshqarishning o'zi uchun zarur o'rinlarini qayd qiladi, kimdan va qachon so'rash, qayerda muammoni yuzaga keltirish, mashg'ulotning keyingi bosqichiga qanday o'tish kerakligi, oldindan ko'zlangan qiyinchiliklar paydo bo'lganda jarayonni qanday sxemada qayta qurish mumkin va boshqalar shular jumlasidandir. Boshqarish dasturi darsning an'anaviy rejasida boshqarish ta'sirini aniq, ravshan belgilash bilan farq qiladi.

Yosh o'qituvchilar darsning reja-konspektini batafsil yozishlari kerak. Bu qoida amaliyot talabi bo'lib, undan hali biror o'qituvchi bo'lajak darsni tashkil etishning har bir tafsilotigacha o'ylab chiqmasdan haqiqiy ustoz bo'la olmagan. Qachonki, takror-takror tuzilishlar odatga aylanib qolganda, rejaning hajmi muttasil kamaya borib, u harakatlarning aniq dasturiga aylangandagina, qisqartirilgan yozuvlarga o'tish mumkin bo'ladi.

Yosh o'qituvchi rejasida quyidagilar aks etgan bo'lishi kerak:  
— darsning o'tish sanasi va mavzu rejasiga muvofiq uning tartib raqami;



- dars o'tilayotgan sinf va dars mavzusining nomi;
- o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish va ularni rivojlantirish maqsad va vazifalari;
- dars izchilligini ko'rsatgan holda uning tuzilishi va har bir bosqichlari bo'yicha vaqt taxminiy taqsimlangan bo'lishi;
- o'quv materialining mazmuni;
- darsning har bir qismida o'qituvchi tomonidan qo'llanadigan metod va ish usullari;
- dars o'tish uchun zarur bo'lgan o'quv qurollari;
- uyga topshiriqlar.

### **O'qituvchining o'z darsini tahlil qilishi**

O'qituvchi o'z faoliyatini o'z hamkasblari tahlil qila olganidek, tahlil qila olishi zarur. Busiz kasbda rivojlanishga erishib bo'lmaydi. Xo'sh, tahlil qilishning o'zi nimalardan iborat? U qanday prinsiplarga asoslanadi?

Bizningcha, pedagogik faoliyatni tahlil qilganda uning barcha tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatish, ularning uzviy bog'liqligini chuqur tushunish, o'qituvchi qo'ygan masalalar, uni yechish yo'llari va ko'zlangan maqsadlar qanchalik uyg'unlashib ketishini his etish lozim. Bunda:

birinchidan, biz hamkasbimiz darsini tashqaridan kuzatishimiz va faoliyatini tahlil qilishimiz;

ikkinchidan, o'zimiz uchun alohida aqamiyatga molik bo'lgan o'z harakatlarimizni tahlil qilishimiz kerak.

Bunday tahlil (analiz) yo'llarini egallash uchun muayyan bosqichdagi ishlarni bajarmoq zarur.

Birinchi bosqich — psixologik-pedagogik fanning yangi g'oyalari, pedagogik faoliyatning tuzilishi, uning asosiy tarkibi, uning boshqa predmetlar bilan o'zaro ta'siri va o'zaro aloqasi bilan tanishish.

Ikkinchi bosqich — tahlil, qayd etish, ro'yxatga olish, xronometrlash yo'llarini o'rganish.

Biz ishlab chiqqan Tahlil sxemasi (Analiz sxemasi)da faoliyatni qanday qilib va qanday izchillikda tahlil qilish lozirligi va ular o'rtasida qanday tarkibiy qismlar va o'zaro aloqa borligini ko'rish mumkinligi bayon qilinadi.

## **O'qituvchining o'z pedagogik faoliyatini tahlil (analiz) qilish sxemasi**

Pedagogik topshiriqlar:

— Dars (mavzu)ga qanday aniq vazifalar qo'yilgan: a) rivojlantiruvchi; b) tarbiyalovchi; d) ta'lim beruvchi.

— Ular qaysi umumiy vazifaning bir qismi bo'lib hisoblanadi?

— Darsda barcha topshiriqlar bajariladimi?

— Dars davomida vazifalar o'zgaradimi? O'zgaragan bo'lsa, nima uchun?

Pedagogik vosita va usullar:

— Mazkur sinf va alohida o'quvchilarning xususiyatlari e'tiborga olindimi:

a) ularning aqliy va psixik o'sishi darajasi;

b) potensial imkoniyatlari;

d) fanni bilish darajasi;

e) hissiy holatlar va darsga tayyorgarligi;

f) qanday hisobga olindi? Agar hisobga olinmagan bo'lsa, nima uchun?

— Mazkur sinf bilan ishlashga o'qituvchining xohishi qanday edi? Darsga tayyorgarlik darajasi-chi?

— Darsga tayyorgarlikda qanday usul va yo'llardan foydalanildi? Darsda vaqt taqsimoti qanday bo'ldi? U maqsadga muvofiqmi? Pedagogik masalalarni hal qilish uchun qo'shimcha materialdan foydalanildimi? Qanday maqsadda?

— Mavzuga oid majburiy material qayta qurildimi? Bu ijobiy natijaga olib keldimi? Agar olib kelmagan bo'lsa, nima uchun? Darsda kutilmagan vaziyatlar yuz berdimi? Qanday? U qanday hal etildi?

### **Darsning umumiy bahosi (baholash)**

— O'qituvchi bolalar bilan ishlashdan qoniqish hosil qildimi?

— O'quvchilar qanday ishlashdi? Ijodiy muhit vujudga keltirildimi?

— Ayrim o'quvchilarda va butun sinfda qanday qiyinchilik va muammolar paydo bo'ldi? Rejalashtirilgan masalalardan nima amalga oshirildi? Nima amalga oshirilmadi? Nima uchun?

— Pedagogik topshiriqlarni bajarish vositalarini to'g'ri (no-to'g'ri) tanlashda muvaffaqiyatsiz (omadsiz)lik sabab bo'ldimi? Ular qanday vositalar edi? Yoki boshqa sabablar bormi?

– Kelgusida ushbu dars tajribasini hisobga olsa bo‘ladimi?

Oddiy o‘qituvchi va ustoz o‘qituvchining biror masalaga yondashuvlaridagi farqqa e‘tibor qiling-a! Masalan, qarshimizda ikki parallel sinf turibdi, ularning nazariy tayyorgarligi ham, emotsional yetukligi ham deyarli bir xil o‘quvchilardir. Albatta, ikkala sinfda ham ayni bir vazifani bir xil vositalar yordamida bajarish mumkin. Afsuski, ko‘p o‘qituvchilar xuddi shunday qiladi. Biroq ustoz-o‘qituvchi boshqacha yo‘l tutadi. Bir sinfda u voqealarning tashqi ta‘siriga urg‘u beradi, boshqa sinfda jarayonlar kechishi mantiqiga e‘tibor qiladi.

Birida dars vaqtini shunday taqsimlaydiki, yangi materialni tushuntirish davomida mavzuning asosiy o‘rinlariga diqqatni alohida qarab, uni bir necha marta takrorlaydi, ikkinchisida esa dars oxirida qisqacha bayon etadi, xolos. Shu tarzda bir masalani ikki xil ko‘rinishda hal qiladi.



### *Savol va topshiriqlar*

1. Ta‘lim olish jarayonida qanday komponentlardan foydalaniladi?
2. Darsning tashkiliy shakllarini ochib bering.
3. Dars tizimi, strukturasi, elementlari va tiplarini so‘zlab bering.
4. Laboratoriya mashg‘ulotlarida dars tizimi, uning tiplari va turlariga oid munozara uyushtiring.
5. Maktab o‘qituvchisining darsga tayyorlanishini o‘rganib, u haqda konspekt yozib keling.





## XVI BOB. O'QITISH METODLARI

### O'QITISH METODI VA USULI TO'G'ARISIDA TUSHUNCHA, ULARNING TASNIFI

Maktabdagi o'quv jarayonining sifati ko'p omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida o'qitishning usul va metodlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Binobarin, ular bilimlarning ongli va chuqur o'zlashtirilishiga, o'quvchilarda mustaqillik va ijodiy faollikning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Usul va metod tushunchalari o'zaro bog'liqdir, chunki ularning har biri metod sifatida ham, usul sifatida ham namoyon bo'ladi.

Pedagogika amaliyotida o'qitish usullari va metodlarining juda katta boyligi to'plangan. Ularni tanlashda turli sharoitlar, o'qitilayotgan fanning xarakteri, bolalarning yosh xususiyatlari, oldingi tayyorgarlik darajasi va hokazolar hisobga olinadi.

Forobiyning fan va san'atning afzalligi haqidagi risolasida o'quv jarayonini tashkil etishga va o'qitish metodlariga qo'yiladigan talablar ifodalangan. Olim o'zining o'qitish metodlari haqidagi tushuntirishlarida o'quvchilarga turli bilimlar berish bilan birga, mustaqil holda bilim olish yo'llarini ham ko'rsatish, ularni bilimlarning zarurligiga shak-shubhasiz ishonitirish kerakligini uqtirgan.<sup>1</sup>

Sharq qomusiy olimlarining asarlarini tahlil qilish, hozirgi terminologiyadan foydalanib, mazkur asarlar mualliflarining prinsiplari va o'qitish metodlari bilishning umumiy qonunlariga muvofiqligini aniqlash imkonini beradi. Barcha qomusiy olimlar foydalangan o'qitish metodlarini bir necha guruhga ajratish mumkin. Bular: ko'rsatmali tajriba metodlari (Ibn Sino), bilimlarni bayon qilishning savol-javobli yo'llari (Abu Rayhon Beruniy, Al-Xorazmiy), ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodlari, bilimlarni tekshirish metodlari (Forobiy, Al-Xorazmiy) va hokazolardan iboratdir. Shunisi diqqatga sazovorki, mazkur olimlarning barchasi o'quvchilar faoliyatini kuchaytirish va ularda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish maqsadini ko'zlaganlar. Burhoniddin Zarnudjiyning fikricha, insonning bilish faoliyati bilmaslikdan bilishga qarab boradi. Aql faol, ijodiy kuchdir, koinotni

<sup>1</sup> Ал-Фарабий. Математические трактаты. Алма-Ата, Илым, 1972, 327 — 328- betlar.

bilish quolidir. Ammo dastlabki tajribasiz bilishning bo'lishi mumkin emas. Chunki umuminsoniy aql tushunchasi taqqoslash, kuzatish va tajriba yo'li bilan tarkib topadi. Bundan shunday pedagogik xulosa chiqarish mumkinki, inson hissiy idrokni boyitish bilangina o'zining bilimlarini oshira oladi. Shuning uchun ta'limda o'quvchilarning o'zidagi tajribaga tayangan metodlardan iloji boricha keng foydalanish kerak.

Metodlar va usullarni tanlash o'qituvchi darsda hal qilishi mo'ljallangan masalaga bog'liq bo'ladi. Chunonchi, yangi materialni bayon etishda bir xil metodlar qo'llansa, uni mustahkamlashda ikkinchi va mavzuni umumlashtirishda yana boshqa xil metodlar qo'llanadi. Darsning turli bosqichlarida puxta o'ylash va samarali usullar hamda metodlarni tanlash juda muhimdir. O'qituvchi darsning eng boshida 4—5 daqiqa umumiy so'rashni amalga oshiradi va o'quvchilarning qaysi guruhi o'tgan dars bo'yicha yetarli darajada o'zlashtirmaganini aniqlaydi va keyingi so'rashda sinfning diqqat-e'tiborini eng avval ana shu masalaga qaratadi. Dastlab savollarga batafsil javob bera oladigan o'quvchilardan so'raydi. Natijada sinfning bir qismi uchun murakkablik qilgan material tushunarli bo'ladi. Bu usul o'quvchilarning mashg'ulotlardagi nuqsonlarini payqash va shu zahoti bartaraf etishda yordam beradi. Mazkur usulning samaradorligi ham xuddi ana shundadir.

Garchi har bir o'qituvchining ishida anchagina usul va metodlar mavjud bo'lsa-da, ularni qo'llashdan ko'zlanadigan maqsad tarbiyalanuvchining ta'limiy ishlarini faollashtirishdir. Bu tadbir juda muhim bo'lib, birinchidan, o'quvchilarni ularning e'tiqodiga, e'tiqodni esa amaliy faoliyatga, xatti-harakatga aylantiradi, ikkinchidan, o'qitish jarayonining ishini osonlashtiradi. Zotan, o'qish-o'rganish diqqat-e'tiborni talab qiladigan murakkab faoliyatdir va unda o'tkir aql, mustahkam iroda, tiniq tasavvur, kuchli xotira zarur. O'qituvchining vazifasi samarali usul va metodlardan foydalanib, o'quvchilarda ana shu sifatlarni tarkib toptirish va ularga qiyinchiliklarni yengishni o'rgatishdir.

Hozirgi o'qitish jarayonida qo'yiladigan talablar nima va o'quvchilarda darsga qiziquvchanlikni oshiradigan, uni yangilik elementlari bilan boyitish uchun nima qilish kerak? Hozirgi zamon ta'limi faqat insoniyat erishgan bilimlarni o'zlashtirishni emas, balki jamiyat endi hal qilishi va bunda bugungi o'quvchilar qatnashishi lozim bo'lgan masalalar bilan tanishishni ham talab qiladi. Bunday masalalar kosmosni o'zlashtirish, atom energiya-

sidan tinchlik maqsadlarida foydalanish, cho'llarni hosildor yerlarga va bog'-rog'larga aylantirish, qishloq xo'jaligini intensivlashtirish va hokazolardan iborat bo'lishi mumkin. Xalq xo'jaligi va fanning hamma sohalarida juda katta burilishlar ro'y bermoqda va har bir o'qituvchi o'zining tarbiyalanuvchilarini o'zi o'qitadigan fan sohasi bo'yicha navbatdagi qayta qurilishlar va erishilgan yutuqlar bilan keng tanishtirishi kerak. Bu ishni o'quvchilarga mos shaklda va o'quv dasturiga muvofiq amalga oshirish lozim.

Mazkur talabning ikkinchi xususiyati o'qituvchining o'quvchilar fikr doirasini kengaytirish to'g'risida doimo g'amxo'rlik qilishidir. Ta'limning mana shu bosqichida o'qituvchi oldida o'quvchilarga oddiygina bilimlar berish emas, balki ularning fikr doirasini kengaytirish, qiziquvchanligini oshirish va ularda o'zi o'qitadigan fanga muhabbat uyg'otish vazifasi turibdi.

Shunday qilib, o'qitish metodi o'qituvchi va o'quvchilar nazariy hamda amaliy bilish faoliyatining ta'limiy vazifalarini bajarishga qaratilgan yo'ldir. Unga quyidagi muayyan talablar qo'yiladi:

1. O'quv materialini o'rganishning o'qituvchi tavsiya etgan yo'li fikrlashning dialektik-materialistik usuli, mustaqil qarashlar, irodaviy xususiyatlari va xulqning shakllanishiga olib borishi kerak. Ana shu talab nuqtayi nazaridan metod tarbiyaviy tusda bo'lishi lozim.

2. O'qitish metodining ilmiy asosi yaqqol va aniq bo'lishi zarur. Shundagina o'qituvchi mazkur metod orqali qanday masalalar qo'yilishi va hal qilinishi mumkinligini, qanday masalalarni hal qilib bo'lmasligini ko'ra oladi.

3. O'qitishning tizimlilik uning samaradorligini belgilaydi.

4. O'qitish metodining tushunarlilik: o'qitishning yo'li o'quvchi uchun qabul qilinishi va qo'llanishi, o'quv materialini o'rganishning usuli esa bilimlarni o'zlashtirishning imkoniyatlariga muvofiq bo'lishi lozim.

5. O'qitishning onglilik va faollik zaruriyati nihoyatda jiddiy talabdir.

6. Bilimlarning puxtaligi va asoslilik.

7. O'qitish metodikasi nazariy va amaliy hodisalarning muvofiqligi.

Har qanday metoddan biror maqsadga erishish ko'zda tutiladi va shuning uchun u qandaydir maqsad qo'yishni, unga erishish bo'yicha faoliyat usulini, ana shu faoliyatni amalga oshirishda yordam beradigan vositalarni bilishni taqozo etadi. Har qanday faoliyat uning obyektini talab qiladi. Nihoyat, metod maqsadga olib borishi

kerak, aks holda, u qo'yilgan maqsad uchun yaroqsizligini yoki bu holatda uning umuman noto'g'ri qo'llanganini e'tirof etish lozim. Shunday qilib, har qanday metod uni qo'llashdan ko'zlanadigan maqsadni, shu maqsadni amalga oshirish faoliyatini va faoliyatni bajarish vositalarini talab qiladi. Bu vositalar faoliyat obyekti to'g'risidagi predmetli yoki aqliy bilimlar, qo'yilgan maqsadga albatta erishishdan iborat bo'lishi mumkin. Bularning hammasi har qanday metodga nisbatan maqsadga muvofiqdir, lekin o'qitish metodi uchun yetarli emas.

Metod strukturasi o'qitish usullari kiradi. Lekin metod mazkur usullar majmuyidan iborat emas. Usul o'qituvchi yoki o'quvchilar aqliy yoki amaliy ishining alohida operatsiyalari bo'lib, ular mazkur metodda tavsiya etilgan materialni o'zlashtirish shaklini to'ldiradi. Masalan, o'qituvchi eslab qolish usulini beradi. Usul metoddan ajraladi, o'zining bilimlarini o'zlashtirishdagi va ko'nikmalar hamda malakalarni shakllantirishdagi ahamiyatini yo'qotadi.

O'qitish usullarini quyidagilarga bo'lish mumkin:

— tafakkur, xotira, diqqat va xayolning alohida operatsiyalarini tarkib toptiradigan va faollashtiradigan usullar;

— fikrlash faoliyatida muammoli va izlanishli vaziyatlarni vujudga keltiradigan usullar;

— o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirish bilan bog'liq kechinmalari va hissiyotlarini faollashtiradigan usullar;

— nazorat va o'quvchilarning o'zini o'zi nazorat qilish usullari;

— o'qitish jarayonida o'quvchilarning jamoaviy va shaxsiy o'zaro munosabatlarini boshqarish usullari.

O'qitishning turli metodlariga bir xil usullarni kiritish mumkin. So'nggi yillarda pedagogika fani va maktab amaliyotida o'qitish metodlari muammosiga alohida e'tibor berilmoqda. Shu muammo bo'yicha anchagina tadqiqotlar bajarilmoqda, ilg'or pedagogik amaliyotda o'qitishning samarador metodlarining va ularning tizimlarini qo'llashning talaygina yo'llari topildi. Ammo umumiy ta'lim maktabiga qo'yilayotgan yangi talablar o'qitishning metodlari va usullarini yanada takomillashtirishni talab qilmoqda.

Yuqorida qayd etilganidek, ta'limning mazmuniga qo'yilayotgan yangi talablar — yosh avlodga, xususan, fanlarning asoslari bo'yicha yuksak ilmiy-nazariy bilimlar berishdan iborat bo'lib, bu ish nazariy bilish metodlariga, shu jumladan, o'quvchilarni mantiqiy fikrlash, mantiqiy operatsiyalarni bajarish usullari bilan qurollantirishni tobora kuchaytirishni taqozo etadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, o'qitish metodlarining yagona ta'rifi yo'q. Ular o'qituvchi va o'quvchilarning ta'limiy-tarbiyaviy vazifalarini hal qilishga qaratilgan o'zaro hamkorlikdagi faoliyat usullarining tartibga solinishidir.

Umuman, o'qitish metodlarining majmuyi — atrofda voqelikni bilishning yo'li, deya xulosa chiqarish mumkin. O'quvchilar aqliy kamol topishining xarakterini belgilaydigan yo'l bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi, shaxsning xususiyatlarini shakllantiradi. O'qitishning maqsadi insoniyatning tajribasini o'zgartirishning o'zidir. O'qitish nazariyasi metodlarini insoniyat tajribasidan oladi va ularni o'quv mashg'ulotlariga moslashtiradi. Shuning uchun o'qitish metodlari doimiy ravishda yangilanadi, takomillashadi, fan-texnikaning rivojlanishi va ijtimoiy rivojlanish asosida yangi metodlar vujudga keladi.

O'qitish metodlarining juda ko'p turlari mavjud va ularning sonini aniq belgilab bo'lmaydi. Metodlar o'qitishning mantiqiy tomonlariga, komponentlari va vazifalariga asoslanib tasniflanadi.

Maktabdagi o'qitish metodlarining yagona tasnifi yo'q. Nazariya va amaliyotda bir qancha tasniflar mavjud bo'lib, ular o'zaro zid kelmaydi, biri ikkinchisini inkor etmaydi, balki bir-birini to'ldiradi, o'qitish jarayonini ko'rish imkoniyatini yaratadi.

Tasnif tartib va tizimni vujudga keltiradi, umumiy va muayyan nazariy va amaliy, muhim va tasodifiy o'qitish metodlarini aniqlashga yordam beradi, shu orqali ulardan amaliyotda samaraliroq foydalanishga xizmat qiladi.

O'qitish metodlarini tasniflashda o'quvchiga dastur materialini o'rganishning maqsadga muvofiqroq yo'llarini tanlash imkonini yaratadi, o'z ishidagi yutuq va kamchiliklarni tushunishda yordam beradi, o'qituvchilarning faoliyatini takomillashtirish uchun qulay sharoitni vujudga keltiradi.

## O'QITISH METODLARINING TASNIFI

Pedagogikada o'qitish metodlarini tasniflashga yagona yondashuv mavjud emas. Hozirgi didaktikada o'qitish metodlarini bilimlar manbasi bo'yicha (S. O. Lordkipanidze, Y. Y. Golant), didaktik maqsadlar bo'yicha (B. P. Yesip), bilish faoliyatining saviyasi bo'yicha (I. Y. Lerner, M. N. Skatkin, M. I. Maxmutov) farqlash eng ko'p tarqalgan.

Metodlarning binar sxemalari, ularni uch o'lchovli va hatto, keng qamrovli farqlash ham uchraydi. Ana shu tasniflarning har



birida afzalliklar va kamchiliklar mavjud bo'lib, ular adabiyotlarda yetarlicha tahlil qilingan.

O'qitish metodlarini bilish manbalari bo'yicha tasniflash ancha oddiy bo'lib, ular maktab amaliyotida keng tarqalgan. Bu belgi bo'yicha metodlar quyidagi uch guruhga bo'linadi:

1. Og'zaki metodlar (bilimlarni so'z bilan bayon qilish, suhbat, darslik, ma'lumotnoma va ilmiy adabiyotlar bilan ishlash).
2. Ko'rsatmali metodlar (rasmlar, namoyishlar, kuzatishlar).
3. Amaliy metodlar (mashqlar, laboratoriyadagi amaliy ishlar).

Bular ma'lum darajada shartlidir, chunki mazkur metodlarning hammasi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ularni doim ham aniq chegaralab bo'lmaydi.

Har bir o'qitish metodining o'z vazifasi bor. Adabiyotlarda o'qitish metodlarining rag'batlantiruvchi (motivlashgan), ta'limiy, tarbiyaviy va kamol toptiruvchi umumpedagogik vazifalari ifodalangan.

O'qituvchi darsga tayyorlanishda va uning uchun eng muvofiq metodlarini tanlashda ana shu metodlarning bajarilishi mumkinligini va ularning strukturasi hisobga olib, shu asosda rag'batlantirish, tarbiyaviy va kamol toptirish vazifalarini kuchaytiruvchi murabbiydir.

Tasniflash ta'limning nazariy asoslarini ko'rishga yordam beradi, pedagogik fikrni chuqurlashtiradi va shunga ko'ra ijod uchun asos bo'ladi. O'qitish metodlarini tasniflash o'qituvchilar faoliyati o'rtasida taqsimlanadi. Birinchi guruhga o'qitish usullari va ikkinchi guruhga esa o'qish usullari kiradi. Quyida o'qitish metodlarining taniqli olimlar tavsiya etgan tasniflarini ko'rib chiqamiz.

Xorazmiy, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Ibn Sino, Burhoniddin Zarnudjiylarning metodlari tasniflarida asosan mantiqiy bilish faoliyatini kuchaytirish nazarda tutilgan bo'lib, ular ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda mustahkamlash, ko'rsatmalilik nazariya bilan amaliyotni o'zaro bog'lash, izlanish metodlaridan iboratdir.

I. Y. Lerner va M. N. Skatkin o'qitish metodlarini quyidagilarga ajratadilar:

- tushuntirish — rasmlar metodi;
- reproduktiv metod;
- muammoli bayon qilish metodi;
- qisman izlanish metodi;
- tadqiqot metodi.

M. A. Danilov va B. P. Yesipning tasnifi ma'lum turdagi darslarda qo'yiladigan vazifalarga bog'liqdir.

1. Bilimlarni bayon qilishda: hikoya — tushuntirish, ma'ruza, suhbatlar, ko'rsatmali qo'llanmalarni namoyish etish.

2. O'quvchilarda ko'nikma va malakalarni shakllantirish: mashqlarni shakllantirish va amaliy ishlar.

3. Bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish — joriy kuzatishlar, og'zaki so'rash, yozma va amaliy nazorat ishlari.

S. I. Perovskiy va Y. Y. Golant tasnifi: faol va passiv metodlarga bo'lish:

— agar o'quvchilar mustaqil ishlasa, faol metodlar (laboratoriya metodi, kitob bilan ishlash);

— agar o'quvchilar faqat tinglasa va eshitsa, passiv metodlar (hikoya, ma'ruza, tushuntirish, namoyish qilish metodi, ekskuriya).

Bunday tasniflash ma'qul emas, chunki u o'quvchilarning ongliligi va faolligi prinsipini buzadi.

Y. K. Babanskiyning tasnifi bo'yicha metodlar uchta katta guruhga bo'linadi:

— o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish va amalga oshirish;

— nazorat va o'zini o'zi nazorat qilish metodlari. (Ikkinchi guruhda ishning qator yangi metodlari va usullari mavjud.) Muallif quyidagilarni tavsiya etadi:

— bilishga doir o'yinlar, o'quv munozaralari, qiziq vaziyatlarni vujudga keltirish, rag'batlantirish, tanbeh berish va nazorat metodlari.

T. A. Ilina olimlarning tasniflarini umumlashtirib, Y. K. Babanskiyning tasnifini ma'qullagan va tasniflashning quyidagi tartibini tavsiya etgan:

— yangi bilimlarni (o'qituvchining so'zlariga tayangan holda berish uchun foydalanilgan tushuntirish, hikoya, maktab ma'ruza metodlari);

— yangi bilimlar o'zlashtirilishi, mustahkam malakalar shakllanishi uchun foydalaniladigan metodlar: suhbat, ekskuriya, eksperiment va laboratoriya ishi, darslik va kitob bilan ishlash, o'yinlari, mashqlar;

— darsning har bir bosqichida foydalansa bo'ladigan texnik vositalar bilan ishlash metodlari;

— mustaqil ish.

S. P. Baranov o'z tasnifini guruhlar bo'yicha taqsimlaydi. Birinchi guruhga o'qitishning o'qituvchi eng asosiy rol o'ynaydigan

hikoya, suhbat, tasniflash, tushuntirish va hokazolarni kiritadi. Bunda o'quvchining asosiy vazifasi — o'qituvchi mulohazalarining mantiqiga ergashish, bayon qilinayotgan mazmuni tushunish, eslab qolish va keyinchalik o'rganilgan materialni qayta gapirib bera olishdan iborat bo'ladi. Uning fikri o'qituvchi mulohazalarining tizimiga qanchalik yaqin bo'lsa, o'quv materialini o'rganishning tavsiya etilgan yo'li shunchalik ishonchli bo'ladi. O'quvchining asosiy vazifasi — o'qituvchining gaplarini tinglash va ularni tushunib olishdir.

Ikkinchi guruhga o'qishning yo'llari: mashqlar, mustaqil, laboratoriya, amaliy va kontrol ishlar kiradi. O'quvchi faoliyatining xarakteri tavsiya etilgan metodning samaradorligini belgilaydi. O'qituvchining roli bolalarning o'qishiga mohirona rahbarlik qilishdan iborat bo'ladi.

Tasniflashning shunday turlari ham mavjudki, ularda o'qitish metodlari o'qishning tegishli metodlariga: axborot-umumlash-tirish, ijrochilik-tushuntirish, reproduktiv, instruktiv-amaliy va mahsulli-amaliy, tushuntirish-da'vat va qisman izlanishli, undovchi va izlanish tarziga mos keladi (M. I. Maxmutov).

Amalda o'qitish metodlarini tasniflashga bilimlar manbayi mantiqan asoslar bo'yicha (N. M. Verzilin), bilimlar manbayi va o'quvchilarning o'quv faoliyatidagi mustaqillik darajasi bo'yicha (A. N. Alekseyuk, I. D. Zverov va boshqalar) baravar yondashish eng ko'p uchraydi.

S. G. Shapovalenko metodlarning to'rt jihatini: mantiqiy-mazmuniy, protsessual va tashkiliy boshqarilishi jihatlarini ko'rib chiqadi.

Metodlarni tasniflash muammosiga turlicha qarashlar ular haqidagi bilimlar tabaqalanishi va birlashishining tabiiy jarayonini aks ettiradi (Svetlovskaya, Suvorova, Lvov, Mavlonova va boshqalar).

## O'QITISHNING OG'ZAKI METODLARI

**1. Yangi bilimlarni berish metodlari.** Biz o'qitish metodlarini tasniflashda yetakchi metodlardan birini ajratdik. U bilimlar manbayi, ya'ni yangi bilimlar hamda ta'riflarni berish; tushuntirish, hikoya, maktab ma'ruzasi metodlari majmuyidir. Quyida ana shu metodlarning har birini alohida ko'rib chiqamiz.

**Tushuntirishni** ayrim tushunchalar, voqealar, harakat prinsiplarini og'zaki talqin etish deb anglash lozim. O'qitishning bu

metodida eng asosiy narsa mushohadalarni ilmiy isbotlash mantiqidir. Ilmiy fikrlash mantiqi tushuntirishga qo'yiladigan asosiy talabni belgilaydi. Bu nimani bildiradi, avvalo, o'qituvchi yangi materialni o'tishda foydalaniladigan o'quv predmetining ilmiy mazmunini chuqur bilishi, dars uchun zarur materialni tanlay olishi va tushuntirishning samaradorligini belgilashi kerak. Bundan tashqari, bolalar mazkur materialni o'rganishning maqsadini aniq belgilashi, ularga qiziqarli bo'ladigan faktli materialni tanlashi lozim. Buning uchun esa o'qituvchi o'quvchilarning psixologik va yosh xususiyatlarini yaxshi bilishi, tushuntirishda ularning diqqatini tez jalb etishi va bilishga doir ishlarni faollashtirishi zarur. O'qituvchining nutqi yorqin, aytgan so'zlari bolalarga tushunarli bo'lishi kerak. Ana shu fikrlarimizning dalili sifatida matematika darsini olaylik.

Darsning maqsadi: 1. O'quvchilarni 6 va 7 sonlarini hosil qilish bilan tanishtirish, sonlarni taqqoslashni, 1—7 sonlari ichida miqdoriy va tartib sonlardan foydalanishni mashq qilish, 6 va 7 raqamlari bilan tanishtirish, 6 raqamining yozilishini mashq qilish.

2. O'n ichida sonlar tarkibiga doir bilimlarni mustahkamlash.

### YANGI MATERIAL USTIDA ISHLASH

1. O'qituvchi yangi material ustida ishlashni quyidagi savollar bilan boshlashi mumkin: „Biz sizlar bilan qanday sonlarni o'rgangan edik? (1-2-3-4-5) Shu sonlarning qaysinisi eng katta son? (5) Hisoblashda 5 dan keyin qanday son keladi? (6) 6 soni qanday hosil bo'ladi? 5 ta doiracha bor bo'lsa (polotnoga qo'yilgan), ular oltita bo'lishi uchun nima qilish kerakligini ko'rsat“. Chaqirilgan o'quvchi buning uchun 5 ta doirachaga yana 1 ta doiracha qo'shish kerakligini ko'rsatadi. O'qituvchi yana bolalardan so'raydi: „Bola sanoq bo'yicha nechanchi doirachani qo'shdi? (Oltinchi.) Doirachalarning hammasi nechta bo'ldi? (6 ta.) Olti soni qanday yozilishini biladiganlar bormi? Chaqirilgan o'quvchi yoki (xohlovchilar topilmasa) o'qituvchining o'zi 6 raqamini ko'rsatadi va polotnoga qo'yadi. Shundan keyin o'qituvchi bolalarga 6 sonini hosil qilish (5 ta bir xil doirachaga yana 1 ta boshqacha rangli doirachani qo'shish) amalini narsalar bilan bajarishni, so'ngra 6 soni qanday hosil qilinganini kesma raqamlar bilan yozishni buyuradi. 7 sonini hosil qilish ham xuddi shu yo'sinda bajariladi: 6 ta bir xil rangli uchburchakka yana 1 ta boshqacha rangli uchburchak qo'shiladi va kesma raqamlar bilan  $(6+1=7)$  yoziladi.

2. Shundan so'ng 5 va 6 (6 va 7) sonlarini taqqoslash ishlari bajariladi. Buning uchun to'plam polotnosida 5, 6 va 7 ta narsadan iborat sonlar pog'onachasi namoyish etiladi. Bunda 6 ning 5 dan 1 ta ko'pligi aniqlanadi. Bolalar tegishli yozuvlarni kesma raqamlar bilan bajaradilar. Keyin darslikdagi rasmlar bo'yicha ishlashga o'tish mumkin.

Parashutchilar tasvirlangan rasmga savollar: „Oldin nechta parashutchi sakradi? (5) Yana nechta parashutchi sakradi? (1) Oltinchi parashutchi sakraganidan keyin hamma parashutchilar nechta bo'ladi? (6) 6 qanday hosil qilindi? (5 ga 1 qo'shildi.) Oltinchi parashutchi sakraganidan keyin parashutchilar ko'paydimi yoki kamaydimi? (Ko'paydi:  $6 > 5$  bo'ldi)“. Keyingi rasmga savollar: „Avval nechta samolyot ko'tarildi? (6) Keyin nechtasi ko'tarildi? (1) Hamma samolyotlar nechta bo'ldi? (7) 7 qanday hosil qilindi? (6 ga 1 qo'shildi.) 6 ta ko'pmi yoki 7 ta ko'pmi? ( $7 > 6$ ).“ Uchburchakli yoki to'rtburchakli rasmlar bilan ham ana shu yo'sinda ishlanadi (birliklarni ayirish bilan 5 va 6 sonlari hosil qilinadi).

Sahifaning yuqorisiga yozilgan qator sonlardan tartib munosabatlarini aniqlashda foydalanish mumkin. O'qituvchi: „Sizlar, masalan, kinoteatr zalining bir qatoridagi o'rindiqlarni ko'z oldingizga keltiring“, — deydi va bir o'quvchidan: „Sening o'ring oltinchi, ikki yoningdagi qo'shnilaring nechanchi o'rinlarda o'tirgan bo'ladi?“ — deb so'raydi. Boshqa o'quvchiga murojaat qilib: „Sening o'ring yettinchi va sen unga 1 nomerli kreslo tomondan borasan, bunda nechanchi nomerli kreslolar oldidan o'tishing kerak?“ — deydi. Keyin o'quvchilarga shunday savol tashlaydi: „Bola qatorning qoq o'rtasida (to'rtinchi o'rinda) o'tiribdi, uning chap tomonidagi (5, 6, 7) kreslolar va o'ng tomonidagi (3, 2, 1) kreslolarning nomerlarini ayting“. O'qituvchi namunani ko'rsatgach, bolalar 6 raqamini yozadilar, 6 soni hosil bo'lishini ko'rsatadigan nuqtalarni qo'yadilar (bu ishni darslikda berilgan namunaga qarab bajaradilar). 2—3 ta tengsizlikni yozadilar.

## O'TILGAN MATERIAL USTIDA ISHLASH VA YANGI MATERIALNI O'RGANISHGA TAYYORLANISH

1. Navbatdagi darsga tayyorgarlik sifatida bolalarga  $4 + 1 = 5$ ,  $5 - 1 = 4$ ,  $2 - 1 = 1$ ,  $4 - 1 = 3$  kabi misollarni berish foydalidir. Bolalar tanlash metodidan foydalanib yoki 2, 3, 4, 5 sonlarining tarkibini bilish asosida tushirib qoldirilgan sonlarni qo'yadilar. Shunday savollar o'rta tashlanadi: „5 hosil bo'lishi uchun 4 ga qancha qo'shish kerak? 5 dan nechta olib tashlasa, 4 qoladi?“

**1 dan 10 gacha bo'lgan sonlarning 2- qismiga doir dars.**  
**Darsning maqsadi.** O'tilganlarni mastahkamlash. O'qituvchi darsni ishning muayyan sharoitlarini hisobga olib tashkil etishi mumkin. Namoyish qilinadigan va individual material bilan o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotda qatoridagi sonlarning qanday hosil bo'lishini, ularning o'sish va kamayishdagi tartibini takrorlash foydalidir. Ana shu maqsadda bolalar sonlar qatoridagi bo'sh o'rinlarni to'ldiradilar, o'sish va kamayish tartibida berilgan sonlardan foydalanadilar, sonlarni berilgan har qanday sondan boshlab, tartibi bo'yicha, masalan, 2 dan 7 gacha, 8 dan 3 gacha aytadilar. (Sanashni davom ettirish o'yini.)

Mustaqil yechish uchun ham misollar berilishi (ularni yechishda ko'rsatmali qurol sifatida „Sonlar pog'onasi“dan foydalanilishi) mumkin. Misollarning bir qismini mustahkamlash darsida tuzsa ham bo'ladi. Misollar qanday yechilganini tekshirish uchun har bir ustundagi misollarni taqqoslash va bolalarni: agar 1 ni ayirsak, 1 ta kamayadi yoki 1 ni qo'shsak, 1 ta ko'payadi, degan xulosaga olib borish g'oyat foydalidir.

**Hikoya** — xabar shaklidagi yangi materialni yoritish metodidir. Undan hamma sinflarda foydalaniladi. O'quvchilar aytiladigan ma'lumotlarni bilmaydigan yoki kam biladigan quyi sinflarda bu metodni qo'llash juda qulaydir. Lekin yangi materialni hikoya metodidan foydalanib tushuntirish uchun o'qituvchi puxta tayyorgarlik ko'rish va:

- hikoyaning g'oyaviy yo'nalishini ta'minlashi;
- unda yetarli miqdordagi yorqin va ishonarli misollar hamda dalillar, to'g'ri tekshirilgan ma'lumotlar bo'lishi;
- asosiy fikr va muhim jihatlar bayon qilinishi;
- hikoya tushunarli, sodda tilda aytilishi;
- material jo'shqin ifodalanishi kerak.

**Maktab ma'ruzalaridan**, asosan, yuqori sinflarda foydalaniladi. Chunki ular hikoyaga nisbatan uzoqroq davom etadi. Mazkur ma'ruzalar faqat o'quv dasturining yirik va muhim masalalari bo'yicha o'qiladi.

**Yangi bilimlarni o'zlashtirish va mustahkamlash, ko'nikma va malakalar hosil qilish uchun foydalaniladigan metodlar.** O'qitish metodlarining birinchi guruhidan farqli o'laroq, ularning ikkinchi guruhida o'quvchilar yangi materialni bilishda faolroq qatnashadilar. Ular o'qituvchining savollariga javob qaytaradilar (suhbat); kuzatishlar o'tkazadilar (ekskursiya); ta'lim vositalari orqali mustaqil

bilim oladilar (kitob, darslik bilan ishlash); olgan bilimlarini turli vositalar bilan mustahkamlaydilar (o'yinlar, mashqlar).

Suhbat ta'limning keng tarqalgan usuli bo'lib, darsning istalgan bosqichida qo'llanishi mumkin. Suhbatning to'rt xil turi mavjud bo'lib, ular: yangi bilimlar berishda, bilimlarni mustahkamlashda, olingan bilimlarni tekshirishda, o'tilgan materialni takrorlashda qo'llaniladigan suhbatlardir. Yangi materialni tushuntirishdagi suhbat, asosan, o'quvchining shaxsiy tajribasiga tayanadi. Uning manbayi ko'rsatmali qo'llanmalar, darslik materiallari, jadval va hokazolar bo'lishi mumkin.

Yangi bilimlar berishga doir suhbatni induktiv yo'l bilan (ya'ni xususiy ma'lum yoki zarur voqealardan umumiy voqealarga qarab borish tarzida) yoki deduktiv yo'l bilan (ya'ni umumiy hodisadan xususiy hollarga qarab borish tarzida) o'tkazish mumkin. Bilim berishning induktiv va deduktiv yo'llari o'zaro bog'liqdir. Masalan, o'qituvchi qator misollarni aytishi va keyin xulosa chiqarishi yoki umumlashtirishi mumkin (induksiya).

Yangi bilimlar berishda evristik suhbatdan foydalaniladi. Bu metod o'qituvchi o'quvchilar oldiga ma'lum bir vazifa qo'yib, ularni og'zaki savollar orqali ana shu vazifani hal qilishga olib borishda qo'llanadi. Suhbatni muvaffaqiyatli o'tishi savollarning mohirlik bilan qo'yilishiga bog'liqdir. O'qituvchining savollari, avvalo, qisqa va aniq bo'lishi, mantiqiy izchillikda berilishi, o'quvchining fikrini uyg'otishi: uni o'ylashga, tahlil qilishga, taqqoslashga majbur etishi, yangi hodisalarni tushunishga undashi kerak. O'qituvchilar savollarga to'la, ongli ravishda va asosli javob berishlari, mustaqil fikrlarini aks ettirishlari lozim. Suhbatni bilimlarni mustahkamlash uchun ham o'tkazish mumkin. U o'qituvchining axborotidan keyin yoki darslikdagi materialni mustaqil ishlab chiqilgandan keyin o'tkaziladi. Suhbat mustahkamlovchi metod sifatida bilimlarni tekshirish va baholash jarayonida ham o'tkazilishi mumkin. Suhbat mustahkamlovchi metod sifatida bilimlarni tekshirish va baholash jarayonida ham o'tkazilishi mumkin. Suhbat usuli munozara va mubohasa metodlariga kiradi. Quyida ushbu metod asosida bitta darsni misol keltiramiz.

### *O'qish darsi. Mavzu: urg'u*

**„Jonajon o'lkamizning hayvonot dunyosi“.** 1. O'qituvchi darsning boshida ilgari bajarilgan ishlarni umumlashtiradi va shunday deydi: „Endi sizlar nutqimiz gaplardan tuzilishini, gaplar esa so'zlarga bo'linishini bilasiz: sxemalar yordamida yoza olasiz,

so'zlarni qismlarga, bo'g'inlarga ajratish mumkinligini bilib oldingiz va so'zda nechta bo'g'in borligini aniqlashni o'rgandingiz“.

2. Uy vazifalarini tekshirish. Bolalarning yozda o'rmonga qilgan sayrlari haqida hikoyalari tinglanadi. Ular hikoyada uchragan ikki bo'g'inli so'zlarni ajratadilar. Qiynalib qolsalar, o'qituvchining o'zi bo'g'inli tahlil qilinadigan so'zlarni ko'rsatadi. Keyin uch va bir bo'g'inli so'zlar ajratiladi. So'zlarni oldin butunligicha, so'ngra bo'g'inlab talaffuz qilinadi. Doskaga tegishli sxemalar chiziladi.

3. Mazkur joyda yashaydigan hayvonlar va qushlar haqida suhbat o'tkaziladi. Bolalarning hayvonlar, ularning xatti-harakati, yashash tarzi to'g'risidagi bilimlari aniqlanadi. O'qituvchi tulki haqidagi topishmoqni aytadi, bolalar uni topadilar va qanday qilib topganliklarini tushuntiradilar. Keyin o'zlarini mustaqil holda boshqa hayvonlar (quyon, bo'ri va hokazolar) haqidagi topishmoqlarni aytadilar. O'qituvchi hayvonlar to'g'risidagi suhbat davomida tabiatni kuzatishda hayvonlarga e'tibor berish va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish kerakligini uqtiradi.

4. Turli narsalarning rasmlari ko'rib chiqiladi, *choynak*, *piyoz*, *burgut*, *devor* kabi so'zlarning bo'g'inlari aniqlanadi. So'zlarni bir necha marta butunligicha va bo'g'inlab, keyin, aksincha, bo'g'inlab va butunligicha talaffuz qilinadi.

5. Urg'u ustida ishlash boshlanadi. O'qituvchi bolalarga quyidagilarni aytadi: „Sizlar rasmlarning ostidagi so'zlar sxemalarida bo'g'inlar chegarasini bildiradigan ko'ndalang chiziqchalardan tashqari so'zlar ustida qiya chiziqchalar ham borligiga e'tibor bergandirsiz. Hozir ana shu chiziqlar nimaligini bilib olasiz.

Chap tomonning yuqorisidagi rasmga yana bir marta qarang. Unda nima tasvirlangan? (Bulbul.) Shu so'zni xor bo'lib ayting. Endi uni bo'g'inlab talaffuz qiling.

Unda nechta bo'g'in bor ekan? (Ikkita.) Endi har biringiz so'zni qattiq ayting va uning har bir qismi, har bir bo'g'ini bir xil ovozda talaffuz qilinishi yoki qilinmasligiga e'tibor bering. (Bo'g'inlarning biri kuchliroq ovoz bilan talaffuz qilinadi.) Bu qaysi bo'g'in? (Birinchi — bul.) Ana shu bo'g'in so'zda kuchliroq ovozda aytilishi bilan ajraladi, u urg'u bilan talaffuz qilinadi. Mana shu so'zning sxemasiga yana bir marta qarang. U nechta qismga bo'lingan? (Ikki qismga.) Ulardan qaysi birining tepasiga qiya chiziq qo'yilgan? (Birinчисining tepasiga.) Bu so'zning qismlaridan qaysinisi kuchliroq ovoz bilan talaffuz qilinadi? (Birinçisi.) Demak, unga urg'u tushadi, tepadagi chiziqcha esa ana shu bo'g'in urg'u ostida ekanini bildiradi. Boshqa so'zlar ustida ham shu yo'sinda ishlanadi.



O'qituvchi quyidagicha xulosa chiqaradi: „Odatda, har bir so'zda qancha bo'g'in bor bo'lsa ham, unda faqat bitta urg'u bo'ladi. So'zlardagi urg'uni to'g'ri va tez aniqlash juda muhimdir. Agar urg'u noto'g'ri qo'yilsa, so'zni bilish va uning nimani anglatishini tushunish qiyin bo'ladi“.

6. Dars oxirida o'yin o'tkaziladi: „Bilmasvoy ikkita qanday sxemani ko'rsatyapti? Ana shu ikki sxema nimasi bilan farqlanadi? Kim biladi? 1-sxema qaysi so'zga mos keladi? Bilmasvoyga so'zlarga to'g'ri urg'u berishda ko'maklashing“.

7. Uyg'a vazifa. Bilmasvoy ko'rayotgan har qaysi sxemaga ikki-uchtadan, masalan, *oyna*, *parta*, *sumka* singari so'zlarni tanlash.

**Ta'limiy suhbat.** Ekskursiya, amaliy ish va yangi materialni tushuntirgandan keyin ularni mustahkamlashda, takrorlashda, shuningdek, ekskursiya va yangi materialni tushuntirish davomida o'qituvchi o'quvchilar bilan suhbatlashadi. Suhbatni o'quvchilar shaxsiy tajribalari va kuzatishlari, mavjud bilimlari asosida o'qituvchining savolini tushunadigan va unga javob qaytara oladigan bo'lganlaridan keyin o'tkazish mumkin. Agar ana shunday sharoit (bilimlar, tajriba va kuzatishlar) bo'lmasa, o'quvchilar hech qanday tasavvurga ega bo'lmagan narsalar, hodisalar to'g'risida suhbat o'tkazishning mutlaqo foydasi yo'q.

Har qanday suhbatning asosini didaktik masala tashkil etadi. Ana shu masala suhbatning vazifasini va xarakterini, hatto uning turini ham belgilaydi. Shunga ko'ra, ta'limiy va evristik-ta'limiy suhbatlar bo'ladi.

Ta'limiy suhbat o'rganiladigan materialni yanada mustahkamlash, chuqurlashtirish va takrorlash maqsadlariga xizmat qiladi. Yangi mavzu tushuntirilgach, garchi har bir bola faol qatnashmasa ham, ularning xotirasi va tafakkurini rivojlantirish uchun suhbat o'tkazish zarur. Unda to'g'ri fikr yuritish uchun misollarning namunalari bo'ladi. Bundan tashqari, adabiyot, jamiyatshunoslik va boshqa fanlarga doir darsliklardagi suhbatlarda o'quvchilarning o'qituvchi aytgan g'oyalari to'g'ri kelmaydigan xususiy fikrlari yoki tushunchalari ham ma'qullanadi, o'qituvchi o'quvchilarning javoblarini e'tirof etishga yoki rad qilishga shoshilmaydi. Aksincha, sinfda ular o'z fikrlarini yoki mustaqil mulohazalarini erkin aytishlari uchun sharoit yaratishga harakat qiladi.

Javoblarni baholashda esa ularning shunchaki to'g'ri yoki noto'g'riligini qayd qilish bilan cheklanmay, balki o'quvchilarning javoblaridan ozgina bo'lsa-da, to'g'ri fikrlarini izlaydi. Ulardan zarracha haqiqatni topsa, uni o'zi qisqa va yaqqol qilib takrorlaydi,

o'quvchining mustaqil fikr yuritganini ta'kidlaydi va uni shunday qilishga da'vat etadi. Muvaffaqiyatli fikrlar, hatto ayrim ifodalar mazkur mavzuda nima haqida gap borayotganini tushunishga yo'l ochsa, ta'limiy suhbatning evristik-ta'limiy suhbatga aylanishi uchun xizmat qiladi. Noto'g'ri javoblar, agar jiddiy bo'lmasa, o'qituvchi tomonidan qayd qilinmaydi yoki yo'l-yo'lakay tuzatib ketiladi. Noto'g'ri javoblar esa o'quvchilar tomonidan oydinlik kiritilguniga qadar muhokama qilinadi. To'liq qaytarilmagan javoblarni o'quvchilarning o'zlari to'ldiradilar.

Hozircha maktablarimizda o'quvchilarning bilish ehtiyojlariga taalluqli dolzarb masalalar bo'yicha suhbatlardan ko'p foydalanilmayotir. Fan, texnika, san'at va ishlab chiqarishning dolzarb masalalari yoki ayrim muammolari o'quvchilarni hayajonlantirishi mumkin. Ixtisoslikka doir o'quv predmeti bo'yicha darslarda, xususan hozirgi paytda, o'quvchilarni qiziqtiradigan masalalar muhokama qilinadi. Ba'zan esa bunday masalalar o'quv dasturining chegarasidan ancha chiqib ketadi. Shunday suhbatda o'qituvchi o'quvchilar muhokama qilinayotgan masala bo'yicha uning fikriga ehtiyojmand bo'lishlariga ko'ra qatnashadi. Mazkur suhbat o'quvchilarning shaxsiy ehtiyoji va qiziqishlarini, shuningdek, ularni qiziqtiradigan muammoni aniqlash imkonini beradi. Unda o'quvchilar o'zaro erkin fikr almashadilar.

**Munozara.** Ta'limiy suhbat bilimlarni o'zlashtirishga zamin tayyorlab, evristik-ta'limiy suhbat ana shu bilimlarni har tomonlama qo'llashga yordam bersa, erkin suhbat bilishdagi mustaqillikni oshiradi. Shu bilan birga, bilishdagi mustaqillikni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim o'quv mashg'ulotlarining har qanday turlari, shakllari va usullari o'rtasidagi bevosita izchillikni vujudga keltiradi.

Munozara suhbatning yanada rivojlanishidir. U ikkita qarama-qarshi nuqtayi nazarning to'g'riligini isbotlash zarurati tug'ilganida vujudga keladi.

Munozara davomida o'quvchilarning fikrlashidagi xususiy cheklanish barham topadi, bilishga qiziqish ortadi va mustaqil mulohaza yuritish rivojlanadi.

## O'QITISHNING INDUKTIV VA DEDUKTIV METODLARI

O'qitishning induktiv va deduktiv metodlari — o'quv materiali mazmunining xarakteri va mantiqini yoritish usulidir.

O'qitishning **induktiv metodi** — o'qituvchi va o'quvchining turli variantlardagi faoliyatidir. Bunda o'qituvchi avval dalillarni

tushuntiradi, tajribalarni, ko'rsatmali qo'llanmalarni namoyish qiladi, umumlashtirish va tushunchalarni ta'riflash bo'yicha mashqlar bajarishni tashkil etadi. O'quvchilar oldin xususiy faktlarni o'zlashtiradilar, keyin xulosalar chiqaradilar va o'quv materialini umumlashtiradilar. Yoki o'quvchilar oldiga xususiy qoidalardan umumiy xulosalargacha mustaqil mushohada yuritishni talab qiladigan muammoli topshiriqlar qo'yiladi. O'quvchilar esa dalillar ustida mustaqil holda fikrlaydilar va tegishlicha xulosalar chiqaradilar hamda umumlashtirish qiladilar.

**Deduktiv metod** — o'qituvchining avval umumiy qoidalarni, ta'riflarni aytishi, keyin asta-sekin xususiy hollarni, muayyan vazifalarni keltirib chiqarish usulidir. Bunda o'quvchilar umumiy qoidalarni idrok etadilar, formulalarni o'zlashtiradilar, keyin esa ulardan kelib chiqadigan natijalarni egallaydilar.

Agar mana shu metodlar taqqoslansa, o'quvchilar ma'lum mushohadalarni keltirib chiqaradigan faktlar va materialni o'zlashtirishlariga ko'ra induktiv metod foydaliroqdir. Masalan, o'qituvchi matematik masalaning yechimini yoritadi, keyin o'quvchilarga ana shu xildagi masalani mustaqil holda yechishni tavsiya qiladi, lekin bunda fikrlash tez rivojlanmaydi va materialni o'rganishga ko'p vaqt ketadi. Deduktiv metod materialni tezroq o'tishga yordam beradi va bunda mavhum fikrlash faolroq rivojlanadi. O'qitishning induktiv va deduktiv metodlarida uning og'zaki, ko'rsatmali va amaliy metodlari, shuningdek, reproduktiv yoki muammoli izlanish metodi ham qo'llaniladi.

Ta'limning reproduktiv xarakteri, asosan, o'quvchilarning ijodiy faoliyatidir. Fikrlashning xarakteri — o'qituvchi bergan o'quv axborotini faolroq idrok etish va eslab qolish, o'qitishning og'zaki, ko'rsatmali va amaliy metodlaridan hamda usullaridan foydalanmay, mazkur metodlarni qo'llab bo'lmaydi. Reproduktiv metodda o'qituvchi faktlarni, isbotlarni, tushunchalar ta'rifini to'la bayon qiladi, asosiy masalaga alohida e'tibor beradi.

O'qitishning reproduktiv metodida ko'rsatmalilik ham qo'llaniladi. Reproduktiv yo'sindagi amaliy ishlar o'quvchilarning namuna bo'yicha ilgari yoki endigina o'zlashtirilgan bilimlarni qo'llashi bilan farqlanadi. Ammo bunday ishlarda bilimlarni mustaqil holda boyitish amalga oshmaydi. O'qitishning muammoli-izlanish metodi muammoli ta'limda qo'llaniladi.

## REPRODUKTIV TA'LIMDAN AMALIY TA'LIMGGA O'TISH

Biz maktabda insonga hayotiy masalalarni mustaqil holda hal qilishni o'rgatamiz. Buning uchun faqat bilimlar emas, balki ularni ishlatish va turli sharoitlarda qo'llash ko'nikmasi ham kerak. Ana shu nuqtayi nazardan hozirgi maktabda ustunlik qiladigan o'qitishning reproduktiv usuli maqsadga muvofiq emas.

Masalan, hozir teatrlashtirish keng tarqalgan. Bunda jiddiy spektakllarni qo'yish haqida gap borayotgani yo'q. Darsda kichik sahnani o'ynash: bolalarga tasodifan qadimgi odam uchrab qolsa, u bilan nimalarni gaplashishlarini o'ylab ko'rishni taklif qilish mumkin. Shu pavt birdan shkafning eshigi ochilib, undan „ibtidoiy odam“ chiqadi. U teriga o'ralgan va qo'lga so'yil ushlab olgan. Teri bo'lmasa, ag'darma nim po'stin kiyadi. So'yilning og'irligini chamalab va terini siypalab ko'rib, „ibtidoiy odam“dan uning qabiladoshlari va yuz ming yil avval qanday yashaganini so'rash o'quvchilar uchun qiziqarlidir. Undan gugurtsiz olov yoqishni ham o'rganish mumkin.

Bilishga doir yurishlar va ekskursiyalar barchaga ma'lum. Lekin bunda bolalarning o'zlari muammolarni qo'yishlari, gipotezalarni bayon qilishlari va ularga javob topishlari muhimdir. Bu borada daladagi o'simliklarning nima uchun har xil o'sishi, gunafshaning chiroyiligi va hokazolar haqida fikr yuritish g'oyat foydalidir. Sinfda o'quv jarayonini bolalarni qiziqtiradigan savollarga javob topish yo'sinida tashkil qilish mumkin.

Hech qachon unutmazlik kerakki, pedagogik jarayonning ikkita qatnashchisida — o'qituvchi va o'quvchida ikki xil maqsad bo'lishi mumkin. Masalan, o'qituvchi o'quvchini tabiat hodisalari bilan tanishtirishni istasa, o'quvchi o'yin uchun vaqt topish haqida o'ylaydi. Buni bitta yo'ldan ikki xil maqsadga qarab borish desa bo'ladi.

Faoliyatga intilishning eng yaxshi omillaridan biri hayratlanishdir. O'qituvchilardan o'quvchi darsdan nima olib ketishi kerakligi so'ralsa, ular: uyga vazifa, yangi bilimlar, baholar, deb javob beradilar. Aslida o'quvchi uyiga zavq-shavq va qoniqish bilan, yana darsga kelish ishtiyoqi bilan qaytishi kerak. O'qituvchining darsda nimanidir amalga oshirishga ulgurmagani hech gap emas. Uning bolalarda uyg'otgan qiziqishi keyingi safar kamchilikni to'ldirishda unga yordam beradi. Dars oxirida o'qituvchi bolalarni hayratlantiradigan savolni ochiq qoldirsa, bolalar sarguzashtlarning davomini kutgandek u bilan yana uchrashishga intiladilar.

Afsuski, darsliklarimizdagi matnlarda aqlga nomuvofiq fikrlar uchramaydi, barcha ziddiyatlar bartaraf etilgan va shunga ko'ra

darsliklar zerikarli. Odatda, dastlabki manbalarda aqlga nomuvofiq fikrlar, ziddiyatlar, to'qnashuvlar juda ko'p bo'ladi. Dastlabki manbalardan foydalanish yaxshi, lekin ularni o'qish qiyin. Shuning uchun, bir tomondan, bolalar tushunadigan tilda yozilgan, ikkinchi tomondan, o'zaro zid fikrlar uyg'otadigan mazmundagi o'quv matnlari zarur.

Bizning juda bo'sh o'quv materiallarimizni xayoliy qo'shimchalar bilan jonlantirish mumkin va bu ish murakkab emas. Masalan, o'qituvchi darsni quyidagicha boshlaydi: „O'zimizni kosmik kemada uzoq galaktikadagi noma'lum planetaga uchib kelgandek his qilamiz. Undagi hamma sharoit xuddi yerdagidek, lekin faqat tortish kuchi kam. Unda qanday hayvonlar yashashi mumkin?“ Bu holda bolalarni maqsadi mazkur planetada hayvonot dunyosini ko'paytirishdan iborat bo'ladi. O'qituvchi esa ularga yerdagi hayvonot dunyosini o'rgatishni ko'zlaydi. O'qituvchi ham, o'quvchilar ham o'z maqsadlariga erishadilar, binobarin, taqqoslash bilishning yaxshi yo'lidir.

Maktablarimizdagi o'quv predmetlarning mazmunida asosiy e'tibor definitsiyalarga, ya'ni tushunchalarni ta'riflashga qaratilgan. Lekin ana shu tushunchalarga turli nuqtayi nazardan qarash g'oyat foydalidir. Har qanday obyekt o'zi haqidagi tushunchaning ta'rifidan ancha boydir. Bolaning miyasiga tushunchalar ta'rifini qanchalik ko'p tiqishtirsak, ana shu boylikning imkoniyatlari shunchalik yo'qolib boradi.

O'qituvchining materialni takrorlash va mustahkamlashga qaratilgan vazifalari ham o'quvchilarning faoliyatini kuchaytirishi lozim. Uyg'a beriladigan vazifaning o'qish va so'zlashdangina iborat bo'lishi ma'qul emas. Undan ko'ra bolalarning o'qituvchiga savollar bergani yaxshiroqdir. Ammo o'tilgan mavzu bo'yicha berilgan savollar o'quvchilarni yangi bilimlarni o'zlashtirishga tayyorlashi kerak. Suv solingan idish isitilsa, itarilish kuchi qanday o'zgaradi? O'qituvchi darsda isbotlagan qoidalarni amalda sinab ko'rishni bolalarga tavsiya etishi mumkin. Chunki bahslashish uchun bilim kerak.

Hozir maktablarda o'quvchilarga o'zlari o'rganadigan predmetlarni yoki mavzularni tanlash huquqini berish mumkinligi xususida gaplar bo'layotir. Bolaga ko'chaga chiqishdan oldin etigini kiyish yoki kiymasligini aytish kerak emas. Chunki u „kiymayman“ deyishi mumkin va so'ragan kishi mulzam bo'lib qoladi. Unga etikni avval chap yoki o'ng oyoqqa kiyishini aytish boshqa gap. U o'zining tanlash huquqidan qoniqish bilan foydalanadi.

## O'QITISHNING AMALIY METODLARI

**1. Ta'limiy topshiriqlar.** Maktablardagi ta'limning hamma bosqichlarida o'quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish juda muhimdir. Lekin kichik yoshligidan boshlab ularning ijodiy fikrlashini shakllantirish alohida ahamiyatga ega. Chunki boshlang'ich sinflarda, xususan, ta'limning birinchi yili bolalarda o'qish qobiliyatlari shakllana boshlaydi.

O'quvchining ijodiy fikrlashi yangilik kashf etishida, ko'rila-yotgan narsani yaratishning boshqacha usulini topishda, o'quv materialidan o'zgacha bog'lanishlarni ochib berishi va hokazolarda aks etadi. O'quvchilarning namunaga tayanmay qandaydir yangi narsani yaratish qobiliyati ijodkorlikni talab qiladigan faoliyatda rivojlanadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishda ta'limiy topshiriqlar muhim rol o'ynaydi. Bunday topshiriqlar fikrlash faoliyatining maqsadi sifatida xizmat qiladi va uning xarakterini belgilaydi.

Topshiriqlarning har xil turlari kichik maktab yoshidagi o'quvchilar fikrlashining rivojlanishiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. O'quv faoliyatida reproduktiv topshiriqlarning ko'p qo'llanishi bolada ilgari o'zlashtirgan bilimlarini va ish usullarini qayta tiklashga intilishni, namunaga qarab ishlash odatini vujudga keltiradi va bu odat fikrlash jarayonining reproduktiv asosiga aylanadi. Lekin ijodiy fikrlash ishning andazasiz usullarini amalga oshirishni, yangi maqsadlar qo'ya olishni, nazorat qila bilish va baholashni, rejalashtirishni, tahlil, taqqoslash va umumlashtirishning o'ziga xos usullarini, baholash mezonlarini shakllantirishni talab qiladi. O'quvchilarda mazkur fikrlash jarayonlarini tarkib toptirish uchun, darsda produktiv topshiriqlarni qo'llash, ularning bevosita ijodiy fikrlashi maqsadlar qo'yishga, rejalashtirishga, umumlashtirishga, shuningdek, nazorat qilishga va baholash kabi jarayonlarni rivojlantirishga qaratilishi kerak.

Maqsadlar qo'yish jarayoni matn, rasm mazmuniga savollar tuzish, javob qaytarayotgan o'quvchiga qo'shimcha savol berish, masalaning shartlariga turli savollar qo'yish va hokazolarda amalga oshadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ishni rejalashtirish ko'nikmasini rivojlantirish uchun ular bilan o'zlarining kelgusidagi darslarda har qanday topshiriqlarni bajarishdagi xarakterlarini qanday tasavvur

etishlarini doimiy ravishda muhokama qilib borish zarur. Shuningdek, darslarda hikoyaning rejasini tuzish, bayon yozish, masalalar yechish kabi topshiriqlardan keng foydalanish kerak.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirish zarurligi o'qituvchining oldiga o'quv jarayonida o'quvchilarda tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlardan ham keng foydalanish vazifasini qo'yadi. Ana shu jihatdan matematika darslarida, xususan, masalalar yechishda katta imkoniyatlar mavjud bo'ladi.

Fikrlash faoliyatining nazorat-baholash mexanizmini shakllantirish har bir darsda o'quvchilarni faqat faoliyatning natijasini emas, balki ana shu faoliyat jarayonida tegishli baholashni ham amalga oshirishga undaydigan topshiriqlardan foydalanishni talab qiladi.

Dars strukturasi produktiv topshiriqlarni kiritish kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda yangi maqsadlar qo'yish, rejalashtirish, andazasiz tahlil qilish, taqqoslash, nazorat qilish va baholash kabi fikrlash jarayonlarini shakllantirishning asosiy shartlaridan biridirki, bu jarayonlar ijodiy fikrlashning rivojlanishida katta rol o'ynaydi.

#### NAZARIY BILIMLARDAN FOYDALANILADIGAN MASHQLAR

Maktab amaliyotida mashqlar o'tkazish uchun o'quvchilarning nazariy bilimlariga murojaat qilishning ba'zi yo'llari belgilangan. Bu ishning eng keng tarqalgan, lekin eng kam samarali usuli dars rejasida ko'zda tutilgan mashqlarni bajarishda tayaniladigan ma'lum tushunchalar va qoidalarni og'zaki qayta tiklashdir.

Mashqlarni bajarishdan oldin nazariy materialni takrorlashning samaraliroq usuli mazkur materialni qo'llash bo'yicha amaliy topshiriqlarni qo'yishdir. Bunday topshiriqlarga tanlanma diktant o'tkazishda ma'lum so'zlar yozishni, nutqning ma'lum bo'laklarini qisqa vaqt ichida tahlil qilishni, nutqning ahamiyatli qismlarini ajratishni, didaktik tarqatma material bilan ishlashda ma'lum orfogrammalarni qayd qilishni, masalalar yechishda asos bo'ladigan matematik ifodalar bilan ishlash va hokazolarni kiritish mumkin.

Mashqlar o'tkazishda nazariy materialga murojaat qilishning navbatdagi usuli o'quvchining keyingi amaliy ishini bajarishdan oldin uning yo'llarini asoslashidir.

Amaliy ishlarni bajarish vaqtida nazariy asoslash pedagogik jihatdan o'zini oqlagan. Bu usulni ikki variantda bajarish mumkin. Bular navbatdagi ishini keng tushuntirish va sharhlashdan iboratdir.

O'quvchilar bilan ularning tayyorgarligidagi ayrim kamchiliklarini to'ldirish bo'yicha ishlashda navbatdagi ishlarni keng tushuntirish o'zini ancha oqlagan. Bunda avval o'quvchidan keng mushohada yuritishni talab qilish lozim va talabni bajarish esa hisoblash usulini chuqurroq anglashni ta'minlaydi.

Mushohada jarayoni asta-sekin kengaya boradi va harakatlar ma'lum tartibda, ketma-ket amalga oshadi. Hisoblash usulini asoslovchi qoidaning yo'naltiruvchi roli yo'qoladi va u faqat qiyinchilik tug'ilganida eslanadi.

### MASHQ – O'QUVCHILARDA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH FAOLIYATINING ASOSIY TURI

O'quvchilar malakalarining saviyasi ana shu ishning qanday tashkil etilishiga bog'liq. Mashqlarni tasniflashning bir necha tizimlari mavjud bo'lib, uning hamma turlarini malakalar hosil bo'lishi jarayonidagi o'rniga qarab uch guruhga: *tayyorgarlik*, *o'quv* va *o'rganish* mashqlariga bo'lish mumkin.

Tayyorgarlik mashqlarining vazifasi dasturdagi yangi materialni ongli ravishda o'zlashtirish uchun zarur bilimlar va amaliy ish usullarini esga tushirishdan iboratdir. Masalan, III sinfda fe'llarni o'rganish tajribasi bo'yicha oldin fe'llarni eshitib idrok etish, fe'lning zamon shakllarini aniqlash mashqlari o'tkaziladi. Bolalar so'zlar orasidagi fe'llarni ajrata oladigan bo'lganlaridan keyin ana shu so'z turkumini ongli ravishda qo'llash mashq qilinadi.

Boshqa bir misol. Matematika darsligining mualliflari I. Oxunjonov va N. U. Bikbayevalarning fikricha, 10 ichidagi amallarni mustahkamlashda va ikkinchi o'nlikdagi sonlarni nomerlashni o'rganishda tarkibli masalalarni qo'llashdan oldin quyidagi tayyorgarlik mashqlarini muntazam o'tkazish kerak:

1. Oddiy masalaning shartiga savol qo'yish. Chunonchi, bir qutichada 6 ta, ikkinchi qutichada undan 2 ta kam qalam (opasida 10 ta va ukasida 8 ta marka) bor. Masalaning ana shu shartidan nimani bilish mumkin?

2. Masalaning berilgan shartidagi yetishmaydigan sonni to'ldirish.

Chunonchi, akasida 4 ta daftar bor, aka va singilning daftarlari qo'shilsa, nechta bo'ladi? (Maydonda turgan mashinalarning 3 tasi ketsa, nechta mashina qoladi?)



3. Berilgan savolga javob uchun kerakli ma'lumotlarni tanlash.

Chunonchi, ikkita yashikda qancha olma borligini (qizchada necha tiyin qolganini) aniqlash uchun nimani bilish kerak?

O'quv mashqlari yangi material yoritilishi bilanoq boshlanadi va ana shu materialni o'zlashtirishda yordam beradi. Ularning farqli xususiyati o'quvchilarga o'qituvchining doimiy yordam berishidan iboratdir. Bu yordam ko'pincha bajariladigan ishning usullari va natijalarini jamoa bo'lib muhokama qilishda, sharhlashda o'zining ifodasini topadi. Birinchi o'quv mashqida bolaga baho qo'yish ma'qul emas, chunki undan hali o'rganilmagan narsani so'rash pedagogik jihatdan noto'g'ridir. O'quv mashqlarini o'tkazishda algoritmik ko'rsatmalar, ya'ni aqliy va amaliy harakatlarning didaktik jihatdan o'zini oqlagan turlari belgilangan o'ziga xos xotiranomalar g'oyat foydalidir. Algoritmik ko'rsatmalarning keng doiradagi bir xil masalalarni yechish uchun qo'llanishi maqsadga muvofiq bo'lib, ular ishda to'g'ri natijalarga erishish imkonini beradi.

O'qish dasrida hikoyaning rejasini tuzish uchun quyidagicha xotiranoma juda foydalidir. 1. Hikoyani o'qi. 2. Uni qismlarga ajrat. 3. Har bir qismdagi asosiy masalalarni top. 4. Har bir qismga sarlavhalar qo'y. 5. Qismlarning sarlavhalaridan reja tuz.

O'quv topshiriqlarining har xil turlaridan foydalanish o'quvchilarni ishga ijodiy yondashishga va nazariy bilimlarni amalda qo'llashga yordam beradi. Bunga erishish uchun o'quvchilarning bilimlarini ularning dastlabki tushuncha, tasavvur va ko'nikmalarini shakllantirgan materiallardan boshqacha materiallar asosida mustahkamlash va takomillashtirish kerak. Shuningdek, bu materiallar ko'p variantli topshiriqlardan tashkil topib, ularning har biri o'ziga xos bilishga doir va mantiqiy topshiriq bo'lishi maqsadga muvofiqdir. O'rganish mashqlarining ana shunday yo'lga qo'yilishi o'quvchilar ongida yangi bog'lanishlar hosil bo'lishiga va shunga ko'ra materialning yaxshiroq o'zlashtirilishiga yordam beradi.

Amaliy metodlar o'qitishning og'zaki va ko'rsatmali metodlari bilan uzviy birlikda qo'llaniladi. Chunki mashqlarni bajarish, tajribalarni o'tkazish va mehnat operatsiyalarini amalga oshirishdan oldin pedagog instruktiv tushuntirishlar o'tkazishi kerak. Og'zaki tushuntirish va rasmlarni ko'rsatish, odatda, mashqlarni bajarish jarayonida amalga oshiriladi va uning natijasini aniqlash va tahlil qilish bilan tugallanadi.

4. Laboratoriya ishi tadqiqotchilik metodlari qatoriga kiradi va bunday metodlar yordamida o'quvchilar o'zlari uchun yangilik

kashf etadilar. Boshlang'ich sinflarda laboratoriya ishlari, asosan, tabiatshunoslik va mehnat darslarida o'tkaziladi.

Mehnat darslarida qog'oz, gazlama, loy va boshqa ashyolarning xossalari o'rganiladi. O'quv-tajriba uchastkasida turli o'simliklarning rivojlanishi kuzatiladi.

Maktab laboratoriyasida amalga oshiriladigan ishlar bolalarda mehnat madaniyatini tarbiyalaydi, asboblarni ehtiyotlab ishlatish, ish o'rnini batartib tutish odatini vujudga keltiradi.

5. O'yin, hozircha, hatto boshlang'ich maktabda ham o'qitishning metodi sifatida tegishlicha o'rin olgan emas. O'yinlar o'quvchilarning bo'sh vaqti bekor o'tmasligi va ularni jismonan chiniqtirish uchun o'tkaziladi. Ta'limiy o'yinlar darsda yoki darsdan tashqari o'tkazilishidan qa'iy nazar, beixtiyor eslab qolish jarayonlarini ancha faollashtirishda, bilish faoliyatiga qiziqishini oshirishda, mustaqil mehnatga tayyorlashda katta ahamiyatga molikdir.

**O'yinlarni psixologik-pedagogik tashkil etish, tayyorlash va o'tkazish bosqichlari** — o'qituvchining o'yinni tashkil qilish va o'tkazishga nazariy-metodik tayyorgarligi:

— kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning yoshi, o'ziga xos psixologik va tipologik xususiyatlarini o'rganish, ana shu xususiyatlarni hisobga olish hamda ular o'yinining maqsadi, vazifasi va mazmuniga muvofiq ravishda tuzatishni rejalashtirish;

— o'quvchilarning hayotiy tajribasini, qiziqishlarini, mayllari va qobiliyatlarini o'rganish hamda o'yinda ulardan foydalanib, har bir o'quvchida to'la qoniqish hosil qilishni rejalashtirish;

— texnik vositalardan foydalanib, namunaviy o'yinlarni ko'rsatish va tushuntirish;

— o'quvchilarni o'yinning mazmuni, sujeti, maqsadi va vazifalari, bosqichlari, borishi va qoidalari bilan tanishtirish;

— o'quvchilarni o'yin jarayonida o'zini o'zi nazorat qilishga shaylash;

— o'yinga rahbarlikning xarakterini, o'yinda o'qituvchining o'zi ham hakam yoki kuzatuvchi sifatida qatnashishini yoki rahbarlikni peshqadam o'quvchiga berishini belgilash;

— o'yin jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi;

— o'tkazilgan o'yinni muhokama qilish: qo'yilgan vazifalar yuzasidan o'yinning natijalarini, ishtirokchilarning harakatlarini baholash va ularni rag'batlantirish;

— mazkur o‘yinning o‘quvchilarni vatanparvarlik va baynalmillilik ruhida tarbiyalashdagi samaradorligini pedagogik tahlil qilishdan iboratdir.

O‘yinlarni tashkil qilishda quyidagi pedagogik omillarni hisobga olish zarur:

— o‘quvchilarning o‘yinning mohiyati, mazmuni, bosqichlari va natijasini to‘la tushunishini;

— ularning navbatdagi o‘yin faoliyatiga shaxsan qiziqish bilan ijobiy munosabatda bo‘lishini; o‘yinda zarur bilim, ko‘nikma va malakalarini safarbar etishini;

— o‘yingacha, o‘yin jarayonida va undan keyin o‘qituvchining barcha talablarini bajarishlarini.

Muammoni hal qilishning optimal psixologik-pedagogik shartlari quyidagilardan iboratdir:

— mazmunan dolzarb o‘zbek xalq o‘yinlari majmuasini tanlash;

— o‘quvchilarni o‘yin faoliyatiga emotsional jihatdan shaylash;

— o‘qituvchining kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni o‘zbek xalq o‘yinlariga qiziqitira olishi;

— o‘zbek xalq o‘yinlariga rahbarlik qilish mazmuni, shakllari va metodlarining birligi;

— o‘yin jarayonining hayotiyliigi, uning haqqoniyliigi;

— kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning o‘yin faoliyatida qatnashuvining ixtiyoriyligi:

— o‘yinlarning mazmunini asta-sekin murakkablashtirib borish.

O‘zbek xalq o‘yinlarini tanlashga qo‘yiladigan talablar:

— o‘yinlar mazmunining hayotiyliigi va haqqoniyliigi;

— mazmuni bo‘yicha mosligi;

— sujetning soddaligi, qiziqarliligi va hissiyotlilikliigi;

— o‘yinda faol fikrlashni, ijodkorlikni, sezgirlikni, tashabbuskorlik va faollikni, hissiy ta‘sirchanlikni, o‘tkir zehn va kuzatuvchanlikni, diqqat-e‘tiborlilikni talab qilish;

— o‘yinning o‘quvchilar yoshiga, psixologiyasi va ularning pedagogik tayyorgarligiga mosligi.

O‘qituvchi sinflar bo‘yicha o‘yinlarni „Milliy harakatli o‘yinlar“ (T. Usmonxo‘jayev va b. Milliy harakatli o‘yinlar. Toshkent, „O‘qituvchi“, 2000) kitobidan yoki mahalliy bolalar o‘yinlaridan foydalanishi mumkin.

O‘yinlarni o‘tkazishning tarbiyaviy maqsadi va vazifalari uchta (boshlang‘ich, asosiy, yakunlovchi) bosqichda amalga oshiriladi.

*Boshlang'ich bosqich* o'quvchilar bilan ularning yoshiga mos, tushunarli, ijodiy yo'sindagi tayyorgarlik ishlarini olib borishdir.

Ana shu ishlar orqali o'yinlar o'quvchilarda o'z xalqining tarixiga, an'analariga: xalq ijodiga, shu jumladan, o'yinlariga, o'zbek xalqining qahramonona, inqilobiy o'tmishiga qiziqish hamda mehnatga hurmat va muhabbat uyg'otishi lozim. Shuningdek, ularda respublikamizning mehnatdagi yutuqlari bilan faxrlanish hissini; xalq yaratgan go'zal narsalarga muhabbat tuyg'usini, tabiatdagi boyliklarni qo'riqlash ehtiyojini tarkib toptirish zarur.

*Asosiy bosqich* bolalarni bevosita o'yinga tayyorlash, o'yin jarayonida bolalarning har xil o'yin faoliyatini boshqarishi, uyga vazifa berish va hokazolardan iboratdir.

*Yakunlovchi bosqich* mazkur o'yindagi barcha pedagogik-psixologik jarayonlarning natijalarini jamlashdir.

O'yinlarning samaradorligini oshirishning eng muhim shartlari quyidagilardan iborat:

***Psixologik yo'nalishda:***

- o'quvchilarning hissiyotli kayfiyati;
- emotsional fondni vujudga keltirish;
- o'yin faoliyatida xohishni tarkib toptirish;
- xayol va tasavvur kayfiyatini hosil qilish;
- faol idrok etish, kuzatuvchanlik va ongli fikrlash, irodalilik.

***Pedagogik yo'nalishda:***

- o'yin jarayonining izchil va yaqqol maqsadga qaratilishi;
- o'yinning vazifalarini belgilash;
- o'quvchilarni o'yinning mazmuni bilan yaqqol va ifodali tanishtirish;
- o'yinda o'qituvchining bolalar bilan baravar qatnashuvi;
- o'yin jarayonida she'rlar o'qish, kuylash, raqs tushish, taqlid qilish, imo-ishoralarni bajarish, shuningdek, o'yinga tayyorlanish jarayonida o'yinda va uyga berilgan topshiriqlarni bajarishda tasviriy ijod bilan shug'ullanish.

## **DIDAKTIK O'YINLAR**

Didaktik o'yinlar qoidali o'yinlar jumlasiga kiradi va rolli o'yinlarni rivojlantirish predmeti hisoblanadi. Bunday o'yinlar asosini bilishning u yoki bu mazmunini, o'yinning borishi belgilaydigan harakatlarni bajarishga qaratadigan aqliy va irodaviy urinishini tashkil

etadi. Didaktik o'yinlarda asosiy fikrlash jarayonlari — tahlil qilish, taqqoslash, xulosa chiqarish va hokazolar takomillashadi.

Didaktik o'yinlar ta'lim jarayonida bolalarni o'qitish, tarbiyalash va kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'yinlar bolaning ijobiy ish faoliyatini kuchaytiradi, ixtiyoriy diqqatini, xotirasini takomillashtiradi. O'yinda o'quvchilar o'zlari sezmaganda juda ko'p harakatlarni, mashqlarni bajaradilar, turli masalalarni yechadilar.

Didaktik o'yinlarga qo'yiladigan talablar:

1. Didaktik o'yinlar o'quv predmetlari bo'yicha dastur materialiga muvofiq yo'sinda tanlanishi lozim.

2. Didaktik o'yin unda qatnashuvchilarga bilimlar bo'yicha ma'lum talablar qo'yiladigan yo'sinda ishlab chiqilishi kerak.

3. Didaktik o'yinning muvaffaqiyatli o'tishi uning maqsadini yaqqol anglashga bog'liq. Chunki bunda o'quvchilarning fikrini maqsadli yo'nalishga solish, ularning ishini bajarishga qiziqishini oshirish imkoniyati tug'iladi.

4. O'yinlarni tanlashda ma'lum izchillikka rioya qilish ham zarur. Mazmunan qiyin o'yinlardan oldin osonroq o'yinlarni o'tkazib, o'quvchilarni navbatdagi o'yinlarga puxtaroq tayyorlash juda muhimdir. Shu tariqa tahlil, sintez, taqqoslash, tasniflashda mavhumlashtirish, muayyanlashtirish, umumlashtirish singari aqliy operatsiyalarni asta-sekin murakkablashtirib borish shart.

5. Didaktik o'yinlarning qoidasini va tashkil etilishini tuzish va ishlab chiqishda o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini, ularning turli (bo'sh va kuchli, faol va loqayd) guruhlarini hisobga olish kerak.

6. O'yinning qoidalari sodda, aniq bo'lishi va yaqqol ifodalanishi lozim.

7. Har bir o'quvchi butun o'yin jarayonida faol ishtirok etishi, o'z „navbatini“ uzoq kutish o'yinga qiziqishni susaytirishi mumkinligini unutmash kerak.

8. Har bir o'yinga umumiy va yakka tartibda yondashish, undagi topshiriqlarning qiyinlik darajasini va qanchasi mustaqil holda bajarilishini hisobga olish kerak.

## DARSLIKLAR BILAN ISHLASH

O'quvchilar ilgari darsliklardan uyda bilimlarini mustahkamlash uchun foydalangan bo'lsalar, maktab rivojlanishining hozirgi bosqichida esa ulardan yangi material bayon qilinishi bilan oq foydalanishmoqda.

O'quvchi kitob bilan muvaffaqiyatli ishlay olishi uchun tegishli ko'nikma va malakalarni egallashi kerak. Ta'limning hozirgi bosqichida o'quvchilarga darslik bilan mustaqil ishlashni o'rgatish o'qituvchining muhim vazifasidir. Binobarin, ular kelajakda turli bilimlarni o'zlaricha tahlil qilishga, o'rganishga va umumlashtirishga ham majbur bo'ladilar.

Kitob bilan ishlashni o'rganishning dastlabki bosqichida izohli o'qish metodidan foydalaniladi. O'qituvchi bolalarga kitobni diqqat bilan o'qishni, undagi har bir so'z va ifodaning ma'nosini o'ylab ko'rish hamda butun mazmunni qamrab olishni o'rgatadi.

Darslik bilan ishlashning asosiy bosqichlari:

— o'quvchilar sinfda va uyda o'zlari uchun yangi materialni mustaqil holda o'rganadilar. Ishning bu usuli quyi sinflardagi darslarda dastlabki ko'nikmalarni shakllantirish uchun biroz qiyinlik qiladi. Shunday ekan, darslik va kitob bilan ishlashning o'qitish metodi sifatidagi mohiyatini qanday ta'riflash mumkin?

Bu metodning mohiyati bilimlarni o'zlashtirish va mustahkamlash, o'quvchilarning darslik va kitob bilan mustaqil ishlashi jarayonida amalga oshishidan, va ayni paytda, ularning kitob bilan ishlash malakalarini egallashidan iboratdir. Mazkur metodning o'zaro bog'liq ikkita muhim tomoni mavjud bo'lib, ular o'quvchilarning o'rganiladigan materialni mustaqil o'zlashtirish va ularda o'quv adabiyoti bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishdir. Dars mashg'ulotlari tizimida darslik bilan ishlashning to'g'ri yo'lga qo'yilishida o'qituvchining ta'limiy ishlari bilan o'quvchilar faoliyatining o'zaro muvofiqligi masalasi g'oyat muhim ahamiyatga molikdir.

Darslikni mashg'ulotlarni tashkil qilish uchun foydalaniladigan qandaydir yordamchi vosita deb bilmaslik kerak. Dars, avvalo, o'quvchilar uchun muhim bilim manbalaridan biridir. Lekin u bayon etilgan materialni mustahkamlashning va o'quvchilar bajaradigan aqliy ishlarni faollashtirishning samarali vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Ammo buning uchun o'qituvchi darslikni qo'llashda eng muhim metodik talablarga rioya qilishi zarur. U mashg'ulotlarni o'tkazishdagi muayyan holatda darslikni qay yo'sinda qo'llash maqsadga muvofiqligini aniqlab olishi, shu orqali bolalarni fikrlashga rag'batlantirishi, ularning o'rganiladigan materialni quruq yodlash va yuzaki eslab qolishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Shu boisdan dars mashg'ulotlari jarayonida darslik ustida ishlashni tashkil etishga qo'yiladigan ayrim umumdidaktik talablar haqida biroz to'xtalish joizdir.

1. Avvalo, o'quvchilar darsda mustaqil o'rganishi uchun kerakli materialni to'g'ri tanlash muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, o'quvchilar barcha masalalarni o'qituvchining oldindan tushuntirishsiz o'zlashtiravermaydilar. Ko'p mavzular mutlaqo yangi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan va ular umumlashtiruvchi xarakterda bo'ladi.

2. Darslik va o'quv kitoblari bilan ishlashdan oldin doimo o'qituvchi mufassal kirish suhbatini o'tkazishi shart. Unda o'quvchilarni o'rganiladigan mavzudan xabardor qilishi, yangi materialning asosiy masalalariga e'tibor berishi (lozim bo'lsa, doskaga yozishi yoki oldindan tayyorlangan jadvalni ilib qo'yishi), shuningdek, mustaqil ishning tartibini belgilashi kerak.

3. Darslik bilan ishlash butun dars mobaynida davom etmasligi kerak. Uni o'qitishning boshqa shakllari va metodlari bilan birlashtirish lozim. Masalan, darslik bilan ishlab bo'lingach, material qanday o'zlashtirilganini tekshirish, ko'nikma va malakalar hosil qilish, o'quvchilarning bilimlarini yanada chuqurlashtirish bo'yicha amaliy mashqlar o'tkazish kerak.

O'tilgan material ustida ishlash, yangi materialni bayon etish va mustahkamlashda darslikdan foydalanish yo'llarini ko'rsatamiz.

Yuqorida aytilganidek, so'nggi yillarda o'tilgan material ustida ishlashda qo'llanilgan metodika uy vazifalariga o'xshash tayyorlanish mashqlari bilan bog'liq anchagina usullarni o'z ichiga oladi va bunday mashqlar darslik bilan bajariladi. O'quvchilar masalalarni yechadilar, mashqlarni ko'chiradilar, darslikdagi savollarga yozma javoblar qaytaradilar va hokazo. Lekin o'tilgan material bo'yicha darslik bilan ishlashning yana bir turi borki, uni ko'pchilik o'qituvchilar bilmaydilar. Ishning bu turi o'quvchilarning darslikdagi materialni mashg'ulotning boshida, bilimlarni tekshirish oldidan o'qishidir.

O'qitish jarayonidagi rahbarlik didaktik savollar yoki o'qituvchining savollari yordamida amalga oshiriladi. O'quvchi o'qituvchining savollariga tobe bo'lib qolmasligi uchun o'zi o'ziga mustaqil holda savollar qo'yishni o'rganishi, ya'ni o'zicha fikr yuritish ko'nikmasini o'zlashtirishi kerak. Bunga o'qitish jarayonida erishiladi. Buning uchun o'qituvchi nima qilishi lozim? U, avvalo, zarur tushunchalar va operatsiyalarni o'rgatadi. Buni muayyan misollar orqali bajaradi. Ammo har bir o'qituvchi yangi materialni, yangi tushuncha va operatsiyalarni o'rgatganidan keyin ham o'quvchi ularni mustaqil holda qo'llashga qiynalishini biladi.

Qoida tushuntirilishi bilanoq, taklif etilgan topshiriq ustida ishlashda o'quvchida avval ikkita faoliyat, ya'ni qoidani o'zlashtirish

va qoidaning mazmunini tushunish faoliyatlari qo'shib ketadi. Qoidani o'zlashtirish faoliyatini nuqtayi nazar yoki o'qituvchining savoli boshqaradi. Ayni paytda o'quvchi qoidaning mazmunini tushunishga ham harakat qiladi. Keyingi faoliyat muayyan misolga qaratiladi. Bularning hammasi mazkur vaziyatda qo'shib ketadi. Agar qoida faqat bitta misol yordamida ko'rsatilsa, u tushuntirilgan vaziyatga o'xshasa-da, boshqa vaziyatlarga o'quvchilar mustaqil holda ko'chira olmaydilar. Shuning uchun o'quvchilarga oldin bir necha misollarni o'qituvchi rahbarligida yechish imkoniyati yaratiladi. Ular qoidani yaxshi o'rgangach va mashqlar bilan mustahkamlagach, asta-sekin murakkablashib boradigan misollar, topshiriqlar asosida mazkur qoidani qo'llash bo'yicha mustaqil ishlar taklif etiladi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar darsda endigina o'rganilgan mavzuning o'zini emas, balki ana shu mavzuni o'rganishda qo'llangan usullarni takrorlash yo'li bilan yangi tushunchani mustaqil holda o'zlashtirishga tayyorlanadi. Sinfdagi hamma o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida qandaydir mavzuni o'rganganlaridan keyin o'qituvchi ularga „teskari yurish“ qilishni, ya'ni darsning har bir nuqtasiga qaytishni va unda nima qilingani hamda qanday qilinganini kuzatishni tavsiya etadi. Bunda eng muhimi darsning mazmuni emas, balki o'quvchilarning ana shu mazmun ustida qanday ishlashidir. Bu esa ularga ta'limiy ishning usullarini anglashda yordam beradi. Sinfdagi qanday masalalar qo'yilganini, hodisani tushunishga yoki muammoni yechishga qanday qilib erishilganini bilib oladilar. Bu ish o'qish usullarini egallash mashqidir. Mana shu mashqning natijalarini bir o'quvchi doskaga yozadi, qolgan o'quvchilar darsning qanday o'tganini qayta tiklashda unga yordam beradilar. Buning uchun doska ikki qismga bo'linadi va uning chap tomoniga darsdagi eng muhim faktlar hamda fikrlar qisqacha reja ko'rinishida yoziladi. O'ng tomonga masalalar, sinfdagi bajarilgan barcha ishlar, aytaylik, kuzatishlar, mo'ljallar, topshiriqlarning yechimlari va hokozolar yoziladi. Bu mashq orqali nimalarga erishiladi?

Darsning asosidagi barcha masalalar, harakatlar va ifodalar darsning umumiy mazmunidan ajratiladi va shu tariqa o'quvchilarning tushunishi uchun moslashtiriladi. Natijada o'quvchilar darsda nima qilish lozim bo'lganini va qanday qilinganini bilishga hamda tushunishga odatlanadilar. Vaqt o'tishi bilan bilish harakatlarini yangi hodisalarga yoki misollarga ko'chirish ko'nikmalari tarkib topadi. Lekin bilish harakatlarini ko'chirish mashqi o'quvchilar uchun darsda materialning o'zini o'zlashtirishga nis-



batan ancha qiyinroqdir. Ushbu mashqdan ko'zlanadigan maqsad material va o'qitish vositalari orqali aynan bilish jarayonini anglashdan iborat bo'lishi mumkin.

Ko'rsatib o'tilgan izlanishlar topshiriqlari savollarga yodlangan darslik matnidan yoki o'qituvchining tushuntirishidan tayyor holda olingan javoblarni qaytarish emas, balki har bir savolga tegishli javob topishni tavsiya qilishdan iboratdir. Ular aslida evristik — ta'limiy savollardir. Ana shu maqsadda quyidagi topshiriqlarni tavsiya etish mumkin:

a) kuzatish materiallarini yoki o'qituvchi bergan mavzu bo'yicha to'plangan faktlarni tizimlashtirish: asosiy masalalarni ajratish, reja tuzish, faktlarni guruhlashtirish;

b) taqqoslash va umumlashtirish, xulosa chiqarish va uni asoslash;

d) bilimlarni qo'llash: yangi faktlar va misollar bilan tasdiqlash, hodisani o'rganilgan hodisa darajasida tushuntirish.

Kuzatishlar, amaliy ishlar, tajribalar, eksperimentlar davomida yaxshi o'zlashtirilgan bilimlarni emas, balki ularni qo'llashni ham talab qiladigan savollar va muammolarni o'z ichiga oladi, murakkabroq izlanishlar amalga oshiriladi.

Darsda bilishdagi mustaqillikning rivojlanishi avval o'qituvchi-ning yordamidan, darslik, ma'lumotnoma, lug'at, shaxsiy kuzatish va tajribalardan foydalanib, savollarga mustaqil holda javob topish ko'nikmasini egallash, keyin esa hech qanday yordamsiz o'rganilgan materialga mustaqil holda savollar qo'yish ko'nikmasini egallash asosida amalga oshadi. Keyinchalik o'quvchi boshqacha sharoitda namunaga taqqoslab, topshiriqlarni hal qilish va savollarga javob berish ko'nikmasini o'zlashtiradi.



### *Savol va topshiriqlar*

1. O'qitish metodi va usuli tushunchalarini izohlab bering.
2. Hozirgi o'qitish jarayoniga qanday talablar qo'yilmoqda, ayting. O'quvchilarda darsga qiziquvchanlikni oshiradigan, uni yangi elementlar bilan boyitish uchun nima qilish kerak?
3. O'qitish metodi o'qituvchi va o'quvchilarning nazariy hamda amaliy bilish faoliyatining ta'limiy vazifalarini bajarishga qanday talablar qo'yadi? Misol keltiring.
4. Darsning turlari va mashqlarni tushuntirib bering. Didaktik o'yinlarning ta'lim jarayonida bolalarni o'qitish, tarbiyalash va kamol toptirishdagi ahamiyatini izohlab bering.



## XVII BOB. MUAMMOLI TA'LIM

### MUAMMOLI TA'LIMNING MOHIYATI

Jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida ta'lim jarayoniga qo'yilgan talablar bir xil bo'lgan emas. Chunonchi, ular jamiyat rivojlanishining qonuniyatlaridan va uning eng muhim vazifasi — yosh avlodni o'qitish hamda tarbiyalashdan kelib chiqqan. Hozirgi kunning vazifasi — o'quv jarayonini o'quvchilarda faqat reproduktiv fikrlashni emas, balki ijodiy fikrlashni ham shakllantiradigan yo'sinda tashkil qilishdir. Psixologlarning ta'kidlashicha, fikrlash „doimo muammo yoki savoldan, ajablanish yoki tushuna olmaslikdan va ziddiyatdan boshlanadi“ (S. O. Rubinshteyn).

Ana shularga ko'ra, pedagogika nazariyasi va amaliyoti asosini o'quv muammosi tashkil etadigan ta'limga muammoli yondashish tushunchasi faol kirib kela boshladi. Bu muammoning mohiyati o'quvchiga ma'lum ko'nikma va malakalar bilan tushunish hamda tushuntirish uchun ilgarigi bilimlar kamlik qiladigan voqealar o'rtasidagi didaktik ziddiyatlardan iboratdir. Bunday ziddiyat ijodiy o'zgartirishga turtki bo'ladi (M. I. Maxmutov).

Biz ta'limdagi muammolilikni o'quvchilarning o'quv muammosini anglash va hal qilish borasidagi bilish harakatlarini tashkil etish sifatida tushunamiz. Ta'limdagi muammolilikning muhim xususiyati muammoli vaziyatni vujudga keltirish hisoblanadi. Bunda shuni nazarda tutish lozimki, muammoli vaziyat hayotiy fakt va voqealar asosida vujudga keltiriladi, chunki bu vaziyat tabiiy shaklga qancha mos bo'lsa, o'quvchilarni faollashtirish va muammoni hal qilishga jalb etish imkoniyati shuncha katta bo'ladi. Ta'limdagi muammolilik an'anaviy didaktikaning prinsiplarini va qoidalarini inkor qilmaydi, balki ularga tayanadi. Ta'limda muammoli yondashishni joriy etishdan maqsad hozirgi ta'lim jarayonini o'quvchilarning ijodiy fikrlashini faol rivojlantiradigan metodlar va usullar bilan to'ldirishdan iborat.

O'quv jarayonini takomillashtirishning asosiy maqsadi uni sifat jihatdan yangi pog'onaga ko'tarishdir. Ana shu maqsadga ko'ra o'qituvchining faoliyatida qanday yangilik namoyon bo'lishi kerak? Eng avvalo, u materialni shunchaki bayon qilmasligi va o'quvchilarga tayyor xulosalar hamda umumlashmalarni aytib bermasligi kerak. Balki ularning fikrini o'rganilayotgan obyektga jalb etishi shart.

Demak, o'zining tarbiyalanuvchilariga olgan bilimlarini kuzatilgan hayotiy fakt va voqealar bilan qiyoslashni, shu asosda to'g'ri xulosa va umumlashmalar chiqarishni o'rgatishi darkor. Mana shularning hammasi birgalikda ta'lim jarayoniga zamonaviy tus beradi.

### O'QUVCHILAR TA'LIMIGA MUAMMOLI YONDASHISHNING XUSUSIYATLARI

Ta'limda muammoli yondashish o'quv dasturlarida ham, o'quvchi bilimlarini bayon qilishda ham, o'quvchilarning mustaqil ishi va hokazolarda ham o'zining ifodasini topishi lozim. Shu bilan birga har qanday masalani, o'quvchilarning har qanday mustaqil izlanishini muammoli ta'limga kiritmaslik kerakligini nazarda tutish kerak. U yoki bu muammo hayotiy muhim masalalarni o'rganish jarayonining o'zida vujudga kelsa va ma'lum yangilik hisoblansagina muammoli ta'lim bo'ladi. Uni yoritishda turli sharhlarga va yechish usullariga yo'l qo'yiladi.

M. N. Skatkin muammoli ta'limning quyidagi uchta asosiy turini alohida ifodalagan:

1. *Bilimlarni muammoli bayon qilish.* Bunday bayon qilishda o'qituvchi o'quvchilarga u yoki bu qoidalarni faqat gapirib bermaydi, balki og'zaki fikr yuritib, muammoni ham aytadi va uni hal qilish jarayonini ko'rsatadi.

2. *Bayonning ayrim bosqichlarida o'quvchilarni izlanishga jalb etish.* Bunda o'qituvchi muammoni qo'yadi, o'quv materialini tushuntiradi, lekin ana shu jarayonda o'quvchilarga ulardan izlanish jarayoniga qo'shilishni va u yoki bu bilish vazifasini mustaqil holda hal etishni talab qiladigan savollarni beradi.

3. *Ta'limning tadqiqiy metodi.* O'quvchilar bilish muammosini anglab, o'zlari izlanish rejasini belgilaydilar, taxmin (gipoteza)ni tuzadilar, uni tekshirish yo'lini muhokama qiladilar, tajribalarni va dalillarni taqqoslaydilar, umumlashtiradilar.

Muammoli ta'limning uchta turini birlashtiradigan umumiylik — muammoni hal qilish vositasida o'qitish bo'lib, ularning farqi o'quvchilar mustaqil izlanish faoliyatining darajasidir. Tadqiqiy metodda mustaqillik yuqoriroq darajaga ko'tariladi, o'quvchilarning bilish faoliyati xarakteri va bosqichi ularning tadqiqotchilik ishiga yaqinlashadi.

Muammoli bayon qilish jarayonida izlanishni o'qituvchi olib boradi, o'quvchilarga ilmiy isbotlash bo'yicha fikrlash namunasini ko'rsatadi, o'quvchilar faqat uning mulohazasini kuzatadilar, muammoni hal qilishga qaratilgan qiziqishni o'rganadilar.

## MUAMMOLI TA'LIMNING MAQSADI

Muammoli ta'lim deganda o'quv materialini o'quvchilar ongida ilmiy izlanishga o'xshash bilish vazifalari va muammolarini vujudga keltiradigan yo'sinda o'rgatish tushuniladi. O'quvchining fikrlash faoliyatida muammoli vaziyatlar vujudga keladi va ular bolani obyektiv ravishda izlanishga va mantiqan to'g'ri ilmiy xulosalar chiqarishni o'rganishga da'vat etadi.

O'rganiladigan material o'quvchi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. U esa vujudga keladigan muammoni hal qilish uchun o'rganilayotgan qoidalarni to'g'ri tushunishga tirishadi. A. N. Matyushkin, M. I. Maxmutov, I. Y. Lerner, M. N. Skatkin va boshqalar fikrlash va ta'limdagi muammoli vaziyatning chuqur psixologik xarakteristikasini ifodalaganlar.

O'quvchilarning fikrlash faoliyatida muammoli vaziyatlarning shakllanishi ularning shaxsida qiziquvchanlik, o'tkir zehnilik, mustaqillik, o'qishga qiziqish va ijodga intilish kabi fazilatlarni tarbiyalaydi.

Boshlang'ich ta'limda muammoli vaziyatning har xil turlari bo'lishi mumkin. Boshlang'ich sinflar o'qituvchilari bolalarda qiziqish va qiziquvchanlikni tarkib toptiradigan topishmoqlarni, zehnni o'tkirlashtiradigan masala va tegishli jumboqlarni ko'p vaqtlardan buyon qo'llaydilar. Bunday hollarda muammoli vaziyat topishmoqlar mazmunining o'zida, shuningdek, bolalarda savolni va shu savolga javob topish istagini vujudga keltiradigan yo'sinda tuzilgan masalalarda beriladi. Bunda bola to'g'ri javob uchun o'zidagi bilimlar yetarli ekanini tushunadi. U masalani hal qila olishni, buning uchun nima haqida gap borayotganini tasavvur qilish va fikrlashning to'g'ri yo'nalishini topish kerakligini his etadi. Zehn va topqirlikni o'stiradigan topishmoqlar hamda masalalar bolalarni mantiqan to'g'ri fikrlashga, o'zlari uchun tushunarli daliliy material yuzasidan fikr yuritishning qiziqarli tizimini topishga o'rgatadi.

O'qitishning har qanday metodi bolaning ongida muammoli vaziyatlarni shakllantirish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shunday hollardagina pedagogika va muammoli ta'lim haqida gap boradi.

Aslida har qanday ta'lim o'qituvchi uchun ham, o'quvchi uchun ham va jamiyat uchun ham muammodir.

**Muammo** — ilmiy bilishni rivojlantirish zarurligini ifodalashning subyektiv shaklidir. U muammoli vaziyatda, ya'ni jamiyat rivojlanishi jarayonida bilish va bilmaslik o'rtasida obyektiv ravishda vujudga keladigan ziddiyat.

Ilmiy muammo shaxsdan mazkur sohadagi noma'lum narsalarni yoritishni talab qiladi. Shuningdek, o'zining hal qilinishi uchun fanda ma'lum bo'lmagan anchagina yangi bilimlarning o'zlashtirilishini taqozo etadi. Amaliy muammoni hal qilish uchun amalda kuch sarflanishi, oldingi bilimlar, ko'nikma va malakalar yangitdan tashkil etilishi zarur. O'quv muammosida obyektiv yangilik bo'lmaydi. O'qituvchi o'quvchilar oldiga har qanday o'quv muammosini emas, balki faqat ular tushuna oladigan va subyektiv muammo sifatida qabul qilishi mumkin bo'lgan muammolarni qo'yishi kerak.

**Muammoli vaziyat** — o'quvchining ma'lum psixik holatidir. Bunday holat biror topshiriqni bajarish (masala yechish, savolga javob topish) jarayonida ziddiyatni anglash tufayli vujudga keladi. Ana shu ziddiyatni anglash o'quvchilarda predmet to'g'risidagi, ishni bajarishning usuli yoki shartlari haqidagi yangi bilimlarni izlash ehtiyojini uyg'otadi.

#### MUAMMOLI VAZIYATLARNI YARATISH VA HAL QILISHNING YO'LLARI

Muammoli vaziyat muammodan farqli ravishda unga o'quvchini (biluvchi subyektini) jalb etishdan iboratdir. Muammoli ta'lim jarayonida uchraydigan vaziyatlarda o'quvchilar o'zlariga ma'lum ishni bajarish uchun bartaraf etishlari zarur bo'ladigan ba'zi „aqliy“ to'siqlarga duch keladilar. Ishni bajarish sharoitlariga (mazkur vaziyatga) muvofiq, yangi usulini topish zarurati tug'iladi.

T. V. Kudryavsev bilish va bilmaslik o'rtasida kelib chiqadigan hamda muammoli vaziyatlar sharoitini tashkil etadigan har xil ziddiyatlar asosida vaziyatlarning quyidagi tiplarini ajratgan:

1. O'quvchilardagi mavjud bilimlar tizimlari bilan yangi ta'limiy masalani hal qilishda ularga qo'yiladigan talablarning nomuvofiqligi ayon bo'lgandagi vaziyat; uning fikricha, bunday nomuvofiqlik, birinchidan, o'quvchilar o'zlashtirgan bilimlar bilan masalani yechishda duch keladigan yangi dalillar o'rtasida; ikkinchidan, xarakteri bir xil, lekin saviyasi pastroq yoki balandroq bilimlar o'rtasida; uchinchidan, ilmiy bilimlar bilan hayotiy bilimlar o'rtasida vujudga keladi.

2. Muammoli vaziyatlarni yaratish imkoniyati o'quvchilarni bilimlarning mavjud xilma-xil tizimlari orasidan masalani to'g'ri yechishda yordam beradigan yagona zarur tizimni tanlash holatiga qo'yishni ta'minlashda vujudga keladigan vaziyat.

3. O'quvchilar o'zlarining bilimlaridan foydalanishning yangi amaliy sharoitiga duch kelganlarida va ularning nazariy bilimlari bilan ana shu bilimlarni amalda qo'llay olmasligi o'rtasidagi ziddiyat aniq bo'lganida vujudga keladigan vaziyat.

4. Masalani nazariy yechishning mavjud yo'li bilan tanlangan usulni amalda bajarib bo'lmamasligi o'rtasida, shuningdek, masalani yechishda erishilgan natijalar bilan uning nazariy isboti yo'qligi o'rtasida ziddiyat mavjud hollarda vujudga keladigan vaziyat.

5. Muayyan qurilma tasvirining tashqi ko'rinishi bilan konstruktiv bezalishi o'rtasida bevosita muvofiqlik yo'qligi fazoviy tasavvurni shakllantirishda qator vaziyatlarni vujudga keltirish imkoniyatini ta'minlaydi.

6. „Statistik“ yo'sindagi anchagina sxematik tasvirlar ularni o'qish jarayonida „dinamik“ fazoviy obrazlar bilan ishlashni talab qilishi ham qator muammoli vaziyatlarni (shuningdek, fazoviy munosabatlar va bog'lanishlar sohasida ham) vujudga keltiradi. Bizningcha, M. I. Maxmutov muammoli vaziyatlarning tiplarini juda izchil bayon qilgan.

*Birinchi tip.* Muammoli vaziyatlar ko'pincha o'quvchilar ilgari o'zlashtirgan bilimlaridan yangi amaliy sharoitda foydalanishga majbur bo'lganida vujudga keladi.

Bunda M. I. Maxmutov ana shunday sharoitlar faqat o'quvchilar o'z bilimlarini amalda qo'llay olishi uchun emas, balki amaliy masalalarni hal qilishda mavjud bilim, ko'nikma va malakalardan foydalanishga urinishda o'zlari bilmaydigan faktlarga duch kelishi uchun ham tashkil etilishini to'g'ri ta'kidlaydi. Mana shu faktni anglash o'quvchilarda bilishga qiziqish uyg'otadi va ularni yangi bilimlarni izlashga rag'batlantiradi.

*Ikkinchi tip.* Masalani mavjud yo'llar bilan nazariy hal qilish va tanlangan usulni amalga oshirib bo'lmamasligi o'rtasida ziddiyatlar mavjudligida muammoli vaziyat vujudga keladi.

*Uchinchi tip.* Ta'limiy masalani hal qilish bo'yicha amalda erishilgan natija bilan o'quvchida uni nazariy asoslash uchun bilimlar yo'qligi o'rtasida ziddiyat mavjud bo'lgan holda muammoli vaziyat vujudga keladi.

*To'rtinchi tip.* O'quvchilar qo'yilgan masalani yechish yo'lini bilmaydigan, muammoli savolga javob bera olmaydigan, ular yangi faktni izohlash uchun ilgari o'zlashtirgan bilimlari yetarli emasligini anglagan holda muammoli vaziyat vujudga keladi.

M. I. Maxmutov haqli ravishda qayd qilganidek, vaziyatning bu tipini eng ko'p tarqalgan tip deb hisoblash mumkin.

Didaktika va psixologiyaga doir adabiyotlarda muammoli vaziyatlarning tiplarini tasniflash asosida ularni yaratishning eng muhim yo'llari va usullari ishlab chiqilgan. M. I. Maxmutov o'qituvchilarning ilg'or tajribalarini umumlashtirish orqali muammoli vaziyatlarning tiplarini ta'riflash bilan birga, ularni yaratishning quyidagi asosiy usullarini ham ifodaladi:

1. O'quvchilarning nazariy tushuntirishni talab qiladigan hodisalarga, faktlarga, shuningdek, hodisalar o'rtasidagi tashqi nomuvofiqliklarga duch kelishi ularni ana shu nomuvofiqliklarni tushuntirishga intilishga undaydi va bu intilish bilimlarni faol o'zlashtirishga olib boradi.

2. O'quvchilar maktabda, uyda yoki ishlab chiqarishda amaliy topshiriqlarni bajarayotganida va hokazolarda vujudga keladigan ta'limiy va hayotiy vaziyatlardan foydalanish. Bunday holda muammoli vaziyatlar o'quvchining o'z oldiga qo'yilgan amaliy maqsadga mustaqil ravishda erishish uchun harakat qilishda muammoni o'zlari vujudga keltiradilar.

3. Hodisani tushuntirish yoki uni amalda qo'llanish yo'llarini izlashga doir ta'limiy-muammoli topshiriqlarni qo'yish.

4. O'quvchilarni hayotiy tasavvurlar bilan ilmiy tushunchalar o'rtasidagi ziddiyatlarga duch keltiradigan faktlar va hodisalarni tahlil qilishga qiziqtirish.

5. Taxminlarni olg'a surish, xulosalarni bayon qilish va ularni tajribalarda tekshirish.

6. O'quvchilarni faktlar, harakat va hodisalarni taqqoslashga hamda qarama-qarshi qo'yishga da'vat etish.

7. O'quvchilarni yangi faktlarni dastlabki umumlashtirishga rag'batlantirish: o'quvchilar o'zlari uchun yangi material mazmunidagi ayrim faktlarni, hodisalarni ko'rib chiqadilar, ularni ma'lum faktlar, hodisalar bilan taqqoslaydilar. Bunda, odatda, muammoli vaziyat vujudga keladi, chunki taqqoslashda yangi faktlarning qandaydir alohida, tushuntirib bo'lmaydigan belgi va xususiyatlari aniqlanadi.

8. O'quvchilarni go'yo tushuntirib bo'lmaydigan xarakterdagi va fan tarixida ilmiy muammo qo'yilishiga olib kelgan faktlar bilan tanishtirish. Odatda, bunday fakt va hodisalar o'quvchilarda tarkib topgan tushuncha hamda tasavvurlarga zid bo'ladi. Tabiiyki, buning sababi o'quvchilardagi mavjud bilimlarning to'liq va yetarli emasligidir.

9. Predmetlararo aloqalarni tashkil etish. Ko'pincha o'quv materiali muammoli vaziyatni (malakalar hosil qilishda, o'tilganlarni

takrorlash va hokazolarda) vujudga keltirishni ta'minlaydi. Bunday holda boshqa o'quv predmetlaridagi o'rganilayotgan materialga bog'liq fakt va ma'lumotlardan foydalanish lozim.

### DIDAKTIK MASALA

Savol — tugallanmagan gap bo'lib, unda so'roq yoki ifoda bilan almashingan qandaydir bo'lak mavjud bo'lmaydi. Agar savol o'quvchini mazkur holni, misolni, faktni, hodisani yoki jarayonni tushunishga yo'naltirsa, u muammoli — didaktik savol bo'ladi.

Muammoli — didaktik savol aqliy faollikka, uni o'rgatishga rahbarlikning eng muhim vositalaridan biridir.

Bunday savolning javobi kamchiliklarni to'ldiradi, noma'lumni aniqlaydi, o'xshashlik va farqni topadi, xususiy fikrni ifodalaydi, shuningdek, sxema yoki simvol bilan tushunilgan narsalarning ma'nosini anglatadi. Savol javob qaytaruvchiga til jihatdan yordam beradi. Chunki javob uchun zarur so'zlarning ko'pi o'qituvchining savolida beriladi.

Didaktik savollar o'quvchilarga ma'lum bilish harakatlarini bajarishni taklif qiladi va tabiiy bilish vaziyatini yaratadi. O'qituvchi o'quvchini yangi faktlarga, voqea, hodisa yoki jarayonlarga ro'baro' qiladi. U bunda nimani aniqlash kerakligini oldindan biladi. Shuningdek, pedagog sifatida o'zi nazarda tutgan ma'lumotni qanday yo'llar bilan mustaqil holda bilib olishini his etadi. Shu bois o'qituvchi sinfda tayyor natijani e'lon qilmaydi, balki o'quvchilarni mustaqil bilish yo'lidan o'zlariga ma'lum va izlanayotgan natijaga olib boradigan harakat va bilimlarni qo'llash yo'liga yo'naltiradi.

O'quvchilar yangi sharoitda, o'zlari duch kelgan yangi hodisalar, narsalar, jarayonlarda ishini nimadan boshlashni bilmaydilar. Shunga ko'ra, o'qituvchining savollari mushkulni oson qiladigan, o'quvchilarning yangi sharoitga o'rganishiga, to'g'ri bilish harakatlarini topishiga yordam beradigan narsadir. „Bu nima?“ degan savolga javob berish uchun ko'pincha amalda va fikran nimadir qilish kerak. „Uzunligi qancha va nima uchun?“ singari savollar ularga javob topish maqsadida ma'lum ishlarni bajarishga da'vat etadi. Savollar qandaydir nuqtayi nazarni ifodalaydi. „Qancha?“ degan savol narsaga miqdor nuqtayi nazaridan qarashni bildiradi. „Nima uchun?“ degan savol bilan esa sababiy bog'lanishlar aniqlanadi. „Qayerda?“ degan savol vositasida narsaning holati tekshiriladi.



Xulosa qilib aytganda, didaktik savollar — nuqtayi nazar va bilish harakatlarini bajarishga rag'batlantirish yo'li hisoblanadi.

Savollar so'roq gaplardan boshqacha yo'sinda ham berilishi mumkin. Ular talab yoki farmoyishni o'z ichiga olgan tasdiqlash shaklida ham ifodalanadi. Masalan, „Gapda nechta so'z bor?“, degan savol o'rniga „Gapdagi so'zlarni sanang“ ham deyiladi.

Nutqni o'stirish uchun noso'roq shakl qulayroqdir, chunki u o'quvchilarning javoblarini so'zlar va ifodalar to'plamiga bog'lamaydi. Masalan, gapdagi so'zlarni sanash taklif qilinsa, o'quvchilarning javoblari ifodalash yo'sini bo'yicha har xil bo'lishi mumkin: „Hammasi yettita so'z“, „Men yettita so'zni sanadim“, „Hammasi yettita“, „Yettita“ va hokazo.

Axborotning kattaligi bo'yicha savollar tor va keng, mazmunining xarakteri bo'yicha nazariy va amaliy savollarga bo'linadi. Tor savollar jarayonida maqsadga qisqa yo'ldan boriladi. Bunday savollar, asosan, o'quvchilarning xotirasiga qaratilib, zohiran go'yo o'quvchilarni mushohada yuritish imkoniyatidan mahrum qiladi, lekin har doim ham shunday bo'lavermaydi. Tor savollar faqat eslash yoki bilishni talab qilmasa, o'quvchilarning fikrini qo'zg'atadi. Ammo eslashsiz va bilishsiz fikrlash mumkin emas.

Tor savollarda o'quvchiga bitta fakt yoki misol ustida bitta, juda bo'lmasa ikkita o'xshash bilish harakatini bajarish tavsiya etiladi. Aytaylik, berilgan gapdagi eganing tagiga chizish yoki kesimni ko'rsatish ishi bajariladi. Bunday holda o'quvchi tayyor natijani aytadi. Va uning ana shu natijani izlash mantiqi noaniq qoladi: o'quvchi qandaydir amaliy ishni qayd qiladi yoki ko'rsatadi, aytadi yoki bajaradi. Xo'sh, nima uchun gapning xuddi ana shu bo'lagi ega hisoblanadi?

Sabab-natija bog'lanishlarini aniqlash, taqqoslash, qoidalarni yangi sharoitda qo'llash, umumlashtirish, qoidalarni kiritish va hokazolar, odatda, anchagina fikrlash operatsiyalarini yoki bilish harakatlarini bajarishni talab qiladi. Bu esa qarama-qarshiliklar, tanlash, asoslash, tushuntirish va baholash natijasida o'quvchining mushohada qilishiga imkon beradigan keng savollar sohasidadir. Tor savol ko'proq tayyor natijani talab qilsa, keng savol o'quvchini natijani asoslashga undaydi.

Keng savollarni faqat ma'lum sharoitlarda qo'llash mumkin. Ko'pincha, tor savollar keng savollar uchun zamin tayyorlaydi. O'quvchida mantiqiy mustaqil fikrlash rivojlanishini nazarda tutib, har bir o'quv yili sayin keng savollar salmog'ini oshirib borish lozim.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, har qanday keng savol ham fikrlash faolligini oshiravermaydi. Tayyor yoki yod bo'lib qolgan javob qaytariladigan har qanday savol o'quvchining aqliy faolligini oshirishga yordam beradi. Savol yodlanganlarni takrorlashdan ko'ra ko'proq narsalarni talab qilsa, kichik juz'iy tadqiqot uchun ozgina muammoni o'z ichiga olgan bo'lsa va bu tadqiqot o'qituvchining ehtiyotkorona rahbarligi bilan imkoniyatga ko'ra, mustaqil holda olib borilsagina fikrlashni faollashtiradi.

Savollar har xil ta'limiy maqsadlarda qo'llaniladi. Ular o'qituvchi gapirayotgan yoki darslikda yozilgan ma'lumotlar qanchalik muvaffaqiyatli idrok etilayotganini aniqlash zarur hollarda eng qulay omil hisoblanadi, faqat o'quv jarayonini boshqarishda emas, balki o'rganilayotgan mavzuni o'zlashtirish jarayonini faollashtirishda ham qo'l keladi.

Berilgan savollarga o'quvchilarning javoblari darsning o'quvchilarga tushunilmagan qismlarini aniqlashda yordam beradi. O'quvchilarga ishning tartibini o'zlari belgilashlari, o'qituvchining ozgina yordami bilan idrok etishning qiyinchiligini bartaraf qilishlari uchun vaqt beriladi. Bunday yordam o'quvchilarni o'rganilayotgan materialni to'g'ri tushunishga yo'naltiradigan alohida savol tarzida berilmaydi. O'quvchilarning o'zlari hodisani tushuntira oladigan, bog'lanish, sabab va natijalarni topa biladigan hollarda o'qituvchi o'zining tushuntirishlari bilan yordamga shoshilmaydi.

Shunday qilib, savollar o'zlashtirishning muvaffaqiyatlilikini aniqlash imkonini yaratishdan tashqari, hodisalar o'rtasidagi bog'lanish va munosabatlarni aniqlashda hamda qonuniyatlar mantiqini tushuntirishda yordam beradi. Ulardan o'qitish jarayonining hamma zvenolarida foydalanish mumkin. Savollarni o'qituvchi yangi materialni bayon etishda qo'llashi murakkab jarayondir. O'qituvchi yangi materialni bayon etishning juda nozik joyida to'xtashi va o'quvchilarga hodisalarning keyingi rivoji haqida o'z fikrlarini aytishni tavsiya etishi mumkin. O'quvchilar mazkur hodisalarning boshlanishi to'g'risidagi o'zlari bilgan ma'lumotlar asosida ishning keyingi borishini oldindan bilishga harakat qiladilar. Bu usul darslardagi o'quv ishlarini jonlantiradi, faollashtiradi. Masalan, insonning ishlari, qarori, xatti-harakatlari to'g'risida gap borayotganida o'quvchilarga o'z munosabatlarini belgilash tavsiya etiladi. O'quvchilar ana shunday savollarga o'zlari tushunganicha javob qaytaradilar. O'qituvchining vazifasi sinf

o'quvchilarining to'g'ri tushunishlariga yordam berishdir. Odatda, umumiy qoidalar yoki fikr-mulohazalar misollar vositasida tushuntiriladi.

Ma'lumki, o'qitish bilimlarni o'zlashtirish va bilish yo'llarini tushunishni o'z ichiga oladi. Ta'lim — o'qishga rahbarlik qilish va o'quvchining bilish faoliyatini boshqarishdir. O'quvchilarning fikrlash faolligini oshirish uchun asosiy savol (topshiriq, muammo) navbatdagi darsning mazmunini yoritishdan oldin qo'yiladi. Mavzuning ahamiyati anglangach, darsning butun mazmunini tushunish osonlashadi va mustaqil ishlar ham qiyinchiliksiz amalga oshiriladi. Darsning boshlanishida beriladigan maqsadga muvofiq savollar o'quvchilar ongida hal qilinadigan muammoga doir tasavvurni vujudga keltiradi.

Maqsadga muvofiq savol — navbatdagi mavzuga bevosita daxldor savol bo'lib, u bir mavzudan boshqasiga o'tish uchun ko'prikcha sifatida xizmat qiladi. Bunday savollardan ko'zlangan maqsad yangi mazmunni idrok etish uchun diqqatni to'plash va mavjud tasavvurlarni jamlashdir. Ana shu yangi mazmun butun darsning asosiy muammosini o'z ichiga oladigan yo'sinda bayon qilinishi, uni hal etishda o'quvchilarning o'zlari qatnashishi lozim. Bunday rahbarlik didaktik savollar bilan birga ko'rsatmali vosita va harakatlar yordamida amalga oshiriladi. O'quvchilarga o'z hayotiy tajribasidan ma'lum holatlarda foydalanish murakkab materialni tushunish uchun yordam beradigan paytlarda maqsadga muvofiqdir. Lekin ko'pincha bu ishni ko'rsatmali vositalar yordamida tashkil etishga to'g'ri keladi. Shunday hollarda o'quvchilar o'rganiladigan narsaning vujudga kelishi jarayonini kuzatishlari mumkin. Ko'pincha bolalarni o'rganiladigan ta'limiy ishga qiziqtirish uchun ularga atayin qandaydir hayratlanarli hodisalar aytiladi.

O'quvchini ajablantirish, hayotiy tushunchasiga muvofiq narsani aytish va ko'rsatish orqali uning o'zida savol tug'dirishda keskin, g'ayrioddiy taqqoslash va qiyoslashdan foydalanish usuli doimo o'zini oqlaydi. O'quvchining aytgan yoki aytmagan savoli idrokini o'tkirlashtiradi va diqqatini kuchaytiradi.

Ilgarigi tasavvurlarning qayta tiklanishiga, yangi tasavvurlar hosil bo'lishiga, odatdagi tushunchalarning ilmiy tushunchalar bilan to'qnashuviga olib boradigan didaktik savollar, bir so'z bilan aytganda, „jonsiz“ o'quv materialini jonli harakatga, manzaraga, tasavvurga aylantirishda yordam beradigan barcha savollar ta'limning savol-javob metodini yaqqol ifodalaydi.

Ta'limning savol-javob yoki dialogik metodi oldingi materialning o'zlashtirilishi darajasi hamda xarakterini va yangi materialning o'zlashtirilishi sifatini aniqlashda yordam berishdan tashqari, o'quvchining mustaqil fikrlashini rivojlantirish uchun g'oyat keng imkoniyatlarga ega. Mustaqillik ko'proq o'rin olishi uchun savollarni o'qituvchining o'quvchini javob yoki yechimni mustaqil o'ylashga da'vat etadigan luqmasi darajasigacha qisqartiriladi. Luqmalar, xususan, yechim yoki javoblar yetarlicha o'ylanmagan hollarda qo'llaniladi. Masalan, o'quvchi noaniq fikrni aytadi. O'qituvchi uning xatosini tuzatish o'rniga ko'p ma'noni bildiradigan „Shunaqami?“ yoki „Nahotki?“ iboralarini qo'llaydi. Ana shu yo'l bilan o'quvchiga yana bir marta o'ylab, to'g'ri javobni topish uchun turtki beradi. Bunda o'quvchi yo'l qo'ygan xatosini o'zi bartaraf etishi kerak. Dialogning ikkinchi varianti ham o'qituvchining o'quvchini fikrlashga yo'naltiradigan yoki da'vat etadigan keng savolini o'z ichiga oladi. Bunday hollarda keng savol „Ko'rib chiq...“, „Taqqosla...“, „Bugun nimani o'rganishimizni takrorla“, „O'quvchi A.ning javobini bahola“ va hokazolar qabilidagi talablar bilan almashinadi. Shunday paytlarda o'quvchi ko'rib chiqish, taqqoslash, umumlashtirish natijalarini ta'riflash va ifodalashda mustaqillikka intiladi. Mazkur talablar guruhiga ilgari va endi o'rganilgan narsalarni eslatish ham kiradi.

O'quvchilarni mustaqil fikrlashga undashning ana shu barcha usullarida yashirin savol ma'lum luqma bo'ladi va u shunchalik qisqa ifodalanadiki, uni og'zaki aytishda o'rganilgan yoki tayyor javoblarni keltirib chiqara olmaydi.

Yuqorida aytilgandek, didaktik savol, odatda, o'zining to'liq ifodalanishida javobning ko'p elementlarini va hatto, og'zaki talqin yoki so'zlar guruhini o'z ichiga oladi. Bu esa o'quvchini aqliy zo'rqiqlikdan qutqaradi va o'qishning ta'limiy hamda kamol toptirish saviyasini pasaytiradi.

Talablar, eslatish, rag'batlantirish va luqmalar ko'rinishidagi „yashirin“ savollardan foydalanishning afzalligi o'quvchini mustaqil fikrlashga, bir qarorga kelishga va o'zining javoblari uchun zarur so'zlarni topishga majbur qilishdir. Aql va nutqning rivojlanishi savollar kengaytirilgan holda yoki to'la ifodalanib qo'yilgan paytlardagiga nisbatan qulayroq sharoitlarda yaxshiroq amalga oshadi. Agar o'quvchilarning o'zlari javob topa olmasalar, o'qituvchi ularga yordam beradi, savolni keng holda, ya'ni didaktik savolni to'la ifodalab takrorlaydi.

Savol o'qituvchi bilan o'quvchining o'zaro suhbatini bog'lovchi tordir. Dialog esa ular o'rtasidagi ma'naviy muloqotning shakli hisoblanadi. To'g'ri javobni yoki yechimni topish, hodisa yoki manzaraning umumiy ma'nosini anglash tushunishdan dalolat beradi. U idrok etish paytida yoki idrok etishdan keyin o'rganilgan mavzuning mohiyatiga doir masalalarni muhokama qilish munosabati bilan namoyon bo'ladi. Har qanday holda ham tushunish shaxsning o'zi kuch sarflashi natijasida vujudga keladi. O'qituvchining savoli faqat to'g'ri javobni topishga yordam beradi va bu ishni tezlashtiradi, ammo o'quvchining o'z aqlini ishlatishini bartaraf etmaydi.

O'rganilayotgan mavzuga doir didaktik savollar tizimi o'quvchining aqliy zo'riqishini taqozo etadi. O'quvchining bunday zo'riqishi qanchalik kam va mustaqilligi qanchalik ko'p bo'lsa, uning aqliy kamolot yo'lidan borishi shunchalik samarali bo'ladi. Ana shu yo'lda uning aqli va yangi taassurotlarni anglash, yangi ma'lumotlarni qayta ishlash qobiliyati tarkib topadi.

Lekin o'quv jarayoni hech qachon faqat tushunish bilan cheklanmagan va cheklanmaydi. O'rganilgan masala puxta eslab qolinmasa, o'qitish bekor ketadi. Shuning uchun har bir mavzuga doir didaktik savollar tizimida o'rganilgan bilimlarni mustahkamlashga va ulardan foydalanish yo'llari hamda usullarini yaratishga xizmat qiladigan xilma-xil savollar muhim o'rin tutadi. Esab qolishning puxtaligi faqat tushunishning chuqurligiga emas, balki o'quvchining o'rganilgan bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar va savollarni o'zlashtirish uchun tayyorligiga ham bog'liqdir.

Bilimlar, ko'nikma va malakalarni mustahkamlashga erishish maqsadida o'rganilganlarni qo'llashga doir savollar izlanish va tadqiqot elementlarini o'z ichiga oladi. Shu tariqa o'quvchining mustaqil bilish uchun ongli ravishda ishlashiga erishish mumkin. Bunda u o'zlashtirgan bilimlarini sinab ko'radi. O'zi xususan nimani bilmasligini tushunadigan kishigina izlanishi va tadqiq qilishi mumkin. Faqat mavjud bilimlar yangi masalani, yangi savolni va yangi topshiriq yoki muammoni vujudga keltiradi.

O'zining darsini izlanish va tadqiq etish elementlariga ega bo'lgan muammodan boshlashni xohlagan o'qituvchi ana shu muammoning bilimlarga ma'lum darajada bog'liqligini ko'rishi kerak. Bilimlar o'zaro bog'liqligidagina qandaydir muammoni topish mumkin. Ana shu bog'lanishning uzilgan joyini tanlash o'qitilayotgan predmetning ta'limiy maqsadlariga va darsning muayyan

o'quv topshirig'iga bog'liqdir. Mazkur uzilish o'quvchilardagi mavjud bilimlar va hayotiy tajribani faollashtirish asosida ularning tafakkurini kuchaytirish uchun amalga oshiriladi.

Faktlar mantiqiy zanjirining, hodisa yoki jarayonlarning uzilishini, yetishmovchilikni, xulosa chiqarish sohasida esa muhim muammoni vujudga keltiradi. Ko'p hollarda yetishmovchilikni bilish va muammo o'z ma'nosiga ko'ra savol yoki masalani keltirib chiqaradi.

Hodisalar xronologik zanjirining uzilishi ham yetishmovchilikni vujudga keltiradi. Lekin bunday yetishmovchilik bevosita muammoga olib bormaydi, balki esda bor narsalar bilan to'ldiriladi. Bunda taxmin yoki javob e'tiborga olinmaydi, chunki yetishmovchilik faqat o'rganilgan va esda saqlanayotgan narsalar bilan to'ldiriladi. Har bir predmetda nomlar, sanalar, ismlar va atamalarining to'plamlari bo'ladi. Ularni eslab qolish kerak.

Yetishmovchilik va muammo qandaydir yo'sinda sinfdagi o'quvchilarni zarur bilimlarni izlashga undaydi. Bu undash obyektiv ravishda eslash, o'ylash, ko'z oldiga keltirishni, hatto, adabiy yoki tajriba manbalaridan, xususan yetishmovchilikni to'ldira oladigan va muammoni hal qilishga olib boradigan narsalarni topishni taklif etishdir. Obyektivlikni mazkur yetishmovchilikni o'z ichiga olgan o'quv materialining o'zi taqozo etadi. Bu esa o'quvchilarni o'qituvchi aytgan yoki darslikda berilgan va faqat o'rganilgan bilimlarga daxldor tayyor natijalar ustida o'ylashga majbur etishdan ko'p marta yaxshidir. Lekin ba'zan tayyor natijalar haqiqatan zarur bo'ladi va o'qitishda bunday hollar muammoli ta'limning tarafdorlari istaganidan ancha ko'p uchraydi.

Yetishmovchilik va muammolar, eng avvalo, o'quvchilarga puxta bilimlar asosida bilish usullarini o'zlashtirishda yordam berish uchun yaratiladi. Shu bilan birga, izlanish va tadqiqot jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi faollashadi va bilish jarayoni kuchayadi. Bunga qanday qilib erishiladi? Avval o'quvchilarga qandaydir ma'lum narsa aytiladi. Uni suhbat yoki yakka tartibda so'rash vaqtida aniqlanadi. Yangi mavzuga o'xshash material faol va maqsadga muvofiq yo'sinda takrorlanadi. Mustaqil hal qilinadigan muammoni vujudga keltiruvchi vaziyatga yaqin muammoli vaziyatlar yaratiladi. Ana shunday sharoitlarda o'quvchilar muammoning qo'yilishini o'zlarining fikrlashlari sifatida idrok etadilar. Ular ana shu muammoga mazkur vaziyatlarda ifodalangan ilgari bilimlar darvozasi orqali kiradilar.

Shunday qilib, muammo hech qanday tayyorgarliksiz to'g'ri-dan-to'g'ri qo'yilmaydi. U butun darsdagi bosh masala sifatida bayon qilinadi. Materialning xususiy masalalarini o'quvchilarning o'zlari hal qila olsalargina, ularning muammoni hal qilishdagi ishtirokinging salmog'i ortadi.

## MUAMMOLI TA'LIM METODLARI

Yigirmanchi yillardayoq metodistlar o'qitishning yangi metodlarini izlashdi. Ular o'quvchilar fanning turli sohalarida iloji boricha kengroq ma'lumotlarni o'zlashtirishi bilan birga, ularda mustaqillik, hayotga ijodiy munosabat malakalarini tarkib toptirish kerak, degan xulosaga keldilar. Ana shu maqsadda o'qitishni o'quvchilarning u yoki bu shakldagi ta'limiy faoliyati tadqiqotni eslatadigan, o'quvchilar uchun „kashfiyotlar“ bilan tugaydigan, ya'ni ular mustaqil holda xulosa chiqaradigan va qandaydir amaliy vazifani hal qiladigan metodlarga asoslanishi taklif etiladi.

Juda ko'p didaktlar, o'qituvchilar va metodistlar (Babanskiy, Lerner, Matyushkin, Maxmutov, Pishkalo, Okon, Fleminch, Markov, Sani va boshqalar) muammoli ta'lim masalalari bo'yicha tadqiqot ishlarini amalga oshirdilar. Muammoli ta'lim metodlari orasida quyidagi beshtasi asosiy metodlar sifatida farqlanadi.

### TADQIQOT METODI

Bu metod, birinchidan, bilimlarni ijodiy qo'llanishini ta'minlashga, ikkinchidan, ilmiy bilish metodlarini izlash jarayonida mazkur metodlarni va ularning qo'llanishini o'zlashtirishga qaratiladi. Uchinchidan, ijodkorlik faoliyati xislatlarini shakllantiradi, to'rtinchidan, ana shunday faoliyatga qiziqish hamda ehtiyojni tarkib toptirishning sharti hisoblanadi.

Ana shu xususiyatlarini nazarda tutib, bu metodni o'quvchilarning o'zlari uchun yangi muammoni hal qilish bo'yicha ijodkorlik faoliyatini tashkil etish yo'li sifatida ta'riflash kerak. O'quvchilar o'zlari uchun yangi sanalgan muammolarni hal qiladilar. Tadqiqot metodida topshiriqlarning shakli har xil, masalan, sinfda va uyda tez bajariladigan topshiriqlar, dars jarayonini taqozo etadigan ishlar, ma'lum, lekin cheklangan muddatga mo'ljallangan uy vazifalaridan iborat bo'lishi mumkin. Chunonchi, jamoa xo'jaligining, zavodning mazkur aholi punktidagi tashkilotning tarixini o'rganishga doir

topshiriqlar g'oyat foydali va samarali tadbirlardir. Ammo ular chinakam tadqiqotchilik xarakteriga ega bo'lishi uchun material izlashni o'quvchilarning o'zlari rejalashtirishi, uni o'zlari sharhlashi va ma'lum mantiqiy izchillikda bayon qilishi kerak. Tadqiqot metodining bosqichlari:

1. Faktlar va hodisalarni kuzatish hamda o'rganish.
2. Tadqiqotga doir tushunarsiz hodisalarni oydinlashtirish.
3. Gipotezani olg'a surish.
4. Tadqiqotning rejasini tuzish.
5. Rejani amalga oshirish.
6. Yechimni tuzish.
7. Yechimni tekshirish.
8. Amaliy xulosalar.

Tadqiqot metodida ham og'zaki va matbuot so'zlari, ko'rsatmali vositalar, amaliy ishlar, yozma va grafik ishlar, laboratoriya ishi va hokazolardan foydalaniladi.

#### **QISMAN IZLANISH YOKI EVRISTIKA METODI**

O'quvchilarni asta-sekin muammolarni mustaqil hal qilishga yaqinlashtirish uchun ularga, avvalo, yechimning ayrim sodda qismlari, tadqiqotning ayrim bosqichlarini bajarishni o'rgatish, ularda asta-sekin ko'nikma hosil qilish zarur. Tadqiqot metodining birinchi variantida o'quvchilarga ko'rsatilgan rasimga va so'zlab berilgan mazmunga mos savollar tuzishni tavsiya etish orqali muammolarni ko'ra olish, aytilgan faktlardan xulosa chiqarish o'rgatiladi.

Mazkur metodning boshqa bir varianti murakkab masalani tushunilishi oson va har qaysisi asosiy masalani yechishga yaqinlashishni yengillashtiradigan masalalarga ajratishdan iboratdir.

O'zaro bog'liq savollardan tashkil topadigan evristik suhbatni tuzish tadqiqot metodining uchinchi varianti bo'lib, mazkur savollarning har biri muammoni hal qilish yo'lidagi qadam hisoblanadi va ko'plari o'quvchilardan faqat o'z bilimlaridan foydalanishni emas, balki izlanishlarni amalga oshirishni ham talab qiladi. Evristik suhbatning muhimligi shuki, unda o'qituvchi muammoli masalani kichik muammolarga ajratadi, o'quvchilar esa ana shu muammolarni birgalashib bajaradilar.



## TUSHUNTIRISH, NAMOYISH ETISH METODI

Bu metodning asosiy vazifasi o'quvchilarning axborotni o'zlashtirishini tashkil etishdir. Uni axborot-retseptiv metod deb ham ataladi (retsepsiya — idrok) va unda o'qituvchi bilan o'quvchi faoliyati davom etadi. Bu faoliyat shundan iboratki, o'qituvchi tayyor axborotni turli vositalar bilan beradi, o'quvchilar esa ana shu faoliyatni idrok etadilar va eslab qoladilar. O'qituvchi axborot berishni og'zaki so'z (hikoya), matbuot (darsliklar, qo'shimcha qo'llanmalar)dagi iboralar, ko'rsatmali qurollar va hokazolar yordamida amalga oshiradi.

O'qituvchilar bilimlarni o'zlashtirish uchun zarur ishlarni bajaradilar — yangi axborotni tinglaydilar, ko'radilar, o'qiydilar, kuzatadilar va uni ilgari o'zlashtirilgan axborot bilan taqqoslaydilar, xotiralarida saqlab qoladilar. Ular sinfda o'tirib, o'simlikning qanday unib chiqishini, gullardan mevalar hosil bo'lishini, baland tog'larda, chuqur dengizlarda jonivorlar qanday yashashini kuzatishlari ham mumkin.

## MUAMMOLI BAYON QILISH

Ushbu metodning mohiyati o'qituvchi muammoni qo'yib, uni o'zi hal qilishi va yechimning ahamiyatini o'quvchilarga tushunarli ziddiyatlar orqali ko'rsatishdan iboratdir.

O'quvchilarga yechimga olib boradigan yo'lning mantig'ini, tavsiya etilgan gipotezalarning haqiqatga o'xshashligini, isbotlarning ishonchligini kuzatadilar. Ular dastlabki paytlarda xulosalarga ishonmasalar ham, lekin keyinchalik muammoli bayon bilan muammolarni mustaqil hal etish jarayoni asta-sekin muvofiqlashuvi natijasida xulosalar chiqaradigan, ehtimol, o'z muhokamalarining mantig'ini tuza oladigan bo'lib qoladilar. Shunga ko'ra o'qituvchi muammoli bayon qilishi uchun o'quvchilar mustaqil hal eta oladigan muammolardan murakkabroq muammolarni tanlashi mumkin.

## REPRODUKTIV METOD

O'quvchilar ko'nikma va malakalarni egallashi, shu bilan birga, bilimlarni o'zlashtirishning ikkinchi darajasiga erishishi uchun o'qituvchi topshiriqlar tizimi orqali ularning o'zlariga berilgan bilimlarni bir necha marta eslatadi. U topshiriqlar beradi, o'quv-

chilar esa topshiriqlarni bajaradilar — o'xshash masalalarni yechadilar, namunaga qarab turldaydilar va tuslaydilar. O'qituvchining necha marta va qanday oraliqlarda takrorlashi uning qobiliyatiga, topshiriqning qiyin yoki osonligiga bog'liq.

Savodxonlikni va aniq yozishni bir necha yilda, o'qishni esa undan ancha kam vaqt mobaynida o'rgatish mumkin. (Yangi so'zlarni o'zlashtirish ularni ma'lum muddatda taxminan 20 marta uchratishni talab qilishi aniqlangan.) Qisqasi, o'qituvchining topshirig'i bo'yicha ish usulini eslash va takrorlash metodning belgisidir.

### MUAMMOLI BOSHLASH BILAN BAYON QILISH

O'qituvchi yangi bilimlarni bayon qilishni boshlashda muammoli vaziyatni yaratsa, keyin o'quv materialini an'anaviy, axborot usulida tushuntiradi.

Muammoli vaziyat faqat tushuntirishning boshida vujudga keltiriladi, o'quv materialining o'zi muammoni hal qilish sifatida bayon etilmaydi, u eng oddiy hisoblanadi va muayyan vaqt davomida yoki murakkab materialni bayon qilishda qo'llaniladi. Masalan, *r* va *rr* harflarini chiroyli yozish qoidalarini o'rganishda o'qituvchi dars mavzusini aytish o'rniga ularni qiziqtiradi; buning uchun *ariq*, *o'rik*, *arpa*, *varrak* kabi otlar qanday yozilishini so'raydi.

Umuman olganda, muammoli vaziyatni qanday tushuntirish o'qituvchining iqtidori, tajribasiga bog'liqdir.



#### *Savol va topshiriqlar*

1. Siz muammoli ta'limning qanday didaktik asoslarini bilasiz?
2. Matematika dasturi tuzilishining chiziqli va tarmoqlangan prinsiplarining umumiy asoslarini ifodalang.
3. Muammoli ta'lim vositalarini nimalar tashkil qiladi?
4. Pedagogik praktika vaqtida o'qituvchining muammolashtirilgan ta'lim shakllari, metodlari va vositalaridan foydalanishga doir ish tajribasini o'rganing.





## **XVIII BOB. PROGRAMMALASHTIRILGAN TA'LIM**

### **PROGRAMMALASHTIRILGAN TA'LIM HAQIDA TUSHUNCHA**

Programmalashtirilgan ta'lim o'qitishni tashkil etishning bir shakli bo'lib, u o'quv jarayonida kibernetika g'oyalari va prinsiplarini amalga oshirish imkonini beradi. Ta'limning tashkiliy shaklini amalga oshirish uchun faqatgina kibernetikaning g'oyalari emas, balki har bir o'quvchi bilan doimiy ikki tomonlama axborot almashinuvini ta'minlaydigan ta'limning yangi vositalari va moslamalari ham kerak. Texnikaviy avtomatlashtirish va programmalashtirilgan qo'llanmalar tufayli ta'lim sharoitida teskari aloqa va o'qitishning individuallashtirish prinsiplarini, faollik va onglilik prinsipini eng samarali amalga oshirish, o'quv jarayonidagi mustaqil ishni tashkil qilishning yangi shakllarini topish imkoniyati vujudga keladi. Bunda esa o'qituvchisiz ta'limning borishini o'rgatilgan bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirishning turlicha borishiga muvofiq o'zgartirish va ta'limning borishini o'zlashtirish dinamikasiga moslashtirish mumkin bo'ladi. Xususan ana shu ta'lim programma-lashtirish sababli o'qitish nazariyasi va amaliyotida vujudga kelgan yangilik hisoblanadi.

Programmalashtirilgan ta'lim bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonini optimallashtirish masalasini hal qiladi. Bu masala kibernetika bilan ta'lim jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadigan psixologik — pedagogik fanlar tutashgan joyda hal bo'ladi.

Bilimlarni chuqurlashtirishning didaktik vositalari kibernetika atamalarida imkoni boricha kam vaqt sarflab mashqning berilgan shaklidan eng ko'p axborot olish usullarini, boshqacha aytganda, har bir mashqning boshqa barcha muqobillarida nisbatan o'rtacha maksimal axborot oladigan operatsiyalar izchilligi (algoritm)ni topishni o'rgatish sifatida ifodalanadi. (Ланда Л. Н. Обучения у учащихся методом рационального мышления и проблема алгоритмов. „Вопросы психологии“, 1961, стр. 103)

Pedagogikada „algoritm“ atamasi programmalashtirilgan ta'lim g'oyasi vujudga kelganidan va bayon qilishga doir o'quv materialini jiddiy sistemallashtirish masalasi ko'tarilganidan keyin qo'llana

boshladi. Matematikada algoritm tushunchasi paydo bo'ldi. Odatda, algoritm deganda ayrim sinfga yoki tipga mansub har qanday masalani yechish uchun ma'lum izchillikda juz'iy operatsiyalarni bajarish haqida aniq umumiy qabul qilingan, oldindan belgilangani tushuniladi. Oldindan belgilash nazarda tutilgan narsalardan iborat bo'lib, ba'zan qoidalar deb ham ataladi.

Programmalashtirilgan ta'limda o'quv materiali bo'yicha tayyorgarlikka, bayon qilishga va so'rovga qo'yiladigan aniqlik talablari to'la qonuniy va zarurdir. Chunki o'quv jarayoni boshqariladigan jarayon bo'lishi va uni o'qituvchi u yoki bu texnik vositaga joylangan dastur, programmalashtirilgan darslik, o'qitish mashinasi va boshqa zamonaviy elektron akustik hamda proyeksiyalovchi apparatlar yordami bilan olib borishi kerak. Mashg'ulot jarayonida dasturlashtirilgan ta'limni o'qitish vositasi bilan yakkama-yakka qoladigan o'quvchining ishidagi barcha ijobiy va salbiy tomonlarini maksimal darajada hisobga olish uchun o'quv materiali qanchalik aniq sistemalashtirilishini tasavvur etish mumkin. Har qanday topshiriqni kodlangan axborotga moslashtirish mumkin bo'ladi. Didaktika tili bilan aytganda, topshiriqni muvaffaqiyatli bajarish uchun uni bajarishga mos barcha usullarni o'zlashtirish kerak. Axborot faqat miqdori bo'yicha emas, balki maqsadga erishish ehtimolini orttirishga ko'ra qimmati bo'yicha ham o'lchanishi lozim. Axborotning qimmati qanchalik yuqori bo'lsa, u olinganidan keyin maqsadga erishish yo'llari ham shunchalik keng bo'ladi.

**Ta'limni individuallashtirish.** O'quvchilar sonining tobora ko'payishi ta'lim tizimining rivojlanish jarayonida qonuniyligi sababli buning natijasida umumiy o'qitishda boshqarish jarayonining sifat ko'rsatkichlari pasayishi ham qonuniydir. Bunda programmali ta'lim yordam beradi. Ma'lumki, programmalashtirilgan ta'limning individuallashtirilgan ta'limi keng individuallashtirilgan ta'lim bo'lib, uning shubhasiz afzalligi mana shudir.

I. I. Tixonov va I. A. Danilov individual ta'limning sxemasini ishlab chiqishga harakat qildilar. (Из опыта программированного обучения. Изд-во „Знание“, М., 1964.) Bu sxema programma — pedagog — o'quvchi — to'g'ri aloqa (programma — pedagog — darslik — o'quvchi — teskari aloqa).

Individual ta'limning eng oddiy vaziyatlarida to'g'ri boshqaruvning barcha asosiy talablariga rioya qilish imkoniyati bo'ladi va bu talablar quyidagilardan iborat:


1. Boshqarishning maqsadini va tizim ishining samaradorligi ko'rsatkichlarini aniq ta'riflash, shuningdek, boshqariladigan

tizimga ta'sir ko'rsatish vositalarining mavjudligi va ularning samaradorlik ko'rsatkichlarini optimallashtirish uchun ancha erkin aralashtirib qo'llash.

2. Murakkab tizimlarni boshqarishni bosqichma-bosqich amalga oshirish va bunda boshqariladigan ta'sirning natijalari joriy boshqarishda ham o'z vaqtida namoyon bo'lishini hisobga olish lozim.

3. Boshqarishning istiqbolliligi, ya'ni mazkur paytdagi foyda va zararnigina emas, balki kelajakda tizimning takomillashuviga ta'sir ko'rsatadigan qiziqishni nazarda tutish.

4. Tizimning strukturasi to'plangan tajriba, o'zgartiruvchan sharoitlarga va boshqarishning maqsadlariga muvofiq ishlash qonunlarini o'zgartirish imkonini beradigan tizimning o'zgaruvchanligi.



- programma — pedagog — o'quvchi — to'g'ri aloqa;
- programma — pedagog — darslik — o'quvchi — teskari aloqa.

Programmalashtirilgan ta'lim va tarbiyaning asosiy va umuman qabul qilingan vazifasi ta'lim va tarbiya jarayonini boshqariladigan jarayonga aylantirishdan iborat. Ta'limdagi ana shu istiqbolli va ilg'or yo'nalish faqat bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga emas, balki u ishning individual uslubini shakllantirishga qaratilagina chinakam optimallashtiruvchi yo'nalishga aylanadi. Boshqacha hollarda o'zlashtirish jarayonini programmalashtirishni individuallashtirish o'quvchilar bitta topshiriqni o'z qobiliyatlariga qarab turli usullar bilan bajarishidan iboratdir. Ko'rsatmali fikrlashga moyil o'quvchilar uchun oldin o'rganiladigan predmetning tasvirini berish maqsadga muvofiqdir. Lekin ishning bu usuli umumiy fikrlaydigan o'quvchilar uchun maqsadga muvofiq emas. O'quvchining qobiliyatiga mos

individuallashtirilgan topshiriqlarni tanlash programmashtirilgan ta'limda o'quv faoliyatini boshqarishning usullaridan biridir.

Faqat bitta muayyan usul bilan ham topshiriqlar bo'ladi. Bunday hollarda programmashtirilgan o'zlashtirish jarayonini individuallashtirish o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarga eng muvofiq ish usulini talab qiladigan o'quv topshiriqlarini tanlashdan iborat bo'ladi. Ta'limda individual uslubni shakllantirishning zarur sharti voqelikka faol munosabat va ijobiy motivlardir. Asosiy motivlardan biri — o'qishga qiziqishdir. Mustaqillik va tashabbuskorlik ko'rsatish imkoniyati esa qiziqishning muhim shartidir. Lekin qiziqishdan tashqari, o'qishning yana boshqa qator motivlari ham mavjud bo'lib, ular — burchini anglash, mas'uliyat, o'qishda shuhrat qozonish ishtiyoqi va izzat nafsdur. Yomon baho kuchsiz o'quvchilarda ko'pincha diqqatning taqsimlanishini yomonlashtiradi, nerv sistemasi kuchli o'quvchilarda esa yaxshilaydi. Qiziqish pedagogik baho, muvozanatli va muvozanatsiz o'quvchilarning o'zini tutishiga turlicha ta'sir etadi.

Individual uslubni shakllantirishda faqat ta'limiy topshiriqlarning mazmuni va ishning tashkil etilishini emas, balki faoliyatning motivlashtirilishini ham individuallashtirish zarur. Mana shu prinsipning muhimligi bebahodir. Ta'limni individuallashtirish bo'sh o'quvchi uchun o'z kuchiga ishonchini saqlash imkoniyatini beradi va kuchli o'quvchining aqliy yalqovlik qilishiga yo'l qo'ymaydi. Individuallashtirilgan ta'limda har bir o'quvchi predmetning o'zi uchun eng katta qiyinchilik tug'diradigan jihatlariga ko'proq vaqt sarflashga majbur bo'ladi.

Sinflardagi guruhli o'qitish individual xatolarni va o'zlashtirishning xususiyatlarini hisobga olish imkoniyati ana shu xatolarni bartaraf etish uchun bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilardagi bilimlar, ko'nikma va malakalar sifatini oshirishga qaratilgan samarali tadbirlarni qo'llash uchun alohida ahamiyatga molikdir. Ta'limning individuallashtirish guruh bilan umumiy ishlashga barham bermaydi. Individuallashtirilgan ta'limda o'qituvchi tez, olg'a borayotgan o'quvchilarga ularning bilimi, ko'nikma va malakalarini mustahkamlaydigan qo'shimcha materiallarni berish imkoniga ega bo'ladi.

#### PROGRAMMASHTIRILGAN TA'LIMNING MOHIYATI

B. F. Skinner taklif qilgan tizim o'quv materialini kichik qismlarga ajratish va har bir qismning o'zlashtirilishini tekshirish, o'quvchi barcha materialni berilgan izchillikda ishlab chiqishidan iborat bo'lib, tizimli programmashtirilgan deyiladi.

N. Krauder tavsiya etganidek, o'quv materialini tayyorlash tizimini tarmoqlangan programmashtirish deb ataladi. Bu

metodika o'quvchi ta'limiy materialning qandaydir tugal (B.F. Skinner tavsiya etganidan katta) qismini ishlab chiqib, savolga javob qaytarishda yangilanadi, degan fikrdan vujudga keladi. Berilgan savolga qaytarilishi mumkin bo'lgan javoblarning bir nechta variantlari yoziladi va o'quvchiga ko'rsatiladi, u esa mazkur javoblar orasidan to'g'risini tanlaydi.

Programmalashtirilgan ta'lim nazariyasining kibernetik asoslari kibernetika sohasidagi yetakchi omillar A. I. Berg, V. M. Tushkov va boshqalar tomonidan keng ma'qullanadi. Taniqli psixologlar ana shu muammoning nazariy asoslarini, xususan aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi asosida ta'limning samaradorligi masalalarini (A. N. Manteyev, P. Y. Galperin va boshqalar), assotsiativ aloqalar nazariyasini (Y. N. Samarin va boshqalar) ishlab chiqishga kirishdilar.

Programmalashtirilgan ta'limning xarakterli xususiyatlari:

1. Jiddiy tanlangan o'quv materialini alohida-alohida kichik qismlarga ajratish.
2. Har bir qismni o'zlashtirishga qaratilgan muayyan ishlarni izchil bajarishga doir ko'rsatmalar tizimini kiritish.
3. Mazkur har bir qismning o'zlashtirilishi tekshirish bo'yicha topshirilishi, tekshirish bo'yicha topshiriqlar berish.
4. O'quvchining programmalashtirilgan ta'lim bo'yicha o'z tajribasi qanchalik to'g'riligini bildiradigan javoblarni yoqlash.

Programmalashtirilgan ta'lim o'zining shakliga ko'ra o'quvchilarning ta'limiy materialni maxsus qayta ishlash bo'yicha mustaqil faoliyatining alohida turidir.

Endilikda maxsus EHM lar maktablardagi ta'limning texnik vositalarining mutlaqo yangi turi bo'lib qoldi va ulardan yuqori sinflarda hamda o'rta maxsus kasb-hunar kollejlarda „Informatika va hisoblash asoslari“ kursini o'rganishda ko'rsatmali qo'llanma sifatida foydalanilmoqda. Bunda ular o'rganish obyekti va o'quvchi foydalanishni o'zlashtirishi lozim bo'lgan uskuna rolini o'ynaydi.

Maktablarda maxsus kompyuterni o'qish, hisoblash malakalarini hosil qilish uchun, shu malakalarning qay darajada shakllanganini tekshirish uchun nazorat moslamalari sifatida foydalaniladi.

### **PROGRAMMALASHTIRILGAN O'QITISH MASHINASI**

O'qitish mashinalarining o'z vazifasi bor va maqsadga muvofiq ravishda qo'llanadigan sohasi mavjud. Ular o'quvchilarning programmalashtirilgan ta'lim sharoitidagi mustaqil ishlarini boshqaradi, shuningdek, o'quv-o'zlashtirish to'g'risida o'qituvchini o'z vaqtida

xabardor qiladi. Kompyuterlar ko'p hollarda (xususan, nazoratda) programmalashtirilgan darsliklar va o'quvchilarning imkoniyatlaridan ustunlik qiladigan didaktik imkoniyatlarga ega. Ular o'quv jarayonlarini tashkil etishda programmalashtirilgan ta'limni qo'llash sohasini kengaytirdi.

Mashinali programmalashtirilgan ta'lim algoritmlashdan ajralmasdir. Chunki o'qish jarayonini (o'quvchilar va o'qituvchilar faoliyatini, shuningdek, o'quv materiallarining) ana shu jarayonning borishi bo'yicha jiddiy determinlangan (ifodalangan ko'rsatmalar tuzish nihoyatda zarur shartdir). Mashinaga kiritilgan har qanday ta'limiy programma o'qitishning algoritmi bo'lib, u teskari aloqa mavjudligini, o'qitish va o'qishning borishini boshqarishni ta'minlaydi. Ta'limni algoritmlashtirishning o'zi uning sifati va samaradorligi masalasini hal qilmaydi. Hamma narsa ta'limning borishini nima maqsadda, nimalar vositasida boshqarishga bog'liqdir.

Mustaqil ijodiy tafakkurning rivojlanishi mashina ta'limida izlanishlarni talab qiladi. Bunda fikrlashning qandaydir eng umumiy usullari haqida va aqliy faoliyatning mazmunan umumiy algoritmlari haqida so'z yuritish mumkin. Lekin bu talab o'quvchilarning o'zi olib boradigan faol izlanishlarini hamda yechimning evristik usullarini olishni ham nazarda tutadi. Onglilikka intilish har bir o'quvchi xarakterining xususiyati o'quv ishi metodi bilan tarbiyalanadi. Ana shundagina o'quvchining faolligi bilan chambarchas bog'lanadi.

Bilishning ilmiyligi va sistemaliligi mashinaga kiritilgan dastur materialini, matnlarni — situativ yo'sindagi didaktik materialni, savollar va topshiriqlarni, ishga doir o'yinlarni tuzishni ta'minlaydi. Mana shu prinsipni amalga oshirish o'quvchidan faqat asosiy qoidalarni bilishni emas, balki muayyan hodisalarning umumiy qonuniyatlarini va o'ziga xosligini ko'ra olishni ham talab qiladi. Masalan: tabiatshunoslik bo'yicha, matematika bo'yicha. Javob qalami bilan ta'minlangan maxsus kompyuterning displeylarida o'quvchilar ko'rsatmali vositalar yordamida qo'shish, bo'lish va ko'paytirishlari mumkin. Masalan, displeyda 9 ta baliqcha, 3 ta stakan tasvirlangan. O'quvchilarga baliqchalarni stakanlarga baravar taqsimlash taklif qilingan. Bunda o'zlashtirishga bir qadam olg'a tashlaydilar. Shu yo'sinda boshqa arifmetik amallar ham bajariladi.

Kompyuterdan o'quvchilar bilan turli didaktik o'yinlarni o'tkazishda, geometrik figuralarni taqqoslashda, hushyorlik va hozirjavoblikni rivojlantiradigan mashg'ulotlarni tashkil etishda ham foydalaniladi.



O'rtta va yuqori sinflarda barcha o'quv predmetlarini o'rganish jarayonida kompyuterni qo'llash mumkin. Botanika darslarida u yoki bu o'simliklarning tuzilishi modellashtiriladi. Kimyo darslarida kimyoviy reaksiyalar, texnologik jarayonlar tuziladi, ayrim kimyoviy elementlar qo'llanadigan sohalar o'rganiladi. Tarix darslarida xronologik jadvallar tuziladi, tarixiy voqealar tavsifining algoritmlari qo'llanadi. Geografiya darslarida ayrim mamlakatlar, iqtisodiy tumanlar va h.k.lar geografik tahlil qilinadi. Kompyuter yordamida o'quvchilarga mavzu bo'yicha ko'rsatmali axborotlarni tez berish, nazorat topshiriqlari, mashqlar va boshqalarni tavsiya etish mumkin.

O'quv jarayonida kompyuterlarni qo'llash tegishli algoritmlar va tillarda foydalanib, plyonkaga yozilgan maxsus o'quv dasturi zarur. Kompyuterlar uchun bunday dasturlarni o'quv predmetlari metodikasi sohasidagi kerakli malakaga ega bo'lgan mutaxassislar ishlab chiqadi. O'rtta maktabda kompyuterdan foydalanishning birinchi bosqichida uni praktikumlar davomida qo'llaniladi. Bunday mashg'ulotlarda o'quvchilar ayrim dasturlarni ishlab chiqadilar. Keyinchalik, mazkur o'quv predmeti bo'yicha dasturning butun kompleksi ishlab chiqilgach va barcha xonalar texnika bilan jihozlangach, kompyuterdan ko'p darslarda foydalaniladi. Ayniqsa, fizika-matematika, kimyo-biologiya turkumidagi o'quv predmetlarini o'rganish jarayonida kompyuterlarni qo'llash uchun boy imkoniyatlar bo'ladi. Hozirgi kunda fizika, kimyo, geografiya, biologiya kurslari ishlab chiqilgan. Dasturning birinchi bosqichida kompyuterlar metodika kabinetlariga to'planadi va u yerdan tumanlarda, filmotekalarda to'plangan o'quv kinofilmlari kabi maktablarga tarqatiladi. So'ngra kompyuterlar uchun tuzilgan dasturlar har bir maktabning o'z boyligiga aylanadi. Tajribadan ko'rinadiki, kompyuterlar avval yuqori sinflarda kengroq qo'llaniladi, keyin asta-sekin quyi sinflarga ham o'tadi. O'qituvchilar kompyuterlardan namoyish uchun foydalanish o'rniga ularni yangi tushunchalar, mavzular, bo'limlar va kurslarni o'rganish jarayonida muntazam qo'llay boshlaydilar.

Kompyuterlar o'quvchilarning ta'limiy o'zlashtirish sifatini nazorat qilishni individuallashtirishga imkon yaratadi. Bunda o'quvchilar mustaqil shug'ullanadilar ular o'zlarini nazorat qilish jarayonida xatolarini topadilar, programmashtirilgan tipdagi mashqlarni bajarish asosida mazkur xatolarni bartaraf etish yo'llarini izlaydilar.

Kompyuterlar o'quv predmetlari bo'yicha sinfdan tashqari ishlarda ham keng qo'llanadi, bu esa o'quvchilar uchun dasturning u yoki bu bo'limi bo'yicha olgan bilimlarini chuqurlashtirish, o'rga-

nilayotgan masalalarning ishlab chiqarish texnik tasvirlarini ko'rib chiqish imkoniyatini yaratadi. Tanaffus paytlarida kompyuterlardan o'quvchilarni ovuntiradigan va ularning hordig'ini chiqaradigan qiziqarli o'yinlar uchun foydalanish mumkin.

Bolalar charchab qolishini, shuningdek, zo'riqishning oldini olish uchun maxsus fiziologik-gigiyenik tadqiqotlarda har bir yoshdagi o'quvchilarning kompyuter bilan shug'ullanishi davomiyligining maqsadga muvofiq normativlari belgilangan. Maktablarda ishlatiladigan kompyuterlar uchun displeylarda qo'llanadigan shriftlarning o'lchamlari, tasvirlarning yorqinligi darajasi va ekraning yoritishi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Mana shularning hammasi ta'lim jarayonida kompyuterdan samarali va maqsadga muvofiq yo'sinda foydalanishni ta'minlaydi.

Mashinali programmalashtirilgan ta'lim g'oyasini tanqid qiluvchilar, odatda, bunday ta'limda o'quvchilarni tarbiyalab bo'lmaydi deb da'vo qiladilar.

Shubhasizki, tarbiya ko'p jihatdan o'qituvchining o'quvchi bilan jonli aloqasiga bog'liq. Bunda uning roli juda katta. Kompyuter o'qituvchining o'rni bosa olmaydi. Chunki o'qituvchi o'quvchilarga faqat bilimlar berib qolmaydi, ular uchun namuna ham bo'ladi. Ammo programmalashtirilgan ta'limning borishi va metodikasi o'quvchilarda qator ijobiy sifatlarni: mantiqiy va mustaqil fikrlashni, muayyan tizimda o'zi nazorat qilish bilan muntazam shug'ullanishni, qiyinchiliklarni bartaraf etishni, intizomlilikni va hokazolarni tarbiyalaydi. Shunga ko'ra kompyuterdan foydalanadigan programmalashtiriladigan ta'limda o'qish bilan tarbiyaning birligini, ta'limning ana shu shaklini tashkil qilishning pedagogik jarayondagi o'rni miqyosini to'g'ri belgilashni nazarda tutish kerak.

Programmalashtirilgan mashinali ta'limda obrazli va mantiqiy fikrlashni birlashtirish, amalga oshirish ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Chunki programmaning kadrlari asosan yozma matndan tuzilib, ko'pincha ularda obrazli idrok etiladigan materialni joylashtirish imkoniyatini beradi. Bularga sxemalar, diafilmlar, kinofilmlar, ish o'yinlari kirmaydi. Obrazli va mantiqli idrokning (ekskursiya, amaliy ish va laboratoriya, rang-tasvir asarlaridan foydalanish, musiqa, teatr singari) shakllarini kompyuter ta'limida ham amalga oshirish lozim, aks holda u bilimlarning ongliligi va puxtaligini, nazariya bilan amaliyotning birligidan iborat didaktik prinsiplilikning amalga oshuvini ta'minlay olmaydi.

Ta'limdagi tushunarlilik prinsipining eng muhim talabi o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, ilgari o'zlashtirilgan bilimlarining

saviyasi va hajmini hisobga olishdir. Bu talab kompyuterli ta'limda programma tuzish ham, ta'lim jarayonini amalga oshiradigan programmani tuzuvchi, odatda, har bir yoshdagi o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonidagi psixologik imkoniyatlarini, muayyan va muhim o'quv materialini to'g'ri uyg'unlashtirishni, obrazli idrok qilish uchun qo'llanmadan o'z vaqtida foydalanishni nazarda tutadi. Har bir o'quvchi muvaffaqiyatli ishlashi uchun sharoit yaratish ham tushunarliklik prinsipining zarur shartidir. Mashina yordamida amalga oshiriladigan va o'quvchilarning yangi bilim olib, to'g'ri javob qaytarishi bilimning olg'a bosishini ta'minlaydi. Lekin bunda ancha kuchli o'quvchilarning potensial imkoniyatlarini nazarda tutib, ular topshiriqni oldinroq bajarib bo'lgan hollarda foydalanish uchun qo'shimcha kadrlar tayyorlab qo'yish o'quvchilarning bilim va malakalari bir xil bo'lib qolishining oldini olishga yordam beradi.

O'quv jarayonini bunday tashkil qilishning shartlaridan biri jamoa bilan umumiy ishlashdir. Bunda hamma uchun materialning bitta qismini baravar o'rganish imkoniyati saqlanadi, natijada barcha o'quvchilarni tarbiyalash va o'qitish pedagogik birlikda amalga oshadi. Programmalashtirilgan ta'limning prinsiplari buzilsa, uning talablariga rioya qilinmasa, o'quvchilar bir-birlarini tushunmay qoladigan darajada uzoqlashishlari mumkin.

## PROGRAMMALASHTIRILGAN TA'LIMNING METODLARI

Turli didaktik vazifalarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan programmali qo'llanmalar va shartli ravishda „o'qitish mashinalari“ deb atalgan maxsus texnik vositalar programmalashtirilgan ta'limning vositalariga kiradi. Programmali qo'llanmalar, programmali darsliklar, programmali masala va mashqlar to'plamlari, programmali kontrol topshiriqlar va amaldagi darsliklar uchun programmali qo'shimchalarga bo'linadi. Programmali darslikda programmalashtirilgan ta'limning barcha asosiy xususiyatlari va xarakteristikalari to'la amalga oshirilishi mumkin.

**Programmali masalalar va mashqlar to'plamini o'zlashtirish.** Ko'p mashqlar, bajarishni va programmali masalalar yechishni talab qiladigan o'quv predmetlari bo'yicha yaratiladi.

Mashqlarga qo'yiladigan talablar:

- kalit bo'yicha oson tekshiriladigan bo'lim;
- qisqa javobni talab qilish;
- faqat bitta qiyinchilikka ega bo'lish;
- muayyan va aniq bo'lishi kerak.

Darslar uchun programmali qo‘shimcha (butun kursni qamragan darsliklar). Ularda o‘quvchilarga oddiy darslikdan qaysi materialni o‘qish va uni o‘zlashtirish uchun nima qilish kerakligi yo‘l-yo‘riqlari ko‘rsatiladi. Materialning mazkur qismini o‘zlashtirish uchun topshiriq berilgan va uning to‘g‘ri bajarilganini kalit bo‘yicha tekshirish imkoniyati yaratiladi.

O‘quv jarayonining bosqichlari:

1. Zamonaviylik.
2. Ishonarlilik.
3. Qimmatlilik.
4. To‘liqlik.
5. Tushunarlilik.
6. Aniqlik.
7. Qisqalik.
8. Chuqurlilik.
9. Asoslilik.

### MAKTABDA KOMPYUTERNI QO‘LLASH SOHALARI

Hozirgi kunda o‘qituvchi mashg‘ulotlarni tashkil etish, o‘tkazish va nazorat qilishga, darsga tayyorlanishda uning mazmunan hamma o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘lishini ta‘minlaydigan materialni izlashga juda ko‘p qimmatli vaqtni sarflaydi. Ana shu sermehnat va eskirgan jarayonni kompyuterdan foydalanish orqali uzluksiz to‘ldirish va yangilash mumkin.

Butun kurslar bo‘yicha o‘quv dasturlarining muammoli yo‘naltirilgan paketlariga ega bo‘lish o‘quvchilarga „o‘qituvchi-o‘quvchi“ tizimida axborotlarni berish, qayta ishlab chiqish va takrorlash ishlarini mutlaqo yangichasiga tashkil etish imkonini beradi.

Kompyuter o‘quvchining eskirgan aqliy ishini kamaytirishi va unga ijodiy faoliyat uchun imkoniyat yaratish kerak. O‘qituvchi o‘quvchilarning qobiliyatlari va tayyorgarliklarining saviyasini hisobga olib, ular bilan individual ishlashga ko‘proq e‘tibor berish mumkin.

„O‘quvchi-kompyuter“ tizimi muloqotning pedagogik maqsadiga bog‘liq bo‘lib, uni 3 ta darajaga ajratish mumkin:

1. Faktli muloqot. Javob axborotning rasmiy talabi asosida tuziladi.
2. Yo‘naltirilgan muloqot. Tavsiya etilgan masalani ta‘limning maqsadini hisobga olmay yechish.
3. Ta‘sir ko‘rsatuvchi muloqot. Masalani o‘quvchi „modeli“ning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yechish.

Maktabda „o‘quvchi-kompyuter“ tizimidan foydalanishda javob berishdan cho‘chib qolish psixologiyasi barham topadi. Haqiqatan, nutqning kamchiligi, o‘zining fikrlarini shunchaki so‘z bilan ifodalay olmaslik, ko‘p o‘quvchilarga og‘zaki javob qaytarishda o‘z bilimlarini namoyish etish imkonini bermaydi, natijada o‘qituvchi ana shunday o‘quvchilarning bilimlarini to‘g‘ri baholay olmaydi.

Quyida o'quvchi bilan kompyuter o'rtasidagi muloqotdan bir misol keltiriladi:

— Men uchga bo'linish belgisini qanchalik bilishingni tekshiraman, ekranda ko'rinadi.

— Aytib berish zarurmi? Ha — 0, Yo'q — 1.

— 1.

— Nechta misol yechishni xohlaysan?

— 2.

— Qo'y-e, bu arzimagan ish — tanbeh beradi kompyuter. —

Loaqa! 5 ta misolni ol.

— 6889010 soni 3 ga bo'linadimi?

— Aqlli ekansan, 513987 soni 3 ga bo'linadimi?

— Sen deyarli mendek hisoblayapsan, — ajablanadi kompyuter, — qani, yana aytgin-chi: 9726837 soni 3 ga bo'linadimi?

— 1

— Mening davrimda bunday javob uchun metallolomga topshiradilar. Senga 3 ga bo'linish belgilarini aytish kerakmi? Mana shuda, yana rad etadi. Qara, xato nimada? Bu sondagi raqamlarning yig'indisini ayt. To'g'ri. 3 ga bo'linadimi? E, bu qanaqasi — shikoyat qiladi kompyuter, — iqrор bo'l, sen axir karra jadvalni bilmaysan-ku. Bo'yingga ol, men hech kimga aytmayman.

## **?** *Savol va topshiriqlar*

1. Siz programmalashtirilgan ta'limning qanday didaktik asoslarini bilasiz?
2. O'qitish dasturini tuzishning chiziqli va tarmoqlangan prinsiplarining umumiy asoslarini ifodalang.
3. Programmalashtirilgan ta'lim vositalariga nimalar kiradi?
4. Pedagogik praktika vaqtida o'qituvchining programmalashtirilgan ta'limning shakllari, metodlari va vositalaridan foydalanish bo'yicha ish tajribasini o'rganing.





## **XIX BOB. INNOVATSION PEDAGOGIKA**

### **INNOVATSION PEDAGOGIKANING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI**

Bu hozircha norasmiy atama bo'lib, lekin butun jahon mutaxassislari an'anaviy pedagogika tanqidi bo'yicha bir fikrdadirlar. Hozir paydo bo'layotgan yangi fan haqida jiddiy fikrlar aytilyapti. Uning asosiy vazifasi hukmron bo'lib turgan butun o'quv-tarbiya tizimi nazariyasini innovatsion asosda qayta tashkil etib o'zgartirishdir.

Innovatsion pedagogika — hukmron nazariya, nazariy va amaliy muammolarni yechish asos etib olingan. Innovatorlar fikricha, odatdagi mumtoz pedagogik nazariyalar eskirib qolgan, yangi sharoitda hozirgi avlodni bu yo'l bilan tarbiyalash mumkin emas. Bu vaziyatda innovatsiya juda muhimdir.

Pedagogika — ta'lim-tarbiya to'g'risidagi ilmiy bilimlar tizimi. Obyektivlik, maqsadga muvofiqlik, mustahkamlik, bir-biriga zid bo'lmaslik esa uning asosiy xarakteristikalaridir. Insonning shakllanganligi, rivojlanganligi va tarbiyasi haqidagi bilim va ularning yuksalish darajasi talabga muvofiqligi obyektivlikning yagona talabidir.

Jahon pedagogika nazariyasi tarbiyaviy jarayonning hokimiyat yuqorisida turgan odamlarning g'oyalari qanday bo'lishi bilan bog'liq bo'lmasligini allaqachon e'tirof etgan. O'sib borayotgan avlod tarbiyasi juda jiddiy jarayon bo'lib, uni o'tkinchi narsalarga bog'liq qilib qo'yish mumkin emas. Chunki uni tashkil etuvchi qoidalar inson tabiati va uning rivojlanishi haqidagi obyektiv ma'lumotlarga ziddir.

Kuchli, ta'sirchan va mustahkam tarbiya tizimini faqatgina fan o'rnatgan obyektiv asoslar va amaliyotda tasdiqlangan qoidalar yordamida rivojlantirish mumkin. Bu, albatta, innovatsion pedagogika bilan bog'liqdir.

Demak, innovatsion pedagogikani, ko'pincha, an'anaviy, alternativ deb ataydilar. Bu fikrga qo'shilmaslik mumkin emas, hech bo'lmaganda eng oddiy tushunchalar bo'yicha: sinf ham, o'quvchi ham, mazmun va darsliklar ham yo'qolib ketmaydi-ku. Agar pedagogik tizim saqlanib qolsa, unda faqat uni mukammallashtirish haqida gapirish mumkin.

Faraz qilayotgan rivojlanish strategiyamiz „rivojlantiruvchi o'qitish“ yo'naltirishlaridan, eng avvalo, o'z intilishlarini maktabda

o'qishni boshlashgacha yaxshi rivojlantirish, tuzilishlarni shakllantirishga, o'tayotgan jarayonlarni qo'shib olib borishga qaratilgan. Bizning tutgan strategik yo'limiz „butun sivilizatsiyaning o'z avlodlari haqidagi g'amxo'rligi mantig'iga asoslangan didaktik va pedagogik tizim tuzishga amal qilishdir“. Xuddi ana shuning uchun metodologik asos negizi bo'lib, keng ma'noda tabiatni o'rgatuvchi xalq pedagogikasi hisoblanadi. Bolalarning qanaqa tug'ilishi bu hech kimga bog'liq emas, lekin har bir insonning yetarlicha rivojlanishi, yuqori darajaga erishishi, o'ziga yoqqan mashg'ulot bilan shug'ullanishi va hayotda o'z o'rnini topishi, o'z hayotini munosib o'tkazishi maktabga bog'liqdir. Har bir bolani sevib, hurmat qilib va uning rivojlanishi uchun kerakligicha sharoit yaratib berish kerak. Agarda tabiatni o'rgatuvchi pedagogika moslashishni talab etmagan bo'lsa, gumanistik pedagogika uni maktabdagi munosabatlar markaziga qo'yishi va u kerakligicha rivojlana olishi uchun hamma ishni bajarishni talab qiladi.

Gumanistik pedagogikani, ko'pincha, innovatsion deb ataydilar: lekin uning innovatsionligi faqatgina biz uchun, zamonaviy g'arb tizimlari allaqachon gumanistik yo'nalishga o'ta boshlab va asta-sekin yangi munosabatlarga aylana boshlagan. Gumanistik pedagogikani to'la ma'noda innovatsion deb aytish mumkin. U tashqaridan inyeksiya talab qilmaydi. Yuqori o'quv-tarbiyaviy ta'sir natijalariga tizimning ichki qayta tashkil etilishi evaziga erishiladi. Gumanizm (insonparvarlik) — insonning dunyodagi eng qimmatli ma'naviy boylıklarining yagona konsepsiyasidir. Bu konsepsiyaning asosiy qoidasi shaxs qadr-qimmatini himoya qilish, uning erkinlik, baxt, rivojlanish va o'z qobiliyatini namoyon etish huquqini tan olishdan iboratdir.

Insonparvarlik pedagogikasi o'z navbatida shaxsga qaratilgan. Uning belgilari:

— ma'lumotlarni egallab olish va ma'lum doiradagi mahorat va ko'nikmalarni yuzaga keltirish o'rniga psixik, jismoniy, intellektual (aqliy) rivojlanishga diqqatning qaratilishi;

— kuchlarni erkin, mustaqil fikrlovchi va harakat qiluvchi shaxsni shakllantirish uchun jamlash, har qanday hayotiy va o'quv vaziyatlarda asosli qarorni tanlab qabul qila oladigan insonparvar fuqaroni yetishtirish;

— o'quv-tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli qayta yo'naltirishga erishish uchun kerakli tashkiliy shart-sharoitlar bilan ta'minlash. O'quv-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirishda avtoritar pedago-

gikadan, pedagogik bosimdan voz kechib, o'quvchi va pedagog o'rtasida haqiqiy insoniy munosabatlar o'rnatish, o'quvchi faoliyati va shaxsiy erkinligida asosiy ahamiyat kasb etuvchi, shuningdek, shaxs tarbiyasiga qaratilgan pedagogikani tushunish kerak.

Insonparvarlik nuqtayi nazaridan tarbiyaning asl maqsadi har bir tarbiyalanuvchining munosabatlari, o'zlashtirish faoliyati, to'la huquqli subyektning mustaqil, erkin shaxs qilib yetishtirishdan iboratdir. Tarbiya jarayonining insonparvarlik darajasi, shu jarayonda shaxs o'zini namoyon eta olishi, o'zidagi hamma tabiiy imkoniyatlarini ochib bera bilishi, uning erkinlikka qobiliyati, ijodga mas'uliyatini ochib berishi uchun shart-sharoitlar yaratib berishi bilan belgilanadi.

Ta'lim berish va o'qitish birlashtiruvchi ko'rinishli kategoriyalar sifatida pedagogik ishlar va munozaralarda tarbiya tushunchasini ikkinchi o'ringa surib, uni yo'qqa chiqaruvchi muhim subyektiv-obyektiv ko'rinishdagi kategoriya — bu ta'limdir. Ta'limning o'ziga xos tomoni, u tarbiyani ijtimoiy hodisa sifatida pedagogik faoliyat, shaxsning shakllanishini o'ziga birlashtirib, ana shu uchta asoslardan real pedagogik jarayonni tuzadi, bu jarayon turli ta'lim-tarbiya konsepsiyalari, nazariyalari yordamida loyihalashtiriladi va ta'lim tizimi muassasalarida tatbiq etiladi.

Ta'lim tushunchasi, bu umumiy yaxlit funksional va mazmunli kategoriyadir.

Gumanistik pedagogika maktabi o'quvchiga moslashuvini va unga qulay sharoit va texnologik himoya bilan ta'minlashni talab qiladi.

Insonparvarlik maktabi amaliy innovatsion faoliyatning aniq shakl va uslublarini ishlab chiqqan. Quyida ulardan ba'zilari keltirilgan:

— o'quv-tarbiya faoliyatini differensiallash;

— o'quv-ta'lim jarayonlarini har xil shaxs xislatiga qarab muvofiqlashtirish;

— har bir tarbiyalanuvchi qobiliyati va qiziqishini rivojlantirish uchun kerakli sharoitlarni yaratib berish;

— o'quv-tarbiya faoliyatining qulayligi;

— psixologik himoya;

— o'quvchiga va uning kuchi hamda imkoniyatlariga ishonish;

— o'quvchini qanday bo'lsa shunday qabul qilish;

— ta'lim-tarbiya ishlari muvaffaqiyatini ta'minlash;

— maktabning maqsadli yo'nalishini o'zlashtirish;

— har bir o'quvchi rivojlanish darajasining asoslanishi;

— sirtqi ta'lim (eksternat)ning o'quvchi bilan ma'naviy aloqasi yo'qligi va sababli to'xtash;



— o‘qituvchining shaxsiy ichki yo‘l-yo‘riqlari va qayta yo‘nal-tirish;

— insonparvarlik ta‘limini kuchaytirish.

Insonparvarlik pedagogikasini statistik baholash juda qiyin. Ammo shu narsa aniqlanganki, autogen tinchligi, empatiya va so‘zsiz ma‘qullash o‘quvchilar rivojlanishi bilan moslashib, bog‘lanib ketishi, shuningdek, intizom va maktabga salbiy munosabat kabi muammolar bilan yomon moslashuvi aniqlangan.

### **INNOVATSION JARAYONLAR RIVOJLANISHINING UMUMIY G‘OYALARI (YO‘NALISHLARI)**

Innovatika muammolariga murojaat etish va ularni muhim zamonaviy ilmiy fikrlash yo‘nalishlariga qo‘shish jamiyatda innovatsion jarayonlar dinamikasining o‘sib borayotganini tushunish natijasida vujudga keldi. Bizning adabiyotlarimizda innovatsiya muammolari ko‘p vaqtgacha iqtisodiy tadqiqotlar tizimida o‘rganib kelindi. Ammo vaqt o‘tishi bilan jamiyat hayoti faoliyatining hamma sohalarida innovatsion o‘zgarishlar asosida sifat xarakteristikalarini baholash muammosi yuzaga keldi. Ammo bu o‘zgarishlarni faqatgina iqtisodiy nazariyalar bilan aniqlab bo‘lmaydi. Innovatsion jarayonlarni o‘rganish uchun boshqa yo‘llar zarur, unda innovatsiya tahlili faqat fan va texnika erishgan zamonaviy yutuqlardan foydalanishnigina o‘z ichiga olmay, balki boshqarish, ta‘lim, huquq va boshqa sohalarni ham qamrab oladi.

Innovatsiya pedagogik muammolar yechimini izlash, ta‘lim sohasida innovatsion jarayonlarning borishi, xususiyatlari, mazmuni, tarkibi va klassifikatsiyasini tekshirish natijalarini tahlil qilish bilan bog‘liq.

„Innovatsiya“ tushunchasi birinchi marta XIX asrda madaniyatshunoslar izlanishlari natijasida paydo bo‘ldi va bir madaniyat elementlarini boshqasiga joriy qilish ma‘nosini bildirgan. Uning bu ma‘nosi etnografiyada hozirgacha saqlanib qolgan.

XX asr boshlarida biror bilim sohasiga yangiliklarni kiritish va qo‘llash fani yuzaga kelgan. U mahsulot ishlab chiqarish sohasida texnik yangiliklarni kiritish qonuniyatlarini o‘rgana boshladi. 30-yillarda AQSHda „innovatsion firma siyosati“, „innovatsion jarayon“ atamaları paydo bo‘ldi. 60—70- yillarda g‘arbda firmalar va boshqa korxonalar amalga oshirayotgan yangiliklarni emperik tekshirishlar keng quloqch yoydi. Shu bilan birga, diqqat ikki asosiy tekshirishlar

sohasiga qaratiladi, ularning har birida o'zlarining nazariy-metodologik madaniyati ustun turadi.

Firma yangiliklarni kiritish tashabbuskori va yaratuvchisi sifatida namoyon bo'lib, bu uning yangiliklarni kiritishga „sezuvchanligi“, „ta'sirchanligi“ va shu ta'sirchanlik boshqarishning tuzilishi va uslublari bilan bog'liqdir.

Qaror qabul qilish jarayoni konsepsiyasi tekshirishlar dasturi sifatida qaralib, bunda alternativlarni tiklash va tahlil qilish, qabul qilingan qarorlarni ketma-ket bosqichlar bilan amalga oshirishga o'tiladi.

Bu ikki sohada yangiliklar kiritish va amaliy tekshirishlar bir qator fanlarning nazariy yangiliklaridan foydalanishni taqozo etadi.

Olimlar yangiliklar kiritish va tekshirishni uch bosqichga ajratadilar:

*Birinchi bosqich* — yangiliklar muvaffaqiyatiga yordam beruvchi yoki to'sqinlik qiluvchi omillarni o'rganish va turli xil yangiliklarning empirik ma'lumotlarini tahlil qilish bilan bog'liq.

*Ikkinchi bosqich* — yangilik kiritish jarayonining o'zini bir soha muhitidan ikkinchi sohaga olib o'tish mexanizmini hisobga olish bilan birgalikda o'rganish deb qaraydilar.

*Uchinchi bosqichda* tadqiqotchi diqqati turli xil innovatsion vaziyatlarni tahlil qilish, tavakkalchilikni baholash metodlarini ishlab chiqish, yangiliklarni kiritish sohasida tavsianomalar yuzaga keltirishlariga qaratiladi.

Pedagogik innovatsion jarayonlarni g'arbda 50- yillar oxirlaridan boshlab, bizning mamlakatimizda esa so'nggi 10 yillikdan boshlab olimlar maxsus o'rgana boshladilar. Jahon pedagogik jamoatchiligining qiziqishi maxsus innovatsion xizmat, nashriyot faoliyati jurnallar va informatsion maqolalar ko'rinishida paydo bo'lyapti. Xususan, YUNESKO qoshida Ta'limni rivojlantirish Osiyo pedagogik innovatsiyalar markazi mavjud bo'lib, dunyodagi turli mamlakatlardagi pedagogik yangiliklarni umumlashtirib, ta'lim masalalari bo'yicha xalqaro byuro bilan birgalikda pedagogik jamoatchilikka maxsus nashrlarda ular haqida ma'lumotlar tarqatadi.

Bizning mamlakatimizda pedagogik innovatsiyaning rivojlanishi keng jamoatchi pedagoglar harakati, maktabning tez rivojlanishiga bo'lgan talab va uni pedagoglar amalga oshira bilmasliklari o'rtasida yuzaga kelgan qarama-qarshiliklar bilan bog'liq. Shu sababli yangi bilimlarga bo'lgan talab, yangi „yangilik“, yangi „innovatsiya“, „innovatsion jarayon“ tushunchalarini anglash talabi ortdi.

„Innovatsiya“ soʻzi lotin tilidan kelib chiqqan boʻlib, yangilik kiritish degan maʼnoni bildiradi.

Innovatsion jarayonning mikrostrukturasini oʻrganib, olimlar yangilik kiritishning „hayotiy sikli“ konsepsiyasini alohida koʻrsatadilar. U yangilik kiritish davomida oʻtib boradigan jarayon degan fikrdan kelib chiqadi. Bu jarayon yangilikni yaratish va ijro etishni taʼminlovchi faoliyatlarni turlarga ajratuvchi bosqichlarga boʻlinadi. Hozirgi davrga kelib, ilmiy adabiyotlarda quyidagi innovatsion jarayonni bosqichlarga ajratish sxemasi mavjud:

1. Yangi gʻoyaning paydo boʻlish yoki yangilikning yuzaga kelish bosqichi, uni shartli ravishda fundamental va amaliy-ilmiy tekshirishlar (yoki birdan paydo boʻladigan) natijalaridan kelib chiqadigan yangilik bosqichi deb ataydilar.

2. Kashf etish bosqichi, yaʼni obyekt moddiy yoki maʼnaviy mahsulot namuna koʻrinishidagi yangilik yaratishdir.

3. Yaratilgan yangilikning amaliy qoʻllanishi uni qoʻshimcha ishlab mukammallashtirish orqali amalga oshiriladi. Bu bosqich yangilik kiritish orqali yuqori samaradorlikka erishish bilan yakunlanadi. Shundan soʻng yangilikning mustaqil mavjudligi boshlanib, yangilik kiritish jarayoni keyingi bosqichga oʻtadi. Bu bosqich faqatgina yangilikni qabul qilish sharti bilan amalga oshadi. Yangilikdan foydalanish davrida keyingi bosqichlar koʻrinadi.

4. Bu bosqichda yangilikning tarqalishiga, uning yangi sohalariga diffuziyalashib (qoʻshilib), keng tatbiq etilishidan iborat.

5. Yangilikning biror sohada hukmron boʻlishi, bunda, xususan, yangilik oʻz yangiligini yoʻqotib, yangilik sifatida mavjud boʻlmay qoladi.

6. Yangilik qoʻllanilishining doirasi qisqarib, uning yangi mahsuldorligi bilan almashadi.

Yuqorida keltirilgan innovatsion jarayonlar bir-birini ketma-ket almashtirib, muntazam tizim, uning real rivojlanib borishining soddalashtirilgan sxemasini ifodalaydi. Biror aniq innovatsion jarayon bu bosqichlarni oʻz ichiga olib, ular ketma-ketligi va oʻzaro bogʻliqligiga soʻzsiz rioya qilishi shart emas.

Yangilik kiritishni muvofiq yangilik yaratish va tarqatish kompleksiga maqsadga muvofiq jarayon sifatida qarab, uning maqsadi inson talab va ehtiyojlarini yangi vositalar bilan qondirishdan iborat boʻlib, bu uning samaradorligini, muntazamligini va hayotiyligini taʼminlovchi uslub va tizimlarni maʼlum sifat oʻzgarishiga olib keladi.

Innovatsion jarayon boshqa sifatli holatga o'tish, eskirib qolgan qoida va vaziyatlarni qayta ko'rib chiqish bilan bog'liq bo'ladi.

Yangilik kiritish ichki mantiq va yo'nalishga ega bo'lib, u yangilik g'oyasi (fikri) tug'ilishidan to uning foydalanila boshlanishigacha bo'lgan harakatlarni rivojlantirish hamda innovatsion jarayon ishtirokchilari o'rtasidagi munosabat mantiqini ifodalaydi.

Shu tariqa yangilik kiritish dinamik tizim bo'lib, ichki mantiq kabi vaqt davomida qonuniy rivojlanishi uning atrof-muhit bilan o'zaro bog'liqligini ifodalaydi. Innovatsion jarayon tuzilishi yangilikning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tib borishi bilan o'zgarib boradi. Shu bilan birga, yangilikning dinamik xususiyatlari va uning natija-yakuni hamda samarasiga bog'liq bo'ladi. Yangilikning yakunlanganligi yoki uning imkoniyatlari muayyan maqsadning amalga oshirilganlik darajasi innovatsion jarayonning hamma bosqichlarida qanchalik muvaffaqiyatli bo'lishiga bog'liqdir. Yangilikning samaradorligini uning natijasidan belgilash kerak.

„Innovatsiya“ atamasiga yaqin bo'lgan tushunchalar „o'zgarish“, „mukammallashtirish“, „isloh qilish“ tushunchalari hisoblanadi, ammo ular o'rtasida ma'lum farqlar ham mavjud. Yangilik pedagogik tekshirishlarni baholashning asosiy o'lchovlaridan biri bo'lib, u ijodiy jarayonning asosiy natijasidir. Bu o'z navbatida har qanday yangilik kiritishning mustaqil qiymati va xususiyatidir.

„Yangi“ tushunchasi innovatsion pedagogikada markaziy tushunchalardan biri hisoblanadi. Agar avvalgi „birinchi yaratilgan“ ta'rifi ilgari umuman ma'lum bo'lmagan biror narsa haqida tasavvur bersa, keyingi — „yaqindan beri“ va ayniqsa „yangidan ochilgan“ kabi ta'riflar esa yangilikda qandaydir darajada „eskilik“ elementi, nimadir ilgari bo'lgan biror narsa borligini ifodalaydi. Shu tariqa yangilikning biron turi haqida gapirish mumkin.

Birinchi marta yaratilgan yangilik, bu yangilik ixtiroga teng, ya'ni o'rnatilgan yangi haqiqat demakdir.

Har qanday vositaning yangiligi ham shaxs, ham vaqt (tarixiylik) nisbiydir. Bir o'qituvchi uchun yangi bo'lgan narsa, boshqasiga yangilik bo'lmasligi mumkin. Yangilik doimo konkret-tarixiy xarakterda bo'ladi. Aniq bir vaqtda vujudga kelgan, aniq tarixiy bosqichdagi vazifalarni progressiv ravishda hal etgan yangilik tezda ko'pgina kishilarning mulkiga aylanishi, hamma tomonidan qabul qilingan normaga, ommaviy tajribaga aylanishi yoki eskirishi,

hatto keyinroqqa borib taraqqiyotga tormoz bo'lishi mumkin. Masalan, Y. A. Komenskiyning sinf-dars sistemasi, Munavvar qorining diniy tarbiya nazariyasi, Ibn Sino, Beruniy, Ulug'bek, Avloniyilar ilgari surgan ta'lim jarayonini ommalashtirish nazariyasi va boshqa yangiliklar o'z davrining buyuk g'oyalari bo'lgan va shunday bo'lib qolaveradi.

## **?** *Savol va topshiriqlar*

1. „Innovatsiya“ atamasini siz qanday tushunasiz?
2. Innovatsion o'quv jarayonini yo'lga qo'yishda nimalar talab qilinadi?
3. Innovatsion ta'lim-tarbiyada eng yuqori natijalarga erishish uchun nimalar qilinishi kerak?
4. Gumanistik pedagogikani, ko'pincha, innovatsion pedagogika deb atashadi. Bu haqda sizning fikringiz qanday?
5. Pedagogik praktika davrida o'quv jarayonida o'qituvchi innovatsion pedagogikani qanday amalga oshirganligi haqida kuzatganlarinigizni so'zlab bering.



### III QISM



## XX BOB. TARBIYA NAZARIYASI

### TARBIYA JARAYONI VA UNING MOHIYATI

Ta'lim nazariyasi bo'limini o'rganishda o'quv jarayoni o'zining butun mazmuni, tashkil etilishi, o'qituvchining faoliyat xarakteri bilan o'quvchilarni faqat bilimlar bilan qurollantirishgagina emas, balki ularni yaxshi xulq-atvor egalari qilib tarbiyalashga ham qaratilganligiga ishonch hosil qildik. Biroq tarbiya vazifalarini to'la ma'noda faqat o'quv jarayonida hal etish mumkin emas.

Tarbiya ta'lim berish bilan mustahkam aloqada bo'lgani holda o'ziga xos qonuniyatlarga ham egadir. Ta'lim va tarbiya yagona jarayondir. Lekin ular bir-biriga aynan o'xshash emas. Ta'lim va tarbiyaning birligi, avvalo, ular maqsadining umumiyligidan iborat.

Bir butun pedagogik jarayonda ta'lim doimo tarbiyaviy vazifalarni, tarbiya esa hayotni bilish, unga tayyorlanishdek mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyaning vazifalari ko'pqirralidir. Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchilarni bilimlar bilan qurollantirish bo'lsa, tarbiyada o'quvchining jamiyatimizda qabul qilingan axloq-odob qoidalariga mos keladigan e'tiqodini, axloqiy malaka va ko'nikmalarini, ehtiyoj va intilishlarini tarkib toptirish muhimdir.

Tarbiyashunos olim Abdulla Avloniy o'zining „Turkiy guliston yoxud axloq“ asarida inson kamolotida tarbiyaning rolini alohida ta'kidlab shunday degandi: „Janobi haq insonlarning asl xilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradigan qilib yaratgan. Lekin insondagi qobiliyatni kamolga yetkazmoq tarbiya vositasida bo'ladir. Agar bola yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanib, go'zal xulqlarga odatlanib katta bo'lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo'lib chiqadi. Agar tarbiyasiz, axloqi buzilib o'ssa, nasihatni qulog'iga olmaydigan, har xil buzuq ishlarni qiladigan, nodon, johil bir rasvoyi olam bo'lib qoladi. Tarbiya qiluvchilar tabib kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga „yaxshi xulq“ degan davoni ichidan, „poklik“ degan davoni ustidan berib, katta qilmog'i lozimdir. Zeroki, amri sharifi uzra xulqimizni tuzatmoqqa amr qilinganmiz. Lekin xulqimiz yaxshi bo'lishining asosiy panjasi tarbiyadir.

Axloqimiz binosining go'zal va chiroyli bo'lishiga tarbiyaning zo'r ta'siri bordir.

Sharti islomiyada o'z bolalarini yaxshilab tarbiya qilmoq otalarga farzi ayn, o'z millatining yetim qolgan bolalarini tarbiya qilmoq farzi kifoyadur, deyiladi.

*Har kishining dunyoda oromi joni  
tarbiyat,  
Balki oxirida erur dorulamoni  
tarbiyat.  
Tarbiyat hamroh etadur hur ila  
ruzvonlara,  
Gar desam bo'lmas xato jannat makoni  
tarbiyat.  
Ey, otalar! Jonlaringizdan suchuk  
farzandingiz,  
G'ayrat aylang, o'tmasun vaqt-zamoni  
tarbiyat.  
Moyai zilli humodur tarbiyaning soyasi,  
Bizda anqo tuximidek yo'q oshyoni tarbiyat<sup>1</sup>.*

O'quv jarayonini boshqarish nisbatan oson, uning natijalari darhol namoyon bo'ladi va ularni tekshirish mumkin. Tarbiya haqida buni aytish mumkin emas.

Bolaning o'sishi va tarbiyasi uning faoliyati jarayonida amalga oshiriladi. Ijtimoiy-foydali mehnat, o'yin va o'qish faoliyati, bo'sh vaqtdan oqilona foydalanish kabilar bolalarning hayotida katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bolalarning bunday xilma-xil faoliyatlarini to'g'ri tashkil etish, uni alohida yaxshi sifatlar, xarakter xislatlari, odatlar tarkib toptirishga qaratish tarbiyaning muhim vazifasi hisoblanadi.

Bolalarni tarbiyalash ular tug'ilgan vaqtdan boshlanadi va muntazam ravishda ta'lim berish bilan birga olib boriladi. Bola maktabga borganidan keyin bu jarayon davom ettiriladi. Maktabdagi tarbiya inson shaxsini tarkib toptirish yuzasidan rejalashtiriladigan ulkan ishning bir qismi, xolos. U bolaning ilgarigi tajribalarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Tarbiya o'quvchi maktabni tamomlaganidan keyin ham tugallanmaydi, balki muntazam davom ettiriladi.

---

<sup>1</sup> **Abdulla Avloniy.** Turkiy guliston yoxud axloq. „O'qituvchi“. T., 1967, 25-bet.

Pedagogikada tarbiyaning maqsadi, mazmuni, shakli va usullari tarbiyalanuvchi shaxsining qaror topishi bilan mustahkam bog'liq holda qarab chiqiladi.

Tarbiya tarbiyalanuvchining ruhiyatiga tarbiyachiga ma'qul bo'lgan sifatlarni singdirish uchun maqsadga muvofiq suratda va muntazam ravishda ta'sir etishdir.

O'qituvchi — tarbiyachi tomonidan tarbiyaviy jarayonga rahbarlik qilingan taqdirdagina tarbiyada biror maqsadga qaratilganlik, ma'lum bir tartib bo'lishi mumkin. Shunday qilib, tarbiya, avvalo, tarbiyalanuvchi shaxsining tarkib topish jarayoniga rahbarlik qilishni taqozo etadi.

Tarbiya davomida tarbiyalanuvchining qarashlari, hayotiy nuqtayi nazari asta-sekin tarkib topib boradi. U tarbiyalanuvchining xulq-atvori hamda tevarak-atrofdagi muhitning xilma-xil ta'sirlariga uning munosabatlarini belgilaydi. Shaxsning bu tutgan yo'li qancha aniq va izchil bo'lsa, tevarak-atrofdagi hayot sharoitlarining turlicha salbiy ta'siri shuncha kuchsiz bo'ladi.

Maktab sharoitida tarbiyaviy ishlar o'qituvchi-tarbiyachilar, sinf rahbarlari tomonidan amalga oshiriladi. Ular tarbiyani jamiyatning maqsadi hamda vazifalariga muvofiq ravishda tashkil etadilar.

Tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash bilan mustahkam bog'langan. O'z-o'zini tarbiyalash kishining o'z shaxsini o'zgartirishga qaratilgan faoliyatidir. O'z-o'zini tarbiyalash to'g'ri tarbiya berish bilan birga sodir bo'ladi va, ayni vaqtda, to'g'ri tarbiya natijasi hisoblanadi.

O'z-o'zini tarbiyalashning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun o'quvchi o'zini to'g'ri baholay bilishga o'rganishi, hayotda o'zi intilishi lozim bo'lgan idealni aniq tushungan holda o'zidagi ijobiy sifatlarni va kamchiliklarni ko'ra olishi muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinf o'quvchisining xatti-harakatidagi ayrim kamchiliklarni tuzatishga to'g'ri keladi. Bu kamchiliklar avvalgi tarbiya jarayonida, ko'pincha oilada tarkib topgan bo'ladi. O'qituvchi o'z harakatlarini va ota-onalarining harakatini bu kamchiliklarni bartaraf etishga qaratishi lozim. Odatda, buning uchun bolalarning oiladagi hayot sharoitlarini o'zgartirish, tarbiyalanuvchilarda noto'g'ri xatti-harakatni keltirib chiqaruvchi sabablarni yo'qotish talab etiladi.

Shunday qilib, tarbiyalash, o'z-o'zini tarbiyalash va qayta tarbiyalash jarayonlari o'zaro mustahkam bog'langan bo'lib, inson shaxsini tarkib toptirishning bir butun jarayonida doimo bir-biriga ta'sir o'tkazadi.



## TARBIYA QONUNIYATLARI VA QOIDALAR

Har bir ishning o'ziga xos, ma'lum qonun-qoidalarini bo'lganidek, bola tarbiyasining ham o'ziga xos bir qator muhim qonun-qoidalarini borki, ularga amal qilish tarbiya ishining samarali bo'lishini ta'minlaydi, chunonchi:

- tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi;
- tarbiyaning hayot, mehnat bilan, O'zbekistonimizning mustaqilligi, gullab-yashnashi yo'lida qilinayotgan fidoyi ishlar bilan bog'lanish;
- shaxsni jamoada, jamoa orqali tarbiyalash;
- tarbiyada bola shaxsini hurmat qilish va unga talabchanlik;
- tarbiyaviy ishlarning izchilligi, muntazamligi hamda birligi;
- tarbiyada o'quvchilarning yoshi o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish.

Quyida tarbiya jarayonining qonun-qoidalarini ko'rib chiqamiz.

### Tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi

Tarbiya maqsadini belgilashda jamiyat talablari, davr nafasi, milliy xususiyatlar asos qilib olinadi. Tarbiyaning maqsadi har tomonlama kamol topgan — mukammal inson shaxsini tarbiyalashdir.

O'qituvchilar jamoasi va har bir o'qituvchi-tarbiyachi ana shu maqsadlardan kelib chiqib, tarbiyaviy ishlarning vazifalarini belgilaydi, uning mazmunini aniqlaydi hamda maktab ish sharoitlarini hisobga olgan holda o'quvchilarni tarbiyalashning shakl va uslublarini tanlaydi.

### Tarbiyaning hayot bilan bog'liqligi qoidasi

Bu qoida tarbiyaviy ishlarning mazmuni va tashkil etilishini doimo yangilab turishni talab etadi. Tarbiyachilar bolalar tarbiyasini hayot bilan bog'lar ekanlar, ularga o'zlarida imon-e'tiqodni tarbiyalash imkonini beradilar.

Tarbiyaviy ishlar shunday tashkil qilinganda yoshlar jamiyat hayotiga faolroq jalb qilinadi, bu esa o'quvchi shaxsining tarkib topishiga yordam beradi.

## SHAXSNI JAMOADA VA JAMOA ORQALI TARBİYALASH

Ilg'or o'qituvchilar tajribasining ko'rsatishicha, o'quvchilar ahil jamoa bo'lib uyushgandagina tarbiya ishlarini amalga oshirish ancha yengil bo'ladi va muvaffaqiyati ta'minlanadi. Yaxshi uyushgan, sog'lom jamoada o'quvchilarning fikri juda katta tarbiyaviy kuchga ega bo'ladi va tarbiya jarayonida o'qituvchilarning tayanchiga aylanadi.

O'z manfaatini jamiyat manfaatlari bilan qo'sha bilish, bir-biriga o'zaro yordam berish kabi qimmatli fazilatlar avvalo jamoada shakllanadi. O'quvchilar jamoasida har bir shaxsning kamolga yetishi, hamda sinfda va umuman maktabda do'stlik rishtalarini mustahkamlash uchun qulay sharoit yaratmoq darkor. Shuni ham aytish kerakki, ba'zan tarbiya jarayonida jamoa bilan shaxs o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf qilishga ham to'g'ri keladi.

O'quvchilarda jamoa manfaatini ko'zlash, jamoachilik hissi, avvalo birgalikda o'qish va mehnat qilish jarayonida mustahkamlanadi.

O'qituvchi va tarbiyachi o'zining tarbiyaviy ishlarida hamma vaqt o'quvchilar jamoasiga va ular orasidagi faol o'quvchilarga tayanmog'i, o'quvchilarni turli ishlarni birgalikda bajarishga odatlantirib, ularga jamoachilik ruhini singdirib borishi lozim.

### TARBİYADA BOLA SHAXSINI HURMAT QILISH VA UNGA TALABCHANLIK

Tarbiyachi avvaliga bolalardan biror narsani talab qilib, so'ngra o'zining bu talabini unutib qo'ysa yoki keyingi ishlarida o'zi bu talabga xilof ish tutsa, bu hol tarbiyaga yomon ta'sir etadi. Biz bunday tarbiyachini o'z so'zida qat'iy turmaydigan kishi, deb ataymiz. U bolalarga topshiriq berib: „Bilib qo'yinglar, topshirilgan vazifani albatta tekshirib, tegishli bahoni qo'yaman“, — deb ogohlantiradi. Lekin, bolalarning topshiriqni bajargan yoki bajarmaganlarini aslo tekshirmaydi. Bolalar tartibni salgina buzsalar, u ko'p do'q-po'pisa qilib, ularga qarshi turli choralar ko'rajagini aytadi-yu, ammo amalda hech qanday chora ko'rmaydi. U, biror qiziq tadbir o'tkazishni bolalarga va'da qiladi-yu, sal orada va'dasini esdan chiqarib qo'yadi, bolalarda bunday tarbiyachiga izzat va hurmat paydo bo'lmaydi. Har bir pedagogning so'zi bilan ishi bir xil bo'lishi kerak. U o'z ishida va so'zida izchil bo'lmog'i lozim. Har bir tarbiyachi uchun bu narsa qonun sifatida tan olinishi shart.

Bolalarga birdaniga juda ko'p talab-qoidalarni taqdim qilish mumkin emas; bolalarni xulq va yurish-turish ko'nikmalariga o'rgatgan vaqtda ham xuddi o'quv predmetlari mazmuniga kiradigan ko'nikmalarni o'rgatishdagi tadrijiylik va tizimlilikka rioya qilish kerak. Shunday qilinsa, bolalar xulqiy ko'nikmalarni puxta, mustahkam o'zlashtiradilar.

Boshlang'ich ta'lim ustalari ish tajribalarining ko'rsatishicha, qayerda o'quvchilarga yuksak talabchanlik, hurmat, muhabbat, ishonch kuchli bo'lsa, o'sha yerda tarbiyaning ta'siri samarali bo'ladi.

Bolaga mehribonlik, hurmat va muhabbat bilan qarash uning kuchiga kuch qo'shadi, o'ziga bo'lgan ishonchni yanada orttiradi, bu, ayni chog'da, o'quvchilarda o'z o'qituvchisiga nisbatan hurmat, ishonch va mehribonlik uyg'otadi. Zotan, bolalar g'amxo'r, mehribon va talabchan o'qituvchini sevadilar, hurmat qiladilar va unga to'la ishonadilar. Mana shunday o'qituvchining bolalarga tarbiyaviy ta'siri kuchli bo'ladi, uning obro'yi ortadi. Agarda o'qituvchi o'z o'quvchilarining kuchiga va imkoniyatiga ishonch bilan qarasa, ular bu ishonchni oqlashga intiladilar.

O'qituvchi va tarbiyachilarning o'quvchiga nisbatan haddan tashqari talabchan va qattiqqo'l bo'lishi ham, va aksincha, bolalarga bo'sh muomala qilishi ham yaramaydi.

O'qituvchi va tarbiyachilar o'quvchilarga nisbatan talabchan bo'lishlari va qo'ygan talablarining o'quvchilar tomonidan so'zsis bajarilishiga erishmoqlari lozim. Bu esa bolalarni kattalar tomonidan qo'yilgan oqilona talablarni o'z vaqtida bajarishga odatlantiradi. Shu bilan birga, bolalar o'zlariga nisbatan ham talabchan bo'ladilar.

Tarbiya jarayonida bolalarga nisbatan o'qituvchilar, ota-onalar, bolalar va yoshlar tashkilotlari hamda barcha jamoatchilik tomonidan bir xilda talab bo'lishini, ya'ni talabda birlik bo'lishini ta'min etish g'oyat muhimdir.

Maktab ma'muriyati, sinf rahbarlari, o'qituvchilar bilan ota-onalar o'quvchilarga bir xilda talab qo'yishni ta'min etishlari kerak. Ota-onalar ham, o'z navbatida, bolalarni tarbiyalashni maktab bilan mustahkam aloqada olib borishlari hamda bolalarga nisbatan maktab bilan birga bir xil talab qo'yishlari lozim. Oila a'zolari: ota-ona, aka-uka, opa-singil va boshqalar o'rtasida ham bolalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda birlik bo'lishi zarurdir. Bolaning sinfdan-sinfga o'tishi, yoshining ulg'ayishi, saviyasining ortishi, dunyoqarash doirasining kengayib borishi bilan talablarning mazmuni va shakli ham o'zgarib, ortib boradi.

Xullas, o'quvchilarga nisbatan talabchan bo'lish, ularga samimiy muhabbat va hurmat bilan qarash qoidasini oqilona hamda mohirlik bilan to'g'ri qo'llanishi, o'quvchilarning kuchiga, imkoniyatlariga ishonch bilan qarashga — tarbiyaning muvaffaqiyatli borishiga yordam beradi.

### TARBIYADA O'QUVCHILARNING YOSHI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLISH

Bolalar maktabda rivojlanishning turli davrlarini bolalik, o'smirlik, o'spirinlik pallalarini bosib o'tadilar. Shu davrlar ichida ular hayot, inson va tabiat, umuman atrofimizni o'rab olgan dunyo haqida aniq bilimlarga ega bo'ladilar. Ularning axloqi ham o'zgarib boradi. Shu yillar ichida bolaning axloqiy tuyg'ulari rivojlanadi, ongi bilan xulqi o'rtasida uyg'unlik vujudga keladi, xarakteri tarkib topadi, o'z xulqi va xatti-harakatlarini ehtiyojga va sharoitga muvofiqlashtirishga intilish odatlari tarbiyalanadi.

Bolalarning yoshi rivojlanish darajasiga ko'ra ularga beriladigan tarbiyaning mazmuni, pedagogik rahbarlikning xarakteri ham o'zgarib boradi. Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilari maktabdagi o'z asosiy vazifalarini: o'zini maktabda, uyda, ko'chada qanday tutish qoidalarini bilib oladilar. Bunday odatlar ularga namuna ko'rsatish, tushuntirish yo'li bilan singdiriladi.

Bolalarning yoshi ulg'aygan sari ularga talab ham orta boradi. Shu tufayli o'rta va katta yoshdagi bolalarni tarbiyalashda ularning mustaqilligiga suyanib ish ko'rish yaxshi natija beradi. Tarbiyada bolalarning kuchi va imkoniyatlarini to'la ishga solish yaxshi, lekin ularning kuchiga ortiqcha haho berib yuborish ham yaramaydi.

Tarbiya berishda o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan tashqari, har qaysi bolaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish ham katta ahamiyatga ega. Bolalarning yoshi, bo'yi bir xil bo'lsa-da, ularning mijozi, fazilatlarini, qobiliyat va mayllari, qiziqishlari har xil bo'ladi. Bu farqlar bolalarning xulqida, o'qish va mehnatida aks etadi.

Bir o'quvchiga nisbatan muvofiq bo'lgan tarbiya uslubini boshqa bir o'quvchiga nisbatan qo'llaganda u kutilgan natijani bermasligi mumkin. Sinfdagi o'quvchilarning ba'zilariga oddiy tanbehning o'ziyoq samarali ta'sir ko'rsatadi, ammo boshqa o'quvchilarga tanbeh berishning o'zi kifoya qilmaydi. Ba'zi bir o'quvchi ayrim axloqiy fazilatlarini tezda o'qib oladi va unga amal qiladi, ikkinchisi esa unga amal qilmaydi, ayrim bolalar esa bu xil sifatlarni o'zlariga juda sekinlik bilan singdiradilar.

Ayrim o'quvchilar o'zlarining faolliklari, saranjom-sarish-taligi, intizomliligi, fahm-farosati bilan o'qituvchi va bolalar jamoasining ishonchi va hurmatiga sazovor bo'ladilar, boshqalari esa intizomsizligi, pala-partishligi, betgachoparligi, bema'ni qiliqlari bilan tezda „tanilib“ qoladilar.

Demak, har bir o'quvchining qobiliyati, qiziqishi, his-tuyg'ulari, kuchli va zaif jihatlarini aniqlab, tarbiyaviy ishlarda ularni hisobga olish tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish imkoniyatini beradi.

### **TARBIYAVIY ISHLARNING IZCHILLIGI, TIZIMLILIGI HAMDA BIRLIGI**

Avvalo, ta'lim va tarbiya bir maqsadni — barkamol inson shaxsini tarbiyalashni nazarda tutadi. Ya'ni ta'lim ishi tarbiya bilan birga qo'shilib ketadi va bir-birini to'ldirib, mukammallashtirib boradi. Dars jarayonida olib borilgan tarbiyaviy ishlar sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar bilan qo'shiladi.

Bolalar bilan olib boriladigan har bir tarbiyaviy ish butun tarbiya ishlarining ajralmas bir qismi sifatida amalga oshirilgan taqdiridagina ta'siri kuchli bo'ladi.

Tarbiya ishidagi izchillik va tizimlilik shundan iboratki, har bir tarbiya ishi maktabning umumiy tarbiyaviy rejasiga asosan ma'lum izchillikda amalga oshiriladi, oldingi ishlarning mantiqiy davomi sifatida tarbiya sohasida qilinayotgan ishlarni rivojlantiradi, mustahkamlaydi va yanada yuqori darajaga ko'taradi.

Tarbiya berishda tizimlilik qoidasi tarbiyani amalga oshiradigan barcha bo'g'inlarning — oila va maktab, bolalar va yoshlar tashkiloti, jamoatchilik, mahalla faollari, maktabdan tashqari tarbiya muassasalari va ishlab chiqarish jamoalarining, keng jamoatchilikning hamjihatlik va bamaslahat ish ko'rishini nazarda tutadi.

Tarbiya ishidagi bu hamjihatlik va hamkorlikni ta'min etishda maktab asosiy rol o'ynaydi. Maktab yuqorida aytilgan muassasalar bilan mustahkam aloqada bo'lib, tarbiya sohasida bahamjihatlikda ishlashga erishadi.

Tarbiya jarayonida tizimlilik va izchillikni ta'min etadigan muhim shartlardan biri tarbiya sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallash va mustahkamlashda uyg'unlikka rioya etishdir. Tarbiyaviy ishlarning hammasida bolalarda mavjud bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va odatlarga hamda ularning turmush tajribalariga suyanish lozim.

Har bir odam o'z hayot yo'lida qancha muvaffaqiyatlarga erishgan yoki imkoniyatlarni qo'ldan boy bergan bo'lsa, buning hammasiga, avvalo, uning fe'l-atvori, olgan tarbiyasi sababdir.

### XUSHXULQLILIK — KAMOLOT BELGISIDIR

Xo'sh, xushxulqlilik, tarbiyalanganlikning asosiy belgilari nimalardan iborat?

Ulardan ayrimlarini sanab o'tamiz:

- *jahl chiqqanda o'zini bosa olish;*
- *har bir ishni qilganda „yetti o'lchab bir kesish“;*
- *sir saqlay olish, mulohaza qilib, ayrim gaplarni ichga yutish;*
- *doimo ishonch bilan yashash va olg'a intilish; andisha chegarasidan chiqmagan holda dadil bo'lish;*
- *bir ishni boshlagandan keyin uni oxiriga yetkazmay qo'ymaslik;*
- *topgan-tutganini tejab-tergab sarflash va hokazolar...*

Ulamolarning aytishicha, tarbiyalanganlikning o'nta nishonasi bor ekan:

*birinchisi — xalq to'g'ri deb topgan narsaga noto'g'ri deb qaramaslik;*

- *ikkinchisi — o'z nafsiga erk bermaslik;*
- *uchinchisi — birovdan ayb qidirmaslik;*
- *to'rtinchisi — yomonlikni yaxshilikka yo'yishlik;*
- *beshinchisi — agar gunohkor uzr so'rasa, uzrini qabul qilish;*
- *oltinchisi — muhojirlar hojatini chiqarish;*
- *yettinchisi — el g'amini yeysh;*
- *sakkizinchisi — o'z aybini tan olish;*
- *to'qqizinchisi — el bilan ochiq yuzli bo'lish;*
- *o'ninchisi — odamlar bilan shirin muomalada bo'lish.*

Xushxulqlik, yaxshi muomala, shirin so'zlilik va oliyjanoblik — yaxshi tarbiya ko'rganlikning asl belgilaridir.

Xushxulq, yaxshi tarbiya ko'rgan kishi yaqinlari, yor-u do'stlari bilan uchrashganda, odamlar yonidan o'tayotganda, biror xonadonga qadam qo'yganda yuzida tabassum ila, „Assalomu alaykum“ deb salom beradi. Salom berish, salomga alik olish ham qarz, ham farz hisoblanadi.

Salomning naqadar ulug'ligi Hadisi sharifda ham shunday ta'riflanadi: „Salom — Oллоhning yerdagi ismlaridan biridir. Bir-birlaringiz bilan salomlashib yuringlar. Zero, musulmon kishi odamlar oldidan o'tib borayotib ularga salom bersa, ular ham

alok olishsa, ularga salomni eslatgani uchun bir daraja ko'p savobga erishadi. Mabodo, alok olmasa, unda zarari yo'q, chunki ulardan ilgariroq farishtalar alok olishadi“.

Endi salom to'g'risida Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning ko'rsatmalaridan ayrimlarini keltiramiz:

— *uchrashganda qaysi biringiz birinchi bo'lib salom bersangiz, o'sha odam Tangriga ham itoatliroqdir;*

— *bir-birlaringiz bilan salomlashib yuringizlar, shunda o'rtalaringizda mehr-muhabbat uyg'onadi;*

— *mo'minlarning bir-birlariga oltita haqlari bor: salom berish; chaqirsa borish; maslahat so'rasa: javob berish; aksirsa „yarhamukalloh-u yashfik“ deyish; betob bo'lsa, yo'qlash; vafot etsa, janozada qatnashish;*

— *otliq-ulovli kishi piyoda ketayotganga, piyoda kishi o'tirganga, ozchilik ko'pchilikka, kichiklar kattalarga salom bersin. Salomga alok olsa-ku yaxshi, bordi-yu alok olmasa, salom beruvchiga zarari yo'q;*

— *salom berib kirmagan odamni huzuringizga qo'y manglar.*

Qo'l berib so'rashganda barmoqlar bilan emas, kaftini kaftga qo'yish kerak. Uzoq ko'rishmaganda quchoqlashib ko'rishish ham xalqimiz odati.

Shunday qilib, ko'rishganda salom-alok qilish xalqimizga xos odatdir. Hozir ayrim kishilar o'rtasida urf bo'lganday „Salom“, „Salomalaykum“, „Xayrli kun“, „Salom berdik“, Yaxshimisiz“, deb ko'rishishlar, quchoqlashgach, cho'lp-cho'lp o'pishishlar shariat hukmiga ham, odob qoidalariga ham to'g'ri kelmaydi.

## OTA-ONANI HURMAT QILISH XUSUSIDA

Milliy tarbiya ota-onani hurmat qilishni, ularga mehr-shafqat ko'rgazishni har bir farzandning eng asosiy burchlaridan sanaydi, aksincha, ota-onaga behurmatlikni qoralaydi.

Janobi Rasullulohning ta'lim berishlaricha, ota-onasiga shafqatli bo'lgan kishini Tangri taolo qiyomat kuni himoya qilib, o'z jannatiga kirgizadi, aksincha, ota-onasini norozi qilib, ularga oq bo'lgan kishiga Tangri rahmat nazari bilan qaramaydi, bundaylar jannatga kirmagaylar. Bir Hadisda: „Ota-onalarning keksalik vaqtida har ikkisini yoki biri bo'lmaganda boshqasini rozi qilib, jannatiy bo'lib olmagan farzand xor bo'lsin, xor bo'lsin va yana xor bo'lsin“, deyiladi. Kimki ota-onasining roziligini olgan bo'lsa, unga qanday yaxshi! Tangri uning umrini uzaytiradi.

Odam qiladigan gunohi azimlardan biri — ota-onasini haqorat qilmoqdir, dedilar.

Farzandning ota-ona oldidagi haqqi quyidagilar:

1. Agar ovqatga muhtoj bo'lishsa, ovqatlantirish.
2. Kiyimga muhtoj bo'lishsa, kiyintirish.
3. Xizmatga muhtoj bo'lishsa, xizmatlarini qilish.
4. Chaqirishsa „Labbay“ deb hozir bo'lish.
5. Gunoh va g'iybat ishlardan boshqasiga buyurishsa, itoat qilish.
6. Qo'pollik qilmay, muloyim gapirish.
7. Ularning ismlarini atab chaqirmaslik.
8. Oldinga o'tib ketmay, ortlarida yurish.
9. O'zi yomon ko'rgan narsani ularga ravo ko'rmaslik va yaxshi ko'rgan narsasini ilinish.
10. Oллоhdan o'zi uchun qanday mag'firat tilasa, ularning ham gunohlarini kechirishni so'rash.

#### KATTALARGA HURMAT — AZALIY ODAT

Islomiy tarbiya kattalarni hurmat qilishni, ularga mehribonlik va itoat ko'rsatishni yaxshi fazilatlar qatoriga qo'shgan. Bu haqda bir Hadisi sharifda rivoyat qilinadi: „Soch-soqollarga oq tushgan musulmon kishini, Qur'oni Karimni, kibrlanmay unga amal qilishdan yuz o'girmaydigan va adolat bilan ish olib boradigan amaldorlarni hurmat qilish Oллоh Taoloni hurmat qilishning belgilaridandir“.

Yana bir Hadisi sharifda yoshi katta odam gapni ham, savob ishni ham oldin boshlashi haqida so'z borgan. Payg'ambar alayhissalom: „Katta yoshdagilar bilan suhbatda bo'linglar, ulamolardan maslahat so'ranglar va hukamolar bilan aralashib turinglar“, deb nasihat qilganlar.

Yoshlar kattalarga birinchi bo'lib salom berishadi, biror narsa so'ralgandagina javob qaytarishadi. Kattalar suhbatida o'tirganda ulardan avval so'zlash yaxshi emas. Yoshi kattalardan avval fikr bildirmaslik lozim. Kattalar huzurida og'izni lang ochib esnash, qattiq ovozda gapirish, burun qoqish va tuflash ham odobsizlikka kiradi. Ular suhbatida oyoqlarni chalishtirib yoki uzatib o'tirilmaydi, yonboshlab olinmaydi.

Janobi Rasululloh: „Kimki kichiklarga rahm-u shafqatli, kattalarga izzat-ikromli bo'lmasa, u bizlardan emasdur“, deganlar.



Islomiy odob qoidalariga ko'ra yoshlar kattalarni og'ir, mashaqqatli yumushlardan xalos qiladilar. Ovqat ustida taomning avvali kattalarga tutiladi. Ular qo'l uzatmaguncha ovqatlanish boshlanmaydi. Kattalarni rozi qilish, mamnun etish, ular bilan xushmuomalada, mehribonlik bilan munosabatda bo'lish va shu tariqa ular duosini olish yoshlarning unib-o'sishi uchun yaxshi omil bo'ladi.

## ILM VA KASB EGALLASH HAQIDA

Farzandlar ilm olib, olamni tanishlari lozimligi, haqiqatni anglash va tafakkur qilish uchun ilmning naqadar zarurligi hamisha ta'kidlab kelingan. Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom o'z ummatlarini ilm olishga da'vat qilganlar, ilm egallashga harakat qilish har bir muslim va muslima uchun farz ekanini qayta-qayta e'tirof etganlar. Hadislardan birida „Garchi Xitoyda bo'lsa ham ilm istanglar“ deb ta'lim berilgan.

Hadisda aytilishicha, bir soatgina ilm o'rganish bir kechalik ibodatdan yaxshi, bir kunlik dars esa uch oy tutilgan nafl ro'zadan afzaldir. Yoki, boshqacha qilib aytganda, ilmga asoslangan ibodat taqlidiy ibodatdan afzaldir, taqvo dinni tutib turuvchi ustundir.

Ajdodlarimizdan bir ulamo aytdilar: „Ilm o'rgan, u yoshlik paytlaringda to'g'ri yurishingni ta'minlaydi, katta bo'lganingda buyuk shaxsga aylanishingda asosiy sabablardan bo'ladi. Ilm doim sening hamrohing bo'lib, adashishdan va qoqilishdan saqlaydi, dushmanlarini mag'lub qiladi“.

Ilm olish bilan bir qatorda, farzandlar kasb-hunar ham egallashlari, uning vositasida oilalarini halol mehnat bilan boqishlari shart. Payg'ambarlarning ham halol kasb bilan shug'ullanganliklari tarixdan ma'lum. Masalan, Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom cho'pon va savdogar bo'lganlar. Dovud alayhissalom temirchilik qilganlar. Iso alayhissalom tabiblik bilan shug'ullanganlar va hokazo.

Xalqimiz „Hunar — hunardan unar“ deganda, odamning rizq-u nasibasi hunardan, mehnatdan paydo bo'lishini nazarda tutgan. Bu hikmatlar yoshlarga ibratdir. Bizning ota-bobolarimiz azal-azaldan hunarmand, ijodkor-u mirishkor bo'lishgan. Ularning hunarlari oradan necha yuz yillar o'tsa-da, hali-hanuz qadr-qimmatini yo'qotmay, ko'rk-tarovatini namoyish etib turibdi. Duradgorlik deysizmi, naqqoshlik deysizmi, zargarlik deysizmi,

bog'bonlig-u sohibkorlik, ustachilik deysizmi —hammani lol-u hayron qoldiradigan ezgu ishlar ajdodlarimizdan bizlargacha yetib kelgan.

O'zbek xalqi hunarmandchiligi turlarini sanab sanog'iga yetish qiyin. Beshiksozlik, sandiqsozlik, jaydari arava, Qo'qon arava, yassi va baland zinali aravalar, jilosi-yu naqshi ko'z qamashtiradigan pichoqlar-u o'ymakor kursi — kursichalar, chorpoyalar, guldonlar-u shamchiroqlar, obdasta, jomashov, jom,...

Ularning ko'pini endi asosan muzeylarda ko'rib, shunday zabardast-u mohir san'atkorlar naslidan ekanimizdan ko'nglimiz olam-olam quvonchga to'ladi, nechog'lik boy millat madaniyatiga ega ekanligimizdan fahr-u g'urur hissiga to'lamiz.

Ajdodlarimiz o'z hunarlarini, san'atlarini kelgusi avlodlarga to'kis-tugal yetkazish, ularni o'tmishimiz madaniyati-yu san'ati bilan oshno qilish uchun nechog'lik mehr-ixlos, katta g'ayrat-shijoat bilan, ko'z nuri, qalb qo'rini sarflab, tinimsiz mehnat qilganlarining guvohi bo'lamiz. Ayni paytda bilamizki, bizlar ko'rgan-bilgan san'atkorlik, bunyodkorlik mahsullari o'z zamonida yaratilgan asarlarning daryodan bir tomchisi, xolos. Hunarmandchilikning qadru qimmatini keskin pasayib ketganidan bobolardan qolgan boyliklar ham talon-taroj qilib yuborilgan. Ne-ne ajoyib kasblar, jumladan kosibchilik, kasanachilik, hunarmandchilik san'at, ishlab chiqarish ro'yhatidan deyarli o'chirib tashlandi. Chinakam san'at asarlari o'rnini o'yinchoqsifat buyumlar egallab oldi.

Mana, vaqti kelib, yana o'sha ota-bobolarimizdan qolgan hunarmandchilik san'atiga keng yo'l ochildi. Endi gap yoshlar katta qiziqish, zo'r ishtiyoq bilan ajdodlarimiz ishini davom ettirishlarida qoldi.

Qo'lida hunari bor o'lmaydi, uning nomi ham o'chmaydi, birovga xor-zor ham bo'lmaydi. Shoir Badriddin Hiloliy aytadi:

*Tirishib topmasang bir hunar, yuz ayb,  
Bir hunar yopadi, bo'lsa gar yuz ayb,  
Bir esa hunar-u aql ham tamiz,  
El nazdida doim uch kishi aziz.*

Hunarning umri boqiy, u o'lmas—yitmas mo'jizadir. Hayot davom etar ekan, avlodlar ketidan avlodlar dunyoga kelar ekan, yuqorida zikr etganimiz — noyob buyumlar turmush ehtiyoji uchun doimo kerak bo'lishi tabiiydir. Zero, inson tirik ekan, uy-

joy qilishi kerak, farzand ko'rar ekan, beshik, g'altakarava, qiz uzatish, o'g'il uylantirishga sandiq-quti, bog'-rog' bunyod qilish uchun asbob uskunalar kerakki, bu narsalarni bunyodga keltirish uchun ustalarning mehnati, ishbilarmonligi juda zarurdir.

Agar yoshlarimiz maktabdan tashqari bo'sh vaqtlarini behuda ko'cha changitishga sarflamay, turli kasb-u hunar sohiblariga shogird tushib ish o'rgansalar, besh-o'n yil o'tmay, qarabsizki, hamma toifadagi hunarmandlar o'zimizda muhayyo bo'ladi. Bu yoshlarning ro'zg'or tebratishda ota-onalarga yordami bo'lsa, o'zlarini kelajaklari uchun ham muhim omil bo'ladi. Buning yaxshi tomoni yana shundaki, mehnat bilan mashg'ullik ularni turli nojo'ya xatti-harakatdan, befoyda mashg'ulotlardan, behuda sang'ib yurishlardan asrab qoladi, bu esa o'zlarining kelgusi baxtli taqdirleri va kamolga yetishuvlarida koni foydadir.

Hech kim onadan hunarmand bo'lib tug'ilgan emas. O'tmishda o'smir esini tanib, qo'li ishga kelgach, ota-onasi ziyraklik bilan uning qiziqish va intilishlarini kuzatib, bolani o'z qiziqqan hunar sohibiga shogirdlikka topshirishgan. Shogirdning mehnatga munosabati, kasb-korga muhabbatiga qarab ustozlar o'z hunarlarini o'rgatganlar, mustaqil ishlash uchun baholi qudrat shart-sharoit ham yaratib berganlar.

Keksa hunarmandlarning hikoya qilishlaricha, usta qancha qattiq-qo'l, talabchan bo'lsa, shogird kasbini shuncha tez va puxta egallar ekan. Buyurilgan ish ko'ngildagidek bajarilib, shogird egallagan hunar sohasida oqsoqollar imtihonidan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng uning usta bo'lishiga fotiha berilarkan. Shundan so'ng, usta bo'lgan yigit istasa shu joyda ishini davom ettiraverishi, xohlasa o'zi do'kon ochib, shogirdlar yetishtirish huquqiga ega bo'lar ekan.

Qarang, naqadar chiroyli, naqadar ibratomuz udumlar! Bu, bir tomondan, yoshlarning o'zlari sevgan kasb-korlariga qiziqishlarini kuchaytirsam, ikkinchidan, ularning zimmasidagi mas'uliyatni oshiradi. Ayni zamonda, sanoat korxonalarimiz qoshida shunday ustaxonalar ochilib, malakali shogirdlar yetishtirilsa, ko'plab yoshlar hunarmand bo'lib yetishadilar, ular bekorchilikdan qutulib mehnatga ishtiyoqmand bo'ladilar, ota-bobolarimiz hunarlariga mehrlari tovlanadi. Shunday qilinganda, respublikamiz ravnaqi oshadi. Yuqorida aytganimizdek, ham ishsizlik kamayadi, ham o'zimizdan istaganicha mutaxassislar yetishadi, ham moddiy boyligimizga boylik qo'shiladi. Bu esa xalqimizni kundalik zaruriy buyumlar bilan bemalol ta'minlash imkoniyatini tug'diradi.

Quvonchligi shuki, respublikamiz mustaqil bo'ldi, o'zbek tilimizga davlat maqomi berildi. Yoshlar qunt qilsalar, ayni paytda qayoqqa qo'l uzatsalar yetgulik sharoitlar bor. Faqat maqsad aniq, qiziqish kuchli, bilim va zehn o'tkir bo'lsa bas! Buning uchun har bir o'quvchi o'zi qiziqqan sohaga oid adabiyotlarni topib o'qishi, mustaqil ravishda o'z-o'zini tayyorlab borishi kerak. Ota-ona, o'qituvchi-tarbiyachilar esa, albatta, bolalarning bu intilishlarini qo'llab-quvvatlashlari, qo'llaridan kelganicha ko'maklashishlari lozim.

Qadimda o'g'il bolalar va qizlarning o'zlariga xos alohida-alohida kasb-kor o'rganish usullari bo'lgan. Masalan, o'g'il bolalar duradgorlik, g'isht teruvchilik, beshiksozlik, sandiqsozlik, bog'bonlik, etikdo'zlik, ganchkorlik, naqqoshlik hunarlarini egallasa, qiz bolalar do'ppido'zlik, chevarlik, kashtado'zlik, yo'rmado'zlik (jiyak to'quvchi) hunarlarini egallashga ishtiyoqmand bo'lganlar. Har kim o'zining jinsiga, jismoniy kuchiga, zehniga, ziyrakligiga qarab, xohlagan ishini o'rganib, shu bilan mashg'ul bo'lgan. Hunarli bo'lish faqat yigitlargagina emas, qizlar uchun ham zaruriy shart edi. Ular qanday toyifadagi oilada — u boy xonadonmi yoki o'rtaholmi, bundan qat'iy nazar, baribir hunarli bo'lish zarurat hisoblangan. Qizlarni turmushga uzatishda hunar juda qo'l kelgan. Bu, birinchidan, sep tayyorlashda oilaga moddiy yordam bersa, ikkinchidan, o'g'il uylantiradigan xonadon sohiblari ham qizning odob-axloqi risoladagidek bo'lishidan tashqari, albatta, tikish-bichishni bilishi, pazandalik kabi bir-ikki hunarni egallagan bo'lishiga katta e'tibor berishgan. Kuyov bo'lajak yigitlar ham shunday talablarga to'la-to'kis javob berishlari lozim ko'rilgan. Negaki, turmushni qiynalmay, bekam-u ko'st, tartibli olib borish va uning mustahkamligini ta'minlash ko'p jihatdan kelin-kuyovning uddaburonligi, ishbilarmonligi, epchil-chaqqonligi, ro'zg'orni tebrata bilishiga bog'liq bo'lgan. Shuning uchun ilgari paytlarda oila qurganlar o'rtasida qo'ydi-chiqdi kabi noxushliklar kamdan-kam uchragan.

Qadimgi udumlarimizdan yana bir ibratlisi, ota-onalar kasb tanlashda farzandlarining o'zlariga to'la erkinlik berishgan. Ular qaysi bir hunarni mukammal o'rganishlariga ko'zlari yetsa, shunga rozi bo'lib ko'makdoshlik qilganlar. Hozir ota-onalarning ko'pchiligi bu qoidaga rioya qilmaydilar. Farzandlari o'qigandan ko'ra o'zi istagan kasb-hunarni egallasa baxtli hayot kechirishini o'ylamaydilar, farzandlari o'rta maktabni bitirishi bilan ularning oliy maktabda

tahsil olishlari uchun qobiliyatlari, bilimlari, sabr-u bardoshlari yetarlimi, yo'qmi, bu bilan hech hisoblashmasdan, bir amallab oliygohlarga kiritishga harakat qiladilar. Ko'plar bunga muvaffaq ham bo'ladilar. Lekin keyinchalik buning oqibati nima bo'ladi? Farzandlar yo o'qishning o'ziga xos mashaqqatlariga toqat qila olmay, yoki o'qishni davom ettirishga bilim darajalari yetmay, tashlab ketadilar. Vaholanki, orada zoye ketgan bir-ikki yil vaqt mobaynida ular o'zlariga munosib biror hunarni egallashlari va hayotda ravon yo'lni topib olishlari mumkin edi.

Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkin: otaning davlat-u mansabi hech qachon, hech kimga vafo qilmagan, boshga bir mushkul ish tushsa, boylig-u davlat bu mushkulotdan qutqarib qololmagan. Abdurahmon Jomiy aytadi:

*Otangga bo'lmagin arzanda, bandi,  
Bandidan chiqib bo'l hunar farzandi.*

Buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy o'zining „Farhod va Shirin“ asarida yoshlar ta'lim-tarbiyasida asosiy omil bo'lgan kasb-hunar egallashning ahamiyatini zo'r muhabbat bilan tasvirlagan.

Xitoy hoqonining yakka-yu yagona o'g'li Farhodni otasining davlati-yu mansabi zarracha qiziqtirmaydi. Toj-u taxt, shoh bo'lish orzusi unga butunlay yot bo'lib, hunarmand bo'lish ishtiyoqida yonadi va otasini ranjitib bo'lsa-da, meros — toj-u taxtni rad etadi. Ota o'g'lining ma'yus ahvolini ko'rib, unga qasr soldirishga qaror qiladi. Farhod qasr bunyodkorlari bo'lmish Moniy, Boniy kabi mohir ustalar yonidan ketmay, ulardan tosh yo'nish, naqsh o'yish hunarlarini mukammal o'rganib oladi.

Bir kuni u otasining sandig'ida bir suratni ko'rib, unga g'oyibona oshiq bo'ladi va arman mamlakatining malikasi bo'lmish Shirinni axtarib yo'lga chiqadi. Ko'p aziyatlar chekib, goh quruqlik, goh dengiz-u daryolar osha arman mamlakatiga yetadi. Bu safarida kemada tanishib qolgan do'sti — eronlik yigit Shopur unga hamrohlik qiladi. Arman mamlakatining podshosi Mehinbonu kimda-kim Armaniston sarhadiga suv chiqarsa, jiyani Shirinni shu kishiga nikohlab berishga va'da qilganini eshitib, Farhod darhol ishga kirishadi. O'zi uchun qurilgan qasrda ustalar bilan bab-baravar ishlab, ularning hunarlarini egallagan Farhod tosh kesuvchilik, yo'nuvchilik san'atini ishga solib, suv chiqarishga erishadi va dovrug'i hamma yoqqa tarqaladi.

Yosh malika Shirin qo'li gul, mohir toshkesar yigitning ishini ko'rgani kelib, o'z aksini toshga yo'nib ishlagan Farhodga qoyil qoladi va unga ko'ngil qo'yadi... Voqeaning davomi „Farhod va Shirin“ dostonini o'qigan, shu asosda yaratilgan kino va dramatik asarlarni ko'rgan kishilarga yaxshi ma'lum.

Bu yerda gap Farhodning sevgisi, do'stona munosabati va boshqalar xususida emas, balki shoh o'g'li bo'laturib, hunar egallshni hayotining ma'nosi deb bilgan, bu bilan o'z yigitlik sha'nini yuksak darajaga ko'targan va xalq dilida abadiy qolgan mehnatkash, oqil-u fozil inson xususida boryapti. Otaning davlat-u mansabi, hatto toj-u taxti ham hech qachon, hech kimga vafo qilmagan, boshiga bir mushkul ish tushsa, boylig-u davlat bu mushkulotdan qutqarib qololmasligi, faqat o'z kuchi, bilimi, aql-u idroki, qolaversa, sadoqatli do'stlari-yu o'rgangan hunarigina kishini har qanday ofat-u balolardan asrab qolishi muqarraligini hozirgi yoshlarimiz, xususan, o'quvchilarimiz Farhod timsolida ong va shuurlariga mustahkam o'rnatirib olishlari va amalda bunga rioya etishlari nihoyatda zarurdir.



### *Savol va topshiriqlar*

1. Qur'oni Karim, Hadis, Sharq allomalari asarlarida komillikka erishishning muhim vositasi qanday ifodalangan?
2. Hikmatlarda "Ota-onaning bolaga qoldiradigan katta merosi — bu ularni bergan yaxshi tarbiyasidir" deyiladi. Bunga munosabatingiz qanday, so'zlab bering.
3. „Qush uyasida ko'rganini qiladi“, „Bola boshidan, nihol yoshidan“, „Bola aziz, odobi undan aziz“ kabi maqollarda qanday ma'no-mazmun yashiringan?
4. „Kamil inson“ ni Siz qanday tasavvur etasiz? Reja asosida insho yozing.





## **XXI BOB. MILLIY TARBIYANING O'ZIGA XOSLIGI VA MEZONLARI**

### **MILLIY TARBIYA MEZONLARI HAQIDA**

Ispaniyalik bir faylasuf olim butun umrini jahon xalqlarining urf-odatlarini, axloq-odobini o'rganishga, tadqiq qilishga bag'ishlagan ekan. Ittifoqo, o'sha olim bizni yurtimizga tashrif buyurib, Toshkent, Samarqand, Buhoroda bo'libdi. Yurtiga qaytib borgach: „Hozirgacha o'rgangan, tadqiq qilgan barcha ishlarimni o'n besh yoshlik o'zbek qizalog'ining o'rnidan turib, qo'lini ko'ksiga qo'yganча choy uzatishdagi odobiga, nazokatiga almashtirishga rozi edim“, degan ekan. Biz shunday yuksak madaniyatli xalqning farzandlari ekanligimizdan har qanchа faxrlansak arziydi, albatta.

Darhaqiqat, xalqimiz azal-azaldan axloqiy fazilatlarга boy bo'lgan. Ota-bobolarimiz farzand o'stirar ekanlar, ularning xulq-atvorlariga, gap-so'zlariga, kishilar oldida o'zlarini qanday tutib, nimalar haqida fikrlashib, o'z maqsadlarini qanday so'zlar bilan tushuntirishlariga katta ahamiyat berishgan. Ular farzandlarining qo'rslik qilishi, kattalar suhbatiga aralashishi, nojo'ya ishlarga zinhor-bazinhор yo'l qo'y maganlar. Bu narsalarga farzand tarbiyasining eng muhim tomoni deb qaraganlar.

Ammo, ming taassufki, yaqin tariximizda sharqona tarbiya, axloq-odobning ming yillik tajribalaridan „eskilik sarqiti“ deb voz kechdik, o'zligimizni unutayozdik. Axloqsizlik, hayosizlik, ichkilikbozlik, qadimiy merosimizdan nafratlanish asosida qurilgan „yangi axloq“ zo'rlab targ'ib qilindi. Bu „ovrupocha odob“ning samarasini, xalqimiz boshiga solgan kulfatlarini, ma'naviyatimizga yetkazgan zararlarini bugun hammamiz ko'rib turibmiz.

Sharqona odob ming yillar mobaynida islomiy tarbiya qoidalari asosida tarkib topib, takomillashib borganligi tarixdan ma'lum. Chunonchi, Qur'oni Karim oyatlari mazmuni, Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom Hadislari, sharq allomalari va faylasuflarining kitoblari tarbiyamizning manbayi bo'lib xizmat qilgan.

Islomiy tarbiya musulmonlar hayotining barcha qirralarini, hatto mayda jihatlarigacha qamrab olgan. U go'daklarni emizishdan tortib, qanday kiyintirishgacha, ovqatlanish odobidan tortib, ko'cha-kuyda, kattalar qoshida o'zini qanday tutish lozimligini barcha jihatlarini o'z ichiga olgan. Eng asosiysi, islomiy odob

farzandlarning halol, pok, mehnatkash, ilmga intiluvchan, kattalarni, ayniqsa, ota-onani hurmatlash ruhida tarbiyalanishni shart qilib qoʻygan.

Rasululloh Sallollohu alayhi vasallam Hadislarida: „Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga, axloq-odobini ham yaxshilanglar!“, „Hech bir ota oʻz farzandiga xulq-u odobdan buyukroq meros bera olmaydi“, deyilgan. Yana bir Hadisda esa: „Moʻmin kishiga berilgan narsalarning eng yaxshisi chiroyli xulqdir“, deyilgani bejiz emas. Bobokalonlarimiz hamisha barkamol inson shaxsini tarbiyalashga intilganlar va oʻz farzandlari, mahalla yoshlari va butun jamiyatning tarbiyali boʻlishi uchun kurashganlar. Yoshlarni tarbiyalashda „Mening bolam“, „Sening bolang“ deb ajratishmagan. Tarbiya berish hammaning vijdoniy burchi, deb qaralgan.

Odamzod dunyoga kelibdiki, mudom mukammal timsol axtaradi, komillikka intilib, ruhiy najot yoʻlini qidiradi. Shu orzu intilish samarasi oʻlaroq, maʼnaviyat bobida beqiyos kashfiyotlar qilingan.

Komil inson haqidagi taʼlimot insonni yuksak kamolotga yetishini koʻzda tutadi. Komillik bu — inson Yerda qilgan hamma ishlarining maʼnaviy eʼtiqod bilan sugʻorilishidir.

Oʻzbek xalqi oʻz madaniyati va maʼnaviyatida komil insonlarni voyaga yetkazishga katta eʼtibor bergan. Buning natijasida asrlar davomida aql-u zakovatga, qomusiy bilim va qobiliyatga ega boʻlgan Az-Zamaxshariy, Aburayhon Beruniy va Al-Forobiy, Abu Ali ibn Sino va Al-Xorazmiy, Amir Temur va Ulugʻbek, Alisher Navoiy va Bobur, Ogahiy kabi komil insonlar yetishib chiqdi va olamga tanildi. Ular tufayli xalqimiz magʻrur yashadi, doimo hurriyat va erk sari intildi.

Bizga maʼlumki, Abu Ali ibn Sino buyuk qomusiy olim sifatida tibbiyot, riyoziyot (matematika), falakiyot, fizika, kimyo, biologiya, dorishunoslik, ruhshunoslik, fiziologiya, filologiya, falsafa, axloq, estetika va jismoniy tarbiya kabi koʻplab fanlarning yetuk bilimdoni boʻlgan. Uning aql-zakovati, yaratgan asarlari Oʻrta Osiyoda emas, balki Sharq va Gʻarbiy Yevropa mamlakatlarida ham hurmat bilan tilga olinadi. U har tomonlama komillik darajasiga yetgan ulugʻ inson boʻlgan. Abu Ali ibn Sino yigirma toʻrt yoshida koʻpgina ilm sohalaridan xabardor boʻlib, Buxoroda olimlar bilan boʻlgan bahsda ularni dogʻda qoldirganligi maʼlum. Bunday muvaffaqiyatga olim kamolotga erishganligi tufayli muvaffaq boʻlgan edi.



Abu Ali ibn Sino o'z hayoti va faoliyati davomida doyimozulgulikka komil inson bo'lgan. Uning nomi va asarlari hamishatillardan-tillarga, dillardan-dillarga o'tib yuraveradi.

Inson komillikka intilar ekan, zinhor bu intilishning oxiriga yeta olmaydi. Shu bois, men komilman, kamolotga erishdim, degan odam xato qiladi. Inson o'z faoliyati mobaynida, nuqson va kamchiliklarga ham yo'l qo'yadi. Ammo shu nuqson-u kamchiliklarni tushunib, tuzatib, ularni takrorlamaslikka harakat qiladigan kishi barkamol insondir. Bu haqda Alisher Navoiy shunday degan:

*Noqis uldirkim, o'zin komil degay,  
Komil ulkim, nuqsin isbot aylagay.*

Inson kamolotiga chek-chegara yo'q. Muttasil kamolot sari intilmoq—taraqqiyot omilidir.

Kishi umrini baland himmat bilan boyitmog'i shart. Yuksak maqsadlar sari intilmoq, insoniyatga naf yetkazib yashashni hayotining mazmuni deb bilmoq — himmati balandlikdan nishonadir. Alisher Navoiy bu xususida bunday degan:

*Birovkim, anga himmat o'ldi baland,  
Erur olam ahli aro arjumand.  
Ani, anga mufliski yo'q himmati,  
Chu yo'q himmati, yo'q aning hurmati.*

O'tmish ma'naviy merosimiz komil inson g'oyasi bilan charog'on. Hazrat Alisher Navoiy dostonlarining har biri komillikning o'ziga xos mezonidir. Darhaqiqat, Navoiy asarlarining har bir sahifasi, misrasi va xulosasida ana shu mezon zo'r kuch bilan tashviq etila boradi. Chunki, buyuk shoirning „Arba'in“ asarida quyidagi hikmat ayniqsa, muhimdir:

*El aro yaxshiroq, deding, kimdur,  
Eshitib shubha ayla raf andin,  
Yaxshiroq bi anu ulus arokim,  
Yetsa ko'proq ulusga naf andin.*

Ya'ni, el orasidagi eng yaxshi odam — ulusga (xalqqa) ko'p foyda yetkazgan kishidir.

Zero, komillik insonni bundan ko'ra ta'sirchanroq tashviqini topmoq qiyin.

Ma'lumki, Navoiyning ideal qahramoni — Farhoddir. Bu qahramonning fe'l-atvorida, yurish-turishida, faoliyatida mukam-

mal insonga xos fazilatlarining barchasi jamuljam. U ilm-u hunarni behad muhabbat bilan o'rganadi. Mehnatsevarlik, insof, halollik, kamtarlik, himmat va muruvvatpeshalik, fidokorlik, pokiza tabiatlilik, ota-onaga hurmat, toj-u taxt, davlat va boylikka befarq qarash, xullas, barkamol insonga xos nimaiki sifat bo'lsa, hammasi Farhodda mujassam edi. Shuning uchun el — xaloyiq Farhodni g'oyat sevadi, tun-u kun uni duo qiladi. Shoirning o'zi esa uning oliy fazilatlarini mana bunday ta'rif etadi:

*Demonkim, ko'ngil pok ham ko'zi pok,  
Tili pok-u, so'zi pok-u, o'zi pok.  
Aningdek tiynati pokiga loyiq,  
Duosin aylabon poki xaloyiq.*

Inson koinotdagi barcha mavjudotlar ichida ulug'i hisoblanadi. Uning kamoloti oldida aql hayron qoladi, chunki, inson haqiqat haqida chuqur o'ylaydi. Kamolot yo'liga chiqish uchun u asta-sekin o'zligini izlaydi, olamni taniydi. Alisher Navoiy „kamol et kasbkim“ deya da'vat qilganlarida komillik uchun zarur juda ko'p xususiyatlarni nazarda tutgan. Kishi o'zini hirs, tama, nafs, g'afolat, nodonlik singari mayllardan poklamasa, u hech vaqt komil bo'la olmaydi. „Olam uyi“da yashash uning fuqarosiga aylanishdir. Alisher Navoiy insonning „Jahon farzandi“ mavqeyiga ko'tarilishini xohlagan. Xuddi shu mavqeni esa kamolotning oliy cho'qqisi deb bilgan.

Navoiy o'z davrida komil insonlarni „ahli ma'ni“ deb bilgan. „Ahli ma'ni“ bu — fikrli odamlardir. Fikrsiz xaloyiqning ongida ma'ni chuqurligi bo'lmaydi. Fikrlash — haqiqatni anglashdir. „Ahli ma'ni“ deganda oqil va dono, kamtar va oliyjanob, haqiqatparvar va fidoyi kishilarni tushunish kerak. Bunday fazilatlarga ega bo'lgan kishilarning tafakkur doirasi keng bo'ladi.

Chunki ularda aql oddiy so'z va tushunchalardan emas, balki diyonat, adolat, insof, iymon, ishq, dard tuhfalaridan kamol topgan bo'ladi.

Alisher Navoiyning fikricha, „ahli ma'ni“, ya'ni ma'nili kishilar ma'naviyati yetuk shaxslardir. „Hayrat ul abror“ dostonida yetuk shaxsning ma'naviyatidagi yaxshilik, saxovat, soflik, hayo, muruvvat, andisha, adab, kamtarlik, sadoqat, qanoat, rostgo'ylik, bag'ri kenglik singari fazilatlarini ta'riflanib, ruhiy kamolot yo'llari tahlil etilgan.

Navoiyning fikricha, yosh avlodni kamolotga yetkazish deganda, uni xalqparvar, bilimli, eng yaxshi fazilatlarga ega kishilar

qilib yetishtirish anglashiladi. Bunda tarbiya yetakchi rol o'ynaydi, shu bilan birga, Navoiy tarbiya ta'siriga beriluvchi, qobiliyatli o'quvchi bolalar bo'lgani singari, yomon xulqli bolalar ham borligini, ularni tuzatish mumkinligini aytadi. Bola shaxsining kamolotida tarbiyaning yuksakligini qayta-qayta ta'kidlaydi.

Inson go'zal xislatlar, yaxshi fazilatlar, nurdek pokiza umid—niyatlar bilan komillikka — kamolotga intilib boradi. Hayotning hamma achchiq-chuchugini, rohat-u azobini, mehnat-u mashaqqatini totib, bulardan namuna-yu ibrat olib, yashash va yaratish iqtidoriga erishadi; inson minglarcha yillar mobaynida boshidan kechirgan barcha tajriba-saboqlaridan xulosa chiqarib, munavvar yo'lga chiqqan.

Dunyoda insonga tuhfa etilgan aql ne'mati shunday qudratli kuchki, u bilan odam o'zini istagan holatda tarbiya eta oladi, har qanday azob-mashaqqatni, har qanday yomonlikni, eng murakkab muammolarni ham aql ne'mati bilan yengadi va hal etadi. Ruhiy kamolot odam qalbida ezgulikning yuksak koshonasini yaratadi.

Aql-zakovatning kamoli o'qish, o'rganish, tahlil etish, idrok qilish, e'tiqod qo'yish, hayot tajribasini egallash bilan ro'yobga chiqadi. Yosh niholning basavlat daraxtga aylanishi parvarishga bog'liq bo'lganidek, odam holasining komil inson bo'lib yetishishi uchun uni murg'aklikdan tarbiyalashga e'tibor berib borish lozim.

### **SHARQONA TARBIYANING O'ZIGA XOS KO'RSATKICHLARI**

Davlatimiz sobit qadamlar bilan o'z taraqqiyot yo'lidan bormoqda. Bu yo'l — milliy xususiyatlar, qadriyatlarni tiklash, saqlash, rivojlantirish, milliy g'ururimizni uyg'otish, vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan mafkura negizida kamolotga erishish yo'lidir.

Shu tariqa, yuqoridagi fazilatlarini shakllantirishni o'z ichiga oluvchi yangi pedagogik yo'nalish dunyoga keladi. Darhaqiqat, milliy tarbiya—O'zbekiston milliy mustaqilligining pedagogik maqsadi va shartidir.

Milliy tarbiya — O'zbekistonning davlat mustaqilligini mustahkamlash va amalga oshirishga tayyor farzandlarni tarbiyalab voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

Bu maqsadga erishishning o'ziga xos nazariy muammolari bor. Shulardan biri — milliy tarbiya nazariyasining asosiy qoidalari va ilmiy tushunchalari yaratilmaganligidir. Ikkinchi muammo —

„O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlashga tayyor farzandlar qanday fazilatlarga ega bo‘lishi kerak?“ degan savolga aniq, tajribada asoslangan javoblar olish masalasidir. Bularning barchasi O‘zbekiston maktablarida milliy istiqlol tarbiyasining mezonlarini ilmiy asoslash zaruratini vujudga keltirmoqda.

O‘zbekiston maktablari o‘quvchilarini milliy ruhda tarbiyalash mezonlari mustaqillik tufayli yanada dolzarb ahamiyat kasb etgan shaxsning milliyligiga bevosita aloqador bo‘lgan fazilatlarni singdirish tamoyilidan kelib chiqib belgilandi.

Milliy tarbiya mezonlarini belgilashda mustaqil O‘zbekistonning ijtimoiy buyurtmasi bo‘lmish ijobiy sifatleri: milliy iftixor, vatanparvarlik, millatlararo muloqot madaniyati, milliy odob, vijdoniylik, imon-e‘tiqod, milliy istiqlol mafkuraviy ongini rivojlantirish zarur. Ularning aksi bo‘lgan salbiy sifatlar: milliy befarqlik, vatanfurushlik, xoyinlik, manqurtlik, millatchilik, mahalliychilik, vijdotsizlik, mafkurasizlik kabilarga nafrat uyg‘otish darkor. Bu ishlarni bir-biri bilan uzviy bog‘lab olib borish o‘qituvchi-tarbiyachi tomonidan maxsus mezon qilib olinishi kerak.

Milliy tarbiya mezonlarini belgilashda o‘quvchilarning yosh, aqliy imkoniyatlari e‘tiborga olinadi. Quyida tarbiyalanuvchining milliy tarbiyalanganlik ko‘rsatkichlari va mezonlarining taxminiy namunasini keltiramiz.

**O‘zbekiston—Vatanim mening.** O‘zbekistonning tabiiy, ma’naviy, jug‘rofiya va milliy xususiyatini anglash, o‘lkaning o‘tmishi, hozirgi hayot va kelajagi haqida tushunchalarga ega bo‘lish, O‘zbekistonning, o‘zbek xalqining qahramon farzandlarining xizmatlarini bilish, O‘zbekiston Davlat ramzlarini bilish.

**Milliy g‘urur asoslari.** O‘zining o‘zbek millatiga mansubligini anglash, „O‘zbek xalqi“ tushunchasining madaniy mohiyatini tushunish, o‘zini o‘z millatining farzandi deb bilib, milliy burchlarini anglash, ona tilini cheksiz sevisht, shu tilda to‘g‘ri so‘zlash va fikrlash.

**Milliy odob.** Avval salomlashib, keyin so‘z boshlash, o‘zbek xalqida, „yaxshi“, „yomon“ deb baholanuvchi xulq namunalari bilish, barchani „siz“lash, o‘zidan katta va kichiklarni izzatlash, do‘stlik burchlarini bilish, ustozlarni e‘zozlash munosabati, uyat so‘z, so‘kinishga, odobsizlikka salbiy munosabat bildirish.

**Vijdoniylik.** Biror ishga qo‘l urishdan avval „Bu ishimga odamlar nima deyisharkan?“ degan mulohaza va andishaga borish, rostgo‘ylik, yaxshi xulq va yomon xulqning farqlarini tushunish,

yaxshi xulqqa ijobiy, yomon xulqqa salbiy munosabatini bildirish, ko'ngildagi gapni ochiq aytishga o'rganish.

Shu tushunchalar mohiyati ochib berilishi lozim.

### VATANNI SEVMOQ IYMONDANDIR

Ota-bobolarimizdan qolgan merosiy an'analardan biri — o'zi tug'ilib o'sgan vataniga, xonadoniga, el-ulusiga cheksiz izzat-ehtiromlar tuyg'usidir. „O'zga yurtning sultoni bo'lguncha, o'z yurtningni gadosi bo'l“ degan gaplar ham donolardan qolgan. Ajdodlarimiz o'z el-yurtlarining chinakam fidoyilari, o'z vatandoshlarining mehribonlari bo'lganlar. Kindik qonlari tomgan tuproqning bir siqimini o'zga yurtning olam-olam boyligi-yu behisob zarlariga almashtirmaganlar. Bu odat o'zbek xalqining qon-qoniga singib ketganki, u o'z go'shasini hech qachon o'zgalarning qasr-u koshonalariga almashtirishni ravo ko'rmaydi, „Ona yurtning — oltin beshiging“, „O'z uyim — o'lan to'shagim“, deya bor mehr-u muhabbatini o'z yurti, vatani, uyi, xonadoni ahliga ulashib, goh to'qlik bo'lsin, goh yo'qlik bo'lsin, shukur qilib yashayveradi.

Mana bu fazilatni vatanni sevish, vatanparvarlik deyiladi.

O'zbek xalq og'zaki ijodida, folklorning katta-kichik janrlarida, ya'ni mitti maqollardan tortib, yirik epik asarlar — qahramonlik, ishqiy, romantik dostonlarda bosh mavzu yurtsevarlik ohanglari bo'lib kelgan. Darhaqiqat, Vatan yo'lida fidoyilik ko'rsatish fazilati va xalq xarakteri, u tarbiyalagan bahodirlar xatti-harakatlarida alohida ko'zga tashlanadi. Folklor namunalarida ta'kidlanishicha, bir siqim muqaddas ona tuproq uzoq o'lkaga otlangan bahodirni hatto shunqor uchib o'tolmaydigan tog'lardan, asov daryolardan, qush uchsa qanoti, odam yursa oyog'i kuyadigan cho'l-u sahrolardan olib o'tadi, dushmanlar hamlasidan saqlab qoladi, maqsadga yetkazadi va ona yurtiga sog'-omon qaytadi.

O'zbek xalq dostonlarida ona diyorning bebaho timsoli yaratilganligi ularning g'oyaviy mazmunini yanada chuqurlashtirgan. Doston qahramonlari uchun ona diyordan ortiq muqaddas joy yo'q, ular o'z yurtlari ishtiyoqida yonadilar, aziz yurtning bir qarich yeri, bir siqim tuprog'i uchun jon olib, jon beradilar. Bu xususiyat, ayniqsa, „Go'ro'g'li“ dostonida juda kuchli namoyon bo'ladi. Xalq bahodir Go'ro'g'li tilidan shunday deydi:

*Yurtga dushman ko'z olaytirsan,  
Qarab turmas yigitning mardi.*

Yoki:

*Yurtni qo'ridi dushman ellardan,  
Yovlar kelsa tayyor edi Go'ro'g'li.  
Xalqqa dushman Go'ro'g'lining dushmani,*

*Ularni qiyrtar edi Go'ro'g'li.  
O'z vaqtida man-man degan shohlarni,  
Ushlagandan otar edi Go'ro'g'li.  
Elga g'anim qo'shin tortib kelganda,  
Shunda jonin tikkan edi Go'ro'g'li.*

Bu termadagi g'oya „Go'ro'g'li“ turkumidagi dostonlarning butun mohiyatini belgilaydi, deyish mumkin. Ularda yaratilgan afsonaviy Chambil eli timsolida keng ma'nodagi diyor — yurt obrazi har tomonlama mukammal yaratilgan. „Go'ro'g'li“ dostonlarining asosiy mavzularidan biri — yurtsevarlikni chuqur ochishga qaratilgandir. Shu ona yurt obrazi orqali baxshilar kishilarda vatanparvarlik, yurtni chuqur seva olish tuyg'ularini shakllantirib, ularni tobora rivojlantirganlar.

Xalq maqollarida ham bu g'oya o'z aksini topganligining guvohi bo'lamiz:

*Bulhul chamanni sevar,  
Odam — Vatanni.*

*Ona yurtning omon bo'lsa,  
Rangi ro'ying somon bo'lmas.*

*Eldan ayrilguncha, jondan ayril.*

*O'zga yurtning dang'illama saroyidan,  
O'z yurtningning kulbayi vayronasi yaxshi.*

*Yurt qo'risang o'zarsan,  
Qo'rimasang to'zarsan.*

*Yurti boyning o'zi boy.*

*Yurt bilan bo'lgan yetar murodga,  
Yurtdan ayrilgan qolar uyatga.*

Xalq og'zaki ijodi asarlarida eng ta'sirli, eng shirin so'zlar Vatanni sevuvchi, uning tashvishini o'zining tashvishi, uning

quvonchini o'zining sevinchi deb biluvchi, ona diyor sha'ni uchun kurashuvchi kishilar sharaflanadi, eng yomon so'zlar va qora bo'yoqlar salbiy obrazlarga nisbatan qo'llanadi. Xalq nazdida har qanday gunohni kechish mumkin-u, ammo Vatanga xiyonatni kechirib bo'lmaydi.

Bobolar aytadilarki: — O'z vatanini sevmagan odam — yomon odam.

Kimda-kim o'z ona diyoringning zamini-yu oqar suvlarini, kim-sasiz cho'llari-yu dala-dashtlarini qalbdan seva olsa, unday odam kam bo'lmaydi, kamol topadi. Vatan xoini esa xalq qahr-g'azabiga uchragan kishidir. Vaqti kelib, unga hatto bir qarich yer ham, kafan ham buyurmaydi. „Bir siqim ona yer tuprog'i bir hovuch oltindan qimmat“, — deb bejiz aytilmagan.

O'z vataningni, millatingni sevsang, uni qadrlay olsang, o'zgalar yurtini ham seva olasan. O'z uying, o'z qishlog'ing, o'z shahring, o'z ona diyoring fidoyisi bo'la olsang, qardoshing vatani uchun ham jonkuyar bo'la olasan.

Vatan tuyg'usi har kimning qoniga ona allasi, bolalikda eshitgan she'r, qo'shiqlar bilan kiradi. Vatanparvarlik tuyg'usi go'daklikdan boshlab shakllantirilsa, u so'nggi nafasgacha saqlanadi. Vatan va vatanparvarlik hissini, millat tuyg'usini har bir o'zbek fuqarosi chuqur anglashi, shu yurtga daxldorligidan faxrlanishi lozim.

Vatanparvarlik bu — Vatanimiz xalqiga, uning an'analariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmat bilan qarash hamda uni rivojlantirishga o'z hissasini qo'shish, uning haqiqiy jonkuyari bo'lishdir.

Vatanparvarlik bu — Vatan oldidagi mas'uliyat, millat manfaati bilan yashash, Vatan taraqqiyoti, millat obro'siga obro' qo'shish, unga foyda keltirish, fidoyilik, halollik bilan mehnat qilish, xalqning shon-shuhrati va manfaatini o'ylash, insonparvar bo'lishi demakdir.

Ona yurt tuprog'i shu qadar muqaddaski, uni dunyodagi hech narsaga qiyoslab bo'lmaydi. Nochor-u noilojlikdan oxirgi chora izlab, o'zga yurtlarga bosh olib ketgan yurtdoshlarimiz bizlardan ancha boy, farovon yashasalar-da, baribir o'sha boyliklardan kelgan baxt-u saodatning bir chekkasi kemtik ekanligini chuqur his etib turadilar. Bu o'z ona-Vatanining bir qism tuprog'iga zorlik, qachon bo'lmasin o'zi uchirma bo'lgan xonadoniga qaytib, o'z tuprog'iga qorishib ketish ilinjidir. Vatan shu qadar aziz, shu qadar mo'tabarki, undan bir qadam yiroq ketgan kishi buni yaxshi biladi.

Vatandan uzoqda buyuk imperiyani vujudga keltirgan. shohlik saltanatida nash`-u namo surgan Zahiriddin Muhammad Bobur ona yurti Andijonni loaqal bir bor ko`rish orzusida hasrat-nadomatlar chekib olamdan ko`z yumgan bo`lsa, el sevgan shoir Furqat kindik qoni to`kilgan Qo`qondan yiroq yashash azobini shunday ta`riflaydi:

*Fig'onkim, gardishi davron, ayirdi shah suvorimdin,  
G'amim ko'p, ey ko'ngil, sen bexabarsan oh-u zorimdin...  
Adashgan it kabi Furqat qayon borgum bilolmasman,  
Qachon bo'lg'aykim, topgaymen, xabar yor-u diyorimdin.*

Vatan mehri, Vatan ishq shu qadar buyuk. Unga bo`lgan mehr inson qalbiga shu qadar muqim o`rnashganki, hech qanday kuch bu tuyg`uni zo`rlik bilan sitib chiqarolmaydi. Xususan, bizning ajdodlarimizda bu tuyg`u ko`ngil tubida juda chuqur tomir yoygan. Ularning avlodlari hisoblanmish bizlarga ham bu tuyg`u teran singib ketgan.

#### TARBIYADA MILLIY UDUM VA ODATLAR

Tarixning guvohlik berishicha, har bir xalq va millat o`zining eng ibtidoiy davridan, ya`ni urug`chilik davridan boshlab, o`zligini namoyon qilishga, milliyiligini saqlab qolishga va uni tobora rivojlantirib borishga harakat qilib kelgan. Tarbiyaning bunday ko`rinishlari va uning o`ziga xos shakllari xilma-xildir. Shu o`rinda milliy qahramon Spitamenning vatanparvarlik yo`lida olib borgan mardonavor kurashlari fikrimizga dalil bo`la oladi.

Ilm-fanda mo`jizalar yaratgan Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg`oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va boshqa ko`plab ajdodlarimiz qaysi zaminda yashamasin, qaysi tilda asarlar yaratmasin, o`z elini, urf-odatlarini unutmaganlar, doimo „o`zbek“ degan nomni ulug`laganlar.

Milliy an`analarimizni o`rganishda Mahmud Koshg`ariy va Yusuf Xos Hojib singari mashhur siymolarning xizmatlari ham beqiyosdir.

Amir Temur, Mirzo Ulug`bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abulg`ozi Bahodirxon, Nodirabegim, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy kabi yorqin siymolarning sa`y-harakatlarini aytmaymizmi?! Haqiqatan ham, bu davr el-yurtimiz tarixini, madaniyatini va san`atini o`rganishning oltin davrini tashkil etadi.



Har bir xalqning ana shu ulkan ma'naviy qadriyatlarini chuqur tomir otib ketgan o'qildizlari bilan jahon madaniyatida o'ziga xos o'rin tutadi.

Turkiston qadim-qadimdan hunarmandchiligi, pazandachiligi, dehqonchiligi, ilm-fani, san'ati va adabiyoti, bir so'z bilan aytganda, ma'naviyati yuksakligi jihatidan olamga mashhurdir. Mehnatsevarlik, yerga mehr qo'yish, kasbiga ixlos, mehmondo'stlik, mehr-shafqatlik, odamgarchilik, ota-onaga hurmat, kattalarni siylash, aka-uka, opa-singil, qarindosh-urug'lar o'rtasidagi mehr-oqibat, peshona teri evaziga topilgan rizq-nasibaga qanoat qilib yashash, beva-bechoralarga muruvvatlilik xalqimizga xos odatlardir. Bu urf-odat, an'ana va marosimlarda xalqimizning qator noyob fazilatlarini, insonparvarlik xislatlarini mujassam.

Odat — xalqlarning ichki munosabatlarini tartibga soluvchi mezon va an'analar majmuasi. „Odat“ so'zi udum, urf, an'ana va marosim tushunchalari o'rnida qo'llaniladi.

Marosim esa odatning amaliy ko'rinishidir. O'zbek xalqi juda ham boy, xilma-xil odat va an'analarga ega.

Milliy urf -odatlar, an'analar tarixiy-ijtimoiy kategoriya bo'lib, ular muayyan millatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida avloddan-avlodga o'tib kelgan ishlab chiqarish, tirikchilik, maishat, xulq-atvor va boshqalarda o'ziga xoslikka ega bo'lib, rasm-rusumga aylangan munosabatlardir. Urf-odatlar asrlar davomida yashab, kishilarning axloqiy me'yorlariga aylangan holda, ularning qon-qoniga, xatti-harakatiga, kundalik turmush shakllariga singib ketgan.

Kishilarning o'z xalqi urf-odatlarini va an'analari amal qilmasliklari xalq qadriyatlarini bilmaslikka olib keladi. Chunki, har bir milliy urf-odatlarimiz, an'analарimiz negizida milliy ruh, ma'naviy qadr-qimmat kabi ulug' insoniy fazilatlar yotadi.

O'z qadr-qimmatini bilish kishini xudbinlikdan saqlaydi, o'zini boshqalar tomonidan kamsitilishiga yo'l qo'ymaydi. Shuningdek, o'z qadr-qimmatini, izzat-nafsini hurmat qiladigan inson o'zgalarni xo'rlamaydi, u faqat yaxshilik qilishni o'ylaydi.

Inson bolasi yoshligidan yaxshi va yomon odatlarning qaysinisiga ko'nikib, o'rganib qolgan bo'lsa, bu odat uni bir umr tark etmaydi. Shuning uchun ham xalqimizda „Yoshlikda o'rgangan hunar, o'zingga o'ljaga qolar“ kabi maqollar bor.

Quyida tarbiyaviy ahamiyatga ega xalq udumlari, urf-odatlaridan ayrimlari ustida fikr yuritamiz.

## FARZAND KO'RISH BILAN BOG'LIQ BO'LGAN UDUMLAR

Islom dini ta'limotiga ko'ra, farzand ko'rgan ota-ona zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatiladi: tug'ilgan bola qulog'iga azon aytirish, unga munosib ism qo'yish, jonliq so'yib, aqiqa qilish, o'g'il bo'lsa, qo'lini halollash, axloq-odob, ilm-hunarga o'rgatish, bo'yiga yetganda munosibiga uylantirish, (qiz bo'lsa uzatish) — boshini ikkita qilib qo'yish kabillardir. Odatga ko'ra, ota-bobolarimiz tavallud topgan bola qulog'iga, birinchi navbatda, azon aytirganlar.

Bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino go'dakning chilla davri to'g'risida ming yil burun aytib ketgan fikrlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Tavallud topgan chaqaloq to'ng'ich farzand bo'lsa, bozordan beshik sotib olinadi. Odatda, beshikni kelinning ota-onasi olib keladi. Ikkinchi yoki navbatdagi farzand tug'ilganda opa-akasining beshigiga belanadi.

Mustahkam, qulay, xosiyatli bitta beshik bir oiladagi bir necha farzandnigina emas, uch-to'rt avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazishi mumkin. O'zbeklar, tojiklarda bobosi, otasi yotgan beshikda parvarish topgan bolalar bor. Yosh onalar ixlos qo'yib, mana shunday xosiyatli, ko'hna beshiklarda o'z chaqaloqlarini boqishni afzal ko'radilar. Shuning uchun beshikni muqaddas bilib, uni hech qachon, chaqalog'i bo'lmasa ham, tashlab yuborilmaydi.

Beshik bor joyda bola bo'ladi. Bola bor joyda alla aytilishi tabiiy. Allalar xalq turmushining juda ko'p qirralari o'z in'ikosini topgan. Alla o'z ohangi bilan bolaga ona nafasini yetkazib turadi. Go'dakni xotirjam qiladi, elitadi, orom olib uxlashga imkon beradi.

Allalarga onalar o'z his-tuyg'ulari, orzu-armonlari, istak-niyatlarini, dard-hasratlarini ham qo'shib aytganlar. Alla tarbiyaviy, didaktik, an'anaviy ijod namunalaridan iborat bo'lgan. Alla tinglagan bola onaga mehrini sut bilan o'z shuuriga singdiradi. Alla inson miyasida bir umr mungli, hazin, nurli qo'shiq bo'lib saqlanib qoladi. Alla eshitmagan bolada bu xususiyatlar bo'lmaydi. Alla nafaqat onaning bolaga mehri, balki bolaning onaga mehri oqibatining ham manbayidir.

Bolaga munosib ism tanlash ham azaliy odatdir. Xalq orasida odam bolasi o'z xulq-atvori, fe'li va shu jumladan, ismi bilan bilinadi, degan gap bor. Ota-onalarning eng muhim burchlaridan biri o'z farzandlariga munosib ism topib qo'yishdan iborat.

Bolaga ism qo'yish g'oyatda jiddiy, mas'uliyatli udum sanalib, bu ism bo'lajak fuqaroning kelajak taqdiri — hayot yo'liga ta'sir

qiladi, deb tushuniladi. Shuning uchun ham, urug', kasb kor-u sulola mavqeyiga mos ism qo'yish taqozo qilingan.

Avvalo, ismlar mavridi bilan Xudo va Payg'ambarlarning nomlari asosida Rasul, Akbar, Nabi, G'ani, Muhammad singari atalgan. Bu bilan farzand Olloh Taoloning marhamatidan dunyoga keldi, umri uzun bo'lsin, Xudo yorlaqasin, degan niyat qilingan. Xudoyberdi, Olloberdi, Tangriberdi singari ismlar aksariyat paytlarda qizlar orasida tug'ilgan yagona o'g'il bolaga, tilab olingan farzandlarga qo'yilgan. Bola tug'ilgan fasli, vaqti va marosim davriga qarab: Bahor, Navro'z, To'ychi, Cho'li, Bayram singari ismlar bilan atalgan.

Chaqaloqning oiladagi o'rniga qarab Ergash, O'g'iloy, Qo'chqor kabi ismlar berilgan. Badandagi belgilarga qarab Xoldor, Ortiq, Qudrat, Sunnat, Nortoji deb ism qo'yilgan.

Tug'ilgan qizlarning qadami xayrli kelsin degan niyatda Muborak, Muqaddas, Sharofat, Xayriniso, Umriniso, Robiya; oy-quyoshdek bo'lsin deya Munavvar, Shamsiqamar, Oypari, Oygul; gul-u chechaklardek nafis, muattar va yoqimli bo'lsin deb Gulrang, Gulchehra, Nargiza singari ismlar qo'yilgan.

Ko'pincha, bolaga ism tanlashda, uning qaysi kunda tug'ilganligi hisobga olingan. Bozorvoy, To'ychivoy, Hayitvoy, Chorshanba singari ismlar ana shular jumlasiga kiradi.

Ism qo'yishda ota-onaning, aka-opalarning ismi ham muayyan o'rin tutadi. Keyingi ismlarga monand tarzda qo'yiladi. Masalan, Naima, Karima, Salima; Mahmud, Ma'sud, Maqsud singari.

O'zbek oilalarida er-xotinlar bir-birining nomini aytib chaqirishmagan. Juda zaruriyat tug'ilganda, ular bir-birlarini katta farzandlarining nomi bilan atashgan. Bu hol sharqona nafis munosabatning bir belgisidir.

Xalqimizda „Ota bo'lish oson, otalik qilish qiyin“ degan naql bor. Murakkab hayot yo'lida to'g'ri ism olgan o'g'il-qiz ota-onaning, avlodning munosib davomchilari bo'lib, bu yo'lda kattalarga yordam berishlari talab qilinadi.

Keksalarni hurmat qilish, ularning maslahatlarini, yo'l-yo'riqlarini olib ish tutish, pand-nasihatlariga quloq solish va unga amal qilish qadim-qadimdan o'zbeklarga xos odat bo'lib kelgan.

Nonni e'zozlash odati qadim-qadimdan to shu kungacha davom etib kelmoqda. „Nonga hurmat, elga hurmat“, „Non mo'lligi — el to'qligi“ kabi qator xalq maqollarini non haqida bo'lgan suhbatlarda ishlatish o'rindir.

Masalan, mehmon kutganda dasturxonga birinchi bo'lib non qo'yilishi, ikki yoshni unashirish marosimida patir ushatish odati, chaqaloqni beshikka solganda boshiga non qo'yish, yo'lga chiqqanda o'zi bilan birga non olib ketish eng yaxshi odatlardir.

Xalqimizning ajoyib odatlaridan yana biri suvni e'zozlashdir. Ota-bobolarimiz suvning bir tomchisini ham nobud qilmaslikka intilganlar. Suvga tufllash, unga mag'zava va chiqindilarni oqizish, turli xas-cho'p va axlatlarni tashlash katta gunoh hisoblangan.

Suv hayot demakdir. Suv bor joyda odam yashnaydi, o't-o'lan, ekin-tikin, gul va daraxtlar gurkirab o'sadi. Qurt-qumursqadan tortib odam va hayvonlargacha suvdan bahramand bo'ladilar.

Suvning qadriga yetmaslik, uni nes-nobud qilish, avaylab ishlatmaslik qanchalik og'ir oqibatlariga, tabiat muvozanatining buzilishiga olib kelishini Orol dengizining qurib borayotganida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Dengiz suvining tobora kamayishi uning atrofida yashayotgan aholining sog'ligiga jiddiy putur yetkazmoqda, atrofdagi ekologik vaziyatning buzilishiga olib kelmoqda.

Endilikda Orolni qutqarishga butun jahon jamoatchiligining diqqat-e'tibori jalb qilinib, katta mablag'lar sarflanishi kutilayotgan bir sharoitda xalqimizning suvdan hamma joyda tejab-tergab foydalanish haqidagi azaliy udumini hamisha yodda saqlash, uni o'quvchilar ongiga singdirish ayni muddaodir.

Qo'ni-qo'shnichilik, mehmondo'stlik, hashar kabi ajoyib odatlarimiz eng mo'tabar insoniy xususiyatlar sifatida yashab kelmoqda.

O'zbek xalq maqollarida „Yon qo'shni — jon qo'shni“, „Uzoqdagi qarindoshdan — yaqindagi qo'shni yaxshi“ deyilgan bo'lsa, Hadislarda qo'shnichilik to'g'risida shunday deyilgan: „Yonida qo'shnisi och turib, o'zi to'ygan odam mo'min emas“. Bu chuqur ma'noli gapda odamlarni insof-diyonatga, mehr-oqibatli bo'lishga chorlaydigan ajoyib o'gitlar o'z ifodasini topgan.

Mehmondo'stlik o'zbek xalqiga xos ajoyib bir udum. Xalqimiz o'zi chor-nochor yashaganda ham topganini mehmondan aya-maydi, uning dilini xushnud qilishni istaydi. Bu saxovatlilikning, ulug'vorlikning belgisidir.

Buyuk bobokalonlarimiz Navoiy, Ulug'bek, Bobur kabi daholar hayoti va faoliyati bilan tanishganimizda, A. Qodiriyning mashhur „O'tgan kunlar“ romanidagi Otabek va Kumushbibilar o'sgan xonadonlar oila tarbiyasida, o'zaro muomalada yuksak bir odob-axloq namunasi ekaniga guvoh bo'lamiz. Bu oilalarda ota-onalarning

farzandlar bilan, hatto ustozlarning shogirdlar bilan muomalada „siz“lab gapirishlari, oiladagi farzandlar va tengqurlar ham o‘zaro so‘zlashuvda „siz“lab muomala qilishlari nihoyatda ibratlidir. Bu va shu singari ibratli urf-odatlarimiz kishilardagi mehr-oqibatni, o‘zaro hurmat-izzatni, o‘rtoqlik, do‘stlik rishtalarini yanada mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun dono xalqimiz „sen“ ham bir og‘izdan chiqadi, „Siz“ ham, deb bekorga aytmagan.

Bu odatlarimizga hozir ham ko‘pgina oilalarda amal qilinadi. Tarbiyaviy ishlarni yaxshi yo‘lga qo‘ygan, bu udumimizning mohiyatini chuqur anglab olgan o‘qituvchilarimiz unga amal qilish borasida ko‘nikma va malaka hosil qildirganlar.

Katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan oilaviy udumlarimizdan yana biri dasturxon atrofida o‘tirish, oilaviy ovqatlanishdir. Odat bo‘yicha dasturxon atrofidagi oddiy suhbatda keksalar to‘rda, undan keyin ota-ona, aka, opa, kelin, singil, ukalar o‘tiradi. Eng yosh bolalar kattalar yonida o‘tirishlari kerak. Barcha oila a‘zolari to‘planib, dasturxonga taom tortilgandan so‘ng shu yerdagi yoshi ulug‘ kishilarning ruxsati bilan ovqatga qo‘l uzatish lozim. Yoshi kattalarni hurmatlab, ular obro‘si va izzatini o‘z o‘rniga qo‘yish bu odatimizning asosiy maqsadidir. Choy atrofidagi suhbatda choynak, piyola, tagliklarning tozalab yuvib-artilishi, har bir kishi uchun alohida piyola tutilishi gigiyena talabi bo‘lsa, choyni uch marta piyolaga quyib, choynakka qaytarib quyish hech qanday irim-sirim bo‘lmasdan, balki choy ta‘mining bir xilligini ta‘minlash uchun qilinadi. Choyni yoshi kattalar quyib, yoshlarga uzatishi esa odobga zid bir holdir.

Ovqatlanib, choy ichib bo‘lgandan so‘ng dasturxon atrofidagi keksa yoki yoshi kattaroq kishidan dasturxon va taom haqiga duofotiha o‘qing, deb so‘raladi.

Ilgarigi paytlarda xalqimizning eng oliyjanob oilaviy an‘analardan biri kechalari bilan sandal atrofida o‘tirib tarbiya, odob-axloq haqida maroqli suhbatlar o‘tkazishlari bo‘lgan. Bunda ular o‘zbek xalq ertaklari, dostonlari, Qur‘oni Karim va Hadislardan odamlarni halollikka, poklikka, diyonatga undovchi rivoyatlarini misol keltirib, turmushda, hayotda uchrab turadigan salbiy voqeahodisalarga atroflicha baho berish asosida farzandlarini to‘g‘ri yo‘lga boshlaganlar.

O‘zbek xalqining turmush tarziga singib ketgan yaxshi va ijobiy urf-odatlarimizning ko‘pchiligi xalqni, jamiyatni faqatgina yaxshilikka — oliyjanob inson, axloqi pok, jismoniy sog‘lom, e‘tiqodli

shaxs bo'lib yetishishiga xizmat qilib keldi. Xalqimizda ko'p yaxshi, ibratomuz urf-odatlar borki, ularni bugungi kunda ham keng qo'llash foydadan xoli emas. Masalan, qadimda farzandi voyaga yetmagan yoki farzandsiz kishilar, xususan, qariyalar biror-bir yumush uchun hech qachon mardikor yollamaganlar. Mabodo yollagudek bo'lsalar, bu hol shu mahallada istiqomat qiluvchi yoshlarning izzat-nafsigiga tekkan; yon-atrofida tayyorlar turganda chetdan odam olib kelib, yumush buyurish katta ayb sanalgan. Qishda qor kurashmi, kuzda tom suvashmi, o'tin yorib, suv tashishmi yoki ekin-tikin ishlarimi — hamma-hammasi qo'ni-qo'shni bolalari yordami bilan bajarilgan. Oilada erkagi bo'lmagan ayollar esa bozor-o'char ishlari, o'tin yorish, suv tashish tashvishlaridan butunlay ozod bo'lganlar. Buning uchun bo'sh chelaklarni ko'cha darvozasi oldiga chiqarib qo'yish, o'tin va boltani tashqariga qo'yishning o'zi kifoya qilgan. Bularga ko'zi tushgan yo'lovchilar tanish-notanishligidan qat'iy nazar, chelakni suv bilan to'ldirib, o'tinni yorib ketaverishgan.

Mana shunday beminnat hojatbarorlar uy sohibidan pul so'ramaganlar, biror narsa tama ham qilmaganlar. Chunki yoshlar birovlarning hojatini chiqarmoq uchun o'zlarini hamisha burchli deb hisoblaganlar. Bu qimmatli udumimizni ayni vaqtda ham qayta tiklamoq zaruriy ishlardan biridir. Yoshlarimiz ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan ushbu odatlarni tiklashga hissa qo'shsalar ayni muddao bo'lar edi. Bu esa ularning kelgusi kamolotini, rizq-uro'zlarining barakasini va hech qachon zavol ko'rmasliklarini ta'minlagan bo'lardi. Zotan, dono xalqimiz: „Yerdan ayrilsang ham eldan ayrilma“, „El ishini er yigit qilur, er yigit qadrini el bilur“, — deb bejiz aytmagan. Yoshlarimiz ana shu dono o'gitlarga amal qilishlari maqsadga muvofiqdir.



### *Savol va topshiriqlar*

1. Sharqona milliy tarbiya mezonlarini belgilashda qanday omillarga tayanish lozim, deb hisoblaysiz?
2. Vatan, ona yurt oldidagi burchni Siz qanday tushunasiz?
3. Mustaqil Vatanimiz shon-shuhratini ko'tarish uchun nimalar qildingiz, nimalar qilmoqchisiz?
4. Tarbiyaviy ahamiyatga ega xalq udumlari, urf-odatlar haqida gapirib bering.
5. Sizning oilangizda milliy udumlarga munosabat qanday? Qaysi udumlarni yoqtirasiz?



## **XXII BOB. TARBIYA USULLARI**

### **TARBIYADA AXLOQ-ODOB FAZILATINI TARKIB TOPTIRISH**

Tarbiya metodlari (usullari) — o'qituvchi-tarbiyachining o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish usullari, ularga ijobiy xulq-atvor ko'nikmalari va malakalarini singdirish maqsadida ularning hayoti va faoliyatini tarbiyaviy jihatdan to'g'ri tashkil etish yo'llaridir. Aniqrog'i, tarbiya usuli deb tarbiyachining bolalarda axloq-odob fazilatlarini tarkib toptirish maqsadida ularning ongi va irodasiga ta'sir etish yo'llariga aytiladi. Tarbiya usullari tarbiyaning maqsadi va mazmunidan kelib chiqib, komil inson shaxsini tarbiyalashga qaratilgandir.

Ajdodlarimiz davr sinovidan o'tgan ajoyib insoniy fazilatlar hamda ularni amalga oshirish usul va vositalarini yaratganlar, shu asosda yoshlarni ijtimoiy hayot talablariga javob beradigan kishilar qilib tarbiyalab kelganlar. Bolalarda insoniy his-tuyg'ularni tarbiyalashning asosi — kishilarga mehr-muhabbat qo'yish, izzat-hurmat bilan muomala qilish, insoniy huquqlarni himoya qilish, qadrlash, kishilar oldidagi o'z burchini anglash, odamlarga nisbatan samimiy, halol va rostgo'y bo'lish kabi odob va axloq qoidalarini o'z ichiga oladi.

O'zbek xalq pedagogikasining muhim ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlaridan yana biri folklor materiallarida xalq pedagogikasida qo'llaniladigan tarbiya yo'llari, usuli va vositalarining yoritilishidir.

Mehnatkash xalq ommasi, yuqorida qayd qilib o'tilganidek, uzoq davrlar davomida vujudga kelgan tarbiya usullari va vositalaridan foydalangan. Chunonchi, tushuntirish, odatlantirish (o'rgatish, mashq qildirish), rejim, ibrat (namuna, o'rnak) ko'rsatish, maslahat berish, o'git-nasihat, undash, ko'ndirish, iltimos qildirish, yolborish, tilak-istak bildirish, ma'qullash, maqtash, rahmat aytish, duo qilish, oq yo'l tilash, taqiqlash, man etish, ta'na, gina (o'pka) qilish, qoralash, Oллоhdan qo'rqishga undash, tanbeh berish, uzr so'rash, majbur qilish, masxara-mazax qilish, zaharxandalik, ayblash, uyaltirish, koyish, qarq'ash, qo'rqitish, nafrat bildirish, aybiga iqror qildirish, ont-qasam ichirish, la'natlash, so'kish, urish-kaltaklash; jamoa hukmiga havola qilish kabi usullar tarbiyada qo'l kelganligi ta'kidlanadi.

Shu bilan birga, bolalar yashab turgan muhitdagi yashash tarzi ular tarbiyasiga katta ta'sir o'tkazgan. Jumladan, mehnat jarayoni, turli shakldagi hasharlar, bolalar o'yini; bolalar ijodi, choyxona gurungi, xalfana, to'y marosimlar — aqiqa, beshik to'yi, sunnat to'yi, nikoh to'yi; sayillar — dala sayli, gul sayli, qovun sayli, yig'in-tomosh, tug'ilgan kunni nishonlash, yigit bazmi, qiz majlisi, istirohat bog'larida bo'lish, ommaviy tomoshalarga qatnashish va hokazolar tarbiyaviy vosita sifatida xizmat qilib kelgan.

Ayni vaqtda, tarbiya mazmunining ko'p qirraliligi va kengligi tufayli tarbiya usullari ham xilma-xil bo'lib, muayyan sharoitda ulardan qaysi birini tanlash va qo'llash o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida vujudga kelgan munosabatlarga, tarbiyaning qaysi sohasi hal qilinayotganligiga (o'quvchilarda burchga munosabat, ota-onaga, kattalarga hurmat, odob qoidalariga rioya qilish, savob va gunoh ishlar, xushxulqlik hamda badxulqlik haqida), ayni vaqtda vujudga kelgan vaziyatga bog'liqdir.

Tarbiya usuli ham ta'lim usuli kabi yolg'iz o'qituvchi va tarbiyachilar faoliyatiningina emas, balki o'quvchilarning faol ishtirokini ham o'z ichiga oladi. Bolalarning yoshi ulg'aygan sari ularning tarbiya jarayonidagi faolligi va mustaqilligi osha boradi, ular tarbiyachilar rahbarligida va o'z tashabbuslari, intilish va istaklari bilan yangi-yangi axloqiy fazilatlar orttirib, mukammallashtirib boradilar.

O'qituvchi qo'llayotgan usul va vositalar ta'sirida bolaning ongida va xulqida ham o'z shaxsini o'zgartirish istagi vujudga keladi. Bola o'zini o'zi tarbiyalamasa, aql-farosatini ishga solmasa, tarbiyadan ko'zlangan natijaga erishib bo'lmaydi. Har bir bola o'zining xulq-atvoriga talabchan bo'lishi va o'zida eng yaxshi insoniy fazilatlarining tarkib topishi uchun astoydil tirishmog'i lozim.

O'qituvchi va tarbiyachilar bolalarni kichik yoshdan boshlab o'zini o'zi eplash, odamlar bilan qay yo'sinda muomala qilish, rost so'zlash, kattalarga hurmatda bo'lish, o'zidan kichiklarga mehribonlik ko'rsatish kabilarga o'rgatib, odatlantirib borishlari lozim. Umuman, o'zini o'zi tarbiyalash axloqiy barkamollikka ishtiyoq tug'dirishdir.

O'z-o'zini tarbiyalash bolaning doimiy ishi bo'lmog'i va uzluksiz davom etmog'i zarur. Chunki haqiqiy tarbiya bolani o'z kuchi, layoqati va qobiliyatini ishga solishga undaydi, uning ideallarini, e'tiqodini tarkib toptiradi. Natijada bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaviy jarayon o'z-o'zini tarbiyalash jarayoniga aylanadi.



„Tarbiya usullari“ nazariyasida yana „yo‘l“ va „vosita“ tushunchalari ham qo‘llaniladi. Yo‘l usulga nisbatan xususiy tushuncha bo‘lib, usulga bo‘ysunadi, xizmat qiladi. Masalan: bolalarni axloq-odob qoidalariga o‘rgatish, odatlantirish uchun mashqlardan foydalanamiz. Bu usulga turli yo‘llar xizmat qiladi, ya‘ni ko‘rsatamiz, o‘rgatamiz ta‘kidlab, esiga tushirib turamiz yoki ma‘ruza, suhbatlar orqali axloqiy fazilatlar mazmunini ochib beramiz.

Bu o‘quvchining ongiga ta‘sir etish maqsadidagi ishontirish yo‘llaridir. Lekin ishontirishda bolaning faqat ongiga ta‘sir etish orqali natijaga erishish qiyin bo‘ladi. Shuning uchun aytganlarimizning to‘g‘riligini isbotlash va uni aniqlashtirish uchun ko‘rsatish usulidan foydalanamiz: xushxulqlik va badxulqlikka oid hikoya, rivoyat, hikmatlardan foydalanamiz va hokazo. Bularning biri odatlantirish usulining yo‘li bo‘lsa, ikkinchisi ishontirish usulining yo‘lidir.

Tarbiyaviy vosita ancha keng tushuncha bo‘lib, har qanday tarbiyaviy vazifani hal qilish uchun qo‘llanilayotgan usuliy yo‘lning muvaffaqiyatli chiqishiga ko‘maklashadi. Tarbiyaviy vositaga turli xil predmetlar, faoliyat turlari, tarbiyaviy maqsadda qo‘llanayotgan texnik imkoniyatlar, ko‘rsatmali qurollar, ajdodlarimiz merosi, xalq og‘zaki ijodi materiallari, bolalar adabiyoti, ommaviy axborot vositalari (radioeshittirish, maktab radiosi, televideniye ko‘rsatuvlari yoki kinofilm va boshqalar)ni kiritish mumkin.

Mohir tarbiyachi bolaga tarbiyaviy ta‘sir etishda uning yoshi va shaxsiy xususiyatlari, tarbiyalanganlik darajasi, o‘zi bilan bola o‘rtasida vujudga kelgan munosabat, o‘quvchi intilishlarining o‘ziga xosligi, faoliyatda qatnashishdan bolaning ko‘zlagan maqsadini hisobga olib, unga ta‘sir etishning muvaffaqiyatini ta‘minlaydigan usulni to‘g‘ri tanlay oladi.

Usullar tizimining o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular o‘zaro bog‘liq bo‘lib, uning bir turi ikkinchisi bilan qo‘shilib ketadi. Hech bir usulni alohida, yakka qo‘llab bo‘lmaydi. Masalan, o‘qituvchi o‘quvchilar bilan ishlashda, ular uchun yangi bo‘lgan o‘quv mehnatini o‘rgatish ishini o‘quvchilarning xulq-atvor qoidalarini, maktabda va uyda kun tartibi aniq bo‘lishi muhimligini, qunt bilan, zo‘r berib mehnat qilish zarurligini uqtirishda tushuntirish yo‘lini qo‘llaydi. Tushuntirish bilan bir qatorda, o‘qituvchi o‘z o‘quvchilariga har kuni axloq-odob qoidalarini mashq qildiradi, ularni sinfga to‘g‘ri kirib kelishiga, o‘qituvchi va bolalar bilan salomlashishga, partada shovqin-suronsiz o‘tirishga, ish joyida tartib

saqlashga, o'qituvchiga murojaat qilish va hokazolarga odatlantirib boradi.

O'qituvchilarni o'quv mehnatiga jalb qilish o'qituvchidan o'quv ishi natijalarini rag'batlantirishni talab etadi. Shu bilan birga, o'quvchilar bilan ishlaganda ma'qullash, maqtash singari ta'sir vositalarini, shuningdek, beparvolik, qunt qilib ishlamaganlik uchun ogohlantirish, tanbeh berish, uyaltirish usullarini qo'llay boshlaydi.

O'qituvchi o'quvchilarni dastlabki kundan boshlaboq o'z ustida ishlashga, o'z-ozini tarbiyalash malakalarini egallashga o'rgatadi. Ko'rib turibmizki, o'qituvchi bolalar bilan ishlashda tarbiyaning xilma-xil usuli va vositalarini qo'llaydi, bunda bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini va butun sinf jamoasining manfaatlarini ko'zlab, biron-bir qaror qabul qilishni talab etadigan tarbiyaviy vaziyatni hisobga oladi.

Tarbiyaviy usullarni, ularning vazifasiga qarab, quyidagi asosiy guruhlarga ajratish mumkin:

— ijtimoiy axloqni tarkib toptirish va o'quvchilar faoliyatini yo'lga qo'yish usullari: o'rgatish, ibrat-namuna, ishontirish, o'yin, musobaqalar.

Bular yordamida o'quvchida axloqiy odatlar hosil bo'ladi. O'quvchining xulqida tarbiyaning mazmuniga muvofiq axloqiy nafosat, mehnat qilish odatlari qaror topib boradi. Bunday odatlar, asosan, faoliyat zaminida tarkib topadi. Demak, bola shaxsni ifodalaydigan ijtimoiy xulq odatlarini hosil qilish uchun uni faoliyatga jalb etish yo'li bilan ijtimoiy aloqalar sharoitiga qo'yamiz va uning shaxsiy xususiyatlarini belgilaydigan odatlar hosil qilamiz. Bu guruh usullarga vazifalari bir-biridan farq qiladigan juda ko'p yo'l va vositalar kiradi. Masalan, o'quvchiga sharqona urf-odat, tarbiyani o'rgatish, mashq qildirish, ibrat-namuna, talab etish, ishontirish, o'yin, jamoatchilik fikridan foydalanish shular jumlasidandir.

O'qituvchi egallagan ijobiy tajribalarni mustahkamlash maqsadida musobaqa, topshiriqlar berish yo'llaridan foydalanishi mumkin.

O'quvchilarning ongi va his-tuyg'ulariga ta'sir qilish bilan birga, ularning xulq-atvorida kerakli fazilatlarini tarbiyalash zarur. Bu ishni o'quvchilarning maktabga birinchi qadam qo'ygan kunlaridan boshlamoq kerak. Boshlang'ich maktabdayoq o'quvchilarda xulq-atvor sohasida dastlabki ko'nikma va odatlar hosil bo'ladi va mustahkamlanadi.

Darsni to'g'ri tashkil etib, ta'limning xilma-xil usullarini qo'llash, o'quv ishlarida o'quvchilarning faolligiga erishish bolalarda qimmatli fazilatlarining tarkib topishiga yordam beradi. Ularda tashabbuskorlik, qat'iylik, har qanday qiyinchiliklarni yenga bilish kabi ijobiy fazilatlarini shakllantiradi.

Uyga berilgan vazifani puxta va astoydil bajarishlari o'quvchilarda o'quv vazifalariga mas'uliyat bilan qarash, batartiblik va uyushqoqlik, faollik, tashabbuskorlik kabi foydali sifatlarni tarbiyalashga ijobiy ta'sir etadi.

O'quvchilarda mana shunday axloqiy fazilatlarini tarbiyalash va mustahkamlash zarur. Axloqiy fazilatlar bolalarda, asosan, ularning faoliyatlari jarayonida hosil bo'ladi. Shuning uchun bolalarga ularning ma'naviy qiyofasini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan amaliy vazifalarni ko'proq topshirish lozim.

O'rgatish usuli o'quvchilarning hayotini, mehnatini, dam olishlarini batafsil o'ylab chiqilgan holda tashkil etishni hamda dastlabki axloq-odob fazilatlarini tarkib toptirish maqsadida ularni muomala-munosabat, yurish-turish odobini o'rgatib borishni nazarda tutadi.

Xususan, o'qishning dastlabki kunlaridan boshlab, o'qituvchining biror-bir xatti-harakat namunasi surat, diafilmlarni namoyish qilish, ta'sirli, qiziqarli hikoya, rivoyat o'qib berishi yordamida o'zi qilib ko'rsatishdan boshlanadi.

Bolalarda biror xatti-harakat shakliga ijobiy munosabat uyg'otishni o'rgatishning muhim sharti deb hisoblamoq kerak. Bunga esa ko'rsatmalilik, obrazlilik, o'qituvchining o'zi bolalarga o'rgatayotgan fazilatga hissiy, ijobiy munosabatda bo'lishi asosida erishiladi.

O'quvchilar jamoasida vujudga keladigan sharoit (vaziyat) ham katta ahamiyatga ega. Agar o'quvchilar hech narsadan cho'chimay o'z o'rtoqlarining xatti-harakatini baholay olsalar, tortishsalar, o'qituvchiga xohlagan savollarini bersalar, bunday vaziyat ularning axloq qoidalariga bo'lgan munosabatlariga ijobiy ta'sir etadi. Kattalarning o'qituvchilar, ota-onalar, jamoatchilikning bolalar xulq-atvori, yurish-turishini nazorat qilib turushi ham ishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Bu nazoratning muntazam, tizimli va puxta bo'lishi juda muhimdir. Ana shunda u o'quvchilarda axloq-odob fazilatlarining tarbiyalanishiga olib keladi.

O'rganish usuli bolalarning yoshi va tarbiya sharoitlariga qarab o'zgarib turishi mumkin. Tarbiya ma'lum bir topshiriqni (tuvakdagi

gullarga suv quyish, parvarish qilish, sinfda tozalikka rioya qilishni kuzatib borish va hokazo) berishi mumkin. O'quvchi bu topshiriqni bajarish davomida zarur axloq-odob qoidalarini egallab oladi.

Tarbiyada mashqlardan faqat axloq-odob fazilatlarini tarkib toptirish yo'li sifatida ham foydalanish mumkin. Shuning uchun o'rgatish va odatlantirish usullaridan foydalanishda bolalarning axloq borasida erishilgan natijalaridan qanoatlanish va o'z shaxslarini takomillashtirib borishga intilish hissini sezishlari muhimdir.

**Ibrat-namuna usuli.** Bolalar tarbiyasida ibrat-namunaning ahamiyati kattadir. Namuna yoki ibrat usuli bolalardagi taqlid-CHANLIKKA asoslanadi. Taqlid boshqalarning xulq-atvorini, yurish turishini ongli yoki ixtiyorsiz ravishda takrorlash demakdir.

Odatda, bolalar o'zlarining yaqinlari, tevarak-atrofdagi kishilarning (ota-onalari, opa-akalari, muallimlari, kattalar, teng-qurlari) xulq-atvorini va xatti-harakatlarini kuzatib boradilar, ularga taqlid qiladilar. Lekin, ko'pincha, bularning nimasi yaxshi-yu, nimasi yomon ekanini farqlay olmaydilar, ular o'zlari uchun ma'qul bo'lganlariga taqlid etadilar va qabul qiladilar.

Bolalardagi bu xususiyatlar shuni ko'rsatadiki, ularning axloq-odob qoidalarini o'zlashtirishi, axloqiy tasavvurlarni hosil qilishi shundan, ya'ni ibratdan boshlanadi. Dastlab bola oila a'zolaridan ibrat ola boshlaydi. Ota-ona va oilaning katta yoshdagi a'zolari namunasi kichik yoshdagi bolaga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda asosiy manbadir.

Bola maktabga borishi bilan u taqlid etadigan va ergashadigan kishilar doirasi kengayadi.

Yosh bolalar yon-atroflaridagi kishilarning hamma xatti-harakatlarini takrorlay berish o'rinli emasligini xali tushunib yetmaydilar.

Bola yoshi ulg'ayib, katta bo'lgan sari nima yaxshi-yu, nima yomon, qaysi xulq-atvor odamlarga huzur bag'ishlashi, qaysi qiliq, xatti-harakat noxushlik keltirishini fahmlay boshlaydi.

Bola katta bo'lib, es-hushini taniy boshlagan sari yurish-turish, muomala-munosabatda o'z nuqtayi nazari va fikriga tayanib ish qiladi.

U kattalarning xulq-atvori va yurish-turishlariga ko'proq tanqidiy ko'z bilan qaray boshlaydi va ijobiy xislatlarigagina taqlid qilishga urinadi.

Bolalarga hayotdagi yaxshi odamlar, badiiy adabiyotdagi ijobiy obrazlar, mehnat qahramonlari, ota-bobolarimizning o'lmas

jasoratlari, ezgu ishlari taqlid qilish uchun yaxshi namuna bo'ladi. Shuni alohida qayd etish kerakki, bolalar hamma ijobiy xulq-atvor va xatti-harakatlarga taqlid qilavermaydilar.

Shuning uchun o'qituvchilar, tarbiyachilar va ota-onalarning o'zлари, hammadan burun, bolaga namuna bo'limoqlari, o'zlarida eng yaxshi fazilatları aks ettirmoqlari kerak. Shu bilan birga, o'qituvchilar ibrat uchun namunaları xalq og'zaki ijodi, bolalar adabiyoti, maktab, sinf hayoti, ota-onalar faoliyatidan olmoqlari kerak. Bolalarda ijobiy xulq-atvor ko'nikmalarini tarbiyalashda oila muhiti, ota-onaning hayot tarzi, oiladagi kattalarning yaxshi ibrati g'oyat muhimdir. Xalqimiz: „Qush uyasida ko'rganini qiladi“, deb bejiz aytmagan. Oilada er-xotin o'zaro totuv, ahil bo'lishsa, bir-birlarini hurmat qilishsa, bolalar tarbiyasida barobar jon kuydirishsa, oiladagi kattalar siylanib, izzat-hurmat qilinsa, aka-uka, opa-singillar bir-biriga mehribon bo'lishsa, qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug', yor-u birodarlar o'rtasida mehroqibat, bordi-keldi bo'lsa, bunday oilada voyaga yetayotgan bola ham millatimizga, xalqimizga xos urf-odatları o'rganadi va ularga amal qilib boradi.

**Ishontirish usullari.** Bu bo'limga o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash va ishonch-e'tiqodni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'ulari va irodasi har tomonlama ta'sir ko'rsatish usullari kiradi.

Yuqorida bola shaxsining shakllanish jarayoni, asosan, kundalik turmush va faoliyatda hosil qilinadigan tajriba, kattalar va tengdoshlar bilan o'zaro munosabatlarga bog'liqligi ta'kidlab o'tilgan edi. Biroq avval tajriba to'planadi, so'ngra esa tegishli tushuncha shakllantiriladi yoxud aksincha, qandaydir navbat belgilab qo'yish noto'g'ri bo'lur edi.

Boshlang'ich maktabda ishontirishning tarbiyaviy jihatdan muhim va qimmatli bo'lgan tushuntirib berish va ishontirish, hikoya va suhbat, sinfdan tashqari o'qish, namuna ko'rsatib ishontirish singari shakl va usullardan keng foydalaniladi.

Chunonchi, o'qituvchi sinfga dastlab kirgan kundan boshlab bolalarga kattalarni hurmat qilish, ularga baqirib-chaqirib emas, balki shirin muomala qilish kerakligi, ko'chada yurganda esa ko'cha qoidalariga rioya qilish, jamoat orasida, to'y-hasham, ma'rakalarda o'zini tutish, bilib muomala qilish, dastyorchilik, o'zbekona urf-odatları o'rniga qo'ya olish kabi odatlarımızni aniq tushuntirib boradi.

Ota-ona, aka-opalarni hurmatlash, siylash, sizlash, ularning so'zlaridan chiqmaslik odobdan ekanligi uqtiriladi.

**Tushuntirish va uqtirish.** Tushuntirishning mohiyati jamiyatning ma'naviy va moddiy hayotidagi eng muhim voqealar to'g'risida axborot berish asosida o'quvchilar diqqatini tevarak-atrofdagi voqelikka, o'z fuqarolik burchlariga ongli munosabatni shakllantirishga qaratishdan iboratdir. Ko'pincha, o'quvchilarning o'z burchlari to'g'risidagi bilimlari tasodifiy, yuzaki bo'ladi. Tushuntirishdan maqsad — biron-bir voqea, xatti-harakat, hodisaning ijtimoiy, axloqiy, estetik mazmunini ochishda, xulq-atvor va insoniy munosabatlarni to'g'ri baholay olishda o'quvchilarga yordam berishdir.

Tarbiyachi tegishli qoida va talablarga qanday rioya qilish zarurligini bolalarga ko'rsatadi va tushuntiradi. Bolalar ko'rsatilgan namunalarni axloqiy qoidalarga taqlid qiladilar. Qoida va talablar dalil va misollar bilan tushuntirilsa, ularni bolalar ravshan anglab oladilar va onglariga chuqurroq singadi. Natijada, bu qoida va talablar bolaning kundalik hayot tarziga aylanadi. Axloqiy qoida va talablarning bola hayotiga singib ketishi ko'p jihatdan uning e'tiqodining mustahkam bo'lishiga bog'liqdir.

**Uqtirish.** Uqtirish biror axloqiy fazilatni o'quvchilar ongiga singdirish va ular tomonidan uqib olinishini ta'minlashga asoslanadi. Shuning uchun o'qituvchilarni tarbiyalaganda va ularga axloqiy fazilatlarni tushuntirganda uning afzalliklarini ko'rsatuvchi dalillar keltirishi, isbotlashi, ishontirishi lozim. „O'qigandan uqqan yaxshi“ degan xalq maqoli bor. Uqib olingan axloqiy fazilat bolada mahkam singib qoladi.

Uqtirishning natijali chiqishi, hammadan burun, tarbiyachining obro'siga bog'liqdir. Agar tarbiyalanuvchi o'z tarbiyachisini izzat-hurmat qilsa, unga ishonsa, uning o'git-nasihatlariga quloq solsa, uqtirish natijasi samarali bo'ladi. Aks holda uqtirish tegishli natija bermaydi. Shu bilan birga, o'qituvchi va tarbiyachilar o'z tarbiyalanuvchilarini sevishlari, hurmat qilishlari, ularning kuch va imkoniyatlariga ishonishlari kerak. Uqtirish jarayonida o'qituvchilar bolalarning o'zlarida o'z qobiliyatlariga, kelajak istiqbollariга ishonch tug'dirmog'i lozim, bu esa bolalarda axloqiy fazilatlarning puxta uqib olinishini ta'min etadi. Tarbiyalash jarayonida ishontirish, tushuntirish va uqtirish hamma vaqt birga, bir-biri bilan mustahkam bog'langan holda olib boriladi. Bunga tushuntirish va uqtirish orqali erishiladi.

Davlat, jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy qoidalar, talablarga, me'yorlarga, oilada, maktabdagi, jamoat o'rtasidagi yurish-turish qoidalariga hamisha o'qituvchilarning o'zlari amal qilishlari va boshqalarni ham shunga undashlari zarur.

Demak, o'qituvchilarimiz talab va qoidalarning hammasini yetarlicha anglab, ularni ishonch va e'tiqod bilan bajarishlari ayni muddaodir.

Pedagogika fani ishontirish usullariga muhim o'rin berish bilan birga, majbur etish usulini ham inkor etmaydi. Agarda o'quvchi o'z oldiga qo'yilgan talabning mohiyatini va mazkur qoidaga nima uchun rioya etish zarurligini tushunib turgani holda itoatsizlik qilsa va belgilangan tartib-qoidani buzsa, uni bu tartib-qoidalarni bajarishga majbur qilmoq kerak. Axloqiy talablarni buzuvchilarga indamaslik va beparvolik bilan qarash esa jamiyatga ziyon keltiradi va yurish-turish qoidalarini buzgan o'quvchining o'zi uchun ham zararlidir. Agar tarbiyachi axloqiy talablarning buzilish holatlarini ko'rib indamay ketaversa, o'quvchilar axloqiy talablarni va yurish-turish qoidalarini buzishda davom etaveradilar.

Yuqoridagilarga asoslanib, shunday xulosaga kelish mumkin: chinakam obro' bolalarni hurmat qilish bilan birga, ularga nisbatan talabchan bo'lishiga, bolaga chin ko'ngildan g'amxo'rlik ko'rsatishga, unga yordam qila bilishga, tarbiyachining bolalarga namuna bo'ladigan o'z shaxsiy fazilatlariga asoslanadi.

## ? Savol va topshiriqlar

1. Ota-bobolarimiz bolalar tarbiyasida tarbiyaning qanday usul vositalaridan foydalanishgan?
2. Sharqona tarbiyaning o'ziga xosligi, ta'sirchanligi, go'zalligi nimada?
3. O'zbek xalq pedagogikasining bolalar tarbiyasiga oid Sizga yoqqan, ma'qul bo'lgan yo'l-usullarini ayting. Tarbiyashunos olim Abdulla Avloniyning „Turkiy guliston yoxud axloq“ asarida milliy tarbiya, uni amalga oshirish yo'llari haqida nimalar deyilgan?
4. Tarbiyada ibrat-namuna usulining ahamiyati nimadan iborat? „Qush uyasida ko'rganini qiladi“ naqlining mazmunini aytib bering.
5. Tarbiyada o'rgatish, odatlantirish, ishontirish, uqtirish, maqtash, qoralash usullaridan nima maqsadda foydalaniladi?





## **XXIII BOB. MEHNAT TARBIYASI**

### **INSON HAYOTIDA MEHNAT TARBIYASINING RO'LI**

Mehnat inson hayoti, uning farovon turmush kechirishi uchun hamisha asos bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

Mehnat — farovon va baxtli hayot kechirishning eng asosiy sharti bo'lganligi sababli hamma fuqarolar uchun majburiydir.

Mehnat odamlarning biror maqsad uchun sarflangan vaqti, aqliy va jismoniy kuchi yoki zarur faoliyatidir. Mehnatsiz yashash mumkin emas.

Barcha tirik mavjudot nimanidir iste'mol qilish hisobiga yashaydi. Yerdan yashovchi maydan qurt-qumursqadan tortib parrandalargacha, suv ostida yashovchi jonivorlardan tortib, ulkan hayvonlarga o'vqatsiz yashay olmaydi. Huddi shuningdek, odamlar ham uzluksiz ovqatlanadi, hayot kechiradi. Boshqa tirik mavjudotlardan farqli o'laroq, odamlar kiyinishadi, uy-joy qurishadi, savdo-sotiq qilishadi, kitob o'qishadi, ijod qilishadi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun boylik, ya'ni tirikchilik manbai bo'lgan pul kerak. Pul topish uchun, o'zlariga kerakli narsalarni yaratish uchun odamlar mehnat qilishlari lozim. Mehnat jarayonidagi oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa zarur narsalar yaratiladi. Mehnat inson hayotini sermazmun qiladi va boyitadi. Odamlar mehnat qilish jarayonida sog'liqlarini mustahkamlaydilar, obro' orttiradilar va o'z kelajaklarini yaratadilar.

Ota-bobolarimiz asrlar davomida mehnatni ulug'lab kelishgan, o'zlari sidqidildan mehnat qilishgan. Bizga ulardan meros bo'lib qolgan barcha xazinalar — ilmiy-badiiy kitoblar, turli xildagi san'at asarlari, me'morchilik obidalari va boshqa narsalar ana shu mehnatning mahsulidir. Jahon fanining rivojiga bebaho hissa qo'shgan Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Ismoil Buxoriy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari bobokalonlarimiz mehnatsevarliklari tufayli ulkan yutuqlarni qo'lga kiritishgan va yoshlarni ham mehnatni sevishga, mehnatsevar bo'lishga chaqirishgan. Shu boisdan, jahondagi barcha xalqlarning maqollarida bo'lgani kabi, o'zbek maqollarida ham mehnat va mehnatsevarlik g'oyasi markaziy o'rinlardan birini egallaydi. „Suvsiz hayot bo'lmas, mehnatsiz rohat“, „Mehnat qilsang yasharsan, katta-katta



osharsan“, „Oltin o‘tda toblanar, odam — mehnatda“, „Mehnat bilan qarising, rahmat bilan yasharsan“, „Uzoq umr siri mehnatda“ kabi maqollar bejiz yaratilmagan.

Mehnat shaxsni har tomonlama kamol toptirishning asosiy omili hisoblanadi. Shuning uchun bolalarni juda kichik yoshidan boshlab mehnatga o‘rgatish zarur.

Mehnat tarbiyasi masalalari o‘rta osiyolik mutafakkir olim va shoirlarning bizga meros bo‘lib qolgan ma‘rifiy asarlaridan katta o‘rin olgan.

Masalan, buyuk o‘zbek shoiri Alisher Navoiy mehnatsevarlikni chinakam insoning eng asosiy xususiyati deb bilgan. Mehnat kishini bezashini, uni har tomonlama kamol toptirishini yuksak ko‘tarinki ruh bilan madh etgan. Yoshlarni sidqidildan mehnat qilishga, mehnatni qadrlashga chaqirgan. Sharq madaniyatining buyuk namoyandasi Mirzo Ulug‘bek ham yosh avlodga tabiat va uni muhofaza qilish, tabiat yaratgan ne‘matlarni tejab-tergab tasarruf qilish to‘g‘risida bilimlar berish kerakligini ta‘kidlaydi. Yoshlar bilimlarni ongli ravshda o‘zlashtirishlari, o‘z fikr-mulohazalarini to‘g‘riligiga bevosita kuzatish orqali ishonch hosil qilishlari muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatib o‘tgan.

Umuman, ma‘rifatparvarlar yoshlarning mehnat ta‘limi va tarbiyasi masalalariga alohida e‘tibor berib, turli asarlarda yoshlardagi qiziquvchanlik, tejamkorlik, do‘stlik va odamiylik kabi oliyjanob fazilatlar mehnat orqali vujudga kelishini g‘oyat ta‘sirchan shakllarda ifodalaganlar. Ular yoshlarni kasb-hunar o‘rganishga, har kim o‘zi qiziqqan va o‘ziga munosib faoliyat bilan shug‘ullanishiga da‘vat etganlar. Mehnatkash odam hech vaqt birovga qaram bo‘lib qolmaydi, degan fikrni ilgari surganlar.

Yoshlar mehnatsevar qilib tarbiyalanishi bilan bir vaqtda, inson qo‘li bilan yaratilgan narsalarni qadrlashga, ardoqlashga va uni uvol qilmaslikka chaqirganlar. Uvolni oqibati gunoh bo‘lishi ajoyib o‘g‘itlarda, xalq og‘zaki ijodida ham ta‘kidlangan.

Mehnat faqat hayotiy zarurat va moddiy farovonlik manbayi bo‘lib qolmay, yoshlarda yaxshi xulq va ma‘naviy sifatlarni vujudga keltiradi; loqaydlik va beparvolik kabi illatlarni bartaraf etib, kishida quvonch va mamnunlik hislarini paydo qiladi.

Odam dunyodagi hamma yaxshi narsalarga ega bo‘lsa-yu, lekin o‘zi mehnat qilmasa, u baxtli bo‘la olmasligi badiiy asarlarda kuylangan; ezgu maqsadlarga erishishning eng muhim omili bo‘lgan mehnat tufayli mamlakatning gullab-yashnashi mumkinligi qayd etilgan.

Xullas, mehnat tarbiyasi masalasi ma'rifatparvarlar ijodida hamisha asosiy o'rin tutgan. Ular yoshlarni jamiyat manfaati uchun ishlashga chaqirish bilan birga, ustozlar va ota-onalarning mehnat tarbiyasidagi vazifalari nimalardan iborat ekanligini ham ko'rsatganlar.

O'zbek ma'rifatparvarlarining taniqli namoyandalaridan biri Abdulla Avloniy yoshlarning biror kasb bilan mashg'ul bo'lishini birinchi galdagi muhim ish deb hisoblagan. U „Turkiy guliston yoxud axloq“ asarida dangasalik va yalqovlikni qoralab, harakatchanlikni olqishlab shunday yozgan: „Sihatimiz, saodatimiz, qanoatimiz, sabrimiz, butun hayotimiz harakatimizga bog'liqdir. Harakatsiz kishilar har narsadan mahrum, doim boshqalarning yordamiga muhtoj bo'lib, xorlikda qolurlar. Shuning uchun bolalarni hunar o'rganishga chaqirib, kishilarni biror kasb bilan shug'ullanishiga undab, „yoshlar...bu ko'mirchilik, bu temirchilik menga munosib ish emas, deb dangasalik qilib ishsiz yursa, zo'r ayb“ hisoblanishini uqtirgan.

Mehnat, asosan, ikki turli bo'ladi: aqliy mehnat va jismoniy mehnat. Insoniyat qo'llari yordamida jismoniy kuch sarflab amalga oshiriladigan ishlar jismoniy mehnatni tashkil qiladi. Jismoniy mehnatni aqliy mehnatdan ajralgan holda tushunish mumkin emas. Jismoniy mehnat aql yordamidagina mazmunli, yaxshi sifatli va mahsuldor bo'ladi: aqlli odam ketmon chopsa ham, traktor haydasa yoki zavod-fabrikada biror jismoniy vazifani amalga oshirsa, uning ishi yaxshi natija beradi. Aql aralashmagan ishning mahsuli bo'lmaydi.

Aqliy mehnat egalari — o'qituvchilar, shifokorlar, olimlar, shoir-yozuvchilar, noshirlar va boshqalar bo'lib, ular ma'naviyat egalariidir. Agar jismoniy mehnat egalari jamiyatni iqtisodiy tomondan ta'min etishsa, aqliy mehnat egalari insoniyatning ma'naviy yuksalishiga xizmat qiladilar.

O'quvchi aqliy mehnat egasi bo'lib, hamisha o'qiydi, yozadi va o'z ma'naviy olamini boyitish yo'lida mehnat qiladi. Oilada, jamoat orasida jismoniy mehnat bilan shug'ullanishga to'g'ri keladi, maktabda esa o'z sog'lig'ini mustahkamlash uchun badantarbiya darslariga qatnashadi. O'quvchining o'z odobini namoyish qiladigan yana bir imkoniyati borki, bu uning jamoa mehnatida faol ishtirok etishidir. Jamoatchilik asosida bajariladigan ishlar ko'cha-ko'yda ham, maktabda yoki sinfda ham tez-tez uchraydi. Sinfning tozaligi uchun kurashda qatnashish, maktab tajriba uchastkasida

olib boriladigan mehnat jarayonida ishtirok etish har bir o'quvchining sharaflı burchıdır.

Yoshlıkdanoq biror hunar yo kasb „etagi“ ni mahkam tutgan yigit-qizlar hayotdan o'z o'rinlarini topadilar, qoqilmaydilar. Ota-bobolardan qolgan hikmatda „Bir yigitga qirq hunar oz“ deyiladi. O'sha hunarlardan ayrimlarini sanab o'tamiz: duradgor, naqqosh, kulol, zargar, etikdo'z, novvoy.

Inson o'zining bolalik davridan boshlab mehnat qilishga o'rganib, o'ziga yoqqan kasbni egallab borishi va kelajakda mehnatsevar inson bo'lib yetishmoq uchun harakat qilishi kerak. El-yurt orasida o'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, qo'lida guldek hunari bo'lgan kishilarni odamlar e'zozlab, hurmat qiladilar.

Ishning og'ir-yengili bo'ladi-yu, ammo yaxshi-yomoni bo'lmaydi. Ba'zilar qora mehnat deb jirkangan ishga siz sidqidildan qo'l ursangiz, u ish sizni o'ziga shu qadar tortadiki, hayotingizni o'sha ishsiz tasavvur etolmay qolasiz. Mehr va ishtiyoq bilan bajarilgan har qanday „qora“ ish ham toza, ko'ngilli, jozibador bo'lib tuyiladi. Ko'rganlar: „Qo'li gul ekan, otasiga rahmat!“ deb ketadi.

Yaxshi inson haqida xayol qilganingizda, mehnat hayotining eng zarur ehtiyojiga aylangan kishi ko'z oldimizga keladi. Har kuni, har daqiqa mehnat burchini kamtarlik bilan, kerilmasdan, maqtanmasdan, vaqtini bekor o'tkazmasdan bajarib kelgan odam chinakam yaxshi insondir.

Mehnat bilan suyagi qotgan, mehnat tufayli izzat-u hurmat ko'rgan har bir ota-ona o'z farzandlarining ham mehnat bilan yashashini, mehnat bilan el-yurt oldida sharaf topishni xohlaydi. Har qanday yumush, jumladan, idish-tovoq yuvish, uy-hovlilarni supurish, mol-hollarga qarash, tomorqa, qurilish, ta'mirlash ishlarida qatnashish ham mehnatdir.

### OILADA MEHNAT TARBİYASI

Ota-onalar bolalarning kelajagini o'ylab, ularni ilk yoshlaridan mehnatga solib chiniqtirib boradilar. To'g'ri tarbiyaning eng ta'sirli, eng samarali usuli ham shu mehnatdir. Ota-onalar bolalarning mehnatiga hamma vaqt ham muhtoj bo'lavermaydilar, lekin bolani yoshligidan ishga o'rgatish, mehnatga ko'niktirish zimmalaridagi burch ekanligidan shunday yo'l tutadilar.

Ma'lumki, har bir oilaning o'z xo'jaligi bo'ladi va u o'z xo'jaligini sof, halol mehnati bilan yaratadi; bu xo'jalik daromadi

oila a'zolarining qandaydir doimiy foyda olib turishlari orqasidan emas, balki ish haqining oshuvi va oila harajatlaridan orttirib, tejab qolish tufayli ko'payadi.

Bizdagi oila xo'jaligi ro'zg'or uchun kerakli bo'lgan buyumlardan, ashyo va jihozlardan iboratdir. Oila davlatmand bo'lsa, bu hol oila a'zolari yaxshi va baxtli hayot kechirayotganini, iste'mol buyumlarini ko'proq xarid qilayotganini, o'z ehtiyojlarini ko'proq qanoatlantirayotganini bildiradi.

Har bir oila o'z xo'jaligini tuzatib olish yo'li bilan o'z turmushini yaxshilashga urinadi. Oilaning davlatmand bo'lishi ko'proq butun mamlakat erishgan muvaffaqiyatlarga, uning iqtisodiyot va madaniyat sohasidagi yutuqlariga bog'liq bo'ladi. Oilada bolalarni tejamkorlik ruhida tarbiyalashga qancha ko'p e'tibor berilsa, ular xalqqa ham, ota-onalarga ham, o'zlariga ham shuncha ko'p foyda yetkazadilar.

Har bir bola oilaning teng huquqli a'zosidir. Demak, u oila xo'jaligining ishtirokchisidir. Shu bilan birga, biz bolalarimizni faqat oila xo'jaligini yuritishga qobiliyatli kishilar qilib tarbiyalabgina qolmay, shuningdek, butun jamiyat xo'jaligini ham tejab-tergab yuritadigan sadoqatli fuqarolar qilib tarbiya qilmog'imiz lozim.

Barcha ota-onalar bunday tarbiya maqsadlari to'g'risida o'zlarida ravshan tushuncha hosil qilib, bu bilan o'z tarbiya yo'sinlarini doimiy ishga solib va tekshirib borishlari zarur.

Ko'pincha, ota-onalar bolalarning hamma narsasi muhayyo bo'lishi, ya'ni yaxshi yeb-ichishi, yaxshi kiyinishi, katta bo'lganda uy joyli bo'lishi haqida o'ylaydilar. Bularning hammasini farzandlariga cheksiz mehribonliklaridan va ularni behad sevganliklaridan qiladilar. Bolalarni deb o'zlarining eng zarur ehtiyojlarini qondirishni ham chetga surib qo'yadilar, lekin buni ba'zan bola esiga ham keltirmaydi va hatto sekin-asta o'zini hammadan ortiq, mening istagim ota-onam uchun qonun, deb o'ylashga odatlanadi.

Bu tarbiyaning noto'g'ri va zararli yo'li bo'lib, bundan ota-onalarning o'zlari ko'proq zahmat chekadilar. Bizningcha, ota-onalar o'z farzandlarini mehnatsevar va tejamkor qilib tarbiyalash uchun quydagilarga amal qilishlari kerak:

1. Bola o'z ota-onasining qayerda ishlashini va nima ishlab chiqarishini, ishlab chiqarishning butun jamiyat uchun qanday ahamiyatlari borligini bilishi kerak.

Umuman, bola ota-onasi ishlab, topib keltiradigan daromadning katta va foydali ijtimoiy mehnat evaziga olinadigan ish haqi ekanini mumkin qadar ertaroq yaxshi tushunishi lozim.

2. Bolani oila budjeti bilan mumkin qadar ertaroq tanishtirish lozim. U otasi va onasining qancha maosh olishini bilishi kerak. Bola ota yoki onasining nimaga muhtoj ekanligini, bu muhtojlikning naqadar zarurligini bilishi kerak. U oilaning boshqa a'zolari ehtiyojini yaxshiroq qondirish uchun o'zining ba'zi ehtiyojlaridan vaqtincha kechishga odatlanishi lozim. Oilaning umumiy ehtiyojiga doir masalalarni muhokama qilishga bolani ko'proq jalb qilish lozim.

3. Agar oilaning moddiy sharoiti juda yaxshi bo'lsa, bolani o'z tengdoshlari oldida bunday yaxshi sharoit bilan g'ururlanish va maqtanishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Bola oilaning boyligidan o'zgalar oldida gerdayishiga hech qanday asos yo'qligini tushunishi kerak.

4. Ota-onalar bolalarning halol, rostgo'y va sofdillikka odatlanishlarini diqqat bilan kuzatib borishlari kerak. Ular hech narsani boladan atayin yashirmasliklari va shu bilan birga uning ko'z o'ngida yotgan bo'lsa ham, so'roqsiz olmaslikka o'rgatishlari zarur. Havas keltiradigan har xil narsalarni atayin bolaning ko'z o'ngiga qo'yib, uni ana shu narsalarga beparvolik bilan, suqlik qilmay qarashga o'rgatish lozim.

5. Oilada tejamkorlik va ehtiyotkorlik tarbiyasini to'g'ri tashkil etib, eskirib qolgan narsalarni yaxshilab ta'mir qilib, yangisini sotib olish vaqtini cho'zish va shu yo'l bilan ota-onalar yoki oilaning boshqa a'zolari topgan pulning ma'lum qismini tejab qolish mumkin bo'ladi. Shuning uchun bolani juda kichik yoshligidan boshlab narsalarni ehtiyot qilishga odatlantirish lozim. O'z oila xo'jaligini yaxshi yuritmoqchi bolgan kishi ro'zg'orda qaysi narsaning eskira boshlaganini avvalroq payqashi, ro'zg'or buyumlarining juda ham eskirib qolishiga yo'l qo'ymasligi, ularni o'z vaqtida tuzatish, bozorda yoki do'konda tasodifan ko'rib qolgan narsani sotib olavermay, balki haqiqatdan kerak bo'lgan narsani sotib olishi maqsadga muvofiqdir. Bolalarga ham shu odatni singdirib borish kerak.

6. Bola faqat o'z xonadonidagi buyumlarnigina ehtiyot qilib qolmay, balki boshqa kishilarning buyumlarini va ayniqsa, ko'pchilik foydalanadigan buyumlarni ham ehtiyot qiladigan bo'lishi lozim.

7. Tejab-tergab ish ko'rish odatlarini bolada mumkin qadar ertaroq tarbiyalamoq kerak. Odat mashq qilish bilan hosil bo'ladi. Shu yo'l bilan bolada buyumlarni tejab-tergab tutish istagini doimo rag'batlantirib turish kerak.

8. Pulni tejab-tergab sarflash, ayniqsa, muhimdir. Bunday harajatlarning ro'yhati bolaning yoshiga va oilaning imkoniyatiga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, 10 yashar bola uchun taxminan quydagicha ro'yhat tuzsa bo'ladi: daftar, kitob sotib olish, yo'lkira, butun oila uchun non, sut, sariyog', sovun sotib olish, uning o'zi va ukasiga ruchka olish... Bola katta bo'lgan sari, bunday xarajatlar ro'yxati ancha mas'uliyatliroq va murakkabroq bo'la borishi lozim.

Oilada ota-ona o'z farzandlarining mehnatsevar, tejamkor va ehtiyotkor kishilar bo'lib yetishishlarida o'zlari na'muna bo'lishlari kerak. Bu tarbiya ishlari uchun juda muhim omillardan sanaladi.

### **O'QUVCHILAR MEHNAT TARBIYASINING MAZMUNI, SHAKL VA USULLARI**

O'quvchilarning mehnat tarbiyasi dastlab oilada, maktabda o'quv-tarbiya ishining butun tizimida, bolalarning ommaviy tashkilotlari faoliyatida, ishlab chiqarish jamoalari mehnatida ishtirok etishlari orqali amalga oshiriladi.

Bolalar yoshlik chog'laridan boshlab, tevarak-atroflaridagi kishilarning turli-tuman ishlariga qiziqadilar, kattalarga dastyorchilik qiladilar. Bu ishni har tomonlama rag'batlantirib, qo'llab-quvvatlab turish foydalidir. Maktabda mehnat tarbiyasining yaxshi borishi maktabgacha tarbiya yoshidan boshlab kichkintoylarga mehnat tarbiyasi berib borishga bog'liqdir.

Bolalar qo'llaridan kelgancha oiladagi ro'zg'or yumushlarida ota-onalariga yordam berib, dastyorchilik qiladilar. Chunonchi, hovli-joylarni supurib, saranjom-sarishta qilish, tomorqadagi ekin-tekini, mol-hollarga qarash, mehmon kutish, bozor-o'char qilish, o'zidan kichik ukalariga qarash kabi ishlarda ko'maklashadilar.

Bolalarga kattalarning mehnati, kasb-hunarlarini to'g'risida so'zlab berish, ularning mehnatini hurmat qilish lozimligini tushuntirib borish ham zarur.

### **TA'LIM JARAYONIDA MEHNAT TARBIYASI**

Bolalarda mehnatga bo'lgan qiziqish va ehtiyoj ancha barvaqt paydo bo'lgan, maktabga kelgan o'g'il va qizlarda esa muayyan mehnat ko'nikmalari tarkib topgan bo'ladi. Bu ko'nikmalar maktabdagi ta'lim va tarbiya ta'sirida yanada mustahkamlanadi. O'quvchilarda mehnat madaniyati, tayorlanadigan mahsulot sifati uchun

mas'uliyat hissi, vaqtdan samarali foydalanish, asboblarni ehtiyotkorlik bilan ishlatish va materiallarni tejimli sarflash malakalari hosil bo'la boshlaydi. Mana shular boshlang'ich maktab o'qituvchisidan alohida e'tiborni, mehnat tarbiyasini xilma-xil omillaridan samarali foydalanishini taqozo etadi.

Dars o'quvchilar mehnatining asosiy va muhim turlaridan biridir. Bu mehnat turi o'quvchidan qat'iyatni, qunt va aqliy zo'r berishni talab qiladi. Dars jarayonida o'qituvchi o'quvchining fikrlash qobiliyatini o'stirib boradi. Ba'zi o'quvchilarga aqliy mehnat qilish mehnatning boshqa turlariga nisbatan og'irdek tuyuladi. Ular darsda darrov zerikadilar, materiallarni o'zlashtirishda sustkashlik qiladilar.

Lekin, o'qituvchi o'quvchilarda paydo bo'lgan ana shu holatni darrov payqab olishi, darsni qiziqarli mazmunda, shaklda, usulda olib borishi, bor bilimi, mahoratini ishga solishi zarur.

Boshlang'ich maktabdagi mehnat mashg'ulotlari o'quvchilarning har tomonlama uyg'un rivojlanishiga xizmat qilib, u o'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni, hadiy didni o'stirishda va ularni axloqiy jihatdan tarbiyalashda alohida o'rin egallaydi.

Darslarni tashkil qilishdan avval mavzu va maqsadni aniq belgilab olish darkor. Dars o'tish uchun zarur materiallar yetarli bo'lsagina, tanlangan mavzuni bajarishga kirishish yoki mavzuga ijodiy yondashish, bolalar yashayotgan muhitni, u yerdagi mavjud ishlab chiqarish va hunarmandchilikni hisobga olish lozim.

Boshlang'ich sinflarda xizmat ko'rsatish mehnatining o'ziga o'zi xizmat qilish va jamoatchilik ishlari bilan tanishtirish, shu bilan bir qatorda, bunga qo'shimcha tarzda quyidagi mavzularda mashg'ulotlar olib borilishi lozim: „Pazandachilik sirlari“, „Taom tayyorlash masalliqlariga ishlov berish, saralash, yuvish, archish, to'g'rash va qirish“, „Sabzavotlardan tayyorlangan salatlar“, „Dasturxon tuzash“, „Uyni va sinf xonasini saranjom-sarishta tutish“, „Mehmon kutish“.

Bu mavzularni yoritishda bolalarning jinsiga qarab topshiriqlar berish lozim. Bunda qiz bolalarga yengilroq topshiriqlar, o'g'il bolalarga o'zlariga xos va kerak bo'ladigan hunarlar o'rgatilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. O'tmishda mehnat tarbiyasida turli usul va vositalarni qo'llash orqali bolalar mehnatga ruhan va amaliy jihatdan tayorlab borilgan. Bolalarni amaliy mashg'ulotga tayyorlashda ishontirish va bola faoliyatini baholash usullari qo'llangan. Bu ishlarni amalga oshirishda vosita sifatida o'yin va

marosimlardan, xalq og‘zaki ijodidan, mehnat bilan bog‘liq milliy an‘analardan mohirona foydalanilgan, badiiy so‘z vositasida ular ruhiyatiga ta‘sir ko‘rsatilgan. Bu xildagi tadbirlar bolaning axloqiy va ruhiy jihatdan mehnatga tayyorlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

### SINF DAN TASHQARI OLIB BORILADIGAN MEHNAT TARBIYASI

Kuzatish va tajribalardan ma‘lumki, bola o‘zi bajaradigan ish topshiriqlari mohiyatini tushunsa, unga qiziqadi. Qiziqish g‘ayrat bilan ishlashga undaydi, lekin o‘quvchilarga tavsiya etiladigan ishlar ularning qobiliyatlariga yarasha bo‘lishi kerak.

Darsda va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda, madaniy hordiq chiqarish paytlarida o‘qimishli kishilar va ularning jamiyatdagi o‘rinlari haqida suhbatlar o‘tkazish, hikmatli so‘zlar va she‘rlar o‘qib berish, o‘zlariga ham o‘qitib, ham yod oldirib, mazmunini tushuntirish o‘rinlidir.

Buyuk bobokalonlarimiz Amir Temur, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari ko‘plab allomalarning hayoti, mehnat faoliyatlari va buyuk meroslari dunyoga mashhurdir. Ularning aziz va mo‘tabar kishilar sifatida ko‘p yillardan buyon xalqimiz dilida saqlanib, hurmat bilan tilga olinishining boisi nimada? Buning boisi, ularning bilimli, ishbilarmon, xalq manfaati uchun xizmat qilgan kishilar bo‘lganliklari ekanligini alohida-alohida mashg‘ulotlarda tushuntirib berish kerak. Shuningdek, hozirgi kunda yashayotgan, xalq uchun xizmat qilayotgan va el-yurt olqishiga sazovor bo‘layotgan bilimli kishilar, yetuk kashfiyotchilar haqida ham ma‘lumotlar berib borish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, o‘quvchilarning o‘zlariga tanish bo‘lgan, kitob va gazeta-jurnallarda suratlarini, oynayi jahon orqali chiqishlarini ko‘rgan bilimli kishilar haqidagi suhbat va ma‘lumotlar tushunarli va qiziqarli bo‘ladi. Bunday tadbirlar o‘quvchilarda bilimli bo‘lishga, ana shunday obro‘li kishilar izidan borishga qiziqish uyg‘otadi.

O‘qish-o‘rganish, turli bilimlarni egallash haqida o‘zbek xalq maqollari va hikmatli so‘zlarning ahamiyati beqiyosdir. Jumladan, Hadisda: „Garchi Xitoyda bo‘lsa ham, ilmga intilinglar, chunki ilm olish, harakat qilish — har bir mo‘minga farzdir“, — deyilgan. Bu fikrning ma‘nosi nihoyatda keng va chuqur bo‘lib, yaqin atrofda maktab bo‘lmasa, o‘qish-o‘rganish uchun sharoyit yaratilmagan



bo'lsa, uzoq joylarga borib bo'lsa ham ilm o'rganing, chunki bilim olishga harakat qilish har bir kishi uchun farz, ya'ni Xudoning buyrug'idir, degan ma'noni ifodalaydi. Hadislarni o'quvchilarga ana shunday soddaroq so'zlar bilan tushuntirish kerak. O'zbek xalq maqollaridan quyidagilarni o'quvchilarga aytib berish, ma'nosini tushuntirish orqali ularda ilmga, o'quv mehnatiga qiziqish, bilimli kishilarga hurmat hissiyotlarini uyg'otish mumkin. Jumladan:

*Bilagi zo'r birni yiqar,  
Bilimi zo'r — mingni yiqar.*

*Bilim — baxt keltirar.*

*Ilm — aql chirog'i.*

*Ilmsiz — bir yashar,  
Ilmli — ming yashar.*

*Oz-ozdan o'rganib dono bo'lur,  
Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.*

Bulardan tashqari, ko'plab bebaho asarlar mavjudki, ulardan foydalanish, o'quvchilarning mustaqil o'qishlarini tashkil etish, ularning o'qishga bo'lgan intilishlarini oshiradi. Shu maqsadda Yusuf Xos Hojibning „Qutadg'u bilig“ asaridan foydalanish ham yaxshi samara beradi. Asarda tilga olingan mavzularda inson kamoloti masalasi va bilimli kishi qadrini oshirish haqida ajoyib satrlar bor:

*O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lar,  
Bilim kimda bo'lsa, buyuklik bo'lar.*

Bilim misoli bir jilov. U odamni barcha yomon, yaramas ishlardan tiyib turadi. Bilim egasi o'z tilaklarini topadi, orzu-maqsadlariga erishadi. Bilim egalari elda aziz bo'ladi, hurmat qozonadi. Barcha murakkab ishlar bilim bilan hal etiladi. Ana shu o'git-nasihatlarini soddalashtirib, tushunarli qilib gapirib berish orqali o'quvchilarda o'quv mehnatiga qiziqish orttiriladi. Qiziqish esa g'ayrat va qunt bilan o'qishga undaydi. Natijada, o'quvchilar dars qoldirmay va kechikmay o'z bilimlarini puxta o'zlashtirishga harakat qiladilar.

O'quvchilarning jismoniy mehnatga nisbatan ijobiy munosabatlarini tarbiyalashda mehnat turlari va ilg'or mehnat kishilari

haqida suhbatlar o'tkazish, ishlab chiqarish korxonalariga, zavod va fabrikalarga, dala, bog' va chorvachilik, parrandachilik fermalariga ekskursiyalar uyushtirish, mehnat ilg'orlari haqida ocherk va hikoyalardan o'qib berish, mehnatni ulug'lovchi ertak va maqollardan foydalanish, o'quvchilarning o'z ota-onalari kabi, ularning ishlari haqida suhbatlar uyushtirish singari tadbirlardan foydalanish yaxshi natijalar beradi.

Xo'sh, ana shunday uchrashuvlarni qanday o'tkazish kerak?

Avvalo, har bir uchrashuvga puxta tayyorgarlik ko'rish lozim. Tayyorgarlik paytida mutaxassislardan kimlar va qanday kasb egalari taklif etilishiga qarab, ana shu kasbning mohiyati, shu kasbda ishlaydigan kishilarning jamiyatda tutgan o'rni, ularning ishlab chiqargan mehnat mahsulotlari haqida o'quvchilarga tushuncha berilishi zarur. Chunki uchrashuvga kelgan mutaxassisni ham ma'lum ma'noda tayyorlash kerak, u ham qaysi yoshdagi bolalarga nimalar haqida gapirish kerakligini bilsin. So'ng uchrashuv davomida mutaxassis o'z kasbini qanday egallaganligi, bordi-yu, o'quvchilar orasida shu kasbga qiziquvchilar bo'lsa, ular shu kunlardan boshlab nimalarga e'tibor berishlari haqida ham to'xtalib o'tadi. O'z navbatida o'quvchilar ham kasb-hunar haqida yodlagan she'rlaridan aytib berish bilan birga, o'zlarini qiziqtirgan masalalar yuzasidan savollar berishlari mumkin.

Umuman, har bir uchrashuv puxta tayyorgarlik bilan o'tkazilsa, uning tarbiyaviy ta'siri kuchli bo'ladi.

O'quvchilarda mehnatsevarlikni tarbiyalash uchun, avvalo, ular bajaradigan ishning inson hayotidagi ahamiyatini tushuntirish va bu ishni bajarishga ularni qiziqtirish zarur. Buning uchun esa yuqorida ta'kidlab o'tilgan tadbirlarni rejali va mazmunli tarzda uyushtirish lozim bo'ladi.

### **MEHNAT DARSLARI VA ULARNI TO'G'RI UYUSHTIRISHGA QO'YILADIGAN PEDAGOGIK TALABLAR**

1. Agar mehnat darslarida bajariladigan ishning maqsadi bolalarga aniq bo'lsa, ular shu ishni jon-dillari bilan ado etadilar.

2. Bolalar qilgan mehnatlari zoye ketmasligini, ishda muvaffaqiyat qozonishlarini his qilsalar, ya'ni o'z mehnatlari samarasiz qolmasligini yaxshi bilsalar, sidqidildan mehnat qiladilar.

3. Bolalar o'zlari mos va kuchlari yetadigan ishni rohatlanib bajaradilar.

4. O'quvchilar ishda o'z burchlarini sezishlari, javobgarlikni anglashlari va shunga amal qilishlari lozim.

5. Inson bir ishga kirishishdan oldin, o'sha ishning oqibatini yaxshilashi kerak. O'ylamasdan biror ishga kirishgan kishining mehnati zoye ketadi.

6. Inson istaganini qo'lga kiritish uchun sabrli, chidamli va g'ayratli bo'lishi kerak. G'ayratli, ishchan bolalarni hamma sevadi.



### *Savol va topshiriqlar*

1. „To'g'ri tarbiyaning eng ta'sirli, eng samarali usuli — mehnatdir,“ deydi donolardan biri. Buni Siz qanday sharhlaysiz?
2. Insonga qanday fazilatlar ziynati baxt bag'ishlaydi? Alisher Navoiyning qaysi asarlarda, qaysi qahramoni misolida mukammal inson shaxsi tasvirlangan?
3. „Mehnat — mehnatning tagi rohat“, „Mehnat qilsang yasharsan, katta-katta osharsan“, „Mehnat bizni uch xil illatdan: zerikish, qusur, muhtojlikdan xalos etadi“, „Hayotda hech narsa mashaqqatli mehnatsiz qo'lga kiritilmaydi“. Bu maqollarning mazmunini so'zlab bering.





## XXIV BOB. IQTISODIY TARBIYA

Bir vaqtlar bolalarga pullar haqida, boylikning afzalliklari to'g'risida gapirish uyat hisoblanardi. Shuning uchun jamiyatimiz hayotida o'quvchilarning iqtisodiy ta'lim-tarbiyasidagi kamchiliklar, ularning oila budjeti asoslarini va pulning oddiy hisob-kitobini bilmalik bilan bog'liq bo'lgan muammolar tezda namoyon bo'la boshladi.

Juda ham rang-barang tovarlarga va bozor taklif etgan cheksiz xizmatlarga ega bo'lgan iste'molchilar talabini shakllantirish bolalarga iqtisodiy tarbiya berishning eng muhim elementi bo'lishi kerak. Boy kishiga o'zining moddiy muvaffaqiyatini ko'rsatish uchun o'nlab va hatto yuzlab mashinaning nima keragi bor. Ish joylari bir-biriga yaqin bo'lgan er-xotinning ishga alohida mashinalarda borishi zarurmi, agar birgalikda ishga qatnash mashinaga ketadigan sarf-xarajatlarni tejasa va atrof-muhit ekologiyasi uchun kamroq zarar yetkazsa, inson uchun ana shu oddiy haqiqatlarni to'g'ri tushunishni bolalarga yoshlikdan singdirib borish va sog'lom iste'mol jamiyati barpo qilish uchun ularni idrok qilish faktoridan foydalanish kerak.

O'zbekiston rahbariyatining mustaqillikni e'lon qilgandan keyingi dastlabki qadamlaridan biri iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdan iborat bo'ldi. Bunga quyidagi tamoyillar asos qilib olindi:

1. Iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ta'siri ostida bo'lmasligi kerak. Bu iqtisodiyot siyosatdan ustun turishi kerakligini bildiradi. Ham ichki, ham tashqi iqtisodiy munosabatlarning mafkuradan xoli bo'lishini ta'minlash kerak.

2. Davlat bosh islohotchi sifatida namoyon bo'lishi darkor. U ustunlikni belgilashi, o'zgarishlar siyosatini ishlab chiqishi va izchillik bilan amalga oshirishi, jaholatparast va mutaasiblar qarshiligini bartaraf etishi lozim.

3. Qonunning ustivorligi, qonunga rioya qilish. Bu demokratik yo'l bilan qabul qilingan yangi Konstitutsiyani va qonunlarni istesnosiz hamma kishi hurmat qilishi hamda ularga so'zsiz rioya qilishi kerakligini bildiradi.

4. Aholining demografik tuzilishini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish. Bozor munosabatlarining joriy etilishi aholini ijtimoiy himoya qilishga doir amaliy tadbirlarning o'tkazilishi bilan birga olib borilishi kerak. Bu bozor iqtisodiyoti

yo'lidagi kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardan edi va shunday bo'lib qoladi.

5. Bozor iqtisodiyotiga o'tish puxta o'ylangan holda, bosqichma-bosqich, obyektiv iqtisodiy qonuniyatlar talablarini hisobga olib, o'tmishdagi „inqilobiy sakrashlar“siz, ya'ni evolutsion yo'l bilan amalga oshirilishi kerak.

Bu tamoyillar yangilanish, rivojlanish va taraqqiyotni o'z yo'liga asos qilib olgan bo'lib, o'tish davri konsepsiyasining asosiy konstruksiyasini hosil qiladi.

Tegishli shart-sharoitlar yaratilgan taqdirdagina bozor mexanizmlarini ishga tushirib yuborish mumkin. Bunday shart-sharoitlarga, avvalo quyidagilar kiradi:

— mulkni nasionalizatsiya qilish, davlat tasarrufidan chiqarish va mulkchilikni xususiyLashtirish siyosatini o'tkazish, mulkchilikning nodavlat shakllariga (xususiy mulk, aksionerlik mulki, jamoa, kooperativ mulk va boshqalar) asoslangan yangidan tashkil etilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash yo'li bilan aralash ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish;

— narx-navoni bosqichma-bosqich liberallashtirish hisobiga sog'lom raqobat muhitini yaratish, monopoliyaga qarshi qattiq siyosat o'tkazish, davlat korxonalarining faoliyatini kommertsializatsiyalash, xo'jalik yurituvchi subyektlarning (ularning iqtisodiy mas'uliyatligi bilan birga) to'liq iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash;

— korxonalar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri xo'jalik aloqalarini har tomonlama rivojlantirish, bozorlar (tovar, moliya, kapital, ish kuchi, texnologiya va boshqalar)ning sohaviy strukturali o'zgarishlarini amalga oshirish, bozor infrastrukturasini shakllantirish, bozor sharoitida ishlashga qodir bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash;

— aholini ijtimoiy himoya qilishning kuchli mexanizmini joriy qilish, huquqiy ijtimoiy garantiyalarni ta'minlash. Madaniyatli, tartibga solinadigan bozorga o'tish mulkchilikning barcha shakllari plyuralizmiga, aralash ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirishga asoslanadi.

Islohotlarning asosiy maqsadi mehnatkashlarga iqtisodiy erkinliklar berish va ma'murlarning tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlashi yo'li bilan fuqarolarning ishlab chiqarish kuchlarini ozod qilish. O'zbekiston aholisining ijodiy potensialidan, respublikaning tabiiy boyliklaridan maksimal foydalanish asosida

respublika aholisi hayotining yuqori sifat jihatidan yangi darajasiga erishishdan iboratdir. Ichki siyosat negizi inson manfaatlariga yo'naltirilgan, mehnatni asoslashning kuchli mexanizmi va aholining ijtimoiy himoya qilinmagan qatlamlarini davlat tomonidan himoya qilinishiga asoslangan.

Yuqorida aytib o'tilgan maqsadlar, vazifalar, shuningdek talablar va ularni amalga oshirish shart-sharoitlari respublikamiz fuqarolari oldida birinchi bor paydo bo'layotgan ko'pgina aktual masalalarni o'z ichiga oladi. Bu masalalar yangi, ko'p jihatdan tushunarsiz bo'lgani holda ular ochib berish va tushuntirishni talab etadi. Busiz islohotlarning amalga oshirilishi har bir qadamda barcha darajadagi ijrochilarning (mahalliy hokimiyat organlaridan boshlab korxonalar, tashkilot va muassasa ishchi-xizmatchilarigacha) iqtisodiyotni o'zgartirishda o'z o'rnini topolmasligiga duch keladi. Islohotlarni amaliy jihatdan ro'yobga chiqarishdagi ko'p sonli xatolar emas, balki ularning o'tkazilishiga qarshilik ana shu bilimlik natijasi bo'lishi mumkin. Zero, har qanday qayta qurish kabi islohotlar ham barcha kuchlarni safarbar etishni talab etadi, xalq xo'jaligini qayta tuzish uchun qo'shimcha sarf-xarajatlarni keltirib chiqaradi. Iqtisodiyotni isloh qilishning maqsadi, vazifalarini va uni o'tkazishga doir tadbirlarni tushuntirish vazifasi turli ixtisoslikdagi iqtisodchilar: xalq xo'jaligi sohalari bo'yicha iqtisodchilar, makroekonomika, budjet, moliya, soliq, sotsiologiya mutaxassislari, xalq xo'jaligi sohasidagi yuristlarning zimmasiga tushadi. Shu bois ularni zudlik bilan tayyorlash zarur, chunki, islohotlar davom etadi va unga ommaning qo'llab-quvvatlashi kerak bo'ladi. Bunday sarflarni kengaytirishgina emas, balki uni sifat jihatidan mustahkamlash, yangi bilimlar bilan boyitish lozim.

Ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan jamiyat ishlarini demokratik boshqarishga o'tishni amalga oshirish uchun davlatning:

- yer va ko'chmas mulkka;
  - ishlab chiqarish vositalariga;
  - tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish sohasidagi;
  - mehnat munosabatlarini tartibga solish sohasidagi;
  - moddiy ishlab chiqarish sohasini boshqarish sohasidagi;
  - ishlab chiqarish mahsulotlarini taqsimlash sohasidagi
- monopoliyasini yo'qotish kerak edi. Davlat monopoliyasini yo'qotish emas, balki bozor talablariga mos keladigan davlat mulki bazasida tashkil topgan yangi tashkiliy-huquqiy shakillardagi korxonalarni mustahkamlash zarur edi. Bu vazifa programmali

yondashuv asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilgan xususiy-  
lashtirish yordamida hal qilindi. Moddiy ishlab chiqarish tarmoqla-  
rini boshqarish sohasida davlat monopoliyasi ularga rahbarlik qilgan  
vazirliklar va idoralarni yo'qotish hamda assotsiatsiya, korporatsiya,  
xolding, konsern timsolidagi xo'jalik subyektlarining sohaviy  
birlashmalarini tashkil etish yo'li bilan hal qilingan edi. Davlat  
monopoliyasini yo'qotish natijasida mamlakatga xususiy xo'jaliklarni  
boshqarish uchun keng ko'lamdagi iqtisodchilar kerak bo'ldi. Kichik  
va xususiy biznes sohasidagina 100 mingdan ortiq korxonalar paydo  
bo'lganligini aytishning o'zi kifoya. Bundan tashqari, xo'jalik  
yurituvchi subyektlar assotsiasiyalarida ham assotsiatsiya tarkibiga  
kiruvchi korxonalar ishni bozor metodlari bilan muvofiqlashtirish  
uchun yuqori malakali kadrlar kerak bo'ldi.

Iqtisodiyotni isloh qilishning birinchi bosqichi narxlarni to'la  
liberalizatsiyalash bilan tugallandi. Bu esa katta iztiroblarsiz, turli  
xil kompensatsion fondlar barpo etish, bolalar nafaqalarini joriy  
qilish, minimal ish haqi, pensiya va stipendiyalarni doimo oshirib  
borish, moddiy yordamga ehtiyoj sezganlarga mahalla qo'mitalari  
orqali yordam ko'rsatish bilan amlaga oshiriladi.

Bozor munosabatlarining shakllanishini tegishli muhit bozor  
infrastrukturasisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bozor infrastrukturasi  
esa tovar, pul bozorlari va mehnat resurslari bozoridagi xo'jalik  
subyektlari o'rtasida o'zaro aloqani ta'minlashga da'vat etilgan.  
Davlat buyurtmasining tugatilishi bilan tovar resurslarining  
markazlashtirilgan holda taqsimlanishiga mas'ul bo'lgan Gosstab  
va Gosplan strukturalari yo'q qilindi. Ularning o'rniga tovar-  
homashyo birjalari barpo etildi. Bular ko'pgina tadbirkorlik  
strukturalari — brokerlik va dilerlik idoralari, savdo uylari, vosita-  
chilik firmalarining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. „Kichik xusu-  
siylashtirish“ dasturining amalga oshirilishi bilan savdo va xizmat  
ko'rsatish korxonalari tarmog'i davlat tassarufidan chiqarildi, juda  
ko'plab vositachilik firmalari va kontoralari paydo bo'ldi.

1994- yildan boshlab kredit resurslari bozori faol ishlay bosh-  
ladi. Turli xil sug'urta kompaniyalari ishi faollashdi, respublikaning  
davlat sug'urta tizimi qaytadan tashkil etildi, uning vazifalari tubdan  
o'zgartirildi. Aksionerlik jamiyatlari sifatida faoliyat ko'rsatuvchi  
40 dan ortiq nodavlat sug'urta kompaniyalari yuzaga keldi. Siyosat  
va kommertsia xavflarini, bank va birja operatsiyalarini sug'urtalash  
jarayoni boshlandi.

Keskin demografik vaziyatda, respublika aholisining yillik o'sishi  
2 foizdan ko'proqni tashkil etgan sharoitda, ishchi kuchining

ortiqchaligi sezilmoqda, iqtisodning ayrim sohalarida yashirin ishsizlik mavjud. Bandlik xizmatining tashkil etilishi va kadrlarni qayta tayyorlash amalga oshirishga muvaffaq bo'lingan asosiy vazifalardan biri bo'ldi. Mehnat birjalarining keng tarmog'i tashkil etildi (u 240 dan ortiq punktlarni o'z ichiga oladi). Ishsizlarni ro'yxatga olish, ularni kasbi bo'yicha qayta tayyorlash mexanizmi yaratildi, ishsizlik bo'yicha nafaqa berish sistemasi yo'lga qo'yildi.

„Konsauditinform“ milliy agentligi tomonidan qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilariga va aksiyadorlar jamiyati auditiga xizmat ko'rsatish yuzasidan viloyat konsalting firmalari keng rivojlandi. Respublika buxgalterlar assotsiatsiyasi o'z ishini faollashtirdi. Ko'chmas mulk bozorini rivojlantirish uchun Respublika ko'chmas mulk birjasi, Ko'chmas mulk va investitsiyalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy agentligi, xususiylashtirilayotgan korxonalar mulkini baholash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo'mitasining Ekspert markazi va uning viloyatlardagi filiallari ish boshladi. Yuqorida aytib o'tilgan bozor infrastrukturasi institutlarining har biri yangicha fikr yurituvchi iqtisodchi kadrlarga katta ehtiyoj sezadi.

Jahon xo'jaligiga qo'shilish O'zbekiston Prezidenti I. Karimov tomonidan bayon qilingan quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1) o'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olishda milliy davlat manfaatlarining ustivorligi;

2) teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;

3) ideologik dunyoqarashlarga bog'liq bo'lmay, hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikning saqlanishiga sodiqlik;

4) xalqaro huquq normalarining davlatning ichki huquq normalaridan ustunligi;

5) ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida tashqi aloqalarni rivojlantirish.

Jahon xo'jaligiga jalb qilinishi tufayli O'zbekiston avtomobil ishlab chiqaradigan davlatlar qatoridan joy oldi, mahalliy sanoat qayta ishlaydigan paxta tolasining ulushi bir necha marta oshdi, mis, nodir metallar, qiyin eriydigan materiallar, oltin va zargarlik buyumlari ishlab chiqarishni ko'paytirdi, asl vinolar eksportini kengaytirdi. Neft va gaz konlarini, birinchi navbatda Sho'rtan va Muborak konlarini o'zlashtirish sur'atlarining tezlashtirilishi va Buxoro neftni qayta ishlash kompleksining qurilishi tufayli



mamlakatning energetik mustaqilligini ta'minlashga hamda uning oltin valyuta zaxiralarini tejashga muvaffaq bo'lindi.

Ekspart va import yuklarining tashish masofalari va tashish muddatlarini keskin kamaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov tashabbusi bilan Qozog'iston va Markaziy Osiyo Respublikalari, Buyuk Ipak yo'liga amal qilib, birgalikda G'arbda yangi temiryo'l qurdilar („TRASEKA“ loyihasi). Shunday qilib, O'zbekistonning jahon xo'jaligiga qo'shilishi o'ylangan holda, bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda, mamlakat esa jahon xo'jaligiga qo'shilishidan naf ko'rmoqda. Biroq respublikaning jahon xo'jaligiga qo'shilishdan ko'riladigan foydadan to'g'ri va samarali foydalanish uchun yangicha fikrlaydigan, ong-bilim doirasi keng iqtisodchi kadrlar kerak.

Iqtisodiyot sohasidagi kadrlarga bo'lgan ehtiyojni tavsiflovchi lavhalarning har biri kadrlarga ommaviy ravishda iqtisodiy ta'lim va tarbiya berish zarurligini yaqqol ko'rsatdi. Bunday vazifa umumta'lim maktablarining burchi hisoblanadi va uni hal etishni boshlang'ich sinflardan boshlash zarur.

## **1. O'quvchilarga iqtisodiy ta'lim va tarbiya berish maqsadi hamda vazifalari**

Iqtisodiy tarbiya — o'quvchilarning iqtisodiy ongini shakllantirishga qaratilgan, uyushgan (tashkil etilgan) pedagogik faoliyat, maxsus o'ylangan ish sistemasidir. Uni amalga oshirish jarayonida o'quvchilar tartibli va samarali iqtisodiyot haqida, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish to'g'risida, ishlab chiqarish munosabatlari haqida, amaldagi xo'jalik mexanizmi to'g'risida tushuncha va tasavvurlar majmuyini o'zlashtirib oladilar. Iqtisodiy tarbiya iqtisodiy tafakkurning rivojlanishini iqtisodiy faoliyat natijasida hosil bo'ladigan axloqiy va ishchanlik fazilatlarining, ijtimoiy faollikning, tadbirkorlikning, tashabbuskorlikning, ijtimoiy mulkka tejamkorlik bilan, halol munosabatning shakllanishini ta'minlaydi. Shu asosda yuqori rentabellikka, jihozlar va texnologiyani yangilashga, ratsionalizatorlik va ixtirochilikka, mahsulot sifatini yaxshilashga va pirovard natijada, shaxsiy muvaffaqiyat va farovonlikka intilish tarkib topadi.

Hozirgi kunda bozor maktabdan iqtisodiy tafakkuri rivojlangan, uzluksiz rivojlanib va takomillashib borayotgan bozor munosabatlari sharoitidagi amaliy faollikka tayyorlangan shaxsni tarbi-

yalashni talab etadi. Agar avval iqtisodiy muammolar sun'iy ravishda o'quvchidan uzoqlashtirilgan va u amaliy faoliyati boshlanguncha ulardan chetda qolayotgan bo'lsa, endi hayotning o'zi boshlang'ich sinflardan o'quvchining ehtiyojlar nimaligini, ularni qondirish nima bilan cheklanganligini, tanlab olish doimo cheklangan bir paytda qanday qilib tanlashni bilish talab etiladi. O'quvchi pulning vazifasini, oila va maktab budjeti strukturasi, tovarlar narxi qanday shakllanishi va ularning nimalarga bog'liq bo'lishini, boylikning qanday shakllanishi va uning manbalari nimalardan iboratligini va hokazolarni aniq tasavvur qilishi lozim.

Ammo, ilmiy-texnika taraqqiyoti nuqtayi nazaridan, hozirgi kunda maktab yoshlarni kasbiy tayyorgarligini tashkil etishning eskirib qolgan forma va metodlariga tayanadi. U ta'limni ishlab chiqarish mehnati bilan qo'shib olib borishda, juda sodda, bazan xonaki maktab xo'jaligiga asoslanadi. Keskinlashib borayotgan qarama-qarshiliklar maktab yoshlari orasida salbiy hodisalar: siyqa mazmunli va sodda mehnat bilan bog'liq ishlarni bajarishni istamaslik, dangasalik va mehnatga beparvo bo'lish, pala-partishlik, o'ta intizomsizlik, mehnatning yomon tashkil etilishi va mehnat unumdorligining pastligiga odatlanish kabi holatlarni keltirib chiqaradi. Iqtisodiy ta'lim va tarbiyaning maqsadi yosh avlodni mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarda ongli va iqtisodiy savodli ishtirok etishga tayyorlashdan iborat. Bu esa islohotlarning o'tkazilishini ancha tezlashtiradi, iqtisodiyotni o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan sarf-xarajatlarni qisqartiradi. Iqtisodiy ta'lim o'quvchiga ehtiyoj turlari va ularni qondirish manbalari haqida, tanlash zarurligi to'g'risida, inson va jamiyat hayotida pulning roli haqida, daromadlarning manbai va oila sarf-xarajatlari strukturasi to'g'risida tushunchalar berish (tasavvur hosil qilishi) kerak.

O'quvchining tovarlarga va xizmatlar haqidagi, ularni qanday hosil bo'lishi, ishlab chiqaruvchining munosabatlari, savdo tashkiloti va iste'molchi to'g'risidagi, mulkning nima ekanligi haqidagi bilimlari yuqorida aytib o'tilgan tasavvur (tushuncha)larga asoslanishi kerak. O'quvchini ko'p darajali iqtisodiyot: maktab va uy xo'jaligi, yordamchi xo'jalik, korxonalar, regional xo'jalik va mamlakat iqtisodiyoti olamiga olib kirishi lozim. Uni o'z oilasining ehtiyojlarini, shu jumladan o'z ehtiyojlarini tahlil qilishga, ulardan birinchilari-hayotiy muhimlarini ajratib ko'rsatishga, oila ehtiyojlarini qondirishda oila budjeti imkoniyatlarini aniqlashga o'rgatish kerak. Unga o'z pullaridan qanday qilib yaxshiroq foydalanish,

magazindan eng oddiy narsalar xarid qilish haqida gapirib berish, ehtiyojlarni qondirishda mehnatning ahamiyatini tushuntirish lozim. Jamiyatning yacheykasi sifatida oilaning stabillashuvi, ommaning islohotlarni tushunishi va qoʻllab-quvvatlashi, iqtisodiy oʻzgarishlar samaradorligini oshirish oldiga qoʻyilgan maqsadga erishishning muhim natijasidir.

Iqtisodiy tarbiya insonni iqtisodiy faoliyatga tayyorlashga, uni jamiyatimiz iqtisodiy hayotida ishtirok etishga, respublikaning tirishqoq, sergʻayrat fuqarolarini shakllantirishga yoʻnaltirilgan boʻlishi kerak. U oʻquvchilar ongida jamiyatni rivojlantirishning iqtisodiy qonuniyatlari haqida aniq tasavvurlar shakllanishini va shular asosida unda kundalik hayotida zarur boʻladigan iqtisodiy bilimlar tarkib topishini taʼminlashi kerak.

Iqtisodiy tarbiyalangan kishida hayotimizdagi koʻpgina kundalik muammolarni hal etishga boʻlgan qarashi oʻzgaradi. Lekin, afsuski, kundalik hayotda jamiyat va davlat mablagʻlaridan maqsadga muvofiq boʻlmagan holda foydalanilishiga oid koʻplab misollar topish mumkin. Ularni kamaytirish uchun barcha fuqarolarga, „kichiklardan-kattalargacha“ hayotda paydo boʻladigan iqtisodiy muammolarni hal qilishga progmatik, nostandart yondoshuv kerak. Buning uchun esa yangi iqtisodiy tafakkurni yaratish talab etiladi. Maktabda olib boriladigan iqtisodiy taʼlim va tarbiya ishlari aynan shu maqsadga xizmat qilishi lozim.

Iqtisodiy tarbiyada statistika maʼlumotlaridan mohirlik bilan foydalanish kerak. Bugungi kunda olib borilayotgan islohotlarning muhim va BMT tomonidan yuqori baholanadigan natijalari yetarlicha tushuntirilyapti. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- uy-joy muammosining hal etilishi;
- turar joylarning hamma yerda gazlashtirilishi;
- shahar tipidagi qishloq va ovullarda aholini vodoproved suvi bilan taʼminlash;
- koʻp sonli zamonaviy litsey va kollejlarni ishga tushurish va 12 yillik umumiy taʼlim sistemasiga oʻtish;
- mamlakatning transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish, Qirgʻiziston va Xitoy orqali avtomobil yoʻli, Turkmaniston va Eron orqali temir yoʻl barpo etib, Fors hamda Bosfor qoʻltigʻiga, shuningdek, Gruziya portiga chiqish va hokazo.

Shunday qilib, bizda gapirish mumkin boʻlgan muvaffaqiyatlar bor, ammo shu bilan birga kamchiliklar va hal etilmagan muammolar haqida ham unutmash kerak. Bunda tinglovchilarda islohot-

larning muvaffaqiyatiga ishonch va ularni o'z mehnati bilan qo'llab-quvvatlash istagini uyg'otish lozim.

Iqtisodiy tarbiyaning asosiy maqsadiga bir qator vazifalarni hal etish natijasida erishish mumkin. Bu vazifalarning asosiylari quyidagilardan iborat:

— o'quvchilarda iqtisodiy ongni izchillik bilan rivojlantirib borish;  
— oqilona ehtiyojlarni, ularni moddiy imkoniyatlar bilan taqqoslash qobiliyatini shakllantirish, bolalarda o'z ehtiyojlarini to'laroq qondirishga bo'lgan izlanishlarda mehnatga yo'nalganlikni tarbiyalash;

— kasb tanlashga ongli munosabatda bo'lish, tejamkorlik, rejalilik, omilkorlik, ishchanlik, xo'jalikni tejab-tergab olib borish kabi sifatlarni tarbiyalash;

— o'quvchilarni iqtisodiy tahlil qilish malaka va ko'nikmalari bilan qurollantirish, tejamkorlik va iqtisod qilish odatlarini tarbiyalash, aqliy va jismoniy mehnat madaniyatini shakllantirish, mehnatni ilmiy tashkil etish asoslarini egallab olish;

— mas'uliyatsizlikka, mehnatdagi tartibsizlikka, bekorchilikka, boqimandalik kayfiyatlariga, xo'jasizlikka, isrofgarchilikka, beparvolikka murosasiz munosabatda bo'lish hissini tarbiyalash va hokazo.

## **2. Iqtisodning shakllanishi va rivojlanishining qisqacha tarixi**

Iqtisodiy ta'lim va tarbiya o'quvchilarga tevarak-atrofimizdagi iqtisodiyot olamini ochib berishi kerak. Buning uchun maktab iqtisodiyot darsligi iqtisod nimani o'rganadi? Iqtisodiy fanlar strukturasi qanday? Iqtisodni bilish kishiga nimalarni beradi? Maktabda iqtisodni o'rganish zarurligi nimalardan iborat? Mamlakatning bozor munosabatlariga o'tishida va har bir o'quvchining bozor muhitidagi bo'lajak hayot sharoitlarida va ishida iqtisodiy bilimlarning roli nimalardan iborat? degan savollarni yoritib berishi kerak.

Iqtisod insoniyatning ibtidoiy davrlarida tovar ayriboshlashning paydo bo'lishidan boshlab tarixiy nuqtayi nazaridan ochib berilishi kerak. Qanday qilib tovar ayriboshlashning rivojlanishi bozor strukturalari: ochiq va yopiq bozor, ko'tarib yurib sotish, do'konlar, yarmarka va birjalarga olib kelganligini ko'rsatib berish lozim. Modomiki bozor ayriboshlashning ibtidoiy shakllari hanuzga qadar

takomillashtirilgan ko'rinishda saqlanib qolgan ekan, o'quvchi tovar ayriboshlashning qadimgi shakli elementlaridan bozor infrastrukturasi zamonaviy tartibotlariga o'tishni yaxshiroq eslab qoladi.

O'quvchilarga bozordagi o'yin qoidalarini tushuntirish va uning ishtirokchilari rolini ochib berish keyingi qadamlardan bo'lishi kerak. Bozor ishtirokchilari esa quyidagilardir:

- iste'molchilar uchun tovar yaratuvchi tadbirkorlar;
- tovar ishlab chiqarish uchun yollanadigan erkin ishchi kuchi; ishlab chiqarish vositalari sotib olinadigan kapital;
- bozor infrastrukturasi — banklar, birjalar, sug'urta kompaniyalari, advokatlik idoralari va hokazo;
- bozor qoidalari va erkinliklarining himoyasini, monopoliyaga qarshi qonunchilikni joriy etish va erkin raqobatni rivojlantirish bilan ta'minlovchi davlatdir.

Shundan keyin oila budjetini ochib berish kerak. O'quvchilarga oila daromadlari qanday hosil bo'lishini, ularning tarkibi va tuzilishi: ish haqi, pensiya, stipendiya, yordam pullari, tasodifiy daromadlar haqida gapirib berish lozim. Ularga, shuningdek, ota-onalarning jismoniy va intellektual kuch-g'ayrat sarflashi: kasblarni birga qo'shib olib borish, qo'shimcha vazifada ishlash, ish vaqtidan tashqari vaqtda ishlash, mavsumiy, vaqtinchalik ishlar, individual mehnat faoliyati evaziga vujudga keladigan qo'shimcha ish haqlari to'g'risida tushuncha berish zarur. Bundan tashqari, ularga yordamchi xo'jalik, dala hovlidagi ishlar, meva va sabzavotlarni qayta ishlash, xalq hunarmandchiligi buyumlari tayyorlab sotish natijasida kelib chiqadigan qo'shimcha daromadlarni (bularga ish vaqtidan tashqari bajariladigan og'ir mehnat tufayli erishiladi) ko'rsatib berish lozim. Asosiy vazifa — o'quvchiga oilaning yashash manbalari mehnat va faqat mehnat bilan yaratilishi va bolalarning tobora ortib borayotgan talablarini qondirish uchun ota-onalar keragidan ortiqcha, salomatliklarini yo'qotish xavfi bilan, ishlashlarini tushuntirishdan iborat.

Bilimlarning navbatdagi bo'limi oilaning sarf-xarajatlari strukturasi ochib berish kerak:

— kundalik xarajatlar tarkibini: ovqatlanish, kiyim-bosh va poyabzal, transport, kvartira haqi, kommunal, maishiy va boshqa pullik xizmatlar;

— bir yo'la qilinadigan xarajatlar tarkibini: uzoq vaqt foydalaniladigan buyumlar (uy, dala hovli, kvartira, transport vositasi, murakkab uy-ro'zg'or texnikasi, mebel, sanitariya texnikasi, gaz plitasi va hokazo), uy anjomlari sotib olish, soliqlarni to'lash.

O'quvchilar daromadlar va xarajatlar haqidagi bilimlarni o'zlashtirgach, oila budgetini planlashtirish masalalarini o'rganishga kirishishlari mumkin. Aynan shu bosqichda har bir o'quvchi qimmatbaho buyumlar sotib olishga bo'lgan o'z talablarining oila budgetiga mos kelish-kelmasligini anglashi va me'yoridan ortiq talablaridan ixtiyoriy ravishda voz kechishi mumkin. Shunday qilib, iqtisodiy tarbiya oilada ongli munosabatlar va o'quvchilar ehtiyojlarini to'g'ri shakllantirish shakliga aylanadi.

Navbatdagi bo'lim mehnat shakllari — daromad manbalariga bag'ishlangan bo'lishi kerak:

- korxonalar, muassasa yoki tashkilotdagi ijtimoiy mehnat;
- kichikroq korxonadagi kooperativ mehnat;
- xilma-xil ko'rinishdagi individual mehnat.

O'quvchilarga tegishli mehnat turlari:

- tovarlar ishlab chiqaruvchi, turli xil ishlarni bajaruvchi va xizmatlar ko'rsatuvchi korxonadagi ishlab chiqarish mehnati;
- hokimiyat organlaridagi, fan, madaniyati, san'at, maorif, sog'liqni saqlash sohasidagi boshqaruv mehnati haqida umumiy tasavvur hosil qilish lozim. Mehnat turlari haqida axborot berishda ulardan har birining zarurligi to'g'risida izohlar ham berib borish kerak.

Shundan so'ng oddiy va murakkab mehnat shakllarini ko'rsatib (ochib) berish lozim. Oddiy mehnat tarixan xalq hunarmandchiligi sohasida, murakkab mehnat esa sanoatning qayta ishlash sohalarida paydo bo'lgan. Mehnatning barcha shakllari va turlari bir-biriga bog'liq va o'zaro aloqada ekanligini, murakkab mehnat bilan oddiy mehnat yagona pul o'lchovi orqali qanday qilib bir-biriga taqqoslanishini ko'rsatish kerak. So'ngra bu taqqoslash bozor iqtisodiyoti sharoitlarida mehnatga haq to'lashda maoshlar ta'rif setkasida qanday hisobga olinishini konkret misollarda ochib berish lozim.

Keyingi bo'lim mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda, tovarlar va xizmatlar bozorini to'ldirishda va bandlikni ta'minlashda kichik va o'rta biznesning rolini ochib berishi kerak.

Yakunlovchi bosqichda zamonaviy iqtisodiyotning resurslarni sarflash ko'lamini ochib berish, qayta tiklanadigan va qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslar haqida, resurslarni saqlashning jahon va mamlakatimiz tajribasi to'g'risida hikoya qilish zarur. Va nihoyat, shaxsiy buyumlarga, kanselyariya tovarlariga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lish, xaridlarni to'g'ri tanlash yo'li bilan uy xo'jaligida resurslarni saqlash masalalarini ochib berish kerak.

### 3. O'quvchilar ongida iqtisodiy ta'limning asosiy tushunchalarini shakllantirish

Sivilizatsiyaning ming yillik tajribasi shuni ko'rsatadiki, xususiy mulkchilikni keng rivojlantirmay turib xo'jalikni samarali boshqarib bo'lmaydi. Sharqiy Yevropa, Xitoy, Janubi-Sharqiy Osiyo, Afrika-ning bir qator mamlakatlarida va Kubada jamiyat hayotini huquqsiz (ya'ni xususiy mulkchiliksiz) yo'lga qo'yishga bo'lgan turli urinishlar muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Mana shuning uchun ham O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar yo'lga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Respublika aholisining eng muhim iqtisodiy huquqi — mulk huquqi e'lon qilingan. Davlat iqtisodiy faoliyatni, tadbirkorlikni, barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy himoyasini kafolatlaydi. Har bir mulkdor o'ziga tegishli mol-mulkka egalik qiladi, undan foydalanadi va uni boshqaradi.

Lekin mulkdor yuqorida aytib o'tilgan mulk huquqidan samarali foydalana olishi uchun u iqtisodiy bilim asoslarini yaxshi bilishi, o'z mablag'laridan foydalanishning turli variantlarini tuza olishi va amalga oshirish uchun eng yaxshi variantni tanlashi lozim. Buning uchun, o'z navbatida, matematikani yaxshi bilish kerak. Chunki matematika iqtisodiyot bilan chambarchas bog'langan. Bunda iqtisod matematika oldiga inson hayotining kundalik va istiqboldagi dolzarb vazifalarni qo'yish kerakligini nazarda tutish juda muhimdir. Shu bois matematikani hayot bilan chambarchas bog'liq holda o'qitish kerak. Shunda o'quvchi maktabda matematikani tushunmasdan yodlamaydi, balki uni o'zining kundalik va bo'lg'usi vazifalarni hal etish asbobi deb biladi.

G'arbda bu vazifa allaqachon hal etilgan va shu holicha u muayyan vazifa hisoblanmaydi, u haqda yozmaydilar ham, gapirmaydilar ham. U jamiyat hayoti va oila tarzining ajralmas qismiga aylangan. Hamma bolalar, kichik maktab yoshidan boshlab, o'z oilasining moddiy ahvoriga qaramay, bo'sh vaqtlarida gazeta sotish, kafe va restoranlarda idish-tovoq yuvish va boshqa osonroq ishlarda ishlab biroz pul topadilar. AQSH da hatto balog'at yoshining odatiy standarti qaror topgan. Unga ko'ra balog'at yoshi pasport olgandan keyin emas, balki yetarlicha pul ishlab topgandan keyin boshlanadi. Shunda u pasport olishi bilan Yevropa hayoti bilan tanishish uchun u yerga borib oladi. Bunday maqsadga erishish uchun o'quvchilar boshlang'ich sinflardan oq shaxsiy budjetlarini olib boradilar. O'zlarining barcha daromadlarini hisobga oladilar, xarajatlarni plan-

lashtiradilar va nazarda tutadilar, pullarini bankda saqlaydilar, kassaga qo'ygan pullarining bank foizlari hisobiga ortishini e'tiborga oladilar, o'z jamg'armalarini joylashtirish uchun ishonchli yoki foiz stavkalari yuqori bo'lgan banklarni tanlaydilar.

Ba'zan o'quvchilar e'tiborli korxonalarining aksiyalarini sotib oladilar, aksioner sifatida aksiyadorlik jamiyatining ishlab chiqarish-moliyaviy faoliyati to'g'risidagi yillik hisobotlarni oladilar va jamiyatning eng muhim ko'rsatkichlari haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Ular o'z aksiyalari bo'yicha dividend olganlarida uni boshqa aksiyadorlar jamiyati to'lagan dividendlar bilan taqqoslaydilar va ulardan yaxshilarini aniqlashga harakat qiladilar. Yuqori sinflarda ular endi mavjud aksiyalarini sotadilar, boshqalarini sotib oladilar, istiqbolda aksiyalar kursini va ularning daromadlilikini oldindan bilishga urinib ko'radilar. Pirovard natijada esa, o'zlari mustaqil ravishda iqtisodiy ta'lim va tarbiya sohasida olgan bilimlari samarasini ko'radilar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, o'quvchilar uchun iqtisodiy tushunchalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: Iqtisodiy ong, iqtisodiy tarbiya, iqtisodiy ta'lim, iqtisodiy munosabatlar, iqtisodiy rag'batlantirish, xo'jalik tizimi, iqtisodiy aloqalar, iqtisodiy integratsiya, ishlab chiqarish dasturi, korxonani rivojlantirishning biznes-plani, investitsiyalar, ishlab chiqarishni tashkil etish, tadbirkor — xo'jalik yurituvchi subyekt, ish o'rnini, inson — iqtisod subyekti, yangi texnologiyalar. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan tushunchalarni bir-biri bilan o'zaro bog'liqlikda idrok qilish oson bo'lishi uchun o'quv materialini yuqoridan pastga sxemasi bo'yicha tuzish maqsadga muvofiqdir:

— hayot va ish uchun zarur bo'lgan hamma narsalarni yetkazib beruvchi mamlakatning ijtimoiy xo'jaligi;

— regional xo'jalik — mahalliy xomashyo va mehnat resurslari manbai;

— xo'jalik yurituvchi subyektlarning sohaviy birlashmalari, ular birlashma tarkibiga kiruvchi korxonalar ishini muvofiqlashtiradi;

— korxonalar — moddiy ishlab chiqarish va xizmatlar sohasining asosiy ishlab chiqarish yacheykasi.

O'quv materialiga kiritiladigan barcha tushunchalar aniq, mazkur dars o'tayotgan vaqtga kelib o'quvchilar ongida shakllangan lug'at doirasida bayon qilinishi, o'quvchining fikrlari iqtisodiyotga kirib boradigan asosiy sohalarni qamrab olishi kerak.

O'quvchilar iqtisodiy ongining qaror topishi ularda iqtisodiy tushunchalar tizimini shakllantirishni, ularning jamiyatni



iqtisodiy rivojlantirish qonuniyatlarini, iqtisod, ishlab chiqarishni tashkil etishga doir umumiy ma'lumotlarni o'zlashtirib olishini, ularda fikrlash operatsiyalari (tahlil, sintez qilish, umumlashtirish va boshqalar)ni rivojlantiradi va keyinchalik eng oddiy iqtisodiy tahlil qilish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirishni nazarda tutadi. Shu sababli boshlang'ich sinflardan oq matematika darslarida iqtisodiy tarbiya elementlarini oshirib borish lozim. Buning uchun bolalarni oila budjeti asoslariga o'rgatish kerak. Shunda ular turli xil oilaxarajatlari, oila a'zolari daromadi (ish haqi, pensiya, stipendiya, yordam puli va boshqalar)ning qanday manbalar hisobiga qoplanishini bilib oladilar. Bolalarni budjetning raqamlaridagi ifodasi bilan tanishtirish, oilaning ovqatlanish, kiyim-bosh, poyabzal, kommunal xizmatlar, o'yin-kulgi, sayr-tamosha va hokazolar uchun bo'ladigan xarajatlarni misollar bilan tushuntirish kerak. Shundan keyin o'quvchining shaxsiy budjetini misol qilib ko'rsatish kerak: ota-onalari unga maktabda ovqatlanishga, o'yin-kulgilarga necha so'm berishi, ularni qanday sarflashi. Bolalarni daromad va xarajatlarni taqsimlashga o'rgatish, jamg'armalardan qanday foydalanish mumkinligini ularga gapirib berish lozim.

Shundan so'ng o'quvchilarga ishlab chiqarish xarajatlari va ularning turlari haqida oddiy tushunchalar berish kerak. Ularga qo'shimcha ishlab chiqarish yoki uy xo'jaligini yuritishni, har qanday faoliyat xarajatlar bilan bog'liqligini eng oddiy misollarda tushuntirish zarur. Biror-bir ishni bajarish, tovar ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish uchun bir qancha resurslar sarflash lozimligini tushuntirish kerak.

Resurslar esa narxi va sifatiga ko'ra turlicha bo'ladi. Shuning uchun matematik hisoblash va taqqoslashlarga asoslanib ulardan birini tanlashga to'g'ri keladi. Bunday tushuntirishlar bolalarga ularning maktabda o'qish yillarida qatnashishi mumkin bo'lgan oddiy biznes turlarini tushunib olishlariga yordam beradi.

Ehtiyojlar insonning xulq-atvori va rivojlanishining ichki manbalaridir. Binobarin, tarbiya birinchi navbatda ehtiyojlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Insonda axloqiy jihatdan o'zini oqlagan, oqilona ehtiyojlar tarbiyalanishi lozim. Zero ular oila, maktab, jamiyatning moddiy imkoniyatlari bilan solishtirilishi va mehnat faoliyatida qondirilishi kerak. Bolalarni shunday fikrga olib kelish kerakki, ular hayotda biz doimo turli xil buyumlar to'plamidan yaxshisini, o'zimizga mosrog'ini tanlab olishimizga to'g'ri kelishini (u shaxsiy iste'molimiz uchun yoki uy xo'jaligi

ehtiyojlari, yoki ishlab chiqarish ehtiyoji uchun kerakligidan qat'iy nazar) bilsinlar. Tanlash uchun esa dastlab sotib olinadigan buyumlarni o'zaro taqqoslash zarur. Taqqoslash uchun miqdor va sifat ko'rsatkichlari kerak bo'ladi. O'lchashga taalluqli hamma narsa esa matematika bilan bog'liq. Demak, bolalarga matematikani bilmasdan turib o'lchash, taqqoslash, to'g'ri tanlash mumkin emasligini tushuntirish lozim.

Tanlash olamining juda ham rang-barangligini ochib berish kerak. Bozorda, magazinda biz eng yaxshi mahsulot va tovarlarni biz uchun ma'qul yoki arzon baholarda olish uchun tanlaymiz. Shahar transporti bekatida biz nima yaxshiligini hisoblaymiz: marshrutli taksida borish, ko'proq haq to'lash, uyga tezroq yetib borish va biror-bir foydali ishni qilish yoki avtobusni kutish, odam to'la, tiqilinch salonda ketish, uyga kechroq borish va belgilangan ishni qilishga ulgurmaslik, ammo tejalgan pullarga saqich, sarabodroq sotib olish yaxshimi. Temir yo'l yoki aviatsiya kassa yonida biz qulaylik darajasini, yo'lda bo'lish vaqtini va yo'lda bo'lmagan vaqtda yo'l xarajatlarini hisobga olamiz va bizni qanoatlantiradigan narxdagi chipta tanlaymiz.

Shunday ekan, bolalarga tanlash hayotimizning doimiy hamrohi ekanligi hamda u matematik hisob-kitoblar yordamida amalga oshiriladigan iqtisodiy mulohazalar va tanlashlarga asoslanishi haqida tushuncha berish kerak. Matematikani bilmay turib doimo nimalarnidir oz-ozdan yo'qotishimiz mumkin, lekin bir yil ichida bu yo'qotishlar sezilarli summani tashkil etadi. Vaholanki, bu pulga o'ziga yoki o'z oilasiga birorta kerakli narsani sotib olish mumkin bo'lardi. Shunday ekan, iqtisodni matematika bilan uyg'un holda bilmaslik har qanday kishi uchun zararlidir. Chunki u doimo o'zi uchun kerakli puli, vaqtini yo'qotadi, yaxshi imkoniyatlarni boy beradi. Iqtisod bilan matematikani yaxshi bilish hayotga to'g'ri tayyorlashga yordam beradi.

Bundan tashqari, iqtisodiy tarbiya jarayonida bolalarda maqsadga muvofiq ravishda mehnat qilish, mehnat unumdorligini oshirishga intilish, o'zi va jamoa mehnatiga, ish vaqti sarfiga nisbatan tejamkor, rejali bo'lish ehtiyojini shakllantirish muhimdir. Iqtisodiy tarbiya ishlab chiqarish qurollariga, mehnat predmeti va jarayoniga ongli munosabatning paydo bo'lishiga yordam beradi.

Maktabda tejamkorlik, ehtiyotkorlik ko'nikmalari va odatlarini avvalo o'quvchilarning vaqt budgetiga, shaxsiy buyumlari (kiyim-

bosh, maktab anjomlari)ga va bular asosida umuman ijtimoiy mulkka nisbatan shakllanadi. Bunda faqat malakani emas, balki ehtiyojiga qarab ish ko'rish odatini ham tarkib toptirish muhimdir.

Tejamkorlik va omilkorlik munosabati mehnatdagi mas'uliyatsizlik faktlariga murosasizlik bilan birgalikda jamoat mulkini orttirishga olib keladi. Tarbiyada bu ikki vazifa bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'lishi kerak.

Iqtisodiy ta'lim va tarbiyaning mazmuni quyidagi masalalarni o'z ichiga olishi kerak:

— iqtisodiy rivojlantirishning o'zbek modeli va jamiyatni yanada takomillashtirishda uning ahamiyati;

— O'zbekistonda bozor munosabatlarini shakllantirishda davlatning roli;

— O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy tamoyillari;

— O'zbekiston davlat qurilishi va iqtisodiyotini isloh qilishning barcha dasturlari uchun o'zak bo'lgan bosh tamoyillari;

— O'zbekiston Respublikasining bozor munosabatlariga kirishi zarurligi va uning vazifalari;

— O'zbekiston davlat tuzilishining milliy shakliga, jamiyat ishlarini demokratik boshqaruviga o'tishining mustaqil yo'li;

— barqarorlik tushunchasi, uning asosiy belgilari, barqarorlikni ta'minlash omillari;

— O'zbekistonda narxlarni liberalizatsiyalash va bozor infrastrukturasi shakllana boshlashi;

— O'zbekiston Respublikasida samarali sohaviy-ishlab chiqarishni shakllantirish yo'llari va yo'nalishlari.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan masalalarga javob tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning asarlari va so'zlagan nutqlari dastlabki manbalardan hisoblanadi.



### *Savol va topshiriqlar*

1. Iqtisodiy tarbiyani siz qanday tushunasiz, aytib bering.
2. Iqtisodiy ta'lim va tarbiya berish maqsadi hamda vazifalari haqida misollar asosida so'zlab bering.
3. Iqtisodiy ta'limning asosiy tushunchalari to'g'risida nimalarni gapirib bera olasiz?



## **XXV BOB. NAFOSAT TARBIYASI**

### **BADIIY DID VA GO'ZALLIKKA MUHABBATNI TARBIYALASH**

Nafosat tarbiyasi (estetik tarbiya) bu o'quvchilarni voqelikdagi, san'atdagi, tabiyatdagi, kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, turmushdagi go'zallikni idrok qilish hamda to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish va hayotiga go'zallik olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdir.

Nozik didli bo'lish, go'zallikni fahmlay va qadrlay olish, badiiy madaniyatni tushunish, xullas, o'z hayotini go'zallik qonunlari asosida qura olish komil insonning eng zaruriy fazilatidir.

Insonda go'zallikni tushunish birdaniga vujudga kelmaydi, balki u jamiyat va odamlar, atrof-muhit ta'sirida shakllanib boradi. Shunga ko'ra insoniyatning badiiy rivojlanish qonunlari ijtimoiy rivojlanish qonunlari bilan bog'langan.

Badiiyat qonunlari esa ijtimoiy-estetik ideallar orqali namoyon bo'ladi.

Nafosat tarbiyasi, eng avvalo, har bir kishida badiiy hissiyot tuyg'ularini, badiiy didni tarbiyalashdir. Bundan yuksak nafosatlilik aql-zakovatdan xoli bo'ladi, degan ma'noni tushunmaslik kerak. Shaxsning barkamol inson bo'lib shakllanishida bu ikki tomon bir-birini to'ldiradi. Chinakam san'at asarida hissiyot chuqur g'oyaviy-aqliy mazmun bilan birikib ketadi. Nafosat tarbiyasi aql bilan hissiyotni tarbiyalash, yanada aniqroq qilib aytganda, hissiyot vositasi bilan aqlni tarbiyalashdir. Bu ikki tomon bir-biri bilan uzviy bog'liqdir.

Ilmiy dunyoqarashga asoslangan nafosat, did, his-tuyg'ular va ko'nikmalarning o'sib borishi jarayonida insonning o'zi ham ma'naviy boyib, oliyanob bo'lib boradi, uning hayoti yanada sermazmun bo'ladi, yashayotgan zamoniga nisbatan mehr-muhabbat ortib boradi. Bularning hammasi har bir insonda go'zallikni xunuklikdan, jirkanchlikdan farq qila bilish qobiliyatini shakllantiradi, uni yanada rivojlantiradi. Chinakam nozik did haqiqiy go'zallikdan lazzatlana olish, mehnatda, turmushda, yurish-turishda, san'atda nafosatni idrok etish va yaratishga ehtiyoj sezish demakdir. Didsizlik kishining voqelikka bo'lgan ijobiy munosabatini buzib yuboradi, natijada u nafosatga loqayd qaray boshlaydi.

Nafosat tarbiyasi bugungi kunda shuning uchun ham muhimki, did-farosatlilik mehnatda, ishlab chiqarishda, kundalik amaliy faoliyatda har bir inson uchun hayotiy ehtiyojga aylanib qolgan.

Did-farosat har bir insonning xatti-harakatida, kiyinishida yurish-turishida, kishilarga bo'lgan munosabatida, jamiyatdagi u yoki bu voqealarga yondashishida va hokazolarda yaqqol tashlanadi.

Ba'zan hayotda didi past, ma'naviy qashshoq kishilarni uchratamiz. Bunday kishilar aqlan, axloqan va ruhan zaifligini yashirish uchun soxta xatti-harakatlar qiladilar, o'zlariga yarashmaydigan ishlar qiladilar, didsiz kiyinadilar, ma'nosiz shovqin-surondan iborat musiqa va ashulalarni tinglaydilar. Bundaylarni kuzatarkansiz, ularning mehnat gashtini surmagan, hayot tashvishlariga beparvo, loqayd kimsalar ekanligiga guvoh bo'lasiz.

### ODOB VA NAFOSAT TARBIIYASI

Donolardan biri go'zallik axloq-odobning tug'ishgan singlisi, degan edi. Darhaqiqat, bu juda to'g'ri ta'rif. Odatda odob va nafosat tarbiyasi o'zaro chambarchas bog'liq holda amalga oshiriladi. Chunki nafosat tarbiyasining natijasi axloq-odobda, chiroyli xatti-harakat, go'zal munosabatda va hayotga, kelajakka, insonlarga, tabiatga muhabbatda ko'rinadi.

Xalqimizda: „Kamtarlik ham husn“, deydi. Mana shu birgina iborada chuqur ma'no bor. Nafosat tarbiyasi tufayli yoshlarda kamtarlik xislati tarkib topadi. Bu xislat kishilarning eng go'zal, eng chiroyli belgisidir. „Kishining chiroyi yuzida“, deydi xalqimiz. Bu go'zal tabassum kishilarga misoli quyosh bo'lib, qalblarga iliq nur taratadi. Kishi biror asarni o'qib, chehrasi yorishib ketadi. Yoki yoqimli biror kuy, ashula tinglasa, boshi mayin tebranadi, biror go'zal rasm, manzarali tasvirga boqib undan ko'z uzolmay qoladi, qalbi quvonchlarga to'ladi.

Xunuk xatti-harakatdan nafratlana bilish tuyg'usini ham nafosat tarbiyasi paydo qiladi. Bunda badiiy asarning roli muhimdir. Masalan, „Zumrad va Qimmat“ ertagidagi Qimmatning xulq-atvori, qiliqlari, xatti-harakati o'quvchi qalbida nafrat uyg'otadi. Zumradning tevarak-atrofga munosabati, mehnatsevarligi, kamtarligi, sezgirligi, shirin so'zligi kabi xislatlari esa, aksincha, qalblarda qoniqish, quvonch, iliqlik, tabassum, unga xayrixohlik paydo qiladi.

Shuni alohida qayd etish o'rinliki, ayrim yoshlar go'zallikni tor ma'noda tushunadi. Ya'ni chiroyni ko'pincha husn-jamolda

deb bilishadi. Bu bir tomonlama tushunchadir. Har tomonlama to'liq ma'nodagi chiroy esa, husn-jamol qalb go'zalligida, ma'noli so'zdir. Xalqimiz ham „Chiroy xusn-u jamolda emas, fazl-u kamolda“, deb bejiz aytmagan!

Go'zallik tarbiyasida shu narsaga erishish kerakki, tashqi qiyofani haddan tashqari bezayvermasdan, asosan ma'naviy olamini bezash uchun intilish lozim. Shunday ekan, bolada juda yoshlikdanoq odob go'zalligiga erishishimiz zarurdir. Buning uchun o'qituvchilarimiz go'zallik ilmi bilan qurollangan bo'lishlari muhimdir. Bundan maqsad yoshlarga go'zallik asosida tarbiya berishdir.

Estetik, ya'ni go'zallik tarbiyasini singdirishning ahamiyati katta. Bunday tarbiya, avvalo, yoshlarni turmushdagi go'zallik va xunuklikni tushunish, his etish orqali ma'lum bir kayfiyatni shakllantiradi, ularda go'zallikdan zavqlanish, xunuk qiliq, xatti-harakatlardan nafratlana olish qobiliyatini paydo qiladi, kishilarni ma'naviy fazilatli bo'lishga yetaklaydi.

Estetik hissiyot, odob insonni oliyjanob qiladi, uni yuksaklikka chorlaydi. Ana shu tuyg'u rivojlangan bo'lsagina kishilarda chinakam mehr, samimiyat, oliyjanoblik, kamtarlik kabi fazilatlar va go'zallikka tashnalik hosil bo'ladi. Estetik tuyg'u: kechinmalar didni o'stiradi, zehnlilikni kuchaytiradi. Didi, zehni o'tkir kishining so'zi bilan qilgan ishlari o'zaro monand bo'ladi, u intizomlilikda namuna ko'rsatadi.

Yuksak didli inson ichki va tashqi go'zallikning birligini anglab yetadi. Har bir narsadagi, hodisa va voqealardagi uzviy aloqadorlikni chuqur his qila oladi.

Yaxshi did, o'zini tuta bilish va tarbiyalanganlik bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. O'zini tuta bilish, odob, xulq-atvordagi tarbiyalanganlik esa suhbat va gaplashishdagi yaxshi did-farosat hisoblanadi. Yaxshi, nozik did kishining yuksak axloqiy sifatlarida ifodalanadi va ularni yanada rivojlantirishga yordam beradi. Inson ma'naviy madaniyatining umumiy darajasi, aqliy, estetik va axloqiy rivojlaniishi qanchalik yuqori bo'lsa, uning ichki ma'naviy dunyosi tashqi qiyofada shunchalik yaqqolroq aks etadi. Zero, ichki go'zallik tashqi qiyofada ko'rinadi. Ichki va tashqi go'zallik birligi — bu axloqiy kamolotning go'zal ifodalanishidir. Inson go'zal bo'lishga, go'zal ko'rinishga harakat qiladi — bu tabiiy hol. Ammo uni amalga oshirish axloqiy fazilatga, ya'ni insonning go'zalligi uning ijodiy, yaratuvchilik faoliyati mazmuniga bog'liqdir. Agar inson o'zi sevgan faoliyat

bilan band bo'lar ekan, unda ichki ko'tarinkilik, oliyanoblik va ilhombaxsh tuyg'u paydo bo'ladi.

Insonning ichki va tashqi ma'naviy dunyosi, o'z oldiga qo'ygan maqsadi qanchalik go'zal bo'lmasin, agar undan jamiyatga foyda bo'lmasa, uni nafasatli deb ayta olmaymiz. Zotan, haqiqiy go'zallik har bir kishining ijtimoiy-foydali faoliyati darajasi bilan o'lchanadi.

Inson mehnati bilan yaratilgan narsalar faqat moddiy jihatdan foydali bo'libgina qolmasdan, balki, zavq-shavq uyg'otish manbayi hamdir, chunki ular kishining bahri dilini ochadi, unga ma'naviy oziq beradi.

Inson mehnat jarayonida boshqa insonlar bilan muomala qiladi, ularga yaqinlashadi. Natijada aqliy, axloqiy va hissiy kamolotga erisha boshlaydi. Kishilar bilan muomala qilish jarayonida o'z-o'zini takomillashtiradi. Insoniy muomala madaniyati kishini donolik va zavq-shavq bilan boyitadigan mo'jizaviy kuch-qudratga egadir. Zero, kishilar bilan uchrashishdan, ulardagi ma'naviy boylikni bilishdan inson o'zi uchun bitmas-tuganmas oziq oladi. Xuddi shu insoniy muomala madaniyatida shaxsning hayotni sevishi shakllanadi va yangi inson kamol topadigan ma'naviy muhit mustahkamlanadi. Insoniy muomalaning ichki ahamiyati shundan iboratki, bu jarayonda inson boshqalarning ichki dunyosini tushunadi va his etadi. Bu bilan u tor biqlik va xudbinlikdan xolis bo'ladi, xushmuomalalik gashtidan zavqqa to'lib, o'z hayotini ma'naviy boyitadi.

Xullas, estetik did, estetik qobiliyat, hissiyot madaniyati bir-daniga paydo bo'lmaydi, tabiatdan tayyor holda berilmaydi. Har qanday insoniy qobiliyat qatorida go'zallik tuyg'usi ham tarbiyalash, ham rivojlantirish, ham takomillashtirishga muhtojdir. Bularning hammasida inson go'zalligi namoyon bo'ladi. Xalqimiz „Yaxshi husningni yomon xulqing buzadi“, deb bekorga aytmagan.

#### **DID-FAROSATLILIK — TARBIYA KO'RGANLIK BELGISI**

Madaniyatlilik, tarbiya ko'rganlik, odoblilik insonning tashqi qiyofasida ham namoyon bo'ladi. Ko'cha-ko'yda, uchrashuvlarda notanish kishilarni uchratar ekanmiz, avvalo, ularning tashqi qiyofasiga nazar tashlaymiz. Shunga qarab, u haqida ma'lum bir fikrga kelamiz. Zero, hamma joyda doimo kishiga yuzlab ko'zlar qarab turadi: u qanday kiyingan, qanday qadam tashlayapti, o'zini qanday tutyapti?

Pokizalikka, ozodalikka intilish har bir inson oldidagi muhim vazifalardan hisoblanadi. Ozoda kiyinish, badanni toza saqlash, sochni tarab parvarish qilib yurish, kiyim-boshni va uy-joyini ozoda tutish kishi rioya qilishi kerak bo'lgan eng oddiy va eng zaruriy talablardandir. Ust-boshi g'ijimlangan, soqoli olinmagan kishi ko'zga sovuq ko'rinadi. Tirnoqlarni haddan ortiq o'stirish, oshirib pardoz qilish kulgilidir. Sochi g'alati qilib turmaklangan, ko'zga tashlanib turadigan katta zirak taqqan, bo'yniga katta marjon osgan qizlar, sochini yelkasiga tushirib, hurpaytirib yurgan yigitlar ko'zga xunuk ko'rinadi. O'zining tashqi qiyofasiga e'tibor berib yurish — har bir kishining muhim ijobiy hislatidir. Lekin o'ziga oro berish birdan-bir maqsad bo'lib qolsa, uning boshqa barcha manfaatlari shunga moslashtirib qo'yilsa, bu hol ijobiy bo'lmay qoladi.

Haqiqiy tarbiyalanganlik chiroyli yurish, qaddi-qomatni chiroyli tutish, chiroyli gapirishni taqozo etishini ko'p yoshlar bilishmaydi. Ba'zilar lapanglab, qo'l siltab, yelkani chiqarib yuradilar, qo'llarini cho'ntaklariga solgan holda gapiradilar, stulda oyoqlarini chalishtirib o'tiradilar. Kishilar o'rtaida bo'lganda o'ziga oro berish, tez-tez ko'zguga qarash, sochni tarash qiz bola, ayollarga yarashmaydi.

Ayrim yoshlar yasama, sun'iy „go'zallik“ bilan o'zlarini badbashara qilib qo'yadilar, ular haqiqiy go'zallik yuzning tabiiy latofatida, sodda va xushbichim kiyimda ekanini unutilib qo'yadilar. Kishining tashqi go'zalligi kiyim ranglarining bir-biriga mos kelishida, tabiiylik va soddalikda juda yaqqol ko'rinadi. Ko'zga tashlanmagan holda kishining husniga tabiiy latofat va nafosat beradigan, uning ayrim kamchiliklarini bilintirmaydigan ust-bosh kiygan ma'qul.

Insonning did-farosati kiyim-boshida, xatti-harakatlarida, o'zini tuta bilishida ko'zga tashlanadi. Samimiy, oq ko'ngil, o'ziga talabchan, umumiy tarbiyalangan kishi tashqi ko'rinishida sun'iylik, qalbakilikni ko'rsatuvchi biron-bir be'manilikka yo'l qo'ymaydigan tarzda kiyinishga, o'zini shunga munosib tutishga harakat qiladi. Didli-farosatli kishi hamisha ana shu qiyofasini saqlab qoladi. Tashqi qiyofaga e'tibor berish ichki ma'naviy go'zallikning ifodasi hisoblanadi.

Gap nafosat, go'zallik haqida borar ekan, xalqimizda pokiza, saranjom-sarishta, pok tabiat kishilarga nisbatan ishlatiladigan „nazorat“ tushunchasi haqida bir-ikki to'xtash joizdir.

Tarbiyashunos alloma Abdulla Avloniy o'zining „Turkiy guliston yoxud axloq“ asarida insonlarga, ayniqsa, xotin-qizlarga yarashiqli



„nazofat“ fazilatiga alohida urg'u berib, shunday degan: „Nazofat“ deb a'zolarimizni, kiyimlarimizni, asboblarimizni pok va toza tutmoqni aytilur.

Poklik zehn va idrokni keng va o'tkir qilur. Xalq orasida e'tibor va shuhratga sabab bo'lur. Poklik ila har xil kasallardan qutulib, jonimizning qadrini bilgan bo'lurmiz. Pok bo'lmak salomatligimiz, saodatimiz uchun eng kerakli narsadir. Yirtiq, eski kiyimlar kiyimoq ayb emas, yangi kiyimlarni kir qilib, yog'ini chiqarib yurmoq zo'r ayb va gunohdir. Chunki bu ish shariatga ters, tarbiyati badanga zid, ham bir yilga yetadigan kiyimlar olti oyga yetmay yirtilib tamom bo'ludur. Bu isrof, mol qadrini bilmaslikdir. Ifloslik balosidan poklik davosi ila qutulmoq kerak. Baliqning hayoti suv ila bo'lganidek, insonning salomatligi havo iladur. Agar tan pok bo'lib, yuvilib turmasa, quloq kir bo'lsa, eshitmagani kabi badan ham o'ziga kerak bo'lgan havoni ichiga ololmas, ichidagi rutubat ham kirdan o'tub chiqib ketolmas, chunki badan elak kabi ko'zlikdir. Agar ko'zi kir bo'lsa, un turib suv ham o'tmas, shuning uchun tamizi bo'lmagan kishilar qo'rqinchli kasallarga tezgina giriftor bo'lurlar. Shodliklari g'amda, oltindan qadrli umrlari kasalxonalarda o'tar. Mana shularga rioya qilib, shariatimiz bizga poklikni farz qilmushdir.

*Xalqi olam suyusidir tozalik, pokni,  
Poklik orttirgusidir fahm ila idrokni.  
Har kishini ko'ksida poklik nishoni bo'lmasa,  
Tozalik maydonidan quvg'aylar ul bepokni“.*

Qissadan hissa: poklik, ozodalik, saranjom-sarishtalik — yuksak didlilik imon salomatligidan darak beruvchi sifatlardir.

## NAFOSAT TARBIYASINING VAZIFALARI VA MAZMUNI

Nafosat tarbiyasi barcha yoshdagi kishilarga bab-baravar zarur.

Ammo butun tarbiya tizimida, amalda isbotlanganidek, nafosat tarbiyasini singdirishni insonning bolalik davridan boshlash nihoyatda muhim, u davr inson hayotida fe'l-atvor, irodaning, did, go'zallik tuyg'usi va hayotiy tushunchaning paydo bo'lishi va shakllanishi davridir.

Bolalikda aql-farosat, axloqiy ko'nikmalarni tarbiyalash bilan bir qatorda, ularda chiroyli, nafis, go'zal narsalardan zavq ola bilishni, go'zallikni dag'allikdan, qo'pollikdan tez ajrata olish qobiliyatini tarbiyalashimiz kerak.

Go'zallikni xunuklikdan ajrata olish, go'zallikni sevish, unga intilish qobiliyati soddalikdan murakkablikka qarab o'sib boradi. Bola to'rt-besh yoshidayoq kiyinishdagi go'zallikka, ixchamlikka, nafislikka, chiroylilikka e'tibor bera boshlaydi, to'qqiz-o'n yoshlarda esa yurish-turishdagi, xatti-harakatdagi go'zallikning ham fahmiga yetadigan bo'ladi, o'n to'rt-o'n besh yoshlarda mehnatdagi, ijtimoiy hayotdagi go'zallikni ham anglash qobiliyatiga ega bo'ladi. Lekin bu gap besh yoshli bolalarga ijtimoiy hayotdagi go'zallik haqida tushunchalar berishning hojati yo'q degan fikrni bildirmaydi. Yosh bolalarga ham mehnat haqida, hayot haqida gapirib berish mumkin, ammo bu suhbatlar nihoyatda sodda, ixcham va bola hurmat qiladigan biror kimsaning ishlari misolida olib borilsa, ayni muddao bo'ladi.

Nozik didni, go'zallik tuyg'usini shakllantirishda go'zal muhitning roli katta. Biz chiroyli muhit deganda bolaga chiroyli ko'ringan, uning qalbida zavq-shavq uyg'otadigan narsalar, buyumlar, voqealar, hodisalarni tushunamiz. Bunda oila, maktab va jamoatchilik asosiy rol o'ynaydi.

Oilada bolani tozalikka, tartiblilikka, go'zallikni sevishga o'rgatish kerak. Buning uchun, avvalo, uydagi barcha buyumlar did bilan tanlab, joylashtirilgan, toza, saranjom-sarishta bo'lgani ma'qul. Chunki bolaga ikki xil narsa ko'proq ta'sir qiladi. Birinchisi bolaning ko'ziga tez-tez tashlanadigan buyumlar, odamlar o'rtasidagi munosabat bo'lsa, ikkinchisi bolaning o'ziga bevosita tegishli bo'lgan narsalar — kiyim-kechak, idish-tovoqlar, kitoblar, o'yinchoqlar, yozuv stoli va boshqalardir. Bola o'z buyumlarini asrab, avaylab, toza-ozoda, saranjom-sarishta qilib yurishga o'rgansa, u yoshi ulg'aygan sayin go'zallikning murakkab ko'rinishlarini tabiatdagi uyg'unlikni, san'atdagi go'zallikni payqab olish uchun tayyorlana boradi.

Dasturga ko'ra o'quvchilarga dastlab xulq-atvor va turmushdagi go'zallik, ya'ni buyumlar, kiyimlar, o'quv qurollarini toza, ozoda, chiroyli asrash, ularni saranjom-sarishta saqlay bilish, ulardan to'g'ri va o'rinli foydalanish o'rgatiladi. O'quvchilarda xushmuomala bo'lish, qo'pollikdan nafratlanish, ifloslik, tartibsizlikka murosasiz bo'lish kabi xususiyatlar tarbiyalanib boradi. Nafosat tarbiyasi ta'sirida bolalar qalbi shunchalik noziklashadiki, ular har bir so'zni darhol quloqqa oladigan bo'ladi, qalb fazilati ortadi, nafosat his-tuyg'usi kuchayadi, his etish, tushunish, qadrlash, zavqlanish, nafratlana bilish, bir hodisaga munosabat bildirish — bular nafosat tarbiyasining alifbosi hisoblanadi.

Nafosat tarbiyasining asosi oiladan boshlanadi, go'daklik davrida vaqtida ovqatlanish, uxlash tartibiga rioya etish, uyda ozodalik, saranjom-sarishtalik, oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro hurmat, qadr-qimmat bola qalbida o'chmas iz qoldiradi. Bola oldida behayo so'zlarni aytish, bachkana qiliq, xatti-harakatlar qilish bola tarbiyasiga yomon ta'sir etadi. Nafosat tarbiyasi orqali ovqat pishirish, dasturxon atrofida o'tirib ovqatlanish jarayonidagi azaliy sharqona odat, odob qoidalariga amal qilish o'rgatiladi. Oila go'zallik tarbiyasining birinchi o'chog'i bo'lsa, undan keyin maktab, o'qituvchi-tarbiyachi o'giti, jamoatchilik, kattalar ta'siri ta'lim-tarbiyada muhim o'rin tutadi. Mana shu jarayonda bolaning har bir xatti-harakati kuzatib borilishi, xatolari sabr-chidam, o'rni, yotig'i bilan tuzatib turilishi lozim.

Mehmonga borish, mehmon kutish, ko'chada yurish kabi otabobolarimiz tajribasi o'rgatilmog'i zarur.

„Assalomu alaykum“ dan boshlab, chehra tabassumi, kattalar oldida bosh egib turish, har bir nasihati uchun minnatdorchiлик bildirish, ketishga ruxsat so'rash — bular birinchi o'rindagi talablarga kiradi. Ayniqsa, so'zlash odobiga jiddiy e'tibor berish darkor. So'zlaganda tinglayotgan kishi ko'ziga qarab turish, so'zlab turib u yoq-bu yoqqa alanglash yoki teskari qarab to'ng'illash odobsizlik ekanligini yaxshi anglab yetish, og'izdagi luqmani yutgandan keyin ohista gap boshlash, shoshilmay, dona-dona qilib, maqsadni aniq, dangal, ravshan, eshitarli ovoz bilan tushuntirish kerakligi o'rgatiladi. Bular — odob go'zalligidir.

Nafosat tarbiyasi orqali o'z-o'zini boshqarish shakllanadi. Bu o'z-o'ziga asta-sekin talabchanlikni keltirib chiqaradi. O'z-o'zini terqash, o'zini mustaqil, ongli, oqilona boshqarish o'z xulq-atvori, xatti-harakatiga baho bera bilish ko'nikmalarini egallash demakdir.

### NAFOSAT TARBIYASI VOSITALARI

Nafosat tarbiyasiga doir bilim va malakalar asosan dars jarayonida — o'qish, musiqa, ona tili, tabiat, tasviriy san'at, tarix, geografiya va jismoniy tarbiya kabi darslarda beriladi.

O'qish darslaridan nafosat tarbiyasi: ifodali o'qish, texnika vositalaridan foydalanish, did bilan chizilgan rasmlar va sahna o'yinlari orqali o'quvchi ongiga singdirilib boriladi. Shuningdek, turli janrdagi badiiy asarlarni o'qish, she'rlarni yodlash, jumladan, ertak, rivoyat, hikoyatlarni o'rganish orqali bola so'z qudratidan zavqlanadi, hayajonlanadi, ta'sirlanadi. O'zini sirli voqealar ichida

yurgandek his etadi, butun vujudi quloqqa aylanadi, turli kechinma, kayfiyat, his-tuyg'u qalbini qamrab oladi. So'z qudrati uni sehrlab, butunlay o'ziga jalb etadi, ergashtiradi.

Nafosat tarbiyasi vositalaridan eng muhimi san'atdir. San'atning barcha tur va janrlari o'ziga xos ta'sir kuchiga ega. Yosh o'sa borgani sayin bolada san'atning u yoki bu turiga qiziqish o'zgarib turadi.

San'atning eng ta'sirchan turlaridan biri xilma xil musiqadir. Bola hali yozish, o'qish, chizishni bilmagan paytda ham musiqaning sehrlı to'liqlinini qabul qilishi, ulardan oziqlanishi mumkin. Musiqaning ilk ta'siri ona allasi bilan bog'liq. Ona allasi mayin, jozibali, shirador, ta'sirchan bo'lgani uchun ham bola undan orom olib uyquga ketadi. Musıqa bolaning eshitish qobiliyatini yaxshilaydi, uning ruhiyatiga yumshoqlik, fe'l-atvoriga muloyimlik bag'ishlaydi. Haqiqiy musıqa asarlari ta'sirida ulg'aygan bola o'rtoqlari orasida ajralib turadi.

San'atning ikkinchi bir turi — tasviriy san'at ham nafosat tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Rasm chizishga bo'lgan qiziqish aksariyat bolalarda yoshlikdanoq boshlanadi. Rasm chizishga bo'lgan havas bolalarda ijodkorlik qobiliyatini tarbiyalaydi, xotirasini shakllantiradi, xayolning o'sishiga yordam beradi. Go'zallik va xunuklikka bo'lgan o'z munosabatini bola o'zi chizgan rasmlari orqali ifodalashga harakat qiladi. Bola o'zi yaxshi ko'radigan kishisini yoki biror narsani chiroyliroq va nafisroq chizishga harakat qilsa, yomon ko'rganini masxaralash shaklida chizishga intiladi. Biz bola hayotidagi bu jarayonni puxta bilib olib, unga yordam berishimiz lozim.

Bolalarda go'zallik tuyg'usining shakllanishida badiiy adabiyot va raqs san'atining ham roli benihoya katta. Umuman, to'rt san'at turi — musıqa, tasviriy san'at, she'riyat va raqs bolalarni go'zallik dunyosiga yetaklovchi, ularda kuzatuvchanlik, ta'sirchanlik kabi ruhiy xususiyatlarni, ijodiy xayol va ijodkorlikni tarbiyalovchi asosiy omillar hisoblanadi va bolada estetik didni shakllantiradi.

Tabiat hodisalari ham nafosat tarbiyasining muhim vositalaridan biridir.

O'quvchilarni tabiatdan bahra ola bilish, uning go'zalligini sevishga o'rgatish lozim. Buning uchun tabiat bag'riga tez-tez sayr uyushtirish, tabiat manzaralari, quyosh, havo, bog', dala, suv, daryo, tog', qushlar, jonivorlar, hayvonlarni kuzata bilish, ularning ko'rinishi, shakli, rangi, ovozi tinglash, eshitish, mehnat obyektlarini borib ko'rish, inson va uning turli kasblarga oid faoliyatini o'rganish — nafosat tarbiyasining asoslari hisoblanadi.

O'quvchilarni havaskorlik to'garaklariga jalb etish, intermediyalar ijro etish, sahnada rol bajarish, turli milliy o'yinlar o'ynash — bular qalblarni go'zallikka oshno etuvchi vositalar bo'lib xizmat qiladi.

Nafosat tarbiyasi jismoniy rivojlanish bilan ajralmasdir. „Sog' tanda — sog' aql“ degan hikmat bejiz aytilmagan. Biz tashqi va ichki go'zallikni bir-biriga qarama-qarshi qo'ymasdan, ularning uyg'unlikda taraqqiy etishiga erishishimiz lozim. Badantariya va sport bilan shug'ullanish, bir tomondan, kishining salomatligini mustahkamlasa, ikkinchi tomondan, tashqi qiyofasini ko'rkam qiladi.

Hamma vaqt nafosat tarbiyasining asosida erkin fikrlash, eshitish, ko'rish, harakat qilish qobiliyatini tarbiyalash masalasi turadi.

Bola voqelikdagi, san'atdagi, insondagi go'zallikni ko'ra olishga, his qila bilishga, musiqa asarlarini eshita olishga, go'zallik va xunuklik haqida erkin fikrlay olishga, o'z fikrini aniq so'zlashga qobil bo'lsa, demak, unda go'zal tuyg'u, estetik idrok kamol topgan bo'ladi.



### *Savol va topshiriqlar*

1. „Insonning hamma narsasi — yuzi ham, kiyimi ham, qalbi ham, fikri ham go'zal bo'lishi kerak“ deganda nimalar nazarda tutilgan, sharhlab bering.
2. „Aqlsiz go'zal — loyga tushgan yaproqqa o'xshaydi“. O'xshatishning ma'nosi nimada? Hayotdan misollar keltiring.
3. Tashqi va ichki go'zallikni Siz qanday tushunasiz?
4. „Madaniyatlilik“, „Tarbiya ko'rganlik“, „Odoblilik“ tushunchalarini izohlang. Qanday holatlarda, qanday insonlarga nisbatan bu iboralarni ishlatamiz?
5. „Estetik did“, „Estetik qobiliyat“, „Estetik madaniyat“ tushunchalariga ta'rif bering.
6. „Kiyinish odobi“ mavzusida suhbat olib borish tartibini yozma ravishda ifodalang.





## **XXVI BOB. AXLOQ-ODOB TARBIYASI**

### **AXLOQ-ODOB JAMIYATNING POYDEVORI**

Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, muayyan jamiyatda yashovchi kishilar amal qilishi zarur bo'lgan ma'lum xatti-harakat qoidalari yig'indisidir.

Axloq odamlarning bir-birlariga, jamiyatga, davlatga, xalq mulkiga, oilaga, ishlab chiqarish vositalariga, mehnat mahsulotlari va shu kabilarga munosabatini muayyan tartibga soladigan xatti-harakat qoidalari tizimida namoyon bo'ladi.

Odob — odamning jamoat, el-yurt orasida o'zini tutish, boshqalar bilan qay yo'sin muomala qilish, o'z turmushi, maishati va bo'sh vaqtini qanday tashkil etishi, xullas, shaxsning kundalik xulq-atvori, yurish-turishi, xatti-harakatlari qanday bo'lishi lozim va ma'qul ekanligi xususida bahs etadi. Aniqrog'i, axloq kishining ichki olami, e'tiqodi, fazilatlarini sifatida mavjud bo'lsa, odob shaxsning ko'zga tashlanadigan mulozamati, xulq-atvori, muomala-munosabatlari tarzida namoyon bo'ladi. Axloq kishidan har xil holatlarda qanday yo'l tutish kerakligini yaxshi o'ylab, maqsadga muvofiq harakat qilishni talab etsa, odob o'z qoidalarining odat tusiga kirishini, ya'ni har qanday vaziyatda ana shu odatni namoyon qilishini taqozo qiladi. Har bir odam xususida, odatda, uning faoliyatiga, qanday ish bilan shug'ullanishiga, bu faoliyati va ishi axloq talablariga, turmush qoidalariga, jumladan, davlat qonunlariga muvofiq yoki xilof ekanligiga asoslanib, muayyan fikr yuritiladi.

Axloq ilmi yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi murakkab muammolar haqida bahs yuritib, insonning kamolotga erishish yo'lini yoritib boradi. Har bir inson bir olam bo'lgani kabi uning axloq-odobi ham juda murakkab olam, desak yanglishmaymiz. Chunki shaxsning zohiriy va botiniy olamini, ayniqsa, qalb olamini o'rganish, bilish, tahlil etish g'oyatda qiyin, bu ruhiyat bilan bog'liq holatdir. Axloqli, odobli komil insonda odamiylikning eng yaxshi xislatlari: mehr-muhabbat, rahm-shafqat, adolat-u diyonat, hayo-yu iffat, vafo-yu sadoqat, himmat-u saxovat, imon-e'tiqod kabilar mujassam bo'ladi, ayni holda, shu xislatlarning aksi beburd, axloqsiz kimsalar fe'lida ko'rinadi.

Har bir xalqning nufuzi va obro'-shuhrati kishilarning axloqi, odobi, yaxshi xislat-fazilatlarini bilan belgilanadi, shu taxlit bahosini oladi.

Qadimgi faylasuflar-u donishmandlar axloq-odobga juda katta baho berib, uni jamiyatning poydevori deganlar. Shuning uchun ham jamiyat har bir a'zosining xulq-u odobiga alohida e'tibor berilishi bejiz emas.

Asrlar davomida axloq-odob mavzuyida qanchadan-qancha kitoblar, hikmatnomalar, odobnomalar, pandnomalar va nasihatnomalar, ibratli hikmat-u rivoyatlar yaratilgan. Xalq og'zaki ijodi xazinalarida axloq-odobga doir bebaho fikr javohirlari borki, ularning hammasini hisoblab hisobiga, ta'riflab ta'rifiga yetib bo'lmaydi.

Muqaddas Qur'oni Karimda va Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning hadislarida insoniy axloq-odobning barcha qirralari o'z ifodasini topgan. Muqaddas kalimalarning deyarli hammasida yaxshi amallarning hidoyati hamda yomon odatlarning zarari bayon etiladi va ulardan qanday qilib saqlanish lozimligi haqida yo'l-yo'riqlar ko'rsatib qo'yilgan.

Yosh niholning baquvvat daraxtga aylanishi parvarishga bog'liq bo'lganidek, odam bolasi komil inson bo'lib yetishishi uchun ham uni murg'aqlikdan axloq-odob ilmidan bahramand etib borish lozim.

### AXLOQIY TARBIYANING VAZIFASI

Axloq-odob tarbiyasi milliy, ma'naviy, umuminsoniy qadriyatlar asosida amalga oshirilgandagina uning mazmuni yanada boyib boradi. Chunki milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar axloqiy tarbiyaning hamma tomonlarini qamrab oladi.

Insonning jamiyatga bo'lgan munosabatini shakllantirish, salbiy illatlarga qarshi nafrat uyg'otish, ongli intizomni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazish kabilar axloqiy tarbiyaning vazifalaridir.

Axloqiy tarbiya vazifalaridan yana biri insonning jamiyatga bo'lgan munosabatini yuqori pog'onaga ko'tarishdir.

Imon va insof, so'z va ish birligi, insonparvarlik — yangi qurilayotgan jamiyatning asosiy xususiyatlari bo'lib qoladi. Shunday ekan, jamiyat va xalq manfaati, uning baxt-saodati uchun kurashish mas'uliyatini har bir fuqaro teran his etishi va unga amal qilishi lozim. Yoshlarni tarbiyalashda sharqona va milliy axloq-odob normalari asosida ish yuritish bilan birga jamiyatga hurmat, mustaqillikni mustahkamlash, insonlarga insoniy munosabatda bo'lish kabi fazilatlarini singdirish taqozo etiladi. Bu vazifalarni amalga oshirish o'quvchilarning jamiyatga bo'lgan munosabatini shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir.

O'quvchilarni jamiyat manfaati uchun qilnadigan mehnatga ilhomlantirish o'qituvchining eng muhim vazifasi hisoblanadi. O'quvchining jamiyatga bo'lgan munosabatida milliy birlik, birdamlik va hamkorlik tuyg'ulari, turli xalqlarga bo'lgan hurmat kabilar yaqqol namoyon bo'lishi zarur.

Axloq, odob insonning jamiyatga bo'lgan munosabatining negizini tashkil etadi. Shuning uchun ham o'quvchida jamiyatga bo'lgan hurmatni yuksaltirish mustaqilligimizni mustahkamlashga, axloqiy madaniyat egasi bo'lishga, axloqiy ongini, o'zini o'zi anglab yetishga, yaxshi insonlarga bo'lgan e'tiqodni rivojlantirishga olib keladi. Maktab o'qituvchilari dars va darsdan tashqari jarayonlarda do'stlik, hamjihatlik, hamkorlik, bir-birini qo'llab-quvvatlash, birovning dardiga darmon bo'lish kabi fazilatlar xalqimiz va millatimiz kuch-qudratining asosi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy taraqqiyotning negizi ekanligini o'z o'quvchilariga tushuntirishlari darkor.

O'zbekiston mustaqilligi, yurtimiz ravnaqi yoshlarni o'qish, izlanish va mehnatdan qochmaydigan, har qanday qiyinchiliklardan hayiqmaydigan, salbiy illatlarga nafrat bilan qarash ruhida tarbiyalashni talab qiladi. Shunga ko'ra bugungi O'zbekiston zaminida yashayotgan har bir yosh kelgusida shu o'lkaning haqiqiy egasi bo'lib yetishishi, uning gullab-yashnashi haqida qayg'urishi, erishgan yutuqlarni mustahkamlashi lozim.

Salbiy illatlarning dastlabki belgilari oilada, maktabda ko'rinadi. Buning oldini olish va bartaraf etish uchun tinimsiz kurash olib borish zarur. Bunda maktab o'qituvchilari, ota-onalar o'z o'quvchilarida, o'z farzandlarida samimiylilik, tashabbuskorlik, faollik, mehnatsevarlik kabi axloqiy sifatlarni; matonat, qat'iyat, mustaqillik, tashabbuskorlik, ishonch kabi xislatlarni shakllantirishlari shart.

O'quvchilardagi salbiy illatlarga qarshi kurash olib borishda o'qituvchilar muhim rol o'ynaydilar. O'qituvchilar ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni mamlakatimizda ro'y berayotgan voqea va hodisalarning haqqoniyligiga, to'g'riligiga ishonch ruhida tarbiyalashlari zarur.

Ayniqsa, ular har bir darsni o'tishda respublikada bo'layotgan yangiliklar, mustaqil O'zbekistonning fidoyi kishilari haqida so'zlab berishlari, shu bilan birga mustaqillikning qadriga yetmayotgan ba'zi bir yoshlarning yaramas kirdikorlarini tushuntirishlari kerak.

Axloqiy tarbiya vazifalaridan biri — ongli intizom bo'lishidir.



Ongli intizom kishining kundalik faoliyatida, xulq-atvorida, kishilar bilan aloqasida, umumiy dunyoqarashida namoyon bo'ladi. Ongli, intizomli kishining madaniyati, muomalasi kundalik masalalarni hal qilish bilan hayotining mazmuni, yaxshilik va yomonlik, ma'naviy boylik haqidagi tasavvurlari bilan u yoki bu tarzda bog'langandir.

Ongli intizom egasi bo'lgan kishi o'z axloqiy burchini to'g'ri anglaydi, o'z xatti-harakatlariga baho beradi, noto'g'ri xatti-harakatni qoralaydi. Intizomli kishi o'z xulq-atvoriga to'g'ri baho berish bilan birga biror xatti-harakat uchun shaxsiy mas'uliyatni his etadi.

Abdulla Avloniy „Intizom deb qiladurgan ibodatlarimizni, ishlarimizni har birini o'z vaqtida tartibi ila qilmoqni aytilur. Agar yer yuzida intizom bo'lmasa edi, insonlar bir daqiqa yasholmas edilar“ deb ta'kidlaydi. Demak, intizom ruhimizga, fikrimizga ta'sir qiladigan xislat, tartib-odob, ma'naviy quvvatdir. Intizom yaxshi xulqlarning manbayidir.

O'quvchilarda ongli intizomni, odobni tarbiyalashda o'qituvchilar o'z xulq-atvorlari, muomala madaniyati bilan namuna bo'lishlari darkor. Chunki ularning yurish-turishi, odobi o'quvchining ichki e'tiqodiga aylanishi va ma'naviyatiga ta'sir etishi kerak. Shundagina o'quvchilar jamiyat va jamoa oldida axloqiy tarbiya talablariga javob beradigan xulq-atvor egalari bo'la oladilar.

### AXLOQIY TARBIYANING MAZMUNI

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng ta'lim-tarbiyaning mazmuni va mohiyatida, usullari va shakllarida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Ta'lim-tarbiyada milliy qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirish asosiy o'rinni egalladi. Tariximiz, madaniyatimiz, milliy urf-odatlariga e'tibor kuchaydi. Haqiqatan ham, bugungi kunda O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlash va kelajakda istiqbol istiqbolini rivojlantirish, avvalo komil insonlarga bog'liq. Chunki bunday insonlar tufayli fan va madaniyat, sanoat va qishloq xo'jaligi rivojlanadi. Zero, axloqiy madaniyat vazifalaridan biri komil insonni voyaga yetkazish, uni tarbiyalashdan iborat.

Komil inson O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda o'z e'tiqodi, g'ayrat-shijoati, madaniyati, bilimi va ularni tatbiq etish mahorati bilan ajralib turadi. U jamiyatda, jamoada xalqlar va millatlar o'rtasida do'stlik, sog'lom turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan muhitni vujudga keltirishga intiladi.

Komil insonni shakllantirishda maktabda, oilada, sog'lom ma'naviy muhit barqaror bo'lishiga erishish muhim ahamiyatga ega. Chunki sog'lom muhit natijasidagina axloqiy fazilatlar tarkib topadi.

Ota-onalar o'z farzandlarini komil insonlar qilib tarbiyalashi, ularda Vatanga muhabbat, mehnati va fidoyiligi bilan o'zgalarga foyda keltirish, sadoqat, samimiylik kabi xislatlarni kamol toptirishga xizmat qiladi. Farzandlarimizning bunday insonlar bo'lishida oilaning totuvligi, ota-onaning o'zaro mehr-muhabbati ham samarali ta'sir ko'rsatadi.

Kishi o'z hayotida axloqiy kamolotga qanchalik ko'p intilsa, shunchalik o'z xato-kamchiliklarini anglab boradi.

Turon zaminimiz xalqlari axloqiy tarbiya sohasida boy an'analarga ega. Axloqqa oid dastlabki fikrlar „Avesto“ kitobida, qadimgi bitiklarda va boshqa yozma manbalarda o'z ifodasini topgan. Bulardan tashqari, o'zbek xalqi o'rtasida keng tarqalgan pand-nomalar, o'g'itlar va odobnomalarda, xalq pedagogikasida, falsafiy risolalarda, allomalar merosida axloqiy masalalarga keng o'rin berilgan.

Hadisi shariflardagi axloqqa oid ibratli maslahatlar, hikoyatlar, asrlar davomida ajdodlarimiz hayotida tarkib topgan milliy urf-odatlar, an'analar Beruniy, Forobiy, Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Navoiy, Bobur singari buyuk allomalar, olimlar, yozuvchilarning axloq haqidagi ko'plab fikr-mulohazalari bugungi kunda ham oilaviy hayot uchun, har bir inson uchun qadr-qimmatini yo'qotmagan muhim tarbiyaviy ahamiyatga molikdir. Jumladan, Amir Temur axloqi husniya — yaxshi xulqlar egasi bo'lgan. U oqil va tadbirli sarkarda sifatida odamlarni ishga tayinlashda ham, vazifasidan ozod etishda ham shoshma-shosharlik va adolatsizlikka yo'l qo'ymagan, balki yetti o'lchab bir kesgan.

Amir Temur singari jahon ma'naviyati saltanatida o'z o'rinlariga ega bo'lgan buyuk bobokalonlarimizning axloq, go'zal xulq haqidagi fikrlari bugungi kun talabi bilan yozilgandek tuyuladi.

„O'g'illarim! Millatning ulug' martabasini, saodatini saqlamoq uchun Sizlarga qoldirayotgan vasiyat va tuzuklarni yaxshi o'qing, aslo unutmang va tatbiq eting.

Millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir. Zaiflarni qo'riqlang, yo'qsillarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va ozodlik dastingiz, rahbaringiz bo'lsin. Men kabi uzun saltanat surmoq istasangiz, qilichingizni yaxshi o'ylab chekingiz. Bir daf'a chek-

kandan so'ngra-da, uni ustalik-la qo'llangiz. Orangizda nifoq tuxumlari ekilmasligi uchun ko'p diqqat bo'ling. Bularga sodiq qolsangiz tosh boshingizga tushmas"<sup>1</sup>.

Amir Temurning bu vasiyatlaridan uning o'z xalqiga cheksiz sodiqligini, millatni ulug'laganini, kamtarin, adolat va ozodlik uchun kurashuvchan, axloqiy madaniyati yuksak inson bo'lganligini ko'rish mumkin. Shuningdek, Ismoil Al-Buxoriy „Axloqning yaxshi bo'lishida, taomning pokizaligi, rostlik va omonatga xiyonat qilmaslik shart, dunyoviy ishlardan chetda qolgan bo'lsang ham zarari yo'qdir“<sup>2</sup>, — deb yozadi.

O'rta Osiyo mutafakkirlarining axloq haqidagi fikrlari, o'g'itlari shunday kuchga egaki, ular o'quvchilar qalbida insoniylik urug'larining unib chiqishiga, katta hayot yo'liga olib chiqishiga yordam qiladi, ma'naviy kuch-quvvat beradi. Xalqiga va qarindosh-urug'lariga qo'lidan kelgan barcha yaxshiliklarni qilish, ularning hurmatini joyiga qo'yish kabi insoniy fazilatlarini shakllantiradi. Bu esa imonli, e'tiqodli, g'ururli, odobli shaxsni voyaga yetkazishning asosiy maqsadidir. Shu bois biz uchun qadrlil bo'lgan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabi ulug' mutafakkirlarning axloqiy qarashlari va qadriyatlaridan mustaqil O'zbekiston istiqlolini mustahkamlashda, o'quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirishda, kundalik turmushimizda keng foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir.

Shuni aytish kerakki, xalqimiz axloq-odobni qadimdan ulug'lab kelgan. Chunki axloq-odob insonga husn, latofat va nazokat bag'ishlagan. O'rta Osiyo mutafakkirlari o'z asarlarida axloqiy g'oyalarni doimo tarannum etib, xalqni oriflik, fozillik, komillik darajasiga ko'tarishga chorlaganlar. Bu borada Abu Nasr Forobiyning ijodi diqqatga sazovordir.

Forobiyning ijodini o'rganish o'qituvchilarning axloq, ta'lim-tarbiya sohasida olib boradigan ishlariga keng imkoniyatlar yaratadi.

Forobiy inson axloqi haqida gapirar ekan, uning xislatlarini quyidagicha ta'riflaydi:

1. Bunday odamning barcha a'zolari shu darajada mukammal taraqqiy etgan bo'lishi zarurki, u bu a'zolari bilan bajarmoqchi bo'lgan barcha ishlarini osonlik bilan amalga oshira olsun.

<sup>1</sup> Amir Temur o'g'itlari. T., „Navro'z“. 1992.

<sup>2</sup> Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-mufrat. T., „O'zbekiston“, 1990.

2. Barcha masalani, muhokama va mulohazani tezda va to'g'ri tushuna oladigan, uning ma'nosini anglay oladigan, so'zlovchining maqsadi, aytilgan fikrining chinligini tezda payqay oladigan bo'lsin.

3. Xotirasi juda baquvvat bo'lsin, ko'rgan, eshitgan, sezgan narsalarining birontasini ham esidan chiqarmay, yodida saqlab qoladigan bo'lsin.

4. Zehni shu darajada tez va o'tkir bo'lsinki, biror narsaning alomatini sezishi bilan bu alomat nimani bildirishligini tezda bilib olsin.

5. So'zlari aniq bo'lsin, fikrini va aytmoqchi bo'lgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin.

6. Bilish va o'qishga muhabbatli bo'lsin, o'rganmoqchi bo'lgan bilimni charchashni sezmasdan osonlik bilan o'zlashtira olsin.

7. Ovqatlanishda, ichimlik iste'mol qilishda ochko'z bo'lmasin, tabiati qimor o'yinlarini o'ynashdan uzoq bo'lsin va ular keltiradigan xursandchilikdan jirkanadigan bo'lsin.

8. Haqiqatni va haqiqat tarafdorlarini sevadigan bo'lsin, yolg'on va yolg'onchilarga nafrat bilan qaraydigan bo'lsin.

9. Ruhining g'ururi va vijdonini qadrlaydigan bo'lsin, uning ruhi va o'z tabiati bilan past ishlardan yuqori va oliyjanob ishlarga ishlatiladigan bo'lsin.

10. O'z tabiati bilan adolatni sevadigan va adolat uchun kurashadigan, adolatsizlik, sabr-zulm o'tkazuvchilarga nafrat bilan qaraydigan bo'lsin, o'z odamlari va boshqalarga adolatli bo'lsin, go'zal va yaxshi hisoblangan narsalarni barchaga taqdim etgan holda odamlarni adolatga targ'ib etadigan, adolatsizlik oqibatlarini yo'qotadigan, ularga yo'l qo'ymaydigan bo'lsin.

11. Adolatli bo'lsin, ammo qaysar bo'lmasin, adolat oldida qaysarlik qilib o'zbilarmonlikka berilmasin, lekin har qanday adolatsizlik, pastkashlik oldida lafzli bo'lsin, o'zi zarur deb bilgan narsasini amalga oshirishda qat'iylik ko'rsatsin: qo'rqmas, jasur bo'lsin, qo'rquv va oqizlikni bilmasin<sup>1</sup>.

Forobiyning fikricha, insonning axloqli, saxovatli va aql-idrokli bo'lishida bilimlarni egallash muhim ahamiyatga egadir. Inson bilim orqaligina o'z maqsadiga erisha oladi.

Abu Nasr Forobiy „Insoniy vujuddan maqsad — eng oliy baxt-saodatga erishuvdir; avvalo u baxt-saodat — nima va nima-

---

<sup>1</sup> Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent., A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993, 186—187- betlar.

lardan iborat ekanligini bilishi, unga erishuvni o'ziga g'oya va eng oliy maqsad qilib olishi, butun vujudi bilan maftun bo'lishi kerak. Keyin bu baxt-saodatga olib boradigan ish, amal va vositalarning nimalardan iborat ekanligini bilib olishi zarur. So'ngra esa baxt-saodatga erishtiradigan ishlarni shaxsan bajarishga kirishmog'i lozim bo'ladi<sup>1</sup>, deb ta'kidlaydi.

Forobiy axloqiy madaniyatning fazilatlaridan hisoblangan saxovat masalasiga alohida e'tibor bergan. U o'z zamonasidagi adolatsizliklarga befarq bo'lmagan. Buyuk allomaning ta'kidlashicha, kishilar o'rtasidagi o'zaro yordam, do'stona va qardoshlik munosabatlari, saxovatli bo'lish ozodlik, rohat-farog'at kalitidir.

Ibn Sino insonning umumiy fazilati, kishilarda yaxshi va yomon xulqlarning paydo bo'lishi sabablarini „Alloh haqida risola“ asarida ko'rsatib o'tadi. Olim bu asarida yaxshi va yomon xulqlar odamlarning odatidan, hukumat ahllarining salbiy ta'siridan paydo bo'lishini ta'kidlaydi.

Abu Ali ibn Sinoning axloq haqidagi qarashlari uning shoh asarlari bo'lmish „Tib qonunlari“, „Ash-shifo“ va boshqa asarlarida ham o'z ifodasini topgan.

Ibn Sino ta'limotiga ko'ra, odamga do'st tutinishning uch xil yo'li bor. „Birinchidan, har qanday qiyinchilik bo'lishiga qaramay, kishi o'z do'stini falokatdan qutqarishi, ikkinchidan, g'oyaviy yaqinlik va dunyoqarashlar umumiy bo'lgan chinakam va doimiy do'stlik, uchinchidan esa kishining mansabi, puli yoki mavqeyiga qarab o'zining shaxsiy manfaatini qondirish ko'zda tutilgan do'stlik bo'ladi“, — deb ta'kidlaydi Ibn Sino.

O'rta Osiyo mutafakkirlaridan biri Yusuf Xos Hojibning asarlarida ham axloq madaniyati keng o'rin egallagan.

Mutafakkir „Qutadg'u bilig“ dostonida hokim bilan xalq o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masalasiga e'tibor beradi. Uning fikricha, agar beklar tabiatan ezgu bo'lsalar, barcha fuqarosi boyiydi, olam guliston bo'ladi. Shuningdek: „Hamma narsaning qoidasi, tartibi, ta'limi bor, tartib, odob qoidalarini to'g'ri tutsa, kishining yuzi yorug' bo'ladi“, — deb ta'kidlaydi.

Inson kamolotining fazilatlaridan hisoblangan adolat tushunchasi va adolat tuyg'usi Alisher Navoiy donishmandligining asosini tashkil etadi. Uning fikricha, ongning mavjudligi adolatning mavjudligidir. Adolatsiz ong ong emas. Insoniyat tirikligining davomiyligini ta'minlaydigan birdan-bir narsa ham adolatdir.

---

<sup>1</sup> O'sha asar, 189- bet.

Axloq g'oyasi bolaning ma'naviy tarbiyasi va yetukligining asosi hisoblanadi.

„Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha xalqlar uchun yoqimlidir. U mansabdor kishilardan go'zalroq va badavlat odamlardan hurmatliroqdir. Odobli odam o'z tengdoshlari orasida ham tahsinga sazovor bo'lib, hech qanday ehson bermay, kattadan-kichik, hammani shod qiladi, hech qanaqa hadya qilmay, kishilarning g'amini tarqatadi.

Odob — kichik yoshlilarni kattalar duosiga sazovor etadi, yoshlar u duo barakasidan umrbod bahramand bo'ladilar. Odob — ulug'lar ko'nglida yoshlarga mehr uyg'otadi va u odobli yoshga bo'lgan muhabbat ko'nglida abadiy qoladi. Yoshlarni ko'pga ulug' qilib ko'rsatadigan fe'l-atvor odobdir, odoblilarning yurish-turishida xalq ulug'vorlik ko'radi.

Odob — kishilar tarafidan qilinishi mumkin bo'lgan hurmat-sizlik eshigini bekitadi va odamni hazil-mazaxdan, kamsitishdan saqlaydi. Odob — odam tabiatiga insoniylik baxsh etadi.

Odob — mehr-muhabbatning zeb-ziynatidir, odobsizlik — do'stlikka putur yetkazadi. Odob do'stlik oynasiga jilo beradi va ikki oraga yorug'lik bag'ishlaydi.

Odob urug'ini ekan odamning hosili javohir bo'ladi. Odobli va go'zal xulqli odamlar ko'payaversa, xalqning do'stligi, ularning bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbati borgan sari rivoj topadi. Agar kishi odob kabi xulqqa ega bo'lsa, o'zi ham xalqning izzat-hurmatiga sazovor bo'ladi. Do'stlar orasida shu kabi suhbat va shu yo'sinda hamjihatlik bo'lsa, qanday yaxshi! Bunday aql, ittifoq, muhabbatli, odobli bo'lish do'stlar uchun baxtiyorlikdir!.“

Shunday qilib, O'rta Osiyo allomalarining ijodida axloqiy madaniyat mazmunan boy va shaklan g'oyat rang-barangdir. Xalqimiz tarixida axloqiy madaniyat ta'limoti doimo rivojlanib, takomillashib borgan. XVI— XX asrlar davomida unga salmoqli hissa qo'shgan Turdi va Mashrab, Gulxaniy va Munis Xorazmiy, Muqimiy va Furqat. Avaz O'tar kabi qator ilg'or shoir va allomalar haqida ham ko'p mulohazalar bayon qilish mumkin.

O'rta Osiyo mutafakkirlarining axloq-odob haqidagi fikrlarini o'rganishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, unda axloqiy odob madaniyatidan tashqari xalqimizning qadimiy urf-odatlari va udumlari, an'analari ham yaxshi yoritilgan.

---

<sup>1</sup> Alisher Navoiy. „Mahbubul qulub“ asaridan. Toshkent., Badiiy adabiyot nashriyoti, 1996- yil.

XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotining asoschisi Abdulla Avloniy axloqni shunday ta'riflaydi: „Insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdir. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar bilan bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur.

Axloq ilmini o'qub, bilib, amal qilgan kishilar o'zining kim ekanini, janobi haq na uchun xalq qilganin, yer yuzida nima ish qilmoq uchun yurganin bilur. Bir kishi o'zidan xabardor bo'lmasa, ilmni, ulamoni, yaxshi kishilarni, yaxshi narsalarni, yaxshi ishlarning qadrini, qimmatini bilmas. O'z aybini bilub, iqrur qilub, tuzatmoqga sa'y va ko'shish qilgan kishi chin bahodir va pahlavon kishidur“<sup>1</sup>.

O'zbekistonning mustaqilligi tufayli axloqiy tarbiya mazmunini tashkil etuvchi xalqimizning milliy ruhiyati, yuksak insoniy fazilatlarini, ma'naviyati, ezgu orzu-umidlari yorqin ifodasini topishi uchun keng imkoniyatlar paydo bo'ldi. Yangi shakllanib kelayotgan mustaqil O'zbekiston davlatining asosiy maqsadi — jamiyatni ma'naviy yuksaltirish, madaniyatli, barkamol insonni tarbiyalash, yoshlarda axloqiy fazilatlarini shakllantirishdir.



### *Savol va topshiriqlar*

1. Qaysi fazilatlar insonga ko'rk bag'ishlaydi, baxt keltiradi?
2. Qanday yomon odat, xatti-harakat, xulq-atvor qoralanadi va u yomon illat sanaladi? Bu haqdagi qanday rivoyat, hikoyatlarni bilasiz?
3. „Yoshlik beboshlik emas“, „Odobni beodobdan o'rgan“ maqollarini qanday izohlaysiz?
4. „Bu odobdan“, „Bu odobdan emas“ tushunchalariga ta'rif bering. Hayotiy misollar keltiring.
5. „Ota-ona bolani dunyoga keltirganliklari uchun emas, balki uni odobli, axloqli qilib voyaga yetkazganliklari uchungina olqishga sazovor bo'ladilar“. Bu hikmatli jumlaning mazmunidan qanday xulosa chiqarish mumkin? Fikringizni yozma bayon eting.

---

<sup>1</sup> Abdulla Avloniy. „Turkiy giliston yoxud axloq“. Toshkent, „O'qituvchi“, 1992.



## **XXVII BOB. EKOLOGIK TARBIYA**

### **EKOLOGIYA VA UNING TABIIY QONUNIYATLARI HAQIDA**

Bugungi kunda insoniyatni xavf ostida qoldirayotgan hodisalardan biri ekologik vaziyat hisoblanadi. Jamiyatning atrof-muhit bilan o'zaro buzilgan aloqasi keng jamoatchilik o'rtasida katta tashvish uyg'otmoqda. Insonning tabiiy boyliklardan haddan tashqari ortiq foydalanishi oqibatida sayyoramizning qiyofasi o'zgarib bormoqda. Yashil o'rmonlar siyraklashib, o'simlik va hayvonot turlari kamaymoqda, foydali qazilmalar tugab bormoqda. Suv havzalari va atmosfera havosining ifloslanishi, chiqindi moddalarning ortib borishi natijasida aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash, elektr energiya va chuchuk suv muammolari borgan sari murakkablashmoqda. Oqibatda, million-million yillar davomida turg'un bo'lgan tabiiy holatga putur yetmoqda.

Tabiatning ekologik barqarorligi, turg'unligi va uning tabiiy qonunlarning buzilishiga insonda ekologik bilimlarning yetishmasligi, tabiatning kelajakdagi ekologik holati qanday bo'lishini oldindan ko'ra bilmasligi sabab bo'lmoqda.

Ekologik bilim — bu tirik tabiatning tuzilishi, rivojlanishi, o'zgarishi, yer yuzidagi tirik jonzotlarning holati, ularning bir-birlari va atrof-muhit o'rtasida bo'lib turadigan munosabatlarni, tabiiy boyliklarning son va sifatini, hajmini, xillarini hamda ularni saqlash va tejamkorlik bilan foydalanish yo'llarini o'zlashtirishdan iboratdir.

Inson tabiatga, o'zini o'rab olgan muhitga nisbatan o'z munosabatini o'zgartirishi, tabiat qonunlarini bilishi, o'rganishi va ular asosida o'z hayotini rivojlantirishi shart. Tabiat qonunlariga mos keladigan hayot yo'llarini ishlab chiqish kerak. Aks holda inson va jamiyat katta tabiiy ofatlarning kelib chiqishiga sababchi bo'ladi va shu ofatlardan halok bo'ladi.

Bir necha million yillar davomida bunyod bo'lgan koinotning tabiiy ko'rinishi keyingi 10 — 15 yil ichida juda og'ir holatga tushdi. Havo buzildi, ifloslandi. Jumladan, tuproq zaharli moddalar bois „jarohatlandi“, suvlar turli moddalar bilan ifloslandi va hokazo. Bu holatlar inson salomatligiga salbiy ta'sir qila boshladi.

Hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biri fan-texnika yutuqlari asosida aholining turli tabaqalari orasida ekologik ta'lim-



tarbiya va madaniyatga oid bilimlarni oshirish yo'li bilan tabiat muhofazasini tezlashtirishning turli chora-tadbirlarini ishlab chiqish hisoblanadi.

Ekologik ta'lim va tarbiyaning tub ma'nosi — tabiat va jamiyat o'rtasidagi doimiy birlik va ularni bir-birlariga bog'lovchi tabiiy hamda ijtimoiy qonunlarni o'rganish, hayotga tatbiq qilishdan iboratdir.

Ekologik ta'lim va tarbiya — bu insonni tabiatga qadam qo'ygan vaqtdan boshlab, butun hayoti davomida tabiatdan ongli ravishda foydalanishga, psixologik, axloq-odob yuzasidan xalqimizning tabiatga hurmat va e'tibor bilan qaraydigan urf-odatlarini, udumlarini tarbiyalash, tabiiy boyliklarni ko'paytirish, bog'-rog'lar, gulzorlar tashkil qilishga undashdan, uning qalbida yaxshi xislatlar uyg'otishdan iboratdir.

Insonni o'rab turgan tabiiy muhit va uning boyliklarini biladigan, undan tejamkorlik bilan foydalanadigan, saqlaydigan, tabiat boyligiga, go'zalligiga go'zallik qo'shadigan, ijtimoiy va tabiiy qonunlarni biladigan bilimdon shaxsni yetishtirish — bu ekologik tarbiya maqsadi.

Tabiatga nisbatan hurmat va e'tibor bilan qaraydigan insonlar, uning har bir qarich yerida bo'layotgan ijobiy va salbiy o'zgarishlarni sezadi, kuzatadi, tabiatga yordamga boradi, ya'ni yiqilgan butani tiklaydi, kasal hayvonni tuzatadi, davolaydi, iflos suvni tozalashga harakat qiladi, yong'inni o'chiradi va hokazo.

Hozirgi kunda jamiyat ichidagi, jamiyat bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlar keskinlashib borayotgan bir davrda, xo'jalikning turli sohalarini rivojlantirish bilan bir qatorda, atrof-muhit muhofazasi va tabiiy boyliklardan tejamkorlik bilan foydalanishga oid chuqur bilimli, ekologik ma'lumotli yoshlarni tarbiyalash vaqti keldi.

### **TABIATGA MUNOSABAT ODOBI**

Inson onadan tug'ilib, dunyoga kelgan chog'idanoq, tabiat ehsonidan bahramand bo'ladi. Ilk bor havodan to'yib nafas oladi. Odamzod o'sib-unishi uchun oziq-ovqat, suv, quyosh harorati juda zarur bo'lib, u bularning hammasini tabiatdan oladi. Insonni ona tug'ib tarbiyalasa, tabiat — voyaga yetkazadi. Shuning uchun uni „Ona-tabiat“ deb atashadi. Odamzodning sog'lom bo'lishi uni o'rab olgan atrof-muhitga, tabiatga bog'liq. Tabiat musaffo bo'lsa, odam ham sog'lom, baquvvat bo'ladi.

Odam har nafas olganda uning o'pkasiga yarim litrgacha havo kiradi. Odam bir minutda 16 — 18 marta nafas oladi yoki tanaga 8

— 9 litr havo kiradi. Bu miqdor bir kecha-kunduzda 11 ming litrdan ortadi. Demak, havo inson tanasi uchun eng muhim va zarur tabiat in'omidir. Havoga muntazam ravishda aralashib turadigan iflos chang o'pkada gaz almashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu insonning sog'ligini bora-bora izdan chiqarib, turli-tuman xastaliklarni vujudga keltiradi.

Yer yuzidagi barcha odamlar, barcha jonivorlar nafas olish bilan kislorodni yutib, karbonat angidrid (is gazi) chiqaradi. Bundan tashqari, turli jarayonlarda, masalan, ko'mir yonganda, avtotransport ishlaganda uning dvigatelidagi yonish jarayoni orqali havoga karbonat angidrid va boshqa zaharli gazlar chiqib turadi. Havoning bunday ifloslanishi, uning tarkibida karbonat angidridning ko'payishi inson salomatligiga jiddiy xavf tug'diradi.

Tabiat shunday odil mo'jizaki, atrof-muhitni muvozanatga keltiradi. Chunonchi, chiqarilgan karbonat angidridni o'simliklar yutib, uni kislorodga aylantiradi. Demak, o'simliklar dunyosi, ramziy ma'noda aytganda, havoni chang va karbonat angidriddan tozalab beruvchi bebaho vositadir. Bundan inson o'z atrofini o'rab turgan tabiatni, uning o'simliklar dunyosini ko'z qorachig'iday asrabgina qolmay, uni boyitishi, qo'ldan kelganicha ko'proq daraxt ekishi, ko'kalamzorlashtirishga intilishi zarur degan xulosa kelib chiqadi. Shuning uchun ota-bobolarimiz daraxt ekish, bog'-rog' yaratishni savobli ish deb bilishgan. Bir tup mevali daraxt ekkan kishining ikki dunyosi obod bo'ladi, deb bejiz aytishmagan.

Muhammad alayhissalom hadislarida bu ishning savobi xususida quyidagilar aytilgan: „Ekmoq niyatida qo'lingizda ko'chat turgan paytda, bexosdan qiyomat qoyim bo'lib qolishi aniq bo'lganda ham, ulgursangiz, uni ekib qo'ying“.

Inson ehtiyoji uchun zarur bo'lgan suv, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak ham tabiatdan olinadi, hattoki insonning xastalikdan qutulishi, salomatligini tiklash uchun zarur bo'lgan dori-darmonlar ham ona tabiatda yetishgan mevalar, turli giyohlar va ziravorlardan tayyorlanadi. Inson tanasida birorta ortiqcha a'zo bo'lmaganiday, tabiatda ham ortiqcha yaratilgan birorta narsa yo'q. Ularning hammasi hayot uchun zarur.

Keyingi yillarda esa ularga nisbatan shafqatsizlarcha munosabatda bo'lindi. Tabiiy daryolarni bo'g'ib, yo'lini to'sib, sun'iy dengizlar yaratish, cho'llarni o'zlashtirish bilan shug'ullanildi. Bu „yutuqlar“ tufayli tabiat qonunlari hamda uning murakkab va nozik muvozanati buzildi. Biroq, odamlar buning turli-tuman ofatlar keltirib chiqa-

rishi mumkinligini hisobga olmadi. Natijada o't-o'lanli yaylovlar, yam-yashil maysazorlar payxon qilinib, yangi yerlar o'zlashtirildi. Ekinlarga qiron keltiradigan hasharotlarni yeb bitiradigan qushlarning bir qismi yo'qolib ketdi. Bu osmondan va yerdan sepiladigan og'ular kasofatidir.

Yer yuzi ekologiyasi ham keskin buzilmoqda. „Tabiatni yengamiz“, „Tabiatdan in'om-ehson kutib o'tirmay, uni jilovlaymiz“, degan noo'rin shiorlar, daraxtlarning kesib yuborilishi, qush va hayvonlarning shavqatsizlik bilan ovlab, yo'q qilinishi tabiat muvozanati qonunlarining buzilishiga sabab bo'ldi va bo'lmoqda.

Dengiz va daryolarga, okeanlarga neft qoldiqlari oqizilib, yer yuzidagi suv ekologiyasi tubdan izdan chiqarilmoqda. Inson uchun quyosh nuri, toza havo, toza suv naqadar zarur bo'lsa, ona zamin ham shunday zarur, uni asrab-avaylash insonning o'z qo'lidadir.

Abu Ali ibn Sino: „Dunyoda chang va tutun bo'lmaganida, odamzod ming yil umr ko'rishi mumkin edi“, — degan edi.

Atrof-muhitning tozaligini ta'minlash o'zimizga bog'liq. Tog'lardan keladigan suv tiniq, sof bo'ladi, lekin ba'zi kimsalarning o'ylamay-netmay oqavalarni, axlatlarni tashlashlari natijasida suvlarimiz ifloslanadi. Ta'til kunlari bolalar shu iflos suvlarda cho'miladilar va turli kasalliklarga chalinadilar.

Biz katta-yu yosh toza havodan bahramand bo'lishlari uchun shahrimizga ko'chat ekib ko'kalamzorlashtirsak, uning ozodaligini saqlasak, o'zimizning sog'ligimizni saqlagan bo'lamiz.

Bahor faslida ko'chat ekish oyligi o'tkaziladi. „Bog'ni boqsang bog' bo'ladi“ degan xalq maqoli bejiz aytilmagan. Shunday ekan, nihollarni yaxshi niyat bilan ekish, parvarishlash, gullar ekib, o'stirish har bir o'quvchi va kattalarning insoniy burchidir.

O'zbek xalqi qadriyatlari orasida tabiatni saqlash, qadriga yetish, chiroyiga chiroy, ko'rkiga ko'rk qo'shish odatlari bor.

Inson tabiatdagi har bir giyoh, o't-alaf, dov-daraxt, parranda-darrandalarni hamda nimayiki kerakli bor narsani zarur deb biladi.

Ota-bobolarimiz zilol suvni, buloqlarni, so'lim daraxtzorlarni, qoya-g'orlarni, xosiyatli o't-o'lanlarni, gul-giyohlarni asrashga, niyati nopok kishilardan saqlashga, toptamaslikka, oyoqosti qilmaslikka alohida e'tibor berib kelganlar.

Xalq nopok kishilar haqida shunday iboralar qo'llagan: „*Daraxt ko'r qilgur*“, „*Moling sutdan qolsin*“, „*Parranda ursin*“ (qarg'ish).

„*Daraxtga ko'z olaytirma, yomon bo'ladi*“,

„*Suvga tupurma, gunoh bo'ladi*“,

„Yerni toptama, u dunyoliging qolmaydi“, kabi naqlar ham bekorga aytilmagan.

Avvalo har bir inson yer yuzidagi o‘simliklarni ko‘paytirishga hissa qo‘shishi, kamaytirishdan o‘zini tiyishi lozim. O‘simliklarni ko‘paytirishning birdan-bir yo‘li — mevali va manzarali daraxtlarni iloji boricha ko‘proq ekishdir. Ularni parvarish qilish, bog‘-rog‘lar yaratish har bir inson uchun xayrli ish bo‘lishi bilan birga, savobli ish hamdir. Bunga har kim o‘zi amal qilishi, o‘zgalarni ham undashi, bu xayrli ishni o‘zidan kichik yoshdagilarga o‘rgatishi darkor. Mevali daraxtlarning shox-shabbalarini sindirmaslik, mevazorlar orasida mol boqmaslik kabi umumiy talablarga odatlanib borish kerak. Tashlandiq va qarovsiz bo‘lgan yerlarga, ariq va ko‘chalarning bo‘yiga, albatta, daraxt ko‘chatlari o‘tqazilishi lozim.

Xalqimiz bog‘ yaratgan odamlarni hech qachon esidan chiqarmaydi. Go‘zal bog‘lar yaratish, yurtni gullarga burkash qadimdan eng yaxshi odatlarimizdan biri bo‘lib kelgan.

Yaqin va O‘rta Sharq xalqlarining qimmatli va nodir yozma yodgorliklaridan biri Sharafiddin Ali Yazdiyning „Zafarnoma“ asarida Amir Temurning davlat faoliyati va harbiy yurishlari bayon qilinishi bilan bir qatorda, XIV asr oxiri va XV asr boshlarida O‘rta Osiyodagi madaniy hayotga doir bir qancha noyob ma‘lumotlar ham keltirilgan. Unda xalqimiz qadimdan bog‘-rog‘lar yaratishga alohida did bilan qaraganlari tilga olingan.

Ajdodlarimizning yuksak did va nafosat bilan yaratgan bog‘-rog‘lari, ulkan qurilishlari hozirgi kunda ham Samarqand-u Buxoroni, Ko‘hna Urganch, Xivani bezab, yer yuziga zeb berib turibdi. Bu nodir obidalar bobokalonlarimiz el-yurt obodonchiligiga alohida e‘tibor qilganliklaridan dalolat beradi. O‘sha davrlarda ham ota-bobolarimiz bog‘-rog‘lar yaratib, el dasturxonini noz-ne‘matlar bilan to‘ldirganlar. „Zafarnoma“ da Sohibqiron Amir Temur tomonidan barpo etilgan „Bog‘i shamol“, „Bog‘i dilkusho“, Shahrisabz qo‘rg‘oni va Oqsaroy, Shayx Ahmad Yassaviy maqbarasi, Taxti qoracha qasrining qurilishlari, Samarqandda bunyod etilgan Jome masjidleri haqida batafsil hikoya qilinadi.

Bunday misollarni keltirishimizdan maqsad o‘tmish ajdodlarimizdan bizgacha urf-odat bo‘lib yetib kelgan obodonchilik ishlari-dan hozirgi yoshlarni xabardor etish, ularni ana shu ezgu ishlar misolida tarbiyalashdir. Ular ham Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi el farovonligi, yurt obodligi uchun kurashuvchi zabardast o‘g‘il-

qizlar, oliyhimmat inson, tabiatga mehr-muhabbatli kishilar bo'lib yetishsinlar.

Har yili birinchi sinfga kelgan o'quvchilar erta bahorda maktab bog'iga ko'chat o'tqazishni bayram qilishadi. Bunda butun maktab jamoasi qatnashadi. Birinchi sinf o'quvchilari o'tqazgan daraxtlarning beliga shu o'quvchining ismi-sharifi, daraxtning nomi yozilgan taxtacha osib qo'yiladi. Maktabni tamomlash oldidan 11-sinf o'quvchilari o'zlari ekan daraxtni tantanali kunda birinchi sinf o'quvchilariga topshiradilar.

Maktab rahbarlari, pedagoglar jamoalari ishni ahillik bilan tashkil etib, yuqorida aytilganlarni amalga oshirsalar, ona-tabiatga oqilona munosabatda bo'lish, uni muhofaza qilish odobini bolalarga o'rgatsalar, tevarak-atrof yashil libos kiyib, havo soflanadi. Bu esa inson salomatligiga, atrof-muhit sofligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

### HAYVONOT OLAMIGA MUNOSABAT

Hayvonot dunyosi — insonning eng qadimiy hamrohidir. Otabobolarimiz o'z farzandlarini tabiatga mehr-muhabbat ruhida tarbiya qilganlar. Beziyon bo'lgan oddiy qurt-qumursqani ham o'ldirish gunoh deb ularni qulog'iga quyganlar. „Til-zaboni yo'q jonivorga ozor berma, gunoh bo'ladi!“, „Sigir — oilaning bozori“, „Tovuq — yetti xazinaning biri“, „Qo'y bor uyda baraka bor“ singari hikmatli naqlar to'qilgan.

Deyarli barcha o'zbek xonadonlari qo'y-echkisiz, sigirsiz, tovuqsiz, qishloqlarda yana ish hayvonlarisiz yashay olmaydi. Hayvon va parrandalar bilan odamlar o'rtasidagi munosabat va muhabbat haqida ko'p ertaklar yaratilgan. Hamid Olimjonning mashhur dostonidagi Semurg' qush timsolini yaxshi bilamiz.

Semurg' qaysi ertak yoki dostonida bo'lmasin insonga yordam berib, uning uzog'ini yaqin, og'irini yengil qilgan, odamzodning eng yaqin do'sti sifatida talqin etilgan.

Kishilarning chorva hayvonlariga munosabati haqida Muhammad alayhissalomning hadislarida aytilishicha, „Qo'y barakadir, tuya azizdir, otning yollariga qiyomat kunigacha yaxshilik bog'lab qo'yilgandir. Ular hamrohlaringiz, birodarlaringizdir. Ularga yaxshilik qilinglar. Agar ularni qiyinchilikda ko'rsangiz, yordamlashib yuboringlar“.

Yoki Bilkiz Alauddinning „Muhammad qissasi“ asarida shunday deyiladi:

„...Bir gal u tushdan keyin yotib dam olarkan, ko'zini uyqu

eltadi. Uyg'onib qarasa, kasalga chalingan bir mushukcha uning yaktagi etagida g'ujanak bo'lib uxlab yotgan emish. Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom mushukchani bezovta qilishga ko'ngllari bo'lmaydi. Ehtiyotlab yaktag etagini kesadilar-da, o'rnilaridan turadilar“.

Bu gaplar hikmat darajasiga ko'tarilgan va afsona bo'lib ketgan. Ha, musulmon olamining buyuk rahnamosi Muhammad payg'ambarimiz mushukka ham ozor bermagan ekanlar. Ular tabiatning nozik va misqol tarozi bilan tenglashtirilgan muvozanatini buzib qo'yishdan ehtiyot bo'lish uchun yuqoridagi talablarni qo'yanlar.

Agar tabiat asrab-avaylanmasa, unga noo'rin munosabatda bo'linsa, oxirida bir falokat kelib, tabiat insonni jazolashini yaxshi tushunganlar. Ayni chog'da payg'ambarimiz shu tabiatni, uning ajralmas bo'lagi bo'lmish hayvonot olamini qadrlashga, e'zozlashga, parvarishlashga, ko'z qorachig'idek saqlashga da'vat etganlar.

Bizda chorva mollarini bo'rilaridan asrash maqsadida bo'ri otgan ovchilarga mukofotlar berilar edi. Oqibatda bo'rilar kamayib ketdi. Ammo bog' va o'rmonlarda yashovchi hayvonlar o'rtasida yuqumli kasalliklar ko'paydi. Chunki bo'ri va boshqa yirtqich hayvonlar o'lja izlaganda asosan kasallikka chalingan, yaxshi yugura olmaydigan hayvonlarni tutib yeydilar. Natijada hayvonlar orasida yuqumli kasalliklar tarqalishiga barham berib turilardi. Bu jihatdan bo'rilar „o'rmon sanitari“ vazifasini bajarib turar edi. Bugungi kunda bo'ri otish taqiqlab qo'yilgan.

Demak, tabiatda biror jonzotning qirilib ketishiga yo'l qo'yilsa, shunga bog'liq bo'lgan muvozanat buzilib, xavfli vaziyat vujudga keladi. Mana shu nozik haqiqat avvaldan ma'lum bo'lganligi uchun islom dinida tabiatni muhofaza qilish nuqtayi nazaridan jonzotlarni besabab o'ldirishga yo'l qo'yilmagan. Bu talablar, bir tomondan, insonni tabiatni muhofaza qilishga o'rgatsa, ikkinchidan, uning qalbi muloyim, rahmdil, pok bo'lib tarbiyalanishiga sabab bo'ladi.

Shahar va qishloqlardagi ayrim oromgohlarda suv bo'yida turgan ohu, qo'nib turgan burgut, lochin siymolarini ko'rasiz. Samarqanddagi Sherdor madrasasining oldida, Toshkentdan Farg'onagacha olib boruvchi dovon orqali o'tadigan yo'lning baland nuqtasida sher haykali o'rnatilgan. Bularning barchasi odamzodning hayvonot olamiga mehr-muhabbati, unga bo'lgan oqilona munosabatining ramziy belgisidir. Hayvonot olamiga, barcha jonivorlarga mehr-shavqatli bo'lish savobdir.

## SHARQ ALLOMALARINING TABIAT VA EKOLOGIYA HAQIDAGI FIKRLARI

O'rta asrlarda yashab ijod etgan Sharq allomalaridan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va boshqalar tabiat fanlarining rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. Ular hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrda tabiat va undagi muvozanat, o'simliklar va hayvonot dunyosi, tabiatni e'zozlash haqidagi qimmatli fikrlar aytganlar.

Buyuk alloma *Muhammad al-Xorazmiy* (782—847) risolalaridan birida bunday deb yozadi: „Bilingki, dunyoning ko'zlari yoshlansa, uning boshiga g'am, kulfat tushgan bo'ladi. Odamlar, daryodan mehringizni darig' tutmanglar! „Dunyoning yoshli ko'zlari“ deganda Muhammad al-Xorazmiy nimalarni ko'zda tutgan ekan?

Ehtimol, u daryo suvining ortiqcha isrof bo'lishini nazarda tutgandir? U eng avvalo, daryo bilan odamlarning bir-birini tushunishlari va til topishishlari, o'zaro mehr-muhabbatli bo'lishlarini nazarda tutgan.

847- yilda Muhammad al-Xorazmiy „Surat al-ard“ („Yerning surati“) degan asarini yozdi. Unda dunyo okeanlari, quruqlikdagi qit'alar, qutblar, ekvatorlar, gullar, tog'lar, daryo va dengizlar, ko'llar, o'rmonlar va ulardagi o'simliklar, hayvonot dunyosi, shuningdek, boshqa tabiiy resurslar — Yerning asosiy boyliklari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu risolada matematika, geologiya, astronomiya, etnografiya, tibbiyot, shuningdek, dunyo xalqlarining tabiiy ko'nikmalari va tarixiy-huquqiy bilimlari umumlashtirilgan.

*Abu Nasr Forobiy* (870 — 950) tabiatshunoslikning turli tarmoqlari bilan shug'ullangan bo'lib, „Kalom fi-l xiyz va-l miqdor“ („Hajm va miqdor haqida so'z“), „Kitob al-mabodi al-insaniya“ („Insoniyatning boshlanishi haqida kitob“), „Kalom fi a'zo al-hayvon“ („Hayvon a'zolari haqida so'z“) nomli asarlari bunga dalil bo'la oladi.

Forobiy o'zining „Kitob fi ixso al-ulum va at-ta'rif“ asarida zamonasidagi ilmlarni har tomonlama o'rganib, ularni ma'lum tizimga solib, turkumlarga ajratdi, har bir ilm tarmog'iga ta'rif berishga harakat qildi, tabiatshunoslik ilmiga katta e'tibor berdi.

Tabiatshunoslikka oid „Inson a'zolari tuzilishi haqida risola“, „Hayvon a'zolari haqida so'z“ kabi asarlarida odam va hayvonlar ayrim a'zolarining tuzilishi, xususiyatlari va vazifalari haqida,

ularning o'xshashligi va farqlari keltirilishi bilan birga, asosiy anatomik-fiziologik tushunchalar berilgan. Ularning ruhiy holatlaridagi xususiyatlari haqida ham to'xtab o'tilgan. Odam tanasining tuzilishi va vazifalari haqida so'z yuritilganda ularning o'zaro bog'liqligi va yaxlitligi, ulardagi o'zgarishlar, ya'ni kasalliklar birinchi navbatda ovqatlanish tartibining buzilishi oqibatida kelib chiqadi, deb tushuntiriladi. Kasallikning oldini olish, sog'lomlashtirish va boshqa chora-tadbirlarni qo'llash lozim ekanligi haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Forobiy tabiiy va inson qo'li bilan yaratiladigan sun'iy narsalarni ajratgan. U tabiiy narsalar tabiat tomonidan yaratilgan, degan xulosaga keladi. Inson omilining ta'siri katta ekanligini, tabiiy va sun'iy tanlash hamda tabiatga ko'rsatiladigan boshqa ta'sirlarni atroflicha baholagan.

*Abu Rayhon Beruniy* (973—1048) koinotdagi hodisalarni taraqqiyot qonunlari bilan, narsa va hodisalarning o'zaro ta'siri bilan tushuntirishga urinadi. Beruniy tabiatshunos sifatida tabiat haqida quyidagicha fikr yuritadi: „Ekin va nasl qoldirish bilan dunyo to'lib boraveradi“.

Beruniy asarlarida o'simlik va hayvonlarning biologik xususiyatlari, ularning tarqalishi va xo'jalikdagi ahamiyati haqida ma'lumotlar topish mumkin. Beruniyning ilmiy qarashlari, asosan „Saydana“, „Mineralogiya“, „Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar“ kabi asarlarida uchraydi. Olim „Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar“ asarida Eronning turli tropik o'simliklari va hayvonlarining tashqi muhit bilan aloqasi, ularning xulq-atvori yil fasllarining almashinuvi bilan bog'liq ravishda o'zgarishini misollar bilan tushuntirgan.

Jumladan, asarda qish qattiq, sovuq kelsa, qushlarning tog'dan tekisliklarga tushishi, chumolilarning o'z uyasiga bekinib olishi va hokazolar ifoda etiladi.

Beruniy tirik organizmlarning hayoti Yer tarixi bilan bog'liq bo'lishi kerak deb hisoblaydi. Qumni kovlab, uning orasidan chig'anoqni topish mumkin, deydi alloma. Buning sababi shuki, bu qumlar qachonlardir okean tubi bo'lgan, deb xulosa qiladi u.

Beruniy „Saydana“ degan asarida 1116 turdagi doridarmonlarni tavsiflagan. Ularning 750 tasi turli o'simliklardan, 101 tasi hayvonlardan, 107 tasi esa minerallardan olinadi. Har bir o'simlik, hayvon va minerallarning xossalari, tarqalishi va boshqa xususiyatlari keltirilgan.



Beruniyning o'zi yoshlik davrlaridan boshlab tabiat shaydosi bo'lgan. Buning isboti uchun „Saydana“ kitobidagi ma'lumotni keltirish mumkin. Jumladan, olim Rumdan kelgan kishiga o'simlikning meva va urug'larini ko'rsatib, uning nomini so'rab va yozib olganligini hikoya qiladi.

Beruniyning „Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar“ va „Hindiston“ degan asarlarida o'simlik va hayvonlarning tuzilishi hamda ularning tashqi muhit bilan o'zaro aloqasi haqida ham qiziqarli ma'lumotlar keltiriladi.

*Abu Ali ibn Sino* (980 — 1037) jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga buyuk hissa qo'shgan olimlardan biridir. Yirik qomusiy olim sifatida u o'z davri ilm-fanining deyarli barcha sohaları bilan shug'ullangan. Turli yozma manbalarda uning 450 dan ortiq asar yozganligi eslatiladi. Bizgacha esa uning 240 ta asari yetib kelgan.

Ibn Sino asarlari orasida uning mashhur „Tib qonunlari“ nomli shoh asari tibbiyot ilmining qomusi hisoblanadi. Olimning juda ko'p qimmatli fikrlari, jumladan, uning inson sog'lig'ini saqlash haqidagi, parhez, gigiyena to'g'risidagi xulosa va maslahatlari hanuzgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. U barcha yoshdagi kishilar uchun jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullanishni tavsiya etgan. Ayniqsa, asab kasalligiga muhtalo bo'lganlarga jismoniy usullar bilan davolanishni maslahat beradi.

Ibn Sino tibbiyot tarixida fizioterapiya asoschilaridan biri hisoblanadi. Kishi organizmiga tashqi muhit ta'sirining muhimligini bilgan alloma ayrim kasalliklar suv va havo orqali tarqalishi haqida fikr bayon etgan, ya'ni u kasallikning kelib chiqishi masalasini hal etishga yaqinlashgan edi: „Kasalliklarning ba'zilari yuqumli bo'ladi. Bular moxov, qo'tir, chechak, vabo isitmasi, yiringli yara kabi kasalliklardir. Xususan, bular odamlarning turar joylari tor va iflos bo'lganda paydo bo'ladi va kasal kishining qo'shnilari shamolning tagida bo'lganda yuz beradi“, deb xulosa chiqaradi olim.

Abu Ali ibn Sinoning falsafiy va tabiiy-ilmiy qarashlari uning jahonga mashhur asari „Kitob ash-shifo“, ya'ni „Davolash kitobi“ da bayon etilgan. Bu asarda materiya, fazo, vaqt, shakl, harakat, borliq kabi falsafiy tushunchalar, shuningdek, matematika, kimyo, botanika, zoologiya, geologiya, astronomiya, psixologiya kabi fanlar haqida fikrlar bayon etilgan.

Ibn Sino o'z davridagi barcha ilm sohalarining rivojlanishida turli masalalarni o'z ichiga oluvchi tabiat falsafasiga katta e'tibor

beradi. Ayniqsa, tabobat va u bilan bogʻliq holda anatomiya, psixologiya, farmakologiya, terapiya, jarrohlik, diagnostika, gigiyena kabi ilmlar Ibn Sino ijodida bir qancha yangi kashfiyotlar bilan boyidi va yuqori bosqichga koʻtarildi.

Ibn Sinoning togʻlarning vujudga kelishi, Yer yuzining davrlar oʻtishi bilan oʻzgarib borishi, zilzila boʻlishi kabi turli tabiiy jarayonlar haqidagi fikrlari geologiya ilmining rivojlanishiga katta taʼsir qildi.

*Zahiriddin Muhammad Bobur* (1483 — 1530) faqat shoirgina boʻlmay, balki podshoh, sarkarda tarixchi, mashshoq, ovchi va bogʻbon, sayyoh va tabiatshunos ham boʻlgan. Boburning eng yirik asari „Boburnoma“dir. Unda shoirning koʻrgan-kechirganlari, borgan joylarining tabiati, boyligi, odamlari, urf-odatlar, hayvonoti, oʻsimliklari va boshqalar tasvirlangan. Har bir kasb egasi bu kitobdan oʻziga keragicha maʼlumot topa oladi. Asar muhim atamalar va toponimik manbalarga boy. Unda yer, suv, havo, turli tabiiy hodisalarga tegishli xalq soʻzlari koʻplab topiladi.

„Boburnoma“ ni oʻqigan va oʻrgangan har bir kishi uni tabiat va geografiyani yaxshi bilgan oʻlkashunos olim yozgan degan xulosaga keladi. Bobur oʻlkani bilgan kishilarni hurmat qilgan, ularning qadriga yetgan va ular bilan hamisha maslahatlashgan. „Biron safarga chiqishdan oldin yer, suv bilur kishilarni chorlab, atrof va tomonlar surishtirilar edi“, deb yozadi muallif.

Bobur har bir hududni maʼlum bir tartibda tasvirlaydi. Avvalo joyning geografik oʻrni, soʻngra qaysi iqlimga mansubligi, shifobaxsh joylari, oʻsimliklari, qazilmalari, hayvonot olami va aholisi haqida maʼlumotlar beriladi.

Bobur ajoyib botanik boʻlgan. U oʻsimliklarni sevgan va yaxshi bilgan. U juda koʻp giyoh va mevalarni, ularning xosiyatlari va ahamiyatini taʼriflaganki, haqiqatda bogʻbon boʻlgan kishi, asl tabiatshunosgina buning uddasidan chiqa oladi.

„Boburnoma“ da muallif Markaziy Osiyo, Afgʻoniston va Hindiston davlatlari qishloq xoʻjaligining rivojlanishi haqida maʼlumotlar keltirgan. Asarda oʻlkamizda qadim vaqtlardan buyon qovun, bugʻdoy, oʻrik, olma, behi, anor, shaftoli, olcha, yongʻoq, nok va tutlarning bir necha navlari borligi taʼkidlanadi. Shuningdek, Bobur Markaziy Osiyo va Hindistonda chorvachilik va hunarmandchilikning rivojlanishiga katta eʼtibor bergan, Afgʻoniston xalqining asalarichilik va savdo-sotiq bilan qadimdan shugʻullangani haqida toʻxtalgan.

Bobur o'zi bo'lgan joylarning tabiati va o'ziga xos xususiyatlarini jonajon vatani Andijon bilan taqqoslaydi. U ayniqsa, gullar, manzarali hamda mevali daraxtlarni ko'paytirishga, ularning tarqalishiga e'tibor bergan. Bobur ovga juda qiziqar edi, shuning uchun u Markaziy Osiyo, Afg'oniston, Xuroson va Hindistondagi hayvonlarni batafsil bayon etgan. Allomaning fikricha, o'sha davrlarda Farg'ona vodiysida antilopalar, tog' qo'ylari va yirik yirtqich qushlar, Samarqandda esa jayronlar, Buxoro antilopasi, tog' echkilari, kakliklar va boshqa hayvonlar ko'p bo'lgan. U Hindiston hayvonlaridan fil, karkidon, antilopalarning bir necha turlari, maymunlar, daraxtlarda yashovchi kalaxara kemiruvchilari haqida batafsil ma'lumot bergan. Qushlar esa tustovuqlar, to'tiqushlar, bulbullar, suvda yashovchi laylak, g'oz va o'rdaklar; yirik sutemi-zuvchi hayvonlardan begemot, suv to'ng'izi kabilarni ta'riflaydi.

Bobur bir necha bor *Yer qimirlashi, Oy va Quyosh tutilishi* kabi tabiiy hodisalar guvohi bo'lgan. Ushbu hodisalarning tabiat qonunlaridan boshqa narsa emasligiga ishonch hosil qilgan. Demak, Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi qadimdan ekologik madaniyat merosiga ega bo'lgan. Shuningdek, Bobur o'tgan buyuk allomalarimizning ham tabiat, tirik organizmlar va ularning tashqi muhit bilan o'zaro aloqalariga doir masalalarga to'xtalib o'tganligini guvohi bo'lamiz.



### *Savol va topshiriqlar*

1. „Ona-tabiat“ deyishimizning boyisi nima?
2. Ekologik tarbiyaning bosh vazifasi nimalardan iborat?
3. O'zbek xalq qadriyatleri orasida tabiatni saqlash, qadriga yetish, chiroyiga chiroy, ko'rkga ko'rk qo'shishga bag'ishlangan qanday urf-odat, udumlarni bilasiz?
4. Sharq allomalari (Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy)ning tabiat va ekologiya haqidagi fikrlarini aytib bering.
5. „Yaxshidan bog', yomondan dod qoladi“ maqolini sharhlang. „Dunyoda chang va tutun bo'lmaganida, odamzod ming yil umr ko'rish mumkin edi“ degan edi Ibn Sino. Bu haqda o'z fikringizni ayting.
6. „Tabiatni yengamiz“, „Tabiatdan in'om-ehson kutib o'tirmay, uni jilovlaymiz“ kabi shiorlarning yomon oqibatlarini hayotiy misollar bilan asoslab, reja asosida insho yozing.



## XXVIII BOB. BADAN TARBIYASI

(JISMONIY TARBIYA)

### SOG'LOM TANDA — SOG' AQL

Mashhur yunon donishmandi Aflotun baxt haqida zikr etib: „Inson uchun birinchi baxt — uning sog'lig'i, ikkinchisi — go'zallikdir“ degan ekan. Chindan ham sihat-salomatlik hamma boyliklar manbayidir. Nasl-nasabi sog'lom va ma'naviyati yuksak xalqning avlodlari ham sog'lom-baquvvat, iymon-e'tiqodli va sadoqatli bo'ladiki, bu baxt ona-Vatanning shuhrati va qudratining zo'r omiliga aylanadi. Xalqning ana shunday baxt-saodati uchun sog'lom avlod kerak.

Sog'lom avlod deganda biz ham jismoniy, ham ma'naviy tomondan yetuk, bardam, har ishga qodir, ilg'or madaniyatli kishilarni ko'zda tutamiz. Darhaqiqat, shunday noyob fazilatlariga ega avlodni tarbiyalab voyaga yetkazayotgan xalq kelajakka ochiq ko'z, yorug' yuz, katta ishonch bilan qaraydi.

Biz — o'zbeklar hayotimizning, umrimizning mazmunini farzandsiz tasavvur etolmaydigan xalqmiz. Dunyoga kelib farzand ko'rish, imorat qurish, nihol ekib bog' yaratish — ota-bobolarimizdan qolgan nasliy an'ana, ezgu tilak va qutlug' insoniy burchdir. Shuni alohida shukronalik bilan ta'kidlash lozimki, xalqimiz tarixning mashaqqatli sinovlari osha o'zining ana shu oliyjanob xislat-fazilatli an'analoriga zavol yetkazmay saqlab kelmoqda. Ajdod-avlodlarimiz o'z nasllarini umumbashariy tuyg'ular, o'lmas Sharq falsafasi, milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiya qilib kelganlar.

Insonning kuch va qobiliyatlarini tahlil etganda, u uchga bo'linadi: jismoniy, aqliy va axloqiy. Shunga binoan, insonning bu kuch-qobiliyatlarining taraqqiysi, yuksalishini ta'min etadigan tarbiya ham uch qismga ajraladi, bular badan tarbiyasi, aql tarbiyasi, axloq tarbiyasidir.

Badan tarbiyasi inson hayotida katta ahamiyatga ega. Birinchidan, hayotda har kimning mukammal sog'-salomatlikka, kuch-quvvatga ega bo'lish ehtiyoji bor. Ikkinchidan, tan sog'lig'i fikr va axloqning ham sog'lig'ini ta'min etadi. Fikr va axloq bilan mijoz va sog'lomlik uzviy bog'liq.

Badan tarbiyasining maqsadi har tomonlama yetuk: jismonan chiniquqan, sof fikrli, mard, sabotli, qat'iyatli, Vatanni himoya qila oladigan shaxslarni kamol toptirishdan iborat.

O'quvchilarni jismoniy tarbiyalash jarayonida quyidagi asosiy vazifalar hal etiladi. Birinchi vazifa — sog'liqni mustahkamlash, tana a'zolarini chiniqtirish, jismoniy jihatdan to'g'ri rivojlanish hamda uning ish qobiliyatining oshishiga ta'sir etishdir.

Maktab yoshidagi bolalarning qaddi-qomatini to'g'ri-mutanosib shakllantirish, suyak-bo'g'inlarni va muskullarni uyg'unlashgan tarzda rivojlantirish, yurak-qon tomir hamda nafas olish a'zolarini, asab tolalari majmuasini mustahkamlash muhim.

Tana a'zolarining mo'tadil faoliyati uchun harakat juda zarurdir. Buyuk hakim Abu Ali ibn Sino: „Badantarbiya — sog'liqni saqlashda ulug'vor usuldir“, deydiki, bu fikr: „Kimki qilsa harakat — sog'lig'ida bo'lar barakat“ degan naqlni eslatadi.

Qadimda xalqimiz badantarbiyani riyozat deb atashgan. Abu Ali ibn Sino „Tibbiy doston“ („Urjuza“) asarida riyozat — badan tarbiyasi haqida to'xtalib, uning bir necha xillari bo'lishi, bu jismoniy mashqlar bilan o'rtacha shug'ullanish sog'liqqa foydali ekanligini bunday ta'riflaydi:

*„Bilsang riyozat turlari necha-necha  
Sharofatli bo'lur esa u o'rtacha'.  
To'g'ri va mo'tadil bo'lib o'sgay badan,  
Kir-chir ila chiqindidan qutular tan.“*

Olim yana jismoniy mashqsiz yurish badanda yomon xiltlarning yig'ilishiga sabab bo'lishini alohida uqtirib, bunday deb yozadi:

*„Riyozatsiz yotishdan ko'p topma rohat,  
Bu rohatdan topolmassan hech manfaat.  
Jim yotsang iflos xilt-la to'lar badan,  
G'izocha hech hozirlanmas biror maskan“.*

Jismoniy mashqlarning sihat-salomatlikka foydasi cheksiz ekanligini D. Adisson bunday ta'riflaydi: „Mutolaa aql uchun qancha zarur bo'lsa, jismoniy mashqlar ham badan uchun shuncha zarur“.

Suqrot hakim esa bunday deydi:

„Gimnastika yordami ila men badanimni muvozanatini to'g'rilab olaman“.

Shuni ham aytish kerakki, o'quvchilarning sog'lig'ini faqat jismoniy tarbiya darslari hamda maktab sharoitida o'tkaziladigan maxsus tadbirlar hisobigagina mustahkamlash qiyin. Chunki bu

---

<sup>1</sup> Bu o'rinda Ibn Sino badantarbiyaning og'ir yo'yengilini emas, o'rtachasini tanla, demoqchi.

jarayon ota-ona, tarbiyachi, butun pedagoglar jamoasining ishi bo'lib, sog'lomlashtirish bilan bolalarni muntazam ravishda, butun yil davomida shug'ullantirish kerak.

Ikkinchi vazifa — o'quvchilarda yangi harakat turlariga qiziqish, ko'nikma va malakalar hosil qilish, ularni maxsus bilimlar bilan qurollantirishdir. O'qitish jarayonida o'quvchilar harakat, ko'nikma va malakalarni egallaydilar. Bu malaka va ko'nikmalar jismoniy tarbiya bo'yicha tuzilgan o'quv dasturida nazarda tutilgan bo'lib, ulardan ba'zilari: masalan, tez yurish, yugurish, sakrashlar amaliy mashqlardir. Shu bilan birga, bu mashqlar gimnastika asbob-anjomlarida mashq qilish, akrobatika, badiiy gimnastika harakatlarini muvofiqlashtirishga, shuningdek, yangi harakatlarni osonroq va qisqa vaqt ichida o'rganib olishga ko'maklashadi, ko'nikma va malakalar hosil qiladi.

Uchinchi vazifa — o'quvchilarning yoshiga, jinsiga muvofiq keladigan (kuch, tezkorlik, chaqqonlik,) asosiy harakat sifatlarini rivojlantirish. Yuqorida aytilgan jismoniy sifatlar alohida mavjud bo'lmay, balki ulardan biri-u yoki bu faoliyat turida yetakchi o'rinni egallaydi. Masalan, harakatli va sport o'yinlarida — chaqqonlik, qisqa masofaga yugurishda — tezkorlikni aytish mumkin. Maktab dasturi o'quvchilarning harakatlari, sifatlarini har tomonlama rivojlantirish hamda ularning jismoniy rivojlanishlari va umumiy ish qobiliyatlarining ortishi uchun kerakli sharoitni yaratadi, albatta. Shu bilan birga, o'quvchilarda axloqiy-irodaviy sifatlarni tarbiyalash, xulq-atvor madaniyati ko'nikmalarini tarkib toptirish kerak.

To'rtinchi vazifa — o'quvchilarda o'z sog'lig'iga ongli munosabatni tarbiyalash bo'lib, bu ularning ozoda-sarishtalik tartibida, gigiyena qoidalariga rioya qilishlarida, ertalabki gimnastika bilan shug'ullanishlarida hamda sport mashg'ulotlarida muntazam qatnashishlarida namoyon bo'ladi. Badantarbiyaning sihat-salomatlikka foydasini o'quvchi qanchalik yaxshi bilib olsa, unga bo'lgan qiziqishi shunchalik ortadi.

Mo'tadil ravishda, o'z vaqtida badantarbiya bilan shug'ullanuvchi odam davolanishga muhtoj bo'lmasligini chuqur anglab olishi kerak.

Olim va shifokorlarning kuzatishlaricha, badantarbiya tug'ma issiqlikni oshiradi, tanaga yengillik beradi. Chunki ular yengilgina issiqlik paydo qiladi, a'zolarida to'planuvchi chiqindilarni yo'qotadi.

Badantarbiya mashqlari tartibli va muayyan yo'l bilan bajarilsa, fikrni uyg'unlashtiradi, qon yurishiga yordam beradi, ovqat

hazimini yaxshilaydi, asabni quvvatlantiradi, tana haroratini orttiradi, zehnni charxlaydi.

Inson jismoniy sog'lom va bardam-baquvvat bo'lsa, hayot go'zalliklarini yaxshi idrok etadi, aql-zakovati yuksala boradi, atrof-muhitni ziyrak bo'lib kuzatadi. Shu nuqtayi nazardan, insonning sog'lom-baquvvat bo'lishida badantarbiya muhim omil ekani aniq. Demak, bu tarbiya aqliy, axloqiy va estetik tarbiyaning zamini ekan. Ta'bir joiz bo'lsa, bir yerda turib qolgan ko'lmak suv hech foydasiz deyilsa, harakatsiz odam ham ko'lmak kabidir, sharqirab oqqan suvning o'zi go'zal bo'lishi bilan birga, dala-bog'larni yashnatgani kabi, serharakat, jismoniy mashqlar bilan shug'ullandigan odamning ham o'zi (jismonan) go'zal, ham aqli go'zal, ham odob-axloqi go'zal bo'ladi.

Badantarbiya insonni har tomonlama tetik, hushyor, qobiliyatli qilib kamolga yetkazadiki, donolar jismoniy tarbiya — go'zallik tarbiyasidir, deb bejiz aytishmagan.

Inson jismonan sog'lom, har tomonlama yetuk rivojlanishi uchun ma'lum maqsadni ko'zlagan holda tejamli harakat qilishi, tabiat qo'ynida yoki ozoda-shinam sport zalida harakatli mashqlar bilan shug'ullanishi — bularning hammasi unda nafosat histuyg'usini, aqliy tushunchasini va didini tarbiyalaydi. Shubha yo'qki, xilma-xil, aniq, ifodali bajarilgan jismoniy mashqlar estetik kechinma, hislarni yuzaga keltiradi. Jismoniy mashqlarni bajarish jarayonida harakatlar maqsadining ham shakl, ham mazmun jihatidan bir-biriga mos kelishi esa uning go'zalligini ta'minlaydi.

Go'zallik —bu avvalo harakatlarning sodda, yengil, izchil va tugal bo'lishidirki, o'qituvchi ham, o'quvchi ham bunga intilsalar, nafosatga erishiladi. Albatta, jismoniy tarbiyaning vazifasi o'quvchida faqat go'zallikni idrok etishnigina shakllantirish bo'lib qolmay, balki ularni kishi harakatidagi chinakam go'zallikni baholay bilishga ham o'rgatishdir.

Odatda, uzoq muddatli aqliy mehnatdan so'ng o'quvchilarda ishlash qobiliyati sekin-asta pasayadi. Bu holat o'quvchilarda tezda seziladi. Bolalar dars vaqtida betoqat bo'lib, haddan tashqari ko'p harakat qilishlari, o'tirgan joylaridan tez-tez turib ketishlari, bir-birlari bilan gaplashishlari, orqaga va yonlariga qarab o'tirishlari, shovqin-suron ko'tarishlari mumkin va hokazo. Ayniqsa, darsning 25 — 30-minutlarida o'quvchilar diqqati sezilarli pasayadi, tushuntirilayotgan mavzuni o'zlashtirish qiyinlashadi, ishda ayrim xatoliklar uchraydi. O'quvchilar o'rganayotgan mavzularni bir necha

martadan qayta-qayta takrorlashlariga to'g'ri keladi. O'quvchilarda aqliy charchash bilan birga, qomatni tutib turuvchi bel, yelka, bo'yin muskullari ham toliqadi. Toliqish natijasida bel egilib, yelkalar pastga tushib, bosh oldinga egiladi, qomat muvozanati buziladi. Agar bu holat takrorlanaversa, o'quvchilarning ishlash qobiliyati pasayib, qomati buzilib, salomatligiga ham salbiy ta'sir etadi. Aqliy mehnatni jismoniy mehnat bilan almashlab turish asosida bunday toliqishning oldi olinadi. „Fizkultminut“ lar (jismoniy mashq daqiqalari) o'quvchilarda faollikni oshiradi, susaygan ish qobiliyatini tiklaydi, kayfiyatni yaxshilaydi.

„Fizkultminut“ lar darsning 25—30-daqiqalarida (4—8 tadan iborat bo'lgan mashqlarni) 2—3 daqiqa davomida bajariladi. Bunda bajarilishi oson, o'tirib yoki o'rindan turib, panjalarga, bo'yin, yelka, bel va qomatning pastki qismiga ta'sir etadigan mashqlarni tanlash lozim.

Yozuv darslarida o'quvchilarning panjalari, qo'l muskullari tez toliqadi. Natijada yozuv tezligi pasayadi, husnixat buziladi. Bunday hollarda panjalarni bukib-yozish, qo'llarni bukish, yonga, oldinga uzatib, yuqoriga ko'tarilib bajariladigan mashqlar beriladi. Uzoq o'tirish natijasida gavdaning pastki qismi qattiq toliqadi. Bu toliqishni tarqatish uchun tik turib bajariladigan, oldinga, yonga egilish, o'tirib-turiladigan mashqlarni tanlash lozim.

Darsda jismoniy mashqlar sekin, aniq buyruq tarzida beriladi. Mashqning har bir harakatini bajarish orasida turli xil sho'x, quvnoq musiqalardan foydalanilsa, ayni muddao bo'ladi. Agar tanlangan „Fizkultminut“ lar she'r aytib bajarilsa, o'quvchilar nutqini o'stirishga ham yordam beradi.

Quyida pastki sinflarda qo'llaniladigan jismoniy mashqlardan ayrim namunalar keltiramiz.

#### *1-mashq.*

— to'g'ri o'tirgan holatda qo'lni oldinga cho'zib, kaftlar yuqoriga qaratiladi.

*Biz hadeb yozaverib, charchadi qo'llarimiz,*

*Bir, ikki, uch, to'rt, bir, ikki, uch, to'rt.*

*Endi turib, o'tirib, yana yozishga tushamiz.*

Bajarilishi: She'rni aytayotganda navbat bilan panjalarni musht qilib-yoziladi, turib-o'tiriladi.

#### *2-mashq.*

—O'rindan turib, qo'llar chap yelkada bolta ushlagandek holatda turiladi:



She'r:

*Biz o'rmonga boramiz,*

*Qo'limizda boltamiz.*

*Daraxtlarni kesamiz,*

1 — 2 — 3 — 4; 1 — 2 — 3 — 4.

„Uf, charchadik!“ mashqining bajarilishi:

— She'rni aytib, sanoqqa kelganda bolta chopgandek harakat qilinadi:

1—pastga, 2—o'ng yelkada, 3—pastga, 4—chap yelkada.

Sanoqni 2—3marta takrorlagandan keyin, „Uf, charchadik!“ so'zi aytilganda, qo'llar pastga tushirib silkitiladi.

*3-mashq.*

Partadan chetga chiqib, qo'llar yuqoriga ko'tariladi.

Bajarilishi:

— Musiqa sadosi yordamida qo'llar gavda bilan birga o'ng va chap tomonlarga chayqaladi. Shu chayqalishda oldinga va orqaga egilinadi.

*4-mashq.*

Partadan chiqib to'g'ri turiladi.

Bajarilishi:

1. Qo'llar belda.

2. Qo'llar yuqoriga ko'tarilib, kaftlarga qaraladi, oyoq uchida turiladi.

3. Qo'llar yelkaga tushadi.

4. Qo'llar pastga tushadi.

5. O'tiriladi.

6. Dastlabki holat.

Bu kabi jismoniy mashqlarni ko'plab keltirish mumkin. Lekin jismoniy mashqlar haddan tashqari uzoq davom etsa ham yaxshi natija bermaydi. Shuning uchun mashqlarni bolalarning ayni charchagan vaqtini sezgan zahoti to'xtatish kerak.

Jismoniy mashqlar uchun tanlangan materiallar o'tilayotgan fanga doir bo'lsa, yanada maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda bolalarning yoshi ham hisobga olinsa, yaxshi natija beradi.

### JISMONIY TARBIYA VOSITALARI

Bolaning sog'lom o'sishi va to'g'ri kamol topishi uchun jismoniy tarbiya vositalaridan o'rinli foydalanish zarur.

Jismoniy tarbiya vositalari uch turga bo'linadi.

Birinchi turni gigiyena omillari, ikkinchi turni tabiatdagi sog'lomlashtiruvchi kuchlar, uchinchi turni esa jismoniy tarbiya vazifalarini hal etishga yo'naltirilgan jismoniy mashqlar tashkil etadi.

Sanitariya-gigiyena omillariga rioya qilish jismoniy tarbiya tizimida alohida o'rin egallaydi, u bola a'zolariga foydali ta'sir ko'rsatadi. Jismoniy tarbiya vositalaridan ko'pchiligi o'quvchining kundalik rejimini tashkil etadi.

Qat'iy kun tartibiga amal qilish har bir kishi hayotida katta o'rin tutadi. Bu tana a'zolarining bir maromda ishlashiga odatlantiradi.

Kun tartibiga rioya qilmaslik, o'z vaqtida ovqatlanmaslik, yetarlicha uxlamaslik, dam olmaslik, aqliy va jismoniy mehnatning betartibligi — bularning hammasi a'zoyi badanni bo'shashtiradi, tana hujayralarining, xususan, bosh miya hujayralarining ishlashini yomonlashtiradi. Ota-onalar va o'qituvchilar muayyan yoshdagi bola kun tartibining uyda ham, maktabda ham muntazam amalga oshirilishini kuzatib borishlari shart.

Rejimni tuzishda o'quvchilarning yoshi, uyg'onish vaqti, ertalabki gimnastika, maktabda o'qish vaqti, kuniga 3—4 marta ovqatlanishi, ochiq havoda bo'lishi, aqliy va jismoniy mehnatning almashinishini hisobga olish zarur. Kundalik rejim bir qolipda bo'lmasligi ham kerak. Unga o'zgarishlar kiritish mumkin.

Sog'liqni mustahkamlash, tanani chiniqtirish, bolalarning jismoniy rivojlanish darajasini ko'tarishga tabiatning sog'lomlashtiruvchi kuchlari — quyosh, havo va suv ta'siri orqali erishiladi. Tabiat omillaridan jismoniy mashg'ulotlar o'tkazish hamda mustaqil shug'ullanish uchun muhim vosita sifatida foydalaniladi.

Maktab sharoitida jismoniy tarbiya vositalari orasida eng ko'p qo'llanadigani jismoniy mashqlardir. Jismoniy mashqlar gavda tizimi faoliyatining va nafas olish a'zolarining muskullarning o'sishi va mustahkamlanishiga, yurak-qon tomir yaxshilanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Jismoniy mashqlar asablar majmuasining faoliyatiga ham, xususan, bosh miya qobig'idagi harakatlantiruvchi qismga ham ta'sir etadi, natijada harakatlarning bir-biriga uyg'unligi yaxshilanadi, harakatlarda muvofiqlik, aniqlik, zaruriy kuch va marom hosil bo'ladi. O'quvchi aynan shu ta'sirlar natijasida tuzilishi jihattan murakkab bo'lgan harakatlarni, katta tezlikdagi harakatlarni oson o'zlashtirib oladi, bu esa jismoniy mehnat mashg'ulotlari uchun muhimdir.

Jismoniy tarbiya vositalari orasida gimnastika, harakatli o'yinlar, badantarbiya daqiqalari (fizkultminutlar), an'anaviy sport turlari yetakchi hisoblanadi.

**Gimnastika.** Gimnastika o'rta maktab o'quvchilarini jismoniy jihatdan tarbiyalashning asosiy vositalaridan biridir. Badantarbiyaning bu turi quyidagilarga bo'linadi:

a) asosiy gimnastika va uning turi — gigiyenik gimnastika;

b) sport gimnastikasi va uning turlari: akrobatika va badiiy gimnastika;

d) gimnastikaning yordamchi turlari (davolash gimnastikasi, dars boshlanishidan oldingi gimnastika).

Asosiy gimnastika yuqorida aytib o'tilgan vazifalarni amalga oshiradi. U — saflanishlar, barcha muskullarni o'stiradigan mashqlar, yurish, yugurish, muvozanat saqlash, tirmashib chiqish va oshib o'tish kabilardan iboratdir. Pastki sinflarda gimnastika va harakatli o'yinlar asosiy o'rinni egallaydi. III sinfdan boshlab gimnastika, akrobatika mashqlari, tayanib sakrashlar, oddiy va aralash osilishlar, yengil atletika mashqlari, harakatli o'yinlar va sport o'yinlariga tayyorlaydigan o'yinlarni mashq qilish kiritiladi.

Odatda, o'yinlar harakatlarning erkinligi bilan ajralib turadi. Gimnastika mashqlari esa chegaralangan, aniq harakatlarni talab etadi, bosh miya po'stlog'ida tormozlanish jarayonini hosil qilish va ularning qo'zg'alish jarayonlariga to'g'ri mutanosiblikni ta'minlash bilan bog'liqdir. Faol tormozlanish hosil qilish vazifasini hal etish uchun gimnastik mashqlardan foydalanganda, ba'zan gimnastika mashqlari pastki sinf o'quvchilariga qiyin, uncha qizig'i yo'qdek va yoqimsizdek bo'lib tuyulishini nazarda tutmoq lozim. Shuning uchun gimnastika mashqlarini doim milliy o'yinlar bilan almashtirib turish hamda ularni o'quvchilarga qiziqarli shakllarda bajarib ko'rsatish tavsiya qilinadi. Gimnastika darslariga bunday o'yinlarning doimo kiritilishi shuning uchun ham muhimki, bular o'rganilgan gimnastika mashqlarini mustahkamlash va takomillash-tirishga yordam beradi.

Gimnastika mashqlarini bajarish jarayonida faqat sog'lomlashtirish vazifasigina emas, balki ilm berish vazifasi ham hal qilinadi. O'quvchilarni o'z harakatlarini ongli ravishda boshqarishga, o'z tana a'zolarini boshqarishni o'rganishga odatlantirish kerak.

**Sport gimnastikasi.** Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga jismoniy tarbiya dasturi asosida umumiy jismoniy bilim beriladi. Bu yoshda bolalar hali to'la ma'nodagi sport gimnastikasi bilan

shug'ullanmaydilar, lekin ular sport gimnastikasining oddiy elementlari bilan tanishadilar. Yuqori sinflarda sport gimnastikasi darslarda va darslardan tashqari vaqtlarda borgan sari ko'proq o'rin egallay boshlaydi. Sport gimnastikasi dasturida erkin mashqlar, gimnastika asbob-anjomlarida mashq bajarish va sakrashlar nazarda tutilgan.

Gimnastika turlaridan yana biri — davolash gimnastiksidir. Davolash gimnastikasi bolalar sog'lig'ini va kuchini tiklashga yo'naltirilgan.

Unda asosiy o'rinni gavda holatini, qiyshayib qolgan umurtqa pog'onani, ko'krak qafasini va hokazolarni davolash maqsadida qo'llaniladigan tuzatish mashqlari egallaydi.

Davolash gimnastikasi maxsus davolash muassasalarida mutaxassis shifokorlar va jismoniy tarbiya bilimdonlari rahbarligida o'tkaziladi. Davolash gimnastikasini ayrim hollarda maktabda ham o'tkazish mumkin.

#### **BADAN TARBIYASIDA HARAKATLI O'YINLARNING AHAMIYATI**

Harakatli o'yinlar kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining jismoniy tarbiyasida muhim vosita hisoblanadi. Bu yoshdagi bolalarning hayotida harakatli o'yinlar ularning jismoniy chiniqa borishiga va aqliy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, obrazli (qahramonlar qatnashgan) o'yinlar 6—8 yoshli bolalarning fikrlash hamda atrof-muhitni his qilish qobiliyatlarini rivojlantirib boradi. O'quvchilar har xil obrazlarga taqlid qilingan o'yinlarni o'ynash jarayonida ularda o'zlarini boshqarish qobiliyati, faol harakat qilish malaka va ko'nikmalari shakllana boradi.

Taqlidiy o'yinlarning muhimligi shundaki, ularda jismoniy fazilatlarini rivojlantirish uchun juda muhim sharoitlar yaratiladi. Masalan, fazogirlar o'yinida raketadagi joyga o'rnashib olish uchun iloji boricha tez yugurish talab qilinadi. Obrazlarga taqlid qilib o'ynaladigan harakatli o'yinlar davomida bolalar o'sha obrazlarga mahliyo bo'lib, charchoqni unutishadi, ba'zi bir murakkab bo'lgan harakatlarni ham bajarib yuborishadi. Natijada ularda chidamlilik va boshqa sifatlar rivojlanib boradi.

Harakatli o'yinlarni bolalarning yosh xususiyatlari, jismoniy tayyorgarligi, fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda o'tkazish jarayonida o'qituvchidan katta mas'uliyat talab etiladi.

O'yin qoidasini va tartibini bolalarga to'g'ri tushuntirib borish, ularda har bir harakat yoki obraz to'g'risida to'la tasavvur hosil qila olish o'yinning uyushqoqlik bilan o'tishini ta'minlaydi.

Birinchi sinf o'quvchilari bilan o'zlari tanlagan o'yinlarni o'tkazish lozim. Bunda bir bola o'yin mazmunini, boshqasi o'yin qoidasini tushuntiradi. Zarurat tug'ilsa, o'yin o'qituvchi tomonidan qayta tushuntiriladi. Bu jarayonda bolalarda o'z-o'zini boshqarish, har xil murakkab sharoitlardan qutulish yo'llarini izlash va fikrlash, javobgarlik hislarini tarbiyalash muhim ahamiyatga ega.

Tanaffus paytida o'tkaziladigan o'yinlar o'zining harakatlarga boyligi, qiziqarliligi, qisqaligi bilan o'quvchilardagi charchoq, toliqish, ruhiy zo'riqish hollarini yo'qotish, keyingi bo'ladigan pedagogik jarayonga bolalarni tayyorlash vositasi sifatida qo'llaniladi.

Harakatli o'yinlarni bizning O'zbekiston sharoitida yilning deyarli hamma faslida ochiq havoda o'tkazish imkoniyati bor. Jismoniy mashqlar yopiq sharoitlarga nisbatan ochiq havoda o'tkazilsa, bola a'zoyi badaniga ta'siri kuchli bo'ladi.

Har bir o'yin tugagandan keyin o'qituvchi bolalarni o'yin davomidagi harakatlarini baholab, kamchiliklarni ko'rsatib o'tishi kerak.

Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, darslar orasidagi tanaffus vaqtida harakatli o'yinlar muntazam o'tkazilib borayotgan maktablarda o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishlari, davomatlari hamda sog'liqlari yaxshilangan.

Quyida harakatli o'yinlardan ayrimlarini o'tkazish namunasini keltiramiz.

### 1. *Eshit va uni bajar.*

O'qituvchi bir nechta harakatni (2—6), ya'ni ularni ko'rsatmasdan ovozini chiqarib aytadi. O'yin qatnashchilari o'qituvchi qanday aytgan bo'lsa, amalda shu ketma-ketlikda bajarishlari shart. O'yinda xatoga yo'l qo'ygan o'quvchilar jarima (ochko) oladilar. Eng kam jarima ochko to'plagan o'quvchilar o'yinda g'olib deb topiladi.

### 2. *Qo'ng'izlar.*

O'quvchi „Qo'ng'izlar uchdi-ya“, — deb qo'ng'iroq chalganda bolalar maydoncha ichida har xil yo'nalishda yuguradilar. „Qo'ng'izlar yiqilib tushdi“ deyilganda, bolalar orqa bilan chalqancha yotadilar va qo'l, oyoqlari bilan erkin harakat (tipir-tipir) qiladilar.

### 3. *Qushlar parvozi.*

Qushlar (bolalar) qanotlarini yozib butun maydoncha bo'ylab uchib yuradilar. „Bo'ron boshlanadi!“ degan signal berilishi bilan

ular daraxtlarga chiqib yashirinadilar (ya'ni badantarbiya devorchasiga tirmashib chiqadilar). O'qituvchi „Bo'ron bosildi“, deyishi bilan „qushlar“ shoxlardan (ya'ni badantarbiya devorchasidan ohista pog'onama-pog'ona) tushadilar va uchishni davom ettiradilar.

*Ko'rsatmalar.* Agar badantarbiya devorchasi bo'lmasa, o'ringlar, yashiklar va boshqa buyumlardan foydalanish mumkin.

#### 4. *Arg'amchi ustidan sakrash o'yini.*

Bolalar arg'amchining ikki uchidan ushlab aylantira boshlaydilar, qator bo'lishib arg'amchiga tegmasdan navbatma-navbat sakraydilar. Arg'amchiga kim tegib ketsa, o'sha arg'amchi aylanti-rayotgan bolalardan biri bilan o'rin almashadi.

#### 5. *Qal'a himoyasi o'yini.*

O'ynovchilar 3—4 aylanaga saflanadilar. Har bir o'quvchining orasidagi masofa 1 metr. Ularning oyoqlari oldidan chiziq chiziladi. Aylanalar markaziga tayoqchalar o'rnatiladi. O'yinchilardan biri himoya qilish uchun chiziq atrofiga borib turadi. Bunda voleybol yoki basketbol to'pidan foydalaniladi. O'yin o'qituvchi qo'ng'irog'i bilan boshlanadi. O'quvchilar to'plarni bir-biriga oshira turib, payt poylab, to'pni qal'aga tekkizishga harakat qiladilar. Himoyachi esa qo'l, oyoq va gavdasi bilan qal'ani himoya qiladi. To'pni tekkizgan o'yinchi himoyachi bilan o'rin almashadi.

#### 6. *Zovurdagi bo'ri o'yini.*

Bir-biridan 60—70 sm uzunlikda ikki yonma-yon chiziq o'tkaziladi, u zovur vazifasini o'taydi. Bir yoki ikkita boshqaruvchilar, ya'ni „bo'ri“lar zovurda turadilar. Qolgan o'quvchilar „echkilar“ hisoblanadilar. „Echkilar“ chiziqning bir tomonida, o'z uylarida bo'ladilar. Qarama-qarshi tomonga yaylovni belgilaydigan chiziq chiziladi.

O'qituvchining ishorasiga binoan, „echkilar“ uylaridan chiqib, zovurdan sakrab, yaylovga chopib o'tishadi. „Bo'rilar“ esa ularni tutishga harakat qiladilar. Har bir yugurishdan so'ng qo'lga tushganlar soni sanab chiqiladi, so'ng yangi „bo'rilar“ saylanadi.

#### 7. *Kech qolma!*

Polga kubiklar yoki silindrlar doira shaklida terib qo'yiladi. Bolalar kubiklar yonida turishadi. O'qituvchining ishorasi bilan ular xona bo'ylab yuguradilar. Bunda ular bir-birlariga urilib ketmasliklari va kubiklarni tepib o'tmasliklari kerak. „Kech qolma!“ degan buyruq berilgach, bolalar o'z kubiklariga qarab yuguradilar.

#### 8. *Doiraga tushir!*

Bolalar davra qurib turadilar. O'rta katta chambarak qo'yiladi va doira chiziladi. Doiradan 2—3 qadam masofada davra qurib turgan

bolalarning qo'liga ichiga qum to'ldirilgan xaltachalari bo'ladi. O'qituvchining „Tashla!“ degan buyrug'i bilan barcha bolalar xaltachalarni doiraga tashlaydilar. So'ngra o'qituvchining „Xaltachalarni ko'tarib oling!“ degan buyrug'i bilan bolalar xaltachalarni olib, o'z joylariga kelib turadilar. O'yin 4—6 marotaba takrorlanadi.

#### 9. *O'rmondagi ayiq.*

Maydonning bir tomonida ayiq ini chizib qo'yiladi. Ikkinchi tomonda bolalar yashaydigan uy aks ettiriladi. O'qituvchi inida o'tiradigan „ayiq“ ni tanlaydi. O'qituvchi: „Bolalar, boringlar o'ynab kelinglar!“ deyishi bilan bolalar uydan chiqib, o'rmonga o'ynagani ketadilar. Qo'ziqorin teradilar, kapalak tutadilar va hokazo...

Ular xor bo'lib shunday deydilar:

*Ayiq ini oldida,  
Qo'ziqorin teramiz.  
Ayiqvoy o'kirganda,  
Bizlar qochib ketamiz.*

„O'kirganda“ so'zidan so'ng „ayiq“ uylariga qochib ketayotgan bolalarni tuta boshlaydi.

„Ayiq“ ning qo'li tekkan bola tutilgan hisoblanadi, uni o'z iniga olib borib qo'yadi. O'z chegarasidan o'tgandan keyin bolalarni ushlab mumkin emas. O'yin 3—4 marotaba takrorlanadi.

#### 10 „*Kim birinchi?*“ o'yini.

Ikkita stulning o'rtasiga 8—10 m masofada arqoncha tashlab qo'yiladi. O'yinchilar ikki guruhga bo'linadilar. O'qituvchining buyrug'i bilan o'quvchilar o'z raqiblari stuli atrofida yugurib, aylanib stulga o'tirib oladilar va oldinga engashib arqon uchini ushlab harakat qiladilar. Kim birinchi bo'lib arqon uchini ushlasa, o'sha o'yinchiga bir ochko beriladi. O'yin shu tariqa davom ettiriladi. Qaysi guruh ko'p ochko to'plasa, o'sha guruh g'olib deb topiladi.

### **BADANTARBIYADA XALQ O'YINLARIDAN FOYDALANISH**

Mustaqil mamlakatimiz yoshlarini har tomonlama kamol topgan shaxs qilib tarbiyalashda jismoniy tarbiyaning, qolaversa, milliy jismoniy tarbiya usullarining ahamiyati katta. Qadim zamonlarda milliy sport, harakatli va ko'ngilochar o'yinlardan ota-bobolarimiz, momolarimiz bayramlarda, sayllarda keng foydalanishgan. Navro'z, hosil bayramlari, ramazon hayit, Qurbon

hayit va boshqa bayramlarda uzoqqa chopish, kurash, ko'pkari kabi xilma-xil o'yinlar, ko'ngilochar tomoshalaor o'tkazilgan.

Milliy jismoniy mashqlar, sport va harakatli o'ynlarning xilma-xilligi ularni o'quv-tarbiya jarayonining juda ko'p sohalarida qo'llash imkonini beradi. Kuni uzaytirilgan juda ko'p guruhlarda har xil harakatli o'yinlar o'tkazish, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan har xil o'yinlar uyushtirish maxsus guruhlarda qiziqarli va bajarilishi oson bo'lgan mashqlar tashkil etish o'quvchilar harakat faoliyatlarini to'g'ri shakllantirishga katta yordam beradi.

Quyida, maktablarda o'quv-tarbiya jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan milliy sport, harakatli va ko'ngilochar o'yinlardan bir nechtasini e'tiboringizga havola etamiz.

O'yinda 2 tadan ortiq ishtirokchi qatnashishi mumkin. 15—20 metrlik masofaga 70—80 sm uzunlikdagi tayoq tik o'rnatiladi. Har bir o'yinchi xuddi shunday tayoqni tik turgan tayoqqa qarab uloqtiradi. Tayoqni ko'p marta yiqitgan o'quvchi g'olib hisoblanadi.

#### *„Kes-kes“*

Ishtirokchilar ikki guruhga bo'linadilar. Birinchisi oldinda, ikkinchisi orqada turadi. O'qituvchining ishorasi bilan birinchi guruh qochadi, ikkinchisi quvlaydi. Quvlovchi o'yinchilar yetib olsa, o'zlari orqaga qochadilar, ushlanganlar quvlaydilar. O'yin ishtirokchilaridan ko'pi ushlanib, ular soni oz qolguncha o'ynaladi.

#### *„Soqqa“*

O'yin ishtirokchilari ikki qatorga tizilib turadilar. Birinchi qatordagi o'yinchilar qo'lidagi to'p yoki toshni uzoqqa uloqtiradilar.

Ikkinchi qatordagi o'yinchilar esa qo'lidagi to'p bilan uni urishga harakat qiladilar. Agar o'yinchi soqqani tekkizsa, bir ochko beriladi. Navbat ikkinchi guruh o'yinchisiga berilib, unga soqqani uloqtirishga ruxsat etiladi. O'yinda kamroq xatoga yo'l qo'yib, ko'proq ochko to'plagan guruh g'olib chiqadi. Soqqa sifatida to'p yoki *toshdan* foydalanish mumkin.

#### *„Qirq tosh“*

O'yinchilar 3—4 guruhga bo'linadilar. O'yin estafeta shaklida o'tkaziladi. Hamma guruh qatorlarga orqama-orqa bo'lib saflanadilar. O'qituvchining buyrug'i bilan har bir guruh oldidagi o'yinchilar har qadamga tosh qo'yib chiqadilar va belgilangan joydan qaytib keladilar. Keyingi o'yinchi esa shu yoyilgan toshlarni yig'ib keladi. O'yinni birinchi bo'lib tugatgan guruh g'olib hisoblanadi. Toshlar o'rnida tennis to'plaridan ham foydalanish mumkin.



### *„Durra soldi“*

O'yinchilar doira shaklida o'tiradilar. Boshlarini tizzaga qo'yib, ko'zlarini yumadilar. Bir o'yinchi qo'lidagi durrani biror o'yinchi orqasiga qo'yadi, durra qo'yilgan o'yinchi boshlovchini quvib ketadi. Boshlovchi o'z joyiga o'tirib olsa, keyingi o'yinchi durrani qo'yish uchun aylanadi. O'yin shu tariqa davom ettiriladi.

### *„To'pni tepish“*

O'yinchilar bir safga tiziladilar va ularning har qaysisi oldiga to'plar qo'yiladi. Har bir o'quvchi qo'lini yerga qo'yib, turgan joyida 15—20 marta aylanadi. So'ngra to'g'ri turib to'pni tepadi. Qaysi o'quvchi adashmay to'pni tepsa, g'olib hisoblanadi.

Bunday milliy va ko'ngilochar o'yinlarni maktab sharoitidan kelib chiqib, o'quvchilarning yoshi, jinsi va qiziqishlariga mos holda qo'llash mumkin.



### *Savol va topshiriqlar*

1. „Sog' tanda — sog' aql“, „Harakat — harakatda barakat“, „Sog'ligim — boyligim“ maqollarini sharhlang.
2. Badantarbiyadan ko'zlangan maqsad — insonning sog'lom, baquvvat bo'lishi uchun nimalar qilish kerak?
3. „Badantarbiya — aqliy, axloqiy va estetik kamolotning mezon“ deyishadi. Nega? Yetuk, barkamol insonlar hayotidan misollar keltiring.
4. Xalq pedagogikasida badantarbiyaning qanday usul va vositalaridan foydalanilgan?
5. Badantarbiyada qanday milliy udum, odatlar mavjud? Milliy o'yinlardan birini namuna sifatida (yozma ravishda) ko'rsating.





## **XXIX BOB. BOLALAR TARBIYASIDA OILA, MAKTAB, MAHALLA HAMKORLIGI**

### **OILA — KAMOLOTGA YETKAZISH POYDEVORI**

Inson bolasi uchun oila asosiy go'sha, hayotga tayyor bo'lib chiqadigan qutlug' va mo'tabar dargoh. Uning xosiyat-u fazilatlarini, odam jismonan va ruhan quvvat-u tarbiya olishini oila bilan bog'lasak, turmush kechirishdagi hissasi g'oyat ulug' ekanini his etamiz. Bizda oila — jamiyatning bir bo'lagi, binobarin, u qancha mustahkam va har tomonlama barkamol bo'lar ekan, demak, jamiyat ham shuncha tez rivojlanadi.

Inson bolasining ruhiyatida shunday bir xislat borki, u oilada olganlarini bir umr unutmaydi va har qachon o'shanga taqlid qilib yashaydi. Shuning uchun xalqda „Qush uyasida ko'rganini qiladi“ degan maqol bor. Shunday ekan, bolaga juda katta e'tibor kerak.

O'zbekistonimizda yigirma besh milliondan ko'p aholi yashaydi. Shundan ellik ikki foizi xotin-qizlardir. Shuningdek, yurtimizda uch yarim million oila mavjud. Har yili 234 ming yangi oila barpo bo'lib, yetti yuz o'n ming yangi avlod dunyoga kelmoqda.

Ma'lumki, millatimiz bolajon bo'lib, ko'p bolalik har bir o'zbek oilasining alohida belgisidir. Bizda ko'p bolali oilalar soni boshqa mintaqalardagiga nisbatan ancha ziyod, jami oilalarning o'n ikki foizdan ko'prog'i besh va undan ortiq bolalidir. Qishloq joylarida esa bu yigirma foizni tashkil etadi. Respublika rahbariyati, shaxsan Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov mamlakatimiz aholisi tarkibiga xos bu xususiyatni teran anglagan holda, mustaqil milliy siyosatning bosh tamoyillaridan biri — aholining ehtiyojmand qismini, jumladan, ko'p bolali oilalarni ijtimoiy himoyalash ekanini mudom ta'kidlab kelmoqda. Ayniqsa, yurtboshimizning oila haqidagi mana bu fikrlari e'tiborga loyiqdir: „Oila — jamiyatning negizi. Bizning mamlakatimizni ham katta bir oila deb tushunish mumkin va lozim. Bunda o'zaro hurmat va tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko'rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas. Oila turmush va vijdon qonunlari asosida quriladi, o'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, oilada demokratik negizlarga

asos solinadi, odamlarning talab-ehtiyojlari va qadriyatları shakllanadi. O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining, qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarining, qo'shnilarining omon-esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir“.

O'zbekiston Respublikasining Asosiy Qonunida davlatning oilaga munosabati aniq va lo'nda ifodasini topgan. Xususan, Asosiy Qonunning 63-moddasida „Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega“, degan qoida bor. Binobarin, oila to'g'risida g'amxo'rlik insonparvar huquqiy demokratik davlatning muhim xususiyatlaridandir.

Istiqlol sharofati o'laroq, keyingi yillarda mamlakatimizda ko'plab oilalar moddiy-iqtisodiy yordam oldi, jumladan, ikki yarim million oila ilk bor yer uchastkalari bilan ta'minlandi, tomorqalarning o'rtacha hajmi yigirma sotixdan oshdi, kelgusida uni chorak gektarga yetkazish nazarda tutilmoqda.

Yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan „Bolalar“, „Mahalla“, „Navro'z“, „Ekosan“, „Orol“, „Sog'lom avlod uchun“ kabi jamg'armalar turli-tuman xayriya tadbirlari vositasida oilalarning farovonlashishiga hissa qo'shib kelayotir. 1994- yilning birinchi oktabridan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga binoan, mamlakatimizda kam ta'minlangan aholini ijtimoiy himoyalashning butunlay yangi shakli — ehtiyojmand oilalarga har oyda beriladigan moddiy yordam turi joriy etildi.

Sir emaski, oilaviy hayot inson uchun eng maqbul turmush tarzidir. Buni qadimgi va hozirgi ba'zi holatlar ham tasdiqlaydi. Qadim Sharqda yolg'iz kishini darvesh, g'arib, bechorahol odam hisoblashgan. Buni qarangki, italiyalik mutaxassislarning hisob-kitobicha, har besh nafar yevropalikdan bittasi uyqusizlikdan azob chekar ekan. Sababi — yolg'izlik!

Mana shularni insoniy tuyg'u bilan mushohada qilsak, baxt degan tushunchaning zamini — oiladir. Donolardan biri aytgandek, o'z uyida baxtli bo'lgan odamgina baxtlidir.

Adolatli, huquqiy va demokratik jamiyatda oila doim e'zozlanadi, himoya qilinadi va muntazam mustahkamlanib boradi.

Oila huquqi — nikoh tuzish va nikohni bekor qilish tartibi va shartlari: er-xotin, ota-ona bilan bolalar o'rtasidagi shaxsiy va mulkiy munosabatlar; farzandlikka olish, vasiylik va homiylik, bola asrab olish tufayli kelib chiqadigan munosabatlar; fuqarolik holati

dalolatnomalarini qayd etish tarzini belgilaydigan huquqiy me'yorlar yig'indisidan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi oila huquqining asosiy tamoyillari quyidagilar bilan qat'iy belgilab berilgan:

- oila jamiyat va davlat muhofazasida;
- barcha fuqarolar — jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar, qonun oldida teng;
- ayol bilan erkak oilada teng huquqqa ega;
- faqat yakka nikohlilikni tan olish va uni mustahkamlash uchun yordam berish;
- ixtiyoriy va erkin nikoh;
- davlat nazorati asosida nikohdan erkin ajralish;
- davlat otalik, onalik va bolalikni muhofaza etadi va ularning manfaatlarini har taraflama himoya qiladi;
- bolalarni milliy istiqloq mafkurasi asosida tarbiyalash va boshqalardir.

Asosiy Qonunimizning 63-modda, 2-qismida: „Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi“, deyiladi, bizda oila qurishning birdan bir asosi — qonuniy nikohdir. Yana Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 16-moddasida insonning erkin nikohdan o'tish huquqi xususida bunday deyilgan: „Balog'atga yetgan erkak va ayol, irqi, millati yoki dinidan qat'iy nazar, hech bir cheklashsiz nikohdan o'tish va oila qurish huquqiga egadir. Ular nikohdan o'tayotgan chog'da, nikohda bo'lgan vaqtda va nikoh bekor qilinayotgan paytda ham bir xil huquqlardan foydalaniladi“.

Oilali bo'lib yashash, bola-chaqa qilish, o'zidan nasl, avlod qoldirish hayot qonuni, shariyatimizga ko'ra sunnatdir. Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom bu haqda shunday deganlar: „Ey yigitlar! Qaysi biringiz turmush qurishga qodir bo'lib, imkon topsangiz, tezda uylaning, chunki uylanish inson ko'zini poklaguvchi chiroq, ya'ni u nomahramlarga qarab gunohga botishdan saqlaydi va yomon, bemaza yo'lga kirib ketishdan asraguvchi asosiy choradir. Kimki uylanishga qodir bo'lmasa, ro'za tutsin, chunki ro'za insonning shahvoniy nafsini ketkizur“.

Nikoh vositasida, shar'iy yo'l bilan juft bo'lib yashash — axloqiy poklik va sog'lik garovi, jamiyat mustahkamligi asosi bo'lib, inson bu yo'lda sa'y-harakati, halol mehnati, ro'zg'or tashvishi bilan chiniqib, komillikka erisha boradi.

Mustaqilligimiz sharofati va demokratik yo'lni tanlab olganimiz munosabati bilan hozirgi davr sharoitidan kelib chiqib, oilani yanada mustahkamlash uning ijtimoiy, ma'naviy ahamiyatini oshirish uchun nikoh-oila tizimini yanada barqaror bir tartibga solishga qaratilgan yangicha huquqiy me'yorlarni shakllantirishga ehtiyoj tug'ilmoqda. Xususan, nikoh va oila to'g'risidagi qonunlarda birinchi navbatda, mahalliy sharoit va milliy an'ana — odatlar e'tiborga olinishi lozim.

Poklik va imon-e'tiqod xalqimizning go'zal fazilati. Ma'lumki, islomiy axloq talabiga ko'ra, eri vafot etgan yoki nikohi buzilgan ayol „idda“ muddati o'tmaguncha boshqaning nikohiga o'ta olmagan, „idda“ muddati tugagach, ayolning homilasi yo'qligi aniq bo'lsa, u erga tegishga haqli bo'lgan. Agarda u homilador bo'lsa, bola tug'ilib, nifosdan pok bo'lganidan keyingina boshqaga turmushga chiqishiga ruxsat etilgan. Bunda poklik, eng asosiysi nasl — avlod pokizaligi nazarda tutilgan. Mana shu qutlug' va oqilona qoidani amaldagi Oila kodeksiga joriy etish ayni milliy muddao bo'ladi. Vijdonan aytganda, qayta turmush qurayotgan ayol hozirgi axloq nuqtayi nazaridan ham homilador bo'lmasligi kerak, lekin mabodo u homilador bo'lib, to'ydan keyin ko'p o'tmay farzandlik bo'lsa, bu hol yangi oilaning buzilishiga sabab bo'lishi aniq. Fransiyaning Fuqarolik kodeksida otalik to'g'risidagi shubhani bartaraf etish maqsadida, turmushdan ajralgan yoki eri o'lgan ayol 300 kunlik muddatdan so'ng turmushga chiqishi qayd etilgan. Shunga o'xshash, bizda ham nikohlar pok, g'ayritabiiylikdan yiroq va uyg'unlashgan bo'lishi kerak.

Mustaqil O'zbekistonimizda keyingi paytlarda ayollar haqida juda ko'p farmon va qonunlar e'lon qilindi. Ular ayollarga beriladigan imkoniyat, sharoit va barcha yengilliklar hech so'zsiz yosh avlod kamolotiga, oila mustahkamligiga va davlatning kuch-quvvati rivojlanishiga buyuk hissa bo'lib qo'shiladi.

### **QUSH UYASIDA KO'RGANINI QILADI**

Oila farzandning dastlabki tarbiya maktabidir. Shuni nazarda tutganda oilaning ikki sarkori — ota bilan onaning ma'naviy-ruhiy odobi, o'zlarining namunali xulq-atvorlari, yaxshi tarbiya ko'rganliklari, bolalarga tarbiya berishdagi tajriba va mahoratlari, qunt-sabotlari, sezgirlik va talabchanliklari bolalarni yoshlikdanoq boadab bo'lib o'sishida aks ettiruvchi ko'zgudek muhim o'rin tutadi. Bunda

odamlarning: „Siz kimning farzandisiz?“ deb so‘rashlarida, u inson qanday tarbiya ko‘rganligini bilish maqsadi yotadi.

Xalqimizda „Qush uyasida ko‘rganini qiladi“, „Bolani yoshdan, niholni boshdan asra“, „Erkalasa onasi, taltayadi bolasi“, „Bola aziz — odobi undan aziz“ kabi naqlar borki, ularning mag‘izini chaqadigan bo‘lsak: farzandlarning qay tariqa tarbiya ko‘rib, o‘sib, voyaga yetishi, fe‘l-atvorining qanday bo‘lib shakllanishi, birinchi galda ota-onaning farzandlarini qanday usul bilan tarbiyalashiga, o‘zlarini qanday tutishiga, ibrat ko‘rsatishiga, ijobiy yo salbiy ta‘sir etishiga bevosita bog‘liqdir, degan ma‘no-maqсад kelib chiqadi.

Ota-ona bolaga yoshligidan hayotda yashash nima ekanini, mashaqqat chekmay, bir burda non topib bo‘lmasligini, biror kasb-hunar egasi bo‘lmasa, hayotda ko‘p qiyinchiliklar ko‘rishini uqtirmas ekan, bola voyaga yetgan sari yurar yo‘lini bilmay qoqiladi, garangsib, nima yumush qilishini bilmay, bekor qoladi, bekorchilikdan esa bemazagarchiliklar kelib chiqadi, xunuk ishlarga qo‘l uradi, odobi, tarbiyasi buziladi. Shuning uchun ham ota-ona bolani kichikligidanoq axloq-odobga o‘rgatishi, ilm-hunarli qilishi, dastyorchilikda ko‘zini pishitib borishi ham qarz, ham farzdir.

#### **OILADA BOLALARNI TO‘G‘RI TARBIYALASHNING YO‘L-YO‘RIQLARI**

Har bir oilada bolaga tarbiya berishning o‘ziga xos va mos bir qator muhim qonun-qoidalari borki, unga qat‘iy amal qilish tarbiya ishining samarali bo‘lishini ta‘minlaydi. Shuni ham aytib o‘tish lozimki, bu qonun-qoidalarini nisbiy ravishda umumiy deyish mumkin, chunki har bir bola — bir olam, ular har birining o‘ziga xos shaxsiyati, ahamiyati, ruhiyati va xulq-atvori bor, shu bois shunga qarab muomala qilish darkor. Shuning uchun tarbiyada ota-onaning mas‘uliyati, mahorati, ziyakligi, obro‘-e‘tibori muhimdir. Ota-ona qat‘iy ravishda bola tarbiyasini maktabgacha tarbiya muassasalari, maktab va jamoatchilik bilan hamkorlikda olib borishi, hamma bolalarini teng ko‘rishi, ularga nisbatan adolatli munosabatda bo‘lishi, bolaning yoshi, o‘sish va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olishi va ayni paytda bola shaxsini hurmat qilishi, unga nisbatan talabchan bo‘lishi muhimdirki, bu yo‘l-yo‘riqlar, qonun-qoidalar oilada tabiiy ravishda, muntazam qo‘llansa, juda yaxshi natijalar beradi, albatta. Shuningdek, bolalarda chiroyli xulq-atvor ko‘nik-

masini, malakalarini tarbiyalashning o'ziga xos ko'pgina usul va vositalari borki, ota-ona kundalik hayotda ularni yaxshi bilishi, bevosita har qaysisidan o'z o'rnida, me'yorida, maqsadga muvofiq foydalanishi g'oyat zarur. Bular jumlasiga: ibrat — namuna usuli, yaxshi xulq-atvorga o'rgatish, yaxshilikka odatlantirish, o'rni kelganda nasihat qilish, qat'iy tanbeh berish, bola bilan vaqtincha gaplashmaslik, ularga nisbatan munosabatni o'zgartirish, ishon-tirish, jamoatchilikning ta'siri, rag'batlantirish va qoralash kabi vositalar shunday uslublar hisoblanadi. Har bir ota-ona bola tarbiyasining ijobiy yoki salbiy tomonga o'zgarishiga e'tibor berib, bu kabi nazariy hamda amaliy qonun-qoidalarni o'zlashtirib, unga amal qilsa, ayni muddao bo'ladi. Negaki, oilada bola tarbiyasi g'oyat nozik va murakkab masala bo'lib, bu ota-onadan katta odob bilimini, katta tarbiyachilik mahoratini talab qiladi.

Maqsad aniqligi tarbiyaning asosidir, to'g'rirog'i, u tarbiya ishlarini maqsadga muvofiq to'g'ri yo'naltirish imkonini beradi. Demak, oliy maqsad — yosh avlodni milliy qadriyatlarimiz, yaxshi urf-odatlarimiz va oilaviy an'analar ruhida tarbiyalash, jamiyat uchun oliyjanob fazilatli, bilimdon, madaniyatli, bir so'z bilan aytganda, komil insonni yetishtirishdir. Xo'sh, komil inson tarbiya-sida biz nimalarga e'tibor berishimiz zarur?

Oilada bolalarni to'g'ri tarbiyalashning asosiy shartlaridan biri tarbiyadagi birlikdir. Bunda ota-ona, oiladagi katta-yu kichik, hamma bir yoqadan bosh chiqarishi, harakat qilishi kerak. Hamma narsada: bolalarga muomalada, ularni rag'batlantirish va jazolashda, tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning boshqa vositalarini qo'llashda hammada yakdillik bo'lishi lozim. Odatda, ko'pincha bolaning onasi yoki buvisi ruxsat bergan narsani otasi taqiqlab qo'yadi yoki otasi bergan jazoni onasi rad etib buzadi, bolaning bir qilig'ini buvisi maqtasa, shu qilig'i uchun otasi uni koyiydi va hokazo. Bunday telba-teskarilik, avvalo, bola tarbiyasini buzadi. Bunday vaziyatda bola talabchan otasi bilan rahmdil onasi va ko'ngli bo'sh buvisi o'rtasida yo'l topishga odatlanadi. Kattalar orasidagi beqarorlik va kelishmovchilikni sezgan bola mug'ambirlik, aldanchilik, tilyog'lama-lilik, xushomadgo'ylikka o'rganadi.

Bolani aql (talabchanlik) bilan sevganda, uning qiziqishlariga diqqat-e'tibor berganda, mazkur yoshidagi talab va ehtiyojlarni bilganda, bu harakat ota-onaga ruhan va jisman barkamol insonni tarbiyalab yetishtirish imkonini beradi. Bunday farzand o'z navba-tida ota-onasini mehr bilan sevadi, ular to'g'risida g'amxo'rlik qiladi.

Bu ajablanarli hol emas. Chunki biz bolalarni qay tarzda yaxshi ko'rsak, ularning ruhiyati, ichki dunyosi, atrof-muhitga munosabati ham shu tarzda tarkib topa boradi.

Hayot tajribasi shuni ko'rsatadiki, ba'zi ota-onalar bolaning hamma talab-ehliyolariga haddan tashqari e'tiborli bo'lib, barcha injiqlik va o'jarliklarini ko'tarishga intiladilar. Bunday bola kelajakda noshud bo'lib o'sishdan tashqari, katta bo'lganda to'g'ri-noto'g'ri fikrni odamlarga zo'rlab o'tkazadigan, yomon xulqli, jamiyatga zararli kishi bo'lib qoladi.

Ota-ona hamma bolalariga bir xilda munosabatda bo'lishi tarbiyaning muhim shartidir. Bu omil oilada aka-ukalarning ahil, bir-biriga mehribon, oqibatli bo'lishiga olib keladi, bola oldida ota-onaning obro'si, hurmatini oshiradi, o'z tengqurlari va boshqa odamlarga yaxshi munosabatda bo'lishga, ular to'g'risida g'amxo'rlik qilishga o'rgatadi.

Kuzatishlardan ma'lum bo'ladiki, ba'zida bir ota, bir onadan tug'ilib, bir oilada katta bo'lgan bolalar ko'pincha fe'l-atvor jihatidan bir-birlariga hech o'xshamaydilar. Biri mo'min-qobil, gapga quloq soladigan bo'lsa, boshqasi sho'x, yerga ursa osmonga sapchiydigan bo'ladi. Bunday holatda kattalar ularning har biriga, o'ziga qarab muomala qilishlari, birini ikkinchisidan ortiq ko'rmasliklari lozim. Bilaks, bu qarash har ikki bolaning tarbiyasiga, ruhiyatiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Buni unutmash kerak.

Bola tarbiyasi g'oyat nozik, bu narsa vaqtni qo'ldan boy bermay, doimo, muntazam shug'ullanishni talab etadi.

Bolaga munosabatda, birinchi navbatda, uning yoshini hisobga olish kerak. Bolaning o'sish bosqichini uning yoshiga nisbatan quyidagicha belgilash mumkin: uch yoshgacha; uchdan yetti yoshgacha; yettidan o'n yoshgacha; o'ndan o'n to'rtgacha; o'n to'rtidan o'n sakkiz yoshgacha.

*Uch yoshgacha* bo'lgan bolada jismoniy-ruhiy belgilar rivojlanadi. Bu davr bola hayotida juda mas'uliyatli davrdir. Kichkina vujudning risoladagidek o'sishi, ya'ni ovqat yeyishga, yurish va gapirishga o'rganishi mana shu davrga to'g'ri keladi. Shuning uchun ota-onalar bu davrda bolaga juda hushyor bo'lishlari kerak. Bola tana a'zolarining to'g'ri rivojlanishi, aniq-ravon so'zlashga o'rganishi, yaxshi-yomon narsalar haqida to'g'ri tushunchalar hosil qilishi, ota-onalarning e'tiboriga bog'liq.

Shuni unutmash kerakki, bola rivojlanishida 3—7 yosh oraliqidagi bosqich juda nozik, alohida ahamiyat berish lozim



bo'ladigan davrdir. Bu davrda bola hissiyotida hayotga faol aralashish istak-ishtiyoqi qanot yozib, jo'sh uradi. Bola ko'proq mustaqil harakat qilishga — kiyimlarini o'zi xohlaganicha kiyishga, ovqatini o'zi mustaqil yeyishga, dov-daraxt va tepaliklarga tirmashib chiqishga, o'yinchoqlarini buzib-tuzatishga, xullas, hamma-hamma narsani o'zi bajarishga intiladi va o'yinqaroq bo'lib, hadeganda ko'chaga chiqqisi kelaveradi. Nimani ko'rsa, eshitsa, o'sha haqda qayta-qayta savol berib so'rayveradigan bo'ladi. Ota-onalar boladagi bu xususiyatlarni to'g'ri tushunishlari, uning intilishi, qiziqishini bo'g'masliklari, aksincha erkinlik berib, faqat xatti-harakatlari to'g'ri yoki noto'g'riligini ziyraklik bilan kuzatib borishlari kerak. Xuddi ana shu davrda bolada hayotiy to'g'ri tushunchalarni shakllantirish lozim. Buning uchun esa yolg'on gapirmaslik, iloji boricha xunuk narsalarni bemaza so'zlar bilan ifodalamaslik, har bir savoliga yoqimli va jiddiy, aniq-ravshan javob berish kerak.

*Yetti yoshdan o'n yoshgacha* bo'lgan bolalarda bu jarayonlar boshqacharoq kechadi. Bola bu yoshida ancha og'ir-vazmin bo'lib, jiddiylashadi. Endi yangi davr — maktab hayoti boshlanadi. Bu davrda ota-onalar uydagi tarbiyaning maktab tarbiyasiga zid kelib qolmasligiga alohida e'tibor berishlari kerak. Buning uchun ota-onalar maktabga bot-bot borib, o'qituvchilar bilan suhbatlashishlari, bolaning uydagi va maktabdagi xatti-harakatlarini taqqoslab ko'rishlari, ziddiyat paydo bo'lsa, tezda oldini olishlari darkor. Bu davrda bolani ruhan qo'llab-quvvatlab, yordam berish, unga madadkor bo'lish, ko'nglini ko'tarib turish zarur, chunki yangi hayotga — maktab hayotiga o'rganish, yangi ko'nikmalar hosil qilish hamma bolalar uchun ham oson bo'lavermaydi.

*O'n yoshdan o'n to'rt yoshgacha* bo'lgan bolalarda yanada yangi jarayonlar paydo bo'ladi. Bolaning gap-so'zlari, xatti-harakatlari avvalgidan ham jiddiyroq ma'no kashf etadi. Bu davrda bola endi maktab hayotiga to'la moslashib olgan, bir qator mashaqqatli soatlarni ortda qoldirgan, ancha mustaqillikka erishgan bo'ladi. Ota-onalar bu davrda bolada paydo bo'layotgan yangi o'zgarishlarga e'tiborni qaratishlari, ya'ni jinsiy balog'atga yetayotgani, bu esa bolada allaqanday noxush kayfiyatlar tug'dirayotganiga diqqatni qaratib, unda yaxshi, go'zal tuyg'ularning kamol topishiga ko'maklashishlari kerak.

*O'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha* bo'lgan davr bolaning voyaga, kamolotga yetish davri hisoblanadi. Bu davrning asosiy, alohida belgisi — bola o'zini to'la mustaqil tutishga harakat qilishidir.

Endi u odamlardan o'ziga nisbatan kattalardek munosabatda bo'lishlarini, uning fikr-mulohaza va rejalari bilan hisoblashishlarini istaydi. Bu davrda ota-onalar bilan bolalar o'rtasida ba'zi masalalar yuzasidan jiddiy ziddiyatlar chiqib turadi. Bunday vaqtda eng muhimi, ota-onalar: „Bolamiz biz nima desak, hammasini so'zsiz bajaradi“, degan xayoldan voz kechib, uning yurak dardlarini tinglashlari, bola haq bo'lsa, unga yon bosishlari kerak.

Yana shuni unutmashlik lozimki, tarbiyada har bir bolaning xulq-atvoriga qarab alohida muomala, munosabat, e'tibor zarur. Bunda uning yoshi, aql-farosati, jinsi, ruhiy alomatlari, jismoniy kuch-quvvati, hamma-hammasini hisobga olish kerak bo'ladi. „U hali bola-ku, bolaga bo'laveradi“, „Hammasiga keyin o'zi o'rganib ketadi“ kabi zararli fikrlarni yig'ishtirib qo'yib, bola boshdanoq aqli rasolik bilan tarbiyalab borilishi kerak. Katta bo'lgandan so'ng odamlarning hurmatiga loyiq bo'lib, o'zi tanlagan sohasida jamiyat uchun foydali ish ko'rsata olishi, oilasiga g'amxo'r ota-ona bo'lishi — bularning barchasi komil tarbiyaning shirin mevasidir.

Har bir ota-ona bolaning yoshini, shu davrdagi holatini yaxshiroq tushunish uchun o'zini bola o'rniga qo'yib ko'rishi zarur. Shunda bolaning injiqligi, talabi ravshan ko'rinadi qoladi. Bolaning ko'ngli va holatiga tushunish oson emas, ammo u o'z o'rnida joiz.

Bolaning ruhiy olami — sirli bir dunyo. Bu olamga kirishimiz, bolaning hayajonlari, iztiroblari, quvonchlari, o'y-xayollari, his-tuyg'ularini o'zimizda sinab ko'rib munosabatda bo'lishimiz bolalarni tushunishda bosh mezon bo'lib xizmat qiladi. Ota-ona obro'si tarbiyada hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Farzandlarning ota-onaga so'zsiz itoat qilishi ko'p jihatdan ota yoki onaning oiladagi obro'siga ham bog'liq. Ba'zi ota-onalar, bolam menga hecham quloq solmaydi, tarbiyasi buzilgan, deb shikoyat qilishadi. Ochiq aytish kerakki, bolalarni gapga quloq solmasligi ota-onalarning obro'yi yo'qligini, yana ham to'g'rirog'i obro'larini yo'qotib qo'rganliklarini ko'rsatuvchi belgidir.

Xo'sh, ota-onalarning obro'yi nima va u oilada qanday saqlanishi lozim?

Ota-onaning butun hayoti: odob-u xulqi, odamlar o'rtasidagi mavqeyi, ijtimoiy burchiga bo'lgan munosabati, mehnatsevarligi (o'z ota-onasi oldidagi farzandlik burchini qay darajada o'taganligi), oilasi haqida qayg'urish, bolajonligi, pok vijdonli bo'lishi, odamlarga mehribon va jonkuyarligi kabilar ular qozonadigan obro'ning asosiy omillari hisoblanadi.

Ota-onalar bolalar uchun eng mo'tabar, aziz-u mukarram kishilardirlar, shu bois bolalar ota-onalariga o'xshash uchun doimo havas bilan taqlid qilib yashaydilar. Shu tufayli ota-onalar hamma vaqt, har jihatdan bolalarga ibrat bo'lishlari shart. Oilada bolalar bilan ota-onalarning o'zaro munosabatlari, ularning bir-birlarini hurmatlashlari va bir-birlariga ishonishlari asosiga quriladi. Odatda, bolalar o'zlarining hamma ishlarida ota-onalarini o'zlariga eng yaqin maslahatchilari deb biladilar. Qiyinchiliklarga duch kelganlarida ham, eng og'ir muammoni hal etishda ham eng birinchi yordamchi ulardir. Bola uchun haqiqiy do'st ham, shodliklari va tashvishlarini ham baham ko'ruvchi aziz inson ota-onadir.

Yosh bolaning kattalarga taqlidchan va itoatkor bo'lishi tabiiy bir hol. Kattalar nima bajarsa, u ham darrov shuni bajaradi. Nimani buyursa, „quloq qoqmay“ ijro qiladi. Ulg'aygan sari bolaning aqli ko'p narsalarga yetadigan bo'lib qoladi, endi u ba'zi masalalarda kattalar fikri bilan kelisha olmaydi, o'z aytganida oyoq tirab turib oladi. Ko'pincha, kattalar bunday holda boladagi bu o'zgarishni odobsizlik, o'jarlik, o'zboshimchalikka yo'yib, uni nohaq jazolashga urinadilar, bu haqsizlik bola qalbini jarohatlaydi, natijada ota-ona bu haqsizligi bilan o'z obro'yiga putur yetkazadi. Yuqorida aytilgan fikrni yana bir bor ta'kidlash o'rinliki, bolani tushunmaslik, tarbiyada uning yoshi va xulq-atvoridagi yuz berayotgan o'zgarishlarni e'tiborga olmaslik, oxir-oqibat ota-ona va bolalar o'rtasidagi mehr-muhabbat, ishonchni yo'qotishga olib keladi.

Shuni unutmaslik kerakki, tarbiyada mayda-chuyda degan narsa bo'lmaydi, u o'z o'rnida juda muhim bo'lishi mumkin. „Bolani faqat u bilan gaplashganda, nasihat qilganda yoki unga biror narsa buyurgandagina tarbiyalayman, deb o'ylamang“, degan edi tarbiyashunos olimlardan biri. „Siz bolani turmushingizning har bir lahzasida, hattoki o'zingiz uyda yo'qligingizda ham tarbiyalaysiz. Sizning qanday kiyinishingiz, boshqalar bilan va boshqalar haqida qanday gaplashishingiz, xursand bo'lishingiz yoki tashvishlanishingiz, do'st va dushmaningiz bilan qanday muomala qilishingiz, gazeta o'qishingiz — bular hammasi bola uchun katta ahamiyatga ega“ deganda u haqli edi.

Ma'lumki, katta-kichik oilada bola ota-onadan tashqari, uyidagi boshqa oila a'zolarining ta'sirida ham tarbiyalanadi. Kattalar o'z tashvishlari bilan bo'lib ketib, ba'zi noo'rin xatti-harakatlari bilan salbiy yoki ijobiy ta'sir ko'rsatayotganlarini sezmay qolishadi. Chunosonchi, bola doimo kattalarning baqir-chaqirlarini eshitaversa,

darg'azab yuzlarni ko'raversa, bu hol asablariga ta'sir etib, u ham yomon fe'l-atvorli, jahldor bo'lib o'sadi. Agar oila a'zolari o'zaro xushmuomalada bo'lsalar, chehralaridan doim bir-birlariga mehribonlik va ahillik balqib tursa, bola ulardan zavq olib xushchaqchaq, odamoxun bo'lib o'sadi.

Ota-ona o'z bolalari oldida hech bir obro'ga ega bo'lmagan hollar ham uchrab turadi. Bunday ota-onalar bolaning har qanday injiqligini darrov bajaruvchi, o'z talablariga mantiqsiz yondashuvchi, bolaga bugun bir narsa qilishga ruxsat berib, ertasi xuddi shu narsa uchun jazolovchi ota-onalardir, desak yanglishmagan bo'lamiz. Haqiqiy ota-onalik obro'yini bolani qo'rqituvchi qattiq-qo'llik bilan ham, uning hamma narsani qilishga yo'l qo'yadigan, har qanday sho'xligini kechiradigan muloyimlik va marhamatlilik bilan ham qo'lga kiritib bo'lmaydi. „Chinakam obro'yingiz fuqarolik faoliyatingizga, fuqarolik tuyg'ularingizga, bola hayotini bilishingizga, sizning unga beradigan yordamingiz va uning tarbiyasi uchun o'zingizni javobgar deb bilishingizga asoslanadi“, deb uqtiradi allomalardan biri.

Ota-onaning obro'yi baland bo'lgan oilalarda bolalar hamma yumush-talablarni so'zsiz bajaradilar, ko'rsatmalarga bajon-u dil bo'ysunadilar. Agar bolalar o'z ota-onalarini chindan hurmat qilsalar, doimo ularning gapidan chiqmaydigan bo'lishadi. Istak va talablariga quloq solishadi. Har bir narsada ular bilan maslahatlashib ish tutishadi. Bu, o'z navbatida bolalarni xato qilishdan asraydi.

Oila tarbiyasidagi muvaffaqiyatlarning hal qiluvchi omillaridan yana biri, onalarning Vatan oldidagi o'z fuqarolik burchlarini faol, izchil va to'la, ongli ravishda bajarishlaridadir.

Oilada ota-onaning obro'yi saqlanishida so'z bilan ish birligi ham muhim o'rin tutadi. Bolalarning o'qishi, dam olishi, oilaviy yumushlarga yordamlashishi va hokazolarni muayyan tartibga solib, unga amal qilishini talab etishda, avvalo, ota-onaning o'zi ham bu tartibga amal qilib, namuna ko'rsatishi kerak. Chunki, oqilona tuzilgan kun tartibi to'g'ri tarbiya vositasidir. Kun tartibi bolani tartib-intizomga o'rgatadi, kuchi va vaqtini tejaydi, topshiriqlarni o'z vaqtida puxta, aniq bajarishga, jamoat orasida o'zini tutishga o'rgatadi, odatlantiradi. Bola hayotining muayyan tarzda tashkil etilishi, mehnat bilan dam olishining to'g'ri almashinib turishini ta'minlaydi. Kun tartibi bolaning sog'lom-tetik o'sishiga hamda aqliy jihatdan to'g'ri rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Rejimga o'rgangan bola har bir ishini o'z vaqtida qilishga intiladi. Vaqtida

mehnat qilib, vaqtida dam oladi. Sevgan mashg'uloti bilan shug'ullanishga ham payt topadi. Uy yumushlarida dastyorchilikka odatlanadi. Oqibatda bola batartiblikka, saranjom-sarishtalikka, xush odobga o'rganadi. Bunday bola hamisha ruhan tetik, maqsadga intiluvchan, serzavq bo'ladi. Shuning uchun ota-ona bolani yoshlik chog'idanoq vaqtdan to'g'ri foydalana olish, har bir ishni o'z muddatida, ma'lum tartibda bajarishga odatlantirishi kerak.

O'quvchining darsga ulgurmasligining asosiy sabablaridan biri har bir yumushni o'lda-jo'lda bajarishga odatlanganidir. Ma'lumki, o'quv mashg'uloti bola uchun mehnatning eng murakkab turi hisoblanib, bu ish undan faollikni, diqqat-e'tiborni, chidam va irodani talab etadi. Demak, o'quvchining o'qishdagi muvaffaqiyati, avvalo, uning mehnatsevarligiga hamda oilada har bir yumushni *o'z vaqtida bajarishga* odatlanganiga bog'liq.

Maktabga tayyorlanayotganida har bir bola yaxshi o'qigisi va o'zini yaxshi tutgisi keladi, agar bunga har doim ham erishavermasa, u holda ko'proq ayb ota-ona zimmasiga tushadi. Shuning uchun ota-onalar bolalarining uy vazifalarni qanday bajarayotganligini muntazam nazorat qilib turishlari, maktabdagi o'qishlari, yurish-turishlarini, ularning muvaffaqiyatini taqdirlashlari, o'z kuchlariga ishonchlarini qo'llab-quvvatlashlari muhimdir.

Ota-onalar bolaning o'qishi bilan, odob-axloqi bilan qiziqishlari, maktab va o'qituvchining o'quvchiga talablarini, maslahat va topshiriqlarini jiddiy kuzatib borsalar, ayni muddao bo'ladi. Bu esa bolaning yaxshi o'qishi va intizomli bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Aks holda, ya'ni bolaning dars tayyorlashi va yurish-turishi o'z ixtiyoriga tashlab qo'yilsa, u vaqtda bola dars tayyorlamay, kunni bekor o'tkazib, kech qiladi. Shuning uchun bolaning o'z vaqtida dars tayyorlashini nazorat qilish ota-ona, qolaversa har bir oila a'zosining burchidir.

Zotan, tarbiya ishi maktab bilan oila hamda jamoatchilik hamkorligida amalga oshiriladigan murakkab, mas'uliyatli va sharafli vazifadir. Bu vazifaning to'g'ri bajarilishi ota-onalarni ham, maktabni ham, jamoatchilikni ham xushnud etadi, bundan keladigan tarbiya samarasi har tomonlama manfaatli bo'ladi, shuni nazarda tutib, ota-ona farzandining o'qituvchisini ustoz bilib, u bilan tarbiyada bamaslahat ish tutishi, o'z navbatida, o'qituvchi ham o'quvchisining ota-onasini g'oyat samimiy va hurmat bilan qalbiga yaqin tutishi kerak, shunda aloqa mustahkam bo'ladi.

Odatda, o'qituvchilar ko'pincha ota-onalar bilan faqat maxsus yig'ilishlardagina, ya'ni yilda uch-to'rt marta o'tkaziladigan „ota-onalar majlisi“da ko'rishib, „rasmiiy“ gaplar bilan chegaralanadilar. Iqror bo'lish lozimki, bunday „sovuq“ tadbir ko'zlangan maqsadni bermaydi. ota-ona va o'qituvchi o'rtasida iliqlik uyg'otmaydi. Shunday holatlar ro'y bermasligi uchun o'qituvchi imkon topib har bir ota-ona bilan yaqindan munosabatda bo'lishi, o'zaro maqsadlari birligini yaxshilab tushuntirishi zarur.

O'qituvchi o'quvchisining uyiga qarindoshidek kirib borishi ayni muddao. Ba'zida o'quvchining uyiga o'qituvchi birinchi marta borganida ota-onalar yaxshi kutib olmasliklari mumkin. Ko'pincha, bu holat xulqi yomon, o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilarning oilasida yuz berishi mumkin. Shunga qaramay, o'qituvchi bunday vaziyatga tayyor turishi va uchrashuvga alohida tayyorgarlik ko'rishi lozim. Bunda o'qituvchi o'quvchining dars tayyorlaydigan xonasi, uydagi xo'jalik ishlariga ishtiroki, kattalarga hurmat munosabati, ukalariga mehribonligi, nimalarga ko'proq qiziqishi, kun tartibi singarilar bilan qiziqishi kerak. Agar ota-ona o'qituvchining bunday savollariga qoniqarli javob qaytarishni istamasa, bu holatga qaramay, o'qituvchi bolaning yaxshi o'qishi, tartib-intizomli bo'lishi uchun ular nimalarga e'tibor qaratishlari haqida do'stona maslahatlar berishga urinib ko'rsa, nur ustiga a'lo nur bo'lardi. O'qituvchi keyingi uchrashuvda ota-onaga o'quvchi haqida (unda jiddiy ijobiy o'zgarish yuz bermagan bo'lsa-da), bolada ijobiy tomonlar, yaxshi xislatlar paydo bo'layotganini gapirishi kerak. Bunday gapdan ota-ona xursand bo'lishi va ular orasida munosabat iliqlashishi va qadrdonlik paydo bo'lishi mumkin.

O'qituvchi bilan ota-onalar o'rtasidagi munosabat kutilgandek bo'lishi qanchalik qiyin kechmasin, bunga erishish yo'llarini topish lozim.

Oilada bola tarbiyasiga salbiy ta'sir qiladigan omillar, ko'pincha ota-onalarning bolani, uning ruhiyatini tushunmay muomala qilishlaridan, pedagogik bilimlari yetarli emasligidan, shaxs rivojlanishi qonunlariga e'tiborsizliklaridan kelib chiqadi. Hamkorlik ishida maktab bo'yicha o'tkaziladigan umumiy yig'ilishlar bilan bir qator-da, ayrim sinf majlislarining ham alohida o'rni bor. Lekin ayrim o'qituvchi-tarbiyachilar sinf majlislariga ota-onalarning ko'pchiligi kelmasligidan shikoyat qiladilar. Xo'sh, buning sababi nima?

Bizningcha, dastlabki sinf majlislari qiziqarli o'tmagan yoki majlisda ayrim o'quvchilarning o'qishi va intizomi haqidagi bir xil

qolipdagi gaplar, kamchiliklar takrorlanavergan. Natijada, bunday yig'ilish hech kimda qiziqish uyg'otmagan.

Yangi o'quv yili oldidan birinchi sinfga keladigan bolalarning ota-onalari bilan maxsus va mazmunli yig'ilish o'tkazish maqsadga muvofiq. Bu yig'ilishda ota-onalar diqqatini faqat farzandlari uchun kerakli narsalar sotib olishga, kiyim-kechak tayyorlashga qaratmay, balki bolaning aqliy, jismoniy va ruhiy sog'ligiga ham e'tibor berish, unda maktabga qiziqish uyg'otishga, ko'rgan va eshitganlarini so'zlab berishga ham odatlantirish lozimligiga e'tiborni qaratish darkor. Bolani maktabga shu qadar qiziqtirish kerakki, u 1- sentabrni orziqib kutsin. Ana shu mazmunda o'tkazilgan birinchi yig'ilish o'qituvchi va tarbiyachining ota-onalar bilan munosabatlarini mustahkamlaydi.

Ota-onalar bilan o'tkaziladigan har bir yig'ilishda pedagogik mavzularda ma'ruzalar uyushtirish, kinolavhalar ko'rsatishni tashkil qilish alohida ahamiyatga ega. Pedagogik tashviqotning barcha turlari ota-onalarga tarbiya sohasidagi kamchiliklarni bartaraf etishga, o'z farzandlarini yanada yaxshiroq o'rganishlariga yordam beradi. Bu esa umumahamiyatga ega bo'lgan tarbiyaviy ishlarimizning talab darajasiga ko'tarilishi uchun, maktabda ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash masalasini yaxshi yo'lga qo'yish uchun yaxshi omil bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, yosh avlodni tarbiyalashda asosiy ta'lim-tarbiya o'chog'i maktabdir. Maktabga turli xil oiladan turli xil xulq-atvordagi o'g'il-qizlar kelishadi. Bularda maktabning qonun va qoidalariga ko'nikma hosil qilish, jamoa bilan birga bo'lish odatini shakllantirish juda qiyin jarayondir. Ana shu jarayonni oila bilan maktab hamkorlikda o'tkazsa, bolalar xulqidagi salbiy xususiyatlarni bamaslahat hal qilishsa, tarbiyasi yomon o'quvchi bo'lmaydi. Afsuski, bizda oila bilan maktab hamkorligi juda bo'sh. Ba'zi bir ota-onalar bolalari tarbiyasi bilan mutlaqo shug'ullanishmaydi. Bolalarning faqat sog'ligini nazorat qilishadi, xolos. Bola katta bo'lib, uning salbiy jihatlari el nafratiga uchray boshlagach esa, endi aybni maktabdan qidirishadi. Xo'sh, bolasining biror nuqsonini tuzatish yoki muhokama qilish uchun maktabga chaqirilganda kelishga og'ringan yoki vaqti yetmasligidan noligan ota-onaga endi bunday ahvolni qanday tushuntirish kerak?

Ota-onalarning juda ko'pchiligiga taalluqli yana bir xususiyat bor. Bolalari odobli yoki „4“ va „5“ baholarga o'qiyotgan ota-

onalar maktabdagi ta'lim-tarbiyaga bag'ishlangan yig'ilishlarga muntazam kelishadi. Bolalarining odobi ham, bilim darajasi ham qoniqarsiz bo'lganlari esa bunday yig'ilishlarda ko'pincha qatnashishmaydi, goho kelib qolishsa ham gapni qisqa qilib jo'nab qolishadi. Aslida esa (ayniqsa, keyingi toifadagi ota-onalar) maktab yig'ilishlarida muntazam qatnashishlari lozim. Shunday qilinganda edi, ularning farzandlari ham yaxshilar safidan o'rin olgan bo'lishlariga hech qanday shubha qolmasdi.

Afsuslar bo'lsinki, ota-onalarimiz orasida bolalarining odob-tarbiyasi, o'zlashtirishi, hayo-andishasiga emas, balki kiyinishiga, taqinchoqlar taqishiga, qimmatbaho buyumlar bilan bezanib-ziynatlanishiga zeb berayotganlar ham kam emas. Bunday ota-onalarning bolalari hammadan ajralib turishlari, o'zini ko'z-ko'z qilishlari tabiiy, albatta.

Bolalarining qanaqa tarbiya olishlari u tarbiyalanayotgan muhitga bog'liq. Shunday ekan, yoshlik — beboshlik bo'lishi ham, yoshlik — nodonlikning boshlanishi bo'lishi ham bolalarga berilayotgan tarbiyaga va bolalarning tarbiya topishiga bog'liq. Ona O'zbekistonimiz mustaqillikka erishgach, maorifimiz oldida birinchi navbatda yangi insonni tarbiyalashdek g'oyat muhim vazifa ko'ndalang bo'ldi.

Yangi inson — ona O'zbekistonning chinakam sohibi, chinakam ishbilarmoni, chinakam yetuk fuqarosi, bir so'z bilan aytganda, komil inson bo'lishi kerak. Ustoz-murabbiylar shunday komil insonni tarbiyalashni oliy burch deb biladilar.

#### MAHALLANG — OTA-ONANG

„Bir bolaga yetti qo'shni ota-ona“.

*Xalq maqoli*

Istiqlol tufayli yangitdan qad rostlayotgan mahallalarimiz ijtimoiy va madaniy-ma'naviy hayotida tub o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ular faoliyatining huquqiy jihatlari oshirildi, tashqi dunyo bilan aloqalari yanada mukammallashdi, jamiyatimiz islohotlarini amalga oshirishning ishonchli tayanchi va ta'sirchan vositasi sifatida shakllana boshladi.

Insonning butun umri o'tadigan fuqarolar o'zini o'zi boshqaruvining muhim jamoatchilik organi — mahalla bo'lib, uning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda yashovchi har bir oila, shaxs shu ahil jamoa ko'z o'ngida shakllanadi, har bir fuqaroning hayot tarzi, uning nimaga qodir yoki muhtojligini mahalladan ko'proq



biladigan idora yo'q. Har bir kishi va uning oilasiga qo'shnilari va mahallasi beradigan baho eng xolis bahodir. Turmush bilan bog'liq har qanday tadbir mahallasiz o'tmaydi.

Fuqarolik jamiyati ko'rinishida mahallaning muhim o'rin tutishini bilgani holda, Respublika rahbariyati mahallani o'zini o'zi boshqarish faoliyatini kuchaytirib — uning moddiy va ma'naviy asoslarini kengaytirish vazifasini qo'ydi.

Milliy qadriyatlarni o'rganish, asrash, muhtojlarni ijtimoiy muhofaza qilish, mahallalar rivojlanishiga har tomonlama ko'maklashish, ular faoliyatini muvofiqlashtirish kabi hayotiy masalalar yurtboshimiz tashabbusi va farmoni bilan tashkil etilgan O'zbekiston „Mahalla“ xayriya jamg'armasining asosiy faoliyati etib belgilandi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida o'tish davri qiyinchiliklarini e'tiborga olib, kam daromadli oilalarga moddiy yordam ko'rsatish hamda 16 yoshgacha bolalari bo'lgan oilalarga nafaqalar tayinlash ishlari mahallalar orqali amalga oshirilishi Prezident farmoni va Respublika Vazirlar Mahkamasining qarori bilan belgilab qo'yildi. Bu, albatta, mahallalarga bo'lgan katta ishonchdir.

Joylardagi yuqori mutasaddi tashkilotlar, jamg'armamiz bo'limlari, mahalla oqsoqollari va faollari, turli jamoat tashkilotlari o'zaro hamkorlikda aholi o'rtasida ulkan ijtimoiy-ma'rifiy, ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni olib borishda samarali mehnat qilmoqdalar. Muayyan yutuqlarga qaramasdan, mahalla oldida xalqimiz ma'naviyatini boyitish, ulardagi milliy iftixor va vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytirish, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, komil insonni tarbiyalash, ayniqsa, yoshlar tarbiyasi kabi yechimini kutayotgan talaygina dolzarb masalalar turganini e'tirof etmog'imiz lozim.

Ma'lumki, hamma narsa mahalladan boshlanadi. To'g'ri, keyingi yillarda mutasaddi davlat va jamoat tashkilotlari, xususan, „Mahalla“ xayriya jamg'armasi mahallalarda madaniy, ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni keng yo'lga qo'yib, bu borada sezilarli o'zgarishlarni amalga oshirdi. Biroq e'tirof etish lozimki, mahalla yoshlari ma'naviyatini oshirish, axloq, imon-e'tiqod kabi odamiylik fazilatlarini yuksaltirish nazarimizdan biroz chetda qolayotganga o'xshaydi. Ayrim yoshlarimizdagi oqibatsizlik, milliy ong va g'ururning yetishmasligi singari illatlar ma'naviyatimiz, istiqbolimiz ruhiyatiga mutlaqo ziddir. Binobarin, ularning hech qayerda ishlamay yoki o'qimay yurishlari hammamizni tashvishga solmay

qo'ymaydi, albatta. Axir ularning ham boshida ota-onasi, qo'ni-qo'shnisi, qolaversa, mahallasi bor. Mahallalarimizdagi ba'zi shaxslarning noxush hayot tarzi bevosita yoshlarimiz ongiga ta'sir o'tkazayotganining guvohi bo'lib qolmoqdamiz.

To'y-ma'rakalardagi dabdabavozliklar, isrofgarchiliklar milliy tarbiyamiz hamda ma'naviyatimizga, ayniqsa, yoshlar tarbiyasiga to'g'ri kelmaydigan odatlardir. Albatta, hamma uchun bir xil qolipda ish ko'rish notabiiy. Biroq ba'zi bir „O'ziga to'qlar“ el-yurt taomiliga qarab, oddiy mehnatkash va ziyolilar esa imkoniyatlari darajasida ish tutsalar davr talabiga mos bo'lur edi. Tabiiyki, bular, albatta, yoshlarimiz tarbiyasiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Shu bois, bunday masalalar mahalla oqsoqollari hamda faollari e'tiborida bo'lmog'i darkor.

Ta'lim-tarbiya ishlarini diniy aqidalarimizga, islom ta'limotiga mos holda olib borish foydadan xoli bo'lmasligini bilamiz. Islom dini faqat ibodat-u ro'za tutish emas, shuningdek, u hayot, imon, e'tiqod, tarbiya, axloq, odob, halollik, poklik, Vatanni sevish, bilim olish, hunar o'rganish, oxiratni o'ylab ish tutish sinrgarilarga chorlovchi ta'limot ham ekanligini esdan chiqarmasligimiz lozim. Afsuski, ayrim chala mullalar va otin oyilar mahalla yoshlarini chalg'itib, o'zlari bu sohada muayyan bilimga ega bo'lmay turib, yoshlarga bilim bermoqchi bo'ladilar. Bu borada mahalla oqsoqollari o'z o'rinlari qanday bo'lishini to'g'ri anglab olmoqlari lozim.

Mahallalar hayotidagi shu va shunga o'xshash kamchiliklarni bartaraf etish masalasi, ayrim mahalla oqsoqollari kengashlarining e'tiboridan chetda qolayotganga o'xshaydi.

O'zbekiston „Mahalla“ xayriya jamg'armasi tomonidan 1996-yilda yuqorida ko'rsatilgan muammolarning yechimini topishda mahalla va uning tarkibiy qismlaridan biri — xotin-qizlar kengashi ish faoliyatini tashkil qilish va ularni takomillashtirishga qaratilgan maxsus tavsiyanoma ishlab chiqildi. Bu narsa kitobcha holida nashr etilib, jamg'arma viloyat bo'limlari orqali mahallalarga tarqatildi. Lekin ushbu tavsiyanoma mahalla hayotida hali to'laligicha aks etmayotgandek ko'rinadi.

Biz huquqiy demokratik jamiyat qurayotgan ekanmiz, hayotning barcha jabhalarida qonun ustuvorligini ta'minlashga hissamizni qo'shmog'imiz lozim. Agar barcha mahalla ahli, oilalar hamkorlikda ish olib borsak, xususan, yoshlar o'rtasidagi huquqbuzarliklarning bir qancha kamayishiga erishgan bo'lardik. Demak, mahalla markazlari, guzarlarni kerakli o'quv qo'llanmalari, plakatlar bilan

jihozlash, uchrashuv-suhbatlar va konsultatsiyalar uyushtirish asosiy vazifalarimizdir. Bu ishga mahallalarda istiqomat qiluvchi adliya xodimlarini, nafaqadagi pedagoglarni keng jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

Shunday dolzarb masalalardan yana biri tadbirkorlikni rivojlantirishdir. Bu vazifani amalga oshirish, ayniqsa, qishloq mahallalari sharoitida, birinchidan, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni joylarning o'zida yechishga, ikkinchidan, oz mablag' sarflab, ko'pchilikni ish bilan ta'minlashga, uchinchidan, bu borada erishiladigan ijobiy natijalar aholi turmush darajasini yaxshilashiga, ya'ni ish bilan bandlik dasturini amalga oshirishga katta yordam beradi, albatta. Bulardan tashqari, mamlakatda kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatilgan, ayrim fuqarolarning ish topolmayapmiz degan da'vo-arizalariga ham chek qo'yilgan bo'lur edi. Jamiyatimiz rivojlanishida mahallalar ahamiyatidan kelib chiqib, kelajakda ularning to'liq hisobidan faoliyat ko'rsatish ham muhimdir. Fikrimizcha, bu jiddiy va muhim masalani amalga oshirish davlatimizning og'irini yengillashtirishga, aholi o'rtasida, ayniqsa yoshlar o'rtasida boqimandalikni yo'qotishga, tashabbuskorlik va tadbirkorlikni rivojlantirishga, mahallalarning ijtimoiy xo'jalik masalalarini hal qilishga hamda ularning ichki imkoniyatlarini to'la ishga solish sohasida qo'yilgan dadil qadam bo'lur edi.

Bunday harakatlar Toshkentdagi 1-Charx Kamolon, Chimbov va Islomobod mahallalarida allaqachonoq boshlangan va yaxshi natijalar bermoqda.

Tajribadan ma'lumki, yoshlar tarbiyasi ular ma'naviy kamolotining samarali yo'llaridan biri davlat huquq-targ'ibot organlari, xalq ta'limi tizimi hamda mahallalarning, jamoat tashkilotlarining yaqin hamkorligidir. Bu borada „Mahalla“ xayriya jamg'armasining Respublika Xalq Maktab-oila hamkorligida ishlab chiqilgan „Mahalla, Maktab-oila hamkorligi konsepsiyasi“ va shu asosida Andijon shahri Maktab va „Mahalla va maktab hamkorligi“ Respublika ko'rik-tanlovi o'zining ijobiy natijasini berdi. Shunday hamkorlik „Kamolot“ va „Nuroni“ jamg'armalari bilan aniq shartnoma asosida, shuningdek, Ichki ishlar vazirligi, Respublika xotin-qizlar qo'mitasi, O'zbekiston xalq demokratik partiyasi va boshqa jamoat tashkilotlari bilan ham ma'lum darajada yo'lga qo'yilgan. Bu ishlarni joylarda yanada takomillashtirmog'imiz lozim. Jamiyatimizda o'tkazilayotgan islohotlar jarayoniga, komil insonni

tarbiyalashga har bir oila, har bir mahalla munosib ulushini qo'shishga qodir va bu hammamizning muqaddas burchimiz bo'lib qolmog'i lozim.

## ? *Savol va topshiriqlar*

1. Bola tarbiyasida ota-onaning burch va mas'uliyatini so'zlang.
2. Dono xalqimiz „Bola boshdan — nihol yoshdan“, „Bola aziz, odobi undan aziz“, „Erkalasa onasi, taltayadi bolasi“, „Qush uyasida ko'rganini qiladi“, kabi maqollar orqali ota-onalarga nimalarni uqtirmoqchi bo'ladi?
3. Oila baxti ko'p jihatdan ayolga bog'liq deyishadi. Buni Siz qanday tushunasiz? „Erni er qiladigan ham, qaro yer qiladigan ham xotin“ degan naql bor, xalqimiz bu bilan nima demoqchi?
4. Maktabni ota-onalar bilan hamkorligining qanday yo'l va vositalarini bilasiz?
5. „Mahalla —ota-onang“, „Bir bolaga yetti qo'shni ota-ona“ hikmatlarining ma'no-mazmunini yozma ravishda bayon eting.





## **XXX BOB. MAKTABDA SINFDAN TASHQARI OLIB BORILADIGAN TARBIYAVIY ISHLAR**

### **1. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning mohiyati.**

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ish — pedagogning o'qishdan tashqari vaqtda o'quvchilarning xilma-xil faoliyat turlarini tashkil etishdan iborat bo'lib, u bola shaxsining sotsiallasuvi uchun zarur sharoitlarni ta'minlaydi. Bunda avvalo maktabning pedagogik jarayonida sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning o'rmini aniqlab olish darkor.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ish xilma-xil faoliyat turlari majmuyidan iborat bo'ladi va u bolaga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda keng imkoniyatlarga ega.

Bu imkoniyatlarni qarab chiqamiz.

Birinchidan, xilma-xil o'qishdan tashqari faoliyat bolaning individual qobiliyatlarini har tomonlama ochib berishga imkon yaratadi. Vaholanki, uni darsda har doim ham uddalab bo'lmaydi.

Toshkent shahar maktablaridan birida I- sinfning archa bayramida archaga o'rnatilgan mayda lampochkalar marjoni yonmayotganligi ma'lum bo'ldi. O'qituvchi yordam izlab ketdi. Yuqori sinf o'quvchilaridan birini boshlab kelganida, archa chiroqlari yonib turardi. Uni I- sinf o'quvchisi — intizomsiz, betartib, ammo zehni o'tkir, darslarda bir joyda o'tirolmaydigan Karim tuzatgan edi. Shu tariqa o'qituvchi bolaning elektrotexnikaga qiziqishini bilib oldi va keyinchalik uning texnik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi vaziyatlarni yaratib turdi.

Xuddi shu sinfda, lekin ikkinchi o'quv yilida, „deyarli ikkinchi“ qiz hammani hayratga soldi. Piyozni o'toq qilishda u shunchalik tez va chaqqon ishladiki, o'rta va yuqori sinflardagi bolalarni ham orqada qoldirib ketdi. Endi unga o'taketgan dangasa deb qarab bo'lmasdi.

O'z maktab tajribangizdan shunga o'xshash misollarni eslab ko'ring. Shunda siz sinfdan tashqari ishlar bolalarning xulq-atvori, yurish-turish tarziga ijobiy ta'sir ko'rsatganligini ko'rasiz. Bundan tashqari, xilma-xil faoliyat turlari bolaning o'z-o'zini namoyon qilishiga, unda o'ziga ishonch paydo bo'lishiga, ya'ni o'zini o'zi ijobiy idrok qilishiga yordam beradi.

Ikkinchidan, turli xil sinfdan tashqari ishlarga jalb qilinishi

bolaning shaxsiy tajribasini, inson faoliyatining rang-barangligi haqidagi bilimlarini boyitadi, bola zaruriy amaliy ko'nikma va malakalar hosil qiladi. Masalan, „yashirin ustaxona“da ikkinchi sinf o'quvchilari o'qituvchi bilan birgalikda „kindersyurpriz“, plastmassa butilkalardan turli xil suvenirilar tayyorlaydilar. „Biz mehmonga boramiz“ deb nomlangan umumsinf mashg'ulotida esa sovg'alar berish, boshqalar haqida g'amxo'rlik qilishni o'rganadilar va hokazo.

Uchinchidan, turli xildagi sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar bolalarda xilma-xil faoliyat turlari bo'lgan qiziqishni rivojlantirishga, samarali, jamoatchilik tomonidan ma'qullanadigan ishlarda faol ishtirok etish istagini uyg'otishga yordam beradi. Agar bolada topshiriqlarni bajarishda uning muvaffaqiyatini ta'minlovchi muayyan amaliy ko'nikmalar bilan birga, mehnat qilishga qiziqish shakllangan bo'lsa, u o'zining shaxsiy faoliyatini mustaqil ravishda tashkil etishi mumkin. Bu esa bolalarning bo'sh vaqtlarida o'zlarini biror-bir foydali ish bilan band eta bilmaydigan hozirgi paytda ayniqsa dolzarbdir.

Shu narsa aniqlanganki, xilma-xil sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar yaxshi yo'lga qo'yilgan maktablarda tarbiyasi „qiyin“ bolalar kam, ammo ularning jamiyatga moslashishi „qo'shilib ketish“ darajasi yuqori.

To'rtinchidan, bolalar turli ko'rinishdagi sinfdan tashqari ishlarda ishtirok etib, o'zlarining individual xususiyatlarini namoyon etibgina qolmaydilar, balki jamoada yashashni, ya'ni bir-biri bilan hamkorlik qilish, o'z o'rtoqlari haqida qayg'urish, o'zini boshqa kishi o'rniga qo'yishni o'rganadilar. Shu bilan birga, sinfdan tashqari ishlarning har bir turi — ijodiy, bilishga qaratilgan, sport, mehnat, o'yin xarakterida bo'lib, o'quvchilarning muayyan yo'nalishdagi o'zaro hamkorlik tajribasini boyitadi.

Masalan, spektakl qo'yish vaqtida bolalar o'zaro hamkorlik tajribasini egallaydilar. Sinfni jamoa bo'lib yig'ishtirishda ular vazifalarini taqsimlash, bir-biri bilan kelishib olish ko'nikmalarini hosil qiladilar. Sport faoliyatida esa bolalar „bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun“ iborasi nimani anglatishini, o'zaro hamjihatlikni, „yonidagilarni sezishni“ o'rganadilar.

Shunday qilib, darsdagi tarbiyaviy ishlar bilan bog'liq holda olib boriladigan sinfdan tashqari ishlar o'qituvchi tarbiyaviy ishini mustaqil sohasidir.

## 2. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarining maqsadi va vazifalari

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar maktabdagi tarbiyaviy ishlarining tarkibiy qismi bo'lgani sababli, u tarbiyaning umumiy maqsadga erishishga — bolaning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan sotsial tajribani o'zlashtirib olishga va jamiyat tomonidan qabul qilinadigan qadriyatlar tizimining shakllanishiga qaratilgandir.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishning o'ziga xos xususiyati quyidagi vazifalarga muvofiq holda namoyon bo'ladi:

1. Bolada ijobiy „men“ konsepsiyasini tarkib toptirish. U uchta omillar: a) boshqa kishilarning unga nisbatan xayrixohlik bilan munosabatda bo'lishiga ishonch; b) o'zining u yoki bu faoliyat turini muvaffaqiyatli o'zlashtirib olishiga astoydil ishonganlik; d) o'zining muhim o'rnini his etish bilan xarakterlanadi. Ijobiy „men“ konsepsiyasi bolaning o'z-o'ziga nisbatan va o'ziga o'zi baho berishining obyektivligiga pozitiv munosabatini ifodalaydi. U boladagi o'ziga xos xususiyatlarning kelgusida rivojlanishi uchun asos hisoblanadi. Tarbiyasi „qiyin“ bolalar, odatda, o'zlari haqida salbiy tasavvurlarga ega bo'ladilar. Pedagog bu tasavvurlarni kuchaytirishi yoki o'zini va o'z qobiliyatlarini ijobiy idrok qilishi tomon o'zgartirishi mumkin. O'quv faoliyatida ko'pgina sabablarga ko'ra (o'quv faoliyatini bola uchun murakkabligi, sinfdan bolalar sonining ko'pligi, o'qituvchining kasbiy mahorati kamligi va boshqalar) har bir bolada ijobiy „men“ konsepsiyasini shakllantirishga muvaffaq bo'linmaydi. Sinfdan tashqari ishlar o'quv jarayoni cheklanishlarini bartaraf etish va bolaning o'zini pozitiv idrok qilishiga imkon beradi.

2. Bolalarda hamkorlik, jamoada bir-biriga yordam berish ko'nikmalarini shakllantirish. Tezroq ijtimoiy moslashish uchun bola faqat o'ziga emas, balki boshqa kishilarga ham ijobiy munosabatda bo'lishi kerak. Agar bolada ijobiy „men“ konsepsiyasi bo'lgan holda o'rtoqlari bilan kelisha olish, vazifalarni taqsimlash, boshqa kishilarning qiziqishi va istaklarini hisobga olish, birgalikdagi ishlarni bajarish, kerakli yordam ko'rsatish, mojarolarni haqqoniy hal etish, boshqalarning fikrini hurmat qilish malakalari shakllangan bo'lsa, uning katta bo'lgandagi mehnat faoliyati muvaffaqiyatli kechadi. Jamoa o'zaro hamkor bo'lgandagina ijobiy „men“ konsepsiyasi to'liq shakllanadi.

3. Bolalarda xilma-xil faoliyat turlari bilan tanishish orqali

samarali, ijtimoiy qo'llab-quvvatlanadigan faoliyatga ehtiyoj uyg'otish, bolaning individual xususiyatlariga muvofiq ularga qiziqish, zarur ko'nikma va malakalar tarkib toptirish. Boshqacha so'zlar bilan aytganda, sinfdan tashqari ishlarda bola foydali ishlar bilan shug'ullanishni o'rganishi, bunday faoliyatga kirishishi va uni mustaqil ravishda tashkil etishi kerak.

4. Bolalar dunyoqarashining axloqiy, emotsional, irodaviy komponentlarini tarkib toptirish. Sinfdan tashqari ishlarda bolalar axloqiy tushunchalarni o'zlashtirish orqali xulq-atvorning axloqiy normalarini ham bilib oladilar. Emotsional soha esa ijodiy faoliyatdagi estetik tasavvurlar orqali shakllanadi.

5. Bilishga bo'lgan qiziqishni oshirish. Sinfdan tashqari ishning mazkur vazifasida o'quv ishlari bilan sinfdan tashqari ishlarning vorisligi aks etadi. Chunki sinfdan tashqari ishlar darslardagi tarbiyaviy ish bilan bog'langan va pirovard natijada o'quv jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan. Sinfdan tashqari ishning yo'nalishlaridan biri sifatida bolalardagi bilishga bo'lgan qiziqishni oshirish, bir tomondan, o'quv jarayoniga „ishlaydi“, boshqa tomondan bolaga tarbiyaviy ta'sirni kuchaytiradi.

Yuqorida aytib o'tilgan vazifalar sinfdan tashqari ishlarning asosiy maqsadiga erishishda uning asosiy yo'nalishlarini aks ettiradi. Real tarbiyaviy ishda ular sinfning, pedagogning, umummaktab o'qishdan tashqari ishlarning xususiyatlariga muvofiq konkretlashtirilishi kerak.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning vazifasi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishning maqsadi va vazifalari bir-butun pedagogik jarayonning ta'lim berish, tarbiyalash va rivojlantirish jarayonlarining vazifalariga o'ziga xos xarakter kasb etadi.

Masalan, ta'lim berish funksiyasi o'quv faoliyatidagi kabi birinchi darajali ahamiyatga ega emas. Sinfdan tashqari ishda u ta'limning tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi vazifalarini samarali amalga oshirish uchun yordamchilik rolini bajaradi. Sinfdan tashqari ishning ta'lim berish vazifasi ilmiy bilimlar sistemasini, o'quv ko'nikma va malakalarni shakllantirishdangina iborat emas, balki bolalarni muayyan xulq-atvor malakalariga, jamoaviy hayotga, muomala ko'nikmalariga o'rgatishdan ham iborat.

Sinfdan tashqari ishda uning rivojlantiruvchi vazifasi katta ahamiyatga ega. U o'quvchining psixik jarayonlarini rivojlantirishga qaratilgandir. Bundan tashqari, sinfdan tashqari ishning rivojlantirish vazifasi o'quvchilarni tegishli faoliyatga jalb qilish orqali ularning individual qobiliyatlarini rivojlantirishdan ham iboratdir.



Masalan, artistlik qobiliyati bor bo'lgan bolani spektakl, bayram va hokazolarda ishtirok etishga jalb qilish mumkin. Matematik qobiliyati bor bolaga matematika olimpiadasida ishtirok etishni, muayyan vaqt ichida shahar bo'ylab sayr qilishning eng qiziqarli va xavfsiz yo'nalishini hisoblab chiqishni taklif etish mumkin. Shu bola bilan individual ishlashda pedagog unga bolalar uchun misol va masalalar tuzishni taklif etsa ham bo'ladi.

Sinfdan tashqari ishning rivojlantiruvchi funksiyasi bolaning yashirin qobiliyatlarini aniqlash, mayllari, qiziqishlarini rivojlantirishdan iborat. Pedagog bolaning biron-bir narsaga qiziqayotganligini sezsa, unga mana shu masalaga doir qo'shimcha qiziqarli axborotni aytishi, adabiyotlarni taklif etishi, o'quvchining qiziqishlari sohasidan topshiriqlar berishi, biror masala yuzasidan o'zining bilimdonligi uchun bolalar jamoasining tahsiniga sazovor bo'ladigan sharoit yaratishi mumkin. Bu bilan pedagog bolaga yangi imkoniyatlar ochib beradi va shu yo'l bilan uning qiziqishlarini mustahkamlaydi.

Konkret faoliyatga tayyorlanishda sinfdan tashqari ishning funksiyasi haqidagi axborotdan qanday foydalanish mumkin? Ijoiy natijalarga erishish uchun maqsadni ifodalash zarur. Aytaylik, siz bolalar bilan mehmonda o'zini tutish qoidalari haqida suhbat o'tkazmoqchisiz. Siz shunday maqsad qo'yasiz: bolalarga axloq qoidalari haqida bilim berish. Bu maqsad ta'lim berish funksiyasini amalga oshirishga qaratilgan va sinfdan tashqari ishda birinchi (asosiy) emas. Shuning uchun bolalar bilan bo'ladigan suhbatning maqsadini shunday ifodalash kerakki, u birinchilik funksiyalarini sinfdan tashqari ishning vazifalariga mos holda aks ettirsin, mehmonda o'zini tutish qoidalari haqidagi yangi bilimlarni ma'lum qilish esa shu suhbatning vazifalaridan biri bo'lsin. Bular quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: bolalarda mehmonga borganda muayyan qoidalarga rivoya qilish istagini uyg'otish; odob-axloq qoidalari bo'lgan qiziqishni oshirish; „axloq normasi“ tushunchasini shakllantirish va hokazo. Sinfdan tashqari ishning maqsadi, vazifasi, funksiyalari uning mazmunini tanlashga ta'sir etadi.

Sinfdan tashqari ishning mazmuni bolaning shaxsiy tajribasida his-hayajon bilan boshdan kechirgan va amalga oshirilgan inson hayotining xilma-xil jihatlari: fan, san'at, adabiyot, texnika, kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabat, axloq va hokazolarning soddalashtirilgan ijtimoiy tajribasidan iborat.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar mazmunining o'ziga xos xususiyati quyidagilar bilan ajralib turadi:

— birinchidan, emotsional tomonlarning ma'lumot tariqasidagi axborotdan ustunligi bilan (samarali tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun bolaning aql-idrokiga emas, balki uning his-tuyg'ulariga, kechinmalariga, to'g'rirog'i, his-tuyg'u orqali aql-idrokiga e'tibor berish talab etiladi);

— ikkinchidan, sinfdan tashqari ishlarning mazmunida bilimlarning amaliy jihati belgilovchi ahamiyatiga ega, ya'ni sinfdan tashqari ishning mazmuni xilma-xil malaka va ko'nikmalarni takomillashtirishga qaratilishi kerak.

Sinfdan tashqari ishlarda o'quv malakalari takomillashadi, axborot izlash, turli xil sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda mustaqil ishlash ko'nikmalari, kommunikativ malakalar, hamkorlik, axloq normalariga rioya qilish malakalari mashq qilinadi. Sinfdan tashqari ishlarning mazmunida nazariy jihatlariga qaraganda amaliy jihatlariga ko'proq ahamiyat berilar ekan, ularning mazmuniga bolalar faoliyati nuqtayi nazaridan qarash kerak.

Bolalarning sinfdan tashqari ishlardagi bilish faoliyati ularda bilishga qiziqishning ta'limda ijobiy motivatsiyalarni shakllantirish, o'quv malakalarini takomillashtirish uchun mo'ljallangan. U o'quv faoliyatining davomi hisoblanadi. Lekin unda boshqa shakllarda foydalaniladi. Bular „Nimachilar klubi“, „Qiziquvchilar turniri“, „Nima? Qayerda? Qachon?“, politexnika muzeyiga, ishlab chiqarishga ekskursiyalar, turli ko'rgazmalarga borish va hokazolar bo'lishi mumkin.

Ko'ngilochar ishlar bolalarning to'laqonli dam olishini tashkil etish, ijobiy emotsiyalar yaratish, jamoada iliq, do'stona muhit hosil qilish, asabiy zo'riqish holatini yo'qotish uchun zarurdir. Uning „O'yin shaharchasi“, „Ogonyok“, „Qiziqchilik“, diskoteka kabi shakllari samaralidir. Sinfdan tashqari ishda ko'pincha ana shu ikki jihat — bilish va ko'ngil ochish jihatlarini birlashtiriladi. Masalan, „Mo'jizalar maydoni“, „Qiziqarli ... (matematika, tarix, geografiya va h.k.), fantaziyachilar konkursi, viktorinalar, topishmoqlar kechasi va boshqalar. Bu jihatlarining qaysi biri ustunligini aniqlash uchun pedagogning konkret bir shaklda amalga oshirayotgan tarbiyaviy ishining maqsadi, vazifalarini tahlil qilish kerak.

Bolalarning sinfdan tashqari ishdagi sog'lomlashtirish-sport faoliyati ularning to'laqonli rivojlanishi uchun zarur. Chunki kichik maktab yoshidagi bolalarda, bir tomondan, harakatga ehtiyoj juda yuqoriligi kuzatilsa, boshqa tomondan, o'smirlik yoshida organizm ishidagi o'zgarishlar xarakteri kichik yoshdagi o'quvchi sog'ligining

holatiga bog'liq. Sport-sog'lomlashtirish faoliyati tabiatga uyush- tiriladigan ekskursiyalarda, sport o'yinlari va harakatli o'yinlarda, spartakiadalarda, yurishlarda va hokazolarda amalga oshiriladi.

Sinfdan tashqari ishlardagi mehnat faoliyati xilma-xil mehnat turlari: uy-ro'zg'or mehnati, qo'l mehnati, ijtimoiy foydali mehnat, xizmat ko'rsatish mehnati mazmunini aks ettiradi. Sinfdan tashqari ishlarda mehnat faoliyatini tashkil etish pedagog uchun muayyan qiyinchiliklar tug'diradi. Ammo uning sa'y-harakatlari o'quvchilarning sistemali mehnat faoliyati beradigan tarbiyaviy natijalar uchun arziydi.

Mazkur natijalar mehnat qilish ehtiyojining shakllanganligida, o'zini biror narsa bilan mashg'ul qila olishida namoyon bo'ladi. Mehnatsevarlik, mehnat ko'nikma va malakalari „Qorbobo usta-xonasida“ „Nina va ip“, „Shpantik va vintik“, „Kitob kasalxo-nasi“ to'garaklarida, sinfning ta'mirlash ustaxonasida, muntazam ravishda ozodalik kunlarini o'tkazishda shakllanib boradi. Sinfdan tashqari ishlarda darsga, o'yinlarga ko'rgazmali qurollar tayyorlashni, otaliq ishlarini, o'z shahrini obodonlashtirish ishlarini tashkil etish mumkin.

Ijodiy faoliyat bolalarning qobiliyatlarini, qiziqishlarini rivojlantirishni, ularning ijodiy imkoniyatlarini ochilishini nazarda tutadi. Ijodiy faoliyat ommaviy tadbirkorlarning konsert, qo'shiq, badiiy o'qish, rasm konkurslari, teatr, dizayn-klub kabi shakllarida aks etadi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan faoliyat turlari oldida o'quvchi dunyoqarashining axloqiy, emotsional va irodaviy komponentlarini shakllantirish vazifasi turadi.

Axloqiy soha axloqiy tushunchalar bilan tanishish hamda suhbat, munozara, o'yin mashg'ulotlari va boshqa shakllarda axloq- odob normalarini o'zlashtirish orqali shakllanadi.

Iqtisodiy, ekologik qarashlar va e'tiqod o'quvchilar dunyo- qarashining muhim tarkibiy qismlari sifatida namoyon bo'ladi. Ular „Iqtisodiyot maktabi“, „Iqtisodiyot nima?“, „Shahardagi daraxt“ operatsiyasi“ mavzularidagi suhbatlarda, „O'rmon xodimi huzuriga mehmonga“ ekologik ekspeditsiyasida, „Uyda biz yaxshi ko'radigan jonivorlar“ suhbatida, teatrlarga borish, kinofilm va multfilmlarni muhokama qilish kabi shakllardan foydalanishda tarkib topadi.

Sinfdan tashqari ishlarning mazmuni hamma maktablarda ham bir xilda emas. Unga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

1. Maktabning an'analari va o'ziga xos xususiyati. Masalan, agar

maktabda ta'lim birinchi o'rinda tursa, sinfdan tashqari tarbiyaviy ishda bilishga qaratilgan tadbirlarga ko'proq o'rin beriladi. Diniy muassasa (idora) homiyligidagi maktabda sinfdan tashqari ishlar tegishlicha diniy-axloqiy tushunchalarni o'z ichiga oladi. Ekologik tarbiya tegishli yo'nalishdagi maktabda ustuvorlik qiladi va hokazo.

2. Bolalar yoshining, sinfning o'ziga xos xususiyatlari.

3. O'qituvchining, uning qiziqishlari, mayllari, ko'rsatmalarining o'ziga xosligi. Agar o'qituvchi bolalarni o'qitishda yuqori natijalarga erishishga harakat qilsa, u sinfdan tashqari ishlarda ham shu maqsadga erishishga yordam beradigan ishlarni tanlaydi. Boshqa pedagog uchun ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsini tarkib toptirish muhimroq, shuning uchun u sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilarning mehnat va ijodiy faoliyatini afzal ko'radi. Sportni sevadigan pedagog esa sog'lomlashtirish-sport ishlarini tashkil etish orqali o'quvchilarga ta'sir ko'rsatishga harakat qiladi.

Sinfdan tashqari ishning shakllari — bu uning mazmuni amalga oshiriladigan sharoitlardir. Sinfdan tashqari ishlarning shakllari juda ham rang-barang. Bu rang-baranglik ularni tasniflashda qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Shu sababli yagona tasnif yo'q. Ularni ta'sir ko'rsatish obyekti bo'yicha (individual, guruhiy, ommaviy shakllar) hamda tarbiyaning yo'nalishi, vazifalari (estetik, jismoniy, axloqiy, aqliy tarbiya, mehnat tarbiyasi, ekologik va iqtisodiy tarbiya) bo'yicha tasniflash taklif etilgan.

Maktabda olib boriladigan sinfdan tashqari ishlarning ba'zi shakllari, o'z xususiyatiga ko'ra, bolalar orasida ommalashib ketgan, adabiyotlardan olingan. Masalan, „Temurchilar, otaliq ishlari“, KVN, „Nima? Qayerda? Qachon?“, „Kuyini top“, „Mo'jizalar maydoni“, „Ogonyok“ va boshqalar.

Sinfdan tashqari ishlar shaklini tanlaganda uning tarbiyaviy ahamiyatini shu ishning maqsadi, vazifalari nuqtayi nazaridan baholash kerak.

Sinfdan tashqari ishlarning metodlari va vositalari tarbiya metodlari hamda vositalaridan iboratdir. Ularni tanlash sinfdan tashqari ishning mazmuni, shakli bilan belgilanadi. Masalan, pedagog bolalarning bilishga bo'lgan qiziqishlarini, ong-bilim doirasini kengaytirishga qaratilgan va „Inson va fazo“ deb nomlangan sinf mashg'ulotini tanladi deylik. Shunda u quyidagi metodlardan foydalanishi mumkin: bolalar bilan suhbat (ularning qiziqishlari, mazkur masala yuzasidan xabardorligini aniqlash maqsadida); bolalarga axborot tayyorlash bo'yicha topshiriq (o'ziga xos hikoya metodi); o'yin metodi turli variantlarda qo'llaniladi

(sujetli rollarga bo‘lib o‘ynaladigan o‘yin elementlari — bunda maxsus o‘yin anjomlari yordamida bolalardan biri „kosmos“ga yuboriladi va undan ko‘rayotganlarini tavsiflash so‘raladi); „parvoz rejasi“ni tuzish — bunda bolalar kosmonavtlar bajaradigan ish turlarini aytib o‘tadilar; uzoq sayyoralarda qoldirilgan sirli xatlarni rasshifrovka qilish va hokazo.

Quyidagilar esa bu sinf mashg‘ulotining vositalari sifatida namoyon bo‘ladi: sinfning bezatilishi (yulduzli osmon xaritasi, kosmonavtlarning portretlari, kosmosdan olingan fotosuratlar); musiqiy bezak („kosmik musiqa“); kosmonavtlarning bir-birlari bilan gaplashgani yozilgan lentalar, kosmik kemaning uchirilishi; o‘yin anjomlari, Quyosh sistemasi sxemasi, videomateriallar, „begona sayyoraning nomalari“, bolalarga tavsiya qilinadigan kosmos haqidagi kitoblar.

Shunday qilib, sinfdan tashqari ishning mohiyatini uning imkoniyatlari, maqsadi, vazifasi, mazmuni, shakllari, metodlari hamda vositalari orqali qarab chiqilgandan keyin bu ishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash mumkin:

1. Sinfdan tashqari ishlar bolalar faoliyatining xilma-xil turlari majmuyidan iborat. Bu ishlarni o‘qitish davomida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ta’sirlar bilan birgalikda tashkil etilishi bolaning shaxsiy sifatlarini tarkib toptiradi.

2. Vaqt jihatidan orqaga surilganlik. Sinfdan tashqari ish — bu avval katta va kichik ishlar majmuyidan iborat bo‘lib, uning natijalari vaqt jihatidan orqaga surilgan bo‘ladi, har doim ham pedagog tomonidan kuzatilmaydi.

3. Qat’iy reglamentga solishning iloji yo‘qligi. Pedagog sinfdan tashqari ishning mazmuni, shakli, vositalari, metodlarini tanlashda dars o‘tish paytidagiga qaraganda keng tanlash imkoniyatiga ega. Bir tomondan, bu pedagogga shaxsiy qarashlari va e’tiqodiga muvofiq ish ko‘rish imkonini beradi. Ikkinchi tomondan, pedagogning tanlagan usuli uchun shaxsiy mas’uliyati ortadi. Bundan tashqari, qat’iy reglamentning yo‘qligi o‘qituvchidan tashabbuskorlikni talab etadi.

4. Sinfdan tashqari ishning natijalari uchun nazoratning yo‘qligi. Agar o‘quvchining o‘quv materialini o‘zlashtirib olish jarayonini nazorat qilish darsning asosiy elementi bo‘lsa, sinfdan tashqari ishda bunday nazorat yo‘q. U (ya’ni nazorat) natijalarning keyinga qoldirilishi mumkin bo‘lgani uchun ham bo‘lmaydi. Tarbiyaviy ish natijalari o‘quvchilarni turli vaziyatlarda kuzatish orqali tajriba yo‘li bilan aniqlanadi. Mazkur ishning natijalarini

maktab psixologi maxsus vositalar yordamida ancha obyektiv baholashi mumkin.

Odatda, umumiy natijalar, shaxsiy sifatlarning rivojlanganlik darajasi bilan baholanadi. Aniq bir shaklning samaradorligini aniqlash juda qiyin va ba'zan mumkin ham emas. Ana shu xususiyat pedagogga afzalliklar beradi: ancha tabiiy sharoit, muomalaning norasmiyligi hamda natijalarning baholanishi bilan bog'liq bo'lgan o'quvchilardagi zo'riqishning yo'qligi.

5. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar tanaffus vaqtida, darslardan keyin, bayram va yakshanba kunlari, ta'tillarda, ya'ni o'qishdan tashqari vaqtda o'tkaziladi.

6. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar ota-onalar va katta yoshdagi kishilarning sotsial tajribalarini jalb qilish uchun keng imkoniyatlarga ega.

Sinfdan tashqari ishlarga qo'yiladigan talablar. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ular oldiga qo'yiladigan belgilovchi talablarni aytib o'tamiz.

1. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazishda albatta maqsad qo'yilishi kerak. Maqsadning bo'lmasligi rasmiyatchilikni keltirib chiqaradi. Bu esa pedagog bilan bolalar o'rtasidagi munosabatni buzadi. Buning natijasida tarbiyaning samaradorligi nolga tenglashib qolishi yoki salbiy natijalarga ega bo'lishi mumkin.

2. Tarbiyaviy ishlar boshlanishidan oldin kutilayotgan natijalarni aniqlash zarur. Bu vazifalarni shunday ifodalashga yordam beradiki, natijada ular umumiy maqsadga erishishga — bolaning ijtimoiy tajribani o'zlashtirib olishi va qadriyatlarining ijobiy tizimi shakllanishiga yordam beradi.

3. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarga optimistik yondashuv, har bir boladagi yaxshi jihatlarga tayanish zarur. Tarbiyaviy ishlarning natijasi keyinga qoldirilgan ekan, pedagogda doimo ijobiy umumiy natijaga erishish imkoniyati bo'ladi. Agar bunda bola pedagogning yordamida o'z kuchiga ishonsa va yaxshi bo'lishni istasagina bo'lishi mumkin.

4. Tashkilotchi-pedagog yuksak shaxsiy sifatlarga ega bo'lishi kerak. Sinfdan tashqari ishda pedagogning bolalar bilan aloqasi katta rol o'ynaydi. Agar pedagogda muayyan darajadagi shaxsiy fazilatlar bo'lmasa, bunday aloqani o'rnatib bo'lmaydi. Sinfdan tashqari ishda bolalar avvalo pedagogni shaxs sifatida baholaydilar va munofiqlik, ikkiyuzlamachilik, kishilarga beg'araz qiziqishning yo'qligini hech qachon kechirmaydilar.

5. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda pedagog

doimo ijodiy izlanishda bo'lishi, sinfda yuzaga kelgan vaziyatlarga javob beradigan shakllar tanlashi va yaratishi lozim. Pedagogning ijodkortligi sinfdan tashqari ishlarning samarali bo'lishi uchun zaruriy shartdir.

**Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish.** Mazkur talablar amaliy faoliyatda ro'yobga chiqarilgan bo'lishi uchun bu ishlarni tashkil etishning muayyan izchilligini tavsiya etamiz. U individual ishda ham, ommaviy ishlarda ham foydalanilishi mumkin.

1. Tarbiyaviy vazifalarni o'rganish va qo'yish. Mazkur bosqich o'quvchilarning va sinf jamoasining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga qaratiladi. Bundan maqsad bolalarga samarali tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish va sinfda qaror topgan vaziyat uchun eng dolzarb tarbiyaviy vazifalarni aniqlashdan iborat.

Bosqichdan ko'zda tutilgan maqsad pedagogik reallikni obyektiv baholash, undagi ijobiy jihatlar (boladagi, jamoadagi eng yaxshi tomonlar)ni hamda nimalarni tuzatish, shakllantirish va eng muhim vazifalarni aniqlashdan iborat.

O'rganish ishlari pedagogik tadqiqotlarda ma'lum bo'lgan metodlar yordamida (ularning ichida hozirda kuzatish eng asosiydir) amalga oshiriladi. Kuzatish yordamida pedagog har bir bola va umuman jamoa to'g'risida axborot to'playdi. Suhbat axborot to'plovchi metoddir. Bunda suhbat faqat bola va sinf bilan emas, balki ota-onalar, sinfda ishlovchi boshqa o'qituvchilar bilan ham o'tkaziladi. Maktab psixologi bilan bo'ladigan suhbat alohida ahamiyatga ega, chunki u pedagogning tasavvurlarini kengaytiribgina qolmay, balki professional takliflar ham beradi.

Individual ishda bolaning faoliyati mahsulotlari: rasmlar, mayda-chuyda buyumlar, she'r, hikoya va hokazolar katta ahamiyatga ega.

Jamoani o'rganishda sotsiometriya metodi axborot berish jihatidan ustun turadi. Uning yordamida pedagog sinfdagi mashhur va nomi chiqmagan bolalar, unda kichik guruhlarning bor-yo'qligi, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar xarakteri haqida ko'p narsa bilib oladi.

2. Bo'lajak sinfdan tashqari tarbiyaviy ishni modellashtirish shundan iboratki, pedagog o'z xayolida muayyan shakl obrazini yaratadi. Bunda sinfdan tashqari ishning maqsadi, umumiy vazifalari mo'ljal sifatida foydalanilishi kerak. Masalan, sinfda bolalarga aralashmaydigan, pedagog va bolalar bilan aloqaga kirishmaydigan, odamovi o'quvchi bor deylik. Umumiy maqsad — kirishimlik, odamga el bo'lishlik sifatlarini tarbiyalash bo'lsin. Faraz qilaylik, shu bola

shaxsini o'rganish bizga unda o'z-o'ziga baho berishning pastligi va ortiqcha xavotirlanish borligini ko'rsatdi. Konkret maqsad — o'z-o'ziga baho berishni oshirish, xavotirlanish holatini yo'qotish, ya'ni ijobiy „Men“ konsepsiyasini shakllantirish. I- sinf bolalari xayrixoh, yoqimtoy, lekin bilimga intiluvchan emas. Sinfdan tashqari ishning umumiy maqsadi — bilishga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish, asosiy vazifa — rivojlantirish, konkret maqsad — bolalarning ong-bilim doirasini kengaytirish, bilish faolligini shakllantirish.

Sinfdan tashqari ishning maqsadi, vazifalari hamda sinf va bolalarni o'rganish natijalariga muvofiq ravishda uning mazmuni, shakllari, metodlari, vositalari tanlanadi.

3. Modelning amalda ro'yobga chiqarilishi o'ylangan tarbiyaviy ishlarning real pedagogik jarayonda amalga oshirilishiga qaratilgan.

4. Qilingan ishlarning tahlili modelni real hayotda joriy etilishi bilan taqqoslash, muvaffaqiyatli chiqqan va muammoli daqiqalarni, ularning sababi va oqibatlarini aniqlashga qaratilgan. Kelgusidagi tarbiyaviy ishlar uchun vazifalarni belgilash elementi juda muhimdir. Mazkur bosqich tarbiyaviy vazifalar, ularning mazmuni, shakllariga tuzatishlar kiritish va keyingi sinfdan tashqari ishlarni rejalashtirish uchun juda muhimdir.

### **3. Individual sinfdan tashqari ishlarning shakllari.**

Individual sinfdan tashqari tarbiyaviy ishning umumiy maqsadi — shaxsning to'laqonli rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish bolada ijobiy „men“ konsepsiyasini shakllantirish hamda uning shaxsidagi xilma-xil tomonlarni, individual imkoniyatlarini rivojlantirishdan iboratdir.

Individual ishning mohiyati bolani umumlashtirish, unda o'z-o'zini takomillashtirish, o'z-o'zini tarbiyalash ehtiyojini shakllantirishdan iborat. Individual ishning samaradorligi oldiga qo'yilgan maqsadga muvofiq ish shaklini aniq tanlashgagina emas, balki bolani ma'lum bir faoliyat turiga jalb qilishga ham bog'liq.

Haqiqatda individual ish bolaning adabini berib qo'yish, unga tanbeh berish, uni koyishdan iborat bo'lgan vaziyatlarni tez-tez uchratish mumkin.

Bola bilan olib boriladigan individual ish pedagogdan kuzatuvchanlikni, nazokatni, ehtiyotkorlikni, sermulohazalikni talab etadi. Uning samaradorligida pedagog bilan bola o'rtasida aloqa o'rnatilishi asosiy shartlardandir. Quyidagi shartlarga rioya qilingandagina bularga erishish mumkin:



1. Bolani — uning tuyg'ulari, kechinmalari, istaklarini to'la qabul qilish. Bolalar muammolari (arzimas bo'lsa ham) yo'q. Bolalarning his-tuyg'ulari kechinmalar kechishi kuchiga ko'ra, kattalarning tuyg'ularidan qolishmaydi. Bundan tashqari, yosh xususiyatlariga — g'ayriixtiyoriylik, shaxsiy tajribaning yetishmasligi, irodaning kuchsizligi, his-tuyg'ularning aql-idrokdan ustun kelishiga ko'ra bolaning kechinmalari alohida keskinlik kasb etadi va uning kelgusi taqdiriga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchining o'quvchini tushunishi va qabul qilishini ko'rsatishi juda muhimdir. Bu o'qituvchi bolaning xatti-harakati va ishlarini ma'qullaydi degan gap emas. Qabul qilish hech mahal bolaning fikrlariga qo'shilishni bildirmaydi.

2. Tanlash erkinligi. O'qituvchi har qanday yo'llar bilan muayyan natijaga erishishga intilmasligi kerak. Tarbiyada „Maqsad vositalarni oqlaydi“ degan shior mutlaqo o'ransizdir. O'qituvchi hech qachon bolani majbur qilmasligi, biror-bir narsani bo'yniga olishga zo'rlashi kerak emas. Har qanday tazyiq istisno qilinadi. O'qituvchi shuni yodda tutishi kerakki, bola shaxsiy qaror qabul qilish uchun to'la haqlidir, hatto bu pedagog nuqtayi nazaridan noto'g'ri bo'lsa ham.

Pedagogning vazifasi — bolani o'qituvchi taklif qilgan qarorni qabul qilishga majburlash emas, balki to'g'ri tanlash uchun barcha sharoitlar yaratishdir. Birinchi navbatda, bola bilan aloqa o'rnatish haqida o'ylaydigan, uni tushunishni xohlaydigan, bolada mustaqil qaror qabul qilish huquqi bor deb o'ylaydigan pedagog, faqat vaqtinchalik natija va tashqi xotirjamlik haqida tashvishlanadigan o'qituvchiga qaraganda muvaffaqiyat qozonish uchun ko'proq imkoniyatlarga ega:

3. Bolaning ichki ahvolini tushunish o'qituvchidan bola yuboradigan noverbal axborotni o'qiy bilishni talab etadi. Bu o'rinda pedagogning bolada ko'rishni istaydigan, lekin ular bolaga emas, balki o'qituvchining o'ziga xos bo'lgan salbiy sifatlarni bolada bor deb tushunish xavfi yashiringan bo'ladi. Insonning bunday xususiyati proyeksiya deb ataladi. Proyeksiyani yengib o'tish uchun pedagog o'zida empatiya — boshqa kishining ichki dunyosini tushunish, kongruentlik — o'zi bilan o'zi bo'la olish, xayrixohlik va samimiylik kabi sifatlarni rivojlantirishi kerak.

Mazkur shartlarga rioya qilmaslik pedagog va bolaning muomalasida psixologik to'siqlar paydo bo'lishiga olib keladi. Bu to'siqlarning ta'sirini quyidagi misolda qarab chiqamiz.

Tasavvur qiling, tanaffus paytida oldingizga yig'layotgan yetti yoshli Umida keladi-da: „Dilnoza men bilan do'stlashishni istamayapti“, — deydi.

Hamkasb, sizning birinchi so'zlaringiz nima bo'ladi? Ehtimol, sizlardan kimdir: „Nima qildi, nimaga u do'stlashishni xohlamayapti?“ — deb so'rashni taklif etar, kimdir boshqa do'st topishni taklif etar, yana kimdir Umidani chalg'itishga urinib ko'rar. Ana shular muomaladagi to'siqlardir. Chunki mana shu va quyida biz tavsiflaydigan xatti-harakatlar bolaning yig'isini to'xtatishga qaratilgan. Ular haqiqatda bolaning pedagogdan kutayotgan narsasiga mos emas.

To'siqlarning og'zaki ifodasini taklif etamiz.

So'zlar bilan yupatish: „Tinchlan, yig'lama, hammasi yaxshi bo'ladi.“

So'rab bilish: „Nima uchun Dilnoza sen bilan do'stlashishni xohlamayapti? Nima bo'ldi? Urishdilaringizmi? Sen uni xafa qildingmi?“ va hokazo.

Maslahat: „Yig'lashni bas qil, Dilnozaning oldiga yana bir bor-da, nima uchun sen bilan do'stlashishni istamayotganligini bil, o'zingga boshqa dugona qidir“ va hokazo.

Muammodan qochish: „Kel, sen bilan hozir o'ynaymiz, ... qilamiz va hokazo“ (bolaning ko'z yoshlarini inkor etish).

Buyruq: „Hoziroq yig'ini to'xtat! Qani o'kirishni bas qil, eshityapsanmi, men senga nima deyapman?!“

Pand-nasihat: „Ahil o'ynash kerak, shikoyat qilma, yaxshi qizlar urishishmaydi, ular do'stlashishni biladilar va o'z qiyinchiliklarini o'zlari hal etadilar, yaxshi qizlar hech qachon...“ va hokazo.

Faraz: „Ehtimol... Agar Dilnoza sen bilan do'stlashishni istamas ekan, balki uni xafa qilgandirsan?“

Ayblash: „Modorni u sen bilan do'stlashishni istamas ekan o'zing aybdorsan“.

Bolaning tuyg'ularini inkor etish: „Yig'lama, xafa bo'lma, arzimagan narsa uchun tashvish tortish yaramaydi, buni qaranga, Dilnoza do'stlashishni xohlasmish!“

Tanqid: „To'g'ri-da, bunday yig'loqi qiz bilan hech kim dugona bo'lmaydi“.

Bunday vaziyatda nima qilish kerak?

Bu savolga javob berish uchun o'zingizning boshingizdan o'tgan shunga o'xshash holatni, ya'ni yaqin kishingizdan iztirob chekkan, qayg'uga botgan va shunday kechinmalar bilan boshqa

yaqin kishining oldiga borgan paytingizni eslang. Nima uchun boriladi? O'z kechinmalarini ishonib aytgan kishidan, odatda, nimani kutadilar? Ularni tushunishnimi?

4. „Tinglash“ va „eshitish“ degani nima? Eshitish qobiliyati fiziologik hodisa bo'lib, unda tovushlar ixtiyorsiz ravishda idrok qilinadi. Tinglash — irodaviy hodisa, u kishidan muayyan irodaviy zo'r berishni talab etadi.

Tinglash aktiv jarayon. Shuning uchun muomala psixologiyasida „faol tinglash“ degan tushuncha bor. U ikki xil bo'ladi: refleksiv va norefleksiv.

Norefleksiv tinglash hikoya qiluvchi juda kuchli salbiy (ranj-alam, qayg'u, tajovuzkorlik va h.k.) yoki ijobiy (muhabbat, quvonch, baxt va h.k.) his-tuyg'ularni boshdan kechirayotgan va uni tushunadigan tinglovchiga ehtiyoj sezayotgan taqdirda qo'llaniladi.

Suhbatdoshini tushunadigan tinglovchidan quyidagilar talab etiladi:

1. Hikoya qiluvchini diqqat bilan tinglayotgani va uni tushunishga harakat qilishini o'zining butun ko'rinishi bilan unga namoyish etish.

2. Luqma tashlab va o'zi haqidagi hikoyalar bilan uning gapini bo'lmaslik.

3. Hech qanday baho bermaslik.

4. Baho berib, aytiladigan fikr-mulohazalarni hikoya qiluvchining tuyg'ularini noverbal va verbal aks ettirish, ya'ni mimika, imo-ishora bilan almashtirish, go'yoki uning his-tuyg'ulari ko'zgusi rolini bajarish yoki „Ha, sen hozir juda..., biroz... (boshdan kechirayotgan tuyg'ularning darajasiga qarab) xafa bo'lgansan, ranjigansan, quvnoqsan, baxtlisan“ qabilidagi so'zlar bilan hikoya qiluvchining emotsional holatini berish.

5. Agar maslahatlarga ehtiyoj sezmayotgan bo'lsa, maslahat bermaslik.

Refleksiv tinglash ishlab chiqarish masalalarini muhokama qilishda, munozarali vaziyatlarda zarur. Chunki, u ixtiloflarning, kishilarning bir-birini tushunmasligining oldini oladi.

Refleksiv tinglash o'zining „ikki qulog'im sizda“ kabi ko'rsatmasi bilan norefleksiv tinglashga o'xshash, ammo alohida usullari bilan ajralib turadi: aniqlash, oydinlashtirish — „...da uchra-shamiz“, „Nimani nazarda tutyapsiz?“, „Tushunmadim, yana bir bor tushuntiring“, boshqacha ifodalash — „Boshqacha so'zlar bilan ... deb aytish mumkin“, „Shunday qilib, ... deb hisoblaysizmi?“

va hokazo. Bu usullar suhbatdoshining fikrlarini idrok qilishda xatolarning, tushunmovchiliklarning oldini olishga qaratilgandir.

Faol tinglash — pedagog bilan bolaning aloqalaridagi to'siqlarni bartaraf etishning asosiy yo'li. Sharq donoligida: „Xudoning gapirish uchun bir a'zo, tinglash uchun ikki a'zo berishi bejiz emas“ degan naql bor.

Sinfdan tashqari individual tarbiyaviy ishda rejalashtirilgan komponent bilan bir qatorda, o'z-o'zidan yuz beradigan, pedagogik vaziyat deb ataladigan, pedagog kasbining mahorat darajasi indikatorini hisoblangan vaziyatlar ham mavjud.

Pedagogik vaziyatlarni hal etish algoritmi. G'ayritabiiy sharoitda bolaga samarali tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish maqsadida biz pedagogik vaziyatni hal etish algoritmini tavsiya etamiz. Bu, bir tomondan, tarbiyaviy samaraga erishishga, ikkinchi tomondan, bolalar bilan kattalar o'rtasida aloqa munosabatlarini mustahkamlashga qaratilgan izchil harakatlar majmuyidir. Algoritmni muntazam ravishda qo'llash tarbiyaviy jarayonni maqsadli, izchil va insoniy bo'lishini ta'minlaydi, pedagogik xatolarning oldini oladi va bolani yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Pedagogik vaziyatlarni hal etish algoritmini qo'llashni ko'proq ishini endi boshlayotgan pedagoglarga tavsiya etamiz.

Algoritmning qo'llanilishini misolda ko'rib chiqamiz.

II sinfdan „Mening sevimli shahrim“ mavzusidagi sinfdan tashqari mashg'ulot. Suhbat vaqtida pedagog Nodir degan bola chiroyli qalamtarosh bilan stolga o'z nomini o'yib yozayotganligini sezib qoldi.

Birinchi bosqich (shartli ravishda „Stop! — To'xta!“ deb ataladi) o'qituvchining vaziyatni baholash va shaxsiy his-tuyg'ularini anglab yetishga qaratilgan. Bu bosqich pala-partish harakatlar bilan bolaga zarar yetkazmaslik va u bilan bo'ladigan munosabatlarini murakkablashtirmaslik uchun zarur. Vaziyat bola va tevarak-atrofdagilar hayoti va salomatligi uchun xavf tug'dirayotgan vaqtdagina tez va qat'iy ish ko'rish lozim. Lekin bunday vaziyatlar ko'p ham uchrayvermaydi, shuning uchun qolgan boshqa holatlarda, biroz pauzadan foydalanib, o'zidan: „Men hozir nimani his qilyapman? Men hozir nimani istayman? Men nima qilyapman?“, — deb so'rash tavsiya etiladi, shundan so'ng ikkinchi bosqichga o'tish mumkin.

Ikkinchi bosqich pedagogning o'z-o'ziga „Nima uchun?“ deb beradigan savolidan boshlanadi. Mazkur bosqichning mohiyati

bolaning xatti-harakati, qilgan ishlari sababini tahlil qilishdan iborat. Bu juda muhim bosqich, chunki aynan shu sabablar pedagogik ta'sir vositalarini belgilab beradi. Har bir sabab alohida yondashuvni talab etadi.

Masalan, o'quvchi zerikayotganligi uchun ham partani kesishi mumkin, pichoqchani sinab ko'rmoqchi bo'layotgani, tevarak-atrofdagilarning uni tan olishlarini istayotgani-yu, lekin o'zini qanday nomoyon etishni bilmayotgani uchun ham partani kesishi mumkin, u, shuningdek, o'qituvchiga „qasddan“ ham partani buzishi mumkin.

Bolaning xatti-harakati sabablarini to'g'ri aniqlash va „Nima uchun?“ degan savolga aniq javob berish uchun pedagog noverbal tushunish malakasiga ega bo'lishi kerak.

Agar o'quvchi partani o'qituvchiga „qasddan“ kesayotgan bo'lganda, o'z niyatini oshkor ko'rsatar edi.

Agar o'quvchi partani zerikkanidan kesganida edi, uning qiyofasida diqqatnamo ko'rinish sezilardi va u, ehtimol, pichoqning o'rniga ruchka yoki qalamdan foydalanib, ma'nosiz naqshlar chizib o'tirar edi.

Agar u pichoqni sinab ko'rmoqchi bo'lganida, buni u birovga bildirmasdan, parta ostida, o'zini namunali o'quvchi qilib ko'rsatishga uringan holda bajarardi va hokazo.

O'quvchining diqqat bilan o'tirishi (tirishib ishlayotganidan og'zi ochilgan, o'qituvchining yaqinlashganini sezmaydi) uning o'z xatti-harakatini namoyish etmasligini bildiradi. Bolaning hafsala bilan partaga o'z nomini yozishi u tevarak-atrofdagilarning o'zini tan olmayotganini his qilayotgani, o'zini nomayon qila bilmasligi tufayli deb taxmin qilish mumkin. Balki mazkur aniq holatda sinfdagi o'zining sotsial mavqeyidan qanoatlanmaslik o'quvchining o'zini shunday tutishiga sabab bo'lgandir. „Nima uchun?“ degan savolga umumiy tarzda javob berib, algoritmning uchinchi bosqichiga kirishish mumkin.

Uchinchi bosqich pedagogik maqsad qo'yishdan iborat bo'lib, „nima?“ degan savol ko'rinishida ifodalinishi mumkin: „Pedagogik ta'sir ko'rsatishim natijasida nimalarga erishishni xohlayman?“ Gap nojo'ya xatti-harakatlarga taalluqli bo'lganda, har bir pedagog bolaning nojo'ya harakatini to'xtatishni va boshqa hech mahal bunday qilmasligini istaydi. Lekin bola o'z ishi uchun qo'rquv emas, balki xijolat, uyalish hissini namoyon qilgandagina bunga erishish mumkin. Odatda, o'qituvchi o'zining pedagogik ta'sirini

bolaning qo'rquv hissi asosiga quradi, bu ijobiy, lekin uzoq davom etmaydigan samara beradi. Chunki bunday holatni saqlab turish uchun tobora qo'rqituvchi tadbirlar talab etiladi.

Bunday holatdan chiqish va bolada qo'rquv emas, balki uyalish, xijolat chekish hissini uyg'otish uchun nima qilish kerak. Agar pedagogik ta'sir bolaning o'ziga emas, balki uning qilgan ishiga, xatti-harakatiga qaratilgan bo'lsa, uyalish samara berishi mumkin. Agar bola o'zining yaxshiligini, lekin o'sha safar juda yomon ish qilganligini aniq anglab yetgan bo'lsa, unda or-nomus, uyalish hissi orqali haqiqatan ham boshqa hech qachon bunday qilmaslik istagi paydo bo'ladi. Shuning uchun o'z oldingizga pedagogik maqsad qo'yganda bolaga siz uni qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilishingizni, uni tushunishingizni, lekin ayni vaqtda uning xatti-harakatini ma'qullamasligingizni, chunki ular shunday ajoyib bola uchun munosib emasligini ko'rsatishingiz lozim. Bunday yondashuv, bolani kamsitmagan va qadrini yerga urmagan holda, unda ijobiy xulq-atvor, tuyg'ular uyg'otishga qodir.

To'rtinchi bosqich oldiga qo'yilgan pedagogik maqsadga erishish uchun eng qulay vositalarni tanlashdan iborat bo'ladi va „Qanday qilib istalgan natijaga erishish mumkin?“, degan savolga javob beradi. O'qituvchi pedagogik ta'sir ko'rsatishdan ko'zlangan natijaga erishish usullari, vositalarini o'ylab ko'rayotganida, bolaga tanlash erkinligini berishi kerak. Zero, bola pedagog istaganidek yo'l tutishi mumkin, balki uning teskarisini qilar... Pedagogning mahorati bolani qanday xatti-harakat qilish, ish tutish kerakligiga majbur qilishda emas, balki to'g'ri yo'lni tanlashi uchun shart-sharoitlar yarata bilishida namoyon bo'ladi.

Mahoratli pedagog har qanday vaziyatdan chiqishning yo'llari ko'pligini biladi. Shu sababli u bolaga bir necha variantlarni taklif etishi, ammo eng ma'qul variantni ta'sirli qilib ko'rsatishi va bu bilan bolaga to'g'ri yo'lni tanlashiga yordam berishi mumkin.

Mohir pedagog qo'rqitish, jazo berish, piching qilish, yomon xulqi haqida kundalikka yozib qo'yish, ota-onalarga arz qilishdan o'zini tiyishga harakat qilib, xilma-xil pedagogik vositalardan foydalanadi. Chunki pedagogik ta'sir ko'rsatishning yuqorida aytib o'tilgan usullari samarasiz bo'lib, pedagog kasbiy mahoratining pastligidan dalolat beradi. Pedagogik faoliyatining boshlanishidanoq bunday vositalardan voz kechish pedagogning ijodkorligi uchun katta imkoniyatlar beradi hamda bola bilan bo'ladigan muomala jarayonini quvonchli va samarali qilish imkonini yaratadi.

Beshinchi bosqich — pedagogning amaliy ishlaridir. Mazkur bosqich pedagogik vaziyatni hal etish yuzasidan olib borilgan barcha ishlarning mantiqiy yakunidir. Aynan mana shu bosqichda pedagogik maqsad amalga oshiriladi.

O'qituvchi olib borgan pedagogik ishlarning muvaffaqiyati uning bolaning xatti-harakatlari sababini qanchalik to'g'ri aniqlaganiga, konkret pedagogik maqsadni qanchalik aniq ifodalaganiga, oldiga qo'ygan maqsadiga erishish uchun eng ma'qul usulni qanchalik to'g'ri tanlaganiga hamda ularni haqiqiy pedagogik jarayonda qanchalik mohirlik bilan joriy etganiga bog'liq.

Tajribali pedagog o'zining tarbiyaviy ta'sir natijalari vaqt jihatdan ancha keyin samara berishini biladi va shuning uchun, garchi bu yaxshi jihatlar hali aniq namoyon bo'lmasa ham, bolaning yaxshi jihatlariga tayangan holda ish ko'radi. U har qanday bolani qabul qilganida, uning „bugungi kunda“ qandayligiga qarab emas, balki „ertaga“ u qanday bo'lishi mumkinligiga qarab unga murojaat qiladi.

Pedagogik vaziyatni hal etish algoritmidagi yakuniy bo'lgan oltinchi bosqich pedagogik ta'sirni tahlil qilishdan iborat bo'ladi va u pedagogning bolalar bilan bo'ladigan munosabatlarining samaradorligini baholashga imkon beradi. Bu bosqichni alohida e'tiborga olmaslik mumkin emas, chunki u qo'yilgan maqsadni erishilgan natijalar bilan taqqoslash imkonini beradi. Buning asosida esa pedagog ishining samaradorligini aniqlash va istiqbolda yangi marralarni belgilash mumkin.

#### **4. Sinfdan tashqari ommaviy ishlarning shakllari.**

Sinfdan tashqari ommaviy ish shakllari pedagogga har bir bolaga jamoa orqali ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. Ular bolalarda boshqalarni tushunish malakalarining rivojlanishiga, jamoa bo'lib birgalikda harakat qilishga, tengdoshlari va kattalar bilan hamkorlik qilishga yordam beradi.

Sinfdan tashqari ommaviy ishlarning bu shaklini ikkita katta guruhga ajratish mumkinki, bu guruhlar bolalarning faoliyati xarakteriga ko'ra bir-biridan farq qiladi.

Birinchi guruh — frontal shakllar. Bolalarning faoliyati „yaqin“, „yonma-yon“ prinsipi bo'yicha tashkil etiladi, ya'ni ular birgalikda harakat qiladilar, har bir bola aynan bir xil ishni mustaqil ravishda amalga oshiradi. Pedagog ham har bir bolaga bir vaqtda ta'sir ko'rsatadi. Teskari aloqa cheklangan bolalar bilan amalga oshiriladi.

Sinfda olib boriladigan tarbiyaviy mashg'ulotlarning ko'pchiligi „yonma-yon“ prinsipi bo'yicha tashkil etiladi.

Bolalarning sinfdan tashqari faoliyatini tashkil etish shakllarining ikkinchi guruhi „birgalikda“ prinsipi bilan ajralib turadi. Umumiy maqsadga erishish uchun har bir ishtirokchi o'z rolini bajaradi va umumiy natijaga o'z hissasini qo'shadi. Hamma bajaryotgan ishning muvaffaqiyati har bir ishtirokchining harakatiga bog'liq. Ish bunday tashkil etilganda bolalar bir-birlari bilan yaqindan hamkorlik qilishga majbur bo'ladilar. Bunday faoliyat turi kollektiv (jamoaviy) ish nomini oldi, bu xildagi tarbiyaviy ishlar esa kollektiv tarbiyaviy ishi deb ataldi. Pedagog har bir bolaga alohida ta'sir etmaydi, balki bolalar o'rtasidagi o'zaro aloqaga ta'sir ko'rsatadi. Bu o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasidagi teskari aloqaning yaxshi bo'lishiga imkon beradi. Bolalarning juft-juft bo'lib, kichik guruhlarda, sinfdan faoliyat ko'rsatishi „birgalikda“ prinsipi bo'yicha tashkil etilishi mumkin.

Har bir yo'nalishning o'z afzalliklari va cheklovlari mavjud.

Birinchi guruh pedagog uchun tashkil etishning soddaligi bilan ajralib turadi, ammo unda kollektiv o'zaro hamkorlik malakalari unchalik shakllanmaydi. Ikkinchi guruhning bolalarda hamkorlik qilish, bir-biriga yordam ko'rsatish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish malakalarini rivojlantirishda tengi yo'q. Biroq kichik yoshdagi o'quvchilarning yosh xususiyatlariga ko'ra (ular boshqalarda teng huquqlilikni ko'rmaydilar, kelishib olish, odamlarga aralashishni unchalik bilmaydilar) ishning kollektiv shakllarini tashkil etish pedagogdan ko'p vaqt sarflashni, muayyan tashkilotchilik malakalarini talab etadi. Uning pedagog uchun murakkabligi ham ana shundadir.

Ikkala yo'nalish o'zaro bog'langan va bir-birini to'ldiradi, shu sababli quyida biz har bir yondashuv imkoniyatlarini aniq bir forma (shakl) misolida qarab chiqamiz.

Sinfdan tashqari ishlarni „birgalikda“ prinsipi bo'yicha tashkil etishning samarali shakli kollektiv ijodiy ishdiki, uning texnologiyasi o'zbekistonlik olim, pedagogika fanlari doktori R. A. Movlonova tomonidan ishlab chiqilgan.

Kollektiv ijodiy ish texnologiyasi demokratik maktab sharoitida ayniqsa aktualdir, chunki u gumanistik negizga — o'quvchilarning kichik guruhlardagi hamkorligi asosiga qurilgan. U to'rtta asosiy bosqichni o'z ichiga oladi.

Birinchi bosqichda bolalar oldiga umumiy maqsad qo'yiladi. Bu maqsadga erishish uchun ular guruhlariga (3 dan 7—9 kishigacha)



bo'linadi. Har bir guruh o'z variantini, bu maqsadga erishish loyihasini taklif etadi. Bu bosqichda faoliyatning umumiy maqsadi asosida bolalarning birlashuvi ro'y beradi va har bir bolada bu faoliyatni asoslash uchun sharoitlar yaratiladi.

Ikkinchi bosqichda taklif qilingan barcha variantlarni muhokama qilish davomida bittasi tanlanadi yoki yig'ma variant yaratiladi. Shundan so'ng har bir guruh vakillaridan ishchi kengashi saylanadi. Bu kollektiv boshqaruv organi bo'lib, ishning barcha ishtirokchilari o'rtasida vazifalarni, bajariladigan ishlarni taqsimlaydi. Bolalar boshqalarning nuqtayi nazarini tushunish, kelishib olishga o'rganadilar.

Uchinchi bosqichda ishchi kengashi tayyorgarlik ishlarini amalga oshiradi, guruhlar o'rtasida topshiriqlarni taqsimlaydi, zarur yordam ko'rsatish maqsadida ularning ishini tekshirib boradi. Har bir guruh umumiy loyihani amalga oshirishga o'z hissasini qo'shadi. Bunda boshqalarning muvaffaqiyati bir guruhning ishiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun guruhlarining ishi ular o'rtasidagi raqobatga emas, balki hamkorlik asosiga quriladi. Bu bosqichda bolalar kollektiv bo'lib faoliyat yuritish tajribasini egallaydilar, bir-birini tushunish, bir-biriga g'amxo'rlik qilish, yordam ko'rsatishga o'rganadilar, turli xil amaliy ko'nikma va malakalar hosil qiladilar, o'z qobiliyatlarini rivojlantiradilar yoki kashf etadilar.

To'rtinchi bosqichda o'tkazilgan ish muvaffaqiyat va kamchiliklar nuqtayi nazaridan muhokama qilinadi. Har bir guruh o'zining xatti-harakatini tahlil qiladi, kelgusi ishga doir takliflar aytadi. Mazkur bosqich bolalarda o'zining va boshqalarning ishlarini tahlil qilish, ularga o'zgartirishlar kiritish malakalari shakllanishiga yordam beradi. Bolalarda, shuningdek, obyektiv ravishda o'ziga o'zi baho berish hissi rivojlanadi, chunki bunday muhokamalarda hech qachon bolalarning shaxsiy fazilatlariga daxldor gaplar aytilmaydi.

Kollektiv ijodiy ishlar bolalarga har tomonlama ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ularning shaxsiy tajribasini boyitadi, muomala doirasini kengaytiradi. K II texnologiyasini muntazam ravishda qo'llashda har bir bola turli guruhlarda ishtirok etish va turli rollarni (tashkilotchi va ijrochi rolini) bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

K II texnologiyasi bilan sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish texnologiyasi o'rtasida ba'zi bir o'xshashliklar bor: unda ham, bunda ham modellashtirish, ishlarni amaliy ravishda bajarish va tahlil qilish mavjud. Shu sababli, agar pedagog o'zini

tarbiyaviy ishlarni mazkur algoritm asosida tashkil etishga o'rgatsa, uning bolalarni KII ga jalb etishi oson bo'ladi.

Sinf tarbiyaviy mashg'ulotini tayyorlash. Faraz qilaylik, algoritmgaga muvofiq, bolalar kollektivini o'rganish bosqichi tugallangan va pedagog mashg'ulotning mana shu shaklini tanlagan. Birinchi navbatda, mashg'ulotning mazmuni belgilanadi, unga muvofiq mazkur sinf uchun aktual bo'lgan mashg'ulot mavzusi tanlanadi va mashg'ulot g'oyasi ifodalanadi. Pedagog o'zidan fikran shunday deb so'rashi kerak: „Mazkur mavzuni ochib berish orqali bolalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishim natijasida nimaga erishishni istayman?“ Sinf tarbiyaviy mashg'ulotining mazmuni rivojlantirish, to'g'rilash, shakllantirish vazifalarini aks ettirishi kerak. Ta'lim berish vazifasi umumiy vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Boshqacha aytganda „... haqidagi ma'lumotlarni bayon qilish“ tarbiyaviy mashg'ulotning maqsadi bo'lishi mumkin emas (vazifalaridan biri bo'lishi mumkin). Pedagog sinfdan tashqari mashg'ulotning maqsadi hamda vazifalarini qanchalik aniq ifodalasa, uning istalgan natijalar haqidagi tasavvuri ham aniq bo'ladi. Faqat shundan keyingina mashg'ulotning mazmunini, metodlarni, vositalarni tanlashga kirishish mumkin. Mashg'ulotning mavzusi, mazmuniga alohida ahamiyat berib, uning maqsadini ifodalashga formal yondashadigan yoki uni umuman e'tibordan chetda qoldiradigan pedagoglar noprofessional ish ko'radilar. Bunday holda tarbiyaviy ishning maqsadga yo'naltirilganligi va sistemaliligi yo'qoladi.

Mashg'ulot modelini tayyorlash natijalari sinf tarbiyaviy mashg'uloti konspektida aks ettiriladi. U quyidagicha tuziladi:

1. Mashg'ulotning nomi.
2. Maqsadi, vazifalari.
3. Jihozlanishi.
4. O'tkazish shakli.
5. Borishi.

Mashg'ulotning nomida sinfdan tashqari mashg'ulotning mavzusi aks ettiriladi. U faqat mazmunni aks ettirib qolmay, shakl bo'yicha lo'nda qilib ifodalangan, ta'sirli bo'lishi lozim.

Vazifalar juda aniq bo'lib, mazkur mazmunni aks ettirishi kerak. Ular universal xarakterda bo'lmasligi lozim. Masalan, „Jonajon shahriga muhabbat uyg'otish“ vazifasi o'rniga „Shahar tarixiga qiziqishni oshirish“, „Bolalarda shahar yubileyiga tayyorlik ishlari o'z hissasini qo'shish istagini uyg'otish“, „Bolalarda

shahar tarixidagi mashhur kishilarga nisbatan hurmat hissining shakllanishiga yordam berish“ kabi vazifalar qo‘yish mumkin.

Sinfdan tashqari mashg‘ulotning jihozlanishiga turli vositalar: qo‘llanmalar, o‘yinchoqlar, videofilmlar, diapozitivlar, adabiyotlar va boshqalar kiradi. Adabiy manbaning nominigina emas, balki uning muallifi, nashr etilgan joyi va yili ko‘rsatilishi kerak.

Sinf mashg‘ulotlari ekskursiya, viktorina, konkurs, spektakl va hokazo shaklda o‘tkazilishi mumkin. Bunday holda mashg‘ulot rejasida uni o‘tkazish shakli „Matematik viktorina“, „Fantaziya-chilar konkursi“, „Hayvonot bog‘iga ekskursiya“ nomi bilan birlashtiriladi. Agar sinf mashg‘uloti o‘zida bir necha o‘tkazish shakllarini birlashtirsa, unda bolalarni joylashtirish usuli ko‘rsatiladi: aylana shaklida, komandalar bilan va hokazo.

Mashg‘ulotning borishida uning mazmuni, tarbiya metodlari tavsif etiladi va pedagogning mashg‘ulotni birinchi shaxs nomidan batafsil, izchillik bilan bayon qilishidan iborat bo‘lishi yoki (pedagogning shaxsiga qarab) asosiy mazmuni kartochkalarda ifodalangan tezisli rejadan tashkil topishi mumkin. Mashg‘ulotning borishini modellashtirishda uning qancha vaqt davom etishi va strukturasi (tuzilishi)ni hisobga olish zarur. Sinf tarbiyaviy mashg‘uloti olti yoshlilar uchun 15—20 daqiqadan, o‘n-o‘n bir yoshlilar uchun 1-2 soatgacha davom etishi mumkin.

Mazmuni va metodlari bo‘yicha xilma-xil bo‘lgan sinf mashg‘ulotlarini samarali o‘tkazish maqsadida uning asosiy to‘rt bosqichdan iborat bo‘lishiga amal qilish ma‘qul.

#### 1. *Tashkiliy qism* (0,5—3 daq).

Pedagogik maqsad: bolalarni o‘quv faoliyatidan faoliyatning boshqa turiga ko‘chirish, ana shu faoliyat turiga qiziqish, ijobiy his-tuyg‘ular uyg‘otish.

Tipik xatolar: darsning boshlanishini aynan takrorlash, vaqt jihatidan uzoq davom etishi.

Tavsiyalar: tashkiliy qismda kutilmagan holatni yuzaga keltirish, ya‘ni topishmoqlar, muammoli masalalar, o‘yin, tovush yozuvlari va hokazolardan foydalanish; bolalarni uyushtirish shakllarini o‘zgartirish; bolalarni boshqa binoga (biologiya, fizika, musiqa sinflariga, kutubxonaga, maktab muzeyiga) o‘tkazish yoki ularni sinfda gilamga aylana shaklda joylashtirish bolalarning darsdan tashqari faoliyatga ko‘chishiga yordam beradi. Bu bo‘ljak mashg‘ulotga qiziqish, ijobiy his-tuyg‘ular uyg‘otadi.

2. *Kirish qismi* (butun mashg'ulot vaqtining 1/5 qismidan 1/3 qismigacha).

Pedagogik maqsad: bolalarni faollashtirish, ularni tarbiyaviy ta'sirga moyil qilish. Pedagog o'zining pedagogik prognozi bolalarning imkoniyatlari, shaxsiy sifatlari, mazkur mavzu yuzasidan xabardorlik darajasi, emotsional kayfiyati, faollik, qiziqish darajasi bilan qanchalik mos tushishini aniqlaydi. Bu bosqichda pedagogdan bolalarni qiziqtirishgina emas, balki mashg'ulotning borishi davomida unga qanday tuzatishlar kiritish kerakligi va bu tuzatishlar qanday xarakterda bo'lishini aniqlash talab etiladi. Masalan, pedagog o'zi ma'lum qiladigan narsalarning yangiligiga umid bog'lab, hikoyani rejalashtirgan edi, ammo kirish suhbat bolalarning bu haqda bilishini ko'rsatdi. Bunday holda pedagog hikoyani suhbat yoki o'yin vaziyati bilan almashtirishi zarur. Shunday qilib, kirish qismining maqsadi bolaning shaxsiy tajribasidan mashg'ulot mavzusiga „ko'prik tashlash“ dan iborat.

Tipik xato — pedagogning kutilmaganda bolalarning ta'sirlanishidan (bolalar pedagog kutayotgan narsani aytmasligi yoki qilmasligi mumkin) qo'rqqani tufayli bu bosqichni inkor etishi. Pedagog mashg'ulotning kirish qismini bolalarning faolligiga emas, balki shaxsiy faollik asosiga quradi, teskari aloqani mensimay, bolalarga passiv tinglovchilar rolini beradi. U bolalarning emotsional kayfiyatini e'tiborga olmaydi.

Tavsiyalar: kirish qismi mashg'ulotning mazmuniga qarab kirish suhbatidan (bilish xarakteridagi estetik va axloqiy mashg'ulotlar) yoki aqlni „charxlab olish“ topshiriqlaridan (viktorina, konkurs va h. k.) iborat bo'lishi mumkin.

Birinchi holatda savollar, ikkinchisida — topshiriqlar bolalar uchun qiziqarli bo'lib qolmay, pedagogga o'quvchilarning tayinlangan materialni idrok qilishga tayyorligi haqida axborot berishi kerak. Kirish qismida pedagog bolalarning bo'lg'usi mashg'ulot haqidagi dastlabki tasavvurlarini shakllantiradi, ularning faoliyatini tashkil etadi, ya'ni baholash sistemasi bilan tanishtiradi, mashg'ulot rejasini ma'lum qiladi, ularni komandalarga bo'ladi. Baholashning an'anaviy tizimida pedagog aniq mezonlarni berishi, zarur qoidalarni tushuntirishi kerak.

Bolalar komandalarga bo'linganda ularning xatti-harakatlarini raqobat asosiga emas, balki hamkorlik asosiga qurish lozim. Buning uchun quyidagi usul samaralidir: komandalarga to'g'ri javoblari uchun ochkolar o'rniga qirqib ajratilgan rasmning bo'lakchalari

tarqatiladi. Mashg'ulotning yakuniy qismida bu bo'lakchalardan umumiy rasm yig'iladi hamda ballar miqdori emas, balki umumiy natija muhimligi ayon bo'lib qoladi.

Mashg'ulotning kirish qismida bolalarni faollashtirishning turli-tuman metodlari hamda vositalaridan: muammoli suhbat, rebus, krossvord, topqirlik va chaqqonlikka doir topshiriqlar va hokazolardan foydalanish mumkin.

3. *Mashg'ulotning asosiy qismi* vaqt jihatidan eng davomli bo'lishi kerak (mashg'ulotning  $\frac{2}{4}$ ,  $\frac{1}{3}$  dan sal ko'proq qismi).

Pedagogik maqsad: mashg'ulotning asosiy g'oyasini amalga oshirish.

Tipik xatolar: bolalarning qisman yoki butunlay passivligida pedagogning faolligi. Metodlarning bir xilligi — faqat hikoya yoki suhbat. Ko'rgazmalilikning yo'qligi va foydalaniladigan tarbiya vositalarining juda ham kamligi. Ongni shakllantirish metodlarining xulq-atvorni shakllantirish metodlaridan ustunligi. Darsning o'quv muhiti yaratilishi, ibratlilik, o'rgatish, nasihatgo'ylik qilish.

**Metodik tavsiyalar:** agar bolalar maksimal ravishda faol bo'lsalar, mashg'ulotning rivojlantiruvchi, to'g'rilovchi, shakllantiruvchi, tarbiyalovchi, ta'lim beruvchi vazifalarini amalga oshirishda tarbiyaviy samara yuqori bo'ladi. Sinfdan tashqari mashg'ulotda bolalarni faollashtirishda darsdan farq qiladigan alohida emotsional muhitni yaratish birinchi darajali ahamiyatga ega. Masalan, bolalardan qo'llarini ko'tarish, o'rnlardan turish talab etilmaydi. Intizomni saqlab turish uchun alohida qoidalar joriy qilinadi (kiritiladi): strelka ko'rsatgan, fant tushgan o'quvchi javob beradi. Bir masala yuzasidan bir necha o'quvchi o'z fikrini bildirishi eng qulaydir. Pedagogning nutqida „to'g'ri“, „balli“, „ofarin“ kabi rag'batlantiruvchi so'zlarning bo'lmasligi, buning o'rniga xayrixohlik, his-hayajon, pedagogning his-tuyg'ularini ifodalovchi, hayrat bilan aytilgan „ha“, „juda qiziqarli“, „yangi xabaring uchun rahmat“, „shundaymi?“, „buni qarang-a!“ kabi iboralardan foydalanish iliq, xayrixohlik muhitining yaratilishiga yordam beradi.

Agar pedagog xulq-atvorni shakllantirishning xilma-xil metodlaridan (tarbiyalovchi mashqlardan foydalanish, o'rgatish, topshiriqlar berish) iloji boricha ko'p foydalansa, mashg'ulotga turli xil faoliyat turlari: mehnat, ijodiy ishlar, sport elementlari va hokazolarni kiritisa, asosiy qismning samaradorligi oshib boradi. Pedagog xilma-xil faoliyat turlarini tashkil etishda bolalarni komandalarga birlashtirar ekan, ularni bir-birlari bilan erkin muomalada bo'ladigan qilib joylashtirishi, vazifalarni esa har bir ishtirokchi o'zi uchun alohida

emas, balki o'zini jamoaning bir qismi deb his etadigan qilib taqsimlashi kerak. Topshiriqni bajarish uchun vaqt berishda komandaga uni bajarishni muhokama qilishga bir necha daqiqa vaqt ajratish va komanda vakilidan tayyorligini so'rash lozim. Shunday taqdirdagina bolalarda faoliyatning umumiy maqsadi, xilma-xil vazifalar va hamkorlik uchun sabab (motiv)lar bo'ladi.

Ongni shakllantirish metodlari bolalarda e'tiqodning, amaliy etik (axloqiy) tushunchalarning tarkib topishiga yordam berishi kerak. Bu maqsadlarda hikoya metodini o'quvchining axboroti, dokladi tarzida o'zgartirish, tez-tez munozaradan foydalanish yaxshi samara beradi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning ommaviy shakllarida bolalarni munozara qoidalariga o'rgatish lozim:

1. Shuni yodda tutingki, bahslashuvchilar haqiqatni izlaydilar, ammo uni turlicha tasavvur qiladilar; bahsda umumiy mazmuni aniqlash, keyin esa qarashlardagi farqni oydinlashtirish va ularga hurmat bilan munosabatda bo'lish kerak.

2. Munozaraning maqsadi — tomonlardan birining haqligini aniqlash emas, balki haqiqatni qaror toptirishdir.

3. Haqiqatni opponent shaxsiga ayblar qo'yish bilan emas, balki faktlar yordamida qidirish zarur.

4. So'zlovchini avval diqqat bilan tinglash, keyin esa o'z nuqtayi nazarini bildirish lozim.

4. Mashg'ulotning yakuniy qismi.

Pedagogik maqsad: bolalarni egallagan tajribalarini o'zlarining maktabdan tashqari hayotlarida amalda qo'llashga moyil qilish (xohish uyg'otish) va mashg'ulot g'oyasini amalga oshirishga qanchalik muvaffaq bo'lganligini aniqlash. Shunday qilib, yakunlovchi qism pedagogning bolaga boshqa muhitda tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga imkon beradi.

**Tipik xatolar:** bu qism umuman inkor qilinadi yoki „Yoqdimi?“, „Nimalarni bilib oldingiz?“ qabilidagi ikki savoldan iborat bo'lib qoladi.

**Tavsiyalar:** dastlabki natijalarni aniqlash uchun krossvord, kichik viktorina, berilgan savolga uzoq o'ylamay tez javob qaytarish, o'yin vaziyatlari kabi bolalarni qiziqtiradigan test xarakteridagi kontrol topshiriqlar; bolalarning egallagan tajribalarini shaxsiy hayotlarida qo'llashga doir turli tavsiyalar berish. Bu esa mazkur muammoga doir kitoblarni ko'rsatish, bolalarning mashg'ulotda egallagan bilim, malaka va ko'nikmalarini qo'llashi mumkin bo'lgan vaziyatlarni muhokama qilish bo'lishi mumkin. Hosil qilingan

tajribani qo'llashga doir bolalarga maslahatlar: ular o'z yaqinlariga nimalarni gapirib berishlari, mazkur mavzu yuzasidan nimalar haqida so'rash mumkin; qayerga borish, u yerda nimalarga e'tibor berish, qanday o'yinlar o'ynash, mustaqil ravishda nimalar qilish mumkin va hokazo. Yakunlovchi qismda mashg'ulot mavzusini kelgusida yana yoritib berish zarurati bormi, bor bo'lsa, buni qanday yo'l bilan amalga oshirish mumkinligini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Mashg'ulotning yakunlovchi qismidan pedagog bundan keyingi sinf mashg'ulotlarini o'tkazishda bolalar tashabbusini rivojlantirish uchun ham foydalanishi mumkin.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning individual va ommaviy shakllarini tashkil etish va o'tkazishda ota-onalar bevosita ishtirok etsalar, ularning tarbiyaviy ta'siri ancha samarali bo'ladi.



### *Savol va topshiriqlar*

1. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari olib boradigan sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarga ta'rif bering.
2. Bo'lg'usi pedagog sifatida Siz sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar haqida 1-, 2-... navbatda nimalarni bilishingiz kerak? (Mazkur bob materiallari asosida ro'yxat tuzing.) O'zingiz tanlagan usullarni asoslab bering. Hech narsa kerak emas, shuning o'zi yetarli deb hisoblasangiz, bunda ham o'z qaroringizni asoslang.
3. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning tashkil etilishiga doir qanday talablarni eslab qolishni istardingiz? Nima uchun?
5. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning individual shakllarini tashkil etish va o'tkazishda mazkur bobdagi qaysi ko'rsatmalardan foydalanar edingiz?
6. Istalgan sinfdan, istalgan mavzuda umumsinf tarbiyaviy mashg'uloti konspektini tuzing yoki mavjud konspektni mazkur bobda bayon qilingan talablar nuqtayi nazaridan tahlil qiling.
7. Pedagogik vaziyatni hal etish algoritmi yordamida shaxsiy tajribangizdagi istalgan bir vaziyatni tahlil qiling.





**XXXI BOB. MAKTABSHUNOSLIK**

**MAKTABNI BOSHQARISH MASALALARI**

Respublikamiz hukumati xalq ta'limi sohasida o'rtaga qo'yayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq. Yangi iqtisodiy siyosatga o'tish sharoitida ta'lim-tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishish vazifasi, asosan, o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan. Bu, o'z navbatida, maktab ishini boshqaradigan rahbarning faoliyati bilan bog'liqdir. Qaysi maktabda ichki va tashqi nazorat ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lsa, o'sha maktabdagi ta'lim-tarbiya ishlari ham izchil bo'ladi. Pedagoglar jamoasi ishini sistemali nazorat qilish, bir tomondan, har bir o'qituvchining o'z ishi uchun mas'uliyatini oshiradi hamda o'z ishida kamchiliklarni vaqtida aniqlash va tuzatish imkonini beradi. Maktab ichki nazoratining bir qancha yo'l-yo'riqlari mavjud. Ularning birinchisi maktab direktori va ilmiy bo'lim mudirining darslarga kirishlari, darslarni va mashg'ulotlarning boshqa shakllarini tahlil qilishlaridir. Maktab direktori va ilmiy bo'lim mudiri darslarga muntazam kirib turishlari shart. Buning uchun ular yil davomida darslarga kirish rejalarini kuzatadilar hamda tartiblarini kelishib oladilar.

Darslarga kirish va ularni kuzatish ma'lum maqsadga qaratilgan bo'ladi. Bunday kuzatishlar o'qituvchining faoliyati haqida xulosalar chiqarish imkonini beradi. Bunda har xil darslarga va turli o'qituvchilarning darslariga kirish belgilab olinadi.

Agar direktor darslarga kirishda o'qituvchining ish sistemasini hamda o'qituvchilarning bilimlarini aniqlashni maqsad qilib olgan bo'lsa, ma'lum o'qituvchining turkum darslariga kirishni rejalashtiradi.

Maktab rahbarlari endigina muallimlik qiladigan yoshlarga va maktabning yangi xodimlariga hamisha e'tibor bilan qarashlari talab qilinadi. Biroq ancha tajribali va malakali pedagoglar ham tekshirishga ehtiyoj sezadilar.

Bunday tekshirish o'qituvchilarni rag'batlantiradi hamda direktorga eng yaxshi tajribani o'rganishga imkon beradi. Darsda tekshiruvchi quyidagi tomonlarga e'tibor berishi kerak: darsning maqsadi qanchalik ravshan, aniq va tushunarli qilib ifodalangan;



dars yaxlit holda va uning ayrim bosqichlari qanchalik o'ylab olingan; maqsad yuzasidan uning mazmuni bayon etilgani; materialning ilmiy-nazariy saviyasi qandayligi; o'qituvchi qo'llagan metodlar qanchalik samarali hamda zamonaviy bo'lishi; darsda o'qituvchining didaktik qoidalarga rioya qilishi; o'qituvchining darsda har bir o'quvchining aqliy o'sishiga qanchalik erishishi; ta'limning ko'rsatma va texnik vositalaridan qanchalik malakali foydalanishiga e'tiborini qaratishi lozim. Darsning boshi va oxiriga, tashkiliy tomoniga, darsning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tilishiga, ularning mantiqiy bog'lanishiga, darsdagi jamoa ishining birga qo'shib olib borilishiga, o'quvchilardan so'rash va ularning bilimlarini baholashga hamda uyuq beriladigan topshiriqlar sistemasiga e'tibor berish g'oyat muhimdir. Shu bilan birga, darsda ketgan vaqtni belgilash juda zarur. Darsning tarbiyaviy tomoniga ham alohida e'tibor qaratiladi. Darsning tuzilishi, mazmuni, metodlari, o'qituvchining darsdagi xatti-harakatlari tarbiyaviy nuqtayi nazardan baholanadi. Direktor yoki ilmiy mudir darsni kuzatib bo'lgandan keyin o'qituvchi bilan suhbatlashishi darkor.

Direktor va uning o'rinbosari bolalar bilan olib boriladigan o'quv va sinfdan tashqari ishlarning barcha shakllariga rahbarlik qiladilar va ularni tekshirib turadilar.

Direktor va uning o'rinbosari tadbirlarning g'oyaviy yo'nalishini tashkil etishning ilmiy-metodik darajasi bolalarning qiziqishlari va ularning faolligi, mashg'ulotning o'quv-tarbiyaviy qimmatiga alohida e'tibor qaratadilar. O'qituvchilar, sinf rahbarlari, direktor va uning o'rinbosarlariga o'zlarining ishlari haqida hisob beradilar. Hisob berish o'qituvchilar va maktab rahbarlariga o'z ishlarining natijalarini tahlil qilishga, kamchiliklarning sabablarini aniqlashga, ularni bartaraf etish yo'llarini belgilashga ko'maklashadi. Maktabda har bir o'quvchi jiddiy hisobga olib boriladi: alifbo daftari va shaxsiy papka bo'ladi. O'quvchilarning alfavit daftarida quyidagi ma'lumotlar: o'quvchining familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, manzili, maktabga qabul qilingan va uni bitirgan vaqti ko'rsatiladi. Agar o'quvchi bir maktabdan ikkinchi maktabga yoki o'quv yurtiga o'tgan bo'lsa, unda shu maktabga yoki boshqa o'quv yurtiga o'tganligi haqidagi ma'lumotnoma bo'lishi kerak.

Shaxsiy papkada o'quvchi, uning o'zlashtirishi va xulqining ahvoli haqidagi umumiy ma'lumotlar bo'ladi. Shaxsiy papka o'quvchi maktabni tugatgandan keyin maktab arxivida saqlanadi.

O'quvchilar shaxsiy papkalarining saqlanishi va yuritilishiga shaxsan o'qituvchi, sinf rahbarlari, shuningdek, maktab konselyariyasi va direktor javobgar bo'ladi.

O'qituvchining o'quv ishini kundalik hisobga olib borish uchun sinf jurnali tutiladi. Bunga o'qituvchining har bir mashg'uloti, uy vazifalari, o'quvchilarning og'zaki javoblari, yozma mustaqil ishlari, kontrol ishlari yozib boriladi. Har bir o'quvchining ishidagi yutuq va kamchiliklarini jurnal orqali bilish mumkin. Ko'pgina o'qituvchilar sinf jurnaliga qo'shimcha ravishda o'zlarining shaxsiy kundaliklarini yuritadilar. Unga o'quvchining o'qishi va xulqiga doir eng qiziqarli faktlar, bolaning individual rivojlanishi yuzasidan olib borgan o'z kuzatishlari, o'quvchining o'zlashtirish va xulqidagi qiyinchiliklar hamda kamchiliklar yozib boriladi. Bunday kundalik o'qituvchiga o'quvchining o'sishini diqqat bilan kuzatib borishga, uning shaxs sifatida shakllanib borish istiqbolini belgilashga yordam beradi.

Maktab kundaligiga har kungi o'tilgan darslar, uyga berilgan topshiriqlar va kundalik baholar yozib boriladi. Sinf jurnaliga qo'yiladigan baholar bilan bir vaqtda kundalikka ham baho qo'yib boriladi. Haftaning oxirida kundalikka o'qituvchi va ota-onaning imzosi qo'yiladi.

Kichik yoshdagi o'quvchilarning ota-onalari kundalikni har kuni ko'rishlari, har kungi yutuq va kamchiliklardan xabardor bo'lishlari zarur.

O'quvchilar kundalikka o'zlarining o'quv muvaffaqiyatlari aks ettiriladigan hujjat deb qarab, unga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishlari kerak.

Kundalikni bola ustidan shikoyat qiladigan vositaga aylantirish, masalan, unga „U oshxonada o'zini yomon tutdi“ kabi tanbehlarini yozish yaramaydi. Bunday yozuvlar intizomni buzadigan bolalarga nisbatan mustaqil chora ko'ra bilmaydigan o'qituvchining nochorligi, uquvsizligidan dalolat beradi.

O'quv yilining oxirida boshlang'ich sinf o'qituvchilari va sinf rahbarlari o'quv dasturlarining bajarilishi haqida hisobot tuzadilar.

Maktab esa xalq ta'limining tuman (shahar) bo'limlariga yillik statistik hisobot taqdim qiladi.

O'quv yilining oxirida o'quv yilining yakunlariga doir ota-onalar majlisi o'tkaziladi. Hisobot majlisiga o'quvchilarning ishlari, maktabning mehnat tarbiyasi sohasidagi yutuqlari to'g'risida ko'rgazmalar tayyorlash mumkin.

Har bir o'qituvchi o'z vazifalarini bajarish, maktab mulkini xonalarda belgilangan tartibda saqlashga nisbatan jiddiy munosabatda bo'lishi kerak. O'quv-tarbiya ishlari ustidan kundalik maktab ichki nazorati maktabdagi barcha ishlarning yuksak darajasini ta'minlashga, o'quvchilarning qiziqarli tajribalarini ma'qullash va yoyishga, ba'zi o'qituvchilar ishidagi kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlashga yordam beradi. Tekshirish natijalari metod birlashmalari va o'quv fani komissiyalarida, direktor qoshidagi kengashlarda, pedagoglar jamoasida va ishlab chiqarish kengashlarida muhokama qilinadi.

Boshqarish faoliyatida muayyan tizimning bo'lishi muhimdir. Buning ma'nosi shundan iboratki, bu ish tasodifiy bir-biriga aloqasi bo'lgan tadbirlar yig'indisidan iborat bo'lmay, sharoit xususiyatlarini qat'iy hisobga olishni taqozo etadi.

Maktab ichki nazorati bo'yicha ishlangan rejani bir chorakka, yarim yillik va bir o'quv yiliga mo'ljallab tuzish mumkin. Lekin rejani bir o'quv yiliga mo'ljallab tuzish maqsadga muvofiqdir.

Maktab rahbarlari tomonidan amalga oshiriladigan maktab ichki nazoratining rejasini quyidagi masalalarni o'z ichiga olishi mumkin:

1. Maktabning hamma ko'rsatkichlari bo'yicha rejaning bajarilishi.
2. O'quv-tarbiya ishlarining ahvoli.
3. Sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan tarbiyaviy ishlar.
4. Maktabdagi jamoatchilik hamda otaliq tashkilotlari bilan olib boriladigan ishlar.
5. Maktabda pedagog xodimlar bilan ishlash masalasi.
6. Maktab hujjatlarini yuritish holati.
7. Maktab o'quvchi-yoshlar tashkilotining ishlari.
8. Maktabning moliya-xo'jalik ishlari.
9. Maktab, oila va jamoatchilik hamkorligi.
10. Sinf rahbarlarining ishlari va hokazo masalalar.

Bir o'quv yiliga mo'ljallab tuzilgan maktab ichki nazoratining mavzu rejasini o'quv yilidagi pedagoglarning birinchi yig'ili-shida tasdiqlash va uni maktab o'qituvchilari jamoasiga ma'lum qilish maqsadga muvofiqdir. Lekin nazorat qilishda ma'lum tizim va aniq rejaning bo'lmasligi, maqsadning noaniqligi, hujjatlarni tartibga solishga va ma'lum bir fikrga kelish uchun tegishli materiallar to'plashga e'tibor bermaslik, nazorat ishlariga yetarlicha

faol jalb etmaslik ayrim maktab rahbarlarining o'qituvchilar jamoasi tavsiyasini yaxshi bila olmasligiga sabab bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, maktab ichki nazoratining shakl va usullari turlichadir. Buni qay darajada, qanday qilib amalga oshirish maktab rahbarlarining ilmiy-metodik, pedagogik saviyalariga hamda mazkur masalaga nisbatan qunt bilan izlanishlariga bog'liqdir.

Maktab ichki nazoratini o'rganiladigan masalaga qarab, asosan, ikki guruhga bo'lish mumkin: a) maktab ishlarini tematik nazorat qilish; b) maktab ishlarini kompleks (frontal) nazorat qilish.

Tematik nazorat qilish quyidagi masalalarni o'z ichiga olishi mumkin:

1. Maktabda gumanitar fanlar bo'yicha davlat o'quv dasturining bajarilish ahvoli.

2. Fan asoslarini o'qitish jarayonida o'quvchilarning qobiliyatlarini o'stirish.

3. Maktabda fizika darslarida ta'limni tarbiyaga bog'lash tajribasidan amaliy foydalanish.

4. Ona tili, adabiyot fanlarini o'qitishda o'quvchilarning nutq madaniyatini o'stirish.

5. Tarix, geografiya darslarida amaliy ishlarning qo'yilish holati.

6. Tabiatshunoslik fanlarini o'qitishda o'quvchilarni ilmiy dunyoqarash ruhida tarbiyalash kabilar.

Bundan tashqari, har xil mutaxassislikdagi ikki-uch o'qituvchining ishini o'rganish, sinf rahbari, tarix-geografiya, til-adabiyot o'qituvchilarining metodbirlashma ishlarini o'rganish ham tematik nazoratga kiradi.

Maktab ishlarini kompleks usulda nazorat qilish ta'lim-tarbiya va xo'jalik ishlarini keng qamrab olgan to'liq pedagogik ma'nodagi masalalarni o'rganishni maqsad qilib qo'yadi. Masalan:

1. Maktab faoliyatida aniq fanlarni o'qitish holati va uni yanada yaxshilash choralari.

2. Maktabda sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning amalga oshirilish holati va uni yanada takomillastirish yo'llari.

3. Maktab faoliyatida o'qituvchilar malakasini oshirishning holati va uning samaradorligi.

4. O'quvchilarning darslik va o'quv anjomlari bilan ta'minlanganlik holati va bu masalani yanada yaxshilash choralari.

5. Maktabning ta'lim-tarbiya ishlari tizimida xalq pedagogikasidan foydalanishning ahvoli va bu ishni yanada takomillastirish yo'llari.

6. Maktabda gumanitar fanlarni o'qitish holati va o'quvchilarning bilim darajasi.

7. Maktab faoliyatida umumiy o'rta ta'limni hozirgi davr talablari asosida amalga oshirishning ahvoli va shu kabilar. Bunday masalalarni tekshirish yakunini maktab pedagoglar kengashida yoki ochiq majlisda muhokama qilish maqsadga muvofiqdir.

Ichki nazorat tizimida imtihonlar davri maktab hayotida mas'uliyatli davrlardan biridir. Imtihonlarni o'tkazish natijasida o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalariga umumiy baho berish mumkin.

### **MAKTAB ISHINI BOSHQARISH VA UNGA RAHBARLIK QILISH**

Maktab ishini har jihatdan to'g'ri tashkil qilish, uning samaradorligi natijasi garovidir. Bu esa jamoa mehnati jarayonlarini oqilona yo'lga qo'yishni taqozo etadi. Binobarin, o'quvchilarni tarbiyalash ko'plab kishilarning umumiy mehnat jarayonida hal qilinar ekan, demak, bu mehnatning muvaffaqiyati ko'p jihatdan ularning kuchlari qanchalik to'g'ri yo'naltirilganligiga, maqsadlar birligi va harakatlar muvofiqligi qanday ta'minlanayotganligiga bog'liqdir. Aks holda qilinayotgan jamoa mehnatining samaradorligi pasayib ketishi mumkin. Maqsadlarni tushunish birligini amalda yuzaga chiqarish, so'ngra maqsadlarga erishish jarayonida o'zaro aloqalarni ta'minlash maktabni boshqarishning muhim vazifasi bo'lib, bu vazifaning pirovard natijasi, asosan, maktab direktorining faoliyatiga bog'liq. Ta'kidlash lozimki, maktabni chinakamiga boshqarishni ta'minlash uchun aslida direktor bajarishi kerak bo'lgan muhim va ikkinchi darajali ishlar mavjud. Xo'sh, maktabni boshqarish vazifalarining qaysi biri muhim, maktab direktori o'z kuchini nimaga sarflashi kerak? Buning uchun direktor:

1) tizimni tashkil etishni ishlab chiqishi, tadqiqot, loyihalash ishlarini yo'lga qo'yib ish tartibini belgilashi, o'ylab ish ko'rishi va shoshma-shosharlikka yo'l qo'ymasligi;

2) amaliy ish bajarishning belgilangan tartibga va tizimga muvofiq bajarilayotganligini tekshirishi;

3) ish me'yorining buzilishiga yo'l qo'ymaslikni, qiyinchilik va to'siqlarni o'z vaqtida bartaraf etilishini kuzatish va shu singari boshqa muhim ishlarni amalga oshirishi lozim.

Demak, direktor ish faoliyatini to'rt bosqichga ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Olingan axborot asosida qaror qabul qilish. Ishning vazifalarini va yo'nalishlarini belgilash. Ma'lum obyektiv ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish. Yaqin va istiqbolli rejalarni belgilash. Ishning mavjud haqiqiy ahvolini belgilash, ularni taqqoslash, imkoniyat darajalarini hisobga olish, variantlarni tanlash, maktabning rivojlanish yo'lini belgilash. Ana shular direktorning asosiy va muhim vazifalari sirasiga kiradi. Bu vazifalarning yetarli darajada amalga oshmasligi jamoa mehnatining besamar ketishiga sabab bo'ladi. Natija kutilgandek bo'lishi uchun direktor maktabning haftalik ishlarini rejalashtirishi, yaqin davrlar uchun ish rejasini tuzib olishi, ishning ayrim turlari bo'yicha esa istiqbol rejasini tuzishi, o'z maktabi faoliyatiga oid nutq, maqolalar tayyorlashi, pedagogik adabiyotlarni o'rganishi, pedagogik yig'ilishda prinsipial masalani hal qilishi va hokazolarni amalga oshirishi lozim.

2. Shuningdek, tegishli yangi qarorlarning asosiy g'oyalarini ularni ijro etuvchilarga tushuntirishi. Olingan ma'lumotlarga asosan ishni ko'rib chiqib, kamchiliklarni tuzatishi. Direktor bu vazifalarni amalga oshirishda o'quv-tarbiyaga oid turli kechalardan, ota-onalar majlisi, mahaliy qo'mita, metodik birlashma majlislaridan, o'qituvchilar bilan yo'llanma beruvchi suhbatlardan, texnik xodimlarning kengashi va kadrlar tanlashdan to'g'ri foydalanishi.

3. O'quv-tarbiya jarayonining haqiqiy ahvoli to'g'risida doimiy ishonchli ma'lumotlar olib turishi. Davlat dasturlarining bajarilishini, talablarda yagonalikka erishilishini nazorat qilishi; o'qituvchilar va sinf rahbarlarining hisobotlarini eshitib borishi, daftarlar, kundaliklar, sinf jurnallari va boshqa hujjatlarning yuritilishini tekshirishi.

4. Favqulodda yuzaga kelgan kamchilik va nuqsonlarni, to'siqlarni bartaraf etishi. O'quvchilarning intizomiga oid suhbatlar uyushtirishi. Shikoyat yoki iltimos bilan kelgan ota-onalarni qabul qilishi. Maktabni boshqarishning asosiy vazifalaridan chalg'itmaydigan ishlar va topshiriqlarni bajarishi. Xo'jalik ishlaridagi nuqsonlarni tugatishi lozim. Direktor tashkil etish va boshqarish fanining elementlari asosini yaxshi bilishi va uni yuqori darajaga ko'tarishga ongli ravishda intilishi juda muhim. Bular direktorga mehnat samaradorligini oshirish imkonini beradi. Direktor ko'proq tegishli asosiy vazifalarni bajarishga intilar ekan, bu uning o'quv-tarbiya jarayonining haqiqiy rahbari bo'lishiga va shu bilan birga, o'z ish kunini muayyan me'yorga solishga imkon beradi. Maktab direktori e'tibor qilishi lozim bo'lgan yana bir muhim masala — bu ish

vaqtdan unumli foydalanishdir. Aytaylik, o'quv yilining so'nggi choragi tugayapti, galdagi vazifa bu yil maktabni bitiruvchi sinflarda ish olib borishdir. Bunday paytda maktab direktorini yuqori tashkilotlarning har xil sabablar bilan chaqirishlari va unga navbatdan tashqari shoshilinch topshiriqlar berilishi g'oyatda salbiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq maktab direktori o'z mehnatining muntazamliligi va doimiyligini ta'minlashigina uning samaradorligini oshiradi.

Direktor o'rinbosari maktab direktorining rahbarligida ishlaydi va vaqt-vaqti bilan unga hisobot berib turadi. Chunki o'rinbosar ishning muayyan jabhalarida rahbarlik qilish vakolatiga egadir, bu hol uning direktor oldida nimalarga javobgar ekanligini yanada ravshanlashtiradi. Biroq bu direktorni maktabning umumiy ishi uchun javobgarlikdan xalos qiladi, degani emas. Direktor va o'rinbosar o'rtasidagi vazifalarning xususiyati ana shuni taqozo qiladi. Amalda ba'zan shunday hollarga ham duch kelinadiki, ayrim maktab direktorlari ko'pincha barcha ishga javobgar ekanliklarini bila turib, ba'zan ilmiy mudirga maktabdagi butun o'quv-tarbiya ishlariga va shu singari boshqa ishlarga mas'ul ekanligini ro'kach qiladilar va barcha ishni ilmiy mudirga yuklab, pedagogik jarayonga rahbarlik qilishdan o'zlarini chetga oladilar. Ilmiy mudir esa o'qituvchilar faoliyatiga kuchi yetganicha umumiy rahbarlik qilib boradi. Oqibatda, shunday hol yuz beradiki, direktorning o'quv-tarbiya ishi yuzasidan mustaqil fikri bo'lmaydi. Bu haqda ko'proq ilmiy mudirning gaplarini takrorlaydi. Vaholanki, pedagogik jarayon ta'lim va tarbiyaning juda ko'p masalalarini o'zaro hamkorlikda hal qilinishini nazarda tutadi. O'quv-tarbiya jarayonini dasturda belgilangandek to'g'ri yo'ldan olib borish uchun maktab direktori ishning ko'zini biladigan bo'lishi, har qanday tartib buzilishlarini payqashi va uni bartaraf etish choralari ko'rish uchun yetarli darajada tezkor harakat qilishi lozim.

Maktab ishiga rahbarlikni bir tekis olib borishda quyidagilarni amalga oshirish yordam beradi: ishni yakunlash va rejalashtirish uchun har haftada ilmiy mudir bilan suhbatlashish va bunda uning bajarilgan va belgilangan ishi to'g'risidagi axborotini tinglash, ilmiy mudir bilan birgalikda o'qituvchilarning darslariga kirish va ularni tahlil qilish, o'qituvchilar, sinf rahbarlarining hisobotlarini birgalikda tinglash. Aytish joizki, ilmiy mudir tarbiyaviy ishlarga o'quvchilarning o'quv faoliyati jarayonida, dars vaqtida rahbarlik qiladi. Shunday ekan, sinfdan tashqari va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi lavozimining kiritilishi ilmiy mudirni

yuqorida aytib o'tilgan vazifalardan ozod qilmaydi. Balki o'qitish jarayoni, ya'ni dars va fakultativ mashg'ulotlarga, fan to'garaklari faoliyatiga, o'qishga ongli munosabatda bo'lish hissini tarkib toptirish va ishda o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish organlariga, olimpiada va mavzuiy kechalar o'tkazishga jiddiy e'tibor qaratish, bularning hammasi ilmiy mudirning doimiy vazifasi sirasiga kiradi. Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi bo'lgan direktor o'rinbosari yana butun maktab miqyosida o'quvchilarning ijtimoiy-foydali mehnatini, siyosiy-ta'limiy ishlarni, badantarbiya va sport, turistik va shunga o'xshash darsdan tashqari olib boriladigan boshqa faoliyatlarni tashkil etuvchi pedagoglarning ishiga ham rahbarlik qiladi. Tashkilotchi maktabning mikrorayonida maktabdan tashqari tarbiyaviy muassasalar va jamoatchilik bilan chinakam aloqada bo'ladi, o'z ishida ularning yordamidan keng foydalanadi.

Chunonchi, har qaysi o'quv yili oxirida pedagogning o'qituvchilik faoliyati yakunlari muayyan shaklda aniqlanadi va baholanadi. Bu ish bundan keyingi ishlarning tashkil etuvchisi va boshlanishi bo'lib ham xizmat qilishi mumkin. O'qituvchi o'quv yili oxirida qilingan ishlardan olingan natijalarni solishtirib, u yoki bu metodlarning qanchalik muhim ekanligiga baho berishi va shu asosda tajriba to'plashi, o'z ishini takomillashtirib borishi mumkin. Bolalarning tarbiyalanganlik darajasini bilmaslik tarbiyaviy ishning katta kamchiligidir. Sinf rahbarlari, ayniqsa, yangi sinf qabul qilgan sinf rahbarlari o'z faoliyatlarini bolalarni o'rganishdan boshlashlariga, buni, ayniqsa, avgustning oxiri va sentabrning boshidan boshlashga harakat qilishlari uchun imkon yaratib bermoq kerak. O'z vazifasini to'g'ri boshlagan sinf rahbari bu ishni uddalashda ko'pgina imkoniyatlar topadi. Buning uchun o'qituvchiga quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

1. Bolalarni jamoa mehnati va sayr chog'ida kuzatishi. Shu maqsadda avgustning oxiri va sentabr oyida sinf xonalarini darsga va qishga tayyorlash borasida ish olib borishi, ijtimoiy foydali mehnatning har xil turlarida guruh bo'lib ishtirok etishi, kino va turli tomoshalarga birgalikda borishi.

2. O'quvchilar shaxsiy varaqalarini, ularga berilgan tavsiyalarni o'rganishi. Tarbiyalanuvchining maktabda o'tkazayotgan turli yillardagi o'quv faoliyatini solishtirishi, shaxsiy kamoloti yo'lini aniqlashi muhimdir. Bu materiallardan tarbiyachi o'quvchiga ta'sir ko'rsatishning ishonchli dalillarini ham topadi.



3. Bolalar bir-birlari to'g'risidagi ma'lumotlarni biladilar va ko'p hollarda ular o'z o'rtog'larini tarbiyachiga qaraganda birmuncha obyektiv tarzda baholaydilar.

Bu esa o'quvchilarning keyingi muvaffaqiyatli mehnati yoki o'quv faoliyatlari uchun ularning tarbiyalanganlik darajalari, shuningdek, maktab o'quv-tarbiya ishlari umumiy darajasining muhim ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi. Maktab tarbiyaviy ishini samarali tashkil etishning yana bir muhim sharti rahbarda tarkib topgan kelajak maqsadlarining mavjudligi, o'zining bugungi tarbiyalanuvchisining ertangi qiyofasi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishidir. Shaxsni tarbiyalash — bu uzoq davom etadigan jarayondir.

Xullas, maktab direktori tarbiyaga oid qo'yilgan vazifalarni hal qilish va o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish sistemasini nisbiy ravishda uch ko'rinishga ajratadi. Bular quyidagilardir:

A. Maktabda tarbiya berish.

B. Oilada tarbiya berish.

D. Maktabdan va oiladan tashqarida tarbiya berish.

Bularning har birida rahbarlikning ba'zi bir tashkiliy vositalarini ko'rib chiqamiz. Maktabdagi tarbiya jarayonini direktor o'z yordamchilari orqali, maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ish tashkilotchisi, sinf rahbarlari hamda o'qituvchilar orqali boshqaradi. Bunda u tarbiyaviy ishlarni umummaktab miqyosida rejalashtiradi. Yil davomida pedagoglar jamoasida muhokama qilish uchun barcha xodimlarning bir xildagi tushunishi mumkin bo'lgan prinsipial masalalarni qo'yib boradi. Maktab direktori tarbiyaviy ishlarning kundalik ahvolini darslarga, suhbatlarga, majlislarga, turli mavzulardagi yig'ilishlarga kirish hamda o'quvchilar, ota-onalar, o'qituvchilar bilan doimiy suhbatlashib borish orqali o'rganib boradi va ba'zi yo'l qo'yilgan juz'iy kamchiliklarni yo'l-yo'lakay tuzatib boradi. Direktor tarbiyaviy ishlar sifatini hamda ta'sirchanligini oshirish maqsadida o'qituvchilarning malaka oshirish kurslarini tashkil qiladi. O'qituvchilarning o'z-o'zini boshqarishini yo'lga qo'yadi. Maktabda o'z-o'zini boshqarish organlarining ta'sirchanligi esa unga nisbatan ma'muriyatning va o'qituvchilar jamoat tashkilotlarining e'tibori hamda yaqindan g'amxo'rlik ko'rsatishiga bog'liqdir. Xulosa shuki, maktab direktori sinf rahbarlarisiz, o'qituvchilar jamoasi va ota-onalarning faolligisiz tarbiya berishda kutilgan samaraga erisha olmas ekan. Shuning uchun ham maktab direktori doimo ular kuchiga tayangan holda ish yuritishi va ular bilan muntazam aloqada bo'lib turishi lozim.



## **XXXII BOB. MAKTAB PEDAGOGIK JAMOASI**

### **PEDAGOGIK JAMOANING O'QUV-TARBIYA ISHLARINI UYUSHTIRISHDAGI ROLI**

Maktab oldida turgan ulug'vor vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish butun pedagogik jamoaning mustahkam birlashib ishlashiga bog'liq. Pedagogik jamoaning eng muhim vazifalaridan biri o'zlarining g'oyaviy-siyosiy darajalarini oshirish va o'qituvchilik mahoratini egallash, o'quvchilarni jamoat ishlariga jalb qilish, ta'lim-tarbiya sifatini yaxshilash, ishga xalaqit berayotgan kamchiliklarni bartaraf qilish kabi ishlarda maktab rahbarlariga yordam berishdan iboratdir. O'qituvchilar jamoasi yosh o'qituvchilarning siyosiy, ma'naviy va pedagogik saviyalarini oshirib borishni ta'minlaydi.

Maktabning boshlang'ich jamoat tashkilotlari ham pedagogik jamoani uyushtirishda, ular faoliyatini ta'lim-tarbiya ishlariga jalb etishda muhim rol o'ynaydi.

### **MAKTAB PEDAGOGIK KENGASHI**

Pedagogik kengash maktab direktori huzuridagi maslahat kengashi bo'lib, uning qarorlari o'qituvchilar jamoasining yagona va umumiy fikrini aks ettiradi. Shuning uchun uning ta'sir kuchi katta. Pedagogik kengash qabul qilgan ayrim qarorlar maktab uchun ham, direktor uchun ham majburiy hisoblanadi. Chunonchi, o'quvchilarni sinfdan sinfga ko'chirish masalasi, shuningdek, maktab hayotida ro'y berayotgan muhim vazifalar pedagogik kengashda hal qilinadi. Ularda pedagogik kengashda respublikamizning maktab haqida qabul qilgan qarorlari va ko'rsatmalarini amalga oshirishga doir tadbirlarni belgilash, maktab ta'lim-tarbiya ishlarini yaxshilash, ilg'or o'qituvchi va tarbiyachilarning ish tajribalarini o'rganish va ommalashtirish, ota-onalar jamoatchiligi bilan aloqani mustahkamlash va boshqa masalalar ko'riladi.

Pedagogik kengashda muhokama qilinadigan ayrim masalalar yildan yilga takrorlanaveradi, chunonchi, bir yillik ish rejasini muhokama qilish va tasdiqlash, chorak va yarim yil natijalarini muhokama qilish, imtihonlarga tayyorgarlik, yozgi ta'tilni o'tkazish va boshqalar.

Pedagogik kengashga qo'yiladigan masalalarni tanlash juda muhimdir. Ko'pgina maktablarda kengashda muhokama qilinadigan

masala oldindan o'rganib chiqiladi. Kengash har qaysi masala bo'yicha tegishli qaror qabul qilib, ma'lum shaxslar va bajarilish muddatlarini belgilaydi.

Pedagogik kengashning qarorlari maktabning ish tajribasiga, rahbar tashkilotlarning ko'rsatmalariga va pedagogika fanining yutuqlariga asoslangan bo'lishi kerak. Pedagogik kengashning qarorlari maxsus daftarga yozib boriladi, rasmiylashtiriladi, bajarilishi kuzatiladi va nazorat qilinadi, natijasi navbatdagi yig'ilishda kengash a'zolariga xabar qilinadi. Qarorlar daftari maktabning muhim hujjati bo'lgani uchun uni yuritishga alohida e'tibor beriladi.

Fan komissiyalari va boshlang'ich sinf o'quvchilarining metod birlashmalari ham maktabdagi o'quv ishlarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Maktabdagi har bir fan komissiyasi aslida pedagoglar kengashining komissiyasi bo'lib, u pedagogik kengash rahbarligida ish olib boradi. Pedagogik kengash bilan hamkorlikda fan komissiyasi quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

a) pedagogik kengashga topshirilgan masalani ishlab chiqadi: o'zaro tajriba almashish, darslarni rejalashtirish, kundalik ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarni muhokama qilish;

b) komissiya ba'zi o'qituvchilarning ish tajribasini o'rganadi, umumlashtiradi va natijani pedagogik kengashga ma'lum qiladi;

d) pedagogik kengash topshirig'iga ko'ra ochiq darslar uyushtiriladi va ularning natijasini kengash muhokamasiga taqdim etadi.

### **O'QUV-TARBIYA ISHLARIGA RAHBARLIK**

Maktab ishlariga davlat nomidan umumiy rahbarlikni Xalq ta'limi vazirligi amalga oshiradi. Bunda u maktablarni kengaytirish, moddiy va moliyaviy ta'minlash, pedagogik kadrlarni tayyorlash va taqsimlash, maktab va o'quvchilar ishiga pedagogik rahbarlik va nazorat qilish, ilg'or tajribalarni umumlashtirish va yoyish vazifalarini bajaradi.

Vazirlikning joylardagi bo'limlari viloyat, shahar va tuman xalq ta'limi boshqarmalari bo'lib, Xalq ta'limi vazirligiga bo'y-sunadi.

Bu boshqarmalarning faoliyat doirasi juda keng bo'lib, ular maktab direktori, ilmiy bo'lim mudiri, o'qituvchilar ishi ustidan davlat nazorati o'rnatadi, maktablar qurilishini rejalashtiradi, maktablarni butlash, moliyaviy ishlarga, umumiy ta'lim rejasining bajarilishi, o'qituvchilar malakasini oshirish, turli xil seminarlar

tashkil qilish, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni uyushtirish, ilg'or tajribani o'rganish va yoyish kabi ishlar bilan shug'ullanadi.

Xalq ta'limi boshqarmalari qoshida inspektorlar bo'lib, ular maktab ishi ustidan davlat nazorati o'rnatadilar, o'qituvchilarga malakali yordam beradilar, yaxshi tajribani ommalashtiradilar. Maktabning o'zida bunday nazorat ishlarini olib borish, bunda o'qituvchilar darslarini kuzatish juda muhim o'rin tutadi. Darslarni taxminan quyidagi jadval asosida tahlil qilish mumkin:

a) dars haqida umumiy ma'lumot: sinf, fan, mavzu, o'qituvchi ma'lumoti va ish faoliyati;

b) darsning maqsad va vazifalari, tuzilishi, darsning rejalashtirilishi, vaqtdan foydalanish, sinfning sanitariya-gigiyena sharoiti;

d) darsning mazmuni, berilayotgan materialning dasturga mosligi, ilmiyligi, bolalar yoshiga muvofiqligi, hayot bilan bog'liqligi, yangi texnologiyalardan foydalanish tartibi, mavzu mazmunining tarbiyaviy xarakteri;

e) dars o'tish usuli, yangi dars materialining o'tgan mavzuga qanday bog'lanishi, takrorlash va bolalar bilimini baholash, ko'rsatmali materiallardan foydalanish, o'quvchilarning mustaqil ishlari, uy vazifasining berilishi;

f) o'quvchilarning darsdagi diqqati, qiziqishi, faolligi, ishtiyoqi, intizomi;

g) o'quvchining xulqi, o'qituvchining o'quvchilar bilan muomalasi, sinfni boshqara olishi, nutq madaniyati, tashqi qiyofasi, shu sinf o'quvchilari o'rtasida uning obro'si;

h) darsning natijasi;

i) darsning ijobiy va salbiy tomonlari.

Direktor va uning ta'lim-tarbiya ishlari bo'yicha o'rinbosari qoidaga binoan har kuni ikki soatdan dars kuzatadilar. Kuzatilgan darslar maxsus daftarga qayd qilib boriladi. Darsga kirishdan oldin o'sha darsning mavzusi, rejasi va dasturi bilan tanishib chiqish zarur. Shunda kuzatilgan darsdan to'g'ri xulosa chiqarish va o'qituvchiga foydali maslahatlar berish mumkin bo'ladi. Direktor yoki ilmiy bo'lim mudiri, avvalo, darsni kuzatish maqsadini belgilab oladi. Darslarni kuzatganda ta'lim ishlari bilan umuman tanishish yoki maxsus masalalarni, ya'ni darsning ta'limiy va tarbiyaviy yo'nalishini, o'quvchilarning mustaqil ishini, intizomini aniqlash maqsadi ko'zda tutilishi mumkin.

Maktab rahbarlari tomonidan o'quvchilarning nazorat ishlarini tekshirib turish juda muhim. Chunki bunda, birinchidan, o'quv-

chining u yoki bu fandan qanday o'zlashtirishi, ikkinchidan, o'qituvchining o'quvchilar bilimiga qanchalik to'g'ri baho berganligi aniqlanadi. Natijaga qarab, o'qituvchilarga pedagogik kengashda, direktor huzuridagi yig'ilishda yoki yakka tartibda zarur maslahatlar beriladi yoki rag'batlantiriladi.



### *Savol va topshiriqlar*

1. Pedagogik jamoaning o'quv-tarbiya ishidagi o'rnini qanday tushunasiz, so'zlab bering.
2. Maktab pedagogik kengashining vazifasi nimalardan iborat?
3. Maktab ishlariga davlat nomidan umumiy rahbarlikni kim olib boradi va u qanday ishlarni amalga oshiradi?



---

---

## MUNDARIJA

|              |   |
|--------------|---|
| Kirish ..... | 3 |
|--------------|---|

### *I QISM*

|  |    |
|--|----|
| <i>I bob.</i> Pedagogika va uning ilmiy-tadqiqot metodlari .....                           | 5  |
| <i>II bob.</i> Har tomonlama rivojlangan inson tarbiyasining maqsad va vazifalari .....    | 12 |
| <i>III bob.</i> Bola shaxsining rivojlanishi, tarbiyasi va kamoloti .....                  | 19 |
| <i>IV bob.</i> O'qituvchi va uning jamiyatda tutgan o'rni .....                            | 27 |
| <i>V bob.</i> O'zbekistonda Xalq ta'limi tizimi .....                                      | 48 |
| <i>VI bob.</i> O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimi .....                                  | 55 |
| <i>VII bob.</i> Pedagogik yangiliklar kiritish mazmuni <sup>1</sup> va yo'nalishlari ..... | 69 |

### *II QISM*

|   |     |
|---|-----|
| <i>VIII bob.</i> Didaktika .....  | 81  |
| <i>IX bob.</i> O'qitish jarayoni .....  | 99  |
| <i>X bob.</i> Maktabdagi o'qitishning ta'lim-tarbiyaviy va kamol toptirish vazifalari ..... | 113 |
| <i>XI bob.</i> Ta'lim mazmuni va texnologiyasi .....  | 129 |
| <i>XII bob.</i> Dars ta'limida rivojlantirish texnologiyasi .....                           | 155 |
| <i>XIII bob.</i> Ta'lim qonuniyatlari va qoidalari .....                                    | 188 |
| <i>XIV bob.</i> O'zbekiston maktablaridagi ta'limning mazmuni .....                         | 213 |
| <i>XV bob.</i> O'quv jarayonini tashkil etishning shakllari .....                           | 231 |
| <i>XVI bob.</i> O'qitish metodlari .....  | 252 |
| <i>XVII bob.</i> Muammoli ta'lim .....  | 282 |
| <i>XVIII bob.</i> Programmashtirilgan ta'lim .....  | 299 |
| <i>XIX bob.</i> Innovatsion pedagogika .....  | 310 |

### **III QISM**

|   |     |
|---|-----|
| <i>XX bob.</i> Tarbiya nazariyasi .....   | 318 |
| <i>XXI bob.</i> Milliy tarbiyaning o'ziga xosligi va mezonlari .....                  | 335 |
| <i>XXII bob.</i> Tarbiya usullari .....   | 351 |
| <i>XXIII bob.</i> Mehnat tarbiyasi .....  | 360 |
| <i>XXIV bob.</i> Iqtisodiy tarbiya .....  | 372 |
| <i>XXV bob.</i> Nafosat tarbiyasi .....   | 388 |
| <i>XXVI bob.</i> Axloq-odob tarbiyasi .....   | 398 |
| <i>XXVII bob.</i> Ekologik tarbiya .....  | 408 |
| <i>XXVIII bob.</i> Badan tarbiyasi (jismoniy tarbiya) .....                           | 420 |
| <i>XXIX bob.</i> Bolalar tarbiyasida oila, maktab, mahalla<br>hamkorligi .....        | 434 |
| <i>XXX bob.</i> Maktabda sinfdan tashqari olib boriladigan<br>tarbiyaviy ishlar ..... | 453 |

### **IV QISM**

|  |     |
|--|-----|
| <i>XXXI bob.</i> Maktabshunoslik .....           | 480 |
| <i>XXXII bob.</i> Maktab pedagogik jamoasi ..... | 490 |

**Mavlonova Rahima.**

Pedagogika: Kasb-hunar kollejlari uchun darslik.  
Mualliflar: R. Mavlonova, O. To'rayeva, K. Xoliqberdiyev;  
O'z R Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. O'rta maxsus,  
kasb-hunar ta'limi markazi. „O'qituvchi“ NMTU, 2008. - 496 b.

BBK 74ya722

RAHIMA MAVLONOVA, OYSHA TO'RAYEVA,

KARIM XOLIQBERDIYEV

**PEDAGOGIKA**

*Kasb-hunar kollejlari uchun darslik*

„O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent — 2008

Muharrir *B. Qodirov*

Badiiy muharrir *Sh. Xo'jayev*

Texnik muharrir *S. Tursunova*

Kompyuterda sahifalovchi *F Hasanova*

Musahhihlar *A. Ibrohimov, N. Jumayeva*

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 4.08.2008. Bichimi  
60x90<sup>1</sup>/<sub>16</sub>. Kegli 11 shponli. Tayms garniturası. Ofset bosma  
usulida bosildi. Shartli b.t. 31.0. Nashr t. 31.0. 2- zavod.  
3500 nusxada bosildi. Buyurtma №308.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining „O'qituvchi“  
nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent—129, Navoiy ko'chasi, 30- uy.

// Toshkent Yunusobod dahasi, Murodov ko'chasi, 1- uy.

Shartnoma №12—169—07.